Görüldüğü üzere bu nüsha da oldukça kıymetli bir yazmadır ancak ne yazık ki baştan yaklaşık 300 ve sondan yaklaşık 200 beyit eksik olduğu anlaşılmaktadır. Bu eksiklik sebebiyle de yazmanın istinsah tarihi ve müstensihi belli değildir.

***8. İstanbul Millet Kütüphanesi, Arapça, No. 86, (vr. 89-104, 119-124, 152-166) (İstanbul/Türkiye)***

Bu nüsha oldukça eksik bir nüshadır. Başka bir yazmanın derkenarlarına "Gül ü Nevrûz"un bazı sayfaları yazılmıştır. Bu sayfalar da yaklaşık 20 varaktan ibarettir. Yazmanın müstensihi ve istinsah kaydı bulunmamaktadır.

Bu nüshaların haricinde çeşitli çalışmalarda "Gül ü Nevrûz"un aşağıda belirttiğimiz kütüphanelerde nüshalarının bulunduğu bildirilmiştir. Ancak bu kütüphanelerde yaptığımız incelemeler neticesinde "Gül ü Nevrûz"un herhangi bir nüshasına ulaşamadık. Yine de bir fikir vermesi açasından çeşitli kaynaklarda geçen bu kayıtları aşağıya alıyoruz:

***1.*** *İstanbul Üniversitesi Kütüphanesi, TY. No. 2753 veya No: TY 5452 (İstanbul/Türkiye), (Bu yazma, Çağatay edebiyatından çeşitli şiirlerin yer aldığı önemli bir mecmuadır, ancak içinde Gül ü Nevrûz'a rastlanmadı.)*

***2.*** *Berlin Königlicher Bibliothek, (Pertsch, Wilhelm: Verzeichniss der Türkischen Handschriften der Königlicher Bibliothek zu Berlin, 1889, p. 292b). (A. Asher Und Co., Berlin-1889), (Berlin/Almanya), (Kütüphanenin katalog kayıtlarında Gül ü Nevrûz'a rastlanmadı.)*

***3.*** *Bursa Müze Kütüphanesi, No. 113/156, (Bursa/Türkiye), (Kütüphanenin katalog kayıtlarında Gül ü Nevrûz'a rastlanmadı.)*

***4.*** *Cambridge Nüshası (Nüshanın kaydı yok.), (Londra/İngiltere), (Böyle bir nüsha Cambridge kayıtlarında yok).*

**Eser Üzerinde Yapılan Çalışmalar:**

Lutfî'nin Gül ü Nevrûz'u Özbekistan'da Kiril harfleriyle birkaç kez yayımlanmış; Özbekçe ve Rusça çevirileri yapılmıştır. Türkiye'de ise eser üzerinde bir mezuniyet tezi bir de yüksek lisans tezi yapılmıştır. Ancak bu çalışmalar yayımlanmamıştır.[1] Eser, Türkiye'de ilk kez tarafımızca Türkiye Türkçesine aktarılmış ve kitap formatında yayımlanmıştır (bk. Efendioğlu, 2021). Bunun dışında eser üzerinde gerek yurt içinde gerek yurt dışında makale ve bildiri düzeyinde incelemeler de bulunmaktadır. Aşağıda tüm bu çalışmalar liste halinde sıralanmıştır:

- ABİLOV, S., MAKSUDOVA, Z., "Gul u Navruz Dostonining Kozon Koljazmasi", *Özbek Tili va Adabiyoti*, Vol: 6, 1968, s. 39-41, [The Kazan Manuscript of the Epic Gül u Navriiz].
- CSİRKES, Ferenc Peter, "Lutfî and the Gül ü Nevrûz" *Altaica Budapestinesa MMM II*. Procedings of the 45 th Permonent International Altaistik Conferense Budapest, June 23-28, 2002. Edited by Alice Sarkozi and Attila Rakos. Budapest Eöt vös Lorand Univ. 2003: 79-86.
- ÇIRAK, Ezgi, "Çağatay Edebiyatı ve Mevlânâ Lutfî", *Evrensel Kültür*, Sayı: 223, 2010, s. 51-54.
- DİNÇER, Leman, *Lutfî, "Kitab-ı Gül ü Nevrûz" (Tenkitli Metin-Nüsha Farkları)*, İstanbul Üniv., Edebiyat Fakültesi, Mezuniyet Tezi, İstanbul 1970.
- ERASLAN, Kemal, *"Çağatay Şiiri",Türk Şiiri Özel Sayısı II (Divan Şiiri)*, Türk Dili Dergisi,TDK Yayınları, Sayı: 415-416-417, s. 564-717.
- FAZİLOV, E., "Budapestskaja Rukopis 'Gul u Navruz' Lutfi", *Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hung.*, Vol: 36, No: 1/3, 1982, s.155-166.
- İNCE, Adnan, *"Gül ü Nevrûz Mesnevileri ve Sabir'in Eserinden Seçme Beyitler",* Journal of Turkish Studies: Türklük Bilgisi Araştırmaları (TUBA), Hasibe Mazıoğlu Armağanı, Cilt: II, Sayı: 22, Harvard Univ., 1998, s. 103-131.
- İSHAKOV, Y., "Gul va Navruzning Muallifi Masalasida", *Özbek Tili va Adabiyoti*, 1972/1, s. 59-67, [On the Author of Gül u Navruz].
- İSLAMOV, R. F., "O Kazanskom Spiske Poemı Gul' va Navruz Uzbekskogo Poyeta Lutfi" *UDK 82 (=512.133) "14" (092), s.1-3.*
- ORAK, Bayram, *Lutfî'nin Gül ü Nevrûz'u Gramer İndeksi*, Dokuz Eylül Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı, Yüksek Lisans Tezi, İzmir, 1995.
- RUSTAMOV, A., "Gul va Navruzning Muallifi Togrisida", *Özbek Tili va Adabiyoti*, 1972/3, s.38-41, [On the True Identity of th Author of Gül u Navruz].
- VALİHOJAYEV, B., "Yana Gul va Navruz Bahsiga Doir", *Özbek Tili va Adabiyoti*, 1979/1, s. 50-53, [Once More About the Gül u Navruz].
- EFENDİOĞLU, Süleyman, *Mevlânâ Lutfî, Gül ü Nevrûz (Dil İncelemesi, Metin ve Aktarma, Gramatikal Dizin, Tıpkıbasım)*, Fenomen Yayıncılık, Erzurum, 2021, 658 s.)[2].

**Gül ü Nevrûz'un Özbekistan ve Rusya Yayınları:**

- DALİMOV, S., DALİMOV, U., *Lutfî, Gül ve Nevrûz,* Okıtuvçı Neşriyat, 2. Baskı, Taşkent, 1982.

---

[1]Bu çalışmaların ilkinde (mezuniyet tezi), *Gül ü Nevrûz*'un Laleli nüshasıyla British Museum nüshasının karşılaştırmalı tenkitli metni verilmiştir. Diğer çalışmada (yüksek lisans tezi) ise mezuniyet teziyle hazırlanmış olan metnin, gramatikal dizini oluşturulmuştur. (bk. Leman Dinçer, *Lutfî, "Kitab-ı Gül ü Nevrûz" Tenkitli Metin-Nüsha Farkları*, İstanbul Üniversitesi, Edebiyat Fakültesi, Mezuniyet Tezi, İstanbul 1970; Bayram Orak, *Lutfî'nin Gül ü Nevrûz'u Gramer İndeksi*, Dokuz Eylül Üniversitesi, Yüksek Lisans Tezi, İzmir, 1995).

[2]Tarafımızca hazırlanan bu çalışmada, söz konusu eserin, dünyanın farklı kütüphanelerine dağılmış olan pek çok yazma nüshasının temini (fotokopileri, mikrofilmleri veya dijital makinelerle çekilmiş fotoğrafları, CD'leri vb.) sağlanmış; daha sonra elde edilen orijinal yazma metinler ışığında eserin edisyon kritik yöntemiyle transkripsiyonu yapılarak Latin alfabeli tenkitli metni oluşturulmuştur. Ardından eser, Türkiye Türkçesine aktarılarak günümüz Türk okuyucularının ve araştırıcılarının istifadesine sunulmuştur. Eserin dil incelemesi de yapılarak gramer özellikleri (ses bilgisi, şekil bilgisi, cümle bilgisi) tespit edilmiş, böylece Türkçenin tarihî gelişiminin aydınlatılmasına bilhassa günümüz Orta Asya Türk lehçelerinin tarihine ve gelişimine ışık tutulmaya çalışılmıştır. Gül ü Nevrûz'un söz varlığını (kelime hazinesini) ve dil özelliklerini ortaya çıkarabilmek için metinde geçen tüm kelimelerin, kelime gruplarının ve işletim eklerinin anlamlarıyla beraber işlevlerini içine alan kapsamlı bir "gramatikal sözlük dizin" ve "çekim ekleri dizini" hazırlanmıştır. Bu sayede Çağatay dilinin kelime, ek ve anlam dünyasının belirlenmesine ve Türkçenin tarihsel sözlüğünün hazırlanmasına katkıda bulunulmuştur.

- ERKİNOV, S., FAZİLOV, E., AHMEDXUCAYEV, E., *Lutfî,Sensen Severim,(Gazeller, Rübailer, Kıt'alar, Tuyuğlar, Gül ve Nevrûz Destanı)*, Gafur Gulam Edebiyat ve Sanat Neşriyatı, Taşkent, 1987.
- ERKİNOV, S., *Lutfi, Gul' i Navruz*, Taşkent, 1959.
- LİPKİN, S., *Lutfi, Lirika, Gul' i Navruz,* (Perevod s Uzbekskogo), Moskva, 1961.

**Diğer Gül ü Nevrûzlar:**

**a) İran Edebiyatında Gül ü Nevrûzlar:**

Gül ü Nevrûz isimli ilk telif eser, İranlı şair Celaleddin Tabib'e aittir.

- Celaleddin Tabib → *Gül ü Nevrûz*, Eser mesnevi tarzında yazılmış toplam 1181 beyit. Vezni: *me fâ î lün / me fâ î lün / fe û lün*, Yazılış tarihi: m.1333. Eserin Nüshası: Süleymaniye Kütüphanesi, Ayasofya Kitaplığı, No: 3857, (488b-511a).

İran edebiyatında Celal Tabib'den sonra Hacu-yı Kirmanî de bir Gül ü Nevrûz mesnevisi yazmıştır:

- Hacu-yı Kirmanî → *Gül ü Nevrûz,* Beyit sayısı: 3868, Yazılış tarihi: m.1341, Eserin nüshası: Topkapı Sarayı Müzesi Ktp., No: H.796, (118b-146a).

**b) Türk Edebiyatında Gül ü Nevrûzlar:**

Türkçe yazılmış beş Gül ü Nevrûz mesnevisi vardır. Bu eserlerin tamamı Celaleddin Tabib'in *Gül ü Nevrûz*'unun tercümesi niteliğindedir. Ancak bu eserlerin hepsi tercümeyi aşarak telif niteliği kazanmışlardır:

- Mevlana Lutfî → *Gül ü Nevrûz,* Eser Çağatay Türkçesiyle yazılmış. 1245 beyit, Yazılış tarihi: m.1441 (Türk edebiyatında yazılan ilk Gül ü Nevrûz budur. Yukarıda eserle ilgili tafsilatlı bilgi verilmiştir.)

Eserin Vezni: *me fâ î lün / me fâ î lün / fe û lün*

- Muhibbî → *Gül ü Nevrûz,* Anadolu sahasında yazılan eser, mesnevi tarzında ve aruzun *fâ i lâ tün / fâ i lâ tün / fâ i lün* kalıbıyla kaleme alınmıştır. Beyit sayısı: 7374, Yazılış Tarihi: m.1536. Eser üzerinde İbrahim Delice bir doktora çalışması yapmıştır. Eser Cemşid ü Hurşid'lerden de yararlanılarak genişletilmiştir. Ancak temelde Celal Tabib'in eseri vardır. Hatta İbrahim Delice, Muhibbi'nin bu eseri Lutfî'nin mesnevisini Anadolu Türkçesine dönüştürmekten başka bir şey değildir demektedir. (bk. İbrahim DELİCE, *Niğdeli Muhibbi "Gül ü Nevrûz" (İnceleme-Metin-Dizin) 2 Cilt*, Fırat Üniv., Sosyal Bilimler Enstitüsü, Yayımlanmamış Doktora Tezi, Elazığ, 1995.)
- Abdî → *Gül ü Nevrûz,* Anadolu sahasında yazılmıştır. Yazılış tarihi: m.1577. Eserin Tek Nüshası Manisa İl Halk Kütüphanesi Nu: 2714'de kayıtlıdır. Prof. Dr. Adnan İnce, geniş bir tanıtım yazısıyla beraber eserin çeviri yazılı metnini yayımlamıştır. (bk. Adnan İNCE, *"Abdî'nin Gül ü Nevrûz Mesnevîsi",* TÜBAR-XXIII/2008, Bahar, s. 51-130.)
- Sabir Mehmit Parsa → *Gül ü Nevrûz,* Anadolu sahasında yazılmıştır. Yazılış Tarihi: m.1648-1680, Beyit Sayısı: 882, Celal Tabib'in eserine en sadık tercümenin bu olduğu söylenmektedir. Eser üzerinde Süleyman Çaldak bir çalışma yapmıştır. (bk. Süleyman ÇALDAK, *Sabir Parsa'nın Gül ü Nevrûz'u*, Malatya, 2000.)
- Muidî → *Gül ü Nevrûz,* Anadolu sahasında yazılmıştır. Yazılış tarihi: m.1535. (16. yüzyıl şairlerinden Kalkandelenli Muidi'nin Gül ü Nevrûz adlı bir mesnevisi olduğu çeşitli kaynaklarda belirtilmekle birlikte şimdiye dek metni ele geçmemişti, ancak son yapılan araştırmalarla eserin bir nüshası tespit edilmiş ve eser yayımlanmıştır: (bk. Gülşah TAŞKIN, "Kalkandelenli Muîdî'nin Gül ü Nevrûz'u", *Divan Edebiyatı Araştırmaları Dergisi,* Sayı: 12, İstanbul, 2014, s. 177-190; Gülşah TAŞKIN, *Kalkandelenli Muîdî, Gül ü Nevrûz (İnceleme, Metin, Tıpkıbasım)*, Simurg Yayınları, İstanbul, 2015).

**Sonuç**

Orta Asya Klasik Türk Edebiyatının öncülerinden kabul edilen XIV-XV. yüzyıl büyük Çağatay şairi Mevlânâ Lutfî'nin, meşhur Fars şair Celaleddin Tabib'den serbest tercüme yoluyla Türkçeye kazandırdığı *"Gül ü Nevrûz"* adlı Türkçe mesnevisi, gerek Türk dili tarihi açısından gerekse Türk edebiyatı açısından çok kıymetli bir eserdir. Eser yazıldığı günden itibaren sevilerek okunmuş ve kendinden sonra yazılan *Gül ü Nevrûz*'lara kaynaklık etmiştir. *Gül ü Nevrûz*'un değişik yayınlarda 10'un üzerinde nüshasının bulunduğu belirtilmiş olsa da biz şu ana kadar eserin 8 farklı

yazma nüshasına ulaşabildik. Bu nüshaların şu an fotokopileri veya CD'leri elimizde mevcuttur. Eseri tüm bu nüshalar ışığında yayımlamış bulunmaktayız (bk. Efendioğlu, 2021). Söz konusu yayında eserin karşılaştırmalı çeviri yazılı metninin haricinde Türkiye Türkçesine aktarması, geniş bir dil inceleme kısmı ve gramatikal sözlük dizini de yer almaktadır. Ayrıca çalışmamızın sonunda *Gül ü Nevrûz*'un Laleli nüshasının tıpkıbasımı da yer almaktadır. Böylece eser, tüm yönleriyle gün yüzüne çıkarılarak günümüz okuyucularının hizmetine sunulmuştur.

**Kaynakça**


Abilov, Şakir; Maksudova, Zeyneb. (1968). "Gul u Navruz Dostonining Kozon Koljazmasi". *Özbek Tili va Adabiyoti*, Vol: 6, s. 39-41.

Argunşah, Mustafa. (2014). *Tarihî Türk Lehçeleri, Çağatay Türkçesi*. İstanbul: Kesit Yayınları.

Baydemir, Hüseyin. (2017). "Yakubcan İshakov, Gül ve Nevruz Mesnevisinin Müellifi Meselesi". (Aktaran: Prof. Dr. Hüseyin BAYDEMİR). *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, Sayı: 59, Aralık, 2017, s. 233-244). Erzurum.

Barutçu Özönder, Fatma Sema. (1996). *Ali Şir Nevayi, Muhâkemetü'l-Lügateyn*. Ankara: TDK Yay.

Birnbaum, Eleazar. (1993). "Çağatay Şairi Lutfî (Hayatı ve Eserleri)". *İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi*, Cilt: 26, s.189-193.

Csirkes, Ferenc Peter. (2003). "Lutfî and the Gül ü Nevrûz". *Altaica Budapestinesa MMM II.Procedings of the 45 th Permonent International Altaistik Conferense Budapest, June 23-28, 2002*. (s. 79-86). Edited by Alice Sarkozi and Attila Rakos. Budapest: Eöt Vös Lorand Univ.

Çaldak, Süleyman. (2000). *Sabir Parsa'nın Gül ü Nevrûz'u*. Malatya.

Çırak, Ezgi. (2010). "Çağatay Edebiyatı ve Mevlânâ Lutfî". *Evrensel Kültür*, Sayı: 223, s. 51-54.

Dalimov, S., Dalimov, U. (1982). *Lutfî, Gül ve Nevrûz*. Taşkent: Okıtuvçı Neşriyat. 2. Baskı.

Delice, İbrahim. (1995). *Niğdeli Muhibbi "Gül ü Nevrûz", (İnceleme-Metin-Dizin)*. 2 Cilt. Yayımlanmamış Doktora Tezi. Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Elazığ.

Dinçer, Leman. (1970). *Lutfî, "Kitab-ı Gül ü Nevrûz" (Tenkitli Metin-Nüsha Farkları)*. Yayımlanmamış Lisans Tezi. İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi, İstanbul.

Eckmann, Janos. (2009). *Çağatayca El Kitabı.* Günay Karaağaç (Çev.). İstanbul: Kesit Yayınları. 4. Basım.

Efendioğlu, Süleyman. (2021). *Mevlânâ Lutfî, Gül ü Nevrûz (Dil İncelemesi, Metin ve Aktarma, Gramatikal Dizin, Tıpkıbasım)*, Erzurum: Fenomen Yayıncılık.

Eraslan, Kemal. (1993). "Çağatay Edebiyatı", "Lutfî, Çağatay Şairi" *Türkiye Diyanet Vakfı İslam Ansiklopedisi*, Cilt: 8, 27, s. 168-176, 231-233. Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları.

Eraslan, Kemal. (1999). *Mevlâna Sekkâkî Divanı*. Ankara: TDK Yay.

Eraslan, Kemal. (2015). *Ali Şir Nevayi, Mecâlisü'n-Nefâyis I-II (Giriş-Metin-Çeviri-Notlar)*. Birleştirilmiş 2. Baskı. Ankara: TDK Yay.

Erkinov, Sadir. (1959). *Lutfi, Gul' i Navruz*. Taşkent.

Erkinov, S., Fazilov, E., Ahmedxocayev, E. (1987). *Lutfî,Sensen Severim,(Gazeller, Rübailer, Kıt'alar, Tuyuğlar, Gül ve Nevrûz Destanı)*. Taşkent: Gafur Gulam Edebiyat ve Sanat Neşriyatı.

Fazilov, E. (1982). "Budapestskaja Rukopis 'Gul u Navruz' Lutfi". *Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hung.*, Vol: 36, No: 1/3, s.155-166.

Gözütok, Avni. (2008). *Haydar Tilbe, Mahzenü'l-Esrar, (Gramer-Metin-Dizin-Tıpkıbasım).* Erzurum: Fenomen Yayınları.

Hofmann, H. F. (1969). *Turkish Literature a Bio-Bibliographical Survey*. 6 Cilt. Utrecht.

İnce, Adnan. (1998). "Gül ü Nevrûz Mesnevileri ve Sabir'in Eserinden Seçme Beyitler". *Journal of Turkish Studies: Türklük Bilgisi Araştırmaları (TUBA), Hasibe Mazıoğlu Armağanı,* Cilt: II, Volume: 22, s.103-131. Harvard University.

İnce, Adnan. (2008). "Abdî'nin Gül ü Nevrûz Mesnevîsi". *(TÜBAR),* Sayı: XXIII, Bahar, s. 51-130.

İshakov, Yakubcan. (1972). “Gul va Navruzning Muallifi Masalasida”. *Özbek Tili va Adabiyoti*, Sayı: 1972/1, s. 59-67. Taşkent.

İslamov, R., F. (2014). “O Kazanskom Spiske Poemı Gul’ va Navruz Uzbekskogo Poyeta Lutfi”. *UDK,* 82 (=512.133), “14” (092), s.1-3.

Karaağaç, Günay. (1997). *Lutfî Divanı (Giriş-Metin-Dizin-Tıpkıbasım)*. Ankara: TDK Yay.

Köktekin, Kâzım. (2000). *Seyyid Ahmed Mirza, Taaşşuknâme,(İnceleme-Metin-Dizin-Tıpkıbasım).* Erzurum: Atatürk Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Yayınları.

Köprülü, M. Fuad. (1988). “Çağatay Edebiyatı”. *Millî Eğitim Bakanlığı İslam Ansiklopedisi*, Cilt: 3, s. 270-323. İstanbul: MEB Yayınları.

Lipkin, S. (1961). *Lutfi, Lirika, Gul’ i Navruz.* (Perevod s Uzbekskogo). Mosk.

Lugal, Necati. (1997). *Tezkire-i Devletşah*. 2 Cilt. İstanbul: MEB Yay.

Orak, Bayram. (1995). *Lutfî’nin Gül ü Nevrûz’u Gramer İndeksi*. Yayımlanmamış Yüksek Lisans Tezi, Dokuz Eylül Üniversitesi, İzmir.

Ölmez, Zühal. (2007). “Çağatay Edebiyatı ve Çağatay Edebiyatı Üzerine Araştırmalar”. *Türkiye Araş. Literatür Dergisi*, Cilt: 5, Sayı: 9, s.173-220.

Rüstemov, Alibek. (1972). “Gul va Navruzning Muallifi Togrisida”. *Özbek Tili va Adabiyoti*,Sayı: 1972/3, s. 38-41. Taşkent.

Taşkın, Gülşah. (2014). “Kalkandelenli Mu’îdî’nin Gül ü Nevrûz’u”. *Divan Edebiyatı Araştırmaları Dergisi,* Sayı:12, s. 177-190. İstanbul.

Taşkın, Gülşah. (2015). *Kalkandelenli Muîdî, Gül ü Nevrûz (İnceleme, Metin, Tıpkıbasım)*, İstanbul: Simurg Yayınları.

Valihojayev, B. “Yana Gul va Navruz Bahsiga Doir”. *Özbek Tili va Adabiyoti*, Sayı: 1979/1, s. 50-53. Taşkent.

Vural, Hanifi vd. (2010). *Çağatay Türkçesi*. Tokat: Taşhan Kitap Yay. 2. Baskı.

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TILSHUNOSLIKKA DOIR QARASHLARI
## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR'S VIEWS ON LINGUISTICS

***Z.Xolmanova,***
***ToshDO‘TAU professori,***
***filologiya fanlari doktori***

**Annotatsiya:** maqolada Boburning tilga munosabati, tilshunoslikka doir qarashlari, o‘zbek tili taraqqiyotining muhim jihatlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar aks ettirilgan. Ma’lumotlar “Boburnoma” asari asosida yoritilgan. “Boburnoma”ning til imkoniyatlari, tilshunoslik sohasi uchun muhim qiymatga ega bo‘lgan ma'lumotlar jamlangan bo‘lib, o‘zbek leksikasi, o‘zbek tili tarixi, tilning lug‘aviy sath qonuniyatlari, tarixiy leksikologiya masalalari yoritilgan. Eski o‘zbek adabiy tili lug‘aviy taraqqiyotiga xos qonuniyatlar, turkiy so‘zlarning ma'no noziklikiari aks ettirilgan.

**Abstract:** the article provides information on Bobur's attitude to language, his views on linguistics, and important aspects of the development of the Uzbek language. The information is based on the work "Boburnoma". Boburnoma contains important information for the field of linguistics, Uzbek lexicon, history of the Uzbek language, the lexical level of the language, historical lexicology. The laws of lexical development of the old Uzbek literary language and the subtleties of the meaning of Turkic words are reflected.

***Kalit so‘zlar:*** *Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma” asari, tilshunoslik, grafika, onomastika, etimologiya, leksikografiya, leksema, sema, til imkoniyati, til qonuniyati.*

***Keywords:*** *Zahiriddin Muhammad Babur, "Boburnoma", linguistics, graphics, onomastics, etymology, lexicography, lexeme, sema, language possibilities, language law.*

Bobur nomi dardchil, chuqur insoniy tuyg‘ular, ruhiy evrilishlar aks etgan o‘tli satrlari hamda “Boburnoma” memuaridagi san'atkorona tasvirlarni ongimizda jonlantiradi. Shoir

she'riyatining o‘quvchi shuuriga singib ketishi, “Boburnoma”ning dunyo afkor ommasi tomonidan e'tirof etilishi, jahon memuarining nodir namunasi sifatida tan olinishi, shuhrati bir qator omillar bilan belgilanadi. Avvalo, “Boburnoma”dagi ifoda teranligi, fikr-hissiyotlarning yorqin aks ettirilishi, voqyelikning mohirona tasvirini ta'kidlash lozim. Muallif fikr-mulohazalarini maqsadga muvofiq tarzda, aniq, ta'sirchan aks ettirgan. Bobur til imkoniyatlarini chuqur anglagan va undan mahorat bilan foydalangan. Bobur qarashlarining o‘zbek tili taraqqiyotidagi o‘rnini tahlil qilganda, dastavval, mualifning tilga munosabati, so‘z qo‘llash mahorati haqida so‘zlash joiz.

Boburning tilga munosabati, tilshunoslikka doir qarashlari, o‘zbek tili taraqqiyotining muhim jihatlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar “Boburnoma”da o‘z ifodasini topgan.

Boburning tilshunoslikka oid talqinlari o‘zbek tili taraqqiyotida alohida qiymatga ega. Ijodkor qarashlari quyidagi yo‘nalishlarga oiddir.

***Bobur, avvalo, qomusiy bilimga ega bo‘lgan so‘z san’atkoridir.*** “Boburnoma” XV – XVI asrlar eski o‘zbek adabiy tili leksik xususiyatlari mujassamlangan qomus, voqyelik ravon uslubda bayon etilgan, betakror badiiy tasvir vositalari orqali ifodalangan sermazmun manbadir. “Boburnoma” memuar janrda yozilgan bo‘lib, voqyelikning sinchkov, teran aql-idrok, chuqur bilim, tengsiz xotira sohibi bo‘lgan muallif idroki orqali bayon etilishi asar tilining o‘ziga xosligini ta'minlagan. “Boburnoma” tilining o‘ziga xosligi, voqyelikning ta'sirchan, mukammal tasviri muallifning yozma nutq ko‘nikmalarini to‘liq egallagani, fikr-mulohazalarini maqsadga muvofiq tarzda, aniq aks ettirishi, til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati bilan ham belgilanadi.

“Boburnoma” leksikasi o‘zbek tili tarixini o‘rganishda, lug‘aviy sath qonuniyatlarini, tarixiy leksikologiya masalalarini yoritishda, eski o‘zbek adabiy tili lug‘aviy taraqqiyotiga xos qonuniyatlarni, leksik-semantik jarayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

“Boburnoma” til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish namunasi bo‘lishi barobarida, tilshunoslik sohasi uchun muhim qiymatga ega bo‘lgan ma'lumotlar jamlangan manba sifatida ham ahamiyatlidir. Taniqli tilshunos olim A.Nurmonov Boburni tilshunoslikning grafika, onomastika, etimologiya, leksikografiya sohalari rivojiga munosib ulush qo‘shgan olim sifatida tilga oladi. Mirortuq Mirabdulla o‘g‘li Boburni “atamashunos”, “Boburnoma”ni “muhim atamashunoslik manbai”, deb ta'riflagan bo‘lsa, T.Nafasov Boburni nomshunos olim sifatida e'tirof etadi. Zokirjon Mashrab o‘g‘li Bobur mirzoning seysmologiyaga oid jarayonlarni ilk bor o‘zbek tilida izohlagan olim ekanligini qayd etgan.

***Bobur til va jamiyat masalalarini yoritgan olimdir***. Voqyelikni tasvirlar ekan, jumladan, xalqlarning muloqot tili tili borasida to‘xtaladi: *Janubiy tarafdag‘i qasabalar(din) bir Andijondurkim, vasatta voqi' bo‘lubtur... Eli turkdur. Shahr va bazorisida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rostdur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim, Hirida nash’u namo topibtur, bu til biladur.* (79,I)[1] Bobur Navoiyning “shu til bila shuhrat topgan”ligini ta’kidlagan. X. Doniyorov bu fikrni tilshunoslikka oid bo‘lgan qimmatli ma'lumotlardan biri sifatida baholagan[2] (bu ma’lumot Alisher Navoiy asarlari tilining dialektal asosi masalasini yoritishga xizmat qiladi).

Kobul viloyati ta’rifida xalqning o‘zaro muomala tili haqida so‘z yuritadi: *O‘n bir-o‘n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo‘g‘uliy, hindiy, afg‘oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg‘oniy.*(189) Ushbu ma’lumot muayyan hududdagi aholining bir necha ko‘rinishdagi muloqot tili haqida tasavvur beradi.

***Bobur – turkiy so‘zlar targ‘ibotchisi.*** Bobur eng qadimgi davrlarga oid so‘zlarni qo‘llagan. Masalan, “safdosh do‘st” ma'nosidagi *emaldosh* so‘zini ishlatgan....*bir necha ko‘kaltosh, emaldosh va boyrisi Sulton Mas'ud mirzoni olib... (66,II); aka* so‘zini ayollarga nisbatan qo‘llagan. *Maxfiy kishilar borib akam bila yanga bila, Poyanda Sultonbegimni “aka” der edim. (255/146,I) Aka* so‘zi Pave de Kurteyl lug‘atida “ona” ma’nosidagi mo‘g‘ulcha so‘z, deb izohlangan. Bu so‘z oltoy umumtaraqqiyot davriga xos bo‘lib, hozirgi ayrim turkiy tillardagina saqlanib qolgan. Matndan bu so‘zning martabasi ulug‘ ayollarga nisbatan ishlatilgan murojaat shakli ekanligi ma'lum bo‘ladi.

[1] Мисоллар «Бобурнома»нинг 1960, 2002 йилдаги нашрлари асосида берилди.
[2] Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили.-Т., 1972.

“Boburnoma”da turkiy so‘zlar keng ko‘lamda ishlatilgan (*uyrushmak, to‘ngmoq, oldaramoq, orqalanmoq* kabi). Bobur turkiy so‘zlarning ma'no nozikliklarini tezfahmlik bilan ilg‘agan va mahorat bilan qo‘llagan. Masalan, s*o‘z* birligini quyidagi ma’nolarda qo‘llagan: a) “xabar”: *...Xisravshohdin ko‘ngulga yoqqudek so‘z kelturmadi, vale el va ulusdin so‘zlar kelturdi (178/102,I)*; b)“gap“: *Xisravshohning mo‘g‘ullaridin davlatxohona so‘zlar arz qildi (178/102,I);* v) “hodisa”: *Tengrig‘a ravshandurkim, mendin va menga taalluq eldin hyech ish va so‘ze voqye' bo‘lmadikim, sababi muncha kudurat va niqor bo‘lg‘ay (220/127,I);* g) “xabar“: *Bir gariy, ikki gariy o‘lturub, ul tarafdin – bu tarafdin so‘z va hikoyat aytildi (181/104,II)*; d) “hikmat”: *Shayx Sa'diy so‘zining mazmunining xilofi voqi' bo‘ldi: Nechukkim, “Guliston”da kelturubtur: ”Dah darvesh dar yak gileme bixusband va du podshoh dar iqlime nagunjand*” *(246/140,II);* ye) “fikr”: *...g‘olibo agar so‘z aning emas* (244); j) “qaror”: *O‘shul so‘zda edukkim, Boboyi Parg‘ariy dedikim, men ham borib istarmen, ul ham ikki yigit inisi bilan ittifoq qilib otlanduk (176/100, II).*

“Boburnoma”da s*o‘z* leksik birligi *un* bilan juftlashib, “ma’lumot“, “xabar“ ma'nosida kelgan: *...Xoja kelsunlar, har nekim farmon bo‘lubtur, yetkursunlar, so‘z-unni so‘zlashib borsunlar (417/241,II)*; Hozirgi o‘zbek adabiy tilida “nutq birligi” sifatidagi *so‘z (O‘TIL,II,94)* va “tovush”, “ovoz” ma’nosidagi *un (O‘TIL,II,277)* so‘zlari uchraydi. Ammo mazkur so‘zlarning birikkan holda qo‘llanishi va “Boburnoma”da ifodalangan ma'nosi kuzatilmaydi. Bu juft so‘zni eski o‘zbek adabiy tiliga xos birlik sifatida baholash mumkin.

“Boburnoma” matniga xos harakat-holat so‘zlaridan biri *yukun-* harakat leksemasidir. *Yukun-* “egilmoq, tiz cho‘kmoq” (BAL,173); “hurmat, ta'zim yuzasidan egilmoq” (NAL,712) ma'nolarida izohlangan. Bu fe’l qadimgi turkiy tilda “bukla” ma'nosini anglatgan *yuk-* fe'lining “buk” ma'nosidan o‘zlik nisbat yasovchi *-un* qo‘shimchasi bilan hosil qilingan (O‘TEL,183). “Boburnoma”dagi “yukundim”, “qo‘pmoq”, “ta'zim qildi”, “burung‘idek=o‘q ta'zim qilib qo‘ptum”, “ko‘rushurda uch qatla yukunib..”, “..yigirma besh, yigirma olti qatla payopay yukundi”, “yurub ko‘rushib otlanildi” kabi so‘z, birikma, iboralarda shaxs fe'l - atvorining turli qirralari hamda davlat arbobining mavqyeini belgilovchi nozik ma'no va mazmun yashirin.[1] *Yukun-* qadimgi turkiy tilda “sajda qilmoq” ma'nosini bildirgan: *jükün “*poklonyatsya, klanyatsya “(DTS,285). Turkiy *yuk-, yukunch* “ta’zim qilmoq”, “topinmoq”, “sajda qilmoq” so‘zining asosi *yuka* shaklida sug‘d tilida bitilgan eng qadimgi Bug‘ut yodnomasida uchraydi.[2]

*Yukun-* so‘zi qadimgi turkiy tilda, asosan, “ibodat chog‘idagi egilish” tushunchasini ifodalagan. *Yukun-* so‘zining semantik tarkibida “ta’zim qilmoq” semasi yetakchi hisoblanadi. Ammo *yukun-, ta'zim qilmoq* leksik birliklari anglatgan ma'no aynan teng emas. Asarda *...yirag‘din yukunub, ... ta'zim qilib, mening oyog‘imga yiqildilar (175);...ta'zim va ehtiromlari jihatidin yukundim, alar ham yukundilar* (301) kabi o‘rinlarda “yukunmoq”, “ta'zim qilmoq” so‘zlarining alohida-alohida keltirilishi ularning aynan teng tushunchani ifodalamasligini ko‘rsatadi. *Yukun*=da faqatgina jismoniy egilish emas, “butun vujudi, borlig‘i bilan egilish” anglashiladi. *Ta'zim qil*=da, asosan, vujudning egilishi tushuniladi. *Yukun*= fe'li ruhiy holat, harakat, insoniy ehtirom ifodasi hamdir: *uydin kirgach, uch yukundim* (89). “Bu so‘z shaxsning mansabi, jamiyatdagi mavqyei, kim kimga bo‘ysunishi va boshqa jihatlarni bildirgan. Quyi mavqyedagi shaxs yuqori martabali kishiga yukungan. Yukunish miqdori esa yukunayotgan shaxsning nochor holati yoki muayyan g‘ururini bildirgan. Temuriylar saroyida bu qonunga aylangan tartib bo‘lgan.”[3]

“Yukunmoq”ning shunchaki yoki astoydil bajarilgani asar tilida o‘z ifodasini topgan. “Shunchaki, bir bor” egilish tushunchasi *birar* olmoshi bilan birgalikda aks ettirilgan: *Ko‘rushurda uch qatla yukunub, yong‘anda ham uch qatla, so‘rg‘anda va tortuq tortqanda birar yukundi* (181). Ushbu jumladagi *biror yukundi* birikmasida “harakatning nomiga bajarilganlik” semasi aks etgan. “Astoydil, ko‘p bora egilish” tushunchasi *qalin yukundi* birikmasida ko‘zga tashlanadi: *Tortiq tortqanda ham qalin yukundi* (160). *Yukunish* har qanday vaziyatda ham bajarilishi lozim bo‘lgan tavoze’ ko‘rinishi hisoblangan: *Oldarag‘ondin yukunub kelguncha ikki qatla yiqildi...*(264).

[1] Қудратуллаев Ҳ. Юкуниш сиёсати // Тафаккур.-2004.-№3. -Б. 83.
[2] Исҳоқов М., Содиқов Қ., Омонов Қ. Мангу битиглар.-Тошкент: ТДШИ,2009.-Б.12.
[3]Кудратуллаев Ҳ. Юкуниш сиёсати //Тафаккур.- 2004.-№ 3.-Б. 83.

Asarda qo‘llangan *yukun-* so‘zi o‘ziga xos tavoze'ni ma'nosini, milliy mulozamat etiketini aks ettirishga xizmat qilgan. So‘z shaxsning o‘zgalarga munosabati, mansabi, lavozimi haqida ma'lum tasavvur beradi: *Avval Poyanda Sultonbegim bila yukunub ko‘rushtum, andin so‘ng Ofoqbegim bila yukunmay ko‘rushtum, andin keyin Xadichabegim bila yukunub ko‘rushtum (252/144).* Bu o‘rinda shaxsning Poyanda Sultonbegim va Xadichabegimga bo‘lgan hurmati va Ofoqbegimga nisbatan salbiy munosabati “yukunmoq” so‘zi orqali ifodalangan; “...ortiqcha iltifot, birinchi bo‘lib yukunish, kelishilgan joydan o‘tib so‘rashish kishi obro‘yiga salbiy ta'sir etgan”.[1]

Yukunishning takroriyligi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Odatiy hollarda bir qatla, tavoze’ yuqoriroq bo‘lsa uch qatla, samimiy hurmat, mulozamat qilinganda to‘qqiz qatla “yukunilgan”: *Ko‘rushurda uch qatla yukunub, yong‘anda ham uch qatla, so‘rg‘anda va tortuq tortqanda birar yukundi* (181).Yukunish shaxs bilan yuzma-yuz ko‘rishish jarayonida bajarilgan: *Ko‘rushur yerga yetishib to‘qquz qatla yukunub kelib ko‘rushti* (160). Hukmdor shaxs huzuridan chiqishda ham ado etilgan: *Yong‘anda ham kichik xon to‘qquz qatla yukundi (160).* Harakatning takroriyligi me'yordan oshsa, bu tavoze'dan ko‘ra ko‘proq uzr, afvni ifoda etgan. *Yigirma besh, yigirma olti qatla payo-pay yukundi va bordi va keldi* (181). ”Bobur Xisravshoh ta'zimini atayin sanagan (25-26 marta), bunga diqqat qilgan. ... mag‘lublik holatini muallif saroy rasm-rusumidagi zodagonlar xatti- harakati, temuriylar saltanatchilik qoidalari orqali ifodalagan”[2] ; *bordi va keldi* so‘zlari *yukunish*ning yuqori darajasidan keyingi harakat- holatni ifodalagan.

*Yukun-* fe'li hozirda ruhiy holat, harakat ifodasi sifatida faqat badiiy uslubda qo‘llanadi, “ta'zim qilmoq”, ”iltijo qilmoq” ma'nolarini ifodalaydi (O‘TIL,II,466). So‘zning qadimgi turkiy tildagi “sajda qilmoq”, eski o‘zbek adabiy tilidagi “ta’zim qilmoq” ma'nolari iste'moldan chiqqan. *Yukun=* so‘zining “Boburnoma”dagi ma'nolari harakat-holat darajasi tahlili uchun muhim manba bo‘ladi.

Bobur turkiy tillarga xos iboralardan mahorat bilan foydalangan, o‘zi ham iboralar tuzgan. Masalan, “o‘lmoq” tushunchasining *shunqor bo‘lmoq-, qaro oldur*moq, *ko‘k saroyga chiqar*moq iboralari bilan ifodalanishi “Boburnoma” tili uchun xosdir: ...*Umarshayx mirzo jardin kabutar va kabutarxona bila uchub, shunqor bo‘ldi* (64).

*Ko‘k saroyga chiqar-* iborasida “o‘lmoq” tushunchasi ham kinoya, ham shaxsning nasl-nasabiga ishora ma'nosi asosida ifodalangan. Bobur Ko‘ksaroyni “oliy imorat” deb ta'riflaydi. *Temuriylardan har kim taxtga o‘ltursa ham munda o‘lturur, har kim taxt doiyasi bila bosh qo‘ysa ham munda qo‘yar... (95).* Sulton Ali Mirzoni Ko‘ksaroyga chiqarib, ko‘zlariga mil tortdiradilar. Bundan ko‘rinadiki, ayrim jazo ko‘rinishlari, jumladan qatl qildirish ham Ko‘ksaroyda amalga oshirilgan: *Hattokim, kinoyati bo‘lub edikim, falon padshohzodani ko‘k saroyg‘a chiqardilar, ya'ni o‘lturdilar* (95). *Ko‘k saroyga chiqarmoq* iborasida “o‘lmoq” tushunchasi aloqadorlik asosidagi ma'no ko‘chishi natijasida yuzaga kelgan.

*Bosh olib it-* iborasida ruhiy holat ifodalangan. Qalloshlik (shuhratsizlik, e'tiborsizlik)dan ozorlangan va xorlik tortgan, sargardon kezishdan charchagan Bobur *bosh olib itmak* (yo‘qolmoq)ni istaydi: *Dedimkim, mundoq dushvorliq bila tirilguncha, bosh olib itsam yaxshi* (159). Bu o‘rinda kin-adovatga to‘la zaminni tark etish, bu olamdan ketish istagi ifodalangan. Ibora tarkibidagi *it*mak so‘zi turkiy *yitmoq* (“yo‘qolmoq” , “g‘oyib bo‘lmoq”) ma'nosidagi so‘zning fonetik o‘zgargan shakli bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydi, ayrim shevalarda narsa-buyumlarga nisbatan ishlatiladi. Mazkur iborada ruhiy toliqish, bevafolik va xiyonatdan azoblanish, barcha noxushliklardan ko‘z yumish tuyg‘ulari aks etgan. *Bosh olib itish* (o‘lish) inson xohishiga ko‘ra amalga oshmasligini yaxshi anglagan muallif dunyoning narigi burchiga, uzoqroqqa ketishni istaydi: *Bu nav' xorliq va zorliq bila el bilguncha oyog‘im yetgancha ketsam yaxshi* (159). Va xohishini amalga oshirishga qaror qiladi: *Xitoyg‘a bormoqni jazm qilib, bosh olib ketmakka azm qildim* (159).

Bunday leksik birliklar Boburning turkiy tilni qadrlagani, unutilib borayotgan so‘zlarni keng qo‘llashga harakat qilgani, arabcha, forscha-tojikcha so‘zlar o‘rnida turkiy birliklarni ishlatgani, yangi voqyelik, narsa-hodisani turkiy tilda nomlaganini ko‘rsatadi. Bobur ayrim terminlarni

[1] Қудратуллаев Ҳ. Юкуниш сиёсати //Тафаккур.- 2004.-№ 3.-Б. 85.
[2] Қаранг: Қудратуллаев Ҳ.Бобур армони.-Тошкент: Шарқ, 2005.-Б.87.

bevosita o‘zi qo‘llagan. *“*Qo‘shinni yorib hujum qiluvchi qism”ni *yorqunchi, ko‘mak* deb atagan. Ba'zi o‘zlashgan so‘zlarni turkiy tilga moslashtirishga harakat qilgan. Jumladan, hindcha numerativlarni turkiy yoki adabiy tilda keng iste'molda bo‘lgan variantiga almashtirgan. *Bu **kuruh**larni **nil** bila muvofiq tayin qilindi. (423)* Voqyelikni aks ettirish, narsa-hodisani tasvirlash jarayonida leksik birliklarni okkazional ma'nolarda qo‘llagan, yangi so‘zlarni istifoda etgan. Arabcha, forscha-tojikcha so‘zlardan ichki imkoniyatlar asosida yasalgan yangi leksik birliklarni qo‘llagan. M.,“suyaklar tizimi” ma'nosini ifodalovchi *ustuxonbandlig‘* so‘zini adabiyotdagi ***shakl*** termini ma'nosida ishlatgan: *...agarchi ba'zi baytlari tavre voqi' bo‘lubtur, vale bu masnaviyning mazmun va ustuxonbandlig‘i bisyor kovak va xarobtur. (139,II)*

Asarda xalqning urf-odat, an'analarini aks ettiruvchi so‘zlar qo‘llangan. Bobur qo‘llagan turkiy leksika xalq turmush tarzi, dunyoqarashi, marosimlari borasida yaqqol tasavvur uyg‘otadi. Muallif Kobul (hijriy to‘qqiz yuz yigirma beshinchi yil) voqyealarini tasvirlar ekan, yozadi: O‘*sha yerda yilqiron oshini tortturuldi.* (311) Ushbu jumladagi *yilqiron oshi* “vabo, o‘lat yillarida qilinadigan xudoyi oshi” ma'nosini ifodalagan: *Yilqiron oshi,* dastavval, vabo, o‘lat yillarida qilingan va xalqning shu balolardan xalos bo‘lish umidini ifoda etgan. Keyinchalik, balo yoki qiron(ning) kelishidan saqlashni so‘rash marosimiga aylangan (“Boburnoma”da shu ma'noda qo‘llangan).

Asar matnida uchraydigan *yadachi* termini dehqonchilik bilan bog‘liq professionalizm bo‘lib, *“*yada keltirish” marosimini uyushtiruvchi shaxs*“* ma'nosini bildirgan: *Sulton Abusaid mirzog‘a xizmat qilg‘on davrida yadachilik da'vosini qilur edi.* (71) Qadimgi turkiy tilda “yada toshi bilan fol ochmoq” tushunchasi *yatla-* so‘zi bilan ifodalangan.[1] Eski o‘zbek adabiy tili davriga kelib *yatla-* iste'moldan chiqqan. “Boburnoma”da bu tushunchani anglatish uchun *yada qilmoq* qo‘shma fe'li qo‘llangan: *To‘xta Bo‘g‘a Sulton yada qilg‘on ekandur.* (434)

***Bobur fonetika, orfoepiya sohalariga oid muhim fikrlarini bayon qilgan***. Nomlash jarayonida tovush o‘zgarishi, talaffuzning o‘rnini ko‘rsatgan. Jumladan, *Hast* (a.) antroponimi *Asad* so‘zining hindistonliklar nutqidagi talaffuz asosida shakllanganini yozadi: *Suhon suyining navohisidag‘i el va ulusning hokimining oti Malik hast edi, asli oti Asaddur. Hindustoniylar mundoq harakatlarni gohi sokin o‘qurlar, nechukkim, “xabar”ni “xabr” derlar, “asad”ni “asd” debturlar, bora-bora “hast” bo‘lubtur. (166,I)* Bu matn hindistonliklarning unli tovushlarni ifodalovchi harakatlarni talaffuz qilmasliklari haqidagi muhim faktdir.

So‘z talaffuzi asosida nomning shakllanishi toponimlarda ham kuzatiladi. M., *Kashmir* toponimi *kash* etnonimi talaffuzi asosida yuzaga kelgan. Bobur *Kashmir* etimologiyasiga qiziqadi, ammo aniq ma'lumotga ega bo‘la olmaydi: *...Hinduston elidin muncha tahqiq va taftish qilildi, hyech kim bu tavoyifdin tahqiq xabar ayta almadi. (342/197,II)* Tog‘lik aholining *kas* deb nomlanishi, hindistonliklarning “*shin”* harfini “*sin*” tarzida talaffuz qilishlariga e'tibor qiladi. *Kashmir* toponimini *kas* qabila nomi talaffuziga bog‘laydi: *Ushmuncha deydurlarkim, bu tog‘ elini Kas derlar. Xotirg‘a yettikim, Hinduston eli “shin”ni “sin” talaffuz qilur. Chun bu tog‘da mu'tabar shahr Kashmirdur... “Kasmir” demish bo‘lg‘aylar (342/197,II).*

*Lamg‘onot* viloyatining nomlanishida ham talaffuz asosga olingan. Mazkur toponimning nomlanishini Bobur Nuh payg‘ambarning otasi Mehtar Lom ismiga aloqador, deb biladi: *Ba'zi tarixta Mehtar Lomni Lamak (Lamkon) ham debturlar* (110,II). Bobur bu toponim etimologiyasini Alishang aholisining “kof” o‘rniga “g‘ayn” talaffuz etishlari bilan bog‘lagan: *Ul elni xili mulohaza qililibturkim, ba'zi mahal “kof” o‘runig‘a “g‘ayn” talaffuz qilurlar, bu jihattin g‘olibo bu viloyatni Lamg‘on debturlar (110,II).* “Kof”ning “g‘ayn” tarzida talaffuz etilishi *k~g‘* fonetik hodisasi haqida ma'lumot beradi.

***Boburning alifbo va imlo masalalariga oid faoliyati, fikr-mulohazalari ham e'tiborga molik***. U arab yozuvining murakkabliklarini qayd etgan holda, “Boburiy xati”ni yaratdi. Turkiy til fonetik tizimiga moslab yaratilgan bu yozuv qisqa muddatda bo‘lsa-da, joriy qilingan: *Mirzobek tag‘oyidin ham Kamrong‘a tarjima va Hindqa kelgali aytqon ash'or va “Bobiriy xati” bila bitilgan sarxatlar yiborildi (429). Sarxat* “yangi husnixat mashq qiluvchi uchun ko‘rsatma sifatida muallim

[1] Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. II.-Т.,1960.-Б. 410.

tomonidan yozib beriladigan xat namunasi".[1] Sarxat namunaviy shakldagi husnixat bo‘lib, ma'rifiy maqsadga xizmat qilgan. Sarxat milliy kalligrafiya taraqqiyoti haqida muayyan tasavvur beradi. *Sarxat*ning "Boburiy xati"da bitilganligi mazkur alifboning muayyan vaqtda amalda bo‘lganidan dalolat beradi. "Boburnoma"ning 2002 yildagi nashrida "Boburiy xati"ning topilgani, bu yozuvda Qur'on ko‘chirilganligi haqida ma'lumot beriladiki, mazkur yangilik ma'naviyat ravnaqi uchun muhim ahamiyatga molikdir.[2]

"Boburnoma"da muallifning so‘z imlosiga munosabati, yozma nutq haqidagi mulohazalari ham aks etgan. Bobur imlo masalalariga, ayniqsa, arabcha so‘zlar imlosiga alohida e'tibor bergan. Boburning so‘z imlosiga munosabati, yozma nutq haqidagi fikrlari borasida o‘g‘li Humoyunga yozgan maktubi ahamiyatlidir. Bu maktubida ism imlosi va ma'nosiga e'tiborli bo‘lish; ota-onaning farzandga muvofiq ism berish farzi haqida; imlo masalalari; husnixat va uning ahamiyati; til va tafakkur munosabati; fikrni to‘g‘ri, aniq ifodalash zarurati borasida so‘z yuritgan. Bobur o‘g‘lining xatiga oid tanbehlar beradi, xatosiz yozishga undaydi. Uni rag‘batlantirishga urinsa-da, bir qator imlo xatolarini ko‘rsatib o‘tadi: *Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni "to" bila bitibsen. Qulunjni "yo" bila bitibsen (244)*. Fikrni nutq imkoniyatlari orqali ta'sirchan ifodalash ko‘nikmalarini puxta egallagan Bobur ("Boburnoma"ning uslubi bunga dalil) o‘g‘lidan ham shuni talab qiladi. U "*...xatingni xud tavr qilib o‘qusa bo‘ladur, vale bu mug‘laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo‘lmaydur*"(421) deb yozadi, ya'ni mantiqsiz tuzilgan uslubiy nomuvofiq jumlalarni rad etadi. Boburning yozma nutqqa nisbatan talabchanlik asosidagi mulohazalari bugungi kun uchun ham muhim qiymatga ega. Boburning Humoyunga yozgan xati avlodlarga yozilgan maktub maqomidagi qiymatga egadir.

***Bobur – chog‘ishtirma tilshunoslik asoschilaridan biri.*** Agar X asrda Mahmud Koshg‘ariy bir oilaga mansub yigirmata tilni qiyosiy jihatdan o‘rganib, qiyosiy tilshunoslikka asos solgan bo‘lsa, Mirzo Bobur uch oilaga kiruvchi bir necha tilni solishtirib o‘rganishning ajoyib namunasini ko‘rsatib, dunyo tilshunosligida yangi nazariyaning asoschisi sifatida maydonga chiqdi.[3]

Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug‘atayn"da ikki tilni solishtirib, chog‘ishtirma tilshunoslikka asos solgan bo‘lsa, Bobur bir necha til negizidagi chog‘ishtirma tilshunoslik nazariyasini yaratdi. Boburnoma"da XV – XVI asr eski o‘zbek adabiy tili lug‘at boyligi bilan bir qatorda, eski o‘zbek adabiy tiliga xos hamda Bobur faoliyati bilan bog‘liq forscha-tojikcha, hindcha, pushtu, urdu tillariga oid so‘zlar qo‘llangan. Asarda muallifning turli tilga doir so‘zlar qiyosi asosidagi fikrlari aks etgan. Muallif ijod jarayonida ayrim atamalarning boshqa tildagi (fors-tojik yoki hind tilidagi) muqobillarini keltiradi. Bundan ikki xil maqsad ko‘zda tutilgan. Birinchidan, Bobur asarda keng qo‘llangan ba'zi forscha-tojikcha hamda hindcha terminlar ma'nosini o‘quvchiga yetkazishga harakat qilgan. Ikkinchidan, voqyelik, narsa-hodisaning mohiyatini yanada kengroq yoritishga intilgan. Masalan, forscha ***pos*** va hindcha ***pahr*** terminlari haqida shunday fikr bildiradi: "*Hind eli kecha-kunduzni oltmish qismat qilibturlar, har qaysini bir giri debturlar, yana kechani to‘rt va kunduzni to‘rt qismat qilibturlar. Har qaysini bir pahr debturlarkim, forsiysi pos bo‘lg‘ay*" (358). ***Pahr*** terminining boshqa viloyatlar aholisi tilida ishlatilmasligini ham ta'kidlaydi: *Ul viloyatlarda pos va posbon eshitilur edi, bu xususiyat bila ma'lum emas* edi (358). Hindcha ***giri***ning forsiyda yoki turkiyda muqobili bo‘lmagan (agar bo‘lganida Bobur keltirib o‘tgan bo‘lar edi). Bundan kecha-kunduzni oltmish qismga ajratib nomlash faqat hindlarga xosligi ayon bo‘ladi.

"O‘tloq" ma'nosini ifodalovchi ***julga*** va ***dun*** leksemalari ham bir ob'ektni nomlovchi ikki xil til birligidir. Bobur "Hinduston tili bilan "julga"ni "dun" dermishlar" tarzida izoh beradi. Har ikki so‘zni ham sinonim sifatida qo‘llaydi.

"Tuman" terminining andijonliklar va koshg‘arliklar tilida ***o‘rchin***, hindlar tilida ***pargana*** deb yuritilishini ta'kidlaydi. Bu bilan turli xil tillarning nomlash xususiyatlarini o‘zaro qiyoslaydi.

---

[1]Навоий асарлари луғати. Порсо Шамсиев таҳрири остида.-Тошкент, 1972. -552-б.; (NAL, 552; Таджикско-русский словарь.Под редак. М. В. Рахими и Л. В. Успенской -М.: Гос. изд. ин. и нац. словарей, 1954.-с.345.

[2] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: "Шарқ" НМАК, 2002. –Б. 336 +32 б. Зарварақ.

[3] Тўйчибоев Б. Бобур тилшуносликда янги назария яратувчи//Ўзбек тили ва адабиёти-1992.-№1.-Б.41-42.

Nabotot (o‘simliklar) guruhida keltirilgan meva nomlarini boshqa tildagi muqobillariga solishtiradi: *anba (nag‘zak), kayla (*arabcha *mavz), anbuli (xurmoyi hindiy), mahva (gul chikon), biyr (*forscha *kunor), chirunchi (daraxti ko‘hiy), norgil (norjil,).* Bunda muallif o‘quvchiga notanish leksik birliklarni izohlashga harakat qilgan.

***Bobur – semantika bilimdoni***. Bobur so‘zlarni semantik guruhlarga ajratib izohlagan. Hindiston tabiatining avvalgi (birinchi), ikkinchi, uchinchi iqlimdanligini yozgan. Hayvonlar nomini bildiruvchi so‘zlarni ikki guruhga ajratgan. Quruqlikda yashaydigan jonzotlarni “hayvonot” *(fil, kark, govmish),* suvliklarda yashaydigan jonzotlarni “suv hayvonoti” (*sheri obiy, sepsor)* deb nomlagan. Parrandalar nomini *qushlar* (*tovus, to‘ti, lo‘cha), suvda va suv yoqalarida bo‘ladigan qushlar* ( *ding, soras, mannik)* tarzida guruhlagan.

“Boburnoma”da nomlar shunchaki qayd qilinmagan, balki nomlarning mohiyati yoritilgan izohlar keltirilgan:

-muayyan xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan narsa-hodisalar umumlashtirilgan va ularga xos muhim jihat bilan nomlangan: M., sitrus mevalar “norunj mushobihi meva” deb atalgan va *limu, turunj, sangtora, chanbiriy, sadofal, amradpal, amalbed* kabilar shu xil meva sifatida ta'riflangan. To‘tining turlarini bildiruvchi so‘zlar keltirilgan: *jangaliy, Kashmir to‘tisi, shorak, vin shorak;*

– narsa-hodisa, hayvon nomi bilan birga uning sinonimi ham keltirilgan (yoki shu narsa-hodisaning tasviriy ifodasi qo‘llangan): *Yana nuvldur, kishdin juzviy kichikrak bo‘lg‘ay. Yig‘ochqa chiqar. Ba'zi mushi xurmo ham derlar (200,I);*

– qayd etilgan hayvonning Hindiston tabiatiga xosligi *maxsusi*, xos emasligi *maxsusi emas* birliklari orqali ifodalangan: *Agarchi bo‘dana Hinduston maxsusi emasdur, vale to‘rt-besh jins bo‘danadurkim, Hinduston maxsusidur (201,II);*

– Kobul viloyati iqlimi ikkiga ajratilgan: *garmser* - issiq iqlim, *sardser* - sovuq iqlim. Mevalar iqlimga mos ravishda guruhlangan: *garmseriy mevalar* (issiq iqlimda o‘sadigan mevalar)**:** *norunj, turunj, amluk, nayshakar; sardseriy mevalar* (sovuq iqlimda o‘sadigan mevalar): *uzum, anor, o‘ruk, olma, behi, amrud, shaftolu, olu, sanjid* kabilar;

– ko‘p hollarda alohida ajratib atalmagan narsa-hodisa nomlari keltirilgan. Jumladan, filning xartumi yonidagi uzun tishlarning *oj* deb yuritilishi aytilgan: *Xartumining ikki yonida yuqqorig‘i engagida ikki uluq tishi bor... Oj bu tishlarni derlar (199,I);*

– Bobur tasvir jarayonida semantik tahlil borasida to‘xtaladi. *Darmiyon* antroponimi etimologiyasini keltirar ekan, mazkur laqab bilan sifatlangan shaxsning hal qiluvchi damda (g‘anim qasd qilganda yoki Husayn mirzo otsiz qolganda) oraga tushganini (“joniga oro kirgani”ni) ta'kidlagan: *Yana Shayx Abdusa'idxon Darmiyon edi. Bilmon, bu urushta mirzog‘a ot kelturubmudur yo mirzog‘a qasd qilg‘on g‘animni daf' qilibmudur, ul jihattin bu laqab bila mullaqab bo‘lubdur (134,II).*

Hozirgi tilshunoslikda leksemalarni maydon nazariyasi asosida talqin qilishga, semalar tahliliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bir umumiy sememaga birlashuvchi leksemalarni muayyan arxisema asosida o‘rganishning dastlabki namunalarini “Boburnoma”da ko‘rish mumkin. Masalan, Bobur “zamon” sememasini ifodalovchi bir qator leksemalarni keltirgan. “Zamon” tushunchasi asarda quyidagi mezonlar asosida ifodalangan: a) “zamon” tushunchasi uchun xoslangan *asr, oy, yil, fasl, hafta soat, pos, pahr, giri, gari, pul, daqiqa* terminlari bilan aks ettirilgan; b) muayyan hodisaning amalga oshish muddati bilan ifodalangan: *bir sut pishimi;* v) toat-ibodat, namoz ko‘rinishlarini bildiruvchi *namozi bomdod, namozi peshin, namozi digar (namozi asri), namozi shom, namozi xufton* kabilar orqali aks ettirilgan. Shu bilan bir qatorda Bobur vaqtni o‘ziga xos qiyoslar bilan ifodalagan:*...bir kecha kunduz 28 ming sakkiz yuz “Qulhuvalloh”ni bismillo bila o‘qug‘uncha bo‘lg‘ay...(359); ... bir kecha-kunduz 216 ming ko‘zni yumib ochguncha bo‘lg‘ay...(359); ...bir kecha-kunduz 8640 navbat “Fotiha”ni “bismilloh” bila o‘qug‘uncha bo‘lg‘ay (358).* Bularning hammasi 24 soat, 1440 daqiqaga teng keladi.

**Bobur so‘z etimologiyasiga doir fikrlarini bayon qilgan.** *Darmiyon, Olachaxon, Kark, Asad* antroponimlari, *Qarshi, Kashmir Lamg‘onot, Hotiypul, Balda'i mahfuza, Ko‘hi Safid, Hodarvesh Seyoron, Ko‘hi Safid, Ko‘hi Jud, Savolak parbat, Shohi Kobul* toponimlari, *Laqlaqa, Muqatta',Chinixona* kabi masjid nomlari, *Kakka, Nilagov, Murg‘aki Qarshi* singari

zoonimlar etimologiyasini keltirgan. Bobur topoleksemaning semantik jihatdan kengayishini izohlagan: arablarning o‘zlaridan boshqa xalqlarni *ajam* deyishlari kabi hindlarning ham Hindistondan boshqa joylarni *xuroson* deyishlarini ta'kidlagan*: Hindustoniy g‘ayri Hindustonni “xuroson” der. Nechukkim arab g‘ayri arabni ajam der (107,II)*.

Bobur voqyelikni ifodalashda o‘ziga xos leksik birliklarni istifoda etgan: *devon kuni* “majlis kuni”, *tuna-kun* “o‘tgan kuni”, *oxir zamon* “hukmronlikning keyingi yillari” *bosh-ko‘z qilmoq* “e'zozlamoq”, *ilgida xamir bo‘lmoq* “mute bo‘lmoq”, *xeyli umr topmoq* “uzoq umr ko‘rmoq”, *oriyati qo‘yulmoq* “orlanmoq”. “O‘lmoq” tushunchasining *shunqor bo‘lmoq, qaro oldurmoq, ko‘k saroyga chiqarmoq* iboralari bilan ifodalanishi “Boburnoma” tili uchun xosdir. Shahar nomlari bilan bir qatorda ularning mohiyat-e'tiborini yorituvchi tasviriy ifodalarni ham qayd etgan: *Balda'i mahfuza* (Samarqand): *Hyech yog‘iy qahr va g‘alaba bila munga dast topmag‘an uchun baldayi mahfuza derlar (59,I)*. Samarqandning mo‘g‘ul va turkiy tilga xos ifoda shaklini ham keltirgan: *Mo‘g‘ul va turk ulusi Semirqand derlar (59,I).*

“Boburnoma”dagi kuzatishlar xalq etimologiyasiga asoslangan bo‘lib, Bobur o‘z munosabatini bildirib o‘tgan.

Bobur ijodidagi tilshunoslikka oid talqinlarni kuzatar ekanmiz, muallifning o‘zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash imkoni tug‘iladi. Bu esa mumtoz madaniy merosimiz qadr-qimmatini anglashda; jamoat arboblari va ijodkorlarning til taraqqiyotidagi xizmatlarini bilishda, hozirda o‘zbek tilshunosligida yangicha yo‘nalish deb qaralayotgan ba'zi sohalarning ayrim muammolari ajdodlarimiz tomonidan o‘rtaga tashlanganligini anglashda muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Мисоллар саҳифаси “Бобурнома”нинг 1960 йилдаги нашри асосида келтирилди, фарқлар кузатилган ўринларда / белгисидан кейин 2002 йидаги нашр саҳифаси, матн устуни кўрсатилди.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2002. –Б. 336 +32 б. Зарварақ.
3. Тўйчибоев Б. Бобур тилшуносликда янги назария яратувчи//Ўзбек тили ва адабиёти-1992.-№1.-Б.41-42.
4. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. II.-Т.,1960.-Б. 410.
5. Навоий асарлари луғати. Порсо Шамсиев таҳрири остида.-Тошкент, 1972. -552-б.; (NAL, 552; Таджикско-русский словарь.Под редак. М. В. Рахими и Л. В. Успенской -М.: Гос. изд. ин. и нац. словарей, 1954.-с.345.


## ALİ ŞİR NEVÂÎ’DE DİL BİLİNCİ
## LANGUAGE CONSCIOUSNESS IN ALİSHER NAVOİ


**Dr.M.Gümüş,**
***Kırgızistan-Türkiye Manas Üniversitesi Öğretim Görevlisi***



**Özet:** Türk dünyası edebiyatının 15. yüzyıldaki en büyük şairi ve ileri görüşlü edebî şahsiyeti Ali Şir Nevâî, verdiği eserlerle, sahip olduğu dil bilinciyle asırlar boyu bütün Türk lehçelerinin bilim, edebiyat, eğitim ve sanat dili olmasına katkı sağlamıştır. Çocukluk çağından başlayarak hayatı boyunca yazdığı eserleriyle dönemindeki ve takip eden yüzyıllarda birçok şairi etkilemiştir. Dil insan ilişkisi açısından bireyde dil gelişimi kuramları; çocukların isteklerine yön veren sesleri taklit etmelerine dayalı “davranışçı yaklaşım kuramı”, yetişkinlerin model alındığı “sosyal etkileşim kuramı” ve Chomsky'nin temsilcisi olduğu “psiko-linguistik yaklaşım” kuramına göre Ali Şir Nevâî’nin çocukluk çağındaki dil oluşumu ve gelişimine bağlı olarak küçük yaşta şairliğini kabul ettirmesi dikkat çekicidir. Arap ve Fars dillerinin çok etkin olduğu bir dönemde Türkçe eserler yazma bilincine sahip olmasının irdelenmesi gerekmektedir. Çalışmamızda dil bilincine sahip insanların yaşadığı toplumda ortak kültür ve medeniyetin oluşmasına, milletleşme sürecindeki etkisine değinilmiştir. Dil bilincinin bireylerdeki kişilik özelliklerine etkisiyle birlikte yazarların,

şairlerin ve sanatkârların bu bilinçlenmedeki rolüne dikkat çekmek için amacıyla Ali Şir Nevâî'de dil bilinci konusuyla ilgili bazı tespitler dile getirilmiştir.

**Anahtar kelimeler:** *15.yüzyılda Türkçe, Ali Şir Nevâi, dil bilinci, psiko-linguistik yaklaşım.*

Alisher Navoiy ‘Muhokamat ul-lug‘atayn’da o‘zbek va fors tillarini chog‘ishtirar ekan, asarda muallif turli til oilalariga mansub bo‘lgan bu tillarning umumiy va farqli tomonlari, belgi-xususiyatlariga to‘xtaladi, ularni tahlil qiladi, muhim ma’lumotlar beradi. Navoiy turkiy (o‘zbek) tilning o‘ziga xos jihatlari, adabiy-badiiy asarlar yaratishda ham bu tilning ustuvor, ulug‘vor til bo‘la olishini, shunga ko‘ra, fors tili bilan bemalol raqobat qila olishini, hatto ayrim o‘rinlarda, tasviriylik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan undan ilgari keta olishini bayon qiladi, asoslaydi. Turkiy tilning so‘z qo‘llash bobida ham o‘ziga xosliklarga, ustunliklarga egaligini asoslaydi, she’riy baytlar orqali o‘quvchida ishonch hosil qildiradi. Asarning qimmatligi yana shundaki, amaliy jihatdan muallif unda o‘sha davrdagi turkiy tilda (o‘zbek) qo‘llanilayotgan til imkoniyatlarini, boyligini yoritish maqsadida quyidagi yuzta fe’lni keltiradi: *quvormoq, quruqshamoq, usharmoq, jiyjaymoq, o‘ngdaymoq, chikirmak, dumsaymoq, umunmoq, usanmoq, igirmoq, egarmoq, uxranmoq, toriqmoq, aldamoq, arg‘adamoq, ishonmoq, iglanmoq, aylanmoq, erikmak, igranmak, ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo‘zg‘almoq, sovrilmoq, chayqalmoq, devdashimoq, qiymanmoq, qizg‘onmoq, nikamoq, saylanmoq, tanlamoq, qimirdanmoq, serpmak, sirmamak, ganorgamak, sig‘riqmoq, sig‘inmoq, qilimoq, yolinmoq, munglanmoq, indamak, tergamak, tevramak, qing‘aymoq, shig‘aldamoq, singramoq, yashqamoq, isqarmoq, ko‘ngranmak, suxranmoq, siypamoq, qoralamoq, surkanmoq, kuymanmoq, ingramoq, tushalmoq, mung‘aymoq, tanchiqamoq, quruqsamoq, bushurg‘anmoq, bo‘xsamoq, kirkinmak, sukadamak, bo‘smoq, burmak, turmak, tamshimoq, qahamoq, sipqormoq, chicharkamak, jurkanmak, o‘rtanmak, sizgurmoq, gurpashlamak, chiprutmak, jirg‘amoq, bichimoq, kikzanmoq, singurmak, kundalatmak, kumurmak, bikirmak, ko‘ngurdamak, kinarkmak, kezarmak, do‘ptulmoq, chidamoq, tuzmak, qazg‘anmoq, qichig‘lamoq, gangiramak, yadamak, qadamoq, chiqanmoq, ko‘ndurmak, so‘ndurmak, suqlatmoq.* Ayta olamizki, hazrat Navoiy bu asarda o‘zbek lafzida tilshunoslik bo‘yicha ilmiy ish yaratish uslubini, yozma ilmiy bayon texnikasini yaratib berish bilan birga, uning ilmiy atamashunosligini ham ishlab chiqdi va asoslab bera oldi. Shu jihatlari bilan ushbu asar o‘zbek va jahon fani uchun g‘oyat qadrli fundamental tadqiqot sanaladi.

Navoiyning ushbu asari qo‘lyozmasining bugungi kunimizga qadar yetib kelgani biz uchun ham faxr, ham bebaho xazinadir. Hozirda dunyo qo‘lyozmalari fondida “Muhokamatu-l-lug‘atayn”ning to‘rtta qo‘lyozmasi ma’lum:

1. Nusxalardan birinchisi Istanbuldagi To‘pqopi saroyi muzeyi Revan kutubxonasida saqlanayotgan Navoiy kulliyotidan o‘rin olgan. Ushbu qo‘lyozma, taxminlarga qaraganda, mavjud nusxalarning eng eskisidir.

2. Asarning yana bir nusxasi Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Fotih bo‘limida saqlanayotgan Navoiy kulliyotiga kirgan.

3. Parij nusxasi. Ushbu nusxa Milliy kutubxonada saqlanayotgan Navoiy kulliyoti tarkibida. Qo‘lyozma 1526-1527-yillarda ko‘chirilgan.

4. Asarning yana bir qo‘lyozmasi Budapeshtda saqlanmoqda.[1]

“Muhokamatu-l-lug‘atayn”ning qo‘lyozmalari orasida To‘pqopi va Parij nusxalari matniy jihatdan bir-biriga juda yaqin: To‘pqopida qaysi joylari tushib qolgan bo‘lsa, Parij qo‘lyozmasida ham deyarli shunday.

Asarning Fotih kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozmasi boshqa nusxalardan birmuncha farq qiladi. Muhimi shundaki, To‘pqopi va Parij qo‘lyozmalarida uchramaydigan so‘z va jumlalar ushbu nusxada to‘ldirilgan; tekstologik jihatdan bu nusxaning o‘ziga yarasha afzalligi ham bor.[2]

Navoiy o‘z asarida chog‘ishtirish-komparativistikaning tayanch usullarini ixtiro etgan. Chunonchi, u tillarning qanday birliklari va qatlamlari solishtirilsa, asosli ilmiy natijalarga erishish mumkinligini ham ko‘rsatgan. Ana shu maqsadda Navoiy o‘zbek tilining so‘z boyligini ko‘rsatish orqali forsiyda muqobili bo‘lmagan yuqorida keltirib o‘tganimiz yuzta fe’lni keltirgan. Qizig‘i shundaki, asarning bizga yetib kelgan qo‘lyozmalarida fe’llarning soni turlicha berilgan: To‘pqopi va Parij nusxalarida to‘qson to‘qqiz, Fotih va Budapesht nusxalarida yuztadir. Ushbu ikki nusxada boshqa qo‘lyozmada tushib qolgan yuzinchi fe’l ham bor. U *chimdilamoq* fe’li bo‘lib, ketma-ketlikda *qichig‘lamaq* so‘zidan keyin keladi.

Ta’kidlash o‘rinliki, qo‘lyozmalarda jumlalarning tuzilishida ham farqli jihatlari bor. Masalan, To‘pqopi va Parij qo‘lyozmalaridagi ayrim jumlalar Fotih qo‘lyozmasida tahrir qilingan yoki avvalgi ikki qo‘lyozmada uchramaydigan jumlalar Fotih qo‘lyozmasida to‘ldirilgan. Bir-ikkitasini ko‘chirish chog‘ida tushirib qoldirilgan, deyish mumkindir, lekin orada muhim ma’lumotlar ham kiritilgan bo‘lib, ular til va uslub jihatidan Navoiyning jumlalari, bularni asarga muallifdan boshqa kishi kiritishi imkonsiz.

Masalan, To‘pqopi qo‘lyozmasida: *Forsiygo‘y turk beglar-u mirzodalar “bo‘xsamaq”ni forsiy til bila tilasalar-ki, ado qilg‘aylar*.Ushbu gap Fotih qo‘lyozmasida *Forsiygo‘y turk beglar-u mirzodalar “bo‘xsamaq”ni forsiy til bila tilasalar-ki, ado qilg‘aylar, ayo ne nav’ qilg‘aylar”* deb berilgan. Orada yirik-yirik jumlalar ham farq qiladi.

Navoiy asarlari tilida singarmonizmga (tovushlar uyg‘unligi) “temir qonun” sifatida amal qilgan. Bu narsa tovushlar tizimini anglashga ham imkon beradi. Masalan, muallif keltirgan misollarda “yo‘g‘on” o‘zak-negizli so‘zlarga masdar ko‘rsatkichining **-maq** varianti qo‘shiladi: *qurug‘samaq, aldamaq, qistamaq, yalinmaq* singari; “ingichka” talaffuzli so‘zlarga esa **-mäk** varianti qo‘shiladi: *igirmäk, indämäk, surkänmäk, o‘rtänmäk* singari. Ko‘rinadiki, Navoiy tilida orqa qator, “yo‘g‘on” a bilan old qator, “ingichka” ä ning har ikkovi mustaqil fonemalar sifatida amal qilgan.

“Muhokamatu-l-lug‘atayn”da jonivorlarning harakatini anglatuvchi fe’llar bilan bog‘liq qiziq bir misol bor. Asarning Anqara nashrida bu misol shunday berilgan: *Uy mungramagiga va ishak ingramag‘ig‘a va it tegishmag‘ig‘a va ulimag‘ig‘a lafz yo‘qtur*. Muhimi shundaki, ushbu jumla asarning To‘pqopi qo‘lyozmasida yo‘q, Fotih qo‘lyozmasida esa bor.

Ushbu jumladagi kelishik qo‘shimchalarining qo‘shilish tartibiga e’tibor qaratilsa, quyidagi holatga duch kelamiz: *tegishmak* so‘zi “ingichka” o‘zakli bo‘lishiga qaramay, unga qo‘shimchaning “yo‘g‘on” varianti qo‘shilmoqda: *tegishmag‘ig‘a*. Anglashiladiki, nashrda bu o‘rinda xatoga yo‘l qo‘yilgan.

Qo‘lyozmada *‘tegishmag‘ig‘a’* emas, *‘mingashmag‘ig‘a’* ekan. *Mingashmaq* “yo‘g‘on” o‘zakli so‘z, shuning uchun unga qo‘shimchaning ham “yo‘g‘on” varianti qo‘shilmoqda.

[1] Navoiy, Alisher. Muhokamatu-l-lug‘atayn. – Toshkent: Akademnashr, 2017, 6- bet
[2] Navoiy, Alisher. Muhokamatu-l-lug‘atayn. – Toshkent: Akademnashr, 2017, 17- bet

Tuzatilgan jumlaning o‘qilishi shunday bo‘ladi: *Uy mungramagiga va eshak ingramag‘ig‘a va it mingashmag‘ig‘a-vu ulimag‘ig‘a lafz yo‘qtur.*

Bu jumlada kechgan *mungramagi* so‘zi “ingichka” o‘zakli bo‘lgani uchun unga jo‘nalish kelishigining “ingichka” **-ga** varianti, *ingramag‘i, mingashmag‘i, ulimag‘i* so‘zlari esa “yo‘g‘on” talaffuzli so‘zlar bo‘lgani uchun qo‘shimchaning ham “yo‘g‘on” talaffuzli **-g‘a** varianti qo‘shilmoqda. Agar eski o‘zbek tilida “temir qonun” bo‘lmish tovushlar uyg‘unligiga e’tibor berilmaganda, yuqoridagi qo‘lyozmada yanglish berilganligini sezmay ham qolardik.

Ushbu qonun qo‘lyozmalarni o‘qiyotganda so‘zlarni to‘g‘ri o‘qishimizda, hatto, ularning ma’nosini bilib olishimizda ochqich vazifasini bajaradi.

Qo‘lyozmalar orasidagi ushbu tekstologik farqlarga tayangan holda, “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarining ikki xil varianti bo‘lgan: Navoiy asarni yozib tugatgach, uni kotibga topshirgan; kotib ana shu variant asosida matnni ko‘chirgan. Keyinchalik, chamasi bir oz fursatdan so‘ng, muallif asarni qayta ko‘rib chiqib, unga ba’zi bir qo‘shimchalar ham kiritgan. Aytish mumkinki, asar Navoiyning o‘z qo‘li bilan tahrirdan o‘tkazilgan. Shunday qilib, “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asari, muallifning o‘zi tirikligidayoq, ikki xil variantda tarqalgan edi.

Kunimizga qadar yetib kelgan nusxalar asarning u yoki bu variantidan ko‘chirilgan, chamasi. Masalan, To‘pqopi va Parij nusxalari asarning ilk variantidan, Fotih qo‘lyozmasi esa asarning keyingi, Navoiyning qayta tahriridan o‘tgan variantidan ko‘chirilgan ko‘rinadi. Shuning uchun ham, To‘pqopi va Parij nusxalari tekstologik jihatdan, ayrim juz’iy farqlarni aytmaganda, bir-biriga juda yaqin. Fotih qo‘lyozmasi esa ulardan farq qilib turadi.

Kezi kelganda ta’kidlab o‘tish kerakki, dunyo tilshunosligida tubdan o‘zgarish yasaydigan bu asar haqida qayta-qayta tadqiqotlar olib borish, boshqa tillarga asar va u haqidagi muhim ilmiy faktlarni tarjima qilib komparativistik tadqiqotlar XVII-XVIII asrlarda g‘arb olimlari tomonidan emas, balki XV asrda “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asari orqali Alisher Navoiy tomonidan qo‘llanganligini yoritishimiz lozim. G‘arb olimlaridan Robert Devereauxning 1966-yilda “Ali Shir Navai. Muhokamat al-lughatayn” (Tr. and ed. Robert Devereaux, Leiden:Brill.) nomi ostida ingliz tiliga qilgan tarjimasini va unga yozgan so‘zboshisini chuqur o‘rganish, munosabat bildirish o‘zbek tilshunosligimizdagi bugunning dolzarb masalalaridan biridir.Quvonarlisi, yurtimizda Azizxon Qayumov, Suyuma G‘aniyeva, Ibrohim Haqqul, Shuhrat Sirojiddinov kabi yetuk navoiyshunos olimlarimizning ishlarini Tohir Xo‘jayev, Gulnoz Xalliyeva, Ulug‘bek Sattorov kabi ko‘pdan ko‘p izdoshlar davom ettirmoqda. Sh. Sirojiddinovning “Mir Ali Shir Nava’i. The Great” nomli monografik tadqiqoti ingliz tiliga, G.Xalliyevaning “Karşılashtırmalı Edebiyat” qo‘llanmasi turk tiliga tarjima qilingani ham navoiyshunoslik borasidagi ulkan yutug‘imiz hisoblanadi.

Muxtasar aytganda, “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asari o‘zbek tilshunosligining dunyo lingvistikasiga qo‘shgan ulkan ulushi sifatida baholanmog‘i kerak. Ushbu ilmiy asarning o‘rta asrlar turkiy lisoniy tafakkurini o‘rganishdagi ahamiyati beqiyos. “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asari, uning tahlil yo‘llari hali ko‘p izlanishlarga mavzu bo‘ladi, unga qayta-qayta murojaat etiladi. Hozirga qadar zamonaviy tilshunoslikda chog‘ishtirish asosida o‘rganishning ilk namunalaridan bo‘lgan bu asardagi tahlil, tadqiq usullari o‘z qadri va ahamiyatini yo‘qotgan emas, balki dolzarb bo‘lib bormoqda.

## BADIIY TIL XUSUSIYATLARI VA NAVOIY AN’ANALARI

**U. Qosimov**
***Jizzax DPI professor.v.b.,***
***Eshbekov Hasan***
***Jizzax DPI***

**Annotatsiya.** maqolada Alisher Navoiyning ona tilimizga bo‘lgan ehtiromi, xususan, millatimizning ma’naviy ehtiyoji va kamoloti ona tili bilan bog‘liq ekanligini chuqurroq anglashimiz hamda Navoiy ijodining keyingi davr zabardast shoir va yozuvchilari tomonidan davom ettirilganligi tahlil ostiga olingan.

***Kalit so‘zlar.*** *Tafakkur, til, millat, xalqona, so‘z san’ati, tilshunoslik.*

**Abstract:** in the article, Alisher Navoi's passion for our native language, in particular, our deep understanding of the spiritual need and perfection of our nation is connected with the native language, and further analysis of the creativity of Navoi continued by powerful poets and writers.

***Keywords:*** *thinking ability, language, nationality, national, oratory (word selection) Linguistics.*

Badiiy-estetik tafakkur tadriji mumtoz adabiyotimiz, ayniqsa, “butun turkiy olamda va dunyo sivilizatsiyasida ham yuksak mavqeni egallagan buyuk gumanist” [Sirojiddinov, 2018:3-11] Alisher Navoiy ijodi va adabiy-estetik an’analarisiz qashshoq va sayoz bo‘lar edi. O‘zbek tilimiz va adabiyotimizni dunyo miqyosida tarannum etgan, xalqimiz ma’naviyati rivojiga benihoya kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan va endilikda yanada yuksak qadrlanayotgan benazir siymo, hech shubhasiz, Alisher Navoiydir. U nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun turkiy olamning betimsol shoir va mutafakkiri sifatida jahon badiiy-estetik tafakkuri rivoji va Renessans tarixida eng yuksak mavqeni egallagan genial san’atkordir. Navoiy yaratgan badiiyat durdonalari bilan birga uning ilmiy-estetik ta’limoti nafaqat o‘z davri uchun, balki keyingi asrlardagi jahon she’riyati, so‘z san’ati va nafosat ilmining taraqqiyoti uchun ham ijodiy dasturilamal bo‘la oladi.

Navoiyning badiiyat, tanqid-adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohasidagi faoliyati hamda noyob asarlarining samarasi o‘laroq, XV asrda nazm va estetika sohasida tizimli ta’limot vujudga keldi va bu ilhombaxsh ta’limot so‘z san’ati va nafosat ilmining keyingi asrlardagi taraqqiyoti uchun ham mufassal bir dastur bo‘lib xizmat qilayotganligini faxr bilan ta’kidlash lozim. Adabiyotimizning barcha yirik vakillari Navoiy ijodidan va adabiy-estetik saboqlaridan oziqlanmagan yoxud ta’sirlanmagan deyish bamisoli ular quyosh nuridan bahramand bo‘lmagan deyishdek anoyilik bo‘lar edi. Navoiyning so‘z vasfidagi falsafiy-estetik qarashlari ham teranligi va hayotiyligi bilan eng qadimiy yozma yodgorliklar va muqaddas kitoblar: “Avesto” , “Qur’on” va hadislarga borib bog‘lanishi ham ularning ildiz-manbalari qanchalik hayotiy va haqqoniyligiga ishoradir. Navoiyning hajman kichik she’rlaridan “Xamsa”sigacha, turli anjuman, bahs-munozaralardagi fikrlaridan tortib, tanqid, adabiyotshunoslik sohasidagi yirik asarlarigacha, barcha-barchasida **so‘z** ta’rifi asosiy o‘rin tutadi. [Alisher Navoiy, 1960:34].Navoiy so‘zda ilohiy bir qudrat, mo‘jizakor sehr ko‘radi. Ya’ni so‘zda muqaddas hadislar kabi beqiyos ulug‘vorlik, hayotiy hikmat mujassam:

So‘z guhariga erur oncha sharaf,
Kim bo‘la olmas anga gavhar sadaf.

Navoiyning so‘z haqidagi bunday g‘ayrioddiy qarashlarini badiiy adabiyotga, she’riyatga nisbatan bergan ta’riflari deb ham tushunsak, xato bo‘lmas. Zero, so‘z xususida fikr yuritganda, nazmning yuksak ijtimoiy-estetik ahamiyati, ta’sirchanlik qudrati ham nazarda tutiladi. Navoiy badiiy-estetik qarashlari silsilasida so‘z san’atining deyarli barcha muhim muammolari qamrab olinganki, ular nafaqat bugungi adabiy jarayon va ma’naviy-estetik tafakkur rivojida, balki yirik adabiyotshunoslar e’tirof etganidek, keyingi davrlarda ham ko‘plab avlodlar uchun qudratli ilhombaxsh omil bo‘lib xizmat qiladi. Zero, Navoiyning badiiy so‘z fazilati va qudrati, shakl-mazmunning uyg‘unligi va ma’noning ustuvorligi kabi o‘zak masalalar xususidagi teran qarashlari bugun ham ijodiy dastur bo‘la oladi:

Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo‘lsin aning surati har ne durur.(Hayrat ul-abror)

Navoiy davri adabiy-estetik tafakkurining o‘ziga xos kvintessensiyasini tashkil etuvchi bunday tizimli qarashlarning ahamiyati jahon adabiyotshunosligi kontekstida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Badiiy til hamisha so‘z san’atining, demakki, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning ham asosiy muammolaridan biri bo‘lgan. Chunki so‘z, eng avvalo, fikr-tuyg‘ularni ifodalovchi bebaho ruhiy ne’mat. Barcha ulug‘ adiblar badiiy asar tiliga va undagi har bir so‘z va iboraga alohida e’tibor bilan qarashgan va hamisha milliy til sofligi va ravnaqi uchun faol kurashgan. Bu bilan ham o‘zlarining vatanparvarlik burchini ado etganliklari ijod ahliga ibrat va hayotiy dastur bo‘lishi lozim. Adib va olimlarimiz faxr bilan aytganidek, ona tilimizni ulug‘lash va himoyalashda qancha

avlodlarga rahnamo bo‘lgan buyuk zot Navoiyning turkiy tilimiz sha’ni va taqdiri uchun mardona kurash olib borganiga har qancha havas qilsak va undan o‘rnak olsak, arziydi. Asrlar davomida rivojlanib, bardavom bo‘lib kelayotgan bu an’ana badiiy ijodning muqaddas bir qonuniyatiga aylangan, desak, xato bo‘lmaydi.

Turkiy tilimiz va adabiyotimizning buyuk yalovbardori Navoiy, ayni paytda, fors va arab tillarini ham mukammal bilganligi uning favqulodda nodir iste’dodining yorqin bir qirrasi edi. Ulug‘ shoirning “Devoni Foniy” va piri komil Jomiy asarlaridan ta’sirlanib va ilhomlanib yaratgan “Tuhfat ul-afkor” qasidasi, shuningdek, ko‘plab ruboiylaridagi so‘z san’atkorligi ham fikrimizga dalil bo‘la oladi. She’rlarining deyarli barchasiga xos bo‘lgan yorqin fazilat bor: bu ularning ham ma’nan, ham shaklan poetik mukammalligidir. Bunday g‘oyaviy-badiiy yuksaklikka erishishda, avvalo, Navoiyning o‘zbek tilimizning serjilo, ma’nodorligi kabi o‘ziga xos jihatlari va boy imkoniyatlaridan mohirona foydalangani asosiy ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga she’r va dostonlarida keng qo‘llangan fors va arabcha so‘z-iboralarning ham beqiyos o‘rni borligi ayni haqiqatdir. “So‘z va iboradan maqsad ma’nodir” deb bilgan Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning o‘ziga xosligi va cheksiz imkoniyatlarini yoritish bilan birga arab va fors tillarining ham fasohat va tafovutlarini, ularning badiiyat ziynati yuksak qadrlanishini ham e’tirof etadi. Zero, Navoiyga e’timodi yuksak bo‘lgan va ul zotga munosib izdosh bo‘la olgan mashhur shoirlarimizdan biri Erkin Vohidov aytganidek, o‘zbek tilimiz uch daryodan (fors, arab va turkiy tillaridan) suv ichgan, bahra olib, rivojlangan va boyiganligi ham ongu tafakkurimiz va ma’naviyatimiz ildizlari teranligiga yorqin dalildir [Erkin Vohidov, 2018:10]. Bu ilmiy-nazariy qarashlar qanchalar asosli ekanligiga Navoiy va boshqa mumtoz adiblarimiz ijodi misolida ham ishonch hosil qilish mumkin. Chunonchi, benazir zullisonayn shoirimizning ruboiylaridan biriga razm solaylik:

Xub el bila suhbat tutubon, xub o‘lg‘il,
Yaxshini talab qilg‘ilu matlub o‘lg‘il.
Shirin so‘z ila xalqqa marg‘ub o‘lg‘il,
Yumshoq de hadisingniyu mahbub o‘lg‘il.

Tomchida quyosh aks etganidek, Navoiyning hamisha insonlarni komillikka boshlashdek olijanob maqsadi va chuqur hayotiy g‘oya-fikrlarni go‘zal shaklda ifodalash san’ati ushbu muxtasar she’rida ham yaqqol namoyon. She’r matnidagi barcha so‘zlar ma’nodor va ohang dorligi bilan uning ta’sirchanligini oshiradi. Garchi qofiyalari arabcha va forscha so‘zlar bo‘lsa-da, (**xub**-yaxshi, **matlub**-talab qilingan, **marg‘ub**-yoqimli, **mahbub**-sevimli, do‘st ma’nolarida qo‘llangan) ular o‘zbekcha so‘z-iboralardek asosiy fikr va tuyg‘ularni kuchaytirib, she’rning g‘oyaviy mazmunini yorqin ifodalashga xizmat qiladi. So‘zni gavhar va malham deb bilgan Navoiy ruboiy matnidagi har bir so‘z, hatto tovush-ohangigacha e’tibor bergan. She’rdagi turkiy “**o‘lg‘il”** so‘zini “**bo‘lg‘il”** shakliga xayolan almashtirib ko‘raylik. Avvalo, ikki **b** undosh tovushini yonma-yon qo‘llash talaffuzni og‘irlashtiradi va misralarning mutanosib ritmi, ohangdorligiga ham xalal beradi. Binobarin, “ziynatlangan she’r” matnidagi nainki so‘z, hatto, harfni ham almashtirish mushkul. Bunday yorqin misollarni ulug‘ shoir “san’atxonasi”dan (Shayxzoda) istagancha keltirish mumkin.

Navoiyning mahorat saboqlari va qutlug‘ an’analari keyingi asrlarda ham ko‘plab yetuk shoiru yozuvchilar tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi. Jumladan, Gulxaniy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy va Furqat she’riyatida fors-arabcha so‘zlarning keng istifoda etilishi badiiy tilning serqirraligi va polifoniyasini ko‘rsatadi. Gulxaniy “Zarbulmasal”idagi Tuyaning Bo‘taloqqa aytgan “Menda bo‘lsa edi ixtiyor, Bo‘lmas edim **“zeri bor”** (yukning ostida) forscha so‘zlar orqali ham mehnatkash xalqning erksiz, haq-huquqsiz yashaganligi obrazli tarzda chuqur aks ettirganligining guvohi bo‘lamiz.

Navoiyni ma’naviy ustoz deb bilgan Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor, Shayxzoda va Mirtemir, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov kabi mashhur adiblarimiz tilga munosabatda, so‘zni muqaddas va qudratli kuch deb bilishda ham buyuk shoirning adabiy-estetik an’analarini ijodiy davom ettirganlar. “*Asli yozg‘uchiliq aytmoqchi bo‘lg‘an fikrni hammaga barobar anglata bilishda. So‘z qolip, fikr xumdondagi g‘isht yangi hayot ayvoniga asos bo‘lib yotsin*”, – deya ta’kidlagan Qodiriy so‘z qo‘llashda uzoq andisha va mas’uliyat lozimligini ijodning qat’iy mezoni deb

bilardi[Abdulla Qodiriy, 2007: 429].Bunday talabchanlik ko‘plab iste’dodli adiblar, jumladan, Tog‘ay Murod ijodiga, uning shoirona va xalqona tili va uslubiga ham xosdir. Adibning badiiy til xususidagi baxshiyona mushohadalari ham ustozlar fikrlari bilan mushtarak va hamohangligi e’tiborga loyiq: “Badiiy asar – bir minora. Asar poydevori – til.”[ Tog‘ay Murod, 2001:199].Yosh yozuvchining elimizga manzur bo‘lgan qissa va romanlari zavq bilan o‘qilishiga sabab-omillardan biri ham ularning xalq og‘zaki badiiy ijodidan oziqlangan milliy va ohorli tilidir.

Abdulla Qahhor uchun ham til hamisha adabiyot rivojining asosiy sharti, omili edi. “Adabiyot – bu til! Men shu vaqtga qadar biror yozuvchi tilsiz, imo-ishoralar bilan badiiy asar yaratganini eshitganim yo‘q”. Mumtoz shoir va yozuvchilarning badiiy asar tili mukammalligi uchun kurashi biryoqlama, ya’ni yetuk adabiy shakl uchungina bo‘lmay, balki u chuqur mazmun va yuksak g‘oyaviylik uchun ham kurashish edi. Chunki til shunchaki tashqi bir bezak yoki libos bo‘lib emas, balki asar mazmuni va yozuvchi g‘oyaviy-estetik maqsadining badiiy ifodasi bo‘lib yashaydi. Chunonchi, Abdulla Qahhor san’at asarining asosiy sharti bo‘lgan shakl va mazmunning yaxlitligini shunday ta’kidlaydi:”Adabiy asarning joni uning mazmuni, lekin bu jonning jon bo‘lishi uchun jasad ham kerak. Jonni jasadsiz tasavvur qilish mumkin emas”. Bunday teran fikrlar asosida ham Alisher Navoiyning “nazmda ham asl anga ma’ni durur”, ya’ni mazmunning hamisha ustuvorligi haqidagi yuksak mezon va aqidalari ijodiy bir dastur bo‘lib xizmat qilganini payqash qiyin emas.

Navoiy va Boburlar qat’iy amal qilgan bu yuksak estetik tamoyil va ijodiy an’analar zamonaviy adabiyotimizga ham xos bir fazilatga aylangan. Masalan, Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida ko‘plab arabcha, forscha so‘zlarga duch kelamiz. Bulardan tashqari, ushbu romanlarda fors adabiyotining buyuk namoyandasi shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy, ulug‘ Ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliylarning nodir asarlaridan iqtiboslar ham keltirilgan. Chunonchi, “Mehrobdan chayon” romanida shayx Sa’diyning quyidagi hikmatomuz she’ri bilan Anvar, Ra’no va Sultonalilarning chinakam do‘stlik haqidagi umumiy qarashlarini va ayni paytda, ularga xos mushtarak sadoqat tuyg‘ularini ham teran ifodalagani tasvirga joziba bag‘ishlagan:

“Bisho‘y, ey xiradmand, az on do‘st dast,
Ki bo dushmanonat buvad hamnishast”

(Ya’ni: Ey hushyor kishi, dushmanlaring bilan birga o‘lturishkan, hamsuhbat bo‘lgan do‘s-tingdan qo‘l yuvgil. “Mehrobdan chayon”.T. 1994. 537-b.)

Fors-tojik va arab tillarini yaxshi bilish va bu tillardagi so‘zlarning ma’nolarini tushuna olish nafaqat mumtoz adabiyotimiz, balki hozirgi zamon adiblarining ham asarlaridagi nozik ma’no-mazmunni va muallifning g‘oyaviy-badiiy niyatini to‘g‘ri va chuqur anglashga ham yordam beradi. Zero, ulug‘ shoir va mutafakkirlar ta’kidlaganidek,

Kalidi ganji ma’ni zabondir,
Agar bir nuqta ko‘p bo‘lsa ziyondir. (So‘fi Olloyor)

Ya’ni san’at asarining mazmun-mohiyati va tag ma’nosini anglash, go‘zalliklaridan to‘liq bahramand bo‘lish uchun, eng avvalo, keng lisoniy bilim hamda xorijiy tillarni puxta bilish ham talab etiladi. Binobarin, Qodiriy romanlaridagi arabcha-forscha so‘z-iboralar va diniy-ma’rifiy istilohlar o‘z o‘rnida mahorat bilan qo‘llangan. “O‘tkan kunlar”ning oxirgi faslida Kumushning fojeona o‘limi bilan bog‘liq voqea-tafsilotlar tasvirlanar ekan, yozuvchi arabcha *maqtula, madfun* kabi so‘zlarini qo‘llaydi: ”Ertasi kun dafn marosimi bo‘ldi. Janozaga Toshkandning har bir mahallasidan deyarli kishilar ishtirok qildi. Faqat maqtulaning eng yaqinlarigina bu tantanaga yetib kelolmadilar”(373-b) Bu so‘zlar bejiz qo‘llanmagan. Kumush o‘z ajali bilan emas, balki kundoshi Zaynab tomonidan zaharlab o‘ldirildi, *qatl etildi*. Shu bois ham bu o‘rinda Kumushga nisbatan marhuma so‘zini emas, balki maqtula so‘zining tanlanishi har jihatdan maqbul.

Fors-tojikcha so‘z va iboralar Abdulla Qahhor asarlarida ham ko‘p va san’atkorona qo‘llangan. Yozuvchining “To‘yda aza” hikoyasiga “**Zo‘ri behuda miyon meshikanad”** (“Behuda chiranish belni sindirar”) degan maqol epigraf qilib olingan. Hikoya qahramoni keksa domlaning yosh bir tannoz, olifta juvonga uylanib, o‘zini zo‘r berib yosh yigitday ko‘rsatishga behuda urinishlari, chamandagul do‘ppi, tor shim kiyib yurishi-yu, nomunosib qiliqlari alal-oqibat uning ham ma’nan, ham jisman o‘limiga sabab bo‘lganligini chuqurroq tushunishimizda bu maqol o‘ziga

xos bir ochqich vazifasini o‘taydi. Bunday misollar boshqa adiblar ijodida ham ko‘plab uchraydiki, ayrimlariga diqqat qilaylik. Masalan, qadimiy forsiy bir ibora Asqad Muxtor uchun yetuk falsafiy she’r yaratishiga asos bo‘lgani ham ibratli holdir. Manbalarda keltirilishicha, bir hukmdor (yoxud payg‘ambar) qo‘lidagi uzukka bir satr she’r yozdiradi:“In ham meguzarad” (“Bu ham o‘tadi”) Ana shu oddiy hikmatomuz ibora Asqad Muxtor talqinida bu dunyoning o‘tkinchi ekanligi, inson umrining mohiyati va qadri haqida teran mushohada yuritishga undovchi poetik detalga aylanadi:

**“In ham meguzarad**”
**Bali**, tugib oling dilga.
Chindan, hamma narsa so‘zsiz o‘tadi.
Lekin o‘tgan har bir narsa o‘zi bilan birga
Umrning bir qismin olib ketadi.

Yoki mashhur shoirlarimiz Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlarning she’r va dostonlarida o‘zbek tilimizning beqiyos lug‘at boyliklari va rang-barang badiiy tasvir vositalaridan keng foydalanilganligiga guvoh bo‘lamiz. Ayni vaqtda, hassos shoirlarimizning durdona she’rlarida fors-tojikcha va arabcha so‘z-iboralar hamda qo‘shimchalar ham mohirona qo‘llangani ham ularning til mahoratidan dalolat beradi. Erkin Vohidovning qator she’r va g‘azallarida san’atkorona qo‘llangan forsiy-arabiy so‘z va qo‘shimchalar mazkur asarlar mazmuni va ohangdorligini kuchaytirishi bilan birga ularning ifodaliligi, emotsional-ta’sirchanligi va musiqiyligini ham oshirgan. Istiqlolimizga bag‘ishlangan “Vatan umidi” (1991) she’ridagi baytlar matniga nazar tashlaylik:

Agarchi ismim Erkin, erki yo‘q, **bandi** kishan bo‘ldim.
Dilim dog‘liq, ko‘zim bog‘liq, tilim yo‘q, **besuxan** bo‘ldim,
Muazzam Sayxun-u Jayxun labida tashnalab qoldim,
Kiyintirdim jahonni, jismi uryon **bekafan** bo‘ldim...

Fors-tojik tilidagi “**be**” qo‘shimchasi bilan yasalgan so‘zlarning (**besuxan, bekafan, bevatan**) yoki **“bandi kishan”, “sohibi chaman**” kabi izofali iboralarning tanlab qo‘llanganligi ham fikrimizning isbotidir. Shuningdek, Abdulla Oripovning 80-yillarda yozilgan, ammo hukmron mafkuraga xush kelmagan “**Savob”** nomli she’ridagi arab va fors so‘zlarining ma’nodor, ta’sirchanligi xuddi uzukka ko‘z qo‘ygandek yarashiqlidir:

“O‘zga erur **bid’at** va **karam**,
Himmat-u saxovat tiriklarga xos...”

Yoxud shoirning falsafiy bir to‘rtligidagi “**bisyor** bo‘lsa bol ham **beqadr**” satrida forscha so‘z va qo‘shimchaning mohirona qo‘llangani ham e’tiborni jalb etadi. Matndagi “**be**” qo‘shimchasi o‘rniga o‘zbek tilimizdagi “**siz**” qo‘shimchasi qo‘yib ko‘rilsa, misralardagi ritm va ohang ham o‘zgarib, ulardagi tabiiylik va jarangdorlik yo‘qoladi, ta’sirchanligi ham pasayadi. Yana bir qiyos: **bisyor** so‘zini **ko‘p, mo‘l, serob** kabi ma’nodosh-sinonim so‘zlar bilan almashtirib ko‘rilsa ham, mazkur satrlardagi poetik mukammallikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Fors va arabcha so‘zlarning, xususan, birgina “**be**” qo‘shimchasi bilan yasalgan **“beto‘xtov”** so‘zining bir necha marta qo‘llanishi bilan bog‘liq ma’no qirralarini Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi tili misolida ham yaqqol kuzatish mumkin.

Badiiy adabiyot shu qadar rang-barang, tasvir ko‘lami keng va teran olamki, ba’zan ayni bir so‘z takrori ham turli darajadagi ma’no, ohang va ta’sirchanlik “kashf” etishi mumkin. Chunonchi, Navoiyning “Xamsa”sida Nizomiyga bag‘ishlangan ta’riflarida bir gina **ganj** so‘zining qanchalar serma’no va serjilo bo‘la olganini yodga olaylik:

Ganja vatan, ko‘ngli aning **ganjxez**,
Xotiri **ganjuru** tili **ganjrez**

Bunday noyob badiiy fusunkorlikning hayratangiz namunalarini Navoiy yoxud Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor va Erkin Vohidov singari mashhur so‘z zargarlarining asarlaridan ham ko‘plab keltirish mumkin.

Bulardan shunday xulosa kelib chiqadiki, arabcha-forscha so‘z-iboralar qo‘llanishi ham ijodiy bir an’ana sifatida keng tarqalgan. Arab-forscha so‘z-iboralar xalqlarning tarixiy o‘tmishidan guvohlik berishi bilan birga ularning yashash tarzi, tili va dini, madaniyati va ruhiyatidagi o‘zaro yaqinlik va mushtaraklikni ham aks ettirib turadi. Bu esa tillarning bamisoli bir guldasta yanglig‘

o‘zaro bir-birini boyitishidan hamda adabiy asarlar mazmuni, ohangdorligini kuchaytirishidan ham yorqin dalolatdir. Bular dunyo xalqlarining zavol bilmas umuminsoniy ma’naviy qadriyatlari va baynalmilal fazilatlari sifatida bugun ham muhim ijtimoiy-estetik ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Navoiy an’analariga sodiq bo‘lgan Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhorning adabiyot va tanqidchilik muammolariga bag‘ishlangan bironta nutq yo maqolasi yo‘qki, unda adabiy tilimizning beqiyos boyligi va bu bebaho merosimizni asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazish xususida jiddiy fikrlar bildirmagan bo‘lsin. Dalil tariqasida bir misol. Abdulla Qahhorning bundan 60 yillar muqaddam Chet tillar pedagogika instituti – hozirgi Jahon tillari universitetining talabalari bilan bo‘lgan uchrashuvda so‘zlagan nutqidan bir parcha: “Sizlar institutni bitirgandan keyin joylarga borib o‘quvchilarga ingliz, nemis, fransuz, ispan tillarini o‘rgatasizlar. Mening sizlarga aytadigan eng zarur gapim shuki, sizlar boradigan joylaringga chet tillar bilan birga, birinchi navbatda, o‘z ona tilimiz – o‘zbek tiliga cheksiz muhabbat tuyg‘usini olib boringlar! O‘zbek tilining g‘oyat boy, nihoyatda chiroyli, har qanday fikr va tuyg‘uni ifoda qilishga qodir ekanini amalda ko‘rsatinglar; sizlar qayerda va qanday sharoitda ishlamanglar, til madaniyatimizning mash’ali bo‘linglar!”[ Abdulla Qahhor. 6-t.1971.]

Bu so‘zlar zamiridagi hayotiy ma’no, olijanob maqsad va tilak bugungi yoshlarimiz uchun qimmatli bir dasturilamal bo‘lishi bilan birga, ayni vaqtda, ular buyuk hazrat Navoiyning shoirlarimiz o‘z ona tili – “turkiyda ko‘prak yozsalar edi” [Alisher Navoiy, 2014: 69] degan asriy orzusi ham, eng avvalo, millatimizning ma’naviy ehtiyoji va kamoloti bilan bog‘liq ekanligini chuqurroq anglashimizga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sirojiddinov Sh.World wide significance of literary heritage of Alisher Nav’ai.-Alisher Navoiy va XX1 asr.–T., 2018.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. –Toshkent, 1960.
3. Erkin Vohidov. So‘z latofati. –Toshkent: O‘zbekiston. 2018.
4. Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. –Toshkent. 2007.
5. Tog‘ay Murod.Yosh qalamkashlarga tilaklarim. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi, 2001.
6. Abdulla Qahhor.Asarlar.6-t.1971.
7. Kibriyo Qahhorova. Chorak asr hamnafas. –T., 2007
8. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn.–T., 2014.

## JADID ZIYOLILARI IJODIDA TIL MUAMMOSI
## THE PROBLEM OF LANGUAGE IN THE WORK OF JADID INTELLIGENTS

**Q.Pardayev,**
***ToshDO‘TAU dotsenti,***
***filologiya fanlari doktori***

**Abstract:** the article deals with critical articles by Jadid educators on the language issue in the periodicals. In particular, the debates on the language of works of art of the early twentieth century in the publications "Al-Islah", "Oyna", "Sadoi Fergana", "Sadoi Turkestan" were studied and clarified.

***Key words:*** *article, period, literary language, press, jadidism, literary criticism, literature, century, work, Turkestan.*

XX asr tongida millat ziyolilari o‘zbek adabiy tilining qanday rivojlanmog‘i kerakligi, buning uchun qanday yo‘llardan borish lozimligini keng muhokama qilgan edilar. Bu borada eng to‘g‘ri yo‘l sifatida xalq jonli tili imkoniyatlaridan foydalanish, o‘zbek tilini boshqa tillar ta’siriga tushib qolishdan muhofaza qilish masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

Jadidlar maktab va madrasalar darsliklari tili va matbuotda chop etilayotgan maqolalarning sof o‘zbek tilida bo‘lishi uchun kurashdi. Til masalasiga oid bunday tanqidiy maqolalar vaqtli

matbuotda muntazam e’lon qilib borildi. Jumladan, “Al-Isloh”, “Oyna”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Sadoyi Turkiston” nashrlari shular jumlasidandir.

Ibrohim Tohiriyning “Al-Isloh”da chop qilingan “Matbuot va isloh” sarlavhali maqolasi bu jihatdan xarakterlidir. Muallif Turkistonda nashr qilinayotgan asarlar va gazeta, jurnallar tili haqida so‘z yuritadi. U matbuot xususida fikr yuritib, uni axloqiy –ma’naviy ozuqa beruvchi omil sifatida talqin etadi: “Bir xalqning matbuoti o‘shal xalqning ko‘nglida yoshiring‘on, ko‘kragida saqlangan tilaklarini, orzularini eng ochiq suratda ko‘rsatadurg‘on oynasidur. Bir xalqning matbuoti o‘shal xalqning o‘tganini, kelajag‘ini va ando o‘lg‘on va o‘lajaq umidlarini, farzlarini, yo‘llarini, qayg‘ularini so‘zlaydurg‘on bir tildur...” [“Al-Isloh”, 1915: 5-son: 141]. Maqolaning keyingi satrlarida tojik tilining o‘zbek tiliga ta’siri masalasiga to‘xtalib, “Sadoyi Turkiston” gazetasining nomlanishi va uning muharriri Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning yurist bo‘la turib tojik tilidan so‘z olib gazetaga nom qo‘yishini tanqid qilib bunday yozadi: “Har bir g‘azetaning buyuk bir vazifasi milliy tilg‘a, “imlo”g‘a ahamiyat berub va shularni isloh qilishdur... gazetaning boshinda yurist Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev kishilarini muhofaza edar ko‘zi ochiq huquq olimi tursa-da, bu g‘azeta muhtaram milliy tilimizning huquqina nedandur masohila etmish, ehtiromsizlik ko‘starmishdur. O‘z tilimizda bor bir so‘zni tashlab ikkinchi tildan so‘z olib g‘azetag‘a ism bersa ham, oz – cho‘q fasohati o‘lur esa-da, muqaddas milliy tilimizg‘a albatta xiyonat o‘lur, jinoyat o‘lur.” [“Al-Isloh”, 1915: 5-son: 145].

Millat ertasini o‘ylab jon kuydirayotgan ma’rifatparvarlarning barchasi jaholatdan chiqish yo‘llarini izladi va bunday nuqsonlarni bartaraf etishga harakat qildi. Ibrohim Tohiriy Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush”, Nusratulla Qudratulla va Hoji Muin hammuallifligida yozilgan “To‘y” dramalarining til xususiyatlariga ahamiyat qaratib, keskin tanqid qiladi. Hatto maktab bolalarining insho va imlolariga mengzaydi. “... “Padarkush”, “To‘y” risolachalarina qarangiz”, – deb yozadi muallif. – “Turkistonlilarning o‘z shevalarina yozub nashr etg‘on asarlarinda til jihati ila durustlik va poklik yo‘qdir...” [“Al-Isloh”, 1915: 6-son: 178].

To‘g‘ri, bu asarlar o‘z davrida keng muhokama qilindi. Hatto “To‘y” dramasining mualliflaridan Hoji Muin bu kamchiliklarni tan olib, “Tanbehga tashakkur” sarlavhasi bilan iqrornoma tarzida maqola yozdi [“Oyna”, 1915: 7-son:157]. “To‘y” piyesasi o‘zbek dramaturgiyasi tarixida “Padarkush”dan keyin yaratilgan ikkinchi asar hisoblanadi. Asarning bosilib chiqishi adabiyot olamida katta quvonch bilan kutib olindi. “To‘y” chop etilganligi haqida qisqacha taqriz bergan “Oyna” asarni “ibratomuz” deb ta’riflaydi. [“Oyna”, 1914: 2-son:62] “Sadoyi Turkiston” muallif sha’niga “yashasun bunday yosh fikrli zotlarimiz!” [“Sadoyi Turkiston”, 1914: 55] deya xitob qildi. “...Til to‘g‘risidagi, ba’zi kamchiliklarni istisno qilganda, o‘z turmushimiz durustgina tasvir qilingan”, – deb yozdi. “Al-Isloh” esa asar tilidagi nuqsonlarni tanqid qildi.

“Oyna” jurnalidagi keyingi taqrizda esa asarning til xususiyatlari ancha keng tahlil etilgan. [“Oyna”, 1914: 3-son:123] Muallif asarning lahja va imloda nuqsonlari borligini ta’kidlaydi. Masalan, “Eshak”, “Olufta”, “O‘sha valad” kabi so‘zlarni g‘ayriaxloqiylik deb hisoblaydi. Va asarning qayta nashrida bu so‘zlarni isloh qilish zaruratini ta’kidlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, “Al-Isloh”dan boshqa nashrlarda ham “To‘y” dramasining kamchilik tomonlari ko‘rsatilgan. Biroq bu masalada ham muayyan munozaralar bo‘lib o‘tgan. Jumladan, Ibrohim Tohiriyning “Al-Isloh” jurnalidagi “Matbuot va isloh” nomli maqolasiga zid ravishda “Oyna” jurnalining 1915-yil 12-sonida imzosiz “Lof” sarlavhali maqola chop etilgan. Maqolada Ibrohim Tohiriy fikrlariga zid mulohazalar uchraydi. Ibrohim Tohiriyga murojaat qilib, “Padarkush” asarining kamchilik jihatini ko‘rsating, degan savolni qo‘yadi noma’lum muallif. Shundan so‘ng esa “Padarkush” dramasida ayrim ruscha so‘zlar borligiga iqror bo‘lib, bu hol asarning qimmatini tushirmasligini ta’kidlaydi. Tojik tili aralashuvini esa ota – bobolar yozgan diniy va axloqiy kitoblar va madrasa tili ta’siri sifatida izohlaydi. Shu bilan birga “Al-Isloh” jurnalidagi Ibrohim Tohiriy maqolasiga ta’na qilib, bunday yozadi: “Burung‘i zamonda turk shevasini tojik tilidan tozalab, soddalig‘ina va poklig‘ina qaytaruv ul qadar qiyin bo‘lmasa kerak, Tohiriy bu ikki xatlik jumlasida o‘n uch kalima turkiy, to‘qqiz kalima arabiy-forsiy yozibdurki, o‘z so‘zig‘a o‘zi amal qilmaydur…” [“Oyna”, 1914: 2-son:98].

Til haqida “Oyna” jurnalida ham tanqidiy maqolalar chop etilgan. Jumladan, 1914-yil 11-sonida imzosiz muallif tomonidan “Har millat o‘z tili ila faxr etar” nomli maqola bosilib chiqqan. Maqolada xuddi yuqoridagi fikrlarga mutanosib mulohazalar bor. Muallif taassuf qilib, boshqa millatlarni misol qilib ko‘rsatadi. Qaysi millat o‘z ona tilini tashlab boshqa begona tillardan so‘z oladi, deya noliydi. Misol qilib, ruscha kalimalarning xalq tilida tez-tez tilga olinuvi, hatto, drama, vaqtli matbuot tilida ham ruscha, arabcha va tojikcha so‘zlarning aralashuvini tanqid qiladi: “Ushbu Turkistonimizda qaysi bir rus, yo qaysi bir arman o‘z tilini qo‘yib bir-birovi ila turkcha so‘ylaydur. Ammo bizning so‘zlashganimiz vaqtda har bir jumlada bir kalima rus so‘zi eshitilur. Masalan: “Mango bir oz pomogot qiling”, “oni muncha ishtaraf qildilar”, “Falon odamning do‘koni pechat qilindi”. Vaholanki bul so‘zlar hammasi musulmoncha ado bo‘lina olur. Masalan, pomogat – yordam, ishtaraf – jarima, pechat – muhr... Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘shabersak bir oz zamonda til va millatimizni yo‘qoturmiz. Millatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta yo‘qolur”.

Bu masalada Ashurali Zohiriyning “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi 1914 yil 13- aprel sonidagi “Ona tili” nomli maqolasi diqqatga loyiqdir. Maqola “Ona tili” deb nomlangan bo‘lsa-da, unda milliy adabiyotning o‘sha davrdagi ahvoli, milliy adabiy til haqida fikr yuritilgan. Muallif maqolaning boshidayoq adabiyotning keng ma’nosiga mana bunday ta’rif beradi: “Bir millatning o‘z tilidag‘i kitob, risola, g‘azeta, jurnal va boshqalarig‘a bir so‘z bilan “adabiyot” deyilur. Shuning uchun arabcha kitob va risolalarg‘a “adabiyoti arabiya”, turk, tatarcha bo‘lg‘onlarig‘a “turk adabiyoti”, “tatar adabiyoti” deyilur”.

Ashurali Zohiriyning bu fikrlariga qo‘shilmaslik mumkin emas, albatta. Maqolada muallif tili va adabiyoti bo‘lmagan yoki yetarlicha taraqqiy topmagan millatning boshqa xalqlar oldida hurmat va e’tibori ham yuqori bo‘lmaydi, degan fikrni ilgari suradi: “....adabiyoti bo‘lmag‘on, bo‘lsa ham borliq-yo‘qliq yoki ado bo‘lg‘on chirog‘dek o‘char-o‘chmas bo‘lsa, ul qavmning boshqalar oldida hurmat va e’tibori bo‘lmas va har nav’ hayoti ijtimoiya va madaniyadin bahra ololmaydi”. [“Sadoyi Farg‘ona”, 1914: 13-aprel).

Ziyolilar, ulamolar umuman o‘qimishli yoshlar muqaddas ona tilimizni rivojlantirmoq u yoqda tursin, balki yo‘qotmoqlikka sabab bo‘layotganlarini ko‘rib afsuslanadi, o‘zbek tilini mensimay, fors, arab, tatar tillarida hujjat ishlarini yuritayotgan, bir-birlariga xatlar yozayotgan turkistonliklarni qattiq qoralaydi. U bunday yozadi: “Nechunki ulamolarimizdin biri biror yerg‘a xat yozsa yoki birovg‘a bergan narsasini xotira daftarig‘a yozsa, o‘z ona tilini qo‘yib fors tilida yozadurlar.... yosh o‘smurlarimiz bo‘lsalar, o‘z yerliklaridan birini ziyofatg‘a chaqirub xat yozsalar ham usmonlicha yoki tatarcha yozadurlar, nega ona tilig‘a hurmat shumu?” [“Sadoyi Farg‘ona”, 1914: 13-aprel).

Aslida, Ashurali Zohiriy o‘zga millat tillarini o‘rganishga qarshi bo‘lgan emas. Uning: “Durust, forscha, arabcha, o‘ruscha va boshqalarni ham bilaylik, bilaylikkina emas, yaxshi bilaylik, lekin o‘z ona tilimizni hammasidan ortiq va ziyoda bilaylik”, – degan fikrlari ham buni tasdiqlaydi. [“Sadoyi Farg‘ona”, 1914: 13-aprel). Muallif ona tili taraqqiyoti masalasini xalq, jamiyat, davr bilan bog‘lab tekshirishga intiladi. Uning fikricha, xalq va til bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir, birini ikkinchisidan ajratgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Milliy uyg‘onish ma’rifatparvarlari adabiy tanqid, til sofligi badiiy adabiyot rivojining muhim shartlaridan ekanligi xususida shu tariqa munozara yuritdilar, haqiqatni yuzaga chiqarishga intildilar. Qaysi adib o‘z asarida boshqa tildan kirgan so‘zlarni ko‘p ishlatsa, u beayov tanqid qilindi. Hatto, o‘sha davrning eng peshqadam adiblari ham ayab o‘tirilmadi. Bu jihatdan qo‘qonlik Rasuliyning “Oyna” 1915- yil 9-sonida nashr etilgan “Shoir va milliy she’rlarimiz” nomli maqolasi ahamiyatga molikdir. Maqolada o‘zbek shoirlari she’rlarining ta’sirchan emasligi sababini “...muhtaram shoirlarimizni(ng) o‘z shevasida she’r yozmasdan she’rlarini(ng) yarmidan ko‘prog‘i usmonlicha va tatarchadan qo‘shilganligidandur...”, – deya izohlaydi. Muallif fikrini isbotlash uchun Abdulla Avloniy ijodidan misol keltiradi:

Chujuqlar tarbiyatsiz, ilmdan begonayi sarxush,
Avomunnos g‘iybat hosili afsonayi sarxush.

Shu tariqa qator misollar bilan o‘z fikrini isbotlay olgan muallif “shuaromiz millat anglamaydurg‘on tilda yozmoqlaridan maqsad nimadur?” deya savol qo‘yadi. Rasuliy maqolani shoirlarga qarata: “....emdi yozadurg‘on she’ringizni o‘z shevamizda yozingiz.... millat she’ringizni o‘qib foydalansin” – degan fikr bilan yakunlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Hoji Muinning tilga oid qarashlari bu boradagi munozaralar mohiyatini tushunishda, ayniqsa ahamiyatlidir. “Hoji Muin 1913-yilning oxirlariga kelib, adabiy tanqid bo‘yicha maqolasini e’lon qildi. Shu paytdan e’tiboran “Oyna” jurnalida uning birorta ham forsiyda yozilgan maqolasi ko‘zga chalinmaydi. Vaholanki, 1914-yilning bahor va yoz oylarida Mahmudho‘ja Behbudiy Samarqandda bo‘lmagan davrda “Oyna”ning taqdiri muharrir sifatida Hoji Muin ixtiyoriga berilgan edi. Hoji Muin ancha tadbirkor bo‘lgani sababli ikki haftadayoq jurnalning texnik va tahririy jihatlari ancha yaxshilandi. Hoji Muin Mahmudxo‘ja Behbudiyning istagidan bir oz chekinib, “Oyna”ni sof turkiy jurnalga aylantirib qo‘ydi. Biroq jurnal muqovasidagi “turkiy-forsiy musulmon jurnali” iborasini o‘zgartirmadi.

“Al-Isloh”da til xususida bo‘lgan munozaralar bu muammo hayot-mamot masalasi o‘laroq kun tartibiga qo‘yilgan bir paytda, ayniqsa, muhim o‘rin tutdi. Mutaxassislarga ayon, bu davrda Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” bu masalani yanada kengroq miqyosda kun tartibiga qo‘ygan edi. Buni Mo‘’minjon Muhammadjonov “Turmush urinishlari” nomli kitobida mana bu tarzda izohlagan: “Bu gurung”ning maqsadi: o‘z tilimizni tuzatish, orasidan arabiy, forsiy tillarni imkoni boricha quvlab chiqarib ularning o‘rnig‘a o‘z tilimizdan topib qo‘yish, boyitish eski imloni tashlab maktab bolalarini yangi imloga o‘rgatish edi...” [Mo‘minjon Muhammadjonov, 1926: 315].

Haqiqatan ham, jamiyat faoliyatida til masalalari alohida o‘rin tutgan. “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir, bilasizmi?” – deya savol qo‘ygan edi Fitrat “Tilimiz” maqolasida, va – “Turkcha!” deb javob bergani holda o‘z fikrlariga dalillar keltiradi: “Shoirlik qilmoqchi emasman, so‘zning to‘g‘risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud turkchadir. Tillarning baxtsizligi sovet hukumati chog‘inda bo‘lg‘an bir ishdir, bundan burun baxtli edilar deganlar tilimizni holini bilmasdan gapuralar…. Dunyoning eng boy tili bo‘lg‘an turkchamiz yolg‘uz arabcha qumruqlar bilan emas, forsi(y)cha tepkilar bilan daxi ezilmishdir. Ko‘zlarimizni to‘rt ochib qarayliq, dunyoning eng buyuk hakimi bo‘lg‘an Ibn Sino turkdir. Ikkinchi Arastu atalg‘an Forobiy turkdir.” [Abdurauf Fitrat, 2009:124]. Millatning sha’ni- sharafi, or-nomusi hisoblangan til masalasi jadid ziyolilari ijodida eng dolzarb muammo o‘laroq zikr etildi.

Milliy adabiyot va milliy til rivojini bir-biridan ayri tasavvur etish mahol. Bu jihatdan, adabiyot va til haqidagi munozaralar mushtarak bir hodisaning o‘ziga xos talqini ekanini ta’kidlash kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ibrohim Tohuriy. Matbuot va isloh. “Al-Isloh” jurnali, 1915-yil, 5-6-sonlar.
2. Hoji Muin. Tanbehga tashakkur. “Oyna” jurnali, 1915-yil, 7-son.
3. “Oyna” jurnali 1914-yil, 3-son.
4. “Oyna” jurnali 1914-yil, 2-son.
5. Rasuliy. Shoir va milliy she’rlarimiz. “Oyna” jurnali, 1915-yil, 9-son.
6. “Sadoi Turkiston” gazetasi 1914- yil, 5-son.
7. Ashurali Zohiriy. Ona tili. “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914- yil, 13-aprel.
8. Mo‘minjon Muhammadjonov. Turmish urinishlari (Bir mulla bolaning xotira daftari). T.: 1926, 315-bet.
9. Abdurauf Fitrat. Tilimiz. (Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev). T.: Ma’naviyat, 2009, 124-betlar.


## TÜRKİYE'DE ÖZBEK TÜRKÇESİ ÜZERİNE YAPILMIŞ LİSANSÜSTÜ TEZLER
## GRADUATE THESIS ON UZBEK TURKISH MADE IN TURKEY

**DR. ÖĞR. ÜYESİ D.ARSLAN,**
***Kastamonu Üniversitesi***

**Özet:** Türk dilinin Karluk (Güneydoğu) kolunda yer alan Özbek Türkçesi ile Oğuz (Güneybatı) kolunda yer alan Türkiye Türkçesi arasında birçok ortak ve farklı özellikler bulunmaktadır. Aynı soydan gelen bu lehçelerin konuşurları arasında dil, din, kültür, tarih, edebiyat açısından da önemli ortak noktalar bulunmaktadır. Her iki lehçe de büyük bir devlet dili olmalarının yanı sıra oldukça geniş bir coğrafyada konuşulmaktadır. Buna bağlı olarak iki lehçenin de üzerine yapılmış çok sayıda bilimsel çalışma bulunmaktadır.

***Anahtar Kelimeler:*** *Türkiye Türkçesi, Özbek Türkçesi, Lisansüstü Tezler*.

Türk dilinin Karluk (Güneydoğu) kolunda yer alan Özbek Türkçesi ile Oğuz (Güneybatı) kolunda yer alan Türkiye Türkçesi arasında birçok ortak ve farklı özellikler bulunmaktadır. Aynı soydan gelen bu lehçelerin konuşurları arasında dil, din, kültür, tarih, edebiyat açısından da önemli ortak noktalar bulunmaktadır. Her iki lehçe de büyük bir devlet dili olmalarının yanı sıra oldukça geniş bir coğrafyada konuşulmaktadır. Buna bağlı olarak iki lehçenin de üzerine yapılmış çok sayıda bilimsel çalışma bulunmaktadır.

Özbekistan ile Türkiye arasındaki ilişkilerin her geçen gün daha da kuvvetlenmesinin en önemli yollarından biri her ülkede de yapılan bilimsel çalışmalardan haberdar olmaktır. Özellikle kardeş ülke Özbekistan'ın bağımsızlığını ilan etmesinden sonra Türkiye'de Özbek Türkçesine Türk araştırmacıların ilgisi artmış, buna bağlı olarak da yapılan çalışmalar hız kazanmıştır. Akademik hayatın en önemli aşamalarından olan yüksek lisans ve doktora çalışmaları da bu ilişkilerin artmasında oldukça etkilidir. Bu çalışma ile Özbek Türkçesi üzerine Türkiye'de yapılmış lisansüstü tezler ele alınacaktır. Çalışmanın amacı da Türkiye'de ve Özbekistan'da Özbek Türkçesi üzerine ister tarihi lehçelerle mukayeseli, ister Özbek Türkçesi grameri, ister metinler üzerinde yapılan dil özelliklerinin tespiti ile ilgili çalışma yapacak araştırmacılara kaynak sunumu yapmaktır. Ayrıca bazı lisansüstü tezler içerisinde Özbek Edebiyatının seçkin eserlerinin Türkiye Türkçesine aktarılmış şekillerinin yer alması araştırmacılara bu eserler üzerinde çalışma imkânı sağlayacaktır.

Çalışmanın verilerini YÖK veri tabanında erişime açılmış 1985-2020 yıllarında yapılmış yüksek lisans ve doktora tezleri oluşturmaktadır. YÖK Tez Veri Tabanı'nda tam metin olarak bulunmayan ve kısıtlanmış tezler de çalışmaya dâhil edilmiştir.

Yapılan kaynak taraması sonucunda tespit edilen lisansüstü tezleri yüksek lisans ve doktora tezleri başlıkları altında yapıldıkları tarihlere göre listelenerek verilmiştir.

Kardeş ülke Özbekistan'ın 1 Eylül 1991'de bağımsızlığını ilan etmesinden sonra Türkiye ile Özbekistan arasında diğer Türk cumhuriyetlerinin de olduğu gibi daha iyi ilişkiler kurulmaya başlanmıştır. Coğrafya olarak uzak olan bu iki kardeş ülke arasındaki gönül bağı her geçen gün daha da güçlenmektedir. Bu ilişkiler zamanla bilimsel çalışmalara yansımış, yapılan bilimsel çalışmalar hız kazanmıştır. Yapılan bu çalışmalar ile Özbek Türkçesi, Özbek kültürü, Özbek edebiyatı, Özbek tarihini yakından tanımak amaçlanmıştır. Bu çalışmada da Özbek Türkçesi ile ilgili lisansüstü tezler ele alınarak Türkiye'de Özbek Türkçesine olan ilgiye dikkat çekilmiştir.

Türkiye'de Özbek dili, edebiyatı, tarihi, kültürü ile ilgili yüzlerce çeviri, makale, bildiri ve kitap düzeyinde çalışma yapılmıştır. Bunların hepsinin sadece listesini vermek bile oldukça kapsamlı olacağı için biz burada sadece konumuzla ilgili olanlarını yani Özbek Türkçesi ait olanları vermekle yetindik. Listelenen çalışmalar yalnızca tespit edebildiğimiz çalışmalardır. Bu listenin her geçen gün daha da zenginleşip uzayacağını temenni ediyoruz.

Yaptığımız kaynak taramaları neticesinde elde ettiğimiz verilere göre, Türkiye'de Özbek Türkçesi üzerine şu ana kadar tespit edilen 94 yüksek lisans Tezi, 18 doktora tezi bulunmaktadır.

Yapılan lisansüstü tezlerin yıllara göre dağılımı ise şu şekildedir:

1985'te 1, 1988'de 1, 1991'de 1, 1994'te 4, 1995'te 1, 1996'da 3, 1997'de 1, 1998'de 3, 2000'de 2, 2001'de 3, 2002'de 2, 2003'te 1, 2004'te 3, 2005'te 1, 2006'da 1, 2007'de 2, 2008'de 2, 2009'da 4, 2010'da 3, 2011'de 4, 2012'de 2, 2013'te 4, 2014'te 3, 2015'te 3, 2016'da 6, 2017'de 1, 2018'de 7, 2019'da 14, 2020'de 8 yüksek lisans;

1992'de 1, 1994'te 1, 1997'de 2, 1999 1, 2001'de 2, 2007'de 1, 2008'de 1, 2010'da 1, 2015'te 2, 2017'de 2, 2018'de 1, 2019'da 3 doktora tezi yapılmıştır.

Bu çalışmaların büyük bir bölümü Türkiye Türkleri tarafından yapılmış olup, bir bölümü de Türkiye'de yaşayan, okuyan, çalışan Özbek, Uygur vb. Türk soylu öğrenci ve araştırmacıların Türkiye'de yaptıkları yayınlarıdır. Bu yayınlara Türkiye'nin Ulusal Tez Merkezi "https://tez.yok.gov.tr/UlusalTezMerkezi/" internet adresinden ulaşmak mümkündür.

Bu çalışmaların yanı sıra devam etmekte olan çok sayıda lisansüstü tezi bulunmaktadır. Bu çalışma Özbekistan ve Türkiye'deki akademisyen ve araştırmacıların yapılan yayınlardan hemen ve yeteri kadar haberdar olamamaları gereksiniminden doğmuştur. Belki Özbekistan'da yapılacak Özbekistan'da yapılan Türkiye Türkçesi ve Özbek Türkçesi ile ilgili lisansüstü tezlerin listelendiği ve açık erişim verilerinin bulunduğu bir çalışma Türkiye'de Özbek Türkçesi çalışanları için oldukça faydalı olacaktır.

**GİRİŞ**

Үйлесімділік басты қағида саналған. Ол дегеніміз ел, мемлекет болу үшін ең алдымен билік пен қарашаның өзара үйлесім табуы маңызды екенін ұққан және ұрпағына аманат етуі дер едік.

Ортағасырлық түркі жазба деректеріндегі мағлұматтардан елге билік ету «Тәңірі қалауы, сыйы», яғни қалауы мен бірге сый деген ой айқын көрініс береді. Және бұл ханға да қарашаға да ортақ сенім ретінде болған. Халыққа сый болатыны «жақсы, ақылды билеуші елді көркейтеді, өсіреді», өз кезегінде ол үшін халықты билеушінің өзі сол «Тәңірінің аманаты» деп қабылдайды. Ал «аманатқа қиянат жасау күнә»! – деген түсінік барлық уақыттардан сабақтасып келеді.

Халыққа ел билеушісі Тәңірінің жердегі «көлеңкесі» деген түсінік арқылы билеушілердің рухани көсемдер ретіндегі орнын қоса айқындай түсудің мүмкіндіктері бар екенін зерттеушілер айтып келеді.

Екіншіден, ерте кезеңдерден бүгінгі күнге дейін қуатты ел болу әскерге, оның саны ғана емес сапасына, жауынгерлік рухына да тікелей байланысты екенін байқау қиын емес. Бұл орайда «Ұлы Дала» халықтарының даңқы әлемге танымал болғаны белгілі. Мысалы, б.э.д. VI ғ. өмір сүрген грек тарихшысы Фукидидтің жазбаларында: «Европада скифтерге (яғни сақтарға. Автор) әскери күш-қуаты жағынан тең келетін ел жоқ. Тіпті, Азияда да жоқ» - деп келетін жолдар көп дүниені аңғартады. Яғни сақтар Европада да, Азияда да саяси үстем болғанын антик дүние авторы нақты айтып тұр.

Ортағасырлық түріктерде елдік, ел болуға керекті рухани бірлік мәселелері ата-бабаларымыз тасқа қашап жазған «бітік тастарда» жиі кездеседі. Біз осы ескерткіштердің оқылуы мен зерттелуіне қатысты қазақ ғалымы Қ.Сартқожаұлының ғылыми аудармасынан мысалдар келтіріп отырмыз. Күлтегін тасындағы мәтін: «Жоғарыда Көк Тәңірі, төменде Қара Жер жаратылғанда, екеуінің арасында (ортасында) адам баласы жаралған. Адам баласы үстіне ата-бабам Бұмын-қаған, Істемі қаған (таққа) отырған» -деп басталады [1, 264 б.]. Одан ары түркіні бұзар қытайдың «тәтті сөзі» мен «сыйға берілетін асыл тастары» екенін айта келе, оларға алданбай елдікті ойлап іс қылуға шақырады. «Түрік халқының ұмытшақтығын» сынай келе, осы тасты жаздырғанын да тасқа қашаған. Тек бірлік ғана елдік мұратқа жеткізетінін тасқа қашайды. Ал Тоныкөк жазбаларында: 1 «Білге (дана) Тұй-ұқұқ мен өзім Табғач елінде қылындым (туылдым). (Ол заманда) түрік халқы Табғачқа қараушы еді». 2 «Түрік халқының қағаны жоқ еді. Табғачтан бөлініп, қағанды болды. Қағанынан айырылып, Табғачқа және бағынды. Тәңірі былай деген-ді: қаған бердім. Қағаныңды жойып, (басқаға) бағындың. Бағынғандығың үшін Тәңірі сені өлімші етті....» [1, 452 б.]. Көріп

отырғанымыздай бабаларымыз сол кезеңнің өзінде тәуелсіз ел болудағы саяси билікті киелі (Тәңірі сыйы) деп ұғыну, билік басындағы билеушіге деген құрметті ғана емес, билеушінің халық үшін жауапкершілігін де нақты айтып тұр. Және Қаған лауазымына тек белгілі бір билік тайпасының өкілдері ие болу құқығын иемденгені (Ашина тайпасының өкілі) және өзгелер қанша ақылды, батыр болса да қағандыққа таласуға болмайтындығы да жазба деректерде сақталған. Тіпті кейінгі ортағасырларда қыпшақтарда билік тайпасы ретінде Елбөрі тайпасының саналғанын деректер растап отыр. Осы дәстүр Шыңғыс хан шабуылдарының әсерінен саяси билікке тек оның ұрпақтарының ие болатынын көрсеткен «Жосық» заңдарында нақтылануы түрік тайпаларындағы саяси билік туралы түсініктердің сабақтастығынан хабар береді.

Осы бір ертеортағасырлық түркілерге тән жоғары асқақ рухқа толы ұлттық психологиясы ислам келген соң біршама «жуаси» түскен шығар деп ойлағанымызды жасырмаймыз. Алайда қандай кезеңде де тарихи саналары жоғары түркілердің рухы да асқақтығын жоғалтпағанын байқау қиын емес. Олай болса ендігі жерде осындай деректер мен түсініктерді көрсететін тарихи деректерге, соларға сүйеніліп айтылған зерттеу пікірлерге ден қоя отырып оның кейбір іздерін М.Қашқаридің «Диуан Луғат ат-Түрік» еңбегімен тарихи-салыстырмалы тұрғыдан қарастыруды жөн санаймыз.

Ең алдымен аталған еңбектің лингвистикалық сипаты басымдау екенін ескере келе М.Қашқаридің тіл тазалығына баса назар аударғанын айтпай кетуге болмас. Ол «ең таза, көркем тілдер қатарына жат парсы тілінің сөздерін қоспай сөйлейтіндер мен бөгде салт-дәстүрлерді қабыл алмайтындарды жатқызатынын» ашып айтқанының астарлы мағынасында талай-талай танымдық мәселелер бар екенін ескеру керек [2, С. 69]. Өйткені, қала халқымен араласқандардың тілі екі немесе одан көп тілдердің элементтерінен тұрып «таза тіл» бола алмайтынын және ал кейбір сырттан кірме тайпалардың тілі түркіленгенін ашық жазған (сонда). Бұдан шығатын қорытынды таза тілге ие халық аз деген сөз. Соның ішінде түріктерде аралас тайпалардан құралған. Бірақ оларды тіл біріктіруші күш, құрал екенін және өзіндік ойлау жүйесі жоқ халық, яғни рухани тұтастығын көрсететін негізгі белгілерге ие емес халық біртұтас ел бола алмайтынын да айтып тұрғандай. Иа ортағасырлық түріктердің алып империясы құрамындағы тайпаларды сипаттап беруде олардың тіліне айрықша тоқтала отырып, М.Қашқари сол заманның өзінде тілдің елді біріктіруші факторлық қызметін жақсы білген. Мысалы, М.Қашқаридің: «....өз тілі мен жазуы бар Хотандықтар сияқты Түбіттердің өз тілі бар. Олардың екеуі де түрікше еркін меңгермеген», «Көшпенді Жумулдар, сонымен бірге Кай, Йабаку, Татар, Йасмилдердің өз тілі бола тұра, түрік тілін жақсы меңгергені » туралы мағлұматтарды келтіреді [2, С. 69-70].

М.Қашқари еңбегінен билікке қатысты дүниетанымдық мәселелер де анық байқалады. Оның ішінде ерте ортағасырлардан қалыптасқан түркілік рухты жоғары қойып сөз қозғау дәстүрі ислам келгеннен соңда бәсеңдемегенін анық байқатады. Оны жазбагердің: «Мен Тәңірінің дәулет ұясын түріктер жұлдызына жаратқанын және ғарышты солардың заманы үстіне айналдырып қойғанын көрдім. Тәңірі оларды «түрік» деп атады. Әрі оларды мемлекетке еге қылды. Заманымыздың қағандарын түріктерден шығарып, дәуір, халықтың ақыл-ерік тізгінін солардың қолына ұстатты; оларды адамдарға бас қылды; хақ істерде соларды қолдады.....»-деп жазғаны айқын көрсетіп тұр [3, 7 б.].

Әрине М.Қашқари өмір сүрге кезең тарихи жағдайда түріктердің саяси тұрғыдан үстем болып тұрған кезеңі. Дегенмен ондай асқақ рухсыз түріктер саяси үстемдікке қол жеткізе алмасы тағы белгілі. Сол рухқа түріктер мемлекет құрып, дербес ел болғаннан соң ие болған. Ең жоғары билік Қаған лауазымы. Оны Тәңірі тартуы, сыйы деп қабылдағанын көрсететін деректер жеткілікті. Мысалы, Тонықөк ескерткішінде: “tanri anca temis erinc qan bertim” яғни «Тәңірі айтты: мен бердім [саған түркі халқы] қанды» - деген жолдар бар [4, С. 417]. VIII ғасырдағы Онгин жазбаларында «қан» (яғни «хан») термині осы мағынада кездеседі [4, С. 417]. Түркі халықтарында хан лауазымының тәңірдің сыйы ретіндегі түсініктермен астасып жатқаны жоғарыдағы мәтіннен көрінеді. Бұл түркілер санасында қасиетті лауазым саналып, олар ханды тәңірінің жердегі өкілі ретінде қабылдағанын көрсетеді. Ұйғыр жазуымен

жазылған Турфандық түркі жазбаларында «adinciγ iduq qaγan qan susi,» яғни «қасиетті жоғарғы билеушінің таңдаулы жасағы» деген мәтін бар. Қасиетті сөзі босқа қолданылмағаны байқалады. *Қаған хан а*тауы қасиетті, жоғарғы, биік, яғни хандардың ханы деген мағынаға сай екенін көрсетеді. Әл-Хорезми жазбаларында «қаған - түріктердің бас билеушісі. Қаған - бұл хандардың ханы, яғни көсемдердің көсемі, парсылардың шахиншахына сәйкес,» деп қағанның дәл анықтамасын көрсеткен [5, с. 116].

Ортағасырлық Оғыздарда *хан* мен *жабғу* титулдары, селжұқтарда, XI ғасырда, *хан* және *сұлтан* титулдары қатар қолданылған [6, с. 113.; 7, с. 414-416].

Қарлұқтарда жоғарғы билік лауазымы жабғу болды. Күшейе келе *қаған* деңгейінде атала бастаған. Ал олардың кейінгі мұрагері - Қарахан мемлекетінде биліктің жоғарғы деңгейінде *хан* отырды. Ортағасырлық түркі тілінде алғаш рет сол дәуірдегі түрік қоғамының саяси, мемлекеттік құрылымы мен оны басқару туралы жазылған Жүсіп Баласағұнның «Құтты білік» еңбегінде жоғарғы билік лауазымы «хан» ретінде көрсетілген [4, С. 636].

Жалпы алғанда ұлттық тарихымызды зерттеудегі құнды дереккөздер ретінде түрлі жазба мұралар пайдаланылып келеді. Олардың қатарына көне грек, латын, парсы, қытай, араб, түрік, армян, славян тілдерінде жазылған жылнамалар, тарихи, географиялық, агиографиялық шығармалар, энциклопедиялар, саяхатшылардың естеліктері, актілік құжаттар және сөздіктер жатады. Жазба ескерткіштердің басым бөлігін, негізінен, сипаттау бағытында жазылған елшілер мен саяхатшылардың, уағыз таратушылардың (миссионерлердің) естеліктері мен жазбалары және өзіндік жанрға жататын актілік, яғни заң актілері - жарлықтар, бұйрықтар, түрлі актілер-өтініштер, арыз-шағымдар құрайды. Олар тарихи дереккөз ретінде ғылыми айналымға енген. Өкінішке орай, тілдік жәдігерлер - сөздіктерді тарихи дереккөз ретінде қарастырып, ғылыми айналымға қосқан еңбектер жоқтың қасы. Шындығында, «тілдік деректер» арқылы этностың болмысын, тұрмысын және өзіндік тарихи ерекшеліктерін айқындауға болады. Өйткені, халық тарихи санасы арқылы өзін толық тани да, таныта да алады. Халық өз тұрмысы мен болмысындағы бар, әрі қажет еткен дүниенің бәрін, тарихи санадағы ұғым, түсініктерін тіл арқылы сыртқа шығарады және сақтайды [8]. Олай болса лингвистикалық деректерге де тарихшылар тарапынан ғылыми дереккөздік тұрғыдан талдаулар жасау керектігі анық байқалады. Осы жолдар авторының зерттеулерінде ортағасырлық «Кодекс Куманикус» жазба ескерткішіндегі тілдік деректер арқылы құман-қыпшақтардың тарихы зерделенді [9]. Қазақ халқы басқа да туыс халықтар сияқты қыпшақ тілді халық екені, қазақ әдеби тілінің қайнар көзі - қыпшақ тілі екені белгілі. Қыпшақтар қазақ халқының қалыптасу үдерісінде (процесінде) де басты құрамдарын (компоненттерін) құраған тайпалардың бірі болатын және ортағасырлық қыпшақтар құрған мемлекеттің орталық аумағы қазақ даласы болды.

Ертістен бастап, Дон мен Дунайға дейінгі аралықтың «Қыпшақ Даласы» аталып, қыпшақтардың нағыз дәуірлеп тұрған XI ғасыр ортасынан XIII ғасырдың басына дейін, бұл аймақта ғасырлар бойы қалыптасқан қыпшақ мәдениеті үстем болды. Аталған дәуірде қыпшақтар «әлемдік империялар» санасқан, ірі, саяси күшті ел еді. Шығыстан Батысқа, немесе кері бағытта, «Қыпшақ Даласын» басып өту үшін қыпшақ тілін білу өте қажеттіліктің басты бағытынан саналды. Батыс пен Шығыс елдері әралуан амалдар (елшілер, саудагерлер жіберу, жансыздар салу, жиһангездер аттандыру, уағыз таратушылардан діни тыңшылар жасақтау т.б.) арқылы қыпшақтарды жан-жақты тануды қолға алған. Кейін, монғолдардың саяси билігі тұсында да қалыптасқан қыпшақ мәдениетінің басым болғаны тарихи деректерден белгілі. Осындай түрлі қажеттіліктер арқасында ортағасырларда қыпшақ тіліне қатысты бірнеше сөздіктер жазылды. «Кодекс Куманикус те» сондай жазба ескерткіштің бірі, әрі бірегейі. Сондықтан Қыпшақтану - Қазақтанудың басты бағыты деп, ал Қыпшақтанумен шұғылдану - қыпшақ әлемінің қара шаңырағы - Қазақстанның тарихи миссиясы деп санауға болады [10]. М.Қашқари еңбегінде қыпшақ тілдерінің өзіндік ерекшеліктерін көрсететін деректер қатарын тілдік тарихи дереккөз тұрғысынан арнайы зерделеу арқылы халықаралық қыпшақтану бағытының ілгерілеуіне ықпал етеді.

Қорыта келгенде М.Қашқаридің «Диуани Луғат ат-Түрік» еңбегінде ортағасырлық түріктердің саяси билік және билік иесі қағандар мен хан туралы ерте кезеңнен келе жатқан дүниетанымдық сабақтастықтарды көрсете алатын мол тарихи лингвистикалық деректер қоры бар.

**Пайдаланған әдебиеттер:**


1. Қаржаубай Сартқожаұлы. Орхон ескерткіштерінің толық атласы. Үш томдық. I том. Алматы, «Samga Press»6 2019. -510 б.

2. Махмуд ал-Кашгари. Диван Лугат ат-Турк. Перевод З.-А. М. Ауэзовой. Алматы: Дайк-Пресс, 2005. – 1288 с. + 2 с. Вкл.

3. Махмұт Қашқари. Түрік сөздігі. Үш томдық. Аударған А.Қ.Егеубай. I том. Алматы, «Хант» баспасы, 1997 ж. -590 б.

4. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 676.

5. Кумеков Б.Е. Государство Кимеков IX-XI вв. по арабским источникам. – Алма Ата: Наука, 1972. – С. 156.

6. Агаджанов С.Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XIII вв. – Ашгабат: Ылым, 1969. – С. 294.

7. Бартольд В.В. “Султан Санжар и гузы” // Сочинение в IX-х томах. – Москва: Наука, 1964. - Т.II. часть 2. – 657 с.

8. Қайдар Ә. Қазақ тілінің өзекті мәселелері. – Алматы: Ана тілі, 1998. – 304 б.

9. Анарбаев Қ.С. Ортағасырлық құман-қыпшақтар тарихының мәселелері («Кодекс Куманикус» материалдары бойынша) // Кандидаттық диссертация. Алматы, 2009 – 150 б.

10. Қайдар Ә. Қыпшақтанудың бір бұлағы - тіл // ҚР БҒМ, ҰҒА Хабарлары. - Тіл, әдебиет сериясы. - 2002. – № 3. – 13-17 бб.


## ЮСУФ ХОС ҲОЖИБНИНГ ЭСКИ ТУРКИЙ ТИЛ ИМКОНИЯТЛАРИНИ ЁРИТИШ МАҲОРАТИ
## YUSUF KHAS HAJIB’S SKILL IN ILLUMINATING THE POSSIBILITIES OF THE OLD TURKIC LANGUAGE


**М.Холмурадова**
***ТошДЎТАУ катта ўқитувчиси,***
***филология фанлари бўйича фалсафа доктори***


Ўзбек тилининг назарий масалалари, амалий қиймати, бадиий-услубий имкониятлари юзасидан бир қатор тадқиқотлар олиб борилган. “Ўзбек тилшунослиги адабий тил сатҳларига оид долзарб масалаларга тегишли кўпдан кўп изланишларга эгалиги, чунончи, бадиий услубият масалаларига тааллуқли тадқиқотлар кесимида муайян ютуқларни қўлга киритганлиги билан фахрланса арзийди”[1].

Лексикология тилнинг энг ўзгарувчан сатҳи бўлиб, бевосита халқ ҳаёти, турмуш тарзи, дунёқараши, маънавияти билан боғлиқ. Муайян тилнинг лексик имкониятлари бадиий матнда тўла намоён бўлади. Маълумки, бадиий матнда тил воситаларининг аҳамияти ҳақида фикр юритилганда, фонографик, морфологик ва синтактик воситалар баробарида лексик воситаларга ҳам диққат қаратилади. Модомики, бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлилида тилнинг асосий бирликларидан бири – сўз муҳим ўрин тутар экан[2], унда муайян шоир ёки ёзувчи услуби, тил хазинасидан фойдаланиш маҳоратининг намоён бўлиш даражаси ҳақида фикр юритиш лозим бўлади.

[1] Дадабоев Ҳ.“Қутадғу билиг” матнида бадиий актуаллашган лексик воситалар хусусида// Стилистика ва прагматика. Профессор С. Каримов таваллудининг 60 йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд, 2010. 4-5 июнь. –В. 48.

[2] Юлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол.фанлари док.дисс.автореф.–Т., 2009 .

Таъкидлаш жоизки, нафақат адабий тил, балки турфа қабила ва элатлар сўзларидан мукаммал хабардор бўлган Юсуф Хос Ҳожиб ҳар бир лексеманинг маъно нозикликларини ҳисобга олиб, ўта билимдонлик билан қўллаган, кўп ўринларда лексемаларга семантик вазифалар юклашнинг уддасидан чиққан[1]. Муаллиф маҳорати ўхшатиш ва қиёсларда, кўп маъноли сўзлар семантикасида, метафора, метонимия каби кўчим турларида ўз ифодасини топган.

**3.1. Полисемантик сўзлар**

Полисемия ҳар қандай тилда ҳам салмоқли ўрин тутади. Тил бойлиги фақат сўзлар, иборалар миқдори билан эмас, сўзларнинг лексик маънолари миқдори билан ҳам ўлчанади.[2]

Полисемия одатда муайян нарса-предмет, белги-хусусият, ҳаракат номини бошқа нарса-предмет, белги-хусусият, ҳаракатга кўчириш усули билан воқеланади.[3] Полисемия ҳодисаси ўзбек тилшунослигида атрофлича ўрганилган.[4]

Кўп маънолилик туркий тиллар табиатига хос ҳодиса бўлиб, аксарият туркий сўзлар кўчма маъноларда келиш хусусияти билан фарқланиб туради. Кўп маъноли сўзларда семантик кўчишлар метафора, метонимия, синекдоха, вазифадошлик асосида юзага келади. «Қутадғу билиг»да бир қатор сўзлар кўп маънолилик хусусияти билан намоён бўлган. Асар матнидаги белги билдирувчи сўзларнинг кўп маънолилик хусусиятлари таҳлил этилган.[5] Қуйида кўп маъноли сўзлардан айримлари борасида тўхталамиз.

Асарда келтирилган **ač=** феъли “нарса-ҳодиса, буюм қатларининг текисланиши, объект ичидагини намоён этиш” маъноларини ифода этади. *Qapuγ ačtï dunya taqï bir qapuγ, ölüm qapγï ačlur kirür χalq qamuγ* – Дунё эшик очди, яна бир эшик (очилади), ўлим эшиги очилади, ҳамма халқ (унга) киради (ҚБН, 3484; 130b5); **ač=** реал бўлмаган тушунчалар (дунё, ўлим)га нисбатан қўлланиб, кўчма маънода келган. Бу лексема ибора таркибида келиб, “ёришмоқ” маносини ифодалашга хизмат қилган: *Turub čïqtï sewnü qapuγqa külä, ögi köŋli ačlïp yarudï yula* – Ўрнидан туриб севиниб, кулиб эшикка чиқди, хотири шод бўлиб, кўнгли очилиб, машъалдек ёриди (ҚБН, 587; 28 a3).

Достондаги **ačïγ** лексемаси кўп маънолиликни юзага келтирган. Бу сўзнинг маънолари: “аччиқ, нордон, шўр; оғир, қийин, машаққатли”. «Қутадғу билиг»да ўз маносида келиб, нарса-буюмнинг маза-таъмини ифодалаган: *Ačïγ suw teg kör ul bu dunya näŋi, nečä ičsä qanmaz ölimäz tili* – Бу дунё нарсаси шўр сув кабидир, назар сол, (киши) қанча ичса (ҳам) қонмайди, тили ҳўлланмайди (ҚБН, 3568; 133a14). Бу сўз предметнинг маъза-таъм хусусиятини билдиради. Кўчма маънода келиб, “аламли, қўпол, дағал” маъноларини англатган: *Tügüg yüz ačïγ til kišig tomlïtur, tiriglikdä ketmäs köŋülda yatur* – Тугук юз, аччиқ тил кишини совутади, тирикликда кетмайди (эсдан чиқмайди), кўнгилда сақланади (ҚБН, 2538; 97a7).

**Baš** тана қисмини билдирувчи полисемантик сўз, денотатив маънода жонзотлар танасининг юқори қисмини ифода этади. Қуйидаги байтда нарса-буюмлар қисмига кўчган: *Elik sunsa erdäm bilä er tegib, uluγ taγ bašïn yerkä ilgürür egib* – Киши тушуниб, санъат-ҳунар билан қўл узатса, улуғ тоғ бошини эгиб ерга энгаштиради (ҚБН, 2608; 99b4). **Baš** “асосий, муҳим, бошлиқ, бошчи” маносини ҳам ифодалаган: *Kür arslan bolu bersä ïtqa bašï, bu ït barča arslan bolur öz tüši*– Кўргин, агар арслон ит (лар)га бош бўлса, бу итлар барчаси унинг тенгида арслон бўлади (ҚБН, 2013; 79a10). Бу ўринда *baš* лексемаси вазифадошлик асосида кўчма маъно ифодалаган. *Бош* бутун тана аъзоларини бошқаради. *Бошлиқ* ҳам бошқариш

[1] Дадабоев Ҳ.“Қутадғу билиг” матнида бадиий актуаллашган лексик воситалар хусусида// Стилистика ва прагматика. Профессор С. Каримов таваллудининг 60 йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд, 2010. 4-5 июнь. –Б. 49.

[2] Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси.–Т.:Mumtoz so‘z.–Б. 158;

[3] Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Биринчи китоб. – Т.:Mumtoz so‘z, 2010.– Б.61.

[4] Абдурахманов И. Полисемия и антонимия в современном узбекском литературном языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1973; Аликулов Т. Полисемия имен существительных в узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Т., 1966; Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: Фан, 1975;

[5] Баялиева Г. “Қутадғу билик” дастаны тіліндегі көпмағыналы сын сімдер// Тіітаным. Языкознание. –№1. – Алматы, 2003.– С.93-96.

вазифасини бажаради. Семантик кўчишга “бошқармоқ” семаси асос бўлган. Р.Арзиев *baš* сўзининг 8та маъносини келтирган: 1) бош, асосий, тўғри маъноси: тана қисми; 2) бошлиқ, сардор; 3) маълум бир ҳодисанинг бошланиши; 4) ниманингдир тугаши, охири; 5) мақсадга мувофиқ бажарилган иш; 6) ҳаёт, тақдир, 7) халқ, 8) илғор, асосий.[1] А.Касиева “Қутадғу билиг” матнида *бош* сўзининг 130 дан ортиқ метафорик маънолари акс этганлигини қайд этади[2].

Достон матнида қўлланган **arqa** лексемаси кўп маънолилик ҳосил қилган. Биринчи маъноси “орқа томон, бел, пушт, пушти камар”: *Ata arqasïnda tuγulsa oγul, ana qarnï manzil qač aylïq amul* – Ўғил [яъни фарзанд] отанинг белидан (пуштидан) бунёд бўлгач, она қорни (раҳми) унинг учун бир неча ойлик сокин бир манзилдир (ҚБН, 1372; 56 б). Иккинчи маъноси “мадад, таянч”. *Ya rabb üstä davlat tügäl qïl tiläk, qamuγ ištä bolγïl sen arqa joläk* –Ё рабб, давлатни зиёда қил, тилакларни тугал эт, барча ишда сен мададкор бўл (ҚБН, 112; 11b1). Бу сўзлар “муайян тушунчанинг орти” семаси билан ўзаро боғланади.

“Қутадғу билиг” лексикасининг асосий хусусиятларидан бири туркий сўзлар орасида феъл туркумига оид лексемаларнинг кўп қўлланишидир. Асар лексикасидаги полисемия сўзлар семантикасидаги кўчиш усулларини ёритишга хизмат қилади.

**3.2. Метафора, метонимия, синекдоха усулидаги маъно кўчиши**

**Метафора** –«ўхшашлик» асосидаги маъно кўчиши. Метафора адабиётшуносликда *истиора* деб юритилади. Бадиий асарларда сўзларни ўз маъносидан ташқари мажозий маънода қўллаш санъати истиорадир. «Қутадғу билиг»да қўлланган метафораларни А. Касиева махсус ўрганган.[3]Достон матнидаги метафора намуналари таъсирчанлиги ва бетакрорлиги билан алоҳида аҳамиятга эга. Асар таркибидаги метафораларни шартли равишда икки гуруҳга ажратдик:

а) шахс феъл-атворини ифодаловчи метафоралар;

б) табиат ҳодисалари, нарса-буюм хусусиятларини ифодаловчи метафоралар.

**Шахс феъл-атворини ифодалашда қўлланган метафоралар.** *Yula erdi xalqqa qaraŋqu tüni, yoruqluqï taδtï yaruttï seni* –Қоронғу тунлари (у) халққа машъал эди, (У) ёруғлигини тарқатиб сени рўшноликка чиқарди (ҚБН, 34; 8b6). Муҳаммад (с.а.в.) сифатлари “шамчироқ, машъала” маъносини ифодаловчи *yula* сўзининг кўчма “машъал” маъноси орқали мадҳ қилинган бўлиб, пайғамбаримиз диннинг таянчи ва суянчи тарзида эътироф этилган.

Асарнинг бош қаҳрамонларидан бири Ойтўлдининг хусусиятларини ифодалашда метафоралар муҳим ўрин тутади. *Yüzi körki körklüg qïlïnčï köni, qamuγ anda könilik tönï* – (Ойтўлдининг) юзи кўркли, феъли-рафтори тўғри (эди), (ҳожиб) барча ростлик либосларини унда мужассам кўрди (ҚБН, 519; 25b8). Ойтўлди вазир бўлганлиги боис адолатли ва феъли тўғри бўлиши лозимлиги қайд этилган. Муаллиф барча ростлик либосларини унда мужжассам кўрган. Биринчи мисрада *köni* “тўғри”, иккинчи мисрада *tön* “либос” метафора асосидаги кўчимни юзага келтирган.

Бекларнинг хусусиятларини ифодалашда ҳам метафоралардан унумли фойдаланилган. *Qut-ul beg yaqïn bolsa qutqa kiši, tiläkin bulur barča etlür iši* –Бег – бу қут, агар киши бу қутқа яқин бўлса, барча тилакларини топади, ишлари бажо келади (ҚБН, 592; 28a8). Ушбу байтда беглар *qut* истиораси билан номланган. Агар киши бу қутга яқин юрса эзгулик топади, тилаклари бажо бўлади. Аммо, беглар дарғазаб бўлган пайтда оловдан ҳам кучлироқ, заҳардан ҳам заҳарлироқ бўлишади. Шунинг учун беглар дарғазаб бўлган пайтда уларнинг олдига яқинлашмаслик зарурлиги айтилган.

*Taqï yaqšï aymïš biliglig bögü, bušar öδtä beglär bolur ot aγu* –Билимли, доно (бу ҳақда) янада яхшироқ айтибди: дарғазаб бўлган пайтида беглар олов (ва) оғу бўлади (ҚБН, 764; 34

[1] Арзиев Р. Лексико-стилистические особенности языка поэмы “Кутадгу билик” Юсуфа Хас Хаджиба. Дисс. канд. филол. наук.–Алма–Ата, 1991.–Б.10

[2] Касиева А. Антропоморфная метафора в поэме “Кутадгу билиг” и особенности перевода ее на английский язык. Sosyal Bilimlar Dergisi.Sayı:15, 2006.–С.142.

[3] Касиева А. Лексико-семантический анализ метафор “Кутадгу билиг.–Бишкек, 2005; шу муаллиф. Антропоморфная метафора в поэме “Кутадгу билиг” и особенности перевода ее на английский язык // Sosyal Bilimlar Dergisi.Sayı:15, 2006. – С.142.

а). *Ot* ва *аγu* сўзлари бегларнинг характер-хусусиятини ифодаловчи метафораларни ҳосил қилган.

Феъл-лексемалар метафорик маънода келиб, шахс феъл-атвори, руҳий ҳолатига нисбатан қўлланган, бадиийликка, таъсирчанликка хизмат қилган.

**Табиат ҳодисалари, нарса-буюм хусусиятларини ифодалашда қўлланган метафоралар.** «Қутадғу билиг»да турли мансабдор шахслар ва ижтимоий табақаларни ифодаловчи метафоралардан ташқари табиат ҳодисалари ва ижтимоий ҳаётдаги жараёнлар, воқеа-ҳодисаларга доир метафоралар ҳам фаол қўлланган. *Uqušqa biligkä bu tïlmač tïl, yaruttačï erni yorïq tilni bil* – Уқувга, билимга тилмоч – бу тил, кишини рўшноликка чиқарган равон тил деб билгин (ҚБН, 158; 13a7). Тил орқали киши юксалади, қадр топади. Байтда *tïlmač* метафорани юзага келтирган.

*Yaγï-ul bu bor ičmi altun kümüš, qïlïnčï tutuš boldï qïlqï uruš* – Ичимлик бу ёв, (унинг) ичими эса олтин, унинг (келтириб чиқадиган) ишлари ёқалашиш, юмушлари эса урушдир (ҚБН, 2064; 81a1). Ушбу байтда ичкиликнинг салбий оқибатлари ҳақида маълумот келтирилган. Ичимлик ёвга қиёс қилинган. “Ёв”(уаγï)лигининг асоси “ёқалашиш” (tutuš), “уришиш” (uruš) билан изоҳланган.

*Aγïzdïn ara ot ara suw čïqar, birisi yapuγli birisi yïqar* – Оғиздан гоҳо ўт, гоҳо сув чиқади, бири тузади, бири бузади (ҚБН, 2646; 100b14). Байтда муаллиф беқиёс истиора намунасини келтирган. Оғиздан чиқадиган сўз ўт (олов) ва сувнинг хусусиятлари билан ифодаланган. Достон матнида таъкидланганидек, ёмон сўз олов каби барча экинларни пайҳон қилади, яъни ёмон сўз инсонларнинг дилини вайрон қилади. Яхши сўз зилол сув кабидир. Сув бор ерда анвойи неъматлар унади. Яхши сўз ҳам кишилар қалбига яхшилик уруғини сочади. *Ўт* ва *сув* тушунчаларидаги семантик зидлик метафорага асос бўлган.

*Qïlïč birlä tutlur qalï tutsa el, qalam birlä baslur qalï bassa el* – Агар эл олинса, қилич воситасида олинади, агар эл бошқарилса, қалам билан бошқарилади (ҚБН, 2671; 101b9). Байтдаги *qïlïč* сўзи “куч”, *qalam* “адолат” маъносида қўлланган.

*Otuz ekki tišïm ürüŋ yünǯülär, üzüldi yïpï kör sačïldï birär* –Ўттиз икки тишим – бу оқ инжулар, ипи узилди, кўр, битталаб сочилди (ҚБН, 5522; 203a5). Байтда ўттиз икки тиш оқ инжуларга қиёсланган. Бу ўринда тишларнинг оқ рангда бўлиши, бир хил шакли қиёслашга асос бўлган. *Ürüŋ* оқ рангни билдирувчи сўз бўлиб, энг қадимги олтой боботил даврига бориб тақалади. Мўғул тилида ҳам қўлланади.[1]

*Qonuq ya bu dunya seŋär bir tüšün, tüšündä sewünč tutma artuq uzun* – Сен учун бу дунё бир меҳмонхона ёки работдир [яъни тушиб ўтирадиган жойдир], работдан кўп, узоқ севинма (ҚБН, 3513; 1313b4). Достонда дунё кўп ўринларда *работ, карвонсарой (tüšün)* га қиёс қилинган. Бу метафорик кўчимда “вақтинчалик”, “ўткинчи” семалари асос бўлган.

Асар матнида қўлланган метафоралар маънони таъсирчан ифодалашга, денотат хусусиятлари, белгиларини ёритишга, нарса-буюмлар ўртасидаги ўхшашликни англашга хизмат қилади.

**Метонимия асосидаги маъно кўчиши**

Метонимия юнонча “қайта номлаш” демакдир. Нарса ва ҳодисалар ўртасида макон ва замондаги ўзаро алоқадорлик асосида бир номнинг иккинчисига кўчирилиши метонимия ҳисобланади. “Қутадғу билиг”да метонимиядан унумли фойдаланилган.

*Učuγlï yurïγlï tïnïγlï nečä, tirilgü seniŋdin bulub yer ič-ä* – Қанчадан қанча учадиган (лар), юрадиган(лар), нафас оладиган(лар), сендан ризқ топиб учиб-ейди(лар) (ҚБН, 22; 8a9). Бу ўринда қушлар (*učuγlï*), ер юзидаги жонзотлар (*yurïγlï*) ҳамда инсонлар (*tïnïγlï*) назарда тутилмоқда. Байтда метонимия сифатдошнинг отлашиши ҳисобига воқеланган.

*Yorïγlï körür-män yaraγlïsï yoq, yaraγlï bulunsa yurïγlïsï yoq* –Юрувчиларни (кўплаб) кўраман, ярайдигани йўқ, яроқлиси топилса-чи, у юрмайди (умри қисқа бўлади) (ҚБН, 1598; 64a12). Байтда *yorïγlï* “юрувчилар” деганда одамлар назарда тутилмоқда. Муаллиф “бу дунёда яшовчилар ичида яроқли киши йўқ, ярайдигани эса тирик эмас”, деган ғояни илгари сурмоқда. Бу байтда ҳам сифатдош отлашган.

[1] Дадабоев Ҳ., Холманова З. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. –Т.:Turon zamin ziyo, 2015.–Б. 51.

Достон матнида қўлланган *köŋli süzük* “кўнгли покиза”, *köŋli tüzük* “кўнгли тўғри” изофалари орқали “тоза, пок кўнгилли инсон” назарда тутилади: *Nekü ter ešitgil ay köŋli süzüg, qamuγ iš ičində e köŋli tüzüg* – Нима дейилган, эшитгин, эй кўнгли покиза, ҳамма иш(лар) соҳасида (ҳам) эй кўнгли тўғри (ҚБН, 3046; 114 b4).

Асарда қўлланган **atlan=** лексемаси “отланмоқ, отга минмоқ” маъносидаги келган: *Turup čïqtï atlandï keldi yana* –Туриб чиқди, отга минди, яна қайтиб келди (ДТС, 67). Ясама сўз мазкур байтда ўз маъносида келиб, транспорт воситаси ҳисобланган уловни эгарлаш, миниш назарда тутилади. Лексема “жўнамоқ”, “тайёрланмоқ”, “ҳозирланмоқ” маъносида ҳам қўлланган: *Qalï atlanur bolsa beglär sügä* – Агар беглар жангга отлансалар (ҚБН, 2542; 97a11). Байтда *отланмоқ* “лашкар тортмоқ”ни ифода этади. Кўчма маъно “отга миниш” ҳаракати орқали воқеланган. Даставвал, бирор жойга бориш учун отга минилган. Кейинчалик, бирор ишга жазм қилмоқ, аҳд қилмоқ” маъноси ҳам шу сўз билан ифодаланган. Маъно кўчишига “ҳозирланмоқ”, “йўл олмоқ” семаси асос бўлган.

**Aš** сўзи “таом, овқат” ҳамда “зиёфат” маъноларида келган: *Ularda birisi kodängä aš-ul, ya sunnat ašï ya tuγursa oγul*– Улардан биттаси зиёфат (никоҳ) ошидир, ё суннат оши ёки фарзанд туғилиши муносабати билан бериладиган ошдир (ҚБН, 4471; 66a2). Ушбу байт аждодларнинг қандай маросимлар муносабати билан элга дастурхон ёзиши, ош тортишини ўзида яққол ифода этган. Кези келганда достонда бирор кишининг вафотига бағишлаб бериладиган эҳсон ошининг ***yoγ ašï*** изофаси билан ифодаланганини айтиб ўтиш лозим (ҚБН, $330_4$).

*Tolun (<tol=)* деганда шу белгига эга бўлган ойга (Муҳаммад (с.а.в.)) ташбеҳ қилинган: *Qiyamatta körgit tolun-teg yüzin, elig tuttačï qïl ilaha özin* – Қиёматда тўлин (ой) каби юзини кўрсат, илоҳо, ўзини (қўл)дан тутувчи қил (ҚБН, 47; 9a6).

Юсуф Хос Ҳожиб асарда ўқувчига кўп мурожаат қилади. Муаллиф *aya qutluγ öz* “эй қутлуғ инсон”, *e eδgü köŋül* “эй эзгу кўнгилли инсон”, *e bilgi batïγ* “эй билими чуқур инсон”, *e köŋlï yazï* “эй кўнгли кенг киши”, *aya elči qut* “эй қут элчиси”, *e sïγun* “эй, буғу” каби мурожаат шаклларини қўллаган. Бу мурожаат шаклларида ҳам метонимияга асосланилган.

**Синекдоха усулидаги маъно кўчиши**

Ҳосила маъно юзага келишининг унча кенг тарқалмаган кўриниши *синекдоха* – юнонча “биргаликда англаш” сўзидан олинган бўлиб, бўлак орқали бутунни ёки бутун орқали бўлакни ифодалашни билдиради.[1]«Қутадғу билиг»да келтирилган синекдохаларда табиат ҳодисалари, турли доирадаги шахсларнинг хусусиятлари ифодаланган. Асарда, асосан, қисм номи билан бутун ифодаланган: *Yanut berdi Ögdülmiš aydï özüm, seni arzuladï ay körklüg yüzüm* – Жавоб берди Ўгдулмиш, айтди: ўзим, сени (кўришни) орзуладим, эй кўркли юзим (ҚБН, 3266; 122b2). Байтда асар қаҳрамони Ўгдулмиш “эй кўркли юзим” деб мурожаат қилган. Аслида “юзи кўркли киши” шаклида бўлиши керак эди. Аммо, ушбу жумла эллипсисга учраб, шу ҳолга келган. Бу ўринда қисм номи билан бутун ифодаланган. Асарда инсоннинг юзи билан боғлиқ *qïzγu eŋ* “қизил ёноқ”, “ёруғ юз”, *qïzγu meŋïz* “қизил юз”, *isig yüzlüg* “иссиқ юзли” каби бирикмалар қўлланган ва улар синекдохани юзага келтирган.

Манбада келтирилган *ürüŋ bašlïγ er* “оқ бошли киши” синекдохаси “қари киши”, “қария” маъносини билдиради. Бу ўринда “оқ бошли киши” яъни “сочига оқ тушган” деганда тажрибали, ҳаётнинг аччиқ-чучугини тотган киши назарда тутилмоқда. *Baš сўзи* “соч” маъносида келган: *Nekü ter ešitgil ürüŋ bašlïγ er, aǯunuγ qarïtmïš uzun yašlïγ er* – Оқ бошли (сочи оқарган) киши нима дейди, эшитгин, дунёни қаритган узун ёшли киши (ҚБН, 2973; 112a4). *Ürüŋ bašlïγ* деганда *оқ сочли, кекса, катта ёшли киши* назарда тутилмоқда.

*Köŋül berdiŋ ersä bu qurtγa yüzi, yaqaŋnï tutar kündä ketmäz sözi* – Кўнгил бериб қўйсанг, бу юзи кўҳна (қари), кунда ёқангни тутади, сўзи (ҳеч) тугамайди (ҚБН, 3493; 130b14). Байтда *qurtγa yüzi* дейилганда юз эмас, балки қари юзли кампирга қиёс қилинган дунё назарда тутилмоқда.

[1] Ҳосила маънонинг юзага келиши ҳақида қаранг: Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. .–Т.:Мумтоз сўз, 2010.–Б. 89-112 .

*Isinür et er terk bayïrsaq bolur, bayïrsaq kišilär tapuγsaq bolur* – Унга баданнинг (кишиларнинг) муҳаббати ортади, сўнг эса кишилар унга садоқатли бўлади, садоқатли кишилар эса хизматга шай бўлади (ҚБН, 2089; 81b11). Байтда келтирилган *et* "бадан" сўзи орқали инсонларга ишора қилинмоқда.

Айрим байтларда вазифадошлик асосида маъно кўчган: *Meŋä köz qulaq-sen išimni qamuγ, seniŋdin tilär-men ača ber qapuγ* – Менга кўз, қулоқдирсан, ҳамма ишларимни сендан умид қиламан, эшик очавер [яъни иш юритавер] (ҚБН, 6164; К 377). Байтда ҳукмдор Ўгдулмишга мурожаат қилиб, уни ўзининг кўзи, қулоғи деб билади. *Кўз* деганда "кўриш", қулоқ деганда "эшитиш" семаси назарда тутилмоқда.

**3.3.Ўхшатишлар услубияти**

Ўхшатиш – икки нарса-ҳодиса ёки воқелик ўртасидаги ўхшашликка асосланган, уларнинг бири орқали иккинчисининг белгисини, моҳиятини тўлароқ, бўрттириброқ кўрсатиб беришдан иборат бадиий тасвир воситаси, кўчимнинг содда туридир. Ўхшатиш (ташбеҳ) мумтоз бадиий санъат кўриниши сифатида услубиятни таъминловчи воситалардан бири ҳисобланади.

Адабиётшуносликда ўхшатиш *ташбеҳ* термини билан юритилади. "Ўхшатиш – тасаввур бирлиги. Тасаввур эса мавжудотга асосланган хаёлот натижасидир".[1] Ўзбек тилшунослигида ўхшатишнинг назарий асослари, омиллари тадқиқ этилган. Жумладан, М.Мукаррамов ўз тадқиқотларида ўхшатишни соф тилшунослик нуқтаи назаридан ўрганди.[2] Ҳ.Дадабоев XI – XIV асрлардаги ўхшатишларнинг ифодаланиши масаласига эътибор қаратган бўлса,[3] Н.Маҳмудов, Д.Худойберганова лар томонидан ўхшатишларнинг миллий-ментал хусусиятлари тадқиқ этилган[4].

"Қутадғу билиг"даги ўхшатишларни семантик жиҳатдан қуйидагича таснифлаш мумкин:

а) **шахс тавсифида қўлланган ўхшатишлар**. Достонда турли мансабдор шахсларнинг фаолияти, улар эга бўлиши керак бўлган фазилатлар ҳақида сўз боради.

Зеҳнсиз киши *мевасиз дарахт*га ўхшатилган: *Uqušsuz kiši-ol yemišsiz yïγač, yemišsiz yïγačïγ nekü qïlsun ač* – Зеҳнсиз киши мевасиз дарахтдир, мевасиз дарахтни оч нима қилади (ҚБН, 2418; 93a4). Ушбу байтда муаллиф ўзига хос *ol* ўхшатиш воситасидан фойдаланган. *Yemišsiz yïγač* бирикмасида *yemišsiz* "мевасиз", *yïγač* "дарахт" маъноларидаги лексемалардир; *yïγač* архаизмга айланган, *yemiš* лексемасида сема архаиклашган, бу лексема ҳозирда ҳайвонларга нисбатан "озуқа" маъносида ишлатилади. "Самара", "натижа" семалари қиёслашга асос бўлган.

Жоҳил киши *сигир*га қиёс қилинган: *Qara qarnï toδsa kör uδ-teg yatur, yawa sözgä awnur özin semritür* – Жоҳил қорни тўйса, сигирдек ётади, кўр, беҳуда сўзга ғарқ бўлиб ўзини семиртиради (ҚБН, 974; 42a4). Унинг дарди – фақат қорин тўйдириш ва беҳуда умр ўтказиш. Жоҳил сўздан сўзнинг фарқини билмайди. Беҳуда ва кераксиз сўзларга ҳам қулоқ тутиб ётаверади. Сигир гапга тушунмаганидек, нодон ва жоҳил киши ҳам эзгу сўзларни тингламайди. Чунки унинг онги зарарли ва кераксиз сўзлар билан тўлган. Жоҳилнинг сигирга ўхшатилишида "онгсизлик", "ақлсизлик", "бефаҳмлик" семалари асос бўлган.

Д.Худойберганова лингвокультурология бўйича изланиш олиб борган В.Маслова фикрига таяниб, шундай дейди: "...халқнинг муайян предмет, белги, ҳаракат-ҳолатга муносабати, ассоциатив фикрлаш тарзи ўхшатишларда ҳам намоён бўлади. Жумладан, буни ўзбек тилидаги инсон ҳақидаги ўхшатишларда ҳам кўриш мумкин. Ўзбек тилидаги инсонга доир ўхшатишлар 8та маъновий гуруҳни ташкил этиб, уларда ҳайвон, ўсимлик, мева номларини билдирувчи сўзлар эталон сифатида кўп қўлланганлиги она тилимизда мулоқот қилувчи тил соҳибларининг этнопсихолингвистик хусусиятларини намоён қилади[5]".

[1] Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати.–Т.:Adabiyot va san'at, 1979.–Б. 66 .
[2] Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Т.:Фан,1976.
[3] Дадабоев Ҳ., Эски ўзбек тилида қиёслаш, ўхшатишнинг ифодаланиши // Лингвист IV.–Т.:Akademnashr, 2013.–Б. 4-11.
[4] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати.–Т., 2013.
[5]Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фан. док. дисс. автореф. –Т., 2015.–Б.31.

Асар тилида лашкарбошининг хусусиятлари, асосан, зоонимлар орқали ифодаланган. Саркарданинг суврати ва сийрати тавсифланганда *қуйидаги* ўхшатишлар қўлланган: *Toŋuz–teg tetimlig böri–teg küči, aδïylaju ïrγar qutuz–teg öči* –Тўнғиздек човут қилувчи, бўридек кучли, айиқдек ҳийлакор, кўтосдек қасоскор бўлиши керак (ҚБН, 2275; 88a9). *-lay* ўхшатиш-қиёслаш шакли кучайтирув-таъкид юкламаси билан бирикиб, *-layu* шаклида учрайди. Асосан, ҳайвонларга нисбатан қиёсларда қўлланган.

*Uluγ tutsa himmat kür arslanlayu, ügi-teg usuz bolsa tünlä sayu* – Ботир арслон каби ҳимматини улуғ тутса, тунлари укки каби бедор бўлса (ҚБН, 2278; 88a12). Юқоридаги байтда лашкарбошининг хусусиятлари ифодаланган бўлиб, табдилда байтнинг иккинчи мисраси «тунлари бедор онадай бўлса» деб изоҳланган. Бизнингча, **ügi** деганда Юсуф Хос Ҳожиб *укки* зоонимини назарда тутган ва байтни «лашкарбошилар уккидек тунлари бедор бўлса» деб табдил қилиш мақсадга мувофиқ бўлади. Мазкур байтдан олдинги ва кейинги мисраларда зоонимлар асосидаги ўхшатишларнинг келтирилиши фикримизни асослайди. «Древнетюркский словарь»да ҳам байт «Ему следует основательно проявлять рвение, уподобляясь льву, а по ночам бодрствовать, подобно сове» тарзида изоҳланган (ДТС,198). Маҳмуд Кошғарий луғатида ушбу зооним *ühi* шаклида келтирилган: *кўп туркlар бу сўзни ügi дейдилар. Тўғриси шудир, чунки туркий тилда бўғиздан чиқадиган h йўқдир* (ДЛТ, I, 175).

“Қутадғу билиг”даги қиёсларда, асосан, ҳайвонларнинг белги-хусусиятларидан унумли фойдаланилган. Ҳақиқий тадбиркор киши бўридек кучли, айиқдек ҳийлакор ва кўтосдек қасоскор бўлиши кераклиги таъкидлаб ўтилган. Бўри “куч-қудрат”, айиқ “ҳийла”, кўтос “қасос” семаларини ифодалаш учун ишлатилган ва бунда, албатта, ҳайвонларнинг ана шу белгилари асос бўлган.

“Лашкарбошининг кучлилиги *арслонга*, доимий ҳушёрлиги *зағизғонга*, бақувватлиги *қоплонга,* ҳужмкорлиги ва душманга ҳамласи *тўнғиз*га, мардонаворлиги *бўрига,* жангда моҳирлиги, ҳийла ва тадбиркорлиги *тулкига*, шиддати *айиққа*, қасоскорлиги *қўтос* ва *туя*га ўхшатилади. Умуман, бир нарсани тасвирловчи-изоҳловчи турли-туман ўхшатишларнинг ҳаммаси ҳам унинг турли хусусиятларини ёритишга хизмат қилади”.[1]

Беглар *kür арслоn* “юракли арслон”га қиёс қилинган. *Kür arslanqa oxšar bu beglär özi, bušursa kesär baš e bilgi yaruq* – Беглар–бу юракли арслонга ўхшайди, уларни ғазабга келтирсанг, бош кесади, эй равшан фикрли (ҚБН, 769; 34 а). Бунда ўхшатиш тўғридан тўғри *oχšar* сўзи орқали ҳосил қилинган.

Туркий халқлар, хусусан, ўзбек халқининг яшаш тарзини белгилайдиган, тирикчилик фаолияти бўлган чорвачилик, овчилик мақолларда ифодаланган ҳайвон номларининг тур жиҳатдан хилма-хил бўлишини таъминлаган,[2] шунингдек, “Қутадғу билиг”даги зоонимларнинг ўхшатиш воситаси сифатида қўлланишига асос бўлган.

*Халқ*нинг *қўй*га ўхшатилишида “ювошлик”, “ожизлик”, “итоаткорлик”, *бек*нинг *қўйчивон*га ўхшатилишида эса “ҳимоя”, “бошқарувчи” семалари асос бўлган: *Boδun qoy sanï-ol begi qoyčïsï, bayïrsaq keräk qoyqa qoy tütgüči*– Халқ бир қўй каби, бег эса қўйчивондир, қўй учун қўй тутувчиси меҳрибон (жонкуяр) бўлиши керак (ҚБН, 1399; 57b4).

Юсуф Хос Ҳожиб доноларни *серсув, чимли ер*га ўхшатган: *Öyük čïm osuγluγ bolur bilgälär, čïqar suw qayuda aδaq tebsälär* –Донолар чим (кўк) ўсадиган сероб ер каби бўладилар, унинг қаерига оёқ урилса, сув чиқади (ҚБН, 960; 41b1). Биринчи мисрадаги **bolur** боғламаси ўхшатиш-қиёслаш вазифасини бажарган. Доноларнинг сўзи унумдор ерга қиёсланган. “эзгулик”, “яхшилик”, “самара” семалари қиёслашга асос бўлган.

*Aqar suw teg ul bu tilin eδgü söz, qayuqa bu aqsa čečäk ündi tüz* –Тилдан чиқадиган эзгу сўз оқар сув кабидир, бу (сув) қаерга оқса, ҳамма ёқда чечак унади (ҚБН, 2648; 101a1). Ушбу мисраларда тилдан чиқадиган *eδgü söz* бирлиги *aqar suw*га ўхшатилган. Оқар сувнинг чечаклар ундириши, оламни яшилликка буркаши эзгу сўзнинг киши кўнглини яшнатиши, кайфиятини кўтаришига қиёсланган.

[1] To‘xliyev B. O‘zbek adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, 2000. –B.134.

[2] Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссертацияси автореф. –Т., 2017.–Б.14.

«Қутадғу билиг» – ҳадислардан илҳомланиб ёзилган асар. Ундаги пурмаъно фикрлар, теран мулоҳазалар ҳадисларнинг таъсири ўлароқ юзага келган. Юқоридаги байтларда доно, билимли кишилар *сувли ер*га, билимли кишининг сўзи ерга ҳаёт бағишловчи *сув*га ўхшатилган. "Илм ўрганмоқ" ҳақидаги ҳадисда илм ёмғир сувига ўхшатилади. Илм ўрганувчилар эса ерга қиёсланади. Ҳадисда ҳам ёмғир сувининг ҳаётбахшлиги таъкидланади[1];

б) **мавҳум тушунчалар реал нарса-буюмга қиёсланган ўхшатишлар**. *Körü barsa dunya kölikä sanï, edärsä qačar qačsa edrär seni*–Назар солсанг, дунё кўланка кабидир, изидан борсанг, қочади, қочсанг изидан боради (ҚБН, 3488;130b9). *Дунё кўланка*га ўхшатилган. *Kölikä säni* ўхшатиши асосида *dunya* лексемасидаги "беқарорлик", "фонийлик", "бевафолик" семалари намоён бўлган. *Dunya* лексемасидаги "ўткинчилик", "беқарорлик" семалари қиёслашга асос бўлган. *Säni* (san= ўйламоқ, ҳисобламоқ) ўхшатиш воситаси вазифасини бажарган.

*Tarïylay erür dunya elig qutï, tarïsa orar er tirilgü otï* – Бахтиёр элиг, бу дунё бир экинзордир, экин унса, киши ўз ейдиган ўтини ўради (ҚБН 1378; 56b13). Байтда *дунё экинзор*га ўхшатилган. Ҳар ким ўзи экканини ўради. Бу ерда ҳар ким ўз ризқи билан туғилади, деган мазмун ифодаланган. *-lay қ*ўшимчаси *-lay* аффиксининг варианти бўлиб, ўхшатишни воқелантиришга хизмат қилган.

Асарда элчиларга алоҳида аҳамият берилиб, уларга икки давлат ўртасидаги муҳим алоқа-муносабатни таъминловчи шахслар сифатида қаралган. Элчилар эга бўлиши керак бўлган бир қанча фазилатлар келтирилган. Шулардан бири *sučig sözlik* "ширинсўзлик": *Sözi bolsa yumšaq šakar-teg sučig, sučig sözkä yumšar uluy ham kičig* – Сўзи юмшоқ, шакардек ширин бўлса, Ширин сўзга улуғ ҳам, кичик ҳам юмшайди (ҚБН, 2626; 100a7). Бу ерда *sučig "*ширин" сўзи кўчма маънода келиб, *сўз*ни сифатлаган. *Sučig söz* "ширин сўз" *šakar* "шакар"га қиёсланган.

Достон матнида "туя" маъносида **tewä, tetir** каби лексемалар қўлланган. *Сўз туя бурни*га қиёсланган: *Burunduqluy-ol söz tewä burnï-teg, barur qančä yatsa tetir boynï teg* – Сўз туя бурнидек жиловланган бўлади, туя бўйнидек қаерга бурса, шу томонга боради. (ҚБН, 203; 19b11). Туя бурнини тўғри томонга йўналтира оладиган жиловдор керак. Бу ўринда "буриш", "бошқариш" , "йўналтириш", "қўллаш" семалари қиёслашга асос бўлган.

Заковат навқирон йигитга муқояса қилинган: *Qïlïnčï qarï oylan özlüg uquš, uquš qayda bolsa aŋar bar yapuš* – Заковат қарилардек иш тутувчи навқирон йигит кабидир, заковат қаерда бўлса, (сен) унга бориб ёпиш (ҚБН, 1837; 72b10)**.** *Özlüg* сўзи ўхшатиш воситаси сифатида келган. Ушбу байтда Юсуф Хос Ҳожибнинг сўз қўллаш маҳоратига яна бир карра амин бўламиз. Муаллиф заковатни қарилардек иш тутувчи навқирон йигитга қиёс қилган. "Заковат" тушунчаси ўзаро зид бўлган "йигитлик" ва "қарилик" тушунчаларидаги "куч-қудрат" ва "тажриба" семалари асосида тавсифланган.

*Киши кўнгли тубсиз денгиз*га, *билим марварид*га ўхшатилган: *Kiši köŋli tübsüz teŋiz-teg turur, bilig yinğü sanï tübindä yatur* – Киши кўнгли тубсиз денгиз кабидир, билим инжу каби (унинг) тубида ётади (ҚБН, 208; 15a1). Алишер Навоийнинг "Муҳокаматул-луғатайн" асарида *сўз* ва *кўнгил* борасида шу фикрларга яқин тасвирларни учратамиз: "… *сўз дурредурким, анинг дарёси кўнгулдур ва кўнгул мазҳаредурким, жоми маонийи жузв ва кулдур.* (яъни " … сўз бир дур бўлиб, унинг дарёси кўнгилдир. Кўнгил шундай бир жой бўлиб, унда майда ва йирик маънолар тўпланган**дир**").[2] Кўнгилнинг денгизга ўхшатилишида "кенглик" семаси асос бўлса, сўзнинг дурга қиёсланишида "ноёблик" семаси устундир.

*Nekü ter ešitgil e bilgä bögü, biliglig sözi bulsa aš-teg yegü* – Донишли киши нима дейди, эшитгин, эй билимдон, билимли сўзини топсанг, ошдек ейиш керак (ҚБН, 2745; 104a10). Билимдон, донишманднинг сўзи *озуқа, ош*га қиёсланмоқда;

в) **ҳаракат-ҳолатни қиёслашда ишлатилган ўхшатишлар**. *Турналар парвози* тизилган *туя карвони*га қиёсланган: *Kökis turna kökdä ünün yaŋqular, tizilmiš tetir-teg učar*

[1] Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot. –T.: Sharq.–B. 21.
[2] Алишер Навоий. Муҳокамат –ул луғатайн. Мукаммал асарлар тўплами. XVI жилд.–Т., 2000. –Б.6.

*yelgürär* –Мағрур турна кўкда овоз чиқариб сайрамоқда, тузилган туя карвонидек учмоқда, қанот қоқмоқда (ҚБН, 72; 10а7). Қиёслашда “қаторма-қаторлик”, “эгрилик” (туянинг ўркачлари, турналарнинг қанотлари) семалари асос бўлган.

Юсуф Хос Ҳожиб қўллаган ташбеҳлар кейинчалик туркий адабиётда, жумладан, ўзбек адабиётида ҳам анъанага айланди. *Қад*ни د (дол)га (“эгик” семаси асосида), *юз*ни *ой*га (“нурафшонлик” семаси асосида), тириклик (ҳаёт)ни работга (“ўткинчилик” семаси асосида), йигитликни арғумоққа (“шўхлик”, “ўйноқилик” семаси асосида), билимни кимёга (“ноёблик” семаси асосида), сўзни заҳарга (“зиён” семаси асосида), шакарга (“қувват” семаси асосида), кўнгилни денгизга (“кенглик” семаси асосида), шишага (“нозиклик” семаси асосида), билимни машъалга (“зиё” семаси асосида), золим амалдорни бўрига (“шафқатсизлик” семаси асосида) ўхшатиш ҳам ана шундай ёзма адабиётда анъанага айланган образлардир.

Асар тилида, асосан, *-teg, sani, -layu, -ul, -lüg, -liγ, ol, turur, oxšar* каби воситалар орқали ўхшатиш бадиий санъати яратилган. Маъно-мазмунни таъсирчан ифодалашда ***-teg*** ўхшатиш воситаси фаол қўлланган. ***–teg*** нинг ўхшатиш, қиёслаш, муқояса қилиш каби маъноларни англатувчи равиш ясаши қадимги туркий тилга оид битиктошларда акс этган[1].

Достон матнидаги ташбеҳлар эски туркий тилнинг бойлигини намоён қилган, асарнинг бадиий қимматини янада оширган, тасвирнинг мукаммал, янада тушунарли бўлишини таъминлаган. «Қутадғу билиг»даги ўхшатишларнинг хусусияти шундаки, улар кўзда тутилган ҳар қандай фикрни равшанлаштиришга, шу образни аниқ тасаввур этишга хизмат қилади”[2].

«Қутадғу билиг»даги ўхшатишлар нарса-ҳодисалар моҳиятини акс эттириш билан бир қаторда миллий-ментал хусусиятларни ёритишда ҳам аҳамиятлидир.

## ҚАЗАҚ АҒАРТУШЫЛАРЫЛАРЫНЫҢ ҰЛТТЫҚ ТӘРБИЕ ЖАЙЛЫ КӨЗҚАРАСТАРЫ
## VIEWS OF KAZAKH ENLIGHTENERS ON THE NATIONAL EDUCATION

**К. Махмутова**

**Abstract:** The article discusses the views of the enlighteners of the Kazakh people on national education and their importance in the spiritual education of youth. The educational value of Kazakh traditions and customs is revealed.

***Key words:*** *spirituality, mentoring, national education, national culture, traditions*

Елбасының «Болашаққа бағдар: рухани жаңғыру» атты бағдарламалық мақаласында ұлттық сананы жаңғырту, ұлттық бірегейлікті сақтау, білімнің салтанат құруына қол жеткізу, ұлттық болмысымызды сақтап, тарихымызды жаңғырту, ұлттық тәрбиемен сусындаған кәсіби құзыретті мамандар даярлау мәселелері жайлы айтып: «Егер жаңғыру елдің ұлттық-рухани тамырынан нәр ала алмаса, ол адасуға бастайды. Жаңғыру атаулы бұрынғыдай тарихи тәжірибе мен ұлттық дәстүрлерге шекеден қарамауға тиіс. Керісінше, замана сынынан сүрінбей өткен озық дәстүрлерді табысты жаңғырудың маңызды алғышарттарына айналдыра білу қажет» дегенді айтты [ Н.Назарбаев «Болашаққа бағдар: рухани жаңғыру» «Егемен Қазақстан» 2017 жылдың 12 сәуір].

Қазақстан Республикасының «Білім туралы» заңында «Білім беру жүйесінің міндеттері Азаматтық пен елжандылыққа, өз Отанын-Қазақстан Республикасына сүйіспеншілікке мемлекеттік рәміздерді құрметтеуге, халық дәстүрлерін қастерлеуге, әлемдік және отандық мәдениеттің жетістіктеріне баулу қажеттігі айтылған. Бұл бағытта қазақтың ақын - ағартушылары, ағартушы педагогтары құнды пікірлер қалдырған.

Абай Құнанбаев ұлттық тәлім – тәрбие мәселесіне философиялық тұрғыдан терең талдау жасап, жастардың дүние танымдық белсенділігін арттыруда, халықтың әдет – ғұрып

[1] Дадабоев Ҳ. Эски ўзбек тилида қиёслаш, ўхшатишнинг ифодаланиши // Лингвист IV.–Т.:Akademnashr, 2013.–Б. 4-11.
[2] To‘xliyev B.O‘zbek adabiyoti.–T.: O‘qituvchi , 2000. –B.132.

дәстүрін өз шығармаларында тиімді пайдалана білді [Жарықбаев Қ.Б., Қалиев С.Қ. 1998:39]. Абайдың әрбір өлеңінің мазмұнына жеке үңілсек, өмір көріністерін шебер тілмен өрнектегенін байқаймыз. Ақынның «Қансонарда бүркітші шығады аңға» атты өлеңінде қазақ халқының ежелден келе жатқан аңшылық дәстүрін, ұлттық кәсібін, тіршілік – тынысын тартымды суреттегенін көруге болады. Ғұламаның қара сөздерінде ата салтын сақтау өз ұлтының рухани мәдениетін сақтаумен туысқандарыңызбен, дос – жарандарыңызбен араласуға мүмкіндік тудыратыны туралы ол былай дейді, -«Тойларды – игі істерді көріп, бабалардың бізге тартқан үлкен сыйы деп есептеуге болады». Бұл ойдың астарынан бабалардың салт – дәстүрі – үлкенді сыйлау дегенді аңғару қиын емес. Әрине, ұлы Абай бұл жерде дәстүрдің жағымды жақтарын өнеге етеді.Тағы да бір ескертетін жайт, қазақ халқының кейбір салт – дәстүрі деп келеңсіз жайларды мінеуі. Мәселен, татар халқының білімге құмарлығы, өзбек ұлтының еңбекқорлығы және орыс халқының енжарлығы, жалқаулығы бар екендігін, ол одан әрмен әдетке сіңіп жалғасуын қатаң ескертеді. Абайдың қара сөздері мен өлеңдерінен тұрмыс-салттық және бала тәрбиесіне қатысты салт – дәстүрлердің түрлерін көптеп байқауға болады.

Халқымыздың аса көрнекті ағартушысы Ыбырай Алтынсарин бала тәрбиелеумен қатар жақсы мұғалімдер дайындауға, ғылыми - әдістемелік басшылық жасауға баса назар аударады [Алтынсарин Ы. 1994.28]. Шәкірттерін өнерлі азамат болуға шақырып, адал, шыншыл, еңбек сүйгіш, өнегелі азамат болуға шақырады. Сонымен қатар зиянды әрекеттен, жаман әдеттен жат мінезден бойын аулақ ұстауға шақырады. «Қазақ халқының келешегі - өнер – білімде», - деп көрсетті. Ол мектепте балаларды халықтық дәстүр, аңыз, әңгіме, мақал – мәтел үйрету негізінде ана тілінде оқытып тәрбиелеуге ерекше мән берді.

Шоқан Уалиханов өз халқының ғана тұрмыс тіршілігін, дәстүрлерін зерттеп қойған жоқ, сонымен қатар ұйғыр, қытай, дүнген, қырғыз жұртының салт – дәстүрлері, мәдени тұрмыстарын салыстыра зерттеп, ғылыми баға берген. Шоқан «Шаман дінінің қазақтар арасындағы қалдығы» атты еңбегінде қазақ пен қырғыз жұрты арасындағы шамандық дін ырымдарының ұқсастығын көрсетеді. Мысалы, отқа май құю, ауруды бақсы-балгерлердің отпен аластауы, «от анаға» табынудың бәрі жаратылысты ұлы көруден шыққан пікір айтқан. «Халық аузындағы нақыл сөздерді зерттеудің этнография үшін зор маңызы бар, себебі халықтың тұрмысы мен әдет – ғұрпы мұндай сөздерден айқынырақ көрінеді,-деп көрсетеді.

Қазақ халқының зиялы азаматтары А.Байтұрсынов, Х.Досмұханбетұлы, Ж.Аймауытов, М.Дулатов, М.Жұмабаев ұлт мәселесі, ұлттық тәрбие саласындағы іргелі сөз қозғап, құнды ой-пікірлер айтқаны белгілі. Олардың ұлттық педагогика идеяларына деген мұндай сенімі халыққа, оның мәдениеті мен әдебиетіне, тіліне, тарихына, салт-дәстүрлеріне деген сүйіспеншілігінен туындаған .

“Тил масаласи” мақоласида кун тартибига қўйилган масалалардан яна бири ўзбек (чиғатой) тилининг кўп шевали эканлиги ва имло қоидаларини меъёрлаштиришдир. Беҳбудий ўзбек тилигина эмас, балки бошқа кўпгина туркий тиллар ҳам кўп шевали эканлигини ёзади: “Туркчанинг шуба шох(а)лари бўлган ўзбек – чиғатой, татар, озарбайжон, қозоқ ва тукман лаҳжаларидаги янги матбуотнинг энг аҳамиятли масалаларидан бири, албатта, шева, лаҳжа, имло масаласидир” [Беҳбудий, 1999. 183].

Мақолада Туркистон ўлкасининг шевалари турличалиги ва бу ҳол адабий тилни меъёрлаштиришда ўзига хос қийинчиликларни келтириб чиқариши мумкинлиги хусусида эътиборга молик фикрлар баён этилган: “...Келайлук Туркистон ёйинки Осиё Васати (*Ўрта Осиё, Марказий Осиё* – Э.Ж.) халқларининг тил ва шеваларига: Туркистоннинг ўзига тегишли шеваси турк тилининг чиғатой лаҳжаси бўлиб, “Навоий” китоби бу лаҳжанинг гўё муҳим китобидир. Аммо кўпдан бери Туркистонда маданият ва салтанат ва адабиёт таданний (*тушкунлик* –Э.Ж.) этгани учун халқ бу лаҳжани бузганлар. Бузмоқ нари турсин, Туркистоннинг ҳар бир шаҳрининг ва ҳатто, баъзи бир қасаба ва кўйлари (*қишлоқлари* – Э.Ж.)нинг шеваси бошқадир. Масалан: анда, мунда, шундани - ул ерда, бул ерда, шул ерда; ўтда, бўтда, шўтда; этта, бетта, шетта; ўрда, бўрда, шўрда; ўра, бўра, шўра кайфиятида сўйлайтурган шаҳарлар бўлиб, мундай бузуқ сўзларни нави адади жуда кўпдир” [Беҳбудий, 1999. 184].

“Тил масаласи” мақоласида кун тартибига қўйилган масалалардан яна бири адабий тилни шакллантириш ва тараққий эттиришдир. Мақоланинг иккинчи қисми айнан шу масалага бағишланган. Буни муаллифнинг ўзи ҳам эътироф этади: “Аввалги мақолада туркча тилнинг аҳамиятлилик шўбаларини қисқалик билан ёзиб эдим. Энди тилни бутун соддалаштуриб индирмоқ ва яъники адабийлаштириб тараққий қилдирмоқдан бетарафона ёзарман” [Беҳбудий, 1999. 185].

Беҳбудий кундалик матбуот нашрлари чоп этилиб, халқ орасида кенг оммалашган жойда адабий тил нормалари маълум меъёрга кираётганини эътироф этади. Бундан ташқари, матбуат тилнинг ривожи халқ жонли тилидан устун даражада эканини ҳам уқтириб ўтади. Дарҳақиқат, олим таъкидлаганидек, ўша даврда Россия ва Кавказда матбуот тили анча ривожланган ва кўча тилидан фарқли бир ҳолга кирган эди. Бундай ҳол, Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг таъкидига кўра, татар матбуоти тили ва жонли тилида ҳам кузатилади.

Олим ўша давр матбуоти тилини адабий ва илмий тил сифатида иккига ажратади. Бу ўша давр маърифатпарварларининг кўпчилигига хос бўлган ҳолатдир. Беҳбудий ёзади: “…Кафкоз матбуоти аввалдан адабий бўлуб, ўн саналардан бери матбуот, қоғоз устиндаги адабий тилни, халқни тил ва сўзига таъсир этиб ўткардики, бул ўшал вилоятларда диққат этганларга маълум бўлур. Ҳеч бир фирқа ва ё лаҳжанинг авом тили матбуотига кирмайдур. Кирса-да, мактаб рисолаларига ва фанний китобларга кирмайдур. Азбаски, фанний, адаб, таълим ва тарбия ва диний китобларни сирф (*соф* – Э.Ж.) авом тилиға ёзмоқ мумкин эмасдур” [Беҳбудий,1999.185].

Хуллас, Махмудхўжа Беҳбудий матбуот тилига адабий тилни шакллантириш ва унинг имло меъёрларини ишлаб чиқиш воситаси сифатида қарайди.

“Тил масаласи” мақоласида баҳс юритилган масалалардан яна бири тилимизга бошқа тиллардан ўзлашган сўз ва терминларга муносабат масаласидир. Дарҳақиқат, тилимиз лексикасида катта қатламни ташкил этувчи форс-араб ўзлашмаларини янгилаш, уларни ўзбекчалаштириш XX аср бошларида маърифатпарварлар томонидан кескин бир тарзда кун тартибига қўйилган. Ўша давр матбуотида чоп этилган мақолалар шундай дейишимизга асос

бера олади. Бу масала атрофидаги баҳс-мунозараларда Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳам шубҳасиз иштирок этган, ўз даврнинг илғор маърифатпарвари сифатида масалага муносабатини билдирган. Кўпчилик маърифатпарварлар ўзлашмалардан воз кечиш ва уларни туркийча сўзлар билан алмаштириш масаласини кун тартибига қўйган бир пайтда, аллома бу соҳада шошма-шошарлик билан ҳукм чиқариш ярамаслиги, бундай ўта муҳим ва қийин бир ишнинг амалга ошиши учун юз йиллаб вақт кераклигини уқтиради: “Бу тил масаласи Русия мусулмонлари матбуотига бир хейли баҳс бўлиб, фаалан ва амалан авом тили ва ёинки содда тил тарфдорларини мағлубияти ила натижаланмоқдадир. Бизнинг Туркистон матбуотида, табиий, бу масалани бошидан ўткарур. Шунинг натижаси ва навбати бўлуб мўътабар “Садойи Туркистон” рафиқимизни тил масаласи мақолалари ёзилмоқдадир. Баъзи афандилар меҳмонни “қўноқ” дейилсин деб таклиф этарлар. Ҳолбуки, қўноқ, деганда, бир турк фаҳмлайдур. Меҳмон деганда, турк фаҳмлагани устида, яъни бир форсий мусулмон қариндошимиз-да англайдур. “Тилимиздан форсий ва арабийни қувайлук”, бу кўп енгил орзу, аммо ижроси мумкин эмас орзулардандур. Масалан, мунинг тарафдори бўлган мўътабар “Садойи Туркистон”ни “Турк эли довуши” лозим бўлур, Туркистонни “Турк эли” ёки “Турк ери” ёзмоқ керак бўлур.

Тошканд, Хўқанд ва бошқа минглар ила жўғрофиёвий исмларни рижоли тарихия (*тарихий арбоблар* – Э.Ж.) ва ёинки тарихий воқеаларни маҳаллий ва машҳур одамлари ва ой ҳам йили, куни ва …лариға тағйир (*ўзгартириш* – Э.Ж.) бериб туркий исмлар тоқиб, аларға, янги луғатлардан ажратиб бўлурки, мунга ҳам ишни қуйиб, ҳама бирдан ҳаракат этса, эҳтимолки, бир неча юз саналарда хаёлан воқеъ бўлса. Ҳолбуки, бул, ижроси мумкин эмас, хаёли фосидгина (*хомхаёл* – Э.Ж.)дир” [Беҳбудий,1999.185-186].

Мақолада асрлар давомида араб ва форс сўзларидан фойдаланиб келинган миллат тили луғатидан уларнинг қувиб чиқарилиши ёмон оқибатларга олиб келиши таъкидланади. Олим воз кечилган чет сўзлар ўрнини бошқа бир ҳукмрон тил сўзлари эгалл;аши мумкинлигидан огоҳлантиради. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг бу башорати орадан йигирма йиллар ўтиб ўз исботини топди. Шўролар давлатининг миллатлар тилига қилган зуғумли сиёсати натижасида тилимиздаги форс ва араб ўзлашмалар ўрнини русча сўзлар эгаллади.

Маҳмудхўжа Беҳбудий бундай бўлишини олдиндан кўра билган ва халқимизни бундан ўз вақтида огоҳлантирган эди: “Бир неча минг санадан бери форсий ва араб тили ва маданияти ва салтанати таъсири остида қолган туркийнинг яна бир неча минг санада буларни таъсиридан чиқармоқ нари турсин, балки маънан ва моддатан ва фаннан маҳкум миллатларни тили бўлган тилимизга тараққий этган миллатларни луғатлари ҳужум қилур” [Беҳбудий,1999.187]. Шунинг учун ҳам бир тил элементидан воз кечиб, иккинчи бир тил элементларига йўл очиб бериш мақбул эмаслиги кўрсатиб берилади.

Хуллас, Маҳмудхўжа Беҳбудий юз йил аввал ҳам она тилимизнинг софлигини сақлаш, уни сайқаллаштириб, бойитиб бориш борасида ўта долзарб муаммоларни кўтарган эдики, олим айтган гапларнинг айни ҳақиқат эканлигини биз ўтган давр мобайнида кўрдик, қолаверса, бугун ҳам бу муаммолар ўз аҳамиятини заррача йўқотгани йўқ.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш. Миллий ўзлигимиз ва давлатчилигимиз тимсоли. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. // “Халқ сўзи” газетаси. 2019 йил 22 октябрь. №218 (7448).

2. Беҳбудий, Маҳмудхўжа. Танланган асарлар. - Тошкент: Маънавият, 1999.

3. Кошғарий, Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк. -Тошкент: Фан. 1-т. 1960. 3-т. 1963.

4. Навоий, Алишер. Муҳокаматул луғатайн. - Асарлар. 15 томлик. 14-том. - Тошкент: Фан, 1967.

5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. - Б. 125-129.

# ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SO‘Z VA NOTIQLIK SAN’ATI
# THE ART OF SPEECH AND ORATORY THE WORKS OF ALISHER NAVOI

**O. Usmonova**
***ToshDTU dotsenti***
***pedagogika fanlari nomzodi,***
**Z.Usmonova**
***ToshDTU katta o‘qituvchisi***

**Abstract:** This article is about the speech and the power, its influence to human being and also given valuable advice about the art of public speaking considered in the example of his works as “Xamsa”, “Nazmul javohir”, “Maxbubul qulub ” and “Muhokamatul lugatayn”.

***Keywords:*** *a word oratory, speech culture, Uzbek literary language, Turkish language and preacher.*

So‘z san’ati, notiqlik, nutq madaniyatiga qadim-qadimdan alohida e’tibor qaratilgan. Bu sohada g‘arb allomalari so‘z bilan ta’sir ko‘rsatish, kishilarni ishontirish va o‘z ortidan ergashtirish mahorati haqida qarashlarini bayon qilgan bo‘lsa, sharq mutafakkirlarida, aksincha, ular nutq madaniyatini, asosan, suhbat odobi, tinglash madaniyati sifatida e’tirof etgan. So‘z mulkining sultoni Hazrat Navoiy o‘z asarlarida so‘z, notiqlik va nutq madaniyatiga oid qimmatli ma’lumotlar keltirgan.

Ma’lumki, o‘zbek adabiy tili mustaqil til sifatida X asrdan boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy”, shuningdek, Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroiy, Mavlono, Lutfiylarning yaratgan boy ilmiy-adabiy meroslarini aytib o‘tish joizdir.

Ayniqsa, turkiy tilning beqiyos imkoniyatlarini ko‘rsatishda Alisher Navoiyning buyuk xizmatlarini alohida e’tirof etish joiz. Chinakam ma’nodagi so‘z mulkining sultoni Hazrat Navoiy o‘z asarlarida notiqlik va nutq madaniyati, so‘z va o‘tkir nutq, til va jamiyat borasidagi qimmatli ma’lumotlar keltirgan. So‘z dahosiga daho so‘zchi sifatida adoqsiz ehtirom va inja sezgi bilan munosabatda bo‘lgan adib o‘z asarlarining aksariyatida, xususan, “Xamsa”sining barcha dostonlari (alohida-alohida boblar)da, “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Nazm ul-javohir” va boshqa ko‘plab asarlarida so‘zning buyuk qudrati va nutq mahoratining xosiyatiga oid betakror fikrlarni bayon qilgan.

Biz nutqimiz orqali boshqalar bilan muomalaga kirishamiz, fikrimizni bayon etamiz. Alisher Navoiy o‘z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etdi. “Mahbub ul-qulub” asarida voizlar til odobi xususida fikr yuritsa, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida o‘zbek adabiy tilining boyligini e’tirof etdi. Nainki e‘tirof etdi, balki tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta’kidladi. So‘zning tarixiy-madaniy xizmati beqiyos, ammo til imkoniyatlari nutq jarayonidagina ochib beriladi. Agar nutq bo‘lmas ekan, tilning, so‘zning cheksiz imkoniyatlari ro‘yobga chiqib-chiqmay qolaveradi. “Majolis un-nafois”da so‘zning voizlari hayotida tutgan orni haqida ham shaxsiy mulohazalar bayon qilinadi. “Nazmul javohir” asarida esa so‘z qudratli vosita ekanligi, insonga hayotiy zarurat sanalishi aytib o‘tiladi.

Tarixdan ma’lumki, Navoiyning o‘zi ham mohir notiq bo‘lgan va shirin kalomi, o‘tkir tafakkuri bilan xalq qalbidan joy olgan va o‘z asarlarida ham xaloyiqqa nafi tegadigan, el yuragidan joy oladigan shirinzabon so‘zlar so‘zlashni, chiroyli va ravon nutq tuzish yo‘llarini o‘rganish lozimligi haqida mukammal fikrlar bayon etgan. “Nazmul javohir” asarida til insonni hayvondan ajratuvchi gavhardir, deb ta’kidlaydi.

So‘zdurki, nishon berur o‘lukka jondin,
So‘zdurki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin.

Tirik insongina so‘zlash qobiliyatiga ega, so‘z tufayli u tirik ekanligini isbot etadi. So‘z do‘stdan, yoru-birodardan xabar beradi. Insonni hayvondan judo qilgan ham so‘z ekan, demak dunyoda so‘zdan gavhari sharif-ulug‘ narsa yo‘qdir.

Kishining ko‘ngli daryodir, so‘z esa dur, so‘zlovchi g‘avvosga o‘xshaydi. Dur turli bo‘lgani singari so‘z ham turlicha bo‘ladi. Yaxshi so‘z kishiga jon baxsh etsa, yomon so‘z insonni halok etishi ham mumkin. Tirik insongina so‘zlash qobiliyatiga ega, so‘z tufayli u tirik ekanligini isbot etadi. Til ma’rifat va adabiyot quroli ekan, so‘z so‘zlashdan maqsad ma’no ifodalashdir, deydi shoir. Navoiy til va tafakkurni uzviy birlikda oladi. U ma’no birlamchi, shaklni ikkilamchi, deb hisoblaydi va ma’noga so‘zning joni, deb ta’rif beradi.

Navoiy tilni o‘sib, rivojlanib boruvchi, jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab, tillar o‘zaro aloqada bo‘ladi, bir-biriga chatishadi, deb hisoblaydi. Navoiy kishining nutq qobiliyatini tug‘ma ekanligini ta’kidlaydi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida arab tili “kalomi ilohiy” deb ulug‘lanadi, fors va turkiy tili solishtiriladi. Olim bu asarda ikki tilning lug‘at boyligi, so‘z yasalishi, fonetik tarkibi, uslubiyati kabi xususiyatlarini chog‘ishtirib, badiiy imkoniyatlari jihatidan turkiy tilning fors tilidan qolishmasligini isbotlaydi. Hattoki, fors-tojik tilida, ekvivalenti bo‘lmagan o‘zbekcha so‘zlarni misol keltiradi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari bevosita tilshunoslikning nazariy muammolarini hal qilishga, o‘zbek tilining boshqa tillar orasida tutgan o‘rnini belgilab berishga, o‘zbek nutqi madaniyatini o‘rganishga qaratilgan. Mutafakkir asarlarida o‘zbek tilining leksik boyliklaridan, sinonim va omonimlaridan, xalq ta’biri, maqol va matallaridan, frazeologik, ideomatik birikmalaridan jumla tuzishida keng foydalandi.

Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bag‘ishlangan fikrlari yanada mukammalroq ifodalangan asari “Mahbub ul-qulub”dir. Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so‘zlovchi dilidagi fikrni to‘g‘ri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi. Navoiy til deganda nutqni ko‘zda tutgan. ta’kidlab o‘tadi. Navoiy “so‘z” haqida gapirganda quyidagilarni e’tiborga Til, ya’ni so‘z o‘zining ko‘p yaxshi fazilatlari bilan nutq uchun material ekanligini, nutqning qo‘polligi, maqsadga muvofiq bo‘lmasligi so‘zlovchiga zarar yetkazishini alohida oladi: 1. So‘z – til ma’nosida. 2. So‘z – muomala, gapirish, nutq mohiyatida. 3. So‘z – badiiy ijodda, mazmunni shakllantiruvchi vosita tarzida. Navoiy talqinicha, so‘zning (tilning) insoniyat hayotidagi o‘rni beqiyos. U insonning insonligini, barcha jonzotlardan yuksak ekanligini anglatuvchi unsur. Nutq nazariyasi bilan jiddiy shug‘ullangan shoir “Mahbubul-qulub” asarining 24-bobini voizlik ilmiga bag‘ishlaydi. Navoiyning o‘zi ham notiqlik san’atini o‘z davrida yuksak darajaga ko‘targan. “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz” yoki “Ma’dani inson gavhari so‘z durur, gulshani odam samari so‘z durur” deb yozadi. Asarning 24-bobi “Nasihat ahli va voizlar zikriga” bag‘ishlangan bo‘lib, shoirning fikricha “voiz uldurki, majlisg‘a kirgan to‘lg‘ay va to‘la kirgan holi bo‘lg‘ay”.

“Mahbubul-qulub”da yana “Og‘ziga kelganni demoq – nodonning ishi”, “Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”, “Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z –muxtasar” kabi hikmatli so‘zlar, maqollar anchagina.

Ha, Navoiy so‘zni ajib, sehrli va qimmatbaho gavhar sifatida e’zozlaydi. Ko‘pgina baytlarda, ayniqsa, “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” singari asarlarida so‘z, uning o‘rni, inson hayotidagi ahamiyati, so‘zlash madaniyati, so‘zning badiiy ijoddagi mavqie, so‘z odobi kabi tomonlar xususida mulohazalar bildiradi. “Nazmul javohir” (“Nazmlar javohiri”) asarida shoirning axloqiy qarashlari bayon etiladi. Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutqiy madaniyat, nutq san’ati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasidagi boy va noyob merosi mahorat bilan uumlashtirilgan.

Navoiy “Munshoat” asarida ham o‘zbek adabiy tilida mukammal ish qog‘ozlarini yuritish mumkinligini yozib qoldiradi va namunalar beradi.

Navoiy o‘zbek adabiy tilini, rivojlantirish, bu tilda go‘zal asarlar yaratish, o‘zbek tilini yuqori mavqega ko‘tarish, uni xalq manfaatlariga xizmat qildirishni orzu qiladi. U o‘zbek tilini kamsitgan, bu tilda yaxshi asarlar yozish mumkin emas, turkiy tilga bee’tibor bo‘lgan kishilarga munosib javob bera oldi. O‘zbek adabiy tilini boyitdi, ravnaq toptirdi. Navoiy o‘zi berayotgan ma‘lumotlarning aniq, to‘g‘ri bo‘lishiga ham e’tibor beradi. Til va nutq masalalari asl mohiyati Navoiy asarlarida

o‘zining yorqin dalilini topdi. Alisher Navoiy o‘zbek tilining o‘z davrigacha hech kim anglamagan va foydalanmagan imkoniyatlarini ilg‘agan va uni o‘z asarlarida qo‘llay olgan. Tilni amaliy, nazariy, ilmiy jihatdan o‘rganib, yuksak cho‘qqiga ko‘targan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 7-, 15-, 16-jildlar. Toshkent, “Fan”, 1991, 1999, 2000.
2. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent, 1993.

## ANTROPOTSENTRIK PARADIGMANING SHAKLLANISHIDA SHARQ FALSAFIY TA’LIMOTINING O‘RNI

*(tilning onto-gnoseologik tadqiqi aspektida)*

## THE ROLE OF EASTERN PHILOSOPHICAL DOCTRINE IN THE FORMATION OF ANTHROPOCENTRIC PARADIGM

**U.Yigitaliyev ,**
***Qo`qonDPI dotsenti,***
***filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),***
**Sh. Umidjonov ,**
***TDO`TAU talabasi***

**Abstract:** the article discusses the onto-epistemological nature of language, the relationship between language and thinking, the role of Eastern philosophical teachings in the formation of anthropocentrism - a modern linguistic paradigm in linguistics.

***Key words:*** *man, language, thinking, creative thinking, anthropocentric paradigm, oriental philosophy, being, theory of knowledge, subjective knowledge.*

Ilm va madaniy taraqqiyotning beshigi bo‘lgan SHarq o‘z navbatida G‘arb, Yevropa uzra fan yog‘dusining taralishi uchun darcha bo‘lib xizmat qilgan edi. SHarqda, xususan, O‘rta Osiyoda falakiyot, riyoziyot, handasa, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlar asoslarining taraqqiyoti, aytish mumkinki, Yevropani oyoqqa turgizgan ilmiy-texnika inqilobining yuzaga kelishi uchun muhim zamin vazifasini o‘tagan.

Tabiatni, inson hayot kechirayotgan jamiyatni va insonning o‘zini, uning faoliyat ko‘rinishlarini ilmiy tahlil etish va bilish intellektual faoliyatning eng oliy shaklidir. Bu faoliyat oddiy bilishdan, ya’ni kundalik hayot ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bilish istagidan, birinchi navbatda, o‘z maqsadi va tizimli ravishda amalga oshirilishi bilan tubdan farq qiladi. Ikkinchidan esa, ilmiy bilish jarayonida maxsus vosita va usullarga murojaat qilinadi[ Grigoryan, 7:121].

Darhaqiqat, islomiy sxolastikadan oldingi yillarda islomiy va dunyoviy ilmlarda jahonga mashhur bo‘lgan ajdodlarimiz – Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Umar Xayyom, Beruniy, Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy kabi allomalarning olamshumul asarlari buning yorqin guvohidir. CHunonchi, Abu Nasr Forobiy o‘zining «Ixso al-ulum» ( «Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida») asarida shunday ta’kidlaydi: «Bilki, (olamda) substantsiya (javhar) va aktsidentsiya (javhar bo‘lmagan, oraz) hamda substantsiya, aktsidentsiya yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo‘qdir»[Muminov I.10: 122],- deb mulohaza yuritadi.

Shunday asos bilan Forobiy barcha fanlarning *moddiy asosi* bir ekanligini ta’kidlaydi va bosqichma-bosqich sonlar, yulduzlar, musiqa, tabiatshunoslik, Haqni bilish (islom falsafasi – *U.Y.*), til, mantiq haqidagi fanlarni bir manba – *substantsiya*ning turli qirralaridan kelib chiqqanligini isbotlaydi.

Bu iqtibosdan ko‘rinib turibdiki, buyuk vatandoshimiz olam haqidagi ilmlarning birligini ularning yagona moddiy borliqning turli qirralarini o‘rganish bilan birlashishini e’tirof etadi. Bu

fikrlar bosh manba – borliq barcha fanlar uchun bir bo‘lganligi sababli fanlar taraqqiyotida umumiylikni, ularning bir-biriga samarali ta’sirini ko‘rish va izohlashga imkon beradi.

Zero, tilshunoslarimiz ta’kidlaganlaridek: «Fan sohasida qo‘llaniladigan bilishning vosita va amallari umumlashmasi ilmiy tadqiqotlar metodini tashkil qiladi. Tadqiqot metodi, albatta, o‘rganish uchun tanlangan ob’ektga monand tarzda turli xil bo‘lishi mumkin. SHuning bilan birgalikda, tadqiq metodining tanlanishi tadqiqotchining borliqqa (obyektga) bo‘lgan munosabati bilan ham belgilanadi»[Bushuy T.A. ,Safarov SH.5:4].

Anglashiladiki, bugungi zamonaviy tilshunoslikda ilg‘or paradigma sanalgan antropotsentrizm mazkur ehtiyojlar asosida dunyoga kelgan[Vorkachev S.6:64-68].

SHu o‘rinda yana ta’kidlash lozimki, fanni jamiyat ehtiyojlari asosida ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan kishilar yaratadilar. Ko‘p hollarda bu jarayon tabiat yoki jamiyat, boshqacha aytganda, olam va odamzotning tahlili tarzida ro‘y beradi.

Fanni keng tarixiy doirada o‘rganish g‘oyasi hozirgi davr mantiqiy-metodologik tadqiqotlarda chuqur ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ilmiy-ijodiy jarayon bilan bog‘liq masalalar tahlili, ayniqsa, muhim rolь o‘ynamoqda.

Qadimgi yunon faylasuflari Platon, Aristotel inson ijodiy tafakkurining o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etganlar. SHarq falsafasida ham ushbu masala olimlarning diqqatini tortgan. Xususan, Muhammad al-Xorazmiy olimlarni ijodiy tafakkur mahsullariga qarab, uch guruhga bo‘ladi. U: «Ba’zilar o‘zidan oldin tadqiq qilinmagan narsalarni o‘rganib, o‘zidan keyingilarga meros qilib qoldiradi. Boshqalar o‘zidan oldingi ustozlar asarlariga sharh beradi va bu bilan qiyinchiliklarni engillashtiradi, yopiq narsalarni ochadi, yo‘lni yoritadi va ko‘pchilik foydalanishi uchun imkoniyat yaratadi va yana kimdir ba’zi kitoblardagi noaniqliklarni aniqlaydi va umuman unutilayozgan narsalarni yangilik sifatida kiritadi»[Xorazmiy. 2:29],-deb ta’kidlaydi.

Abu Nasr Forobiy esa ijodiy tafakkurga: «Bir narsani bilish nutqiy quvvat bilan, yo bo‘lmasa, xayol surish – *tahayyul* quvvati bilan va yoki tuyg‘ular – hislar bilan qo‘lga kiritiladi. Agar aqliy quvvat bilan idrok etiladigan narsalar xususiyatiga ega bo‘lgan bir narsani bilish istalganda, orzu qilingan narsani o‘zida saqlagan fe’l aqliy quvvatda bo‘lgan boshqa bir quvvatdan tug‘iladi. Mana bu ijodiy quvvat sanaladi. Ana shu bilan fikr yuritish, tush ko‘rish, tekshirish, xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi»[Forobiy.18:75-79], -deb ta’rif beradi.

SHarq falsafasining etuk vakili Abu Rayhon Beruniy dunyoqarashida ijodiy tafakkur masalasi alohida o‘rganilgan. Mazkur muammoning mohiyatini tadqiq qilishda olim kuzatuv, sinov-tajriba, aql-farosat printsiplariga tayanadi. Faylasufning ijodiy tafakkur borasidagi qarashlari ob’ektiv jarayonlarni talqin etishda odamzotning aqliy tafakkuri idrok qila olmaydigan g‘oyalarni, turli-tuman hamda tamoman yangicha ilmiy fantaziyalarni o‘zida birlashtirgan. Beruniyning e’tiroficha, muayyan bilimga ega bo‘lmaslik – noxolis, boshqacha aytganda, g‘ayri ilmiy asoslashga etaklaydi. Mazkur holat esa ijodiy fikrlashga to‘sqinlik qiladi[Beruniy.3:42].

YUqoridagi fikr va mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, SHarq falsafiy tafakkurida ijodga (ijodiy tafakkurga – U.Y.) murakkab tuzilishga ega tushuncha sifatida qaralgan. Ijodiy tafakkur borasidagi qarashlar sharqda, shuningdek, g‘arb falsafasida ham maxsus o‘rganilgan. O‘rta asrlarda Foma Akvinskiy, yangi davrda F.Bekon, R.Dekart, D.YUm, J.Berkli, V.F.SHelling kabi faylasuflarning asarlarida mazkur muammoga jiddiy e’tibor qaratilgan.

Xususan, nemis faylasufi V.SHelling tashkillashuv tizimining belgilovchi xususiyatini ijodiy tafakkurda ko‘radi. Olim: “Faylasufning ijodi xuddi indiviuallikni yaratuvchi rassom ijodi kabi ilm-fanga yoki praktik jarayonlarga yo‘naltirilgan tafakkur sistemasi sanalib” [Salimov 15:8] shunga binoan, “san’at sistemasi bu – bu ijoddir” ” [Salimov 15:9], deb hisoblaydi.

Anglashiladiki, ijodiy tafakkurning sistemaliligi va tarixiyligini o‘rganish uning ijodiy protsessdagi tayanch metodologik xususiyatlaridan biridir. Mamlakatimizda ijodiy tafakkurning mantiqiy-gnoseologik jihatlarini o‘rganish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. CHunonchi, O.Fayzullaev tafakkur inertsiyasi va uni bartaraf qilish yo‘llarini, M.Abdullaeva ilmiy ijodning ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liqligini[Abdullaeva.1:17-19], J.Tulenov dialektik tafakkur uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini, Z.Davronov ilmiy ijod metodologiyasi kabi qilingan ishlar diqqatga sazovordir. G.Rasulova reduktsiyali tafakkur uslubini, E.Rasulev ijodiy tafakkur namoyon

bo‘lishining shaxsiy darajasini, K.Tulenova va D.Turdievlar iqtisodiy tafakkurning o‘ziga xos tomonlarini tadqiq etganlar[” [Salimov.15:12].

Borliqni inson tomonidan, boshqacha aytganda, ijodiy tafakkur nuqtai nazaridan o‘rganish barcha fanlarning muhim vazifasidir[CHepikov.19:7]. Qolaversa, bu jarayonni o‘rganish uchun maxsus fan – *gnoseologiya* mavjud bo‘lib, u o‘ziga xos tadqiq muammolariga ega.

Gnoseologiya yunoncha gnosis – «bilish», logos – «ta’limot» so‘zlaridan olingan bo‘lib, bilish haqidagi ta’limot demakdir. Gnoseologiya, umuman, bilish nazariyasi, bilish falsafasi sanaladi. U insonning bilish tabiati va imkoniyatlari, bilimning voqelikka munosabatini o‘rganuvchi, uning haqiqiyligi va ishonchliligini aniqlash yo‘llari, usullari to‘g‘risidagi falsafiy fandir[SHermuhammedova.21:4].

Darhaqiqat, olam-odam tizimida dunyoni anglash, sub’ekt va ob’ekt o‘rtasidagi munosabatlar dialektikasi, boshqacha aytganda, tilning gnoseologik va ontologik tabiatga ega ekanligi kabilarni tadqiq etish tilshunoslikning ham markaziy muammolaridan biri ekanligi isbotlanmoqda [Panfilov.12:70].

A.Nurmonov tilning onto-gnoseologik tabiati va uning metodologik asosini quyidagicha izohlaydi: «Til falsafiy jihatdan gnoseologik va ontologik tabiatga ega murakkab fenomendir. Ontologik tabiatga ega murakkab tilga gnoseologik nuqtai nazardan yondashilganda, birinchidan, insonning til orqali olamni bilishi, tilning ob’ektiv borliq uzvlarini nomlash (onomasiologik) vazifasi, ikkinchidan, tilning shu til egalarining olam haqidagi bilimlari to‘plami ekani (akkumulyativ vazifasi) yoritiladi»[Nurmonov.11:14].

Olim bu haqida mulohaza yuritar ekan, yana quyidagi fikrlarni ham alohida ta’kidlaydi: «Tilning ontologik xususiyati deganda, uning o‘ziga xos ichki tuzilishiga ega ob’ektiv hodisa ekani tushuniladi. Tilning ontologik tabiati gnoseologiya uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. CHunki til haqidagi fan tilning ontologik tabiati haqidagi fandir. SHuning uchun falsafada ontologiya va gnoseologiyaning bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekani e’tirof etiladi.

Ontologiya borliq to‘g‘risidagi umumiy ta’limot, borliqning fundamental asoslarini, umumiy mohiyatini va mavjudlik kategoriyalarini o‘rganuvchi falsafaning bo‘limi sifatida gnoseologiya masalalari uchun asos, manba bo‘lib xizmat qiladi. Gnoseologiyaning barcha tushunchalari va tamoyillari o‘zining ontologik talqiniga, ontologik jihatiga ega. Demak, gnoseologiya va ontologiya falsafaning o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan ikki bo‘limidir. Ularning uzviy bog‘liqligi shundaki, gnoseologiya ontologik, ontologiya esa gnoseologik tabiatga ega»[Nurmonov.11:15]. Ilmiy bilish tushunchasi faqat insonga xos bo‘lgan jarayon bo‘lib, u inson tomonidan jonli tabiatga ham, jonsiz tabiat – *olam*ga ham birdek qo‘llaniladi. Ilmiy bilish bilim orqali ro‘yobga chiqadi[Salimov.15:22].

Yaqin-yaqinlargacha tilshunoslik fani u yoki bu til tizimini ichki tilshunoslik nuqtai nazaridan, ya’ni uning substantsional xususiyatlarini, semantik-funktsional tomonlarini alohida-alohida tahlil va tadqiq qilib keldi. Bugungi kunda jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan nazariy tilshunoslik fani bunday metodologiyaga qoniqmaydi.

Ma’lumki, metodologiya inson bilish faoliyatining vositalari, maqsadi va nazariy asosini aniqlab beradi. Metodologiya doirasida tadqiqotchi voqelikdagi turli hodisalarni tahlil qilish tamoyillarini tanlaydi, tadqiqot jarayonida erishilgan natijalarni o‘rganish va baholash usullaridan foydalanadi. «Falsafa» qomusiy lug‘atida metodologiya tushunchasi ikki yo‘nalishda ta’riflanadi: 1) biror fanda tatbiq etiladigan tadqiqot usullarining majmui; 2) ilmiy bilish va dunyoni o‘zgartirish metodi haqidagi ta’limot[Falsafa lug‘ati.17:258].

Prof. N.SHermuhamedovaning fikricha, fan metodologiyasi samarali bilish faoliyatining umumiy tamoyillarinigina belgilab berishga qodir, ammo u tadqiq qilinayotgan ob’ektni bilishning muayyan yo‘llarini belgilab bera olmaydi[SHermuhammedova. 20:213]. Har bir ob’ekt tadqiqi alohida yondashuvni, maxsus usul va vositalar majmuasidan foydalanishni talab qiladi. SHu sababli metodologiyani tahlil tamoyillari va metodlari tizimi haqidagi ta’limot sifatida ta’riflash ma’qulroq. Uning doirasida ilmiy izlanish va bilim olishning nazariy asosi, umumiy yondashuv tamoyillari belgilanadi.

Metodologiyaning muhim vazifalaridan biri bilim manbaini aniqlashdir. Ushbu masalaning echimini falsafadan izlamoq darkor, zero, falsafiy nuqtai nazardan har qanday bilim manbai ob'ektiv voqelik va uning *inson ongidagi* aksidir[Zalevskaya.9:8].

Borliqning inson ongidagi aksi to'g'ridan-to'g'ri bevosita («ko'zgudek toza») bo'lishi mumkin emas. Bu aks bilish sub'ektining ob'ektga munosabati ta'sirida bo'ladi, ammo ushbu ta'sir doirasi inson imkoniyatlariga bog'liq, ma'lum chegarada kechadi.Gnoseologiyada hissiy bilish jarayonida yuzaga keladigan obraz va bilish ob'ekti o'rtasidagi munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratiladi: «Hissiy bilish shakllari to'g'risida tashqi dunyo obrazlari sifatida gapirilganda, «obraz» ga ob'ektga moslik xos emas, balki ob'ektga uning muvofiqligi xos ekanligini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim. «Obraz» – oynadagi nusxa emas, lekin «belgi» ham emas, balki narsaga xos in'ikosdir»[Bilish falsafasi.4:121].

Borliqning inson tomonidan idrok etilishi, bu idrok sezgi organlari yoki biror-bir asbob vositasida bo'lishidan qat'iy nazar, doimo sub'ektivdir. Lekin bu bilan voqelik to'g'risida ob'ektiv ma'lumotga ega bo'lish mumkin emas, biz bilayotganimiz voqelik bo'lmasdan, faqatgina his-tuyg'u, sezish natijasidir degan xulosaga kelish noto'g'ridir.

Voqelikni sub'ektiv bilish jarayoni tajriba nazoratidadir va ushbu jarayon natijasida biz voqelik haqidagi ob'ektiv bilimga, aniq ma'lumotga ega bo'lamiz, ob'ektiv haqiqatni bilib olamiz. Ob'ektiv haqiqat dunyo haqidagi bilim mazmunidir va bu bilim sub'ekt bilan bog'liq emas. Lekin ushbu bilimni to'plash jarayoni bevosita sub'ekt faoliyati, uning dunyoqarashi va qanday vositalardan foydalanilayotganligiga bog'liq. Ushbu faktorlarning barchasi ilmiy tadqiqot natijalarida o'z aksini topadi va bizning voqelik haqidagi bilimimiz qay yo'sinda shakllanishini belgilaydi. Shu sababli bilish faoliyatining har bir bosqichi ob'ektiv haqiqatga malum darajada yaqinlashish va unga intilishning kuchayishiga imkon beradi.Xullas, zamonaviy falsafa fani voqelikni ilmiy bilishning asosiy yo'nalishlarini aniq belgilab berish qudratiga ega.

Yuqorida aytilgan fikrlar nafaqat tabiat haqidagi fanlar, balki tilshunoslik uchun ham to'lig'icha xosdir. Shuning uchun til tizimini ilmiy bilish real lingvistik hodisalardan boshlanishi kerak, degan fikr nechog'lik to'g'ri bo'lishiga qaramasdan, aslida hech qachon induktiv usulning absolyutlashuviga sabab bo'lmasligi kerak. Bunday yaxlitlashtirishga urinish bizning fanimiz taraqqiyotiga to'siq tug'diradi, tadqiqot hodisalarning yuzaki xususiyatlari bilan chegaralanib qolib, ularning asl mohiyatini nazardan qochiradi. SHuning uchun bugungi tilshunoslik oldidagi muhim fundamental maqsad, va ayni paytdagi vazifa ham «*inson omili»* tushunchasini tilshunoslik taraqqiyotidagi funktsional-semantik tahlil va antropotsentrik paradigmaning o'ziga xos xususiyati va lisoniy metodologik ehtiyoji hamda integratsiyasi aspektida tadqiq etishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1.Абдуллаева М.Н. Научное творчество и идея национальной независимости // Фалсафа ва ҳуқуқ. –Тошкент, 2005. –.№4. – Б.17-19.

2.Ал-Хоразми Мухаммад ибн Муса. Математические трактаты. – Ташкент: Фан, 1983. – С.29.

3.Beruniy Abu Rayhon. Ruhiyat va ta'lim- tarbiya haqida. –Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B.42.

4.Bilish falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2005. – B.121.

5.Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. –Toshkent: Fan, 2007. – B.4.

6.Воркачев С.Т. Лингвокультурология, языковая личность, концепт:становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Молсква,2001.№ 1. – С.64-68.

7.Григорян Б.Т. Философская антропология. – Москва: Наука, 1982. – С.121.

8.Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. –T.: Iqtisod-moliya,2007. –216.

9.Залевская А.А. Текст и его понимание. –Тверь: ТвГУ, 2001. – С.8.

10.Mo'minov I.M. O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan.-T.: Fan, 1993. –B.48.

11. Nurmonov A.N. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. –Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.14.

12. Панфилов В.З. Взаимоотношения языка и мышления. –Москва,1971. – С.170.
13.Расулова Г.Х. Экологизация стиля мышления ученых// Мустақил Ўзбекистон фалсафа фанининг долзарб муаммолдари. –Т.: Фан,1999. –Б.46.
14. Расулев Э. Научная школа и индивидуальность ученого // Ж.: Falsafa va huquq. – Тошкент, 2006. – №4. –Б.78-79.
15.Salimov B.L. Ilmiy bilish jarayonida tasodifning o‘rni: Fals.fan.nomz. ...diss.avtoref. – Toshkent: O‘zRFA Falsafa va huquq instituti,2008. – 27 b.
16.Tulenov J.T. Dialektika i stilь nauchnogo mыshleniya. –Toshkent: O‘qituvchi,1983. –283 s.
17.Falsafa. Qomusiy lug‘at. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2004. – B.258.
18.Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B.152.
19.Чепиков М.Г. Интеграция науки ( Философский очерк ) . –Москва: Мысль, 1981, – С.7.
20.Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2005. – B.213.
21.Shermuhammedova N.A. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. –Toshkent:Universitet, 2008. – B.4.

## “МУҲОКАМАТ УЛ - ЛУҒАТАЙН” АСАРИНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ
## SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF THE WORK "MUHOKAMAT UL - LUG‘ATAYN"

**З.Ибрагимова**
***Қорақалпоқ ДУ***
***филология фанлари номзоди***

**Аннотация:** мақолада Алишер Навоийнинг “Муҳакамат ул луғатайн”асарининг илмий талқинига бағишланган. Асарда келтирилган туркий ва форсий сўзларнинг маъно мазмуни, икки тилдаги қўлланиш доираси ёритиб берилган.

**Annotation:** The article is devoted to the scientific interpretation of Alisher Navoi's work "Muhakamat ul lug‘atayn". The meaning of Turkish and Persian words in the play and the scope of their use in the two languages are explained.

***Калит сўзлар:*** *Алишер Навоий, “Муҳакамат ул луғатайн”асари, туркий ва форсий сўзлар, сипқормоқ, тамшамоқ, йиғламоқ*

***Keywords****: Alisher Navoi, “Muhakamat ul lug‘atayn”, Turkish and Persian words, sip, taste, cry.*

Сўз санъатининг бошоқчиси, сўз ва қимматбаҳо гавҳари хазинасининг ғазнибони ва назм гулистонининг сайроқ булбули, яъни гуноҳлари мағрифат қилиниши ва айблари ёпилишини истайдиган Алишер, тахаллуси Навоий бундай арз қиладики: «Сўз шундай гавҳарки, унинг дарёси кўнгилдир ва кўнгил шундайки, у идрокнинг барча маъноларини ўзида жамловчидир, худди дарёдан гавҳар ғаввос воситасида чиқарилиб жилва намойиш қилиб, унинг қиймати жавҳарига яраша бўлганидек, кўнгилдан ҳам сўз гавҳари нутқ шарафи соҳиби маҳорати туфайли талқин ва зийнат кўрсатади. Унинг қиймати ҳам мартабаси нисбатига кўра жойилади ва шуҳрат қозонади. Гавҳар қиймати бир тангадан минг минг тумангача деса бўлади”(Алишер Навоий,2014:67).

*Қитъа:*

Инжуни олсалар доривор учун
Гоҳи бир тангага келар юз ё минг.

Биттасин хуш кўруб қўлга олар шоҳ,
Қиймати бир юртнинг хирожига тенг.

Сўз яхшисидан ўлик танга пок руҳинади ва тубанидан вужудга ҳалокат зуҳур этади, деган эди (Алишер Навоий.2014:68). Агар сўз маъносининг ихчамлиги ва қисқалиги, таъсирчанлиги юзасидан сўз юритилса, унинг навлари-хиллари ақл идрок эта оладиган даражадан юқори ва тасаввурдан „ташқарида бўлиб, унинг етмиш икки фирқа сўзларга бўлиниши шубҳа туғдирмайди. Чиндан ҳам, Ер юзининг аҳоли яшайдиган тўртдан бир қисмидаги етти иқлим(минтақа)нинг ҳар бирида бир қанча ўлка бор ва ҳар ўлкада неча туман, шаҳару қишлоқлари, ҳар даштда гуруҳ-гуруҳ, саҳроларида яшовчи элатлар; ҳар тоғнинг чўққилари ва этакларида, денгиздаги оролларию соҳилларида қанчалар тоифалар бор. Ҳар бир жамоанинг лафзи - сўзлари бошқаларидан ва ҳар гуруҳ ифода-иборалари янагиларидан ўзгача ва бир неча хусусият билан имтиёзли-юқорироқдир.

“Муҳакамат ул луғатайн” асарида қушлар, ҳайвонлар ва йиртқичлар тилларининг ҳар бирида ўзгача товушу овоз ифодалари ва ўзгаларида такрорланмайдиган тараннумлари мавжудлиги, сўз ва иборадан мақсад маънодир ва мазкур махлуқот – яратилган мавжудотлардан мақсад инсондир. Маъно изҳори тимсоли инсонда мужассам бўлгани учун унинг хилма-хил шаҳару қишлоқлари, тоғу саҳролари, ўрмону денгиз ороллари халқлари навларининг кўплиги ва фарқлари, ҳаммасида маъно ифодаси учун тилга сўз келиши ва сўзларнинг маъно фарқлари хусусида фикр-мулоҳазалар батафсил баён этилган.

Бундан сўнг уч тил асл нави мўътабарлиги, у тилларнинг иборалари гавҳари сўзловчининг нутқига зийнат ва ҳар қайсисининг тармоқлари ғоят кўплиги, туркий, форсий ва ҳиндий асл тилларнинг манбаи бўлиб, келиб чиқиши нуқтаи назардан Нух пайғамбарнинг уч ўғли – ***Ёфас, Сом ва Хомга*** бориб тақалиши кўрсатилади.

Нух алайҳиссалом тарихчилар Абут-туркни деб ёзиладиган Ёфасни Хито(Уйғуристон) мамлакатига, Абул-фурс деб битиладиган Сомни Эрон ва Турон мамлакатлари марказига ва Абул ҳинд номида танилган Хомни Ҳиндистон ўлкасига узатади(Қосимов, 1999;9). Ушбу уч пайғмбарзода авлоду тобъелари билан мазкур мамлакатларга ёйиладилар, кўпаядилар. Тарихчиларнинг қайд этишларича, Абут-турк деган Ёфас ўғлон набийлик тожи билан пайғамбарлик мансаби билан иниларидан мунтоз бўлади. Бу уч ўғилнинг авлоди ва тарафдорлари ўрталарида туркий, форсий ва ҳиндий тиллари кенг ёйилди ва кўпайдилар,

Хом Нух алайҳиссаломга нисбатан одобсизлик қилгани боис отанинг муборак тилидан унга нисбатан қарғиш содир бўлиб, унинг оқ юзи қорайиб, тилида синиқлик юз беради, зарур қийматидан маҳрум бўлади. Бундан сўнг турк ва форс тили ҳақида фикр юритиб, уларнинг тилларида камол ва нуқсон хусусиятига кўра йирик тафовутлар борлиги зикр этилади. Бу икки тоифанинг йигити ва қариси, улуғ ва кичиси орасида ихтилот-муносабат баб-баравардир. Ўзаро самимий борди келди ва ўзаро самимий гап-сўзи борлиги, турк форсдан тез фаҳмлироқ ва баланд идрокроқ ва хилқати софроқ яратилган деса, форс туркдан ақл юритишда ва илмда нозиктаброқ ва камолу фазл тафаккурида теранроқ зуҳр қилади.

Қисман турк (ўзбек) шоирлари форс тилида ажойиб шеърлар ёзадилар ва ширин талқинлар этадилар. Аммо форс элининг қуйи ва зодаган тоифаларигача, саводсизидан донишмандигача ҳеч қайси турк тилида сўзлай олмайдилар ва эшитган сўзларининг маъносини ҳам билмайдилар. Агар юздан ёки мингдан бири бу тилни ўрганиб гапирса ҳам, ҳар бир эшитган киши унинг форс эканини фаҳмлайди ва у сўзлаётган киши гўё ўз тили билан ўзини уятга қўяётгандек бўлади. Турк тили олимлари жуда кўп ҳолатларда муболаға кўрсатиб, ўта майда нарсаларга ҳам гап топиб қўядилар.

Масалан:***қу****вормаку курукшамоқ ва йашармаку жийжаймоқ ва ўнгдаймоку чекримак ва дўмсаймоку умонмок ва ўсанмоку игирмоку ишанмок ва игланмоку айланмок ва эрикмаку игранмак ва овунмоку қистамок ва кийнамоку қўзғолмок ва соврулмоку чайқалмок ва девлашмаку кийманмок ва қизғанмоку рийманмок ва қизғанвоку никамак ва сийланмоку танламок ва қимирдамоку серпамак ва сирмамаку сиғинмок ва қилимоку ёлинмок ва танчиқамоқу ва тепрамаку теврамак ва қингғаймоку шиғлдамок ва сингрaмаку яшкамок ваишкармоку кўнгрaмак ва сухранмоку сийпамок ва қораламоку сурканмак ва куйманмаку*

*ингранмок ва тушалмаку мунғаймок ва танчикамоку танчиколмок ва кўруксамаку бушурғанмок ва бохсамоку киркиннмак ва сукадамаку бусмок ва буркаку турмак ва,бошқалар.*

Бордию гаплашган пайтда ушбу маънолар ифодасига форс тилида эҳтиёж туғилса, ҳар бир туркий сўзни бир неча сўз ёки сўз бирикмасидан фойдаланишига тўғри келади. Масалан, Туркий назмда улуғ шоирлардан баъзилари май ичмоқ расм русумида кўп сўз юритади ва ниҳоят шундай сўзлардан бири ***сипқормоқ*** тушунчасидир:

Соқиё, тут майниким, бир лаҳза
ўзимдан борай,
Шарт бу ким, ҳар неча тутсанг,
лиммо-лим***сипқорай***.

Ёки ***тамшамоқ*** сўзи чексиз завқланишдан бирданига ичмай лаззат топа-топа оз-оз ичишни билдиради:

Соқий чу ичиб, мангатутарқўш,
***Тамший-тамший*** аниқи лайнўш.

Алишер Навоий *йиғламоқ* сўзининг бир нечакўринишларини услубга хос қўллайди: *йиғламсинмоқ, инграмак, сунграмак, сиқтамоқ,* Туркийда яна баланд товуш билан ҳаддан ташқари дод фарёд қилиб йиғламоқни *ўкурмак, инчкирмак* ингичка, нозик овоз билан йиғламсирамоқдир. Йиғламоқда ***"ҳой-ҳой"*** сўзи йиғи таъсирчанлигини ғоят ошириб юборади.

Айниқса, шеъриятда энг қийин санъат тажнис ва ийҳом бўлиб, шоир бир сўзни икки маъонада қўллайди ва иккинчи маъноси –яширин қирраси ўта таъсирчан ёки муҳим бўлади. Бу ҳодиса форс адабиётига ҳам ёт эмас, албатта. Аммо ўзбек тилидагидек бир сўзни уч-тўрт маъно ифодасига ярайдиган том тажнислилик ҳолати форсийда деярли учрамайди. Навоий бунга ***от, ит, ўт*** каби сўз тажнислари асосида яратилган туюқларни мисол келтиради. Чунончи:

Чун парию ҳурдир***отинг,***бегим, (исминг)
Суратичра дев эрур***отинг,***бегим. (ҳайвон, улов)
Ҳарбирўққим, эл-улус андин қочар,
Нотавонжоним сари ***отинг,***бегим. (отмоқ, улоқтир).

Қуш навларига доир сўзларнинг форсий ва туркийдаги нисбатини Навоий*"ўрдак"-"мурғоби"*мисолида би тушунчага нисбатан етмиш туркий сўз топади;*ўрдак, сона, бўрчин, жўрка, эрка, суқтур, олмабош, чақирқанот, темирқонат, алдалдаға, алапука, боғчол* каби.Бундай ҳолат дунёнинг бошқа бирор тилида бўлмаса керак.

*Оқ уйни* форслар *хиргоҳ* деб номлайди. Бироқ унинг қисмлари ва анжомларини туркча атайдилар: *тунглук, узук, тўлуғ, босруғ, чиғ, қабот, кўзанак, увуғ, богиш, бўсаға, эркина* ва бошқалар.

Хулоса шуки, Алишер Навоийнинг ўзбек халқига кўрсатган хизматларидан *бири* – у ишлатилмаган туркий лаҳжалардаги сўзлардан унумли фойдаланиб, адабий тилни янги сўзлар билан янада бойитган, *иккинчидан,* мавжуд сўзлар ва қўшимчалар асосида янги сўзлар яратган, *учинчидан,* бадиий талабларга жавоб берадиган луғавий бирликларни ҳосил қилишнинг нозик ва ажойиб усулларини кашф қилган, *тўртинчидан,* туркий лаҳжалар ва фолклорни унумли истифода қилиб, адабий тилни йаратди. Шунингдек, асарда ўша барча ютуқларни назарий нуқтаи назардан мухтасар таҳлилу талқинга жалб этиб, туркий тил ҳақ-ҳуқуқлари ҳақидаги дўстлар фикрларини қувватлаб, ноҳақ ҳасадгўйлар даъволарини чилпарчин этиб, бу масалага узил-кесил нуқта қўйди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Алишер Навоий "Мухокамат ул - луғатайн" – Тошкент: Тафаккур, 2014, -143 б.

2. Қосимов Б, Жумахўжа Н. Ўзбек адабиёти, 10-синф учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи,1999. Б:9.

# ҚАДИМИЙ ТУРКИЙ АСАРЛАРДА НУТҚ МАДАНИЯТИГА ОИД ТАЛҚИНЛАР
# INTERPRETATIONS ON SPEECH CULTURE IN ANCIENT TURKISH WORKS

**Ў.Ҳ Исламов**
***Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, филология фанлари номзоди***

**Аннотация:** Ушбу мақолада Маҳмуд Кошғарийнинг нутқ одобига оид қарашлари таҳлил қилинган. Жумладан, халқимиз учун мақол даражасида айтиб келинаётган шоир ижодига мансуб мисраларнинг мазмуни очиб берилган. Туркий халқларнинг бу нодир асарида битилган таълим-тарбиянинг турли вазиятлари, хусусан, суҳбатдошларнинг нутқига эътибор бериб, унинг мақсад ва муддаосига, нутқда қандай фикр олдинга сурилаётганига, нутқнинг ифодаланиш усулларига алоҳида диққат қаратиш кабиларга оид мисолларга эътибор қаратилган. Мақолада ўтмиш аждодларимиз тилни нафақат инсонлар орасидаги мулоқат ва муносабат воситасигина эмас, балки инсонни тарбиялаш, тўғрилик ва адолатга ундаш, шахсдаги барча ижобий ва гўзал фазилатларни рўёбга чиқариш, одамни улуғ ва мўътабар амалларга рағбатлантириш воситаси, деб билганлари билан боғлиқ мисолларга ҳам ўрин берилган ва шарҳланган. Комил инсон шаклланишида тилнинг аҳамияти муҳим эканлиги ҳақидаги қараш мақоланинг асосий ғоясидир.

**Калит сўзлар:** тил, сўз, нутқ, нутқ одоби, нутқ маданияти, тарбия, таълим, ахлоқ, одоб, қадимги, ҳикматли, мақол, фикр, қараш.

**Аннотация:** В данной статье анализируется взгляды Махмуда Кашгари на речевой этикет. В частности, раскрывается содержание стихов произведения поэта, которые читаются на уровне пословиц для нашего народа. Это редкое произведение тюркских народов сосредоточено на различных аспектах образования, в частности, на речи собеседников, ее цели и предназначении, о том, что выдвигается в речи и как она выражается.В статье обсуждается и комментируется тот факт, что наши предки знали язык не только как средство общения и общения между людьми, но и как средство воспитания, поощрения праведности и справедливости, реализации всех положительных и прекрасных качеств в человеке, побуждения человека к великим и благородным поступкам. Основная идея статьи - точка зрения, что язык важен в формировании идеального человека.

Ключевые слова: язык, слово, речь, речевой этикет, культура речи, воспитание, образование, мораль, этикет, древний, мудрый, пословица, мысль, взгляд.

**Abstract:** this article analyzes the views of Mahmud Kashgari on speech etiquette. In particular, the content of the poems of the poet's works is revealed, which are read at the level of proverbs for our people. This rare work of the Turkic peoples focuses on various aspects of education, in particular, on the speech of the interlocutors, its purpose and purpose, what is put forward in speech and how it is expressed.The article discusses and comments on the fact that our ancestors knew the language not only as a means of communication and communication between people, but also as a means of education, promotion of righteousness and justice, the realization of all positive and wonderful qualities in a person, motivating a person to great and noble deeds ... The main idea of the article is the point of view that language is important in the formation of an ideal person.

***Key words:****language, word, speech, speech etiquette, speech culture, upbringing, education, morality, etiquette, ancient, wise, proverb, thought, view.*

Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғатит турк” асарида лексемалар изоҳидан ташқари туркий халқлар тарихида яратилган қўшиқлар, мақол ва маталлар, шеърлар, ҳикматли сўзлардан кўпгина намуналар келтирилган. Булар орасида тил, нутқ, нутқ одобига оид туркийлар амал қилган қоидалар, эътиқод ва удумлар ҳақида қимматли маълумотлар

мавжуд. Шунинг учун ҳам у машҳур тилшунос, туркий тилларни қиёсий тадқиқ қилиш асосчиси, туркий тиллар диалектологиясининг илк тадқиқотчиси ва яратувчисидир.

Шу ўринда шуни айтиш жоизки, ўзбек тилшунослиги “Нутқ маданияти” мактабининг йирик олими профессор Н.Маҳмудов ўзининг “Ўқитувчи нутқи маданияти” номли китобида таъкидлаганларидек, “Сўзга ошуфталик, нутқнинг талифлигидан, ундаги сўзларнинг фавқулотда уйғунлигидан завқланиш, гўзал ва таъсирли нутқ тузишга айрича ҳавас, бундай санъат соҳибига ҳайрат билан қараш ўзбекларнинг азалий урфларидандир. Айтилмоқчи бўлан фикрга мутлақо мос либос кийдира билиш, сўз билан тингловчининг фақат қулоғини эмас, балки қалбини ҳам забт эта олиш Шарқда, хусусан, ўзбекларда тарбияланганликнинг, маърифатлиликнинг, зиёлиликнинг қабариқ белгиларидан бири ҳисобланган. Шунинг учун ҳам бизнинг минг йиллик маданиятимиз ва маънавиятимиз тарихида нотиқлик санъати, воизлик санъати, нутқ одоби ўзининг теран илдизларига эга. Айниқса, нотиқлик санъатининг энг оммавий турларидан бири бўлмиш воизлик, яъни ваъз айтиш санъати ислом маданиятида жуда катта ижтимоий – сиёсий ва маърифий нуфузга эга бўлган”. [1]

Демак, қадимдан туркийлар инсонни тарбиялаш, уни эзгу ишлар ва қаҳрамонликка ундашга чексиз эътибор қилишган. Одамни одоб-ахлоқли қилиб тарбиялашнинг турли йўллари, усулларини, ҳам маънавий, ҳам моддий-амалий йўлларини кўплаб ўйлаб топишган. Туркийлар инсонни одобли қилиб тарбиялашнинг энг асосий бош йўли тил (нутқ) одоби деб билишган. Маҳмуд Кошғарийнинг қуйидаги келтирилган ҳикматли сўз ва мақолида бу яхши ифодаланган:

*Одобнинг боши тил (эрдам баші тил).*[3]

*Одоб ва фазилатнинг боши тил (эрдам баші тил).* [1]

Келтирилган мақолда тилнинг шахс ижтимоий, шахсий ҳаётида, унинг маданий ва маънавий дунёсида, кундалик турмушида, мақсади ва амалида ҳамда руҳий оламида тутган ўрнини тўлиқ ифодалайди. Чунки киши нутқи сўзловчининг барча ижобий фазилатлари, маънавий дунёси ифодаланиб, рўёбга чиқадиган энг мукаммал воситадир. Нутқ одамнинг ахлоқи, ички дунёси намоён бўлувчи лисоний , маънавий кўзгудир. Бу кўзгунинг қанчалик тиниқ, шаффоф, мафтункор бўлиши одамнинг ахлоқий фазилатлари, эзгу мақсадига боғлиқ. Шу сабабли бизнинг ўтмиш аждодларимиз нутққа, нутқ ифода қилувчи шахснинг олдига бир қатор талаблар қўйишган. Суҳбатдошларнинг нутқига эътибор бериб, унинг мақсад ва муддаосига, нутқда қандай фикр олдинга сурилаётганига, нутқнинг ифодаланиш усулларига алоҳида диққат қаратганлар. Мана шундай кузатишлар кишининг эзгу нутқи мақсадли, рост (ҳақ, тўғри, чин, фойдали ва таъсирчан, майин ва гўзал) бўлиши лозимлигини шарт қилиб қўйишган. Бу шарт ва талаблар сермазмун ва кўпқирралидир. Маҳмуд Кошғарий буларнинг баъзиларини ўз асарида қуйидагича келтирган:

- **инсоннинг мақсади, унинг нутқида намоён бўлади:**

*Чақмоқ тош чақилса, олов тутади, сўз эшитилса мақсад билинади.*
*(чақса тутунур, чалса білінур).*[4]

- **яхши сўзларни олимлардан ибрат олиб ўрган:**

*Олим киши сўзидан олгил ўгит,*
*Яхши сўзлар таъсири дилга сингар.*[5]

- **ота-онанг сўзларин эшитиб, ибрат ол, ҳар сўзини қадрла:**

*Эшитиб ота-онангнинг*
*Сўзларини қадрла.*[3]
*(*Маҳмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. [6]

- **эзгу сўз сўзла, тилингда яхши мақсадлар ифодалансин:**

*Ёз кўркингга ишонма,*
*Сувлар уза таянма.*
*Ёмонликка отланма,*
*Тилдан чиқаз, эзгу сўз.*[5]

- **кўп сўзни тушуниш қийин бўлади, қисқа гапир:**

*Кўп сўзни тушуниб бўлмайди, қаттиқ тошни йиқитиб (синдириб) бўлмайди.*[5]

- **ширин, аниқ сўзли бўл, совуқ (қўпол) сўзлама, хушхулқ бўл, совуқ сўз бахилларга хос:**

Одам сўзнинг ширинлиги билан лаззатланса асир бўлиб кетади.
(сözгä сўч ўнсä булун барíр). [4]
Боқмас жаҳон совуқ сўз,
Шилқим, юзсиз бахилга.
Ёқимли бўл, хушхулқ бўл,
Қолсин номинг кўп йилга. [4]
Кулса киши юзингга,
Кўрклик бўлиб кўрингил.
Ширин, очиқ сўз сўйла,
Ёқмоқ учун урингил. [5]

Маҳмуд Кошғарийнинг "Девону луғатит турк" асари моҳиятан луғат (диалектал луғат) бўлгани учун унда тил, нутқ ва нутқ одобига оид тушунчаларни англатадиган лексема, сўз бирикмалари ҳам изоҳланган. Бу асарда нутқ одобига оид қизиқарли маълумотлар мавжуд. Қуйида луғатдаги мана шундай сўзлардан иборат мисолларни, уларда келтирилган нутқ ва ахлоқ-одобга оид, таълим-тарбиявий аҳамиятга боғлиқ ибратли маънолардан иборат сўзларни келтирамиз. Биз бу сўзларни тўлиғича транскрипциядакелтиришни лозим топдик:

Ìкíм – ёлғон (ўғуз);
Ìчкäрдí –ёмонлади, чақди;
Jalalді – туҳмат қилинди;
jalarï- Jalarï эр – тутуҳматчи, бадгумон одам;
jастадї – гап сўз тегирди;
jalғу – шафқатли, мурувватли одам;
jапурдї – яширинди.[2]

Navoiyning fikricha, til oddiy so‘zlashuv tili va badiiy til shakllariga ega. U, asosan, ko‘p o‘rinlarda so‘z, til, lafz, lison, kalom, suxan va boshqalar haqida gapirganda badiiy tilni ko‘zda tutadi. Navoiy asarlarida *til* so‘zi turli iboralar, birliklar tarkibida kelib, xilma-xil ma’nolarni ifodalaydi. Chunonchi: *til ranji, til og‘rig‘i, turkiy til, turk lafzi, til hifzi, til zabti, ulus tili, el tili, o‘z tili* va boshqalar[Islamov, 2011:12].

Alisher Navoiy til va so‘zning ijtimoiy vazifasini to‘g‘ri belgilagan, anglay olgan, ya’ni *so‘z* til ma’nosida xalqlarning, elatlarning o‘zaro aloqa-aralashuv vositasi ekanligini u “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida quyidagicha bayon qilgan: *“Va bu so‘zning tanavvui taaquldin nari va tasavvurdin tashqaridur. Agar mubolag‘asiz ijmol yuzidin qalam surulsa va ixtisor jonibidin raqam urulsa, etmish ikki nav’ bila taqsim toparida xud hech so‘z yo‘qturki, etmish ikki firqa kalomiga dalolat qilgay, ammo ulcha tafsiliydur. Uldurkim, rub’i maskunning yetti iqlimidin har iqlimda necha kishvar bor va har kishvarida shahar va qasaba va kent va har dashtda necha xayl-xayl*

*sahronishin ulus va har tozning ko‘llarida va har bahrning jazoyirida va savohilida ne tavoyif bor. Har jamoat alfozi o‘zgalaridin va har guruh iborati yonalaridin mutazayyir va bir necha xususiyat bila mutamayyizdurki, o‘zgalarda yo‘qtur.” (ML, 9-b).*

Navoiyning yozishicha, insonning go‘zalligi, barkamolligi uning tilida, nutqida o‘z aksini topadi:

*Gar chiroyi rashki samar bo‘lmasa,*
*La’li labi tungi shakar bo‘lmasa.* [Navoiy,1987: 59]
*Oyqa bu husnu malohat bila,*
*Nuktani oyini fasohat bila.* [Navoiy, 1987: 59].

Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bag‘ishlangan fikrlari yana-da mukammalroq ifodalangan asari “Mahbub ul-qulub” dir. Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so‘zlovchi dilidagi fikrni to‘g‘ri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi.

Mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so‘zlash odobi haqida, o‘ylamasdan so‘zlamaslik lozimligi haqida: *“Tildin azubat dilpisanddur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achig‘liqqa evruldi, zarari oni bo‘ldi. Chuchuk so‘z sof ko‘ngullarga nushdir... So‘zni ko‘ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko‘nglungda bo‘lsa, tilga surma”* deydi.

Buning ma’nosi shundayki, tilning shirin, yoqimli va yumshoqligi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylansa tinglovchiga zarar yetkazadi. Qandni mast qiluvchi aroq qilsalar, harom bo‘ladi. Chuchuk so‘zni toza ko‘ngullar simiradi... So‘zni ko‘ngulda pishitib olmaguncha so‘zlamagin, ko‘nglingda bo‘lgan har qanday fikrni ham ayta berma. Navoiy mana shu fikrlari orqali nutqning qanchalik muhimligini ta’kidlab o‘tgan.

Nutq nazariyasi bilan jiddiy shug‘ullangan Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining 24-bobini voizlik ilmiga bag‘ishlaydi. Navoiyning o‘zi ham notiqlik san’atini o‘z davrida yuksak darajaga ko‘targan. Uning *“Tilga ixtiyorsiz-elga e’tiborsiz”* yoki *“Ma’dani inson gavhari so‘z durur, gulshani odam samari so‘z durur”* deb yozganlarida nutqqa, tilga e’tibor berish qanchalar muhimligi va bunga o‘zi ham amal qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining 24-bobini “Nasihat ahli va voizlar zikriga” bag‘ishlagan bo‘lib, shoirning fikricha “voiz uldurki, majlisg‘a kirgan to‘lg‘ay va to‘la kirgan holi bo‘lg‘ay”. Bu fikrlar orqali Navoiy notiqning, nutqning eshitgan kishidagi charchoqlarni oladigan darajada yoqimli bo‘lishi va qalbni, aqlni quvvatlantiradigan holda bo‘lishi maqsadga muvofiqligini bitta gap orqali ifodalagan.

Umuman, Navoiyning til va nutq madaniyati haqidagi qarashlari nafaqat, maxsus ilmiy asarlarida, balki, uning hamma ijod mahsulida o‘z aksini topgan. Shu bois Navoiy ijodida til va nutq yuqori baholangan, shoirning o‘zi ham so‘z qudratiga, nutq madaniyatiga doim amal qilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Islamov O‘. Nutq madaniyati Alisher Navoiy talqinida // O‘zbekiston yosh adabiyotshunos va tilshunoslarining “Yoshlar yili”ga bag‘ishlangan an’anaviy anjumani materiallari. Ilmiy maqolalar to‘plami.– Toshkent, 2008. -B. 50-51.
2. Islamov O‘. Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2008. -№3. -B. 81-85.
3. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. –Toshkent: O‘zbekiston.2002, 232.
4. Navoiy A. Tanlangan asarlar. I jild. “Badoyi’ ul-bidoya”.– Toshkent: Fan, 1987. B.689.
5. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. Mukammal asarlar to‘plami, 20 tomlik, XVI tom. – Toshkent: Fan. 2000.


## ALISHER NAVOIY ASARLARIDA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR
## LINGVOCULTUROL UNITS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI


**S.Qahramonova,**
***Navoiy davlat pedagogika instituti***

**Annotatsiya:** ushbu maqolada lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi, til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi, Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida lingvokulturologik birliklarning qo‘llanishi va ularning tilshunoslikdagi o‘rni tahlil qilingan.

**Abstract:** this article analyzes the formation og lingvoculturology as a science, the interdepence of language and culture, the use of lingvoculturological units in Alisher Navoi’s epic Layli and Majnun their role in linguistics.

***Kalit so‘zlar.*** *Lingvokulturologiya, pretsedent jumla, pretsedent nom, lakuna, stereotip ,ekstrolingvistik til birliklari.*

***Keywords.*** *Lingvoculturogy, precedent sentence, lacuna, stereotype, extrolinguistic language units.*

Ma’lumki, XX asr oxirlariga kelib tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati, til madaniyati, tilning o‘ziga xos milliy ko‘rinishlarini, til va madaniyat muammosini o‘rganuvchi yangi soha – lingvokulturologiya yo‘nalishi jadal rivojlana boshladi. Bu sohaning vazifasi til birliklarinng madaniy ahamiyatini, frazeologizmlar yoki ekstrolingvistik til birliklari, madaniyatning ma’lum “kodlarini” ifoda etuvchi simvolik belgilarni solishtirish asosida ish yuritishdan iboratdir. Jumladan, V. N. Teliya bu haqda shunday yozadi: “ Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, shaxs va madaniy omillarni uzviylikda tadqiq etuvchi fandir”. Lingvokulturologiyaning fan sifatida rivoj topishiga bir asrdan ko‘proq vaqt bo‘lishiga qaramay, buyuk ijodkor Alisher Navoiyning epik va ilmiy asarlarida ham lingvokulturologiyaga doir qarashlar o‘z ifodasini topgan. Lingvokulturologiyaning obyektini xalq madaniyatini namoyon etuvchi leksika va lakunalar, pretsedent jumlalar, stereotip, pretsedent nomlar tashkil qiladi. Ushbu terminlardan biri pretsedent nomlarga to‘xtalib o‘tamiz. Pretsedent nom – mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig‘indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlardir. Biror shaxs yoki joy nomlarining keltirilishi orqali asar mazmuniga ramziy ma’no yuklanadi va bu o‘zbek adabiyotida *talmeh* badiiy san’atining yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Navoiyning “ Layli va Majnun “ dostonida bir qancha pretsedent nomlarni uchratamiz. Masalan: *Har sharbat ayog‘i jomi Jamshed,*

*Har sadqa fatiri qursi xurshed.*

Yuqoridagi baytda Jamshid, ya’ni Eronning qadimgi podshohlaridan biri bo‘lib, Jamshid jomi, ya’ni, u yasattirgan qadahga ishora qilingan.

*Andoqki Halil o‘tin zamona,*

*Chekturgay dud aro zabona.*

*Yo o‘tqa borurda barq kirdor,*

*Namrud yuziga solib anvor.*

Ushbu misrada qo‘llangan Halil Ibrohim payg‘ambarning laqabi bo‘lib, rivoyatlarga ko‘ra, Bobil podshohi Namrud xudolik da’vosini qilganda Ibrohim payg‘ambar unga qarshi chiqqan. Podshoh uni o‘tga tashlagan, biroq Ibrohim payg‘ambar gunohsiz bo‘lganligi sababli yonmagan ekan. Majnunning Layli xayoli bilan ko‘rishishini va uning ishq azobida yonishini ba’zan bu yashin tun zulmatiga oq nur to‘kib, bu qora tutun orasida luvullab ko‘ringan Halil o‘tiga o‘xshatadi.

Yoki: *Sahroda ne lola bo‘lsa barbod,*

*Parvez kulohidin berur yod.*

Baytda qo‘llangan Xusrav Parvez – sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz bo‘lib, u ideal shoh sifatida talqin etilgan, ammo Navoiy o‘zining asarlarida salbiy qahramon sifatida gavdalantiradi va yuqoridagi misrada sahrodagi lola barglari Parvez kulohidan darak berar edi, deya bu ham ramziylikni kasb etadi.

Alisher Navoiy til va madaniyat munosabatlarining nazariy masalalari doirasida fikr yuritar ekan, lingvokulturologik jihatdan e’tiborga molik leksik birliklardan ham unumli foydalanadi. Buyuk ijodkor nafaqat tarixiy obraz nomlaridan, balki o‘ziga ustoz deb bilgan Nizomiy Ganjaviy, Dehlaviy, Jomiy; zamondoshlari Uvays, Suhayliy, Badiuzzamon, Junayd singari shoir va davlat arboblarini ham keltirib o‘tadi. Bundan tashqari, shoir dostonda *Arofat, Iram, Tur, Kof, Anqo,*

*Najd, Abuqubays, Izam* kabi tog‘ nomlaridan; *Vodiyi Ayman, Jayhun, Yasrib, Farang, Makka* singari joy nomlarini qo‘llaydi.

Alisher Navoiyning har bir asariga nazar tashlasak, tilda o‘z aksini topgan ramziy ifodalar, xalq madaniyatining yorqin ifodasini namoyon etuvchi maqol va iboralar, o‘xshatish va metaforalar, toponimlarning minglab ko‘rinishlariga guvoh bo‘lamiz. Xulosa qilib aytganda, Navoiy xalqlarning o‘ziga xos xarakterini, milliy tushunchalarni aks ettirgan olim, lingvokulturologiyaga oid qarashlarning ilk tadqiqotchisi sifatida tilshunoslikka katta hissa qo‘shgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D. Xudoyberganova “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” – Toshkent 2015.
2. Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami” –Toshkent 1992
3. Nurmonov A. “O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari” –Toshkent 2011
4. Kenjayeva S.”O‘zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingvistik tadqiqi” –Toshket 2011
5. “ O‘zbek tilida lingvokulturemalar va ularning lingvokulturologik tadqiqi”

## ALISHER NAVOIY "CHOR DEVON"IDA ETNONIMLAR
## ETHNONYM IN ALISHER NAVOI "CHOR DEVON"

***M.Safarova,***
***BuxDU o‘qituvchisi***

**Abstract:** this article discusses the emergence of ethnonyms by the demands of history and the issue of ethnonyms through historical sources, in particular, in the works of Alisher Navoi.

***Keywords:*** *turkic peoples, ethnonym, tribe, turkic language, barlos, tarxon, sulduz, arlot.*

Etnonimlar o‘zbek tilida uzoq o‘tmishda yuzaga kelgan nomlar sanaladi. Shuning uchun ham qabila, urug‘ va shahobchalarining nomlarida ko‘plab qadimiy turkiy tilga, uning uzoq tarixiga oid leksemalar saqlanib qolgan. O‘zbek etnonimlari uzoq davr taraqqiyotini boshidan kechirgan bo‘lib, ularda qadimiy turkiy qabila va urug‘lar o‘zbeklarning ko‘hna davr ajdodlari amal qilgan urf-odatlar, falsafiy-diniy e’tiqodlar, qadimiy madaniyat izlari, so‘z yasalish usullari o‘z ifodasini topgan.

Etnonimlar haqidagi qarashlar bir necha davrlar oldin ham bo‘lganligini qimmatli manbalar orqali bilib olishimiz mumkin. Turkiy etnonimlar haqidagi ma’lumotlar qadimgi turkiy tilga oid yozma bitiklarda, M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida, Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bubur, Abulg‘oziy Bahodirxonning asarlarida, shuningdek, o‘rta asrlarga mansub arab va fors tillarida yozilgan bir qator tarixiy bitiklarda saqlanib bizgacha yetib kelgan [Marqayev K. 2007:10].

Bulardan tashqari, o‘zbek xalqining urug‘ va qabilalari haqidagi materiallar Mirxondning “Ravzatus-safo”, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” kabi mashhur tarixiy asarlarida ham aytib o‘tilgan. Ammo bu materiallar to‘liq o‘rganilgan emas. Hazrat Alisher Navoiy tarix ilmi bilan maxsus shug‘ullanmagan bo‘lishiga qaramasdan, o‘zbek xalqining tarixi haqida, xususan, uning etnografiyasi, o‘zbek xalqining urug‘ va qabilalari, ularning o‘sha davrda tutgan o‘rni, mavqeyi haqida katta ma’naviy xazina qoldirgan deyishimiz mumkin.

Alisher Navoiy o‘zining ko‘pgina asarlarida o‘zbek urug‘lari, ularning nomlanish hamda kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritgan, ayniqsa, uning “Chor devon”ida o‘zbek xalqining urug‘ va qabilalariga ko‘pgina qimmatli va har tomonlama e’tiborga arzirli fikrlarni aytib o‘tgan. Masalan, Navoiyning

Ey Navoiy, manga bas ul sanami lo‘livash,
Bekka *qipchoqu og‘ar,* shahg‘u *qiyotu bilgut.*

Yoki:

Menga tilab husn, vale shoh tilab aslu nasab,
Menga lo‘li bila hindu, anda *qo‘ng‘irotu qiyot.*

kabi misralari o‘zbek xalqining ***qipchoq, og‘ar, qiyot, bilgut, qo‘ng‘irot*** singari urug‘lari haqida ma’lumot berish bilan bir qatorda, shu urug‘larning o‘sha davrdagi temuriylar davlatida tutgan mavqeyi xususida ham qimmatli tarixiy ma’lumotlar bermoqda. Bu ma’lumotlar o‘zbek xalqining tarixini, urug‘ va qabilalarini, ularning tarkibidagi etnik guruhlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Navoiyning ushbu baytlari ham o‘zbek xalqining urug‘ va qabilalarini o‘rganish jihatidan ahamiyatlidir:

Sanamlar husnidin maqsud yor o‘lmish Navoiyg‘a,
Agar *barlos,* agar *tarxon,* agar *arlot,* agar *sulduz.*

Chun Navoiy jonig‘a ofat erur lo‘livashe,
Sog‘inur g‘uli biyobon ko‘rsa *qo‘ng‘irotu qiyot.*

Navoiy, ista mazohirda chehram maqsud,
*Arab* va gar *chig‘atoy*, yo‘qsa *turkmanu xaloj.*

Ey Navoiy, chu gadosen, senu bir lo‘livash,
Shohga mirzou mirak, xonga *qiyotu qo‘ng‘irot.*

Yuqorida qayd qilib o‘tilgan so‘zlar o‘sha davrda ma’lum bir qabila va urug‘ nomi ekanligi misralar orqali ma’lum bo‘ladi.

Bulardan tashqari, Alisher Navoiyning “Chor devon”i, ba’zi ilmiy tanqidiy asarlari va “Xamsa” asarida, shuningdek, Boburning “Bobornoma”sida “o‘zbek” so‘zi(etnonimi)ning anglatgan ma’nolari, *“o‘zbek”* so‘zi anglatgan tushunchaning o‘sha davrdagi chegarasi va shuningdek, *“o‘zbek”, “turk”, “chig‘atoy”* singari terminlari ma’nolarining ochilishiga yordam qiluvchi faktlar ham borki, ularning hammasini yig‘ib, qunt bilan o‘rganish xalqimiz va tilimizning tarixini to‘laroq yoritish sohasida juda ajoyib samaralar berishi shubhasiz. Masalan, Alisher Navoiy bir joyda *“o‘zbek mo‘g‘ul o‘lg‘ay aning ollida musulmon”* deb *“o‘zbek”* etnonimi bilan *“mo‘g‘ul”* etnonimini bir qo‘yadi. Bu esa biz yuqorida Rashididdinga tayanib qisman eslatib o‘tgan fikrni, ya’ni o‘zbek qabilalaridan bir qismining mo‘g‘ul deb atalib kelganligi ularning kelib chiqish jihatidan mo‘g‘ul bo‘lganliklari uchun emas, balki ular ilgari Mo‘g‘iliston hududida yashaganliklari uchun va mo‘g‘ullar boshliq bo‘lgan siyosiy birlashmaga qo‘shilganliklari uchundir degan fikrni tasdiqlashga yordam beradi [Doniyorov X. 1968:35].

Shoir she’rlarining ba’zi bir til xususiyatlari (masalan: *“ollindaki”, “allida”* kabilar) Alisher Navoiy tilining ko‘p jihatdan hozirgi Buxoro atrofidagi shevalarga va barlos shevalariga o‘xshab ketishidan darak beradi. Bu, albatta, etnonimlar talaffuzida va bugungi kungacha yetib kelishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

X.Doniyorovning mulohazalariga ko‘ra, ba’zi olimlar, Navoiy *“o‘zbek”* degan so‘zni bilmagan, ana shuning uchun u o‘z asaralarida bu so‘zni ishlatgan emas, deb da’vo qiladilar. Masalan, M.K.Hamroyev 1963-yilda Olmaotada nashr qilgan “Turk she’riyatining tuzilish asoslari” kitobining 14-betida “Alisher Navoiyning asarlarida *“o‘zbek”* so‘zining uchramasligi hammaga ayondir”, deb yozadi. Holbuki, bu fikr haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki, Alisher Navoiyning asarlarida “o‘zbek” so‘zi bir necha martalab qo‘llangan. Chunonchi, “Sa’ddi Iskandariy” dostonida Doroga qarshi kurashgan bir qancha qabila va elatlar qatorida Alisher Navoiy o‘zbeklarning ham qatnashganligini aytadi:

Samarqanddin toki sarhadi Chin
Burong‘or ango hayli mashriq zamin.
Yuz ellik ming ul sori qalmoq ham
Yana yuz ming *o‘zbek,* mo‘g‘ul, barlos ham.

Faqat bugina emas, Alisher Navoiy qipchoq-o‘zbeklarni sodda, mehnatkash kishilar sifatida shoh-u tojlarga qarama-qarshi qo‘yadi va o‘ziga eng yaqin mehribon suyanchiq kishilar deb biladi:

Shohu toju xil’ate kim men tomosha qilg‘ali
*O‘zbakim* boshida qalpoq, egnida shirdog‘i bas.

Mazmuni: Men shoh, toj va xil’atlarni tomosha qilamanmi (ularning menga nima keragi bor), menga boshida qalpoq (do‘ppisi), egnida shirdog‘i (yaktagi) bo‘lgan o‘zbegimning o‘zi bo‘lsa bas [Doniyorov X. 1968:37].

Hazrat Alisher Navoiyning bizga qoldirgan boy ma’naviy xazinasi orqali barcha sohalar uchun qimmatli ma’lumotlar olishimiz mumkin. Xususan, o‘zbek tili lug‘at fondining bir qismini tashkil etuvchi, bugungi kunda ma’nosi biroz unutilayotgan urug‘, qabila nomlari xususida ham ma’lumotlar uchrashi haqida yuqorida Navoiy asarlari orqali bilib oldik. Bu singari faktlar o‘zbeklarning temuriylar davlatidagi mavqeyini o‘rganishda, shubhasiz, muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda etnonimlarni ilmiy jihatdan o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, madaniyat, axloqshunoslik, ruhshunoslik kabi sahoalar uchun ham ahamiyatlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968.
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 174 б.
3. Маркаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Диссер. – Тошкент. 2007. –205 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
5. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006 – 2008. – 5 жилдлик.

## ALISHER NAVOYI G‘AZALLARI BADIIYATIDA XALQ IBORALARINING O‘RNI
## THE PLACE OF FOLKLANDS IN THE ART OF ALISHER NAVOI GAZALS

**D.Duysabayeva**
***dotsent v.b.***
***Nizomiy nomidagi TDPU***
**B.N.Sayfullayev**
***2-kurs magistranti***

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘zbek tili frazeologiyasini o‘rganish tarixi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan so‘z va iboralar, shuningdek, shoirning iboralardan foydalanish mahorati haqida aytiladi.

***Kalit so‘zlar:*** *tilshunoslik, tadqiqot, frazeologiya, ibora, tarixiy rivojlanish.*

**Abstract:** this article tells about the history of the study of Uzbek phraseology, the words and phrases used in the works of the great thinker Alisher Navoi, as well as the poet's ability to use phrases.

***Key words:*** *linguistics, research, phraseology, idioma, historical development.*

Badiiy adabiyotda hayot obrazlar, har xil manzaralar orqali aks ettiriladi. Bizning ongimizga, tuyg‘ularimizga ta’sir etadigan obraz va manzaralar so‘zlar yordamida, so‘zlardan tashkil topgan gaplar yordamida tasvirlanadi. Lekin so‘z va gapning o‘zi obraz ham, manzara ham bo‘la olmaydi. So‘z va obraz o‘zaro bog‘liq bo‘lsa ham, lekin ular bir-birini qoplaydigan, bir-biriga teng keladigan tushunchalar emas. So‘z til birligi, obraz esa san’at hodisasidir. Badiiy adabiyotda so‘z va gap obraz, manzara yaratishda material, vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yozuvchining mahorati shunda namoyon bo‘ladiki, u hayotdagi ma’lum harakat, manzara va holatni yorqin ifodalaydigan so‘zlarni topadi va bu so‘zlarni asar g‘oyasi, obraz ruhi va mantiqiga moslab ishlatadi. Bu so‘zlarni o‘qir ekanmiz, hayotdagi voqea- hodisalarni ko‘rayotganday bo‘lamiz. Boshqacha qilib aytganda,

yozuvchi qalamining sehri ostida so‘zlar hayotdagi narsa va hodisalarni bizning ongimizda aniq tiklaydigan, ayni o‘ziday qilib gavdalantiradigan vositalarga aylanadi.

Alisher Navoiy til vositalaridan foydalanishning ajoyib ustasi bo‘lgan. Ayniqsa, umumtil iboralarini qo‘llashida uning yuksak mahorat egasi ekanligi yaqqol ko‘rinadi. U ba’zan xalq iboralarini mazmun tomondan o‘zgartirib, tasvirlanayotgan voqealarga moslab qo‘llasa, ba’zan ularni uslubiy tomondan yangi, odatdan tashqari matnlarda qo‘llaydi.

Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining ruhini, uning taraqqiyotidagi yetakchi an’analarni mukammal biladigan ijodkor. U o‘z asarlari tilining adabiy til ruhiga, adabiy til taraqqiyotidagi yetakchi, ilg‘or an’analariga mos bo‘lishini birinchi o‘rinda qo‘yadi. Qo‘pol, sheva elementlari bilan to‘lib toshgan soxta xalqchil jumlalar shoir uchun qanchalik yot bo‘lsa, sovuq xalq so‘zlashuv tilidan uzoq kitobiy ifodalar ham unga shunchalik yot. Til aniq va ravon, sodda va tushunarli bo‘lsin, ulug‘ shoirning badiiy asar tili oldiga qo‘yadigan talabi shunday edi.

Ijodkorning uslubi, avvalo, uning so‘z tanlashi, so‘zni qo‘llashida, til vositalarini nutq zanjirida joylashtirishida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazaridan ulug‘ shoir Alisher Navoiy ijodini kuzatadigan bo‘lsak, ular biz uchun anchagina ko‘p va xo‘p materiallar bera oladi. Fikrimizni xalqona iboralarning shoir g‘azaliyotida qo‘llanishini tahlil qilish orqali asoslamoqchimiz.

Iboralar tilning obrazli vositalari jumlasiga kiradi. Har qanday ibora zamirida aniq bir hodisa tasavvuri, ma’lum bir predmet obrazi yotadi. Bu obraz iboraga alohida jilo, ravshanlik baxsh etadi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida qahramonlarning ichki dunyosini, ruhiyatini so‘z bilan rasmga olib ko‘rsatishda frazeologik iboralardan mohirona foydalanar edi.

Madomiki, iboralar tilning tap-tayyor boyligi, ularda badiiylik kuchli bo‘lib, fikrni ta’sirchan ifodalashda juda qo‘l kelar ekan, mumtoz ijodkorlarning asarlarida qo‘llangan iboralarni tahlil qilish, ularni ilmiy o‘rganish hamisha dolzarb masala bo‘lib qolaveradi.

Frazeologiya juda murakkab lingvistik birlik bo‘lib, kundalik nutqda ishlatiladigan so‘zlardan farq qiladi va u ajdodlar til merosi, xayoti, urf-odatlari, madaniyati, diniy e’tiqodlari, yodgorliklarini o‘z ichiga oladi. Bunday so‘zlarning tarixi va ma’nosini mahsus taxlilsiz anglash mumkin emas. Bugungi kunda yoshlar og’zaki va yozma tillarda murakkab lisoniy birliklarni kamdan-kam ishlatishi yoshlarimizning so’zlashuv san’atidan uzoqlashayotganligini ko‘rsatadi. Aytish mumkinki, frazeologizmlarning umumiy muammolari, xoh o‘zbek tilshunosligida, xoh qozoq tilshunosligida, hattoki turkologiyada ham to’liq o‘rganilmagan va aniq yechim topilmagan. O‘zbek tili ham boshqa turkiy tillari singari frazeologiyaga boy. Buning tasdig’ini avloddan avlodga, asrdan asrga og’zaki va yozma ravishda o‘tib kelayotgan milliy xalq og’zaki ijodidan ham topish mumkin[1].

Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” monografiyasida frazelogizmning umumiy lingvistik tabiati, ularning asosiy xususiyatlar, hajmi, leksik birliklar va frazeologik iboralarning o‘xshashliklari va xususiyatlari, erkin iboralar, qo‘shma so‘zlar, fe’llarning analatik shakllari, maqollarning frazeologiyaga aloqasi, frazeologik izlanishlar, frazeologizmlarning ma’no-mazmuni, leksik va semantik guruhlari, polisemiyali va omonimik frazeologiya, antonim frazeologiya, frazeologik sinonimlar, frazeologik o‘zgaruvchanlik, frazeologizmlarning morfologik va leksikografik qo‘llanishini har tomonlama tahlil qilish keltirilgan[2].

Mutafakkir shoir xalq yaratgan iboralardan foydalanish mahoratini quyidagi tahlillarda misol tariqasida ko‘rsatib o‘tmoqchimiz.

Ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan so‘z va iboralarni tushunish, talqin etish uchun u yashagan davrdagi ijtimoiy-madaniy hayot, adabiy muhitni, badiiy mezonlarni, diniy, so‘fiyona va adabiy istilohlarning kelib chiqishi hamda ulardan har biri ifodalagan zohiriy va botiniy ma’nolar mag‘zini chaqish lozim. Chunonchi, ko‘pincha biror yaqin, yoshi ulug‘ yoki rahbar kishi bilan safarga jo‘natar ekan, odamlar: “Uni senga, seni Xudoga topshirdim”, – deydilar. Xalq ichida mashhur ana shu iboradan Navoiy muhabbat domiga giriftor bo‘lgani – ko‘nglini

[1]Raxmatullayev Sh.U. Osnovnыe grammaticheskiне osobennosti obraznыx glagolьnыx frazeologicheskix yedinits sovremennogo uzbekskogo yazыka. AKD. - M.: 1952.
[2]Rahmatullayev Sh. O’zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966.

ma’shuqasiga boy berganini ifodalash uchun foydalanadi. Men bu yerda qayg‘u-g‘amda qoldim, jon-u ko‘nglim sen bilan ketdi. Shunday ekan, jon-u ko‘nglimni senga, seni esa Xudoga topshirdim:

*Ko‘ngul jon birla bordi hamrohing, men dard ila turdum:*

*Sanga jon birla ko‘nglumni, seni Tangriga topshurdum*[1].

Shoir she’riyati ko‘p qo‘llangan iboralardan biri “ko‘ztikmoq” iborasidir. Bu iboraning bir ma’nosi “umidvor bo‘lmoq” bo‘lib, Alisher Navoiy g‘azaliyotida lirik qahramonning umidlari, orzu-istaklarining jamiyatda amalga oshishidan umidsizlik holatini tasvirlashda mahorat bilan qo‘llagani quyidagi baytda ko‘rishimiz mumkin:

*Vafo aylab, vafo ko‘z tutma olam dunlaridinkim,*

*Vafosiz keldi olam dunlarihamolamidundek*[2].

Lirik qahramon barchaga vafo ko‘rgazadi. Biroq uning evaziga vafosizlik ko‘radi. Shoir mana shu vafosizlikni ko‘rsatish, vafoga vafo, yaxshilikka yaxshilik qaytmasligini “ko‘ztutma” iborasi orqali beradi. Baytdagi “dun” so‘zi pastkash razil, nokas ma’nolaridagi so‘z.

Xalqda "Sadaqa raddi balo" – “Sadaqa balolarni rad etadi", degan ibora bor. Ammo shoir lirik qahramoni iztirob va sinovlarni istar ekan, hatto eng aziz narsasi - jonini sadaqa qilib bo‘lsa ham balolarni tilab olish niyatidadir:

*Sadaqa chunki balolarni rad aylar, yo rab,*

*Jon anga sadqa qilay manga bag‘ishla oni*[3].

Shoir lirik qahramoniga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri sabrdir. Sabr har qanday qiyinchilik va azoblarga bardosh berish, maqsad yo‘lidagi har qanday to‘siqlarni mardonavor yengib o‘tish va natijada murodga erishishdir. Ishqning azoblari, ayriliq iztiroblariga chidam berish ham sabr orqalidir. Shoir lirik qahramoni iztiroblar-u so‘ngsiz ayriliqlardan nolimaydi, balki sabrning o‘zidan shikoyat qiladi:

*Dam-badam shavqum sanga ko‘prakdur, ammo sabrim oz,*

*Garchi sen bedodni ko‘p, mehrni oz etkasen*[4].

Yoki:

*Sabr ozidin azob, anduh ko‘pidin ko‘ngluma yuz ming balo,*

*Ashkdin sayli balo, oh o‘tidin har dam alam*[5].

Ma’shuqaning mehrsizligi, bedodligi, g‘am-anduhning ko‘pligidan emas, oshiq o‘z sabrining ozligidan shikoyat qilishining sababi bor. "Chunki tasavvufda sabrning tamali nafsga qarshi borish"dir. Sabr nafsning zo‘rliklariga qarshi kurashdir. So‘fiy butun balolarni, jumladan yor vasliga etishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni ham Ilohiy bir imtihon deb biladi. Sabr-toqat va matonat bilan yo‘lda ilgarilaganlarning sarmoyasi, mukofotidir. Qur’oni karimda nomlari keltirilgan barcha payg‘ambarlar bir qancha musibatlarga duchor bo‘lganlar, boshlariga kelgan har baloga sabrni qarshi qo‘yib, zafarga erishganlar. Jumladan, Ibrohim (a.s.)ning otashga otilishi, Ayub payg‘ambarning xastalikka uchrashi sabr bilan bog‘liq qissalardir. Ishq yo‘liga kirgan solik ana shu payg‘ambarlar kabi balolarga uchrab, bu balolarga sabrni qarshi qo‘yadi. Zero, sabr muhabbatning kalitidir.

Ulug‘ shoir she’riyatida inson ko‘ngli ulug‘lanadi. Shu bois, shoir she’riyatida ko‘ngil bilan bog‘liq iboralar ko‘p uchraydi. Masalan, buzuq ko‘ngil, sinuq ko‘ngil, qon ko‘ngil, telba ko‘ngil, Devona ko‘ngil, ko‘ngil kabi qator iboralar mavjud.

Bu iboralar turli holat va tasvirni yaratish uchun qo‘llanganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Sinuq, buzuq, shikasta ko‘ngil iboralari orqali yorning an’anaviy jafokorligi va oshig‘iga e’tiborsizligini tasvirlash maqsadida qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy xalq iboralaridan foydalanishda ularning ma’nosini o‘zgartirish usulidangina foydalanib qolmaydi. Ba’zan ibora ma’nosi bilan bir qatorda uning shaklini, tuzilishini ham o‘zgartiradi. Bu o‘zgartirish iborani ma’no tomondan ham, shakl tomondan ham matnga muvofiqlashtiradi, muallifning maqsadini aniq ifodalashga yordam beradi.

---

[1]Navoyi Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, I jild. Badoyi’ ul-bidoya. – T.: “Fan”, 1987.

[2]Navoyi Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, III jild. Xozayin ul-maoniy. G‘aroyib-us-sig‘ar – T.: “Fan”, 1988.

[3]Navoyi Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, V jild. Badoe’ ul-vasat. – T.: “Fan”, 1990.

[4]Navoyi Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, V jild. Badoe’ ul-vasat. – T.: “Fan”, 1990.

[5]Navoyi Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, II jild. Navodir un-nihoya. – T.: “Fan”, 1987.

Badiiy asar tilida frazeologik ibora shaklini o‘zgartirishning yo‘llari xilma-xil. Shulardan biri ibora tarkibidagi so‘zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish bo‘lib hisoblanadi.

Alisher Navoiy xalq iboralaridan unumli foydalangan. Bu esa shoir lirikasining xalqchilligini ta’minlagan omillardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Alisher Navoyi. G‘azallar.Shsrhlar. – T.: “Kamalak”, 1991.
2. Alisher Navoyining adabiy mahorati masalalari. – T.: “Fan”, 1993.
3. Navoyi va ijod saboqlari. – Toshkent: Fan, 1981.
4. Navoyi Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, I, II, III, V jildlari. – T.: “Fan”, 1987.
5. Mallayev N. Navoyi ijodiyotining xalqchil negizi. – T.: O‘qituvchi,1980.
6. Rustamov A. Navoyining badiy mahorati. – T.: Adabiyot va sa’at nashriyoti, 1979.
7. Rahmatullaev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966.


## ДАВРИЙ НАШРЛАР ТИЛ ТАРАҚҚИЁТИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ОМИЛ
## PERIODIC PUBLICATIONS ARE A FACTOR FOR LANGUAGE DEVELOPMENT


**Н.Ҳамраев,**
***ТошДЎТАУ тадқиқотчиси***



**Annotation:** мақолада турли даврий нашрлардаги тил тараққиётига оид фикр-мулоҳазалар таҳлил қилинган. Ўзбек даврий матбуотда тил масалаларига бағишланган мақолаларнинг тўрт босқичи, ёзувнинг тилга таъсири, лотин ва кирилл алифболари, уларнинг афзаллиги ва фарқли жиҳатлари тадқиқ этилган.



***Калит сўзлар:*** *тил, ёзув, матбуот, оммавий нашр, даврий нашрлар, тил тараққиёти, тининг аҳамияти, имкониятлари, алифбо, ҳарфлар*



**Abstract:** the article analyzes different periods of views on the development of the language. In the Uzbek press, four stages of articles were studied on language issues, the influence of writing on the language, the Latin and Cyrillic alphabets, their advantages and differences.



**Key words:** language, writing, press, mass publication, Davrian publications, language development, importance, variants, alphabet, letters


Инсоният ҳаётида матбуот доим муҳим ўрин тутиб келган. Ривожланиш босқичидан ўтаётган ҳар қандай жамиятда ҳар қандай ижтимоий-сиёсий ҳаракат матбуотсиз, газета ва журналларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Даврий нашрлар ўзининг ҳар битта соҳага таъсир ўтказа олиш хусусияти билан аҳамиятли: «Маълумки, матбуот ижтимоий ҳаётни акс эттириш кўринишларидан бири, реал воқеликни билиш, тадқиқ этиш ҳамда унга таъсир кўрсатишнинг муҳим воситасидир». *[1.М.Худойқулов 2005 14-бет]* Таъсир қилиш мобайнида у ўша соҳанинг камчилик-ютуқларини, келажак ва ўтмишини рўй-рост айта олмои керак. Она тили ҳар бир давлатнинг энг муҳим бойлиги, урури, фахри ҳисобланади. Унга қандай ,муносабатда бўлинса бу ўша халққа қилинган муносабат бўлади. бекорга халқ орасида «Тилга ихтиёрсиз элга- эътиборсиз» дейилмаган. Шу боисдан ҳам азалдан олимларимиз ва тил учун қаюрадиган ҳар қандай инон фикрларини мақола шаклига келтирган ва рўзномалар орқали халққа етказган. Даврий матбуот орқали эълон қилинажак мақолаларни уч босқичга бўлиш мумкин:

1. жадид даври матбуотида тил масаласининг ёритилиши.
2. мустақилликкача бўлган давр матбуотида тил масаласининг ёритилиши.
3. мустақилликнинг дастлабки йиллари матбуотида тил масаласининг ёритилиши.
4. ҳозирги давр матбуотида тил масаласининг ёритилиши.

Чунончи, «Маориф ва ўқитувчи» журналида чиққан бир мақолада бу ҳақда шундай дейилади: «Нима учун арабдан лотинга ўтиш керак?» Шу сўроққа қисқа қилиб шундай жавоб берамиз:

Араб алифбоси турк тилидаги товушларнинг шаклини тамомила бера олмайдир.

Араб алифбоси техника томонидан лотиндан қуйида турадир. Арабда нуқталар, аломатлар, бош, ўрта ва сўнгги ҳарфлар бордир. Лотин эса булардан узоқдир.

Араб алифбоси ўқитиш, ўрганиш ишида лотиндан ортда турони, техника томонининг бузуқлиги устига стенография, телеграфия ишида ҳам тўсқинлик қиладир» *[2.Инъомов Р. 1926, 3-сон. 5- б]*.

Бундан шу кўриниб турибдики, тилшуносликдаги қарама-қаршиликлар, маълум қарорни қабул қилиш ёки қилинмасликка доир қарашларни-да ёритиб борган рўзномалар, албатта, тил хусусидаги муҳим давлат қарорларини ҳам чоп этаверган. 1922- йилнинг 29—31- ноябрида Самарқандда тил мутахассислари ва ўзбекшунослар кенгаши ўтказилади. Унда ёзувга оид қуйидаги қарор қабул қилинади: «Бугун ишлатилмоқда бўлган имломизнинг етишмасликларига қарамасдан айтиш мумкинки, кўп имлолардан мукаммалдир ... шунинг учун-да бошқадан бир лотин ҳарф ва имлоси масаласини кўтариш ортиқчадир» *[3.«Маориф ва ўқитувчи» журнали, 1925, 9-10-сон, 121-б.]*.

«Бутун турк оламининг кўпчилиги томонидан араб ҳарфлари асрлардан бери ишлатилиб келиб, туркларнинг аксариятининг тарих ва адабиёт билан боғланганлигини эътиборга олиб, биз, турклар учун араб ҳарфларини олишни мувофиқ топамиз» *[4.«Маориф ва ўқитувчи» журнали, 1925, 11-12- сон, 141 —143- б]*.1938- йилнинг 9- декабрида лотин графикаси асосидаги ўзбек алифбоси ва имлосининг юқоридаги ишчи гуруҳ томонидан тайёрланган янги лойиҳаси муҳокама учун матбуотда эълон қилинади. *[5.«Ўқитувчилат газетаси», 1938-йил, 9-декабрь]*.

Журналлар ҳақида сўз кетганда «Ойна», «Чаён», «Ҳуррият» кабилар матбуотнинг дастлабки ривожланиш йилларида Туркистон халқлари маънавий тарихида, шунингдек, туркий тил тараққиётида оят катта ўрин эгаллаган нашрларни эслаш ўринли. 1917- йил октябр ўзгаришидан сўнг Ўзбекистонда «Инқилоб», «Ер юзи», «Муштум» ва бошқа кўплаб журналлар нашр этила бошланди. «Ойна» журнали, «1913 йил, 1-сонида яна бир тараққийпарвар адиб Мунавварқори Абдурашидхонов Икки эмас, тўрт тил лозим» мақоласи орқали ўз она тили қаторида бошқа тилларни ҳам ўрганиш кераклиги, шунингдек, тил билган кишилар шу тилдаги асарларни таржима қилиб тил кўламдорлигини ошириш лозимлигини уқтирмоқчи бўлади: «Форсий билган киши Фирдавсий, Бедил, Саъдий, Маснавийдан қандай лаззат олса, туркий билганлар Фузулий, Навоий, Боқий, Сомий, Абдулҳақ Ҳомид, Акрамбек, Санойи, Нобий, Ножийлардан, яна Толстой, Жул Верн ва уларнинф замонавий асарини туркий таржимасидан лаззат шундай оладур». *[6. А. Ҳожиев 2006.51-56 бет]*

Тил грамматикасининг яратилиши мураккаб жараён. Бу жараёнда эса кўплаб мулоҳазалар ўз тастиини топади ёки йўқликка маҳкум бўлади. Ундан аввал эса матбуотда эълон қилиниб бошқа мутахассислар ҳамда оддий ўқувчилар томонидан ўқилиб, муҳокама қилиниши мумкин. Шунингдек, грамматиканинг кўплаб муаммоларини ёритишни ўз олдига мақсад қилиб олган мақолалар газета ва журналларнинг деярли ҳар бир сонидн ўрин эгаллайдиган бўлди ва ҳатто тил масалаларига баишланган алоҳида «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали ҳам нашр этила бошланди. Ушбу журнал ўзбек тили тараққиётида муҳим ўринга эга нашр ҳисобланади. Журналда эса М.Асқарова мақолалари салмоқли ўрин эгаллайди. Олима журналнинг деярли ҳар бир сонида ўз мулоҳазалари билан ўртоқлашиб боравериган. Масалан, «*Бўл* сўзининг айрим хусусиятлари ҳақида». *[7.М.А.Асқарова. 1962й],* «Боғловчи-юкламалар ҳақида», *[8.М.А.Асқарова. 1962й4 сон]*, Усмонов С. «Антонимлар» *[9. С. Усмонов 1958, 2-сон,38- б],* «Фразеологик бирликларда маъно ва қурилиш номутаносиблиги» *[10. С. Усмонова 1998, 1- сон, 77—78- б.]* Искандарова Ш. «Ономасиология муаммолари ва ўзбек тили лексикасини майдон сифатида ўрганиш» *[11. Ш. Искандарова 1998, 3-сон, 28—31-б.],* Назаров К. «Алифбо ҳам миллий бўлсин» *[12.К.Назаров 1990, 9-ноябрь сони]* каби мақолалар жуда аҳамиятли. 50-90- йилларда тилга доир мақолалар тил тараққиёти учун жуда катта аҳамият касб этади, аммо, мақоллаларнинг эълон қилиниш даври мустамлакачилик даврига тўри келгани боис грамматикамиз руслашиб

кетишига олиб келди. Мамлакат мустақилликка эришганидан сўнггина ушбу хатони торилашга бир мунча уринилди.

Ҳозирги давр тилшунослигининг матбуотда ёритилиши юқорида санаб ўтилган даврларникидан кўп фарқ қилмайди. Гўё аввалги муаммолр ҳали ҳал қилинмагандек, ёки айнан шундай. Масалан, биз ҳозиргача лотин ёзувига тўлиқ ўтмадик. Даврий нашрларнинг тили ҳам бунга ҳали тўлиқ тайёрмас, қайсидир газета ёки журнал лотин ёзувида иш юритса, яна қайсинисидир кириллда юритаверади. Бугунги кун нашрларидан тил тараққиёти учун муносиб ҳисса қўшаётган газета ва журналлардан «Тил ва адабиёт таълими» журнали, «Шарқ юлдузи», «Маърифат», «Ҳуррият» кабиларни санаш мумкин. Чунки уларнинг ҳеч бири тил масаласига бефарқ бўлмай, унга доир мақолаларни чоп этиб боради. Мисол учун «Халқ» сўзи газетасининг 2019-йил 22- октябрь сонида «Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли» мавзули Президент Шавкат Миромоновичнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига баишланган тантанали маросимидаги нутқи чоп этилди. Газетанинг худди шу сонида «Тил миллатнинг руҳи, жонидир» номли мақола ва «Номлар тил меъёрларига мос бўлсин» номли мақола Д.Лутфуллаева ҳамда М.Сапарниязовалар ҳаммуаллифлигида берилди. Тан олиб айтиш керакки, ҳозирги давр матбуотида, шунингдек, интернет нашрларида кўпроқ тилимизни ёт сўзлардан ҳимоя қилиш, она тили фанининг самарадорлигини ошириш борасидаги мақолалар кўплаб учрайди. Филология фанлари доктори, профессор Б.Менглиевнинг “Она тилимизни тилшунослик исканжасидан қутқарайлик” номли мақоласини ҳақиқий портлаш деб аташ мумкин. Чунки, аслида ҳам сўнгги пайтларда биз тилимизни керагидан ортиқ ялтироқ қоғозга ўрашга ҳаракат қилмайлик ундаги доларни яширишнинг имкони бўлмаяпти. Муаллиф бу борада шундай дейди: Ҳаммамиз мактабда физика, кимё, математика предметларини ўқиганмиз. Улардан қойиллатиб беш баҳо олганмиз. Бундай мақолаларнинг нашрларда бериб борилиши тилимизнинг тараққиёти учун хисса қўшмасдан қолмайди, албатта. Ачинарли жиҳати шундаки, газета ва журналларни фақат 21- октаабр «Тил байрами» арафасидаги чиқаришади кўп ҳолларда. Аслини олганда бу мавзуни кечиктиришнинг сира кераги йўқ. чунки тил муттасил, билинар-билинмас ўзгаришга учрайди. Янги ўзгаришга учраган тилда эса муаммолар бўлиши табиий ҳол. Шуни ўз вақтида бажариш эса кейинги, ундан-да каттароқ муаммоларнинг туилишининг олдини олади.

**Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки**, Ўзбек тилининг она тили ва давлат тили сифатидаги ўрни, нуфузи, мавқеига доир муҳим масалалар газета, журналлар саҳифаларида ўз ифодасини топади. Шундай экан, матбуот тил тараққиёти учун курашнинг энг олдинги сафларида бўлмоғи даркор.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. Инъомов Р. Лотин алифбоси учун кураш //«Маориф ва Оқитувчи» журнали, 1926, 3-сон. 5- б.
2. Ҳожиев А. Назарий тилшуносликка оид бир масала /«Филология масалалари».Илмий-методик журнал. Тошкент: 2006. 51-56-6.
3. Асқарова М. Бўл сўзининг айрим хусусиятлари ҳақида (Ўзбек тили ва адабиёти масалалари.–Тошкент, 1962
4. Асқарова М. Боғловчи-юкламалар ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари журнали. 1962, 4.
5. Асқарова М. Қўшма гапнинг кўчирма гапли тури ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1962, 4.
6. Асқарова М. Боғловчисиз боғланган қўшма гаплар. Совет мактаби журнали, 11, 1959
7. Усмонов С. Антонимлар // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1958, 2.
8. Ҳожиев А. Кесими -р экан формасидаги пайт эргаш гапли қўшма гаплар ҳақида.//Ўзбек тили ва адабиёти, 1967, 1.
9. Ҳайитметов К. Фразеологик бирликларда сўзлар тартиби масаласига доир //Ўзбек тили ва адабиёти, 1966, 2.
10. Ҳайитметов К. Гапда сўзларнинг тартибини ўрганиш // Совет мактаби, 1966, 9.

11. Ҳайитметов К. Инверсия ҳақида // Совет мактаби, 1968, 5.
12. 8.Худойқулов М. Журналистикага кириш.– Тошкент, 2007.

## МОВАРОУННАҲРДА ТАФСИР ИЛМИ ВА МУФАССИРЛАР
## THE SCIENCE OF TAFSIR AND COMMENTATORS IN MOVARUNNAHR

**Ф.Файзуллаев**
***ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти стажёр-тадқиқотчи***

**Аннотация:** ушбу рисолада Мовароуннаҳрда тафсир илмининг вужудга келиши. Мовароуннаҳрлик алломаларнинг тафсир илмида тутган ўрни шунингдек тафсирга оид асарлари ҳақидаги маълумотлар келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар.** Тафсир, Қуббат ал-ислом, Ат-Тафсир ал-кабир, Китоб ал-қираат, Ҳазрати Имом.

**Abstract:** This article provides information about the emergence of the science of tafsir in Movarounnahr, the role of the scholars of Movarounnahr in the science of tafsir, as well as their works on tafsir.

**Key words.** Tafsir, Qubbat al-Islam, At-Tafsir al-kabir, Kitab al-qiraat, Hazrat Imam.

VIII-IX асрларда Мовароуннаҳрда тафсир илми ўзига хос ривожланиш хусусиятларига эга. Бу даврда тафсир илми ҳадис[1] ва фиқҳ[2] илмлари каби тараққий этмаган эди. Ушбу даврга оид тафсир илми бўйича кам маълумот етиб келган бўлсада, тафсир илмининг бошқа ислом ўлкаларидаги тараққиёт босқичларини тадқиқ этган ҳолда юртимиз олимлари томонидан яратилган ҳозирги кунимизгача етиб келган асарлар орқали тасаввур ҳосил қилиш мумкин.

Мовароуннаҳр тафсир илми тарихи ҳадис илмининг кириб келиши билан боғлиқдир. Муҳаммад (с.а.в.) ва саҳобийларнинг Қуръонга шарҳлари ҳадислар таркибида жамланган. Умар ибн ал-Хаттоб буйруғига кўра араблар Марвгача етиб келиб, шу ерда узоқ давр қолиб кетишади ва ўзлари ўрганган илмлардан ҳадисларни маҳаллий халққа ўргатадилар. Сўнг Марвда ривоят қилинган ҳадислар Самарқанд, Бухоро каби шаҳарларга кириб келади. Мовароуннаҳрда Самарқанд ҳадис илми маркази, Бухоро эса фиқҳ илми марказига айланади.

VIII асрдан бошлаб ҳанафий мазҳаби Мовароуннаҳр ҳудудида мустаҳкам ўрин эгаллай бошлаган. Бу мазҳабнинг кириб келишига Абу Ҳафс Аҳмад ибн Ҳафс ал-Кабир ал-Бухорий (ваф. 217/832 й.) ва унинг издошлари катта замин яратганлар[3]. Унинг шарофати ила Бухоро “Қуббат ал-ислом” (ислом динининг гумбази), у яшайдиган маҳалла дарвозаси эса, “Ҳақроҳ” (ҳақ йўл) номини олган[4].

Мовароуннаҳрда тафсир илмининг ривож топганини маҳаллий муфассирларнинг илмий мероси ҳам исботлайди. Булардан бири “Муҳаддислар султони” унвонига сазовор бўлган Абу Абдулло Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий (194/810-256/870)дир. У нафақат ҳадисда, балки тафсир соҳасида ҳам шуҳрат қозонган. Унинг машҳур “Ал-жамиъ ас-саҳиҳ”

[1] Арабча “хабар”, “янгилик”. Муҳаммад с.а.внинг айтган сўзлари, қилган ишлари, кўрсатмалари тўғрисидаги ривоятлар. Ислом энциклопедияси. – Тошкент. Зуҳриддин Ҳусниддинов таҳрири остида. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б.91.

[2] Чуқур, тушиниш, билиш-мусулмонларнинг хулқ-атвор қоидалари тўғрисидаги ислом доктиринаси(ҳуқуқшунослик), ислом ижтимоий меёрлари мажмуаси (кенг маънодаги мусулмон ҳуқуқи. Ислом энциклопедияси. – Тошкент. Зуҳриддин Ҳусниддинов таҳрири остида. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б.81.

[3] Жузжоний А.Ш. Ислом ҳуқуқшунослиги, ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. – Тошкент. Тошкент ислом университети, 2002. – Б.175.

[4] Саидов А.Х., Жўзжоний А.Ш. Шарқ цивилизацияси: инсон ва ҳуқуқ (ўтмиш ва ҳозирги замон). – Тошкент. Адолат, 2005. – Б.141.

(“Саҳиҳ ҳадислар тўплами”) асаридан олдин ёзилган “Ат-Тафсир ал-кабир” (“Катта тафсир”) китоби бўлган, лекин ушбу китоб бизгача етиб келмаган[1].

Буюк муҳаддислардан ҳисобланган Имом ал-Бухорий “Ал-жамиъ ас-саҳиҳ”да тафсирга оид ҳадисларни ҳам жамлаган[2]. Жумладан, алоҳида тафсирга бағишлаган «Қуръон тафсири китоби» бобида, Фотиҳа сурасини тафсир қилиб, унда Абу Саид ибн Муаллодан ривоят қилинган Қуръоннинг энг улуғ сураси Фотиҳа экани тўғрисидаги ҳадис келтирилади[3].

Шунингдек, мазкур бобда Фотиҳа, Бақара, Оли Имрон, Нисо, Анъом каби 85 та сурадаги оятларнинг тафсирлари ўрин олган ва жами 358 та оятга шарҳ берилган. Имом ал-Бухорий ҳадислар орасидан ўз шартларига тўғри келганини саралаб олгани боис, ҳамма оятларнинг шарҳлари бўлмаслиги мумкин. Бу тафсирлар нақлга асосланган тафсирлар бўлиб, асосан саҳобалардан Абу Ҳурайра, Анас ибн Молик, Ибн Аббос, Абдуллоҳ ибн Умар, Оиша, тобеъинлардан Мужоҳид, Қатода, Икрима, Масруқларнинг ривоятлари борлиги билан эътиборга лойиқ[4].

Самарқандлик машҳур муҳаддис Абу Абдуллоҳ ибн Абдураҳмон ас-Самарқандий ад-Доримий (181/798-255/869) тафсирда ўзига хос ўринга эга, ниҳоятда тиришқоқ, зеҳнли, тақводор олимлардан бўлган. Ундан Муслим ибн ал-Ҳажжож (206/819-261/874) ва Абу Исо ат-Термизий (209/824-279/892)лар ҳадис ривоят қилганлар. Унинг “Сунан” асарида “Китоб фазаъил ал-Қуръон” (“Қуръон фазилатлари китоби”) номли боб (китоб) бўлиб, у ҳам ўз навбатида 35 кичик фаслдан ташкил топган. Унда тафсир илмига алоқадор ривоятлар, баъзи сура ва оятларнинг фазилатлари ҳақидаги маълумотлар жамланган[5].

Абу Исо Муҳаммад ибн Исо ат-Термизий ўзининг “Ал-жамиъ ас-саҳиҳ” асарида “Китоб фазаъил ал-Қуръон”, “Китоб ал-қираат” (“Қуръон қироати”) ва “Китоб тафсир ал-Қуръон” (“Қуръон тафсири китоби”) номли боблар бўлиб, унда тафсирга оид ривоятлар, “Китоб тафсир ал-Қуръон” бобида эса анъанавий тартибда Қуръоннинг Фотиҳасидан ан-Носгача бўлган сураларнинг фазилатлари ҳақидаги ҳадислар жамланган. Абу Исо тафсир қилиш жиддий иш эканини таъкидлагани боис ушбу бобда ўз ижтиҳоди билан тафсир қилишнинг мумкин эмаслиги ҳақидаги ҳадисларни биринчи навбатда келтиради.

Ал-Ҳаким ат-Термизий номи билан машҳур бўлган Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али ал-Ҳасан ибн Башир (205/820-320/932) ҳам тафсир ёза бошлагани, лекин у охирига етмай қолгани тўғрисидаги маълумот мавжуд. Номи номаълум бу асарда Қуръонда учраган 80 та сўзга шарҳ ёзилган. Бундан ташқари, ал-Ҳаким ат-Термизийнинг “Ал-Амсал мин ал-Китоб ва-с-сунна” (“Қуръон ва суннадан мисоллар”), “Таҳсил назаир ал-Қуръон” (“Қуръон ибратларини эгаллаш”) каби асарлари ҳам бор.

Ал-Мотуридийнинг „Китоб ар-рад ала ал-Каби ал-мутазили” («Ал-Кабий ал-Мўътазилийга раддия бериш китоби»), «Китоб авҳам ал-мутазила» («Мўътазилилийлар гумонлари китоби»), «Китоб ар-рад ала ал-мутазила» («Мўътазилаларга раддия китоби»), «Китоб ар-рад ала ал-қарамита» («Қарматийларга раддия китоби»), «Китоб ар-рад ала ар-рафиза» («Рофизийларга раддия китоби») каби китоблар ёзган. У 333/944 йилда вафот этган ва Самарқанднинг Чокардиза қабристонида дафн этилган.

Мовароуннаҳрлик етук фақиҳ, муҳаддис, муфассир, тилшунос олим Имом Абу Бакр ал-Қаффол Муҳаммад ибн Али ибн Исмоил аш-Шоший (291/904-365/976). Манбаларда аш-Шошийнинг ҳанафий мазҳабида бўлгани таъкидланмаган. Унинг «ат-Тафсир ал-кабир» («Катта тафсир»), «Далаил ан-нубувват» («Пайғамбарлик далиллари»), «Адаб ал-қази» («Қози одоби») каби асарлари бўлган. У «Ҳазрати Имом» номи билан улуғланган[6].

---

[1] Уватов У. Мовароуннаҳр ва Хуросон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (ал-Бухорий, Муслим, ат-Термизий): Диссертация. – Тошкент, 2001. – Б.98-99.

[2] Мақсудов Д. Мовароуннаҳрлик муфассирлар/ Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2006. – № 3. – Б.233.

[3] Муҳаммад ал-Бухорий. Ҳадис. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ. – Тошкент. Қомуслар бош таҳририяти, 1995. Ж. III. – Б.150.

[4] Кўрсатилган асар. Ж. III. – Б.149-363.

[5] Имом ад-Доримий. Сунан ад-Доримий. / Муҳаммад Абдулазиз ал-Холидий таҳрири остида. – Байрут. Дор ал-кутуб ал-илмия, 1996. Ж. 2. Б.320-351.

[6] Муҳамедов Н. Шош воҳаси олимларининг илмий-маънавий мероси. – Тошкент. Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2007. – Б.50.

Мовароуннаҳрлик яна бир буюк аллома Абу Али Ибн Сино (370/980-428/1037) тиб, фалсафа, мантиқ, математика, метафизика каби илмларда улкан ижод қилишига қарамай, қисман бўлса ҳам унинг тафсирга оид қўлёзмалари мавжудлиги маълум бўлган. Ҳозирда охирги учта суранинг шарҳига оид алломанинг қўлёзмалари Тошкент фондида ва ўн битта суранинг тафсири ёзилган қўлёзмалар Лондон фондида сақлананмоқда[1].

Мовороуннаҳрда Қуръон илмларининг тараққий этиши, ислом динига оид асарларнинг вужудга келиши кейинчалик ушбу ҳудудда араб ва форс тилида кўплаб тафсирлар ва фиқҳга оид китобларнинг вужудга келишига асос бўлди. Бу борада юртимиздан етишиб чиққан кўплаб алломалар асарлари кейинги авлод учун беқиёс хизмат қилди. „Араб ва ғайри араблар устози” деб ном олган Маҳмуд аз-Замахшарий илмий мероси нафақат Ўрта Осиё балки бутун мусулмон оламига улкан хизмат қилди. Илм-фанга ҳомийлик ва унга бўлган эътибор натижасида Боғдодда ва Урганчда ташкил этилган академия ўрта аср алломаларининг кенг ижод қилишига ва ўлмас асарлар яратишига кенг имконият яратиб берди.

**Фойдаланилган манба ва адабиётлар:**


1. Имом ад-Доримий. Сунан ад-Доримий. / Муҳаммад Абдулазиз ал-Холидий таҳрири остида. – Байрут. Дор ал-кутуб ал-илмия, 1996. Ж. 2. Б.320-351.
2. Жузжоний А.Ш. Ислом ҳуқуқшунослиги, ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. – Тошкент. Тошкент ислом университети, 2002. – Б.175.
3. Саидов А.Х., Жўзжоний А.Ш. Шарқ цивилизацияси: инсон ва ҳуқуқ (ўтмиш ва ҳозирги замон). – Тошкент. Адолат, 2005. – Б.141.
4. Уватов У. Мовароуннаҳр ва Хуросон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (ал-Бухорий, Муслим, ат-Термизий): Диссертация. – Тошкент, 2001. – Б.98-99.
5. Уватов У. Мусҳафнинг Лондонга ташрифи. Ҳидоят. – Тошкент, 2007. – № 7. – Б.31.
6. Мақсудов Д. Мовароуннаҳрлик муфассирлар/ Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2006. – № 3. – Б.233.
7. Муҳаммад ал-Бухорий. Ҳадис. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ. – Тошкент. Қомуслар бош таҳририяти, 1995. Ж. III. – Б.150.
8. Муҳамедов Н. Шош воҳаси олимларининг илмий-маънавий мероси. – Тошкент. Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2007. – Б.50.
9. Раҳматуллоҳ қори Обидов. Қуръон ва тафсир илмлари фанидан ўқиладиган маърузалар матни. – Тошкент. Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2003. – 179 б.
10. Махсудов Д. Мовароуннаҳр ҳанафий мазҳаби тафсирлари (XIII-XV асрлар). – Тошкент. Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2019. – Б.4.


## BUYUK MUTAFAKKIRNING LINGVISTIK QARASHLARI-FILOLOG OLIMLAR TALQINIDA

## LINGUISTIC VIEWS OF THE GREAT THINKER-IN THE INTERPRETATION OF PHILOLOGICAL SCHOLARS


**B. Ibrohimov,**
***Tadqiqotchi***



**Abstract:** This article is dedicated to the views of great Uzbek thinkers on language and society, language and thinking, language and speech. Excerpts from the works of Alisher Navoi are presented and analyzed. The article also discusses the views of the great thinker on linguistics. The works of our scholar can serve as an example not only for Turkish literature, but also for world literature. We know that Alisher Navoi used 26,035 words in his works. These figures show that Navoi has a high reputation in the field of linguistics.


[1] Уватов У. Мусҳафнинг Лондонга ташрифи. Ҳидоят. – Тошкент, 2007. – № 7. – Б.31.

***Key words**: thinker, philologist, linguist, scientist, creative, language, thinker, poet.*

Mamlakatimiz qadimdan buyuk allomalar va avliyolar vatani. O‘zining ilm-u ma’rifati bilan butun dunyo hadishunosligiga hissa qo‘shgan Imom al-Buxoriy ham, jahon tibbiyotini lol qoldirgan Abu Ali ibn Sino ham, matematika fani asoschisi deya e’tirof etiladigan Muso al-Xorazmiy-u, dunyo tilshunosligiga o‘zining asarlari bilan ulkan hissasini qo‘shgan, g‘azal mulkining sultoni bo‘lmish Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ham bizning ulug‘ allomalarimizdir. Buyuk mutafakkir haqida so‘z borar ekan Islom Karimovning quyidagi misralarini keltirib o‘tishni joiz deb bildim:

“O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan yana biri-bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo‘tabar nomi, ijodiy merosinning boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so‘z yuritamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy so‘zda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa.

Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir” [Islom Karimov-“Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. 2008. 29-30]

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bundan besh asr oldin tillarning o‘zaro chog‘ishtirma tadqiqiga asoslangan “Muhokamatu-l-lug‘atayn”(“Ikki til muhokamasi”) monografiyasi bilan dunyo tilshunosligida mutlaqo yangi ilmiy yo‘nalish – kompratividstikaga asos solgan edi. Alloma ushbu asari orqali chog‘ishtirma tilshunoslikning tadqiq yo‘llari, tahlil usullari, metodologik asosini ishlab chiqdi. Hozirga qadar zamonaviy tilshunoslikda ushbu ilmiy izlanish o‘z o‘rnini, tahlil va tadqiq usullari, qadri va ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Lingvistika tarixida Alisher Navoiy boshlab bergan mutlaqo yangi ilmiy yo‘nalishga asoslangan kompratividstik tadqiqotlar Ovrupoda XIX asrning birinchi yarmiga kelibgina yaratila boshladi; tilshunoslik tarixida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nomi bilan o‘rin egalladi. Hozirda ushbu yo‘nalish zamonaviy tilshunoslikning yirik sohalaridan biriga aylangan.

Hazrat Navoiy ilmiy tafakkurining gultoji hisoblangan ushbu tadqiqot o‘zbek fani tarixida ham tengsiz maqomga ega. Ushbu asar bizgacha yetib kelgan ilmiy ishlar orasida o‘zbek tilida yaratilgan birinchi sof lingvistik ilmiy-tadqiqot hisoblanadi. Kezi kelganda qayd etish kerakki, Nizomiddin Mir Alisher Navoiyga qadar turkiy tillar tadqiqiga bag‘ishlangan o‘nlab ilmiy asarlar yaratilgan. Biroq ular arab tilida yozilganligini hamda ularning katta bo‘lagi o‘quv qo‘llanma xususiyatiga ega ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Navoiy ushbu asari bilan o‘zbek lafzida tilshunoslik bo‘yicha ilmiy ish yaratish uslubini, yozma ilmiy bayon texnikasini yaratib berish bilan birga, uning ilmiy terminshunosligini ham ishlab chiqdi. Shu jihatlari bilan ushbu asar o‘zbek va jahon fani uchun g‘oyat qadrli fundamental tadqiqot sanaladi.

Til bilan tafakkurning o‘zaro munosabati, birligi haqidagi masala falsafa tarixida ham, tilshunoslik tarixida ham eng muhim muammolardan hisoblanib keldi va kelmoqda. Til va tafakkurning o‘zaro munosabatini puxta bilish uchun dialektika qonuniyatlarini, til bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqani puxta o‘rganish lozim bo‘ladi.

Til bo‘lmasa, jamiyat a’zolari orasida ijtimoiy aloqa va munosabat ham, odamlar yashayotgan jamiyatning o‘zi ham bo‘lmas edi. Til vositasida bir-birimizning fikrimizni anglaymiz, kundalik ishlarimizni olib boramiz, narsa va hodisalarning mohiyatini chuqurroq bilib olamiz. Bu jarayon tafakkur yordamidagina amalga oshiriladi. Insonning amaliy faoliyati tafakkursiz kechmaydi.

Alisher Navoiy til va tafakkur birligi haqida fikr yuritib, tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta’kidlaydi. Til insonni hayvondan ajratuvchi «bebaho gavhar»dir:

So‘zdurki, nishon berur o‘likka jondin,

So‘zdurki, berur xabar jonga jonondin,

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilki go‘hari sharifroq yo‘q andin.

Navoiy bu fikrlarini chuqurlashtira borib, so‘zning ta’sir kuchi, uning katta ruhiy ozuqa va tarbiyaviy ahamyatiga yuqori baho beradi. Xususan, «Muhokamatul lug‘atayn» da shunday mulohaza yuritadi:

«So‘z durrining ayirmasi bundan ham cheksiz va darajasi bundan ham nihoyatsizdir. Shundayki, yaxshi so‘zdan o‘lgan badanga toza ruh yetadi, unga jon baxsh etadi, yomon so‘zdan tirik tanga o‘ldiruvchi zahar xosiyati paydo bo‘ladi, kishini halok etishga olib boradi».

Til tafakkurning ifoda qurolidir. Kishining ko‘ngli (fikri) daryodir, so‘z esa dur, so‘zlovchi g‘avvosdir. Dur xilma-xil bo‘lgani singari, so‘z ham har xil bo‘ladi.

Ul kishi so‘z bahrida g‘avvosdir,
Kim go‘hari ma’ni anga xosdur.
Fayz harimida tajalli anga,
Kim yoribon mash’ali ma’ni anga.
So‘z mayini ul kishi osham etib,
Kim duri ma’ni sadafin jom etib.

So‘z so‘zlashdan maqsad ma’no ifodalashdir. Binobarin, «ma’ni adosida alfoz tilga kelur va alfozdin ma’ni fahm bo‘lur». U ma’noni birlamchi so‘zga, ikkilamchi deb qaraydi va ma’noga “so‘zning joni” deb baho beradi. Alisher Navoiy til va tafakkurni bir-biridan ajratmaydi, balki ularni uzviy birlikda oladi.

O‘zbek tilini fors-tojik tili bilan chog‘ishtirib, uning fors tilidan qolishmasligini ko‘rsatib, o‘zbek tilida asarlar yozishga rag‘batlantirdi. A.Navoiy ikki tilni chog‘ishtirganda, 100 fe’lni keltirib, ularni tahlil qiladi. U o‘zbek tilini beqiyos xazina deb biladi.

Masalan, fors-tojik tilida «girya kardan» birikmasi o‘zbek tilida yig‘lamoq, ingramoq, singramoq, yig‘lamsinmoq, sixtamoq, o‘kurmoq, inchkiramoq fe’llari bilan, «no‘shidan» so‘zi o‘zbek tilidagi ichmoq, sipqormoq, tamshimoq so‘zlari bilan berilishini izohlaydi.

Zohid ishqin desaki, qilgay fosh,
Yig‘lamsiniru ko‘ziga kelmas yosh.
Istamas davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,
Kechalari gah ingramakdur, odatim gah singramak.

Umuman, buyuk mutafakkirning til haqidagi qarashlari, til va nutq birligi hamda ushbu hodisalrni farqlay bilish xususidagi mulohazalari hozirgi kun tilshunosligi uchun ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yana bir faktni nazardan qochirmaslik kerakki, Navoiy ona tilimiz boyliklaridan foydlanishni ham o‘z takomiliga yetkaza olgan. Bu esa hozirgi olim-u mutaxassislar, tadqiqotchilar va talabalarning tilga, shuning barobarida Navoiy hamda boshqa buyuk ajdodlarimiz merosiga yanada chuqur, ta’kidlash o‘rinliki, yangicha nazar bilan yondashishi zarurligini ko‘rsatadi.

Professor Olimjon Jo‘rayevning izlanishlarida buyuk muttafakkirimiz Alisher Navoiy haqida ushbu baytlar yozib o‘tilgan: “ O‘zbek xalqining ulug‘ shoiri va muttafakkiri Alisher Navoiy jahon adabiyotining siymolari-Homer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va Shota Rustaveli, Sa’diy va Jomiy kabi buyuk siymolar qatorida turadigan ulug‘ shoir va mutafakkirdir. U “Muhokamat ul-lug‘atayin” asarida “…umidim uldurki va hayolimga andog‘ kelurkim, so‘zim martabasi avjidin kuyi inmagay va bu tartibim kavkabasi a’lo darajadin o‘zga yerni beganmagay”, degan edi.

Ulug‘ bobomizning bunday deyishiga asoslar ko‘p. U umr bo‘yi o‘z ijodini insoniyatning saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san’at va adabiyotning taraqqiyotiga bag‘ishladi”.

Haqiqatdan ham Navoiyning o‘lmas asarlari hayotga muhabbat, inson qadr-qimmatini ulug‘lash, xalqlar o‘rtasida do‘stlik,birodarlik,tinchlik va hamjihatlik kabi insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilganligi uning jahon madabiyati xazinasidan munosib o‘rin egallaganligidan dalolat berib turadi.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. Jonixonov M. Abadiyat gulshani. –T.: Sharq, 2013
2. Karimov I.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008, 29-30-bet.
3. Tashpulatov Z. Ona tili. –T., 2015.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – T., 2002.

## ЎЗБЕК МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ТИПОЛОГИЯ НАЗАРИЯСИГА ОИД ҚАРАШЛАРИ ХУСУСИДА (IX-XV АСРЛАР)
## ON VIEWS OF UZBEK ANTIENTS INTELLECTUAL THINKERS ABOUT LINGUISTIC TYPOLOGY (IX-XV CENTURIES)

**К.Рахматжонова,**
***Тошкент давлат шарқшунослик университети тадқиқотчиси***

**Abstract:** this article describes the views of scientists living and working in the Central Asian region in the X-XV centuries on the theory of linguistics. In particular, works on the theory of typology were studied and commented on by the author. The article notes that the theory that typological research was first closely linked to XIX century European linguistics was in fact studied by Central Asian scientist Mahmud Kashgari in the IX century and that such works developed in an sequence.

***Keywords:*** *Linguistic typology, antients intellectual thinker, contrastive typology, language, dialect.*

Тилшунослик соҳасини диахрон тарзда ўрганиш маданий-тарихий аҳамият касб этади. Маълум бир халқ маданиятининг пайдо бўлиши тилнинг ифода воситаси сифатида шаклланиши билан боғлиқдир. Демак, маданиятни билиш тилни ўрганишдан бошланади. Тилшунослик барча фанлар тарихи билан ҳам бевосита боғлиқдир. У доимий равишда узвий кетма-кетликда шаклланади, бир босқич, ўзидан аввалги босқич таълимотини чуқурроқ ўрганиб, бўшлиқни доимий равишда тўлдириб боради.

Шарқ мутафаккирларининг тилшуносликка оид назарий қарашлари юқоридаги фикрларнинг исботидир. Мазкур мақолада IX асрдан то XV асргача машҳур шарқ олимларининг асарларида типологияга билан боғлиқ фикрлар таҳлил этилди.

Замонавий лингвистик адабиётлар кўрсатадики, лингвистик типология даставвал Ф.Шлегел асарларидан бошланган. Кейинчалик тиллар типологияси бўйича А.В.Шлегел, В.Гумбольт, Х.Штейнтал, А.Шлейхер, Э.Сепир, В.Скаличка, А.Мартине, Ф.Ф.Фортунатов, И.И.Мешчанинов, Б.Успенский, Ю.В.Рождественский, В.Н.Ярцева ва бошқалар тадқиқот олиб борганлар.[1]. Бироқ Ўрта Осиё мутафаккирларининг тилшуносликка оид қарашлари ўрганилганда, уларнинг аксарият асарларида лингвистик типология билан боғлиқ кўплаб илмий-лингвистик маълумотлар кузатилди. Жумладан, IX асрнинг охирларида Марказий Осиё ҳудудида яшаб ижод этган аллома Маҳмуд Қошғарий асарларида қиёсий-тарихий тилшуносликнинг дастлабки шакллари кўзга ташланади. Бундай чалкаш таълимотнинг сабаби шундаки, Ғарб тилшунослиги Маҳмуд Қошғарий асарлари билан XX асрдагина танишишга муваффақ бўлган.

Маълумотларга кўра, Маҳмуд Қошғарий туркий қабилаларни бирма-бир кезиб, қабилалар тилларидаги фарқли хусусиятларни аниқлаган. Шу билан бирга туркий тилларни гуруҳларга таснифлаш имкониятига эга бўлган. Маҳмуд Қошғарийнинг ўзи бу ҳақда шундай дейди: “Пухта қўлланма бўлсин, деб ҳар бир қабиланинг ўзига хос хусусиятларига қиёсий қоидалар туздим... Бу масалага қизиққан мутахассисларга асарни қўлланма қилдим”[2]. Унинг

[1] Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тилларининг қиёсий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1973. – Б.283, Ярцева В.Н. Иерархия грамматических категорий и типологическая характеристика языков.В.кн.: Типология грамматический категорий. – Москва, Мещаниновские чтения.1975.
[2] Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т., 2002. –Б. 34.

машҳур “Девону луғатит турк” асаридан кўриш мумкинки, муаллиф туркий тилларнинг фарқли белгиларига кўра, уч гуруҳга ажратади: турклар (чигил, қошғар, арғу, барсағон, уйғур), ўғуз ва қипчоқ қабилалари тиллари. Бу асарда туркларнинг тиллари доимо қиёсга асосланади, лингвистик фактлар ўғуз ва қипчоқ тилларига қиёсланади. Бу қабила тилларида фонетик белгилар яққол кўзга ташаланади. Бундай хусусиятлар кейинчалик Европа тилшунослигида ҳам синчиклаб ўрганилиб, Маҳмуд Қошғарий илгари сурган тафовут ва ўхшашликлар такроран айтиб ўтилган. Бундан ташқари у феъллардаги айрим морфемик яқинлик ва фарқлар хусусида, замон кўрсатгичлари ҳақида батафсил айтиб ўтган. Умуман олганда, туркий тилларнинг хусусиятларини мазкур асарда батафсил ўрганган. Бундан кўриш мумкинки, Ўрта Осиё минтақасида Маҳмуд Қошғарий қиёсий-тарихий лингвистиканинг асосчиси, деб ҳисоблаш мумкин.

Тарихий фактлардан маълумки, XV асрнинг иккинчи ярмига қадар Ўрта Осиё мўғуллар ҳукмронлиги остида бўлган. Мўғуллар туркийзабон элатларни истило қилиб турганда, унинг маданиятини поймол эта олмаган. Аксинча, туркий элатлар мўғул маданиятига кучли таъсир этган. Жумладан, туркийларнинг ёзув маданияти ўзлаштирилди, адабий асарлар туркий анъанага мувофиқ форсийда ёзила бошланди. Туркий элат вакиллари турк тилида бадиий асарлар ёзиш ғоясини илгари сурдилар. Айнан шундай кескинлашув даврида номаълум муаллиф томонидан ёзилган “Ат-туҳфатуз закияту филлуғатит туркия” (“Туркий тил ҳақида ноёб туҳфа”) асаридир. Мазкур асарда муаллиф Маҳмуд Қошғарийнинг қиёсий лингвистикага оид фикрларини мантиқан давом эттириб, туркий тиллар луғати ва граммитикасига бағишланган мукаммал асарни яратган. Бу асарда туркий қабила тилларининг ўзаро ўхшаш ва фарқли жиҳатларини ёритишга уринилган. Бироқ бу жуда кенг мавзу бўлгани боис муаллиф асосан қипчоқлар тилини ўрганишни тадқиқот объекти қилиб олган[1]. Асарда асосан танланган тилларнинг граммитик жиҳатларига эътибор қаратилган.

Тилларнинг типологик назариясини ўрганиш мураккаб жараёндир. Бунинг учун тилшунослардан кучли маҳорат ва бир неча тилларни назарий жиҳатдан яхши ўзлаштириш талаб этилади. Шундай мутафаккирлардан бири Ўрта Осиёда ғазал мулкининг султони, зуллисонайн олим мир Алишер Навоийдир. Алишер Навоий ўз она тилига юксак муҳаббат билан қараган. У ўз она тилида ижод қилиш, уни тараннум этиш билангина чекланиб қолмаган. Ўзи яшаган даврда кенг истеъмолда бўлган форсий тилига ўз она тили туркийни қиёсан ўрганди. Туркий тили форсийдан ҳар томонлама қолишмаслигини, аксинча баъзи ўринларда форсийдан кўпроқ имкониятларга эга эканлигини исботлади. Умрининг сўнгги йилларида, яъни 1499 йил тилшунослик назарияси билан боғлиқ ўрганганлари асосида “Муҳокамат ул-луғатайн” асарини ёзди. Бу икки тилнинг грамматик қонун-қоидаларига асосланган, чоғиштирма типдаги махсус асардир. Мазкур асар орқали Ўрта Осиёда тилшуносликда қиёсий-типология билан бирга чоғиштирма усулдаги янги соҳа вужудга келди. Мазкур тилшуносликнинг ўзига хос хусусияти шундаки, унда икки тизимга мансуб бўлган тиллар барча сатҳларда ўзаро чоғиштирилади. Тилларнинг ўзига хос хусусиятлари ва тилларни яқинлаштирувчи белгилари аниқланади. Юқорида таъкидланганидек, қиёсий-тарихий тилшунослик каби чоғиштирма тилшунослик ҳам XIX асрда бевосита Ғарб тилшунослиги билан боғланади. Бунинг асосий сабабларидан бири ўша даврда Европа тилшунослигида Алишер Навоийнинг тилшунослик назариясига оид қарашлари етарли даража ўрганилмаганлиги бўлиши мумкин. “Муҳокамат ул-луғатайн” асарида чиғатой, форс-тожик ҳамда ўрни билан араб тили ҳам ўзаро чоғиштирилади. Солиштирилаётган тилларнинг фонетик жиҳатларидан тортиб, синтактик хусусиятларигача ўрганилади. Бу асар орқали Алишер Навоийнинг тил ўрганиш ва ўргатишдаги маҳорати яққол кўзга ташланади[2].

Кейинчалик Алишер Навоий изидан бориб, Ўрта Осиёлик алломалардан шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур туркий ва форсий тиллари билан бирга араб ҳамда ҳинд диёридаги мавжуд лаҳжалар билан солиштириб ўрганади. Мазкур тиллар бир тил гуруҳига мансуб эмас. Ўзининг меъмуар асари “Бобурнома”да бу ҳақда қатор далиллар келтиради. У

[1] [1] Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т., 2002. –Б. 57
[2] [2] Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т., 2002. –Б.86.

чин маънода Алишер Навоийнинг ўзбек адабий тили истиқболи йўлидаги курашини давом эттирди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур жаҳон филологиясининг бешиги бўлган ҳинд ва араб филологияси анъаналаридан баҳраманд бўлди. Уларнинг лексик хусусиятларини ўз она тили билан солиштириб, ўзининг меъмуар асарида бир қатор мисоллар келтирди.

Шундай қилиб, лингвистик типология тиллар ўртасидаги генетик муносабатлардан қатъий назар, уларнинг структур ва функционал хусусиятларини ўрганувчи тилшунослик соҳасидир. Илмий жиҳатдан лингвистик типология тиллардаги яқинлаштирувчи (схождения) ва узоқлаштирувчи (расхождения) тил фактларини гуруҳларга, андозаларга, типларга ажратиш йўли билан тадқиқ этиш методи ҳисобланади.

Кўриданики, типология бир томондан, тилларни тасниф қилишнинг умумий назариялари, қонун-қоидалари ва усулларини ўз ичига олса, иккинчи томондан, у тил системаси бирликларини умумий белгиси, хусусияти асосида тасниф қилиш билан шуғулланади.

Қариндош ва қариндош бўлмаган тиллар ўртасидаги ўхшаш ва фарқли томонларнинг мавжудлиги, ушбу томонларнинг юзага келиш сабабларини ўрганиш ва тушунишга бўлган интилиш тилшуносликда алоҳида соҳа, йўналиш сифатида тан олинган лингвистик типологиянинг майдонга келишига сабаб бўлди. Ўрта Осиё ҳудудида бу масалага эътибор Европа тилшунослигига қараганда анча илгари вужудга келгани тадқиқот натижасида яққол намоён бўлди. Тилшуносликда типологиянинг ривожланиши ўзаро қардош ва қардош бўлмаган тилларни яхши ўзлаштиришда самаралидир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тилларининг қиёсий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1973.
2. Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. Ўқитувчи. –Т. 1995.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т., 2002.
4. Ярцева В.Н. Иерархия грамматических категорий и типологическая характеристика языков.В.кн.: Типология грамматический категорий. – Москва, Мещаниновские чтения.1975.
5. Общые языкознание. Методы лингвистических исследовании. – М.: Наука, 1973.


## HUJJATCHILIK TARIXIGA NAZAR
## A LOOK AT THE HISTORY OF DOCUMENTATION


**M.Shodiyeva,**
***O‘zMU magistranti***



**Annotatsiya:** ushbu maqolada qadimda foydalanilgan ish yuritish hujjatlari, o‘zbek hujjatchiligining shakllanishi tarixiga qisqacha to‘xtalib o‘tiladi.



**Kalit so‘zlar:** ish yuritish hujjatlari, ibtidoiy hujjatlar, farmoyish, yorliq, vasiqa, patta, arzadosh.



**Abstract:** This article gives a brief overview of the history of the formation of Uzbek documentation, the documents of antiquity used in antiquity.



**Key words:** clerical documents**,** primary documents, orders, labels, certificates, stamps, petitions.


Kundalik turmushimizda biz o‘z fikrimizni aniq, boshqalarga tushunarli va ravon ifodalash uchun tildagi uslublardan foydalanamiz. Buning uchun inson tildagi uslublar haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim. Qanday kasb egasi bo‘lishidan qat’iy nazar, u o‘qituvchi bo‘ladimi, quruvchi yoki dehqonmi, albatta, inson hayoti, ish-faoliyati davomida rasmiy ish qog‘ozlariga murojaat qiladi. Aytish joizki, ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil etadi va bu hujjatlar insoniyatning uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi. Kishilik jamiyati shakllanib borishi bilanoq jamiyat a‘zolari o‘zaro munosabatlaridagi muayyan muhim holatlarni muntazam va qat'iy qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar. Shu ehtiyojga javob sifatida esa, ilk, ibtidoiy hujjatlar yuzaga kelgan.

Hujjatlarning shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Qadimda aholi tartibini saqlash, mamlakatda adolat o‘rnatish, fuqarolar yashash tarzini yaxshilash, bojlarni yig‘ish, o‘g‘irlik va

talon-tarojlikni bartaraf etish uchun ko‘plab qonunlar qabul qilingan. O‘tmishda Bobil davlatining milloddan avvalgi 1792-1750-yillardagi hukmdori Xammurapining adolatpesha qonunlar majmui va undan ham qadimroq shoh Ur-Nammuning qonunlari va boshqa manbalarning mavjudligi “hujjatlar” ning juda olis va murakkab tarixga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa Xammurapi “Qonunlar to‘plami” da mamlakatning jinoiy ishlariga oid, huquqqa, sud ishlari yuritishga, xalq huquqining buzilishiga, ya‘ni o‘g‘irlik va talashga qarshi, ko‘chmas mulkka egalik qilish huquqlari, me‘morlar, qayiqsoz va kemasozlar ishi to‘g‘risida, qulchilik to‘g‘risida muhim qonunlar o‘z aksini topgan[1].

Bizgacha yetib kelgan manbalar orasida VII asr oxiri va VIII asr boshlarida Sug‘d podsholigi davriga oid 80 ga yaqin noyob hujjatlar ish qog‘ozlari yuritish to‘g‘risida ma‘lum tasavvur uyg‘otsa, 800 ga yaqin hujjatlarni qamrab olgan “Vasiqalar to‘plami” 1588-1591-yillarda Samarqanddagi tarixiy voqea-hodisalarni, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzini yaqqol aks ettirishi bilan boshqa manbalardan ajralib turadi. “Vasiqalar to‘plami”[2][2] dan o‘rin olgan hujjatlarda meros, mulkni taqsimlash, bolalaning hunar o‘rganishi uchun shogirdlikka berish, korxonalar, savdo do‘konlari, yer-suv, uy-joy va mol-mulkni sotish, sotib olish yoki ijaraga berish, qullar mehnatidan foydalanish, qullarni ozod qilish, taloq, sulh kabi ijtimoiy munosabatlar o‘sha davrning huquqni muhofaza qiluvchi mutasaddilari – qozilar tomonidan tasdiqlangan.

Sharqda X – XIX asrlarda vasiqa, yorliq, farmon, noma, bitimlar, arznoma, qarznomalar, tilxat yoki mazmun jihatdan shunga o‘xshash hujjatlar keng tarqalgan. Ulardan vasiqa Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida yer-mulk oldi-sottisi to‘g‘risida tuzilgan rasmiy shartnoma hisoblanadi. Vasiqa hozirgi kunga qadar Afg‘oniston va ayrim arab mamlakatlarida rasmiy hujjat vazifasini o‘taydi. Yorliqlar ham mazmun jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ular xabar, tavsif, farmoyish, bildirish, tasdiqlash va boshqa mazmunlarda uchragan. Jumladan, To‘xtamishxonning 1393-yilda polyak qiroli Yag‘aylaga yo‘llagan yorlig‘i[3], Temur Qutlug‘ning 1397-yildagi yorlig‘i, Zaxiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx Mirzoning marg‘ilonlik Mir Said Ahmad ismli shaxsga 1469-yilda yo‘llagan yorlig‘i va boshqa yorlig‘larni aytib o‘tish darkor.

Ta‘kidlash joizki, butun dunyoga ma‘lum-u mashhur bo‘lgan, harbiy sarkarda va davlat arboblari uchun dasturilamal vazifasini o‘tab kelgan va kelayotgan tarixiy hujjatlardan biri buyuk sarkarda bobokalonimiz sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari" asari hisoblanadi. Ushbu tarixiy asar Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma‘lumot beradi. Asarda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritib, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat qurishi, davlatlar ustidan hukmronlik o‘rnatishi va hokazolarni bayon etadi. Bundan tashqari, “Temur tuzuklari"da[4] sarkardaning farzandlariga atalgan vasiyati, o‘g‘itlari, davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, boj va soliq to‘lash tartiblari, vazirlarni va qo‘shin boshliqlarini saylash va ularning mamlakat oldidagi alohida xizmatlarini mukofotlash, toj-u taxt egalarining burch va vazifalari ham o‘z aksini topgan va bugungi kunga qadar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Z. M. Boburning memuar asari “Boburnoma"da farmon, mirzo, sulh, tamg‘a va ayniqsa, ariza o‘rnida “arzadosh" kabi boshqaruvga oid nomlarni ham uchratish mumkin.

XIX asrda Qo‘qon xonligida keng tarqalgan va o‘z davri uchun muhim bo‘lgan hujjatlardan biri “patta" lardir. Pattada ma‘lum kishiga muayyan miqdordagi pul, mahsulot, urug‘(don) yoki boshqa narsalarni berish lozimligi haqida ma‘lumot aks ettirilgan. Patta matnlarida ham o‘ziga xos doimiy va muayyan tarkib va nutqiy qolip borki, bu ham, o‘z navbatida, o‘zbek (turkiy) hujjatchiligi uzoq tarixiy tajriba va tadrijiy takomil mahsuli ekanligidan dalolat beradi.

Chor Rossiyasi O‘rta Osiyoni o‘z mustamlakasiga aylantirishi bilan butun mamlakatdagi boshqaruv, tartibot organlaridagi barcha hujjatlar, ish yuritish tamoyillari rus tilida olib boriladigan bo‘ldi. Davlat tili esa har ikki til, ya‘ni o‘zbek va rus tillari bo‘lsa-da, aholi soni jihatdan ham ko‘pchilikni o‘zbeklar tashkil qilsa-da, lekin amaldagi, ish yuritish hujjatlari rus tilida edi. *“Rus*

[1] Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. T., 2009., 91-94-betlar.
[2] Vasiqalar to‘plami. T., Fan. 1982.
[3] Sodiqov Q. Eski uyg‘ur yozuvi. T., 1989, 34-35-betlar
[4] A.Temur. Temur tuzuklari. T., Yoshlar nashriyot uyi., 2018.

*tilidan andoza olish (aytish kerakki, bunday hol boshqa tillarda, masalan, tatar tilida ham kuzatiladi), biron darajada boʻlsin oʻzini oqlay olmaydi. Umuman, oʻzbek hujjatchiligining boy va uzoq tariximizning ilk bosqichlaridan ibtido olgan anʻanasi mavjud boʻlsa-da, Oktyabr toʻntarishidan keyin boshqa joylarda boʻlgani kabi jumhuriyatimizda hujjatchilik bevosita oʻzbek tili negizida rivojlantirilmadi. Bu sohadagi asosiy yoʻnalish nusxa koʻchirishdan iborat boʻlib qoldi. Ana shuning va boshqa bir qancha omillar oqibati natijasida oʻzbek tilining rasmiy ish uslubi deyarli takomil topmadi"*[1]

1989-yil 21-oktyabrda “Davlat tili haqida" gi Qonnunning qabul qilinishi, yaʻni oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi esa ona tilimizning maqomini yana bir pogʻona yuqoriga koʻtardi. Bu esa rasmiy ish qogʻozlarini takomili uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Qonun qabul qilingan kun – 21-otyabr oʻzbek tili bayrami sifatida eʻtirof etildi. Mazkur qonun 24 moddadan iborat boʻlib, uning 1-moddasidayoq “Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili oʻzbek tilidir" deylilishi ham bu boradagi fikrimizning dalilidir. Bu esa barcha ish yuritish hujjatlarining oʻzbek tilida olib borilishi kerakligini talab qiladi. Qonunning 10-moddasi quyidagicha: “Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning koʻpchiligi oʻzbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin “[2].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, hujjatlar kechagina paydo boʻlib qolmagan. Yuqorida esa biz buning uzoq tarixga ega ekanligi, tadrijiy takomili haqida maʻlumotga ega boʻldik. Har bir davr hujjatlari, ish yuritish uslubi esa oʻz davri uchun muhim ahamiyat kasb etadi va bugungi kun uchun ham eʻtiborga molik hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Sodiqov Q. Eski uygʻur yozuvi. - T., 1989.
2. Vasiqalar toʻplami. - T., Fan. 1982.
3. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. - T., ikkinchi nashr. 2003.
4. Keldiyorova G.S., Avlayeva N.A. Oʻzbek tilida ish yuritish. - T. 2009.
5. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. -T., Oʻquv qoʻllanma, 2009.
6. “Oʻzbekiston Respublikasining Davlat tili haqida" gi Qonun. Yangi tahriri. – T., 1995.
7.A.Temur. Temur tuzuklari. – T. Yoshlar nashriyot uyi. 2018.


## BIR ETNOGRAFIK ODAT VA UNINIG “XAMSA”DAGI LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI
## AN ETHNOGRAPHIC TRADITION AND ITS LINGUOCULTURAL INTERPRETATION IN“KHAMSA”


**N.Ziyatova,**
***Navoiy davlat pedagogika instituti***



***Abstract:*** *one of the U zbek national customs is the ceremony of putting a newborn baby in the cradle after naming it. In the “Khamsa” it is beautifulyy illustraded that Farkhad and Majnun are cradled in the cradle.*



***Key words:*** *Brith of a baby, cradle, cradling, ceremony.*


Qadimdan Sharq xalqlari qatori oʻzbek xalqi ham beshikdan foydalanib kelgan. (Beshik mevali daraxtlarning tanalaridan tebratib uxlatish uchun yasalgan yoʻrgʻa oyoqli moslama, tebratma belanchak. [1]) Beshik– bola oyoqqa turguncha yotadigan, yashaydigan joy sanaladi. Beshik ustiga yozda yengil surp, qishda duxoba yopqichlar qoʻyiladi. Beshikka belashning yoʻl-yoʻrigʻini avvalo kayvoni ayollar yoki buvilar bir-ikki koʻrsatishadi. Beshikka bolaning ostiga koʻrpacha toʻshaladi.

[1] Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. T., ikkinchi nashr, 2003. 8-bet.
[2] “Oʻzbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi Qonun. Yangi tahriri. – T., 1995, 1-10-moddalar

Bolaning qo‘l-oyoqlari beshikka mos tekis bog‘lab, tepa o‘zak yog‘ochida o‘ralib turuvchi belbog‘ va qo‘lbog‘lar tabiiy yoki ipak kabi mayin matolardan bo‘ladi.[2]

O‘zbek milliy odatlaridan biri yangi tavvalud topgan go‘dakka ism qo‘yilgandan keyin uni beshikka belash bir marosim sifatida o‘tkaziladi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni“Xamsa”da ham aks ettilrilganini ko‘rish mumkin. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida [4]uzoq kutilgan farzand Farhodning dunyoga kelishi unga ism tanlash va uni beshikka belash, uning o‘sishi, voyaga yetishi mufassal hikoya qilingan: Nihoyatda shod bo‘lgan Hoqon go‘dakka ism taraddudida bo‘ladi. (Sharqda ism qo‘yish an’analari ham mavjud.) Bolaning yuzida *far (nur, yog‘du) himmat, iqbol-u davlat* birdan o‘zining yu zini ko‘rsatadi… Bu aytilgan uch narsa asosga olinib, barini bir-biriga qo‘shganda “Farhod ” so‘zi kelib chiqdi. Bu so‘zlar harflarining birinchisi ( ***f****iroqu* ***r****ashku* ***h****ajru* ***o****h ila* ***d****ard* so‘zlarining boshidagi harflarni yoki tovushlari olinsa, FARHOD so‘zi kelib chiqadi. Bu tushunchalar dostonda Farhod obrazida mujassam etilgan. Uning beshikka belanishi esa quyidagicha ta’riflangan:

*Hariru hulla ichra bog‘labon chust,*
*Murassah mahd ichinda tongdilar rust.[4.31]*

(Ma’nosi: go‘dakni yupqa va nozik matodan qilingan yo‘rgaklarga o‘rab, bezatilgan *mahd*– beshikka solib, mahkam bo‘g‘lab qo‘ydilar.)

*Maalqissa chu topti mahd maskan,*
*Qafas davlat humoyig‘a nishiman.*
*... beshik davrida chiniyu xitoyi*
*Bo‘lub yuz no‘sh lab dostonsaroyi.*
*Ko‘z ining nozi eldin eltib uyqu,*
*Anga uyqu keturmakka navogo‘*.[3.31.]

“Layli va Majnun” dostinida Majnunning dunyoya kelgani va uning beshikka solinishi quyidagicha tasvirlangan:

*Qays ayladi o‘g‘li otini bot*
*Kim o‘z atosig‘a bu edi ot.*
*Hifz ayladi oni necha doya,*
*Har nav’ ishidin toparg‘a voya.*
*Chirmab yana kishu os birla,*
*G‘uncha kibi yuz libos birla.*
***Yotquzdilar oni mahd ichinda,***
***Gul yafrog‘i tushti shahd ichinda.***
*Mardum kibi ko‘zda asrab oni,*
*G‘ofil ermas erdilar zamoni.*
*...Qo‘ymas edi tegrasidagi el*
*Kim esgay oning sori sovuq yel.* [4]

“Saddi Iskandariy” (XV bob)da Iskandarning tavalludi haqida ikki xil ma’lumot borligi bayon etilgan. Jumladan: Faylaqus ham tangridan avlodining davomchisi–farzand so‘rar edi. Kunlardan bir kun Faylaqus ovdan qaytayotib bir vayronada tuqqan onasi o‘lib, o‘zi esa yig‘lab un chekayotgan chaqaloqni ko‘rib qoladi .Onasini dafn ettiradi. Chaqaloqni e’zoz-ikrom bilan olib, yuz xil mehribonchiliklar bilan parvarish qila boshlaydi va unga Iskandar deb nom qo‘yib o‘ziga o‘g‘il qilib oladi: *O‘zi tiflni oldi e’zoz ila*
*Qulur erdi parvarda yuz noz ila.*
*Skandar atab, o‘g‘li bildi ani,*
*O‘larda valiahd qildi ani.*[5]

Yuqoridagi misollardan ko‘rish mumkinki, bola parvarishi va tarbiyasi, unga e’tibor va mehr uni beshikka belay boshlagandan va undan keying parvarish va tarbiyaga urg‘u berilganini ko‘rish mumkin. Milliy odatlarimizdan biri–yangi tavvalud topgan go‘dakka ism qo‘yilgandan keyin uni beshikka belash, bir marosim sifatida o‘tkaziladi. Farhod, Majnun, Iskandar va ularning tavalludi haqida ular nomi bilan ataladigan dostonlarda bayon etilgan. Ayniqsa,“Farhod va Shirin”,“Layli va Majnun” dostonlarida juda chiroyli tasvirlangan. Biz bu tahlil bilan shuni ta’kidlamoqchmizki,

jahon adabiyotining bebaho durdonalari qatoridan joy olgan Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni shoir ijodiy tafakkurining mahsuli sanaladi. Bosh qahramonlar nomi bilan ataladigan dostonlar yuksak tafakkur egasi bo‘lgan shaxslardir. Albatta ularning kamoloti haqida fikr yuritganda kabi dastavval ularning bolaligiga bir nazar tashlashga to‘g‘ri keladi. Axir xalqimizda “Bola boshdan” degan naql bor. Hatto dunyoga mashhur durdona asarlarda ham milliy qadriyatimiz sanalgan beshik, beshikka belash haqida ma’lumotlar berilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-jild.T.:2006: 245-b.
2. Mahmud Sattor. O‘zbek udumlari.T.:1993:9-b.
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. T.:1989.
4. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. www. ziyouz.com T.: 1992. 43-b.
5. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy.T.: 1991. 79-81-b.


## MAZLUMA ASQAROVA-YETUK TILSHUNOS, MEHRIBON USTOZ

## MAZLUMA ASKAROVA IS A LEADING LINGUIST AND A KIND TEACHER


**D.Jumashov,**
***ToshDO‘TAU o‘qituvchisi***



**Annotatsiya**: ushbu maqolada professor Mazluma Asqarovaning hayot va ilm yo‘liga oid ma’lumotlar berilgan. Maqolada professor Mazluma Asqarovaning ilmiy ishlari va o‘zbek tilshunosligiga qo‘shgan ulkan hissasiga alohida e’tibor qaratilgan.

**Abstract**: in this article, information about the way of life and science of professor Mazluma Asqarova is given. The article focuses on the scientific work of professor Mazluma Asqarova and her great contribution to O‘zbek linguistics.



***Kalit so‘zlar:*** *fan arbobi, ravishdosh, qushma gap, qiyosiy, leksik ma’no, gap, bog‘lovchi, tilshunos, til birligi.*

***Keywords:*** *science figure, participle, paraphrase, comparative, lexical meaning, sentence, conjuction, lingust, language unit.*


O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Rossiya Federatsiyasi Ta'lim Akademiyasining xorijiy akademigi, filologiya fanlari doktori, professor Mazluma Asqarovaning hayot yo‘li yangi asr tilshunos olimu olimalariga ibrat qilsa arzigulik olima ayol timsolini tavsiflash.

O‘zbek tilshunosligining XX asr tarixini Abdurauf Fitrat, Gozi Olim Yunusov, A.K.Borovkov, A.G‘ulomov, F.Abdullayev, V.V.Reshetov, A.Hojiyev, Sh.Sh.Shoabdurahmonov, G‘.A.Abdurahmonov, Sh.U.Raxmatullayev, S.Usmonov, A.Rustamov, A.Abduazizov, M.Mirtojiyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, E.Begmatov, H.Ne'matov, H.Dadaboyev, S.Karimov kabi zabardast olimlarsiz tasavvur qilish qiyin. Shular qatorida prof. Mazluma Asqarovaning ham salmoqli o‘rni bor.

M.A.Asqarovaning tilshunoslikdagi faoliyati asosan XX asrning II yarmi va XXI asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda M.Asqarovaning tilshunoslikdagi ilmiy faoliyati, ilmiy darajali tilshunos kadrlarni tayyorlashdagi ustozlik maqomi, o‘rta va oliy talim muassasalaridagi pedagogik faoliyati hamda ijtimoiy ishlardagi yutuqlarini aytib o‘tish o‘rinli.

M.A.Asqarova 1951-yilda taniqli turkolog prof. A.K.Borovkov rahbarligida «Hozirgi zamon o‘zbek tilida ravishdoshlar» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1963-yilda esa «Hozirgi o‘zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplarning tiplari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Shundan boshlab u qo‘shma gap sintaksisi, ayniqsa, ergashgan qo‘shma gap muammolari bilan bogliq qator tadqiqotlarni amalga oshirdi: «Bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplar» (1955), «O kriteriyax pridatochnix prilojeniy v uzbekskom yazike» (1956), «Sabab va maqsad ergash gapli qo‘shma gaplar» (1957), «Aniqlovchi ergash gaplar» (1959), «Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar» (1960), «Qo‘shma gapning ko‘chirma gapli

turi haqida» (1961), «Bog‘lovchi-yuklamlar haqida» (1962), «Ayrim ergashtiruvchi bog‘lovchilarning gapdagi roli haqida» (1962), «Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gapning ba'zi masalalariga doir» (1962), «Sposobi podchineniya i tipi pridatochnix predlojeniy v sovremennom o‘zbekskom yazike» (1963), «K voprosu o pridatochnix predlojeniyax v uzbekskom yazike» (1963), «Qo‘shma gap qismlarning bog‘lovchilar orqali birikishi» (1963), «Ergash qo‘shma gaplarning sintaktik sinonimikasi» (1963), «Ko‘chirma gap qo‘shma gapning bir turi sifatida» (1964), «Nisbiy so‘z va izohlanuvchi so‘zlarning ergashgan qo‘shma gap komponentlarini biriktirishdagi roli» (1965), «Hozirgi o‘zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar» (1966) kabi monografiya va maqollari ana shu izlanishlarning mahsuli bo‘ldi. Ma'lumki, o‘sha yillarda o‘zbek tilidagi qo‘shma gaplarning tabiati hali yetarli darajada o‘rganilmagan, shu sababli ergashish formalarining tabiati ham to‘liq va anik xal etilmagan edi, shu sababli ergash gaplar chegarasini aniklash, ularni tugri tasniflash masalalarida ham muammoli jixatlar anchagina uchrab turardi. Mazluma Asqarovaning yuqorida nomlari qayd etilgan ishlarida qo‘shma gaplarning turlari qatorida oraliq tipdagi qo‘shma gaplar mavjudligi alohida ta'kidanadi, bu tipdagi qo‘shma gaplar bog‘lovchining yoki umuman yordamchilarning ishlatilishi yohud ishlatilamasligidan qatiy nazar, bog‘langan va ergashgan qo‘shma gap oralig‘idagi konstruksiyalardan iborat bo‘lishi aytiladi: 1) oraliq gaplarning yordamchisiz turi; 2) oraliq qo‘shma gaplarning yordamchili turi kabi. M.Asqarova tadqiqotlarini jiddiy yutuqlaridan yana biri shundaki, ularda ergashish formalarining sodda va qo‘shma gaplardagi turli-tuman xususiyatlariga tayangan holda ergash gaplarini belgilash mezonlari ishlab chiqildi, shu asosda ergash gaplarni belgilash mezonlari ishlab chiqiladi, shu asosda ergash gaplarning ilmiy jihatdan ancha izchil va mukammal tasnifi yaratiladi: ega ergash gapli qo‘shma gap, kesim ergash gapli qo‘shma gap, to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap, holat ergash gapli qo‘shma gap, ravish ergash gapli qo‘shma gap, o‘lchov-daraja ergash gapli qo‘shma gap, chogishtirish-uxshatish ergaz gapli qo‘shma gap, payt ergash gapli qo‘shma gap, maqsad ergash gapli qo‘shma gap, shart ergash gapli qo‘shma gap, natija ergash gapli qo‘shma gap haqidagi ma'lumotlar ana shu tasnifning mazmunini tashkil etdi.

Shuni alohida takidlash kerakki, Mazluma opa Asqarova faqat o‘zbek tili sintaksisi muammolari bilan cheklanib qolmay, turkiy tillar sintaksisining muhim va munozarali masalariga ham munosabat bildirib kelgan: uning Ufada (1966), Leningradda (1961), Moskvada (1964), Olmaotada (1963, 1983) va Bishkekda (1962) o‘tkazilgan ilmiy anjumanlarda o‘qigan ma'ruzalari ayni shu masalalarga bag‘ishlangan.

1963-yilda olimaning doktorlik dissertatsiyasiga opponentlik qilgan taniqli turkolog Y.I.Ubryatova (Moskva) mazkur ishga yuqori baho berib, «M.A.Asqarova dunyo turkologiyasining oltin fondidan o‘rin oladigan ish yaratgan», degan edi. Mazkur dissertatsiya asosida yozilgan «Hozirgi o‘zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar» (1966) monografiyasining AQSHdagi Garvard universiteti qator turkshunoslarning M.A.Asqarova ijodiga qiziqish bilan qarab kelayotganliga ham prof. Y.I.Ubryatovaning o‘zbek olimasi ishini juda to‘gri baholaganligidan guvoh beradi.

M.A.Asqarovaning ilmiy darajali tilshunos kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari ham alohida e'toborga loyiq: olima rahbarligida 30 dan ortiq fan nomzodi tayyorlagan, u 10 dan ortiq doktorantga yaqindan yordam bergan, yana bir qator dissertatsiyalarning himoyasida rasmiy opponent sifatida (sobiq Ittifoqning turli Respublikalaridagi nufuzli himoya kengashlarida) ishtirok etgan. Olimaning shogirdlari hozirgi kunda nafaqat Toshkendagi, balki O‘zbekistonning barcha viloyatlardagi, shuningdek qo‘shni davlatlardagi oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot institutlarida samarali mehnat qilib kelmoqda.

Mazluma Asqarovaning faoliyati uning o‘rta va oliy ta'lim muassasalaridagi xizmatlari bilan belgilanadi: u qariyb 70 yil davomida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universitetining (sobiq Pedagogika institutining) o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchi, dotsent, professor va kafedra mudiri lavozimlarida xizmat qildi: talabalar, magistrlar va aspirantlarga Hozirgi o‘zbek adabiy tili fanidan ma'ruzalar o‘qidi, ularni til haqidagi fanning «sir-asrorlari», ayniqsa, qo‘shma gap sintaksisi muammolari bilan tanishtirib bordi, mazkur sohalarga oid darslik va qo‘llanmalarning muallifi bo‘ldi: «Hozirgi o‘zbek adbiy tili. Sintaksis» (universitet va

pedagogika istitutlarining filologiya fakultetlari uchun darslik, 1961, 1965, 1987, hammuallif), «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» (1-tom, 1975, hammuallif; 2-tom, 1976, hammuallif), «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» (1-tom, 1980, hammuallif), «Oʻzbek tili grammatikasini praktikumi» (1972, 1981, hammuallif) kabi oʻquv adbiyotlari fikrimizning dalilidir. Bulardan tashkari, olima oʻrta maktab darsliklarining yaratilishida ham faol ishtirok etgan. Uning muallifligi va hammuallifligida quyidagi darsliklar yozilgan: Oʻzbek tili darsligi (4-sinf uchun, 1970, 1975, 1979, 1980, 1982, 1989, 1990,1992), Oʻzbek tili darsligi (7-sinf uchun, 1972), Oʻzbek tili darsligi (8-sinf uchun, 1982), Oʻzbek tili darsligi (7-8 sinflar uchun, 1974, 1977, 1981, 1983, 1987, 1991) Oʻzbek tili (pedagogika bilim yurtlari uchun larslik, 1976, 1989), Oʻzbek tili darsligi (9-sinf uchun, 1980) va boshkalar shular jumlasidandir.

Ma'lumki, mustaqillik yillarida umumiy oʻrta ta'lim maktab mazmunini yangilashga alohida e'tibor berila boshlandi. M.A.Asqarova bu jarayonning boshlanish davrlarida ancha faol qatnashdi. Xususan, V-VIII-IX sinflar uchun yozilgan darsliklarning yangi talablar asosida qayta ishlanishi va nashr etilishida (1993, 1994-yillarda) u faol ishtirok etdi.

M.A.Asqarova uzoq yillar davomida Respublikamizdagi nufuzli ilmiy va himoya kengashlari ishlarida shuningdek, Oʻzbekiston Oliy va oʻrta ta'lim vazirligi (1955-1970), Oʻzbekiston xalq ta'limi vazirligi (1974-1990) qoshidagi oʻzbek filologiyasi oʻquv-metodik kengashlari ishlarida faol qatnashgan. Respublika pedagogika institutlari oʻzbek filologiyasi muvofiqlashtiruvchi kengashning raisi (1980-1986), Oʻzbekiston Pedagogika jamiyati «Oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish metodikasi» boʻlimining boshligʻi (1984-1990) boʻlgan. Bunday jamoat ishlarida ham u oʻzbek tilshunosligi rivojiga oʻzining munosib xissasini qoʻshib kelgan.

Xulosa tarzida ta'kidlash kerakki, prof. Mazluma Asqarovaning tilshunos sifatidagi faoliyati koʻp qirrali va sermazmun boʻlgan. U bir tomondan, tilning grammatik sathi, ayniqsa uning sintaktik qurilishi bilan bogʻliq fundamental tadqiqotlarni amalga oshirdi, shu bilan oʻzbek tilshunosligining ilmiy salohiyati ham yuqoriroq pogʻonaga koʻtardi, ikkinchi tomondan esa tilshunos pedagog sifatida malakali kadrlar tayyorlash ishida samarali mehnat qildi. Demak, uning ilmiy va pedagogik faoliyati oʻzbek tilshunosligining XX asr tarixida alohida oʻrin egallaydi, deyishga barcha asoslar bor. Oʻzbek tilshunosligining kelajak avlodi prof. Mazluma Asqarovaning ilmiy merosi va pedagogik faoliyatini maxsus oʻrganib chiqishiga, bu merosning tilshunosligimizdagi oʻrni munosib baholashiga umid qilib qolamiz.

Muborak hadislarning birida “Kimki ilm oʻrganish niyati bilan qadam bossa, Alloh taolo unga jannat yoʻlini oson qilib qoʻyadi” deb marhamat qilgan ekan. Mazluma Asqarova ham jannati inson edilar. Hayotiy dunyoda umrini ilm olmoq va ilm oʻrgatmoqqa bagʻishlagan piru komil ustozning pokiza ruxlari shod, oxiratlari obod boʻlsin.

## МУНОЗАРА – ЯНГИЛИК САРИ ЕТАКЛАЙДИ
## DISCUSSION - PROVIDES TO NEWS

**Ф.Шарипов,**
***ГулДУ доценти,***
***филология фанлари номзоди,***
**О.Эгамова,**
***магистрант***

**Abstract:** The article covers the matter of the most complex and controversial issues related to word formation (internal and external), as well as the relationship between word formation and form formation. In the affixation method, it is observed that word formation is divided into two types – internal and external, depending on which category it belongs to. Opinions and views of A. Gulamov, A.Khodzhiev and Yu.Todzhiev are involved in the analysis of word formation.

**Key words**: root, stem, addition, internal, external formation of words and forms.

Ўзбек тилшунослигида сўз ясалишига алоқадор энг мураккаб ва мунозарали масалалар қаторида ички, ташқи ҳамда сўз ясалиши билан шакл ясалиши муносабати масалаларини

киритишимиз мумкин. Чунки қўшимчалар орқали сўз ясалишида қандай, асосан қайси туркумга тааллуқли эканлиги, янги сўз ҳосил бўлишига кўра, ясалиш ички ва ташқи ясалиш тарзида икки турга ажратилганлигини кузатишимиз мумкин. Бу бордаги асосий фикр тилшунос томонидан қуйидагича баён қилинган: «Отларда аффикслар орқали сўз ясаш айрим бир хусусиятга эга: бунда бошқа туркумдаги сўзлардан ясаш ҳам, отнинг ўзидан ясаш - ички ясалиш ҳам бор. Бунда: аввал ташқи ясовчи, кейин ички ясовчи қўшилади *сувоқчи, кийимлик* каби» [Ўзбек тили грамматикаси. 1975: 104]. Ички ясалиш ва ташқи ясалиш муносабатлари ҳамда уларга ўзбек олимларининг қарашлари масаласи ҳақида гап борар экан, юқорида зикр этилган таҳлил доирасида фикрлар баён қилишга ҳаракат қиламиз. Аниқроғи, ўзининг охирги қисми моҳиятига эътибор беришдан бошлаймиз: «Отдан бошқа туркумдаги сўзлар, одатда, ташқи ясалиш хусусиятига эга» дейилган фикр тўғрими ва бу борадаги фикр илгари ҳам шу тахлитда баён этилганми - ўз тасдиғига эга бўлганми? Аввал шу грамматиканинг ўзида бу фикр ўз тасдиғини топган-топмаганлигига эътибор қаратайлик. Китобнинг феъл ясалиш қисмида, яъни аффиксация усулида феъл ясалиши қисмида, ўқиймиз: «Аффиксация усули билан ўзбек тилида феъл бўлмаган сўзлардангина феъл ясалади: *иш-ишла, куч-кучай* каби» [Ўзбек тили грамматикаси. 1975: 367]. Кўрдики, фикр қатъий, ўринли бўлиб, бу қисм академик А.Хожиев томонидан ёзилган. Сифат ясалиши борасидаги фикрлар: «Аффикслар воситасида турли сўз туркумларидан (от, сифат, олмошдан, феълдан, тақлидий-тасвирий сўзлардан) сифат ясалади» - деб таъкидланган. Тўғри, бу ўринда сифатнинг энг кўп миқдорда отдан ва феълдан ясалиши алоҳида таъкидланган. Шунга қарамай, биринчи, асосий фикрни қисман инкор этади. Яъни сифатларда (аффиксацияда) ички ясалиш мавжудлиги тан олинади. Грамматиканинг «Равиш ясалиши» қисмида равиш туркумига оид негизлардан ҳам ясалиши мумкинлиги қайд этилгани кузатилади: «-ча аффикси от, сифат, олмош, сифатдош ва равишларга қўшилиб равиш ясайди» [Ўзбек тили грамматикаси. 1975: 529] дейилган бўлиб, асосан, *яширинча* сўзи мисол тариқасида берилади. Бунда ҳам айтилган фикрни қисман рад этиш кузатилади, лекин билдирилган фикрлар далилларга асосланган ҳолда чиқарилган.

Ўзбек тилшунослигининг барча сатҳларини мукаммал ўрганган олим С.Муталибов «Аффиксация йўли билан ясаш икки кўринишга эга: а)феълдан бошқа сўзларга турли қўшимчалар қўшиш йўли...; б)феъл ўзагига қўшималар қўшиб, турли феъл даражалари ясаш йўли [Муталлибов С. 1955: 22]. Дарҳақиқат, олим «у давр тилида буйруқ феъллар аффиксация ва композиция йўли билан ясалар эди» деган фикрни айтиб ўтган бўлса ҳам, бироқ гап янги феълларнинг ясалиши - феъл ясалиши ҳақида борганлигига гувоҳ бўламиз. Лекин шунча таҳлиллар ўтказилган бўлса-да, олим ички ясалишга кенг тўхталиб ўтирмайди: *кирикти, чиниқти* тарзидаги мисолларни «Девони луғатит турк»дан келтириш билан чекланади. Бунда туб маънодаги янги феъл ясалиши йўқлигига эътибор қаратиб ўтирмайди. Чунки олим тилшуносликнинг башқа қирраларини асослашга ҳаракат қилган. Юқоридаги таҳлиллар профессор А.Ғуломов ўзининг 1954 йилда нашр этган «Феъл» китобида қуйидагича келтирилган: «Ясалма феъллар аффикслар орқали туғилади”-деб изоҳ берган. Бундай ясалиш, ўзининг қайси сўз туркумига хослигига қараб, икки гуруҳга бўлинади: 1)феъл ўзакларидан феъл ясаш (ички ясалиш); 2)феъл бўлмаган сўзлардан феъл ясаш». Шу тарзда олим «Феълдан феъл ясаш» сарлавҳасини қўйиб, феъл ясаш орқали: «Ҳаракат процессининг объектив характеристикаси ифодаланиши (вид категорияси); ҳаракатнинг такрорланиши, ҳаракат субъекти ва объекти ўртасидаги муносабат кабилар ифодаланиши»ни қайд этади[Ғуломов А. 1954: 68]. Яъни шу тахлит феълларда ички ясалиш борлигини тан олади. Шунга қарамай, бунда янги феъл ясалганлигини аниқ қайд этмайди, ясалишни вид билан боғлайди. Олим кейинги давр қарашларида қатъий тарзда аффиксация усулида феъл асослардан янги феъллар ясалмаслигини тан олади. Феълнинг феъл асосларидан ҳосил қилинмаслигини қайта-қайта таъкидлаб, кейинги илмий изланишларида ҳам қайд этиб ўтган.

Ўзбек тилшунослигидаги ўзининг илмий изланишлари билан шуҳрат қозонган олим З.Маъруфов ўзининг «Сўз состави, «от ва сифат» китобида отларнинг ички ясалиш

характерига эга эканлигини тан олгани ҳолда, сифатларнинг асосан от ва феъллардан ясалишини қайд этади. Профессор Ё.Тожиевнинг 1981 йили нашр этилган «Эга эканлик ва эга эмаслик маъноларини ифодаловчи аффикслар синонимияси» китобида ҳам сифатларнинг асосан от ва феъллардан ясалиши қайд этилганлигини кузатишимиз мумкин. Юқоридаги фикрларни инобатга олган ҳолда, олим, умуман, сўз ясалиши тизимида ички ясалиш ҳодисаси борлигини инкор этишга ҳаракат қилганлиги сабабли олимнинг «Ўзбек тилида шахс отлари ясовчи аффикслар синонимияси», «Феъл ясовчи аффикслар синонимияси»[Тожиев Ё. 1981], «Феълларнинг ясалиши ҳақида баъзи мулоҳазалар» каби асарларининг юзага келишига сабаб бўлган десак адашмаган бўламиз, чунки ишларида бу масалага жиддий муносабат билдирилганлиги муаммонинг марказида туради. Олим *бур-бура, судра-судракла, қув-қувла, теп-тепкила, чўз-чўзғила, тит-титкила, қўз-қўзи-қўзға, сур-сурка, том-томчила, босинқира* каби кўп сўзлар таҳлилини келтириш орқали сўзларда ички ясалиш йўқлиги, бунда янги сўзлар (феъл) ясалмаслигини асосли тарзда инкор этганлиги ҳеч кимга сир эмас. Шахс отларидаги ички ясалишнинг ҳам шартли эканлигини, умуман, туркий тилларда аффиксацияда ички ясалиш, фақат соф синхрон ёндашувда, шартли тарзда мавжуд бўлиб қолганлигини ва тан олиниши мумкинлигини асослашга ҳаракат қилганлигини кўрамиз. Яна бир олимнинг фикрларни келтиришни лозим деб топдик. Академик А.Ҳожиев от ясалиши баҳсида шахс отларининг ҳамда от асослардан ясалишини, жуда кам миқдорда ўрин-жой отларининг ҳам от асослардан ясалишини қайд этиб ўтади ва бу туркум доирасида ички ясалиш бор эканлигига эътибор қаратади [Ҳожиев А. 1989: 35-49]. Олим сифатларнинг асосан от асослардан ва қисман феъл асослардан ясалишини қайд этади [Ҳожиев А. 1989: 51]. Равиш ясалишида айрим аффикслар (*-ча*) иштирок этишини назарда тутса-да, умуман, равиш ясалиши маълум бир тизимни ташкил этмаслигини тўғри баҳолайди. Умуман олган феъл ясалиши деганда ҳар қандай асосдан феъл ясалмаслиги олимларимиз томонидан илмий асосланган десак, бизнингча нотўғри бўлмайди. Равиш сўз туркумининг ясалиши бугунги кун тилшунослари олдида турган мунозарали масала эканлиги ҳеч кимга сир эмас.

Шу ўринда профессор А.Ғуломовнинг равиш ва сифат ясалишига доир қарашлари алоҳида илмий ишларида қайд этилмаганлигига гуҳ бўламиз. Академик А.Ҳожиевнинг «Ўзбек тили сўз ясалиши тизими» номли қўлланмасида эса сон, олмош ва равиш туркумлари доирасида сўз ясалиш тизимига амал қилмаслигини юқоридаги фикрларимизнинг исботидир. [Ҳожиев, 1989: 61]. Бундай назарий қарашлар олмош туркумлари борасида ишончли асослаб берилган. Гарчи баъзи ишларда олмошларда сўз ясалиш қайд этилганлигига гувоҳ бўлсак, бу фикрлар асосли эмаслиги, илмий нуқтаи назардан ёндашилиш кераклиги мақсадга мувофиқдир [Ҳожиев, 1990:156].

Олимларимизнинг билдирган мулоҳазалари юзасида билдирилган қисқача таҳлил шуни кўрсатади:

-биринчидан, ҳозирги ўзбек тили сўз ясалиши тизимида ички ясалиш асосан от туркумида мавжуд бўлиб, у ҳам шахс отлари ва ўрин-жой отлари ясалиши шартли равишда тан олинади. Чунки ана шу шахс отлари ҳамда ўрин-жой отларининг барчаси, аслида сифатнинг отлашуви, сифатланмишнинг эллипсисга учрашидан вужудга келганлиги асослаб берилган [Абдурахмонов, Шукуров, 1973].

–иккинчидан, бошқа сўз туркумлари, жумладан, феъл ва равиш сўз туркумларида ички ясалишлари доирасида ҳам кузатилмайди. XX асрнинг 60-йилларига қадар ички ясалиш кенг тарқалганлигига қарамай, буни профессор А.Ғуломов ҳам таъкидлаган бўлса-да, ҳозир бу масалага ёндашишда олимларнинг фикрлари бир-бирларини мақуллайди.

Илмий тилшуносликдаги изланишларда ўзбек тилида феълдан (феъл асослардан) феъл ясалмаслиги, ҳатто, *-ла* аффикси ҳам феъл асослардан ҳаракатнинг тарзини ифодаловчи феъл шаклларинигина ҳосил қилиши айрим ишларда ўз тасдиғини топди, тасдиқлади[Шарипов, 2009]. Кўринадики, А.Ғуломов, 70-йилларга келиб бу борада ўз қатъий фикрини айтган. Яъни «Аффиксация усули билан ўзбек тилида феъл бўлмаган сўзлардангина феъл ясалади»

деган фикр тўғри эканлигига қатъий ишонган ва бу академик А.Ҳожиевнинг илмий изланишларида ўз тасдиғини топган.

Ўзбек тилида сўз ясалиши ва шакл ясалиши асосга аффикс қўшиб ҳосил қилиниши жиҳатидан бир-бирига ўхшаса ҳам, сўз ясалишида ясовчи аффикслар иштирок этиши ва шунга кўра, янги луғавий маъноли бирликлар ҳосил бўлса, шакл ясалишида шакл ҳосил қилувчи, яъни грамматик маъно ифодаловчи аффикслар иштирок этиши ва шунга кўра янги луғавий маъноли сўз ясалмаслиги уларни бир-биридан тубдан фарқли тизим эканини кўришимиз мумкин. Шу сабабли феълдан феъл ясалиши шакл ясалиш тизими доирасига ҳақиқат эканлиги олимларимиз томонидан далиллаб берилди ва уни сўз ясалиши тизимида текшириб бўлмаслиги аниқланди.

Демак, академик А.Ҳожиев томонидан XX асрнинг 50-йилларида «феълларда ички ясалиш мавжуд» деган тартибда қўйилган масала 70- йилларга келиб ўз ечимини топди, дейиш мумкин. Шахс отлари ва айрим ўрин-жой отлари ясалишидаги ички ясалиш масаласига маълум даражада профессор Ё.Тожиев томонидан эътибор қаратилиб, бу ҳолатнинг ҳам шартлилик характерига эга эканлигига қарамай, мазкур масала ўзининг қатъий ечимини топган дейиш қийин. Бу борадаги тилшуносликда яна бир қанча илмий тадқиқотлар қилиниши масланинг ечимини топишга сабаб бўлади деб ўйлаймиз.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Тошкент: Фан, 1973.
2. Ғуломов А. Феъл. Тошкент: Фан, 1954.
3. Муталлибов С. XX аср ёзма ёдгорликларида феъл категорияси. Тошкент: Фан, 1955.
4. Тожиев Ё. Эга эканлик, эга эмаслик маъноларини ифоадаловчи аффикслар синонимияси. Тошкент: Университет, 1981.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-китоб. Тошкент: Фан, 1975.
6. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. Тошкент: Фан, 1989.
7. ҲожиевА. XI-XIX асрларўзбек тили морфологияси. Тошкент: Фан, 1990.
8. Шарипов Ф. Ўзбек тилида ҳаракат тарзининг синтетик ифодаланиши. Номзодлик диссертацияси.Тошкент, 2009.


## СЕГМЕНТТІК БІРЛІКТЕР
## SEGMENTAL UNITS


***Ж.А.Масалиева ,***
***Оңтүстік Қазақстан мемлекеттік***
***педагогикалық университеті,***
***филология ғылымдарының кандидаты, доцент***



**Аннотация:** В статье анализируется теория сингармонизма от В. Радлова до современных учений. В свете современных представлений рассматривается обучение казахскому языку в русскоязычной аудитории. Характер смыслоизменительной деятельности в сочетании со звуковым составом слова придан на сравнительной основе.



***Ключевые слова:*** *сингармонизм, фонология, «йотовые гласные», тюркские языки, сингармовариация, сингармофонема.*



***Abstract:*** *This concludes that innovation is not only the creation of new of Kazak language . In the light of modern ideas, the teaching of the Kazakh language in the Russian-speaking audience is considered. The character of the semantic activity in combination with the sound composition of the word is given on a comparative basis.*



***Key words:*** *singarmonism, phonology, "yote vowels", Turkic languages, singarmovariation, singarmophonema.*

Қазіргі кезеңде қазақ тілі фонологиясының ең өзекті мәселелерінің бірі – дыбыстардың үндесуі немесе үндестік заңы болып табылады. Біз сингармонизмнің тек дауысты дыбыстарға ғана емес, сондай-ақ дауыссыз дыбыстарға да қатысты екенін айта отырып, оның ішінде жіңішке дауыссыз дыбыстардың қолданылу ерекшеліктерін қарастырмақпыз. Мәселен, орыс тілінде дауыссыз дыбыстар тілдің қатысына қарай жуан дауыссыздар және жіңішке дауыссыздар болып топтасады. Жазуда дауыссыздардың жіңішкелігі сөздегі орнына қарай анықталатындығы, орыс тіл білімінде дауыссыздар сөз ортасында «йотовые гласные» немесе дифтонг дыбыстар деп аталатын *е, ё, ю, я* дыбыстарының алдында жіңішкеретіндігі анықталған құбылыс. Қазақ тіліндегі дауыссыз дыбыстар тіл қатысына қарай қатаң, ұяң, үнді болып бөлінеді де, буынның жуан не жіңішкелік қасиеті дауыстылардың үлесінде болады. Тағы бір көңіл аударарлық жай орыс тілінде сөз соңындағы дауыссыздардың жіңішке айтылуы қатаң сақталып, жазуда жіңішкелік белгісінің жалғануы арқылы анықталады. Салыстырыңыз, *кон – конь, мол - моль* т.б. Бұл ретте қазақ тіліндегі дыбыстардың, оның ішінде дауыссыз дыбыстардың зерттелу тарихына тоқтала кетпекпіз. Тіліміздегі дыбыстар акустика-артикуляциялық, лингвистикалық белгілеріне қарай дауыссыз және дауысты дыбыстар деп екі топқа бөлінетіні белгілі. Дауыссыздарды айтқанда ауа кедергіге ұшырап, күш дыбыстау мүшелерінің біріне ғана түсетіндігі, ал дауыстыларды айтқанда дыбыстау мүшелерінің барлығы дерлік қатысатындығы басы ашық мәселе. Сонымен дауысты мен дауыссыз дыбыстар өзіндік артикуляциясымен ерекшеленеді.

Сингармонизм сөздің дыбыстық құрамымен ортақтасып мағына өзгертушілік қызмет атқарады. Қазақ тілінің дыбыс жүйесі бір өлшемді болып анықталады. Яғни қазақ тілінде фонологияның негізгі және жалғыз өлшемі – сингармонизм. Сингармонизм (гр. συν - бірге, гр. ἁρμονία - үндесу) – үндестік заны. Үндестік заңы түркі тілдерінің дыбыстық жүйесіндегі басты заңы ретінде тілдің бүкіл фонетикалық бейнесін, дыбыс жүйесі мен буын жүйесінің ерекшелігін, сөйлеу нормасын айқындайды.

Сингармонизм бойынша сөздер не бірыңғай жуан, не бірыңғай жінішке, не еріндік, не езулік болып айтылады. Түбірге жалғанатын қосымшалар да осы заңдылыққа бағынады. Сингармонизмнің басты қасиеті, оның сөзайырымдық және сөзтанымдық қызметінен көрінеді. Сингармонизмнің жоғарыда айтылған қасиеттеріне қарай, үндес дыбыс, үндес белгі, үндес сөз, үндес буын, үндес әуен сияқты терминдер қолданылады. Сингармонизм қалыбы – сингармонизм бойынша сөздердің не біркелкі жуан, не біркелкі жіңішке болып айтылу қалыбы. Мұндай қалып сөздердің басым көпшілігіне тән [Сөздік, 2005: 247] .

XIX ғасырда қазақ тілін зерттеген орыс ғалымдары В.В. Радлов, П.М. Мелиоранский, Н.И. Ильминскийдің еңбектерінде алғаш рет қазақ тілінің фонологиялық жүйесі, сингармонизм заңдылығына ерекше мән беріп, дыбыстар үндестігі жайында құнды пікірлер айтқан. В.В. Радлов [Радлов, 1882:144], оның ізін ала П.М. Мелиоранский *л* дыбысының жуан-жіңішке вариантын екі фонема деп қарастырады [Мелиоранский, 1894:94]. П.М. Мелиоранский сөздердің бірыңғай жуан не жіңішке болып келетінін көрсетіп, еріндік дауыстылардың үшінші буыннан кейін әлсірейтінін тілге тиек етеді. Осындай пікір жалпы түркітанымда қалыптасып, орныққан десек те болады. Өйткені осы іспеттес анықтама қазақ тілі оқулықтарында да ең көп тараған сипаттама болып табылады. Мұндай көзқарас ғалым М. Жүсіпұлы зерттеулеріне де негіз болған. «Констонантизм жүйесінің құрамындағы жіңішке дыбыстардың сингармофонемалық статусы жоқ, себебі бұлар жеке (сөздің құрамынан тыс) дыбысталмайды (айтылмайды)»,-деп, *ал-әл* сөздерінің құрамындағы жуан [л] мен жіңішке [л] жеке сингармофонема ретінде қабылдамай, бір сингармофонеманың тең сингармовариациялары ретінде анықтайды [Жүсіпұлы, 2001:30]. Буын құрамындағы дыбыстардың бір-біріне икемделуі сингармонизм заңына байланысты екендігі жайлы деректер жеткілікті.

Қазақ лингвистикасындағы сингармонизм теориясы көп мәселенің басын ашып береді. Дауыстылар үндесуін теориялық тұрғыдан зерттеу жеткілікті деңгейде. Сингармонизм қазақ тілінің дыбыстық жүйесіне ғана тән ерекше құбылыс екендігі қазақ тіл білімінің негізін

қалаушы А. Байтұрсынұлы еңбектерінде сөз болған. Дауыссыз дыбыстардың дауыстылар ықпалында болатынын сөз ете келе, егер бір сөзде дауысты дыбыс жіңішке айтылса, дауыссыз дыбыс та жіңішке айтылатындығын байқап, дауысты дыбыстардың, сол арқылы дауыссыз дыбыстардың жіңішкелігін көрсету үшін әліпби құрамына олардың дыбыстық белгілерінен басқа, қосымша дәйекші енгізді [Байтұрсынұлы, 1992: 62]. Осылайша, А. Байтұрсынұлы сингармонизмнің жуан-жіңішке екі түрінің графикалық белгілерін дәл көрсетуге ыңғайлы жол тапқан. Қазақ өркениетінің, білімі мен ғылымының қарқынды дамуындағы үлесін қазіргі тілші-ғалымдар «Қазақ тіл білімі тарихында А. Байтұрсынұлы қазақ тілінің дыбыстық сегменттік бірліктері түзілімін дәлме-дәл анықтауы арқылы ұлттық жазудың тұңғыш рет фонемографиялық жүйесін жасады» [Нұргелді, 2002:281] деп бағалайды. Жалпы лингвистикалық, сондай-ақ түркологиялық ғылыми әдебиеттерге сүйенетін болсақ, қазақ тіліндегі буын құбылысын сингармонизмнен тыс зерттеуге болмайды деп жорамал жасаймыз. Себебі буын, дыбыстардың үндесім құрамы сингармонизм арқылы шешілуі тиіс.

Қазақ фонетикасын арнаулы жүйеге салып зерттеген ғалым Қ.Жұбанов дауыссыз дыбыстарды үнді және үнсіз, дыбыстардың созылымдылығына қарай үздікті (*қ, ғ, к, г, т, д, п, б*), үздіксіз (*ж, ш, с, з*) деп бөлген. Қ. Жұбанов та қазақ сөздерінің буынға негізделгенін айтып, тіл дыбыстарын фонология тұрғысынан қарастырған. Қазақ тіліндегі дыбыстардың барлығы, *е*-ден басқалары бірде жуан, бірде жіңішке болып, барлығы 51 дыбыс ретінде кездесетінін атап айтқан. Ғалым *сыз-сіз, ор-өр* деген сөздерді мысалға алып, бұлардың біреуінің дыбыстары жуан, екіншісінікі жіңішке екендігін көрсеткен. Бір дыбыстың екінші дыбыстан басқа түрлі айырмасы болмай-ақ, тек бірі жуан, бірі жіңішке келетініне қарай бір сөз екіншіден айырылады дейді. Мысалы, *ор* сөзіндегі *о* мен *р* дыбыстары жуан, ал *өр* сөзіндегі *ө* мен *р* жіңішке айтылып, бір сөз екінші сөзден ажыратылады. Осылайша, ғалым «Қазақ тіліндегі дыбыстардың жуан түрі бір дыбысқа, жіңішке түрі бір дыбысқа татиды»,- деп тұжырымдайды [Жұбанов, 1996:361]. Қ. Жұбановтың буын категориясын фонология тұрғысынан қарауы өзге зерттеушілерге жол көрсету, бастама болды десек артық айтпаймыз.

Академик І. Кеңесбаев буын ішіндегі дауыссыз дыбыстардың жуан-жіңішкелігі дауысты дыбыстарға байланысты болатындықтан, буындағы дауыссыздар не жуан, не жіңішке болып айтылатындығын көрсеткен [Кеңесбаев, 1975:263]. Бұл орайда Х. Досмұхамедұлының қазақ тілінің сингармонизм заңына арналған сүбелі еңбегінің де маңызы жоғары [Досмұхамедұлы, 1924].

Ә. Жүнісбеков қазақ тілін зерттеген ғалымдардың басым көпшілігі дауыстылар үндестігіне баса назар аударғанын айта келе, «дыбыстың жеке басын алып емес, оны буын құрамында алып қарау – қазақ тілі фонологиясының өзіндік сөлін тап басқан зерттеушінің қолынан ғана келетін жай» [Жүнісбеков, 1990:19] деп, Қ. Жұбанов бастамасын жоғары бағалайды. Қазақ тілінде дыбыстардың фонологиялық қызметі буын деңгейінде ғана көрінетінін, еуропа тілдерінде сөздің айтылуын сөздік екпін, ал қазақ тілінде сингармонизм реттеп отыратындығын айқындап берді. Ғалым тілімізде сингармонизмнің фонологиялық қызмет атқаратынын ескеріп, «фонема» терминінің орнына «сингармема» терминін ұсынды. Сонымен бірге сингармонизмнің тек дауысты дыбыстардың ғана үндесімі емес, сондай-ақ дауыссыз дыбыстарға да қатысты екенін дәлелдеп көрсетті.

Сингармонизмнің қызметі қазақ сөзінің өн бойында біркелкі тембрдің сақталуында. Қазақ тілінде әр сөзде белгілі бір сингармония тембрінің болуы қажет. Ә. Жүнісбеков сингармотембрдің жуан езулік (*бас, бар, сыр, жыр*), жіңішке езулік (*бел, бер, сір, тер*), жуан еріндік (*тұр, бұл, бор, мол*), жіңішке еріндік (*түр, бүк, төр, бөл*) болып жұптасып келген төрт түрін анықтады [Джунисбеков, 1980:23]. Бұл сөздердегі дауыссыз дыбыстар дауыстылармен жымдасып, тембр жағынан сәйкес келіп, үндесіп тұр. Сөздегі дауысты мен дауыссыз дыбыстар үйлесіп, сөздің тембрін айқындайды. Егер осы үндестік бұзылса, сөз өзгеріп, мағынасы түсінксіз болады. Орыс тілінде екпін де сондай сөз анықтағыш қызмет атқарады. Сөздер бір-біріне жеке фонемалар арқылы емес, бүкіл дыбыс құрамымен қарама-қарсы қойылады. Ал қазақ тілінде сөз екпіні фонемалық құралдар өлшемі статусына ие емес,

тек фонетикалық қызметі бар. Ол қызметі де (орыс тілімен салыстырғанда) өте әлсіз. Қазақ тілі сөз екпінінің фонетикалық қызметі логикалық екпінмен бірге қызмет атқарғанда айқын байқалады.

Сингармодыбыстар сингармобуында ғана қарама-қарсы қойылады. Ал олардың жиынтығы сингармотип құрайды. Мысалы, *сат, сіт, сот, сүт* деген сөздердегі бір ғана дыбыс ретінде танылатын *с* дыбысы акустика-физиологиялық жағынан төрт түрлі сингармореңге ие болып тұр. Бұл сөздер бір-біріне тек *а, е, о, ө* дауысты дыбыстары арқылы ғана емес, сонымен бірге *с* (жуан-жіңішке, еріндік-езулік) дауыссыздыбыстары арқылы да қарама-қарсы қойылып, бір сөз екінші сөзден ажыратылады.

Сингармонизм – ең алдымен буынды, содан соң сөзді қамтитын просодикалық единица. Сингармонизмнің айқын байқалуы дауысты дыбыстың реңкімен байланысты. Қазақ тілінде дауыстылар мен дауыссыздардың қызметі буын деңгейінде ғана байқалады. Ғалым М. Жүсіпов қазақ тілінде дауыссыз дыбыстан тұратын морфема жоқ, өйткені тек дауыссыздан тұратын буын жоқ деп көрсетеді. Ал дауысты дыбыстан тұратын морфема бар, өйткені бір ғана дауыстыдан тұратын буын бар. Сөздің сингармотембрлік бейнесі сөзді буынға бөлуді қамтамасыз етеді. Сөзде қанша сингармотембрлі үзінді болса, сонша буын бар [Джусупов, 1991:77] деп жазады.

Лингвистикалық аспект тіл дыбыстарының мағына айқындау жағын қарастырады. Ендеше орыс тіліндегі дауыссыз дыбыстардың жуан-жіңішке түрінің әрқайсысы бір фонема және сөз мағынасын айқындауға қатысады. Қазақ тілінде де дауысты, дауыссыз дыбыстар буын құрамында өзара үндесіп тұрады. Бүгінгі күні қазақ тілін үйренушілерге сингармонизм ерекшелігін көрсетіп, жуан, жіңішке дауыссыздарды сөз ішінде дұрыс айтқызып үйрету қажет. Олай болмаған жағдайда, әсіресе, орыс тілді тіл үйренушілер *тіл, тіс, төр* т.б. сөздерді жіңішкелік белгісі жоқ болғандықтан, оларды жуан айтуы мүмкін. Сондықтан жіңішке дауыссыздардың қолданыстағы ерекшелігін үнемі назарда ұстау қажет.

**Әдебиеттер**


1. Тіл білімі терминдерінің түсіндірме сөздігі. –Алматы, «Сөздік-Словарь», 2005.
2. Радлов В.В. *Vergliechende Grammatik der nordlichen Tursprachen. Th. I. Phonetik.* (Сравнительная грамматика северных тюркских языков. Т. I. Фонетика), Лейпциг, 1882-1883.
3. Мелиоранский П.М. Краткая грамматика казак-киргизского языка. Ч.1. Спб, 1894.
4. Жүсіпұлы М. Сингармонизм фонологиясы (үндестік фонологиясы) // Тілтаным, 2001.
5. Байтұрсынұлы А. Тіл тағылымы. –Алматы: Ана тілі, 1992.
6. Нұргелді У. Ахмет Байтұрсынұлы және қазақ жазуының онтогенездік дамуы // Ұлттық рухтың ұлы тіні. Алматы, 2002.
7. Жұбанов Қ. Қазақ тілі жөніндегі зерттеулер. –Алматы: Ғылым, 1996.
8. Кеңесбаев І., Мұсабаев Ғ. Қазіргі қазақ тілі. –Алматы: Мектеп, 1975.
9. Досмұхамедұлы Х. Қазақ-қырғыз тілінің сингармонизм заңы. Ташкент, 1924.
10. Жүнісбеков Ә. Қазақ фонетикасының ғылыми курсын жасаушы // Қ. Жұбанов және қазақ совет тіл білімі. Алматы, 1990
11. Джунисбеков А. Сингармонизм в казахском языке. Алма-Ата: Наука, 1980.
12. Джусупов М. Звуковые системы русского и казахского языков // Слог. Интерференция. Обучение произношению. Ташкент, 1991.


## “СЎЗ ЯСАЛИШИ” ТУШУНЧАСИГА ИЗОҲ
## EXPLANATION OF THE CONCEPT OF "WORD FORMATION"


**Ф.Шарипов**,
***ГулДУ доценти,***
***филология фанлари номзоди***
**М.Аликулова,**

***магистрант***

**Abstract:** This article will focus on the role and meaning of word combinations in the formation of scientific views on morphology in Uzbek linguistics. Information is provided on the analysis of independent, auxiliary and separate parts of speech, as well as on the grammar of related languages.

***Key words:*** *part of speech, root, stem, suffix.*

Тилшуносликда мунозарали масалалар юзасидан жуда кўп илмий тадқиқотлар олиб борилган. Шулар жумласига сўз ясалиши тизимига доир бу муҳим масалаллар ҳам киради. Тилшунос олим А.Ғуломов томонидан XX асрнинг 40 йилларида долзарб масала сифатида ўртага ташланди. Унинг *-ка, -дош, -ла* аффиксларига бағишланган ишларида, шунингдек, «Сўз ясалишида ўзакдаги ўзгаришлар», «Ўзбек тилида сўз ясаш йўллари», «Ўзбек тили морфологиясига кириш» қўлланмасида ва кейинроқ 1957 йилда Ф.Камол таҳририда нашр этилган «Ҳозирги замон ўзбек тили» илмий грамматикасининг «Морфологияга кириш» қисмида [Гуломов, Об аффиксе –ка, 1946; Об суффиксе –дош, 1946, 31-34; -ла аффиксининг маънолари ҳақида, 1946, 5-6; Об изменении корня в словообразовании, 1947; Ўзбек тилида сўз ясаш йўллари, 1949, 46-72; Ўзбек тили морфологиясига кириш, 1953; Ҳозирги замон ўзбек тили, 1957, 285-307] бу масалага жиддий муаммо тарзида эътибор қаратилганлиги ҳозирги ўзбек адабий тилига бўлган эътиборнинг яна бир карра ошганлигидан далолат беради. А.Ғуломов «Сўз ясалиши тилшуносликнинг айрим бир соҳаси бўлиб, у бир томони билан грамматикага боғланади, бошқа бир томони билан лексикага боғланади.Масалан, сўзнинг маъносидаги силжиш орқали янги сўз ҳосил бўлиши - семантик сўз ясаш ҳодисаси лексикология билан алоқадордир» деган фикрни илмий грамматиканинг «Сўз состави» қисмида илк бор асослайди [Ўзбек тили грамматикаси, 1975, 32-46]. Олим ўзбек тилида ясама сўзлар ва сўзнинг шакллари ўзакка маълум тартибда, изчиллик билан аффикслар қўшиш орқали ҳосил қилиниши, бунда ўзакнинг кўпинча ўзгармаслиги, шундай бўлса-да, баъзан ўзакларнинг ҳам ўзгариши мумкинлиги ҳақидаги фикрни илгари суради, уни асослайди: *ўроқ-ўроғи, ўғил-ўғли, сез-сескан* мисоллари таҳлили берилади. Олим ўзак тушунчасига аниқ изоҳ, беради. Гарчи негиз ўзакка ўхшасада, унинг ўзакдан фарқли томонини кўрсатиб берган. Унинг ўзак ҳақида қуйидаги фикрларини келтирамиз: «Ўзак сўзнинг асл маъносини англатган қисмдир; қариндош сўзларнинг умумий қисмидир. Қариндош сўзлар - бир ўзакдан урчиб чиққан, бир-биридан ясалган сўзлар: *ўр:ўроқ, ўрим, ўриши; туз, тузли, тузсиз, тузлик* каби. Ўзак маъносини йўқотмай туриб бўлакларга ажралмайди. Бу қисмнинг ўзак аталиши шу сўздаги бошқа морфемаларга, аффикслрга нисбатандир. Демак, ўзак бир неча морфемали сўзлардагина мавжуддир». Олимнинг фикрлари тўғри идрок этилса, ўзак ҳақидаги қараш ўзининг тўғри ифодасини топган. У қариндош сўзларнинг умумий қисми ва аффикслрга нисбатан белгиланади. Негиз эса, сўз ясалиши ва шакл ясалиши учун асос бўлган қисмдир. А.Ғуломовнинг бошқа изоҳлари моҳияти тўғри идрок этилса, негиз туб ва ясама характерида бўлиши мумкин. Ўзакда бундай хусусият йўқ. А.Ғуломовнинг *ўзак, негиз* ҳақидаги фикрларининг туб моҳияти, уларнинг тилдаги ана шундай бирликларни қайд этиши ҳам тилшуносликнинг объкети сифатида кўриб чиқилган. Фақат уларга хос айрим жиҳатлар, изоҳидаги ноаниқликлар кейинчалик бошқа тилшунослар томонидан ойдинлаштирилди. Олимнинг бу борадаги қарашлари профессор Ё.Тожиевнинг «Ўзбек тили морфемикаси», номли тадқиқот ишида *ўзак* - ўзак морфема тарзида, *аффикслар* эргаш морфемалар тарзида, *негиз* барча ўзига хос жиҳатлари билан изоҳлаб берилган. Унинг сўз ясалиши ва шакл ясашга асос бўлиши, шунга кўра, сўз ясалиши таҳлили ҳамда сўзнинг морфологик таркиби доирасида қайд этилиши асосланган: *теримчи* сўзи таркибида битта негиз бор. Бу шу ясалманинг *терим* қисмидир. Шу қисм *-чи* аффикси қўшилиши учун ясовчи асос (негиз)дир: *терим+чи; теримни тўхтатинг* гапи таркибидаги *терим* қисми эса, шакл ясалиш асосидир. Агар *теримчилар* сўзи берилса, *теримчи* қисми *-лар* аффиксига нисбатан шакл ясаш асосидир, яъни ясама негиздир. «Сўз туб ва ясама бўлади» деган фикрни таъкидлаган олим

«Сўзларнинг туб ва ясама саналиши уларнинг ҳозирги кунда қандай ўқилишига қараб белгиланади», - дея уни назарий асослайди.

90-йилларидан кейинги даврда сўз ясалишининг синхроник ёки диахроник жиҳатдан ясалиши ҳақидаги мунозараларнинг аниқ ечимини XX асрнинг 50-йилларда қатъий асослаб беради. Баъзи сўзлар қадимда ясалган бўлса ҳам, ҳозирги кунда унинг ясама эканлиги этимологик таҳлил билангина белгиланади, қисмлари сингишиб, ажратиб ўқилмайдиган ҳолга келиб қолганлиги шу кун нуқтаи назаридан соддалашган сўз - туб сўз тарзида баҳолаш кераклигини кўрсатиб туради: *яхши, кўмир, ўтин, чақир* каби сўзларни шундай бирликлар қаторига киритиш мумкин.«Ясама сўздаги маъно бирор восита орқали англашилади» деган асосли фикр билан ўз қарашларини хулосалайди. Олим соддалашишнинг моҳиятини қуйидагича ёритади: «Сўзнинг морфологик ҳолатидаги бу тарихий ўзгариш - бир неча қисмли сўзнинг ажралмас бир бўлакка айланиши - соддаланиши деб аталади. Сўзнинг таркибида бўладиган фонетик ўзгаришлар соддаланишини яна ҳам кучайтиради: бунда сўзнинг морфемаларга ажралмаслик ҳолати яна ҳам мустаҳкамланади: тоғолча (қўшма сўзларда); *терскари - тескари, бу кун - бугун, сез-сесканмоқ, суст-сусаймоқ* каби». Ана шу ҳолатдан келиб чиқибА.Ғуломов ўзакни ҳозирги ўзак ва тарихий ўзак тарзида икки турга ажратади. Сўз таркибида ўзак борлиги этимологик ёндашув асосида аниқланса, бу аниқланган ўзак тарихий ўзак номи билан юритилади. Ясалма сўзнинг ҳақиқатан ҳам, ясама эканлиги, яъни мотивланиши этимологик таҳлил асосида амалга оширилиши маълум. Этимологик таҳлилсиз эса, у туб сўз сифатида қаралади - унинг ясалма эканлиги мотивланмаган бўлади деган хулосага келиш мумкин.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, ясалманинг мотивланиши масаласига, А.Ғуломов, кейинроқ, яъни 70-йилларда эътибор қаратган десак хато бўлмайди. Чунки олим аввалги қарашларини давом эттириб: «Ҳар бир ясалманинг асосида бошқа сўз ётадива бу ясалиш маълум моделга кўра бирор йўл, усул билан юзага келган бўлади. Демак, ҳар бир ясалишда икки элементнинг муносабати бор: ясашга асос бўлган сўз ва ясалиб чиққан сўз (ясашга асос бўлган элемент мустақил ҳолда айрим сўз, лекин ясалмага асос бўлгач - ундан янги сўз ясалгач - сўзнинг қисми: ўзак ёки негиз). Ясалмадаги бу икки элемент ташқи ва ички томонлардан ўзаро муносабатда бўлади» [Ўзбек тили грамматикаси, 1975, 13]. Шу муносабатнинг ўзига хос хусусиятлари батафсил изоҳлаб берилган ва улар ясама сўзнинг мотивланганлигини тўла асослайди: Ясама сўзнинг икки қисмдан иборат бўлиши, уларнинг алоқадорлиги, семантик ҳам ташқи жиҳатдан яқинлиги, булар ясалганликнинг кўрсаткичи бўлиш ҳолатлари, моҳият эътибори жиҳатидан тўғри асослаб берилган. Албатта, А.Ғуломов бу ўринда *ясовчи асос* термини ўрнида *ясашга асос бўлган сўз* терминини ёки уни, ҳақиқатан, терминлаштириб *ўзак, негиз, ясалишга асос бўлган элемент*кўринишларини қўллайди. Буни ўроқ сўзи мисолида ҳам кўриш мумкин. «ўроқ ясалмаси ўз ясовчи сўзига («ўр»га) нисбатан икки томонлама мураккабдир»; «фалон сўз фалон сўздан ясалган»; ясашга асос бўлган сўз ва ясалиб чиққан сўз» «от+чи аффикси» каби. Бу борада шуни айтиш мумкинки, ясама сўз учун ясовчи асос бўлган қисмини профессор Ш.Раҳматуллаев 70-йилларда *лексема ясаш негизи* тарзида белгилаб, уни лексик морфемага (ўзакка) тенг бўлади; *лексик морфема (ўзак), лексема, лексема ясаш негизи* терминлари билан атайди ва бу *негизнинг (моҳият) ясама, яъни ясовчи асос+ ясовчи восита - ясалма* кўринишида бўлишини ҳам қайд этиб ўтади. Бироқ бунда ҳам моҳият ўзгарган эмас. Шунга қарамай, ясалишнинг моҳияти ҳеч ўзгарган эмас. Чунки «ясалма сўз билан ясовчи сўз ўзаро ясалмалик муносабати билан боғланган бўлади: буларнинг алоқаси сўз ясаш муносабати саналади» тарзида чиқарилган хулоса моҳияти ўзгараётгани йўқ. Шунингдек, олимнинг «биринчи элемент асословчи (мотивловчи), иккинчи элемент асосланувчи (мотивланувчи), иккала элементнинг орасидаги муносабат мотивация (мотивлаш, асослаш) муносабати саналади. Демак, «мотивланган» сўзи «ясалган» деган маънони беради. «Мотивловчи» эса, шунга асос бўлган, шуни яратувчи» деган маънодадир» деган фикрлар ўз моҳиятига кўра тўғри фикрлар дейиш мумкин.

Фақат термин қўллашдаги фарқ назарда тутилмаса, олим қарашлари ясалманинг ҳозирги кунда ясалган эканлигини, яъни уни ясама сўз деб қарашни мотивлаш, асослаш моҳияти жиҳатидан янги қарашлар тарзида баҳоланаётган фикрларнинг туб моҳиятини ўзида акс эттирган ва улардан ҳеч фарқ қилмайди. Олим, ҳақиқатан ҳам, бу борада, бу сўз қандай ясалган?!, У ҳақиқатан ҳам ҳозирги кунда ясама сўз сифатида қаралиши мумкинми?, У қайси воситалар асосида, қайси усул билан ясалган?, Ясалган эканлигини қандай асослаш мумкин? каби кўплаб саволларни қўйган ва уларнинг ҳар бирига ўзининг илмий асосланган жавобини бера олган. Албатта, олимнинг термин қўллашга нисбатан жиддий эътиборли бўлмаганлиги масаласини камчилик сифатида кўрсатиш мумкиндир. Иккинчидан, олим «Сўзнинг маъноси унинг составидаги қисмларнинг семантик хусусиятлари билан боғлиқ» деган фикр ҳамма вақт ҳам шу қисмларнинг маъноси йиғилиб, ўша сўзнинг маъносини ҳосил қилади, шунга тенг бўлади деган мазмунни англатамайди. Бунда икки хил ҳолат мавжуд: 1. Ясалманинг маъноси кўпинча, қисмларнинг маъносидан туғилади (*сувоқ, сувоқчи, сувоқчилик* каби). 2. Ясалманинг маъноси, баъзан, қисмлардан англашилган маъноларнинг йиғиндисидан бошқача бўлади. Масалан, *андаваламоқ (андава+ла)* сўзининг хас-пўшлаш маъноси қисмларнинг асл маъносидан бошқа: бунда идеоматиклик бор, бу ҳодиса ясовчи сўзда йўқ тарзидаги фикрни айтган [Ўзбек тили грамматикаси, 1975, 14]. Бу фикр, албатта, юзаки қараганда тўғридек туюлади. Бироқ сўзларнинг тарихий тараққиёти, кўчма маънонинг кейин пайдо бўлганлиги нуқтаи назардан қаралса, ҳақиқатга мос келмайди. Бу сўздаги берилган маъно, бу - маъно кўчиши асосида ҳосил бўлган кейинги маъно бўлиб, юқоридаги фикрга алоқадор эмас, бу бошқа ҳодиса, бошқа ҳолатдир. Худди шу каби олим келтирган *ўқ илон, ит узум, ит қовун, қўлқоп, шакарқоп, темирчи,* сўзларида ҳам уларнинг тараққиёти ҳисобга олиниши зарур эди. Берилган қўшма сўзларнинг ҳосил бўлишида бирикманинг қўшма сўзга айланиш ҳолати ясалмаликни асосласа, *темирчи* сўзининг кейинги маъноси кўчим асосида шаклланган. Шунга кўра, улардаги ясалган қисмларнинг англатган маъноси йиғиндисидан бошқача бўлиши кузатилади.

Хуллас қилиб айтганда, сўзнинг ясалган эканлигини асослашда унга синхрон аспектда ёндашиш лозимлиги олим томонидан XX асрнинг 50-йилларидаёқ исботланган бўлиб, айрим ўринлари 70-йилларда қайта тўлдирилди, янги қарашлар билан бойитилди ва ишончли тарзда асосланди. Ясовчи асос ва ясовчи восита алоқадорлиги, уларнинг ясалма билан муносабати каби масалаларнинг тўғри ҳал этилиши сўзни ясалган ёки ясалмаган эканлигини билдиради. Ўзбек тилшунослигида бу борадаги қарашлар С.Усмонов, Ш.Раҳматуллаев, А.Ҳожиев, Ё.Тожиевларнинг ишларида янада такомиллаштирилди, чуқурлаштирилди ва давом эттирилди.

**АДАБИЁТЛАР:**


1. Ғуломов А. -ла аффиксининг маънолари ҳақида // УрССН ФА Бюллетени. № 5-6. Тошкент,1946.
2. Ғуломов А. Об аффиксе -ка. бюллетень АН УзССР № 10. Тошкент,1946.
3. Ғуломов А. Об изменении корня в словообразовании//Научная сессия АН УзССР. Тошкент,1947.
4. Ғуломов А. Об суффиксе -дош//елек. Фрунзе. 1946.
5. Ғуломов А. Ўзбек тили морфологиясига кириш. Тошкент:ЎзССР ФА, 1953.
6. ҒуломовА. Ўзбек тилида сўз ясаш йўллари// ЎзССР ФА илмий тўплами. Тошкент, 1949.
7. Ўзбек тили грамматикаси. 1-китоб. Тошкент: Фан, 1975.
8. Ҳозирги замон ўзбек тили//Ф.Камол таҳририда.УзССР ФА, 1957.


## O‘ZBEK TILIDA BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLARNI SINTAKTIK TEGLASHNING NAZARIY ASOSLARI

# THEORETICAL BASES OF SYNTACTIC TAGGING OF COMPOUND SENTENCES IN UZBEK LANGUAGE

**O. Xidirov,**
***Jizzax davlat pedagogika instituti***

**Abstract:** In this article, the development of a system of syntactic tags for compound sentences in Uzbek, as well as models of syntactic tagging of compound sentences that are linked with conjunctions and a system of tags are discussed.

***Keywords****: corpus, parsing program, tagging, syntactic tagging, compound sentences, tagging models.*

Ma'lumki, har bir tilda sintaktik birliklar o'ziga xos harakterga ega. Shu sababli o'zbek tilidagi qo'shma gaplar uchun ham sintaktik teglar tizimini ishlab chiqish talab etiladi. Jahon kompyuter lingvistikasi tajribasida sintaktik teglash muammolari yoritilgan maxsus tadqiqotlar mavjud bo'lmasa-da, ayrim masalalar tahliliga bag'ishlangan maqolalar mavjud. Ammo katta hajmli korpuslar tarkibida ham qo'shma gaplarning teglanmagani – qo'shma gap turlariga oid so'rov-qidiruvni amalga oshirish imkonining yo'qligi hali bu borada qilinishi kerak bo'lgan, yechimini kutayotgan masalalarning ko'pligini ko'rsatadi. Sh.Hamroeva qo'shma gaplarning umumiy teglari haqida quyidagilarni yozadi. "Qo'shma gapning bog'lovchi vositasiga ko'ra "bog'langan QG" = <BQG>, </BQG>, "ergashgan QG" = <EQG >, </EQG>, "bog'lovchisiz QG" = <B-siz QG>, </B-siz QG> turlarini izohlash bunday birliklarni ajratish hamda izohlash uchun alohida belgi vazifasini o'taydi. **Teglash ko'rinishi:**

1) **<B-siz QG>***Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi...***</B-siz QG>.**

2) **<BQG>***Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi.***</BQG>.**

3) **<EQG >, </EQG> .**

Shuningdek, Sh.Hamroeva tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro mazmun-munosabati asosida bog'langan QGlarning bir necha turga bo'linishini ta'kidlagan holda teglar tizimini quyidagicha shakllantiradi:

1) biriktiruv munosabatli BQG = <b.BQG>;

2) zidlov munosabatli BQG = <z.BQG>;

3) ayiruv munosabatli BQG = <a.BQG>;

4) inkor munosabatli BQG = <i.BQG>.

Qo'shma gaplarning mukammal teglar tizimini ishlab chiqish uchun o'zbek tilshunosligida hozirga qadar to'plangan nazariy material va tasniflarga tayanish maqsadga muvofiq. Quyida o'zbek tilida qo'shma gap haqidagi ayrim ma'lumotlarni keltiramiz va teglar tizimi haqida xulosa qilamiz.

Birdan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik va ohang jihatidan birikuvidan tuzilgan gap qo'shma gap deyiladi: *Eshik sekin ochildi-yu* (birinchi sodda gap), *Qalandarovning yuzi ko'rindi* (ikkinchi sodda gap). Sodda gap tarkibida bir grammatik markaz (kesim birligi) ishtirok etsa, qo'shma gap tarkibida birdan ortiq grammatik markaz qatnashadi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gap o'zaro bog'lovchi, yuklama, ko'makchi, fe'l shakli hamda ohang orqali bog'lanadi. Shunga ko'ra, qo'shma gapning 3 turi: bog'langan qo'shma gap; ergashgan qo'shma gap; bog'lovchisiz qo'shma gap farqlanadi. Yuqorida qo'shma gapning bu uch turi Sh.Hamroeva tasnifi asosida teglar sirasiga qo'shilgan.

Ayrim darslikda qo'shma gap bog'lovchi vositasiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi: [Ne'matov,Sayfullaeva,2011:312].

1.Bog'lovchilar: teng bog'lovchilar (*va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yo... yo, dam..., dam...*); ergashtiruvchi bog'lovchilar;

2. Bog'lovchi vazifasidagi vositalar: *bo'lsa, esa, deb; -u, (-yu),- da, -ki* yuklamalari; nisbiy so'zlar; *shuning uchun, shu tufayli, shu sababli* singari ko'makchili qurilmalar; shart mayli qo'shimchasi (*-sa*);

3. Ohang.

Yuqorida ko‘rsatilgan vositalar qo‘shma gap turini avtomatik aniqlashning birlamchi vositasi sanaladi, chunki sintaktik teglash dasturi (parser) sodda gaplar chegarasini ular orasidagi tinish belgi hamda bog‘lovchi vosita orqali aniqlaydi. Bog‘lovchi vosita ohang bo‘lganda, yozuvda tinish belgi bilan ifodalanadi, natijada, sodda gaplar chegarasi topiladi.

*Bog‘langan qo‘shma gaplarni sintaktik teglash.* Qismlari teng bog‘lovchilar, *bo‘lsa, esa* so‘zlari, *-u (-yu), -da* yuklamalari yordamida bog‘langan gaplar bog‘langan qo‘shma gaplar hisoblanadi: *Kechasi qalin qor yog‘di, lekin havo sovimadi.* Tarkibidagi sodda gapning o‘zaro mazmun munosabatiga ko‘ra bog‘langan qo‘shma gap quyidagi turga bo‘linadi. [Ne’matov, Sayfullaeva, 2011:226 ].

1) biriktiruv bog‘lovchisi yordamida BQG;
2) zidlov bog‘lovchilari yordamida BQG;
3) ayiruv bog‘lovchilari yordamida BQG;
4) bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida BQG;
5) inkor munosabatli bog‘langan BQG.

Demak, o‘zbek tilida bog‘langan qo‘shma gaplarning sintaktik teglar tizimiga dastlab <b.BQG>, <z.BQG>, <a.BQG>, <yo.s.BQG>, <i.BQG> kabi belgilar kiritiladi.

Biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda biriktiruv bog‘lovchisi qo‘shma gapning payt, sabab-natija munosabatlarida bo‘lgan qismlarini bog‘lab keladi. Qismlari o‘rtasida sabab-natija munosabati ifodalangan qo‘shma gaplarda qism oldidan natijada so‘zini qo‘yish mumkin bo‘ladi. *-u, -yu, -da* yuklamalari ham biriktiruv bog‘lovchilari bajargan vazifalarni bajaradi: *Mashg‘ulot tugadi va hamma o‘z uyiga tarqaldi. Bahor keldi va o‘z sepini yoya boshladi. Odam qo‘li tegdi-yu, tashlandiq erlarni obod qildi.Chorpoyaning berigi yonida qarigan Abdurahmonboy, uning yonida Abduhakim va Mullasobit nomli ikki katta o‘g‘li o‘tirar* ***va*** *bularning ro‘paralarida, ...tumanning boylaridan bir necha kishi o‘tirmoqda edi* (S.Ayniy). *Majlisning to‘rida tatarcha po‘stin, tatarcha telpak, tatarcha kiygiz etik kiygan qorni katta bir tatar boyi erlashgan* ***va*** *uning yonida sallasini katta qilib qishloq imomi qo‘nqayib o‘tirmoqda edi* (S.Ayniy). *Bularning biri qishlog‘imizning xatibi edi* ***va*** *uning yonida o‘rta bo‘yli qoq gavdali, oriq tusi qoramtil, oqargan o‘rtacha soqolli ikkinchi odam borar edi* (S.Ayniy). *Huryasun ustiga ko‘rpacha to‘shab bobom (eshakka) mindi* ***va*** *meni ham uning orqasiga mingashtirdilar, otam va boshqalar piyoda yurib bog‘ tomon yo‘naldik* (S.Ayniy).

Zidlov bog‘lovchilari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ular o‘rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham ifodalaydi. Zidlov bog‘lovchilari qo‘shma gapning ikkinchi qismi boshida qo‘llanadi hamda qo‘shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi. *-u(-yu), -da* yuklamalari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ular o‘rtasida zidlash, ketma-ketlik munosabati mavjudligini bildiradi: *Yurtimning bu kuni chiroyli, lekin ertasi, indini yana chiroyliroq, baxtliroq bo‘ladi. Havo ochildi-yu, harorat sezilmadi. Yana o‘ylashib ko‘ramiz, har holda so‘zingni erda qoldirmasman,* ***lekin*** *unday nojo‘ya so‘zdan qayt* (Oybek). *Qorinlar to‘ldi, tovoqlar bo‘shadi,* ***lekin*** *so‘fi «savob» bo‘ladi deb, hali ham dasturxonga to‘kilgan gurunchlarni terib, og‘ziga solmoqda edi* (S.Ayniy). *Fathillaboy hovlisiga etdi, hovli darvozasi ochiq,* ***ammo*** *u darvoza oldida bir qizil askar soqchilik qilib turar edi* (S.Ayniy) [Ne’matov, Sayfullaeva, 2011:289 ].

Ba’zan zidlik mazmunini kuchaytirish uchun zidlov bog‘lovchisi hamda-*u(-yu)* yuklamasi birga ishlatiladi: *Kechasi qor yog‘di-****yu, lekin*** *kunduzi darrov to‘xtadi.* Bunday qo‘shma gapda zidlov bog‘lovchisidan oldin, yuklamadan esa keyin vergul qo‘yiladi.

Ko‘rinib turibdiki, zidlov va biriktiruv munosabatli bog‘lovchilar bog‘lagan qo‘shma gaplarni bog‘lashda *-u(-yu)* yuklamalari birdek qo‘llanadi. Bunday paytda bog‘lovchi vosita orqali qo‘shma gap turini aniqlash modellari grammatik omonimiya hodisasiga duch keladi. Shu sababli bunday hollarda qo‘shma gaplarni aniqlashning modellarini quyidagicha shakllantirish lozim.

1. Agar [Wpm] + va/ ham/ -u/ -yu/ -da+[Wpm] bo‘lsa = <a.BQG>. Bunda [Wpm] = sodda gap.
2. Agar [Wpm] + ammo/ lekin/ biroq/ -u/ -yu/ -da + [Wpm] bo‘lsa = <z.BQG>. Bunda [Wpm] = sodda gap.

Bu ikki modelda ham omonimlik yuzaga keladi, natijada avtomatik sintaktik tahlil -u, -yu, -da yuklamalari bilan bog‘langan qo‘shma gaplarni farqlay olmaydi. Buning uchun foydalanuvchi avtomatik tahlil natijasini birma-bir tahlil qilishi kerak. Kelajakda o‘zbek tilining semantik tahlil modellari yaratilsa, shakliy noaniqlik mazmuniy modellar asosida aniqlanishiga erishiladi.

Ayiruv bog‘lovchilari qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ularda ifodalangan voqea-hodisalarning galma-gal ro‘y berishini yoki ularning faqat bittasining yuzaga chiqishini ta’kidlaydi [Abduraxmonov,1976:560]. *Yo (yoki)* bog‘lovchisi yolg‘iz holda ham, takror holda ham qo‘llanilishi mumkin. Qolgan ayiruv bog‘lovchilari takror qo‘llaniladi va yozuvda takror qo‘llanayotgan bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yiladi: *Goh osmonni tutib ashula yangrar, goh allaqaerdan garmon tovushi eshitilib qolar edi.* Ayiruv bog‘lovchisi, odatda, gapning boshida keladi. Takrorlanib qo‘llangan ayiruv bog‘lovchisining keyingisidan oldin vergul qo‘yiladi, bunday bog‘lovchi yakka qo‘llansa, tinish belgisi ishlatilmaydi. Tinish belgilarining bunday qo‘llanishi qo‘shma gap tarkibidagi sodda gapni aniqlashda qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli yuqorida ko‘rsatilgan modellardan farqli o‘laroq, ayiruv bog‘lovchilari bilan bog‘langan qo‘shma gaplar chegarasi tinish va bog‘lovchilar bilan emas, faqat bog‘lovchi vositalar yordamida farqlanadi. Misollarni tahlil qilamiz. *Katta hovuzlardagi suvlarda ko‘lankalar va shu’lalar jim-jim o‘ynashadi, goh ko‘lankalar yonib ketadi, goh shu’lalarni ko‘lankalar yutadi* (Oybek). *Yo podsho biror erga chiqadi, yoki elchi kelishi kutiladi* (Oybek). Misollardan ko‘rinib turibdiki, ayiruv bog‘lovchisi takror kelganda qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar tinish belgi bilan ajratiladi. Model va teglarini quyidagicha belgilash mumkin bo‘ladi:

1. [Goh...Wpm] + [goh...Wpm] bo‘lsa = <a.BQG>.
2. [Yo/yoki...Wpm] + [yoki...Wpm] bo‘lsa = <a.BQG>.

*Bo‘lsa, esa* so‘zlari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga, ular o‘rtasida qiyoslash va zidlash munosabati mavjudligini ifodalaydi. *Bo‘lsa, esa* so‘zlari qiyoslanuvchi bo‘lakdan so‘ng keladi: *Rejadagi zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt etkaza olmayapman, sen bo‘lsa faqat dam olaylik deysan («Gulx.») Kim bo‘lsa bo‘lsin, men esa arxitektor bo‘laman. («G‘un.»)* [Ne’matov, Sayfullaeva, 2011:312 ].

Ko‘rinib turibdiki, bunday gaplardagi bog‘lovchi vositalar [.....sa + ….bo‘lsa/esa ] shaklida joylashadi. Sintaktik modeli va tegni quyidagicha belgilash mumkin: [Wpm...sa] + [bo‘lsa/esa... Wpm] = <yo.s.BQG>.

Inkor munosabatli bog‘langan qo‘shma gap qismi o‘zaro takror qo‘llangan *na* inkor yuklamasi orqali bog‘lanadi; gap orasiga vergul qo‘yiladi: *Na suv bor, na biron emish qolibdi.* Inkor bog‘lovchisi ham, odatda, sodda gapning boshida keladi. [Ne’matov,Sayfullaeva,2011:312].

Model va tegi quyidagicha bo‘ladi: [Na...Wpm]+ [na ... Wpm] = <i.BQG>.

Bog‘langan qo‘shma gap qismlarining o‘zaro aloqasi orqali quyidagi mazmun-munosabatlari ifodalanadi:

1. Qiyoslash munosabati.
2. Biriktiruv munosabati.
3. Ayiruv munosabati.
4. Sabab va natija munosabati.
5. Izohlash munosabati.

Afsuski, korpusning sintaktik belgilar asosidagi qidiruvi yoki sintaktik teglar tizimiga bunday munosabatni ko‘rsatuvchi parametrni kirita olmaymiz. Bog‘langan qo‘shma gaplardagi bunday mazmuniy munosabatni ifodalovchi teglarni ishlab chiqish hozircha imkonsiz. Yuqorida aytilganidek, shakliy vosita (bog‘lovchi vosita va tinish belgi) yordamida bog‘langan qo‘shma gaplardan farqli ravishda, mazmuniy munosabatlarni ifodalovchi birliklarning teglari tizimini ishlab chiqish uchun gaplarni avtomatik referatlash, avtomatik annotatsiya hosil qilish yoki WordNet tizimi bazasi kabi dasturiy vositalarni talab etadi.

**ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbek tili grammatikasi.II tom. Sintaksis. [Mas’ul muharrirlar: G‘. A.Abdurahmonov va boshq.]. – T., «Fan», 1976. – 560 b.

2. Zamonaviy o‘zbek tili: Sintaksis./ Mualliflar jamoasi. Mas’ul muharrirlar H.G‘.Ne’matov, R.Sayfullayeva. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. – Toshkent.: Mumtoz so‘z, 2011. – 312 b. – 106-109.

3. Xamroyeva Sh.M. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD)…dis. – Buxoro, 2018. – 250 b.

4. Hamroyeva Sh., Mengliev B. Til korpuslarini sintaktik razmetkalashning lingvistik asoslari // “Osiyo mamlakatlari tamadduni va ipak yo‘li”. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Samarqand, 2019 yil 21 avgust. – 236 b. – B. 36-39.

## O‘ZBEK TILIDAGI KO‘MAKCHILARNING SEMANTIK - FUNKSIONAL TASNIFI
## SEMANTIC-FUNCTIONAL CLASSIFICATION OF PREPOSITIONS AND POSTPOSITIONS IN THE UZBEK LANGUAGE

**D.Jumashev,**
***TDO‘TAU o‘qituvchisi***

**Annotatsiya**: ushbu maqolada ko‘makchilarning semantik-funksional tasnifi haqida ma'lumotlar berilgan. Ko‘makchilarni semantik jihatdan tadqiq qilish uning gapdagi asosiy mazmunini ochishga imkon beradi. Ko‘makchilarning sabab-natija, maqsad, makon, vaqt kabi ma'nolarini yoritishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** pragmatik, ko‘makchi, qushma gap, qiyosiy, leksik ma’no, gap, bog‘lovchi, funksional-semantik, til birligi.

**Abstract:** the article discusses semantic-functional classification of prepositions and postpositions. This classification of prepositions and postpositions makes it possible to reveal their basic meaning in the sentence. It sheds light on such meanings of these words as cause and effect, purpose, place, and time.

**Keywords:** science figure, participle, paraphrase, comparative, lexical meaning, sentence, conjunction, linguist, language unit.

Ko‘makchilar asosan, morfologik, sintaktik, leksik, pragmatik va semantik xususiyatlariga qarab o‘rganishni toqazo qiladi. Bugungi tilshunoslik yutuqlarini hisobga olib, ularni funksional-semantik jihatdan tadqiq qilishni taqozo qiladi. Zero, ularning leksik-semantik xususiyatlarini hisobga oladigan bo‘lsak ularning tasnifiga e'tiborni qaratmog‘imiz lozim. Ular an'anaviy tilshunoslikda grammatik jihatdan tasnif qilinadi. Bu qarash ularni obyektga bo‘lgan munosabatini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan, ularning transformatsiyasi ham sintaktik - semantik talabga javob berishi kerak. Hozirgi o‘zbek tilida ko‘makchilar gapda so‘zlarni bir - biri bilan bog‘lashda asosan, logik - grammatik jihatdan mavhum tushunchalarni: vaqt, makon, maqsad, sabab, evaz kabi ma'nolarni bildiradi.

Hozirgi tilshunoslikda so‘zning semantik strukturasi semasiologiyada o‘rganilib, eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Til tizimining o‘zaro munosabati va so‘zning semantik tuzilishi hozirgi turli yo‘nalishdagi tadqiqotchilar diqqat markazida turibdi. Shuni alohida e'tirof qilish kerakki, keyingi paytlarda ko‘makchilar semantikasi, stilistikasi bilan bog‘liq maxsus tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Shularni hisobga olib, o‘zbek tilidagi ko‘makchilarning semantik - funksional xususiyatlari haqida to‘xtalish maqsadga muvofiqdir.

Ko‘makchilarning har bir guruhi leksik - grammatik jihatdan bir - biridan ajralib turadi, ammo ular semantik jihatdan bir butunlikni tashkil qiladi. Ularning grammatik va semantik jihatdan bog‘lanishi gap tuzilishida muhim hisoblanadi.

O‘zbek tilidagi mavjud ishlarda ko‘makchilarning funksional-semantik xususiyatlari maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Mavjud ishlarda ko‘makchi va ko‘makchilar birikib kelgan uzvlar ma'no jihatdan tasnif qilinmasdan, ularni boshqaruv xususiyatlariga qarab tasnif qilingan. O‘zbek tilida ko‘makchili boshqaruvga bag‘ishlangan qator ishlarni ko‘rsatish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, F.Abdullayev, F.Ibrohimovalarning monografiyasi [1.24-25.] o‘zbek tilidagi grammatik boshqaruv munosabati so‘z turkumlarining boshqaruvchilik roli nuqtai nazaridan tasnif qilib uni uch asosiy turga bo‘ladi:

1. Ot boshqaruvi (keng ma'noda)
2. Fe'l boshqaruvi
3. Ko‘makchili boshqaruv

Chunki, koʻmakchilar ham (ayniqsa koʻmakchili otlar - funksional koʻmakchilar) oʻzidan oldin kelgan soʻzning ma'lum bir kelishik shaklida boʻlishini talab qiladi. Masalan, sinfdan tashqari, muddatidan ilgari kabi. Bunday misollarni koʻplab uchratish mumkin. Lekin bu masala hali munozarali. Shuning uchun koʻmakchilarning boshqaruv tizimida tutgan oʻrnini, uning boshqaruvchilik xususiyatlarini atroflicha oʻrganmoq darkor [1.24-25.].

Ma'lumki, koʻmakchilar vazifa jihatdan kelishiklarga juda yaqin turishi ular bilan vazifadoshligi ilmiy adabiyotlarda oʻz aksini topgan. Ya'ni ular ham kelihiklar kabi mustaqil soʻzlarning oʻzaro leksik - grammatik munosabatga kirishuvida grammatik vosita boʻlib xizmat qilgan.

Oʻzbek tilida koʻmakchilar vazifasiga koʻra sof hamda funksional koʻmakchilarga ajratiladi.

Mavjud darslik va qoʻllanmalarda koʻmakchilar oʻzining sintaktik vazifasi jihatdan oʻzaro prinsipial farqlanishi koʻrsatiladi. A.N.Kononov ta'biri bilan aytganda «birinchi guruh (asl) koʻmakchilarning ma'nolari oʻzidan oldin kelgan soʻzlarning ma'nolari bilan birgalikda reallashadi, ya'ni ular funksional jihatdan kelishik qoʻshimchalariga yaqin turadi ba'zan ularning oʻrnida kelishi mumkin, ikkinchi guruh koʻmakchilar oʻzlarining mustaqil ma'nolarini toʻla saqlaydi, grammatik jihatdan oʻzgarish xususiyatini yoʻqotmaydi» [2.6-b.].

Kuzatishimizcha, koʻmakchilarning boshqaruv xususiyati haqidagi nazariy fikr va mulohazalar biri boshqasini toʻldirib, natijada bir qolibga tushib qolgan. Aksariyat adabiyotlarda boshqaruv xususiyatiga koʻra bosh, joʻnalish, chiqish kelishiklarini boshqaruvchi koʻmakchilarga ajratiladi [3.238-243.].

Har bir kelishikni boshqaruvchi koʻmakchining oʻzi bogʻlanib kelgan soʻz bilan turli xil ma'no munosabatlari ifodalanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, bir koʻmakchining turli hil semantik-funksional hususiyatini koʻrsatish mumkin. Buni tilning faktik materiallari misolida koʻrish mumkin. Masalan, bilan koʻmakchisining vosita-qurol, sabab, maqsad, qiyoslash, oʻxshatish, birgalik-hamkorlik, vaqt - payt kabi ma'nolarni anglatishini kuzatamiz.

Ularning faol yoki nofaol qoʻllanishi haqida har bir til faktik materiallari misolida statistik ma'lumot olindi.

Ma'lumki, turkiyshunoslikda xususan, oʻzbek tilshunosligida sabab-natija bilan bogʻliq qator ishlarni koʻrsatish mumkin. Lekin oʻzbek tilidagi koʻmakchilar boʻyicha qiyosiy jihatdan maxsus tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Oʻzbek tilshunosligida A.N.Amirova, S.Gʻoyibovlarning nomzodlik dissertatsiyalari bevosita sabab munosabati bilan bogʻliq ishlardir. A.N.Amirovaning dissertatsiyasida sabab va maqsad hollarining morfologik xususiyati, semantik tasnifi, gapda sabab va maqsad holining sintaktik aloqasi orasidagi bogʻlanishni tadqiq qilgan. Otlar koʻmakchi va koʻmakchi otlar bilan bogʻlanganda sabab holi vazifasida keladi. Oʻzbek adabiy tilida sabab holi koʻmakchili uzvli otlar bilan ifodalanadi. Bu uzvlar koʻproq uchun, tufayli, bilan, sababli, yuzasidan, orqasida kabi koʻmakchilar bilan kelib, sabab ma'nosini bildiradi [4.24-25.].

Sabab - natija hosil qiluvchi vositalardan biri koʻmakchilar hisoblanadi. Lisoniy adabiyotlarga nazar tashlaydigan boʻlsak keyingi yillarda koʻmakchilarga qiziqish va oʻrganish ortib bormoqda.

Oʻzbek tilida sintaktik aloqaning turli yoʻllar bilan ifodalanishi ta'kidlanadi. Sintaktik aloqa ifodalashda boshqa vositalar singari koʻmakchilar ham katta oʻrinni egallaydi. Koʻmakchi ishtirok qilgan gaplar sintaktik aloqadan tashqari, turli xil semantik munosabatlarni ham ifodalaydi.

Koʻmakchili birikmalar koʻpincha ish - harakat bajarilishida vosita boʻlgan predmetni, ob'yektni koʻrsatish bilan birga ish - harakatning bajarilish holatini, sababini, paytini, oʻrnini va yana sub'yektning maqsadini, niyatini bildirib keladi. Bunday birikmalar gapda asosan toʻldiruvchi va hol sintaktik pozitsiyasida keladi. Shuning uchun koʻmakchi ishtirok qilgan gaplarning semantik-funksional xususiyatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Oʻzbek tilshunosligida koʻmakchilar presuppozitsiyasi bilan bogʻliq koʻpgina masalalar haligacha oʻz yechimini kutmoqda.

Koʻmakchilar soʻzlar orasidagi grammatik munosabatni ifodalabgina qolmay, ergash soʻzning hokim soʻzga tobeligini koʻrsatuvchi leksik - grammatik vosita boʻlib ham xizmat qiladi.

Koʻrinadiki, koʻmakchilar kelishiklar singari soʻzlar orasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydigan grammatik vositalardan biridir. U ot, olmosh yoki otlashgan soʻzlarning boshqa soʻzlarga asosan, fe'lga bogʻlanishini koʻrsatadi. Koʻmakchilar, ikkinchi tomondan kelishiklarning ma'nosini toʻldiradi. koʻmakchilarning bu ikki xil vazifasi faqat sintaktik uzvlardagina - koʻmakchi uzvlarda ayon boʻladi.

Shuni ta'kidlash joizki, koʻmakchili soʻz birikmalari sinonimini oʻzaro tuzilish jihatdan farq qilmasa ham, sinonimik munosabatni ifodalovchi soʻz birikmalarining biri oʻz ma'nosi va uslubiy boʻyogʻi jihatdan ikkinchisidan farq qilishi aniq. Koʻmakchili uzvlar sinonimiyasini yoritishda ularning quyidagi xususiyatlarini inobatga olish kerak:

1. Soʻz birikmalari orqali anglashilgan ma'nolar asosida koʻmakchilarni guruhlash va shu guruhdagi sinonim boʻladigan koʻmakchilarni aniqlash, shuningdek, ularni sinonim qatorga birlashtirish koʻmakchi uzvlar sinonimiyasi uchun muhimdir. Shuni alohida aytish kerakki, ularni ma'no guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq. Masalan: a) oʻrin bildiruvchi koʻmakchilar: sari//tomon, oldida//yonida, b) payt bildiruvchi koʻmakchilar: beri//buyon, ilgari//burun//avval//oldin, keyin//soʻng, v) sabab bildiruvchi koʻmakchilar uchun: uchun//sababli, g) vosita - qurol: bilan va b.

2. Soʻz birikmalarida muayyan bir sintaktik munosabatni ifodalovchi sinonim koʻmakchilar oʻrni bilan boshqa sintaktik munosabatni ifodalashi mumkin. Masalan, qadar//dovur koʻmakchilari oʻrni hamda payt munosabatini ifodalaydi: maktabga qadar (oʻrin, chegara), bahorga qadar (payt).

3. Soʻz birikmalarida sinonimik qatordagi koʻmakchilar bir sinonimik munosabatni ifodalasa, boshqa holatda shu sinonimik qatordagi bir koʻmakchi boshqa munosabatni ifodalaydi. Masalan: uchun, sababli koʻmakchilari sabab hamda maqsad ma'nosini ifodalash uchun qoʻllaniladi.

Demak, koʻmakchili uzvlarning sinonimiyasi sintaktik sinonimiyaning bir koʻrinishidir.

Koʻmakchilar gapdagi mazmunga koʻra koʻp ma'noli va koʻp qirralidir.

Til birliklarining munosabatiga kirishuvi jarayonida boshqa hodisalar qatorida bir-biriga yaqin tushunchalar va sintaktik konstruksiyalar tugʻila boshlaydi. Ana shular orasida koʻmakchili konstruksiyalar funsional-semantik jihatdan alohida oʻrin tutadi.

Koʻmachili konstruksiyalar toʻldiruvchi va hol sintaktik pozitsiyalarda turli semantik-funksional holatlarda qoʻllaniladi. Koʻmakchilar ot yoki otlashgan soʻzlarning boshqa soʻzga asosan, fe'lga bogʻlanishini koʻrsatadigan leksik-grammatik vositalardan biridir. Koʻmakchilar ikki xil vazifani oʻtaydi: birinchidan, oʻzidan oldingi soʻzning oʻzidan keyingi soʻzga boʻlgan sintaktik munosabatini ifodalasa, ikkinchidan, kelishik qoʻshimchasining ma'nosini toʻldiradi, kuchaytiradi. Shu keyingisidan koʻmakchili konstruksiya shakllanadi [5.210 b.].

Koʻmakchilar soʻzlar orasidagi grammatik munosabatni ifodalabgina qolmay, ergash soʻzning hokim soʻzga tobeligini koʻrsatuvchi leksik-grammatik vosita boʻlib ham xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, koʻmakchilar kelishiklar kabi soʻzlar orasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydigan grammatik vositalardan biridir. U ot, olmosh yoki otlashgan soʻzlarning boshqa soʻzlarga, asosan, fe'lga bogʻlanishini koʻrsatadi.

История узбекской лексикографии начинается со знаменитого «Девону луғотит турк» XI века Махмуда Кашгари. Словарь не только описываетслова и их значения, но и содержит обширную информацию об истории, обычаях и географическом положении тюркских народов. Считается, что это один из первых двуязычных (тюркско-арабский) толковых словарей. Другой соотечественник, Махмуд Замахшари, написал свой труд «Асос ул-балоға» и свой четырехязычный (арабский, персидский, узбекский, монгольский) словарь «Мукаддимат ул-адаб» (XII век). Внес большой вклад в развитие как практических, так и теоретических знаний. лексикографии[www.ziyouz.com].

XX век занимает особое место в истории узбекской лексикографии. За это время было создано множество терминологических словарей, учебных и орфографических словарей, двуязычных и трехъязычных словарей различного назначения. Особое место в нем занимают

русско-узбекские и узбекско-русские словари, а также словари для сравнительного изучения узбекского с другими европейскими и иностранными восточными языками. Важнейшие из них - «Краткий русско-узбекский словарь» Е.Д. Поливанова, 2-томный «Русско-узбекский совершенный словарь» А. Захири, «Краткий узбекский-русский словарь» К.К.Юдахина, «Узбекско-русский словарь» У.Ахмаджанова и Б.Илёзова, «Русско-узбекский полный словарь» С. Рахматия и А. Кодырий, «Краткий узбекско-русский словарь»В.В. Решетова. В начале 1940-х годов были созданы и изданы «Узбекско-русский словарь» на 17 000 слов (Ташкент, 1941) и «Русско-узбекский словарь» на 30 000 слов (Ташкент, 1942). Эти словари под редакцией профессора Т.Н. Кори-Ниязи и профессора А.К. Борокова были более совершенными, чем ранее опубликованные словари, как по содержанию, так и по полноте словарных статей. Эти словари, в частности, стали основой для создания первого аннотированного словаря узбекского языка «Узбекско-русский словарь», изданного в 1959 году, и составили его научную основу. Эти словари обобщили опыт узбекской лексикографии, впервые описали лексико-семантическую систему современного узбекского языка и нормы, сформированные в XX веке.

Составленный и изданный А.Захири в 1927 году двухтомный «Русско-узбекский совершенный словарь» стал основой для последующего развития двуязычных словарей в Узбекистане. На сегодняшний день создано множество переводческих словарей, сравнивающих узбекский примерно с 10 иностранными языками, создано более 100 терминологических словарей на одном, двух и трех языках. Впервые в истории узбекского народа составлен и издан «Толковый словарь узбекского языка»(1981 г.). Ученые-лингвисты А.Зохирий, А.Кодырий, Е.Д. Поливанов, А.К. Боровков, В.В. Решетов, С.Иброхимов, ОлимУсмон, З.Маруфов, Ш.Т. Рахматуллаев, Н.Маматов, А.Ходжиев, Т.Аликулов и другие внесли свой достойный вклад в развитие узбекской лексикографии [https://uz.wikipedia.org/]. Сегодня перед узбекской лексикографией стоит задача создать энциклопедические и лингвистические словари более обширного охвата всех сфер, отвечающие требованиям новой эпохи, в которой значительное место имеет экономика, рыночные отношения, техника и информационные технологии.Узбекская лексикография нуждается в создании терминологических словарей различного профиля, филологических, энциклопедических, толковых и фразеологических словарей, так как словари всегда были и останутся неотъёмлемой частью культуры нации.

**ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**


1. Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии // Языковая система и речевая деятельность -М.: Наука, 1974. — 428 с.
2. Mengliyev B va b.Ona tili.Qomus. –T.:, 2009. – 270 b.
3. https://hozir.org/leksikografiya-lugatshunoslikni-organuvchi-fan.html
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Leksikografiya
5. www.ziyouz.com.


## INGLIZ LUG‘ATCHILIGINING AYRIM YUTUQLARI XUSUSIDA
## ON SOME SUCCESSES ASPECTS OF ENGLISH LEXICOGRAPHY


***A.Abdullayev***

***O‘z Res VM huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi direktor o‘rinbosari***



**Abstract:** the article discusses the achievements of English lexicographers in the 20th century and presents principles of lexicography implemented in new types of dictionaries complied during the century. Specifically, the author of the article describes the contribution of monolingual, explanatory dictionaries, and specialized dictionaries to the development of English lexicography.



***Key words:*** *educational lexicography, explanatory dictionary, polyfunctionality, polysemantic, microsystem, category of manner.*

Аҳолиси инглиз тилида сўзлашувчи давлатлар ўтган аср давомида халқаро иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ва маданий жабҳаларда етакчилар сирасига кирди ва бу инглиз тили мавқеига ҳам ижобий таъсир ўтказди. Натижада, инглиз тили жаҳон тиллари сирасида эътироф этила бошланди. Бироқ инглиз тилининг жадал суръатда оммалашуви нафақат маълум мамлакатларнинг етакчи сиёсий ва иқтисодий ўрни сабабли, балки ушбу тилда яратилган дарслик, қўлланма ва луғатларнинг бошқа жаҳон тилларидаги материалларга нисбатан сезиларли устуворликларга эга бўлганлиги сабабли амалга ошди. Ўтган аср ярмидан эътиборан замон талабларига мувофиқ инглиз лексикографиясида янги бўлим – ўқув лексикографияси пайдо бўлди. Ўқув лексикографияси луғатчиликнинг муҳим йўналиши бўлиб, у ўзида тил педагогикаси ва инглиз тилини чет тили сифатида ўқитиш методикасининг ривожланишидаги барча муҳим тенденцияларни акс эттиради [Bukin, 2014:10].


Албатта, кўплаб тиллар қатори инглиз луғатчилиги ҳам чуқур тарихга эга ва у асрлар давомида изчил тараққий этди. Инглиз тилшунослари асрлар давомида луғатчиликка алоҳида аҳамият бериб, луғатларни тилшунослик фанининг амалий натижаси ва ютуғи сифатида баҳолашган. Умуман олганда, ўрта асрдан эътиборан инглиз тилшунослари, хусусан, луғатшунослари ўз замоношларидан сезиларли даражада олдинда бўлганлиги сабаб барча тил ҳодисаларини ўрганиш ва таҳлил қилишдаги янгиликлар, илғор ғояларни аксарият ҳолларда инглиз тили материали асосида тадбиқ этишди. Хусусан, инглиз лексикографиясининг илк йирик ютуқларидан бири сифатида XVII аср бошида Р.Кодри томонидан тартибга солинган “A Table Alphabetical” луғатини эътироф этиш мумкин. Ушбу луғат инглиз тилида яратилган биринчи бир тилли изоҳли луғатдир, унинг таркибига икки мингдан ортиқ лексемалар жамланган [https://en.wikipedia.org/wiki/Table_Alphabeticall]. Ушбу изоҳли луғат бугунги кунда бизга маълум лексикографик тамойил ва талабларга тўлақонли мос келмайди. Бироқ кейинчалик Самуэль Жонсон раҳбарлигида тартибга солинган “A Dictionary of the English Language” [https://en.wikipedia.org/wiki/A_Dictionary_of_the_English_Language] изоҳли луғатини ўзининг шаклий параметрларига кўра замонавий изоҳли луғатларга яқин туради дейиш мумкин. Муаллифнинг сўзларни изоҳлашда умумхалқ нутқидан олинган мисоллардан фойдаланганлиги ушбу луғатнинг нафақат мутахассислар, балки кенг жамоатчилик томонидан эътироф этилишига сабаб бўлди. Ўтган аср бошларида эса “Оксфорд қомусий изоҳли луғати” [https://www.worldcat.org/title/oxford-english-dictionary/oclc/59112453] яратилди ва ушбу луғат ўз даврининг энг йирик луғатларидан бири эди. Ўз таркибида тўрт юз мингдан ортиқ лексемаларни қамраб олган ушбу луғат бир неча бор кенгайтирилиб қайта нашр этилди. Бугунги кунга келиб яратилган изоҳли, таржима ва ўқув луғатларининг аксарияти айнан Оксфорд изоҳли луғати наъмунаси асосида тартибланган.

Юқорида таъкидланганидек, ўтган аср ярмидан бошлаб инглиз тилининг ўқув изоҳли луғатларини яратиш инглиз луғатшунослари эътибор марказида бўлди. Бироқ, ўқув луғатларини яратиш зарурати хақидаги фикрлар бундан анча аввал ҳам мавжуд бўлган. Албатта, ўқув луғатлари йирик изоҳли луғатлардан фарқ қилади ва бу, айниқса, луғатларнинг микроструктуралари [ Hartmann., James:1998], яъни миркотизимларида яққол кўзга ташланади.

Баъзи луғатшунослар фикрича, ўқув луғатлари ва изоҳли луғатлар орасида деярли ҳеч қандай тафовут мавжуд эмас. Жумладан, тилшунос В.Г.Гак фикрига кўра “ҳар бир луғат ўқиб ўрганишга мўлжалланган, дидактик аҳамиятга эга асардир” [Гак, 1977:12]. Ўқув луғатлари ва изоҳли луғатлар орасидаги шаклий ва мазмуний фарқларни тамомила инкор этиб бўлмайди. Хусусан, ўқув луғатларида сўзлар транскрипцияси, талаффузи келтирилади. Изоҳли луғатларда эса транскрипциялар келтирилмайди. Ўқув луғатларида сўз изоҳи нисбатан қисқа, мисолларга катта аҳамият қаратилади. Луғатлар инглиз тилини хорижий тил сифатида ўрганувчи аудиторияга мўлжалланганлиги сабаб сўзлар тил билиш даражасига кўра тартибланган. Юқорида мисол сифатида берилган тўртта луғат мақола ҳозирда энг йирик қомусий изоҳли луғатлардан бири хисобланган “Вебстер луғати”дан олинган. Ушбу

луғатнинг бошқаларидан фарқли жиҳати унда лексемаларнинг амалда қўлланишига оид маълумотлар кўпроқ келтирилади. Webster Dictionary of English Usage ўз яратувчилари томонидан қомусий изоҳли луғат дея таърифланади. Яъни, ушбу луғат бевосита тил ўрганувчилар аудиториясига мўлжалланмаган. Ундаги микротизимлар, яъни луғат мақолалари барчамизга маълум бўлган изоҳли луғат мақолаларидан шаклан ва мазмунан фарқ қилади. Луғат мақола анъанавий тарзда изоҳланаётган сўз билан бошланади. Таржима ёки ўқув изоҳли луғатларидан фарқли равишда ушбу луғатда сўзнинг транскрипцияси келтирилмайди. Шунингдек, деярли барча луғатлар учун ўзгармас умумий жиҳат ҳисобланган лексеманинг грамматик категориясига оид маълумот, яъни грамматик категориянинг қисқартмаси келтирилмайди. Шундай қилиб, ушбу луғатда асосий лексемадан кейин унинг қўлланишига оид маълумотлар берилади. Сўзнинг қўлланишига оид тавсиялар бадиий ёки бошқа тур адабиётлардан олинган мисоллар ёрдамида далилланади. Қолаверса, мақолаларда лексеманинг қайси предлоглар билан бирикиши ва натижада қандай янги маънолар ҳосил бўлишига оид маълумотларга ҳам катта ўрин ажратилган. Бу каби изоҳли луғатларда асосан сўз изоҳига урғу берилади, аксарият ҳолатларда сўз изоҳи билан бир қаторда унинг этимологиясига ҳам алоҳида тўхталиб ўтилади. Баъзи йирик изоҳли луғатларда сўзларнинг синонимлари, кўчма маънолари ва услубий вазифадошлари ҳам келтирилиши мумкин.

Ўқув луғатларига тўхталар эканмиз, уларнинг қомусий изоҳли луғатларга ўхшаш ва айнан деган фараз янглиш эканлигини айтиб ўтиш ўринли бўлади. Масалан, Cambridge Learners Dictionary [https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/overcome] ўқув луғатидан олинган қуйидаги луғат мақолаларга эътиборимизни қаратайлик:



flow *verb* [I] (CONTINUE)

to continue to arrive or be produced:

- *Please keep the money flowing **in**!*
- *Offers of help are flowing **into** the disaster area from all over the country.*
- *My **thoughts** flow more easily if I work on a computer.*
- *By eleven o'clock, the **wine** was starting to flow.*
- *After they'd all had a drink or two, the **conversation** began to flow.*

drop

*verb*

UK /drɒp/ US /drɑːp/


-pp-

drop *verb* (FALL)

B1 [ I or T ]

to fall or to allow something to fall:

- *She dropped her keys.*
- *I'm always dropping things.*
- *Amanda dropped her sunglasses **in/into** the fountain.*



manage
verb
UK /ˈmæn.ɪdʒ/ US /ˈmæn.ədʒ/

manage verb (SUCCEED)
B1 [ I or T ]
to succeed in doing or dealing with something, especially something difficult:
• [ + to infinitive ] Did you manage to get any bread?
• I only just managed to finish on time.
• A small dog had somehow managed to survive the fire.
• I can't manage all this work on my own.
• Don't worry about us - we'll manage!
• mainly UK I'm afraid I can't manage the time (= to find enough time) to see you at the moment.
[ I ]
to succeed in living on a small amount of money:
• After she lost her job, they had to manage on his salary.

flow noun (CONTINUOUS NUMBER)
[ C usually singular ]
a regular and quite large number of something:
• There's been a steady flow of visitors.
[ S ]
a situation in which something is produced or moved continuously:
• the flow of ideas/information

overcome
verb
UK /ˌəʊ.vəˈkʌm/ US /ˌoʊ.vəˈkʌm/
overcame | overcome

overcome verb (DEAL WITH)
B2 [ I or T ]
to defeat or succeed in controlling or dealing with something:
• Juventus overcame Ajax in a thrilling game.
• to overcome difficulties/obstacles/problems/resistance
• Eventually she managed to overcome her shyness in class.
• 20,000 demonstrators sang "We shall overcome" as they marched through Washington.
More examples
• Their resolute opposition to new working methods was difficult to overcome.
• The plan was designed to help women and minorities overcome discrimination in the workplace.
• He overcame all obstacles in his path to the top.
• What are the prospects for overcoming the strife between the Christian minority and Muslim majority?
• This film reveals their resourcefulness in overcoming appalling weather and treacherous terrain.

drop verb (LOWER)
B2 [ I or T ]
to move to a lower level, or cause something to move to a lower level:
• The water level in the flooded region has finally begun to drop.
• The land drops (away) (= slopes down) sharply behind the barrier.
• We had to drop our prices because of the recession.

Қомусий луғатлардан фарқли ҳолда ўқув луғатларида сўзнинг изоҳи лўнда ва содда бўлади. Бундай луғатларда лексикографлар, асосан, сўзнинг нутқда қўлланишига оид мисолларга урғу беришади. Юқоридаги мисоллар тарз маъносини ноаниқ ифодаловчи ҳаракат феълларидир. Уларга берилган биринчи изоҳда тарз маъноси англашилмайди, ҳолбуки кейинги изоҳ ва мисолларда лексеманинг тарз маъноси яққол ифодаланади. Гарчи ўқув изоҳли луғатларда сўзлар қисқача изоҳланса-да, ўқув изоҳли луғат микротизимлари сўзнинг барча маъноларини қамраб олишга интилади ва бу устиворлик, айниқса, полифункционал ва полисемантик феъллар мисолида яққол кўзга ташланади.

Англашилганидек, анъанавий луғатчиликда инглиз тилшунослиги ўзига тенг мавқега эга бошқа жаҳон тилларининг луғатчилик мактабларидан илгарилаб кетган. Бугунги кунга келиб инглиз тилидаги луғатлар қомусий изоҳли луғатлар, ўқув луғатлари, мутахассислик луғатлари каби уч йирик гуруҳга ажратилади. Булардан ташқари, таржима луғатлари ҳам мавжуд ва бундай луғатлар нафақат инглиз тилида ўз она тилиси сифатида сўзлашувчи луғатшунослар томонидан, балки чет эллик мутахассислар томонидан ҳам тузилаётгани алоҳида эътиборга сазовордир.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Букина В.А. Современная английская лексикография. – Москва, 2014. -С.10.
2. Гак Г. Актуальные проблемы учебной лексикографии. – Москва, 1977. – С.12.
3. R.Hartmann., James G. Dictionary of Lexicography. – London, NY, 1998.
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Table_Alphabeticall
5. https://en.wikipedia.org/wiki/A_Dictionary_of_the_English_Language
6. https://www.worldcat.org/title/oxford-english-dictionary/oclc/59112453
7. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/overcome

# IKKI TILLI TARJIMA DASTURLARINI YARATISHNING LINGVISTIK ASOSLARI
# LINGUISTIC BASIS OF CREATING BILINGUAL TRANSLATION PROGRAMS

***K.Rixsiyeva,***
***ToshDO‘TAU o‘qituvchisi***
***D.Radjabov, J.Temirov, M.Uzoqova***
***ToshDO‘TAU 4-kurs talabalari***

**Abstract:** This article discusses current problems of machine translation programs, computer linguistics . It also analyzes advantages and disadvantages of the programs, and gives information about the program that will be created basing on this.

***Key words****: computer linguistics, program, machine translation, bilingual translation program, the box.*

XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari taraqqiyoti tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Insoniyat tomonidan qo‘lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish, demokratiya, qonunchilik, adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish O‘zbekistonni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirishga zamin yaratadi. Globallashuv jarayoni barcha sohalarda tezkorlikni, tez sur’atlar bilan rivojlanishni talab etmoqda. Texnika taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan kompyuter tizimi barcha sohalarda qulayliklar yaratadi, ma’lumotlarning tezkor yetkazib berilishini, tarjima, tahrir jarayonlarining qisqa muddatlarda amalga oshirilishini, turli millatga mansub muloqot vakillari o‘rtasida vosita sifatida xizmat qiluvchi sun’iy til, ya’ni axborot-kompyuter uslubining shakllanishini ta’minlaydi. [Xolmonova, 2019:8]


Shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatimizda tarjima lug‘atlariga ehtiyojning ortishi tabiiy. Xususan, inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlarga ham talab shunday katta. Hozirda, albatta, bunday manbalarni yetarlicha topish hamda ulardan unumli foydalanish mumkin. Ammo electron tarjima masalasida bunday deyish qiyin. Chunki hozirgi kunda to‘laqonli tarjima masalasi hali yechimini topmagan, bir qancha tilshunoslar tomonidan nazariy va amaliy tadqiq etilmoqda.

Ikki tilli-bilingual dasturlar ham yaratilgan, ammo biz ular orqali so‘z yoki matnlarni tarjima qilganimizda ayrim muammolarga duch kelamiz. Bunday muammolar yechini topish uchun mukammal dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Ularning amaliy ahamiyati va samarasi foydalanuvchini, albatta, qoniqtirishi zarur.

Hozirda mavjud dasturlarning aksariyati matnni yoki gapni so‘zma-so‘z tarjima qiladi. Bu holatda gapning mazmunida anglashilmovchlik yuzaga keladi, albatta. Bunda bizning imkoniyatlarimiz chegaralanib qoladi. Agar iboralar va maqollar shunday tarjima qilinsa, maqsadimizga erisha olmaymiz.


Ushbu dasturda „So‘zlar bazasi yoki qutisi’’ yaratiladi va bu qutida har bir so‘zga yaqin ma’noli sinonimlar, shu so‘z bilan teng ma’no anglatuvchi iboralar hamda maqollar qatori jamlanadi, ya’ni ularning hammasi bir qutida joylashadi. Shunday tartibda har bir so‘zning alohida qutisi mavjud bo‘ladi. Bunday holatda tarjimonning imkoniyatlari ortadi, foydalanivchi amaliy natijaga erisha oladi.

Biz tarjimon dasturimizga tarjima uchun kerakli matnni joylashtirganimizda quyidagi ko‘rinish ekranda namoyon bo‘ladi:



Ekrandagi kichik qizil belgilar qutilardir. Qizil belgilar ustiga sichqoncha tugmasi olib borib bir marta bosilsa, shu so‘zning o‘z qutisi ochiladi. Foydalanuvchi, ya’ni tarjimon uchun esa bu imkoniyatlar eshigi demakdir.

Masalan, ***qilgan*** so‘zining yonidagi qizil begiga sichqoncha tugmasi bosilsa, shu so‘zning sinonimik qatori darhol ekranga chiqadi.





Deylik, dasturimizga *“U meni aldadi”* degan gap kiritildi. Bu gap ingliz tiliga *He lied me* deb tarjima qilinadi. Lekin biz bu gapni qayta sayqallasak bo‘ladi. Sichqonchani ***„aldadi”***ning oldiga olib boramiz va *aldamoq* so‘zining qutichasida quyidagi birliklarlar bo‘lishi mumkin:

| |
|---|
| aldamoq |
| yolg‘on gapirmoq |
| chuv tushirmoq |
| laqillatmoq |
| kiydirib ketmoq |
| qulog‘iga lag‘mon osmoq |

Agar biz *aldamoq*ni boshqa birlik bilan almashtirmoqchi bo‘lsak, qutining ichidan tanlaymiz va shunchaki sichqonchani uning ustiga olib borib bosamiz, xolos.

*Yolg‘on gapirmoq*ning oldiga sichqoncha olib borilsa, (xuddi wikipedia dasturida biror so‘z ko‘k rangli bo‘ladi. Sichqoncha olib borilsa, o‘sha so‘z izohlari bir ochiladi sichqoncha uzoqlashsa, yana avvalgi holatiga kelib qoladi.) o‘sha so‘zning ma’nosi ekranda paydo bo‘ladi.

Ma’salan, *qulog‘iga lag‘mon osmoq* birligi ustiga sichqoncha olib borilsa quyidagicha holat paydo bo‘ladi:




Komtyuter lingvistikasiga oid ilmiy adabiyotlarda avtomatik tarjimada sinonimik qatorlar bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar alohida ta’kidlanadi Ko‘p sonli sinonimik qatorlardan asosiy atama – deskriptorni tanlab olish muammosi ham qiyin kechmoqda, chunki kundan kunga yangi tushunchalar va ularga mos keluvchi atamalar paydo bo‘lib borishi va ularni o‘zlashtirish asosiy muammo bo‘lib kelmoqda. [Xolmonova, 2019:114]

Shunday muammolarning oldini olish uchun ham yaratilajak bu dastur “Yarim tarjimon” deb ataldi. Chunki dasturdan foydalanishda foydalanuvchiga mos birliklarni tanlab olish imkoniyati

beriladi. Albatta, bunday amaliy ahamiyati nisbatan yuqori hisoblangan tarjima dasturlariga hozirda ehtiyoj mavjud. Ammo bu katta hajmli ish bo‘lganligi sababli uni amalga oshirish bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ular quyidagilardir:

1. Ikki tildagi so‘zlarning to‘g‘ri tarjimasi.

2. Har bir so‘zning qutilarini to‘g‘ri shakllantirish (ingliz tilidagi kerak so‘z va idioma, phrasal verbs - hammasi bor). Qutiga iboralar va maqollar ham kiritilishi zarur.

3. Grammatika, ya’ni ikki til Grammatik ko‘rsatkichlari va qoidalaridagi mutanosiblikni saqlash. (bizdagi fe’llar ham xuddi ingliz tilidagi kabi moslanadi. 16 ta zamon kategoriyasi bo‘yicha)

4. Avtomatik tarjimada samaradorlikning yuqori bo‘lishiga tabiiy tillarning ayrim jihatlari – polisemiya (ko‘p ma’nolilik), omonimlik, frazeologizmlar, idiomalar, paremalar, troplar to‘sqinlik qiladi. Shularni istisno qilganda, hozirda avtomatik tarjima yo‘nalishida yuqori samaradorlikka erishilgan. Hatto hozirda faqat avtomatik tarjima yo‘nalishiga bag‘ishlangan saytlar ham yaratilgan. Bu avtomatik tarjimaning keng qamrovda taraqqiy etayotgan yo‘nalishlardan ekanligini ko‘rsatib turibdi. [Xolmonova, 2019: 117]

Tabiiyki, avtomatik tarjimada lingvistik omil, xususan, lug‘atlarnig ahamiyati katta. bu jarayonda izohli lug‘atdan foydalanamiz. Lekin, shuni ham e’tiborga olish kerakki, lug‘atlarda aks etmagan so‘zlar ham mavjud. Dasturda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatoliklar shu bilan ham bog‘liqdir. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

A) Shevaga xos so‘zlar yoki umuman lug‘at bazasiga kirmagan so‘zlar

(Dastur o‘z lug‘at bazasiga begona so‘zni darxol taniydi. Va uni bazaga kirmay qolgan so‘zlar ro‘yxati tabelida chiqarib beradi.)

Yaratilajak “Yarim tarjimon” dasturidan foydalanuvchiga qulay bo‘lishi uchun dasturga notanish so‘znig yonidagi qizil tugma bosilsa, o‘sha so‘zning ma’nosini topish uchun zarur biror ijtimoiy tarmoq chiqadi (avtomatik tarzda.) va shu tarmoqlardan uning ma’nosini izlash mumkin.

B) Iboralar, maqollar. Masalan, aravani quruq olib qochmoq degan ibora. Ushbu ibora to‘g‘ri tarjima qilinishi uchun foydalanuvchi shu iborani belgilashi kifoya. Chunki iboralar anglatadigan ma’nosiga qarab so‘z qutilariga joylab qo‘yilgan bo‘ladi.

Tarjima qilingan fe’l qaysi zamonda bo‘lsa shu fe’l qutisidagi unga sinonim fe’l va iboralar ham aynan o‘sha shaklni olgan holda ekranda paydo bo‘ladi.

Ya’ni asosiy fe’l moq qo‘shimchasini olgan holda qidirilsa, qolgan unga ma’nodosh fe’llar ham moq qo‘shimchasini olgan holda ekranda paydo bo‘ladi.

C) Omonimlar muammosi. Omonimlarni komputerga tushuntirish uchun o‘zbek tilidagi har bir omonim individual ishlab chiqiladi. Shunda komputer ularni „taniydi’’. masalan olma. Men olma yedim. Bu yerda olma so‘zini farqlash uchun komputerga alohida buyruq beriladi. Yemoq fe’l olma ot va yemoqqa bog‘lanmoqda. Demak bu yerda gap apple haqida bormoqdaligini komputerga „tushuntiriladi’’. shunday qilib har bir omonim alohida ishlab chiqiladi.

Dasturning amaliy ahamiyati zamon talablariga to‘liq „javob bera oladi’’. Ushbu dastur foydalanuvchiga katta qulayliklar beradi. Ayniqsa, tarjima sohasiga. Muhimi kompyuter grammatikada xato qilmaydi. So‘zlarni terish esa foydalanuvchi ixtiyorida bo‘ladi. Qaysi so‘zni qo‘yishni o‘ylab o‘tirgandan ko‘ra shunchaki qizil tugma bosiladi va o‘sha so‘z bilan almasha oladigan so‘zlar shu so‘zning “qutisida” paydo bo‘ladi.

Hozirgi kunda inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-inglizcha kompyuter tarjimasi dasturlari juda katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, ingliz va o‘zbek tillari leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan tubdan farq qiladi. Lekin ularning o‘rtasidagi mushtaraklikni aniqlash mumkin. Bugungi kunda Grammatik xususiyatlar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish uchun rus tili vositasida ingliz tilidan o‘zbek tiliga avtomatik tarjima qiluvchi dasturlarning versiyalari e’lon qilingan.

Tadqiqotchilar tomonidan vositachi tilsiz ham tarjima qiluvchi dasturlar yaratilmoqda va taklif qilinmoqda. Ularni mukammal shaklga keltirish davomli jarayon hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Пўлатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – 520 б.

2. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr. 2011. – 160 b.
3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Т.: Ўқитувчи, 1978
4. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. T., 2019

## ELEKTRON LUG‘ATLARNING AFZALLIKLARI
## ADVANTAGES OF ELECTRONIC DICTIONARIES

***Sh. Qulbulov***
***Toshkent DO‘TAU o‘qituvchisi***

**Annotation.** In this article, the author's aurim comments on computer lexicography, electronic dictionaries, the process of creating electronic dictionaries, automatic compilation of dictionary entries, storage and processing of dictionary information, the possibility of processing texts, as well as the stages of the creation of electronic dictionaries are described.

***Key words:*** *computer lexicography, digital and printed dictionary, hypertext, morphological forms, editing, online dictionaries, dictionary program (app), lexical meaning.*

Lug‘atlarning asosiy vazifasi shundan iboratki, ularda, asosan, foydalanuvchilar uchun chap qism tarkibidagi belgilarni izohlash, ishlatish yoki almashtirish nuqtayi nazaridan zaruriy ma’lumotlar o‘z aksini topgan bo‘lib, qator o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi: tashqi saqlash muhitida joylashgan, to‘xtovsiz o‘qish uchun mo‘ljallangan, nisbatan qisqa, axborotni tezkor izlashni ta’minlashga qaratilgan va h.k.

Kompyuter lug‘atlari, odatda, matn holatida avtomatik ishlov berish va so‘z birikmalarini qidirish imkoniyatini beruvchi maxsus dasturlar asosida yaratiladi. Bunday turdagi maxsus dasturlar ma’lumotlar bazalari, kompyuter fayllari, lug‘at yozuvlarini avtomatik ravishda tuzish, lug‘at ma’lumotlarini saqlash va uni qayta ishlash, shuningdek, matnlarga ishlov berish imkoniyatlarini o‘zida aks ettiradi. Bunda elektron lug‘atlarning yaratilishi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1) matnlarning korpusini shakllantirish va parallel ravishda lug‘at yaratish;
2) misollarni avtomatik tarzda shakllantirish;
3) so‘z birikmalarini tayyorlash;
4) ma’lumotlar bazasiga lug‘at maqolalarini kiritish;
5) ma’lumotlar bazasiga kiritilgan lug‘at yozuvlarini tahrirlash;
6) ma’lumotlar bazasida mavjud matnni tahrirlash;
7) lug‘at matnini shakllantirish va asl nusxasini yaratish [Gerd A.S. 2005, 71].

Shuni ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, elektron lug‘at yaratish jarayonining ta’rifi (bosqichlari) lug‘atning turiga, tadqiqot prinsiplariga va boshqa omillarga qarab biz yuqorida aytib o‘tgan shakldan farq qilishi mumkin. Lekin har qanday holatda kompyuter leksikografiyasida kompyuterlar va tayyor korporativ matnlarni ishlatish elektron lug‘at yaratish jarayonida bosma lug‘atlarga qaraganda lug‘at tayyorlash bosqichlarining kamayishiga va vaqtni tejashga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, avtomatik elektron lug‘atlar tayyorlashda so‘z kartasini yaratish o‘rniga, ma’lumotlar bazalaridan foydalaniladi. Ma’lumotlar bazasidagi yozuvlar bizga foydalanayotgan katologimizni avtomatik ravishda tanlangan parametrlar bo‘yicha saralashga, kerakli misollarni tanlashga, ularni guruhlarga birlashtirishga imkon beradi. Ayni paytda leksikografik maqsadlar uchun ixtisoslashtirilgan aniq bir dasturiy ta’minot yo‘q bo‘lsa-da, ACCESS yoki PARADOX kabi zamonaviy ma’lumotlar bazalari bizga elektron lug‘atlar yaratishda qo‘l kelishi aniq. Masalan, kerakli misollarni qidirish uchun DIALEX kompyuter dasturidan keng foydalanishimiz mumkin [Zubov A.V. 2004, 38]. Qolaversa, lug‘atlarning tartibini (maketini) yaratish uchun esa Page-Maker yoki WinWord kabi nashriyot tizimlari mavjud bo‘lib, ular yordamida lug‘at yozuvlari ko‘rsatgichlarini yaratish mumkin bo‘ladi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tishimiz o‘rinliki, kompyuter leksikografiyasiga doir ishlarga mo‘ljallangan maxsus kompyuter dasturi – "Lug‘atlarni avtomatlashtirilgan kompilyatsiya qilish va qayta ishlash dasturi" filologik tadqiqotlarda juda faol qo‘llaniladi [Zubov A.V. 2004, 46].

Elektron lug‘atlar nafaqat ularni yaratish jarayonida, balki foydalanish jarayonida ham ko‘plab ijobiy jihatlarga ega. Xususan, elektron lug‘atlardan foydalanishning quyidagi afzalliklarini alohida sanab o‘tishimiz mumkin:

1) multimediya vositalaridan foydalanish – elektron lug‘atlar lug‘at kontentining mazmunini ochib berishda (lug‘atning turli xil ko‘rinishlarini), jumladan, oddiy lug‘atlarda ishlatilmaydigan turli xil grafik va multimediya vositalaridan foydalanish imkonini beradi;

2) zamonaviy texnologiyalardan foydalanish – axborotning uzatilishini hisoblash tilshunoslikning turli texnologiyalarini aks ettiradi, masalan, morfologik va sintaktik tahlil, tovushni tanib olish va sintez qilish va boshqalar;

3) qulay qidiruv – lug‘at tarkibiga kiritilgan ma’lumotni darhol olish imkoni paydo bo‘ladi va bunda foydalanuvchi tomonidan kiritilgan so‘rovga bevosita javob beriladi. Qolversa, so‘zni to‘liq eslab qolishning hojati yo‘q bo‘lib, dasturning o‘zi birinchi harflar kiritilishi bilan muqobil variantlarni taqdim etadi;

4) muvofiqlik va harakatchanlik (dinamizm) – elektron lug‘atlar tilshunoslikdagi va jamiyatdagi o‘zgarishlarga tezda javob berishga imkon beradi va uning keyingi versiyasini chiqarish yoki onlayn versiyaga o‘zgartirish kiritish ko‘p vaqt va mehnat talab qilmaydi;

5) so‘z miqdorining ko‘pligi – ko‘pgina elektron lug‘atlarda terminologiya bazasi bosma lug‘atlarning bazasidan oshib ketadi va gipermatnli bog‘lanishlar tizimidan foydalanish orqali ma’lumotlardan qulayroq foydalanish imkonini beradi;

6) foydalanishda o‘zgaruvchanlik – mahalliy va global tarmoqlardagi lug‘atlardan, ya’ni lug‘atlarning onlayn versiyalaridan foydalanish imkoniyati;

7) universallik – qoida tariqasida, maxsus dastur bir vaqtning o‘zida bir nechta tillar va tarjima yo‘nalishlari bilan ishlash imkonini beradi. Lug‘atda mavjud bo‘lgan har qanday til foydalanish tili sifatida qo‘llanilishi mumkin bo‘ladi [Zubov A.V. 2004, 83].

Yuqorida keltirilgan faktlar va aytib o‘tilgan omillardan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda avtomatlashtirlgan elektron lug‘atlar yaratish, ularni ilm-fan, qolaversa, hayotimizning har bir jabhasiga olib kirish davrimizning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kechiktirib bo‘lmas vazifalaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Baranov A.N. Amaliy tilshunoslikka kirish: – Moskva: LCI nashriyot uyi, 2007.
2. Gerd A.S. Amaliy tilshunoslik. – Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg universitetining nashriyot uyi, 2005.
3. Grinev-Grinevich S.V. Terminologiya: tadqiqotlar. – Moskva: Akademiya, 2008.
4. Zubov A.V. Tilshunoslikka oid axborot texnologiyalari. – Moskva: Akademiya, 2004.
5. Shvedova S.I., Ozhegov N.Y. Rus tilining izohli lug‘ati. – M., 2001.


## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SANSKRIT TILIDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR
## WORDS LEARNED FROM SANSKRIT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES


***T. Bekmurodov***
***ToshDO‘TAU o‘qituvchisi***



***Abstract:*** *This article provides a variety of scientific and theoretical considerations for the way words are polished in our language, stagnated, and widely used in everyday life by our people today.*



***Key words:*** *sanskrit, samskrta, grammar, vayam, seylon, veda, gothic, celtic, upanishads, puranas*


Tarixdan bizga ma’lumki, Hindiston dunyoning eng qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biri hisoblanadi. Sababi, olimlar yerdagi birinchi odam bo‘lmish Odam Ato aynan shu mamlakatning hududlariga, ya’ni Hindiston janubida joylashgan Seylon, ya’ni Shri Lanka orollariga tushgan degan taxminlarni qilishadi. Agarda Odam Ato Shri Lanka orollariga tushgan bo‘lsa, u yerdan quruqlik tomon yo‘l esa Hindiston orqali o‘tadi. Shunga asoslanib, insoniyat hayoti shu yerdan boshlangan degan taxminni to‘g‘ri deb qabul qilishimiz mumkin.
Bundan tashqari bu o‘lkaning qadimiyligi uning qadimgi davrlarda yozilgan yozma

yodgorliklari ham aniq dalil bo‘la oladi. Shu o‘rinda, yer sayyorasida umrboqiy donishmand (avliyo) lar tomonidan Vedalar, Upanishadlar va Puranalar singari ilohiy diniy kitoblarida qo‘llanilgan til bu — Sanskrit tilidir.

Eramizdan avvalgi 4-asrda yashagan va mukammal Sanskrit grammatikasini yaratgan donishmand Panini Ashtadhyayi (grammatika)sidagi quyidagi ajoyib misrani Panini o‘zini grammatikasini Tangri Shivani jozibali harakatlanishi ta’sirida yozgani haqida ma’lumot beradi. Qachondir Iloh Shiva Iloh Krishnaning yuksak e’tirofiga sazovor bo‘lgan ilohiy o‘ta mamnun ruhdagi raqsini ohirida Iloh Shiva do‘mbirasini chalgan. O‘sha paytda do‘mbirani sadosidan 14 ta aniq tovushlar paydo bo‘lgan. Shu o‘rinda bu tilni ma’nosiga izoh beradigan bo‘lsak, Sanskrit kelib chiqishiga ko‘ra *“samskrta vak”* ya’ni *“takomillashtirilgan nutq”* ma’nosini anglatib, Hinduizm, Jainizm va Buddizmning dastlabki adabiy tili hisoblanadi.

Shu bilan birga, Sanskrit tili butun dunyoda asosan “Muqaddas til” sifatida ma’lumdir. Bunday yuksak maqomga erishishi Hindistonda bu tilni mukammal tajribaga asoslangan, uzoq tarixiy rivojlanish bosqichini bosib o‘tganligidadir. Sanskrit tiliga muqaddas til sifatida qaralishi asosan bu tilning uch ming yillik davomida diqqat markazda ekanligi aniq yaqqol sabab bo‘la oladi.

XVII asr oxirlarida yashagan mashxur sharqshunos olim, filolog Sir Uilyam Jons(1746–1794) birinchi marotaba 1786-yilda o‘zining “Sanskrit tili” nomli kitobida Yunon va Lotin tillari; hatto Gotik, Kelt hamda fors tillari ham Sanskrit tiliga aloqadorligini, bu til bilan uzviy bog‘langanini ta’kidlab shunday deydi:
“Sanskrit tili o‘zining antik davrga oidligi bilan ajoyib tuzilishga ega ekanligi, Yunon tiliga nisbatan ko‘proq mukammalligi, Lotin tiliga qaraganda sermahsulligi va u tillarga ham grammatik shakli va fe’l o‘zaklaridagi kuchli qardoshligi sabab nafis takomillashtirilgan; haqiqatdan ham shu qadar kuchli va hech bir filolog bu uchala til ularni uzoq payt mavjud bo‘lmagan umumiy manbadan paydo bo‘lganiga ishonch hosil qilmay tahlil qilolmaydi; basharti Gotik va Kelt tillari turli iboralar bilan qorishib ketganligi, Sanskrit tili bilan bir xil kelib chiqishi va eski Forsiy tili bir oilaga kirganligi unchalik asosli bo‘lmasa ham, o‘xshash sabab mavjud”.
Hoh Yunon, hoh Lotin, Ingliz, Hindiy yoki Litva tili bo‘lsin — bu tillarni onasi Sanskrit tili hisoblanadi. Hatto Volter, Immanuel Kant singari olimlar ham Sanskrit tilini barcha Hind-Yevropa tillarini o‘zagi ekaniga ishonishgan.
Bu haqda Volter shunday fikrni qayd qilgan edi: “Men barcha narsa bizga Ganga daryosi qirg‘oqlaridan oqib kelganligiga qat’iy ishonaman”, u “Brahmanlar ajdodlari butun dunyoga ta’lim berganiga” ishonadi.

Mashxur nemis yozuvchisi, adabiy tanqidchi, faylasuf, filolog, nemis romantisizmining dong‘i ketgan asoschisi bo‘lmish Frederik fon Shlegel Sanskrit tili haqida quyidagi fikrni bildirib o‘tgan: “Dunyoda hech bir til, hattoki Yunon tili ham Sanskrit tilichalik aniq va falsafiy jihatdan puxta emas, va shu o‘rinda bu buyuk Hindiston faqatgina barcha narsani kelib chiquvchisi emas, balki barcha jabhada, xususan, ma’naviy, axloqiy, diniy va siyosiy sohalarda ham ustunlik qilib, hatto Yunon tili merosi ham bu til bilan qiyoslaganda xijolat chekib qoladi. Qadimgi Hindlar chin dunyoviy bilimni egallashgan, bunday ulug‘vor va mukammal tilda muloqot qilishgan…”.

Sanskrit tilini XVII asr oxirida g‘arbliklar tomonidan tadqiq qilinishi Hind-Yevropa tillarini qiyosiy o‘rganilishini taraqqiy etishiga kuchli turtki bo‘ldi. Hatto Panining Sanskrit tilida o‘zak, negiz va suffikslarni tahlil qilishi hozirgi kunda Hind-Yevropa o‘qitish fanlarida keng tarqalgan metodik usul bo‘lganini ko‘rsatadi.
Shu o‘rinda bu til o‘lik tilmi yoki hozirda ham iste’moldami? degan savol tug‘ilishi mumkin. Sanskrit tili hozirda ham keng jamoatchilik tomonidan iste’moldadir. Fikrimiz isboti sifatida quyidagilarni keltirib o‘tmoqchimiz: Sanskrit tili Hindiston Konstitutsiyasining 8-bandiga muvofiq 14 rasmiy tildan biridir. Hindistonning Uttarahand shtati Sanskrit tilini o‘zining ikkinchi rasmiy tili sifatida e’lon qilgan. Sanskrit tilini qayta tiklash bo‘yicha Samskrita Bharati nomli tashkilot tuzilgan bo‘lib, Sanskrit tili ommalashtirish bo‘yicha seminarlar o‘tkazib keladi. Bundan tashqari, 1967-yildan buyon Sahitya Akademiyasi Sanskrit tilida yozilgan eng yaxshi asarlar uchun mukofot bilan taqdirlab kelmoqda. Shu maqsadda 2009-yilda Satyavrat Shastri

Jnanpith mukofotiga sazovor bo‘lgan birinchi Sanskrit muallifi hisoblanadi. Sanskrit tili yana Hindiston bo‘ylab an’anaviy liderlar tayyorlash maktabi (gurukulas) da ham o‘qitiladi. Londondagi Avliyo Jeyms boshlang‘ich maktabi Sanskrit tilini o‘quv dasturiga kiritgan. AQSHda esa 2009-yil sentabr oyidan buyon o‘rta maktab talabalari mustaqil o‘rganish sifatida Sanskrita Bharati tashkiloti tomonidan muvofiqlashtirilgan SAFL ya’ni “Sanskrit xorijiy til sifatida” dasturiga asosan Sanskrit tilini o‘rganishni xorijiy til talablari bo‘yicha ta’lim kreditlari olishga muvaffaq bo‘ldilar.

Shuningdek bir qator davlatlarda, jumladan 1962-yil Nyu Dehlida Shri Lal Bahadur Shastri Rashtriya Sanskrut Vidyapetha nomli universitet, 1981-yil Nepalda Nepal Sanskrit Universiteti, va 2011-yil Bangalorda Karnataka Sanskrit Universitetlari barpo etilgan bo‘lib, bu universitetlarda Sanskrit tili chuqurlashtirilib o‘rgatiladi.

Ko‘pchilik olimlarning fikricha Ingliz tili etimologiyasida so‘zlarni kelib chiqishi Yunon va Lotin tillariga borib taqaladi. Biroq bir qator ilmiy izlanishlar natijasida, olimlar ingliz tili lug‘atidagi 400 dan ziyod so‘zlar Sanskrit tili asosida paydo bo‘lganini aniqlashgan. Bu so‘zlarni ko‘pchiligi asosan ot, fe’l va olmosh turkumlariga taalluqlidir. Fikrimiz isboti sifatida quyida asli Sanskrit tilidan kelib chiqqam inglizcha so‘zlarga ba’zi namunala berib o‘tmoqchimiz.Harflarning o‘xshash yoki butunloshqa harflar bilan berilishiga ko‘ra:

1. Loka — location — joy, o‘rin. Bu so‘zning boshqa tillarda sifat shakli yasalgan. Mas. Ingliz tilida local, rus tilida локалный, nemis tilida lokal.

2. Shaan — shine — charaqlamoq, nur sochmoq, (sunshine – quyosh yorug‘ligi) sifatida qo‘shma ot shakli mavjud.

3 Diva — day — kun. Sanskritchada “dive-dive”, ingliz tilida “day after day” ya’ni “kundan kunga” qo‘shma so‘z shakli yasalgan.

4. Dwara — door — eshik. Rus tiliga “дверь” shaklida o‘zlashgan.

5. Mush — mouse — sichqon.

6. Dushkar — difficult — qiyin, dushvor, og‘ir, mushkul, murakkab.

7. Puman — person — kishi, shaxs.

8. Sadhu — sage — avliyo.9. Pippali — pepper — qalampir.

10. Dantum — dental — tish.

11. Srgalah — jackal — shoqol, yig‘ichi, go‘yanda.

12. Jangala — jungle — chakalakzor, hosilsiz yer.

13. Sab - sound - tovush, sas, sado, ovoz.

14. Simhapuram — Singapore — sherlar shahri

15. Dronam — dinghy — ikki yoki uch eshkakli qayiq.

16. Lota-m or lunthnati — loot — 1) o‘g‘irlamoq; 2) O‘g‘irlangan mol-mulk.

17. Swaad — sweet, tasty — 1) shirin, mazali; 2) Shirinlik, qand-qurs. Bu so‘zning ingliz tilida fe’l shakli “sweeten — shirin qilmoq”, ot shakli “sweetener — shakar o‘rnini bosuvchi modda” mavjud.

18. Rishtha — relation — rishta, aloqa, bog‘liqlik.

19. Sooraj — sun — quyosh.

20. Shara — shame — sharm — hayo, ibo, uyat.

21. Brathth — broad — keng, bepoyon. Bu so‘z asosida sifat “broad-minded yuragi keng, sabrli”, ravish “broadly — umuman” shakli mavjud.

22. Paigambar — prophet — payg‘ambar, Xudoning yerdagi elchisi.

23. Krmi-ja — crimson — qirmizi, to‘q qizil.

24. Hasth — hand — qo‘l.

25. Swam — self — o‘zi.

**Transliteratsiya asosida o‘zlashgan so‘zlar:**

1. Nila-gauh — nilgai — antilopa, buqasimon hayvon (juft oyoqli kavsh qaytaruvchilarning katta bir guruhi).

2. Gau — cow — sigir.

3. Manu — man — erkak kishi, inson.

4. Patha — path — yo‘l, so‘qmoq.

5. Guru — guru — guru — 1) Hindlar dinida ruhiy ustoz yoki yo‘lboshchi;

2) hurmatli va maslahatiga quloq solinadigan odam

6. Devniti — divinity — iloh, tangri, ilohiyot. Sanskritcha “Deva — Olloh” o‘zagidan kelib chiqqan.

7. Lubh — love — sevgi, muhabbat. Bu so‘zdan transliteratsiya asosida nemis tilida “Liebe”, rus tilida “любовь” o‘zlashmalar hosil qilingan.

8. Ladi — lady — 1) xonim, bonu; 2) Ayollar faxriy unvoni.

9. Angar — anger — jahl, qahr, g‘azab.

10. Sant — saint — 1) avliyo; 2) Oliyjanob, mehribon inson.

11. Aubergine — aubergine, eggplant (US) — baqlajon.

12. Sharkara — sugar — 1) shakar; 2) (bir qoshiq) shakar. Bu so‘zdan ingliz tilida “sugary — shakarli, qandli” sifati yasalgan.

13. Nas — nose — burun. Bu so‘z asosida ingliz tilida qo‘shma ot “nosebleed burun qonashi”, fe’lli birikma (nose about/around — birovning shaxsiy hududini tomosha qilmoq) yasalgan.

14. Avatara — avatar — ajdod.

15. Himalayah — Himalaya — Himalay tog‘I (qorlar makoni).

16. Baniyaa — banyan, merchant — savdogar hindu. Bu so‘z asosida ingliz tilida otli birikma “banian — tree — hind anjiri (daraxti)” yasalgan.

17. Mythya — myth — afsona, uydirma. Nemis tiliga Mystik, rus tiliga mistika sifatida o‘zlashma hosil qilgan.

18. Ga — go — 1) Bormoq; 2) Navbat, gal.19. Ambarella (Sansk. Daraxtning bir turi) — umbrella — soyabon.

20.Kam—can—qila olmoq (modal fe’l).

21. Na — no — yo‘q (inkor ma’no anglatuvchi so‘z).

22. Barbar—barbarian - 1) varvarlar (qadimgi Yunonlar, keyinchalik Rimliklar tomonidan ularga qo‘shni bo‘lgan qabila va xalqlarga hamda Osiyoning turli xalqlariga berilgan nom); 2) Varvarizm (ajnabiy, ma’lum tilga kirgan ajnabiy so‘z va iboralar).

23. Badnam — badname — yomon nom (chiqarish).

24. Badbu — badsmell — yomon, sassiq hid.

25. Utaj — cottage — kottej, qishloq uyi, asosan, bir oilaning yashashi uchun mo‘ljallangan ikki qavatli, hovlili uy. Ko‘pincha shahar tashqarisida quriladi. (ingliz. Dehqon uyi).

26. Andh — end — oxir, nihoya, xotima, yakun. Bu so‘z asosida qo‘shma ot “endproduct — tayyor maxsulot”, qo‘shma fe’l “to make an end of something —biror narsani oxiriga yetkazmoq” yasalgan.

27. Baalak — boy — 1) bola, yigitcha; 2) O‘g‘ilcha.

28. Mane — mean — ma’no. bu so‘z ingliz tilida, mas. 1) sifat shaklida inson xarakteriga nisbatan “baxil, xasis, ziqna”; 2) O‘rtacha; 3) Fe’l sifatida “ma’no anglatmoq” singari ko‘p ma’nolilikka ega. O‘z navbatida Sanskrit tilidan olmoshga oid so‘zlar ham (asosan ko‘rsatish va kishilik olmoshiga doir) o‘zlashgan bo‘lib, bunga ingliz tilida ko‘rsatish olmoshi hisoblangan “that” Sanskrit tilida “thath” dan yasalgan bo‘lib, “u, ana u, haligi, anavi” deb tarjima qilinib, biror narsa yoki biror kishini zamon va makon jihatidan ta’kidlab ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari ingliz tilida kishilik olmoshlari hisoblangan “you sen, siz” olmoshi Sanskrit tilidagi “Yuyam” so‘zidan, “We — biz” olmoshi esa Sanskrit tilidagi “Vayam”, jonsiz predmetlar uchun ishlatiluvchi “it — u” olmoshi esa Sanskrit tilidagi “Id/Ithi” so‘zlaridan o‘zlashgan hisoblanadi.

O‘zbek tilida ham bir qator o‘zlashma so‘zlar mavjud bo‘lib, ular asrlar davomida bizning tilimizga singishib, o‘zbekchalashgan. Bu o‘zlashma so‘zlarni ko‘pchiligi ot so‘z turkumiga mansub hisoblanib, ular transliteratsiya va harflar almashinuvi asosida tilimizga qo‘shilib ketgan. Quyida:

1. Paigambar — ayg‘ambar. Xudoning yerdagi vakili (fors-tojik. Xabar keltirmoq) ilohiy kuchlardan vahiy olgan, deb e; tiqodqilinadigan shaxslarning umumiy nomi.

2. Pyala — piyola. Idish, asosan choy ichiladi. Masalan, sopol va chinni piyola. Bir piyola choy ichib keting!

3. Dushkar — dushvor, qiyin, murakkab, og‘ir. Bu ishning amalga oshishi
4. Rishtha — rishta, qarindoshchilik alqalari, insonlar o‘rtasidagi ilohiy bog‘liqlik.
5. Bandhva — bog‘langan, bandi. Ushbu o‘zlashma so‘z asosida o‘zbek tilida ko‘p ma’nolilikka ega. 1) Narsalarning ushlanadigan qismi; 2) Zanjirning bir-biriga qo‘shadigan qismi; 3) Qo‘l barmoqlarining bo‘g‘imi.

6. Raastha — rasta, qator, shaxar bozorlarida va qishloqlarida ko‘chaning chetiga savdogarlar tomonidan qurilgan do‘konlar

7. Ekam — yakka, yolgiz.

8. Sooraj — 1) Quyosh; 2) O‘g‘il bolalarga qo‘yiladigan ism (kelajagi quyoshdek porloq bo‘lsin degan niyat bilan qo‘yiladi).

9. Badbu — badbo‘y, yomon hid.

10. Badnam — yomon nom chiqarish, yomon otliq bo‘lish.

11. Baalak, baal — 1) Bola, o‘g‘il yoki qiz bola; 2) O‘spirin.

12. Shara — sharm — hayo, iffat, uyalish.

13. Mane — ma’no, ma’ni. Bu gapdan nima ma’ni?

14. Sharkara — shakar.

15. Nila — 1) Qop-qora; 2) Insonlarni yuz qiyofasini tasvirlash uchun ishlatiladi. Uning yuzi nilday qora edi.

16. Gau — sigir. Shevada “gowmish” tarzida ishlatiladi.

Ushbu o‘zlashma so‘zlar tilimizda sayqallanib, turg‘un qolipga tushib, bugungi kunda xalqimiz tomonidan kundalik hayotda keng foydalanib kelinmoqda. Xorazm shevasida ham yuqqoridagi so‘zlardan ayrimlari o‘zlashgan bo‘lib, hozirda ham omma tomonidan keng iste’molda bo‘lib kelmoqda. Masalan, xorazm shevasida dushvor, badnom, badbo‘y, shakar, rasta, ma’ni, piyola (shevada “kosa”) so‘zlaridan og‘zaki muloqotda unumli foydalanishadi. Nafaqat o‘zbek tiliga, balki boshqa tillarga ham Sanskritcha o‘zlashma so‘zlar anchagina va bundan buyon ham bu muqaddas til boyliklarini o‘rganish va tadqiq qilish davom etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Sanscrit studies as a foundation for computational linguistics. Nicholas Ostler.
2. Theories of general linguistics in the Sanscrit grammarians by John Brough.
3. English Words of Sanskrit origin of Srimad Bhagavatam.
4. Qadimiy Hindiston sublontinentidagi adabiy-tarixiy jarayon.

***Internet saytlari:***

***www.aim.uz***
***www.ziyonet.uz***
***www.google.com***
***www.kitob.uz***

## TURK TILI FONETIKASIGA DOIR TADQIQOTLAR BORASIDA
## ABOUT RESEARCH ON TURKISH PHONETICS

***G. Mirzayeva***
***mustaqil tadqiqotchi***

**Abstract:** This article discusses the phonetics and phonology section of the Turkish language and the terms related to this death. The article reviews the research of a number of linguists who have studied the phonetics and phonology of the Turkish language.

***Keywords:*** *phonetics, phonology, Turkish language, vowel letters, phoneme, nationality, allophone.*

Ma’lumki, turkiy tillarning bir-biridan asosiy farqli jihatlari fonetik sathda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Avvalo, tilning har bir sathi o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etishini inkor qilmagan holda, fonetik va fonologik sath tilning asosini tashkil etuvchi sathlarlar ekani ta’kidashimiz lozim. Chunki so‘z tovushlardan tashkil topadi. So‘nggi yillarda tillarning sathlarini qiyosiy aspektda o‘rganishga katta ahamiyat berila boshlandi.

Bizning ham tadqiq qilishni maqsad qilgan obyektimiz – turk tilining fonetik sathi bo‘lib, turk tilshunoslarining bu borada olib borgan tadqiqotlariga birma-bir nazar solamiz.

Turk tilshunosligida fonetikaga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Birinchi navbatda qayd qilish kerakki, tilshunoslikdagi har bir sathning bosh masalasi undagi terminlar masalasidir. Turk tilshunosligidagi terminlarda milliylik aks etib turadi. S.Topbash va H.Kapkallilarning “Sesbilim” ve “Sesbilgisi” terimleri Űzerine” maqolasida turk tili fonekasi va fonologiyasiga oid terminlar xususida kichik tadqiqot olib borilgan [Topbaş.S. Kopkallı H., 1994: 310–321]. Maqolada turk tilshunoslari tomonidan fonetika va fonologiya terminlarining bir-biriga qorishtirib yuborilayotgani va natijada xatoliklar yuzaga kelayotgani hususida so‘z boradi. Bu terminlarning qorishtirib qo‘llanishiga sabab ularning turk adabiy tilga moslangani va buning oqibatida ular o‘rtasida bevosita o‘xshashlik mavjudligidir. Maqola mualliflari bir guruh turk tilshunoslar fonetikani “Sesbilim” termini bilan; fonologiyani esa “Sesbilgisi” yoki “görevsel/gelişmeli sesbilim” terminlari bilan qo‘llaganlarini aytib o‘tadilar (masalan, Selen, Demirjan, Aksan, Konrot, Topbash kabilar).

Boshqa bir guruh tilshunoslar esa aksincha – fonetika atamasini “Sesbilgisi” va fonologiya atamasini “Sesbilim” deb qo‘llaganini (masalan, Vardar, Demirezen) qayd etadilar.


Bundan ko‘rish mumkinki, S.Topbash va H.Kapkallilarning mana shu kichik tadqiqotiga qadar turk tilshunosligida fonetika va fonologiya terminlarini qo‘llashda chalkashlik mavjud bo‘lgan va maqola ikki terminni tartibga solishda katta ahamiyat kasb etgan. Shundan so‘ng bu ikki tilshunos “Sesbilim”ning fonetika va “Sesbilgisi”ning fonologiya ekanini va bu ikki terminning bir-biridan farqli jihatlarini, o‘rganish obyektini asoslab berganlar. Maqolada sath tarmoqlarining tarixiga ham to‘xtalingan va g‘arb tilshunoslari tomonidan ilgari surilgan qarashlarni keltirib o‘tganlar.

Muharrem Erginning “Turk Dil Bilgisi” kitobida turk tilidagi unli va undoshlar tizimi holatiga ko‘ra jadvallar asosida yoritib berilgan. Masalan, quyidagi jadvalda turk tilidagi unlilarning holati berilgan [M. Ergin, 1985: 40–41]:

| | | **Dilin Durumuna Göre** | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **Ön Ünlüler** | | **Art Ünlüler** | |
| **Ağız Açıklığına Göre** | | **kapalı (dar)** | **açık (geniş)** | **kapalı (dar)** | **açık (geniş)** |
| **Dudakların Durumuna Göre** | **düz** | i | e | ı | a |
| | **yuvarlak** | ü | ö | u | o |

Bundan tashqari, Muharrem Ergin “O‘rhun” bitiklari tilining tarixiy fonetikasini ham o‘rgangan.

E.Suyer esa “Cağdaş Turk Dili” asarida turk tilidagi “i”, “u”, “a” harflarning og‘iz bo‘shlig‘idagi harakat va holatlarini aks ettirgan [E. Suyer, 2002: 93] (1-rasm).




Yana bu tilshunos o‘z asarida birgina unli fonemaning bir necha variantlarini ham ko‘rsatib o‘tgan.

E.V. Sevortyanning “Фонетика турецкого литературного языка” nomli asarida esa turk tilining fonetik tizimi juda keng tadqiq etilgan, bu asarda nafaqat fonetika, balki turk tilidagi fonetik

tovush o‘zgarishlari ham misollar asosida keng yoritilgan. Masalan, u turk tilidagi reduksiya hodisasi haqida gapirib, bunda *“i”* harfining yopiq *“ı”* yoki *“e”* ga o‘tishini ta'kidlaydi va quyidagi misollarni keltiradi [E. V. Sevortyan, 1955: 80–83]:

yani yan $\frac{i}{e}$, belki belk $\frac{i}{e}$, haydi hayd $\frac{i}{e}$, artık art $\frac{i}{k}$.

Tilshunos E.Demirjan “Türkçenin ses dizimi” asarida turk tiliniing tovush tizimini tahlil qiladi. R.O‘zdem “Tarihsel bakimdan őzturkçe ve yabancı sőzlerin fonetik ayraçları” asarida turkiy tillarning etimologiyasini o‘rganib, chet tillaridan o‘zlashgan so‘zlarni fonetik jihatdan ajratish usullarini tahlil qilib beradi. Tilshunoslar Z.Ko‘rkmaz va H.Zulfikarlar esa “Turk Dili ve Kompozisyon” asarida turk tilidagi fonetik tovush o‘zgarishlarini o‘rganadilar va bunga asosan urg‘u sabab bo‘lishini misollar orqali ko‘rsatib beradilar. Tilshunos Tahir Nejat Genjan o‘zining “Dilbilgisi” asarida turk tilidagi undoshlar tizimini, ulardagi singarmonizm hodisalarini jadvallar asosida yoritib, asoslab bergan.

N.Demirning 2019-yilda chop qilingan “Türkçe ses ve biçim bilgisi” (Turk tili fonetikasi va morfologiyasi) asari xorijiy mamlakatlardagi Turkologiya fakultetlari uchun tayyorlangan bo‘lib, tilshunos termin masalasida faqat turkchalashtirish tarafdori bo‘lgani holda, atamalarni chet so‘zlardan emas faqat turkcha so‘zlar yordamida ifodalaydi. Kitob chet el talabalariga tushunarli bo‘lishi uchun sodda tarzda yozilgan, shuningdek unda turk tilining tarixiy lahjalari xususida ham so‘z yuritilgan [N. Demir, 2019].

Tilshunos Mustafo O‘zkanning “Türkiye Türkçesi Ses ve Yazım Bilgisi” asarida olim turk tili fonetikasiga oid juda keng ma’lumot bergan [M. O‘zkanan, 2015: 331]. Tilshunos bu asarni turkum holida nashr qilishni maqsad qilgan bo‘lib, asar o‘n bir bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda tillarning paydo bo‘lishi, ularning nomlanishi va dunyo tillari haqida so‘z ketadi. Beshinchi bo‘limda tilshunos turk tili va uning tovush tizimi – unlilar, undoshlar, tovush o‘zgarishlari, ularning sabablari hamda alifbosiga batafsil to‘xtaladi.

Shu o‘rinda tilshunoslikning tarixiga ham biroz nazar solsak. Suad Mahmud Alvanning “Ali Şir Nevai Muhakemetül-lugateyn Eserinin Sesbilimi Özellikleri” maqolasida ulug‘ mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” asaridagi fonetik jarayonlar tahlil qilingan [S.M. Alvan, https://docplayer.biz.tr/].

Ma’lumki, bu asar qiyosiy tilshunoslikning yorqin namunalaridan bo‘lib, unda turk va fors tillari o‘zaro chog‘ishtirilgan. Adib o‘rta asrlarda deyarli barcha ijodkorlar ijod qilgan va gullab yashnagan til – fors tilidan turk tilining qolishmasligini isbot qilib bergan. Asarda tilshunoslikning turli sathlariga oid ma’lumotlar o‘rin olgan bo‘lib, hozirda leksik lakuna termini bilan tilshunoslikda o‘rganilayotgan sohani A. Navoiy shu asarida aytib o‘tgan. Masalan, fors tilida qovoq so‘zi leksik lakuna bo‘lib, unga ishlatiladigan biror ifoda yo‘qligini, biroq turk tilida esa ko‘z bilan qoshning orasi qovoq deb atalishi aytilgan.

Endi mavzuimizga qaytadigan bo‘lsak, maqolada tilshunos shunday deydi: “Bu asarida A. Navoiy bir tarafdan turk tilining fors tilidan ustunligini isbot qilishga urinar ekan, ikkinchi tarafdan o‘z tilining (ya’ni turkiy tilning) fonetik va morfologik xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tgan”. Maqolada Navoiyning hayoti va asarlari haqida ma’lumot keltirilib (turklarga tanitish maqsadida), so‘ng asosiy maqsad bo‘lgan unlilar tizimi haqida ma’lumot beriladi. Chig‘atoy tilida to‘qqizta unli mavjud ekanini aytib, o‘sha vaqtdagi unlilar hozirgi turk tilidagi unlilar tizimi bilan qiyos qilinadi. Shundan so‘ng tovush o‘zgarishlari haqida ma’lumot berilib, singarmonizm sabab vujudga kelgan qo‘shimchalarning unlilardagi variantlari beriladi. So‘ng esa undoshlarga to‘xtalinib, qiyosiy aspektda o‘rganiladi va bunda ham undoshlarning o‘zgarishlari va singarmonizmi haqida ma’lumot beriladi. Tilshunos xulosa sifatida Alisher Navoiyning asarida qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi xususiyatlari bilan birga qisman qipchoq shevalari ham mavjud ekanini ta’kidlaydi. Ulug‘ mutafakkirlarimizning asarlarini o‘zga yurtda tadqiq qilinishi, albatta biz tilshunoslarni mamnun qiladigan holatdir.

Asli Yilmaz Davuto‘g‘lining “Standart Türkçedeki Ünlülerin Akustik Analizi Ve Fonetik Altyapi” nomli katta asari adabiy turk tilidagi unli tovushlarning akustik analizi va fonetik sutrukturasiga bag‘ishlangan [A.Y. Davuto‘g‘li, 2010]. Ushbu asarni turk tili fonetikasining haqiqiy

eksperimental tadqiqoti deb atash mumkin. Tilshunos adabiy turk tilidagi unlilarning allofonlarini tadqiq qilish jarayonida 875 ta so‘zni sakkizta respondentga talaffuz qildiradi va eksperiment qiladi. Tadqiqot statistikasiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi 21 allofonlar guruhi va ularga oid 10 ta uzun unli topilgan. Allofonlar o‘rin olgan tovush tizimlari so‘zlar orqali misollar bilan berilgan. Tilshunos har bir unli tovushga keng to‘xtalib, masalan *“a”* fonemasining o‘zida uchta allofon aniqlanganini misollar orqali keltirib o‘tadi: *a1, a2, va a3*.

“Bulardan tashqari, *a1* va *a2* guruhlarining uzun turlari *a11* va *a22*) bordir, – deydi tilshunos va misollar keltirib o‘tadi, “*a1*: ochiq, orqa, tor. *“ova, muaf, avuntu, ala, mal, ağustos, azar, vasat, hala, ahır, ahbap, falaka”* kabi so‘zlarda. (*“a”* tovushi kundalik qo‘llanganda qalin *“a”* sifatida keladi). So‘z o‘rtasidagi *“a”* fonemasining, xususan *“b”, “p”, “v”* kabi lab undoshlaridan va *“h”*dan keyin kelganda *a1* sifatida qo‘llanishi kuzatildi”.

Tilshunos Ijlal Ergenchning “Sesbilim Çalişmalari” haqidagi ochiq dars ko‘rinishidagi tadqiqotida turk tili fonetikasiga doir izlanishlar jadval asosida yoritib beriladi. Shuningdek, u Tilshunos Najib Uchokning, O‘zkan Bashkanning, Nevin Selinning va O‘mer Demirjanning tadqiqotlarini o‘z asarida sxemalar asosida yoritadi va tahlil qiladi [I. Ergench, https://acikders.ankara.edu.tr/].

Bundan tashqari, Huseyin Kahraman Mutlu turk tili fonetikasiga doir olib borilgan tadqiqotlar bibliografiyasini tuzib, jurnalda chop etgan [H.K. Mutlu, 2015: 373–382].

So‘nggi paytlarda neyrolingvistika sohasi tilshunoslikning yangi yo‘nalishi sifatida vujudga kelib, unda ko‘plab tadqiqotlar olib borila boshlandi. Biroq, fikrimizcha neyrolingvistikani fonetikaga doir jihatlari ko‘p, chunki fonetik jarayonlar va tovush o‘zgarishlariga neyrolingvistik omillar o‘zining ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Turk tilida neyrolingvistikaga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, professor D.Barishning “Dil ve Beyin” (Til va miya, Bolalarda til va nutq nuqsonlari) asarida bu mavzu keng yoritilgan. Asarda, avvalo odatiy til va tilning rivojlanishi keltiriladi. Bolalardagi eshitish qobiliyatining nutqqa ta'siri, nutq xususiyatlari va nuqsonlari batafsil yoritilib, nevrologik hastaliklarga urg‘u beriladi. Tadqiqotning ahamiyatli tomoni shundaki, unda inson nutqi va hayvon nutqi orasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlar keltiriladi, inson tili va genlar orasidagi aloqa yoritib beriladi, so‘ng esa til va miyaning o‘zaro bog‘liqligi ochiqlanadi. Bolaning tilni o‘rganishidan boshlab, uning nutqidagi nuqsonlarning paydo bo‘lish omillari ko‘rsatib beriladi. Asarni o‘qib-o‘rganib til bilan tibbiyot shunchalik bir-biriga bog‘liqligini, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmasligini anglash mumkin. Shu sabab bu ikki fanni o‘zaro bog‘lovchi neyrolingvistika sohasi vujudga keldi. Bunda esa tilshunoslardan ikkita soha – ham tibbiyot ham tilshunoslikni chuqur bilish talab qilinadi. Bu jarayonlar esa, asosan fonetik sathda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Endi yana o‘z tadqiqotimiz – turk tilshunoslarining fonetikaga doir ishlariga qaytsak. Yuqorida qayd etilgan mavzular turk tilshunosligida ko‘plab ilmiy izlanishlarga sabab bo‘la boshladi. Tilshunoslar nutqdagi nuqsonlar, tovushlarning o‘zgarishlariga olib keladigan jarayonlarni chuqur o‘rganish asnosida ko‘plab ilmiy yangiliklarni ilmga olib kirdilar.

I.P.Bekar tomonidan yozilgan “Şizofrenlerin Sözlü Metinlerinde Duygudurum Görünümleri”, S.Ay va boshqalar tomonidan yozilgan “Türkçede gelişimsel disleksinin sesbilimsel ve biçimbilimsel görünümleri”, E.Esmar tomonidan yozilgan “Şizofrenlerin sözlü anlatım metinlerinin çözümlenmesi”, M.S.Erer “Karma Soz Uretme Yontemi ile Turkce Yazılı Metinden Soze Gecme” asarlarida nutq nuqsonlari ma’lum kasalliklar, xususan shizofreniya asosida tadqiq qilindi.

Ayja O‘zbel Kochning “Septum deviasyonlu hastaların septoplasti operasyonu őncesi ve sonrası, akustik ses analizi ile değerlendirilmesi” asarida rinolali (nazal disfoni, rinofon (nazalning grekcha nomi) nazal rezonansining buzilishi natijasida yuzaga keluvchi nutq patalogiyasi o‘rganildi.

Biz ushbu maqolamizda tadqiqotlarni imkon qadar muhimlarini taqdim etishga harakat qildik. Xulosa qilib aytganda, turk tili fonetikasiga doir ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, yuqorida keltirilganidek, birinchi galda termin masalasi munozarali holatdadir. Turk tili fonetikasi o‘zga yurt tilshunoslari tomonidan ham keng tadqiq qilingan. Turk tilida eksperimental fonetika rivoj topgan, shu sabab amaliy ishlar ko‘p deyish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alvan S.M.“Ali Şir Nevai Muhakemetül-lugateyn Eserinin Sesbilimi Özellikleri” https://docplayer.biz.tr/
2. Davutoğlu A.Y., “Standart Türkçedeki Ünlülerin Akustik Analizi Ve Fonetik Altyapi”. İstanbul. 2010.
3. Demir N. Ses Bilgisi ve Biçim Bilgisi. Hamur Tipi: 2. Hamur. İlk Baskı Yılı : 2019.
4. Ergenç I., Sesbilim Çalişmalari. https://acikders.ankara.edu.tr/
5. Muharrem Ergin. Turk Dil Bilgisi, Boğazici, Yayınları, İstanbul, 1985. 16. Baskı.
6. Mutlu H.K. “Türkiye Türkçesi Ses Bilgisi Üzerine Bir Bibliografiya Denemesi”, Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, 6 (2).
7. O‘zkan M. Türkiye Türkçesi Ses ve Yazım Bilgisi. İstanbul, Filiz Kitabevi <https://www.filizkitabevi.com/filiz-kitabevi> 331.
8. Suyer E. Cağdaş Turk Dili. Grafiker Yayınları. Ankara, 2002. S. 193.
9. Topbaş.S. Kopkallı H., “Sesbilim” ve “Sesbilgisi” Terimleri Uzerine”. Dilbilim araştırmaları, Anadolu Universitesi, 1994.
10. Севортян Э.В. Фонетика турецкого литературного языка. – Москва, 1955.

## “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA KELTIRILGAN OZIQ-OVQAT NOMLARI
## NAMES OF FOOD IN "DEVONU LUG‘OTIT TURK"

***N.Rasulova***
***O‘zMU 2-kurs magistranti***

**Abstract:** In "Devonu leğotit Türk" very important information about the source of food and food, types of food, preparation process of food huntingyos homashyos, necessary kitchen tools in the preparation and consumption of food has been expressed. This article contains information on the names of foods in the work.

**Keywords:**” Devonu dictionary Turkish", food, meal names associated with the ritual, what is used in cooking-the names of the subject, the names of the dish.

Mahmud Qoshg‘ariyning umumjahon madaniyatiga qo‘shgan qimmatli tuhfasi “Devonu lug‘otit turk” asari tilshunoslikka doir o‘lmas asar bo‘lishi bilan bir vaqtda, tarix, etnografiya, folklorshunoslik, geografiya bo‘yicha o‘quvchilarga atroflicha ma’lumot beradigan mukammal qomusiy asar hisoblanadi. “Devonu lug‘otit turk” da oziq – ovqatlar va taomlarning manbasi, taom turlari, oziq-ovaqat xomashyosining hozirlash jarayoni, taom tayyorlash va iste’mol qilishga keraklik oshxona qurollariga doir juda muhim ma’lumot o‘z ifodasini topgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, turkiy xalqlarning taomlari rang-barang bo‘lishi bilan birga ulardagi taomlarning umumiy, o‘xshash jihatlari mavjud bo‘lib, ular taomlar tayyorlanadigan mahsulotlardagina emas, balki taom tayyorlash usullarida ham o‘z ifodasini topgan.

“Devonu lug‘otit turk”, birinchi navbatda, turkiy urug‘ va qabilalar tillarining xususiyatlarini, urf-odatlarini, lingvistik xususiyatlarni, tarixi va lug‘at boyligini o‘rganishga bag‘ishlangan asar. Shuning uchun ham asar mundarijasida qator lingvistik ma’lumotlarga keng o‘rin ajratilgan. Bular sirasiga tillararo fonetik farqlar, so‘z yasalishi, yozuv va boshqa qaydlarni kiritish mumkin. Asarning lug‘at qismida esa juda ko‘p jihatdan ahamiyatga molik bo‘lgan uning qomusiylik darajasini ta’minlagan materiallarga o‘rin berilgan. Ular turli xalqlarning tarixi, urf-odati, adabiyoti va boshqa sohalarini o‘rganishimizda ishonchli manba sifatida xarakterlanadi. Bu xususiyat taom nomlariga ham dahldordir.

Taom nomlari: *a) kundalik turmushda odatiy tarzda tayyorlanadigan taom nomlari:*

Bγshkal [1] bu-hozirda tayyorlanadigan lochira. Lochira hozirgi o‘zbek tilida oshirilmagan xamirdan tandirga yopiladigan non;

*b) biror maxsus marosim bilan bog‘liq taom nomlari: Basan*-o‘lik ko‘milgach yeyiladigan taom, *Jug‘* [1] deb atalgan taom esa, vafot etgan odam uydan chiqarilgandan so‘ng taziyaga kelganlarga berilgan. Asarda faqat taomlar emas, balki taom tayyorlashda ishlatiladigan sabzavot

va masalliq nomlari ham berilgan. Jumladan, *Jamg‘ur*- sholg‘om, *jash*- sabzavot, γz – yog‘, *kuchg‘andi*- piyoz kabi ovqat tayyorlashda foydalaniladigan masalliqlar nomlarini uchtarish mumkin.

*c) taom tayyorlashda ishlatiladigan narsa-predmet nomlari: Avran*- temirchi o‘chog‘ining qo‘rasiga o‘xshatib qo‘yilgan yer tandir, *ashich-buqach* – qozon tovoq, *jasg‘ach*- uvra taxta [2] kabi narsa-pridmetlarda ajdodlarimiz taom tayyorlab, iste’mol qilishgan.

*d) taom tayyorlovchi kasb-koriga aloqador nomlar: Chalchi*- oshpaz va hokazo.

M.Koshg‘ariyning taomlar yuzasidan keltirgan ma’lumotlarida o‘troqlashgan turkiy xalqlarning an’anaviy taomlari ,asosan, dehqonchilik mahsulotlaridan, don mahsulotlari, sabzavot va mevalardan iborat bo‘lgan bo‘lsa, ko‘chmanchilik turmush tarzi bilan hayot kechiruvchi turkiy xalqlar taomlarida ko‘proq sut va go‘sht mahsulotlaridan foydalanganliklarini anglash mumkin bo‘ladi [3]. Asarda quyidagi oziq-ovqat nomlari tilga olingan:

*1.Non mahsulotlari nomlari*. M.Koshg‘ariyning yozishicha, turkiy qabilalarning ayrimlarida non- *“etmak”* deyilib, yaxshi xamirdan qilingan non *“kavshak”* deb atalgan. Asarida nonning pishirish usullariga qarab quyidagi nomlari keltirilgan: *“ Bushkal ”, “ Isbiri ”, “Komuch ”, “Qijma”, “Chuqmi”* [2].

*2.Xamirli taom nomlari*. Ajdodlarimizning kundalik turmush tarzida xamirli ovqatlarning ham o‘z o‘rni bo‘lganini asardagi *“Umoch”, “Ugra”, “Tutmach” , “Manti” hamda “Lag‘mon”* kabi taom nomlariga duch kelganimizda bilib olishimiz mumkin.

*3.Sut bilan bog‘liq mahsulot nomlari.* Asarni o‘qish jarayonida turkiy xalqlar suzmani *“Ikduk”*, qaymoqni “*Qajaq”*, pishloqni *“Uzitma*”, hozirda yogurt nomi bilan ataladigan meva solib tayyorlangan suyuq qatiqni “*Suyuq jogurt*” deb nomlaganligini bilib olamiz.

*4.Guruch va don mahsulotlari bilan bog‘liq taom nomlari*. M.Koshg‘ariy turkiy xalqlarning taomlari orasida guruch va don mahsulotlari qo‘shib tayyorlanadigan quyidagi taom nomlarini keltiradi: *“Uva”, “Buxsi”, “Suruch”, “Korshak”, “Qavut”.*

*5.Go‘shtli taom nomlari*. Turkiy xalqlarning aksariyati chorvachilik bilan shug‘ullanganligi uchun taomnomalardagi juda ko‘p taomlarga go‘sht ishlatilgan. “*Sugut”, “Tobiq”, “Qazi jag”, “Sim-simraq”* [1] asarda keltirilgan go‘shtli taomlarning nomlaridir.

*6. Suyuq taom nomlari*.”*Bulduni”, “Oz”, “Mon”, “Lantu”, “Samduj”* kabi sho‘rva nomlarni tilga olingan.

*7. Ichimliklar*. Asarda *bo‘za,sharbat, qimiz* kabi ichimliklarning nimadan olinishi, mazasi, ta’mi haqida qimmatli ma’lumotlar aytib o‘tilgan. Asarda bo‘zaning tariq o‘simligidamn olinishi, mast qilish xususiyati borligi ta’kidlangan.

Xulosa qilib aytganda, “Devonu lug‘otit turk”da oziq-ovqatlar va taomlarning tayyorlash jarayoni, taom turlari, taomlarni tayyorlash va iste’mol qilishda ishlatiladigan uy-ro‘zg‘or buyumlariga doir juda muhim ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan.

**ADABIYOTLAR**

1.Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I jild. 126, 159, 444, 445-b

2. M.Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. III tomlik. T. – 1960. – I tom, 17, 67 betlar.

3. Abdulaxatov N. va boshqalar.Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridagi leksik birliklar tadqiqi. Toshkent- 2013

## “DEVONI LUG‘OTIT TURK”DA QO‘LLANGAN VAQTNI IFODALOVCHI TURKIY LEKSEMALARNING SEMANTIK TADQIQI
## SEMANTICAL STUDY OF TURKISH LEXEMAS USING THE TIMES USED IN THE DEVONI LUG‘ATIT TURK

***Q. Bakirov***

***Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti***

**Abstract:** This article discusses the features of the vocabulary used in the history of the Uzbek language.***Key words:*** *lexeme; morpheme; system; etymology; denotate; anthropolinguistics.* O`zbek tilida qadimdan vaqt va

o`lchov ma`nolari mustaqil til birliklari (semema)yoki boshqa til birliklari semantikasining tashkil etuvchisi (sema) sifatida mavjud. Vaqt va o`lchov semantikasi o`zining leksik, grammatik, fonetik ifodalanishlariga ega. O`zbek tilshunosligi tarixida ham vaqt ma`nosi *payt ravishlari,vaqt ma`noli otlar, sifatlar, olmoshlar, fe`llar, yuklamalar* kabi morfologik, *payt hollari, vaqt ifodalovchi konstruksiyalar*singari sintaktik yo`nalishlarda o`rganilgan. Vaqt  sememasi va semalarining tarkibi, ularning sistema hosil qilish imkoniyatlari, vaqt semantikali makro va mikro sistemalar, bularning tuzilish xususiyatlari, vaqt ifodalovchi birliklarning lug`aviy sistemada tutgan o`rni, ko`lami kabi masalalar o`z yechimlariga ega emas. Leksik sathga oid vaqt birliklarining butun va qism, umumiy va xususiy belgilarini , vaqt bildiruvchi lug`aviy birliklar paradigmalarining sintagmatik imkoniyatlarini tadqiq etish galdagi hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar hisoblanadi. [1.37-41]

Til o`zida rang-barang olamning asliga mos ravishda aks ettirishga harakat qilar ekan, bunday holatda til uchun vaqtning barcha turlarini hayotiy va ilmiy tushunchalar asosida aks ettiradi. Tildagi vaqt ifodalanishlarini o`rganish uchun, avvalo, vaqt  semantikasining denotatini o`rganish maqsadga muvofiqdir.[3.37] Shu boisdan  vaqt tushunchasining taraqqiyoti, unga bo`lgan hayotiy va ilmiy munosabatlar, G`arb va Sharq faylasuf-mutafakkirlarning vaqt haqidagi qarashlari, vaqtning hozirgi kundagi tavsifi asosida vaqtning nima ekanligiga (denotatiga ) e’tibor qaratildi. Vaqt haqidagi turli qarashlarning tadrijiy taraqqiyoti zamonaviy vaqt tushunchasining aniqlanishiga olib keldi. Unga ko`ra, vaqt materiyaning mavjudlik shakli bo`lib, moddiy jarayonlarning keng yoyilishi izchilligini, bu jarayonlarining turli bosqichlari, bir-biridan ajralganligi, ularning davom etishi, rivojlanishini bildiradi. Vaqtning belgilari sifatida esa bir o`lchamlilik, qaytarilmaslik, cheksizlik, davomiylik, uzluklilik, uzluksizlik, bo`linuvchanlik, ketma-ketlik, bir jinslilik kabi xususiyatlar tan olinadi. Ma`lumki, til qurulishida ishtirok etadigan va unda muayyan tuzilishiga, leksik, morfologik, sintaktik sistemalarda aniq ifodalanishga ega bo`lgan tushunchagina ong kategoriyasi bo`la oladi.

Vaqt ham ong kategoriyasi bo`lib, u til qurilishida ishtirok etadi va sistema hosil qiladi. Vaqtning tilda sistema sifatida ifodalanishi insonlarning dunyo, vaqt  strukturasini anglashi , bu haqda o`zgalarga ham axborot berishi  va tilning vaqt-makonda mavjudligi  kabi omillar bilan bog`liqdir. Vaqtning ongda aks etishi asosida tilning temporal funksional-semantik kategoriyasi shakllanadi. Tilda vaqtni ifodalovchi leksik, morfologik, sintaktik kabi ifoda tizimlariga ega bo`lgan ko`p bosqichli temporal maydon mavjud.

Xullas, vaqt va o`lchov birliklari o`zbek tili tarixiningning barcha sathlarida o`z ifodalanishlariga ega bo`lib, har bir sath va ularning birliklari payt ma`nosini o`ziga xos yo‘sinlarda aks ettiradi. “Devoni lug‘otit turk” asaridagi vaqt semantikali ot leksemalar tahrir qilinganida, mazkur leksemalarning vaqt ifodalash imkoniyatlarining turlicha ekanligi ma`lum bo‘ladi. Bu esa “vaqt” semasining turli sememalar tarkibida turlicha o`rin va mavqelarda kelishi bilan bog`liqdir. O`zbek tili tarixan vaqtini bevosita atovchi va vaqtga aloqador predmet, voqea hodisalarni nomlovchi ot lekseamalarga ega. Vaqtni bevosita predmet sifatida nomlovchi ot leksemalarning semik tarkibida “og‘ur-vaqt” semasi yetakchidir. Vaqt bilan aloqador predmet, voqea- hodisalarni nomlovchi ot leksemalarda esa “vaqt” semasi quyiroq mavqeda joylashib, u o`zidan umumiyroq semalarni aniqlab keladi. Vaqtni predmet sifatida nomlovchi payt otlarini farqli semalari asosida turli guruhga ajratish mumkin: sof vaqtni mavhum predmet sifatda ifodalovchi otlar (Og‘ur –vaqt; jar –vaqt: ne o‘g‘urda keldin –qaysi paytda kelding…) vaqt o`lchovi otlari (oy, ko‘ch –fursat : Bir ko‘ch ko‘zgil –bir fursat kutgin..), sutka qismlari otlari (kun, tong: Tunla keldum –kechasi keldim …, otlari (kuz, yoz…),astronomik vaqt(oy,yil….) kabi. Payt ravishlari “vaqt” ifodalovchi lug`aviy sistemaga “vaqt” semasi bilan kiradi va ayni paytda ular sof vaqtni ifodalaydi. Payt ravishlarining semantik mundarijasida “vaqt” semasi yetakchidir. Payt ravishlarini vaqt turlarini ifodalashiga ko`ra o`n guruhga ajratish mumkin: kelasi zamonni ifodalovchi payt ravishlari (so‘ngra, keyin…), o`tgan zamonni ifodalovchi payt ravishlari ( ilgari, burun… ), hozirgi zamonni ifodalovchi payt ravishlari (emdi..), inkor, gumon vaqtni ifodalovchi payt ravishlari (allaqachon, erta- indin… ), uzluksizlikni ifodalovchi payt ravishlari (mangu… ), uzlukli vaqtni ifodalovchi payt ravishlari ( unda- munda… ), chegarali muddatni ifodalovchi payt ravishlari (buguncha… ), sutkaning turli vaqtlarini ifodalovchi payt ravishalari (kunduzi, kechqurun… ), vaqt o`rnini ifodalovchi ravishlar (songda…)

O`zbek tilida shunday holat ravishlari borki, ularning semantik strukturasida vaqt semalari yordamchi semantik element sifatida ishtirok etadi va o‘zbek tili tarixida ham shunday bo‘lgan. Holat ravishlari sememalarini ularning tarkibida mavjud bo`lgan vaqt semalarining o`ziga xos xususiyatlariga ko`ra quyidagicha tasnif etish mumkin: ravishlari (uzoq, oz, …), “izchil vaqtda” semasiga ega holat ravishlari ( birin – ketin, ketma- ket, … ), “O`tmish” semalik holat ravishlari (ilgargiday, burungicha…) qadimgi bajarilish vaqti me`yoriga nisbat beruvchi holat ravishlari (shap-tez: bu so‘z hozir tilimizda deyarli faqat so‘zlashuv uslubida qo‘shma fe’l tarkibida ishlatiladi – shap etib gapirdi; erta kabi ), O`zbek tili tarixida “qisqa muddatda” semalik miqdor ravishlari ham mavjuddir. Bular oz muddatni ifodalovchi Ko‘ch –bir pas singari so`zlardir.Payt ravishlari o`z ma`no imkoniyatlari asosida ma`noviy bog`lanishlar hosil qiladi. Payt ravishlari asosan fe`l valentligini to`ldirib, birikuvchi, aniqlashtiruvchi bo`lib keladi. Payt ravishlari bir tomonlama bog`lanishga kirishib, o`zi bog`lanayotgan leksemadan oldin keladi: endi boshlanadi, ertaga boshlanadi kabi. Ma`lumki, dastlabki valentlikka oid ishlar so`z turkumiga mansub bo`lgan shu asosida fe`l valentliklari aniqlangan fe`lni kengaytirishi mumkin bo`lgan bo`sh joylardan (valentlik) biri qachon ? so`rog`iga javob bo`luvchi komponent temporallikga (payt ravishlariga) mansubdir. Payt ravishlari fe`l valentligini to`ldirib kelar ekan, qanday ravishlarining qaysi turdagi fe`llarga bog`lanishini belgilaydi. Masalan, kecha, bugun, ertaga ravishlari o`zi leksik mundarijasiga ko`ra ( kecha- bugundan avvalgi kun; tun- o`tayotgan kun; ertaga- bugundan keyingi kun ) uzog`i bilan 24 soat yoki uning biror bo`lagida ro`y berishi mumkin bo`lgan harakatini ifodalovchi fe`llar bilan bog`lana oladi: kecha yozdi, bugun ko`rdi, ertaga boradi kabi.[ 5, 47-51] Payt ravishlarining sintagmatik imkoniyatlari ularning o`tgan, hozirgi, kelasi zamoni, sutka qismini, davomli vaqtini, doimiy vaqtini ifodalovchi leksik-semantik guruhlar bo`yicha o`rganilgan. Masalan, sutka qismlarini bildiruvchi kunduzgi, ertalab, kechasi, kechqurun leksemalarini ham o`z semalariga mos ravishda bog`lanishlar hosil qilib kunduzgi ( kechasi ) qorong`i tushdi, tun chiqdi, kechasi erishdi kabi birikmalar hosil qila olmaydi. Zero kunduzi, ertalab sememalarida “yorug`” semasi, kechasi, kechqurun sememalarida “qorong`i” semasi mavjud bo`lib ular fe`l sememasidagi zid semalar bilan moslasha olmaydi. Polisemiya, sinonimiya, kelishik, ko`makchi kabi vositalar Vaqt semali leksemalarning sintagmatik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, vaqt semasiga ega leksemalar tarixan shakllangan va ularning aksariyati tarixiy so‘zga aylangan. Asrlar davomida arial jihatdan boshqa tillar bilan yaqinlik va arablar iste’losining ta’siri olaroq ko‘plab zamon ma’nosiga ega so‘zlar leksemasini saqlagan, ammo shakli almashgan holda o‘zgargan va ulardagi zamon xususiyatlarti deyarli o‘z holicha. Menimcha, payt semali leksemalarning paradigmatik va sintagmatik xususiyatlarini atroflicha o‘rganishimiz, til tarixiga oid ko‘plab muammoli masalalarni anglashimizga yordam bera oladi. Bu esa o‘z navbatida tilimizdagi sathlarning o‘zaro bir-birlari bilan aloqasida aks etishi va ta’sirlashishi bilan baholanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Абдиев М. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили муаммолари.- Тошкент: 2004

2. М. Кошгарий ”Диван луготит турк” Ташкент: ССР,ФАА.1960

3. Нурмонов А. Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. // Ўзбек тили ва адабиёт. 1995, №6

4.Бегматов Э., Неъматов Ҳ., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси. //Ўзбек тили ва адабиёти, 1989,№12

5.Ахтамова Х. Пайт муносабатини ифодаловчи кўмакчи формалар// Ўзбек тили ва адабиёти. 1988.3-с

## TEZAURUSLI LUG‘ATLAR VA ULARNING TILDAGI AHAMIYATI
## THESAURUS DICTIONARIES AND THEIR IMPORTANCE IN LANGUAGE

**M.Bobozaripova**

***O‘zMU magistri***

**Abstract:** The article discusses the issue of thesaurus, which is one of the most important topics in modern Uzbek linguistics. The views and theories about this topic have been mentioned so

far. Thesaurus is said to have played an important role in the development of lexicography, computer linguistics, and all fields of linguistics of word usage.

***Key words:*** *lexicography, dictionary, thesaurus, idiographic dictionary, analogic dictionary, educational thematic dictionary.*

So‘z – serqirra hodisa. So‘z – insonlarning fikri, his-tuyg‘ularini ifodalabgina qolmay, uni o‘z-o‘zini yuksaltirishga, rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

So‘z hodisasi tilshunoslikning deyarli barcha sohalarida tadqiq etiladi. Xususan, leksikografiyada ham. Har bir xalqning betakror milliy boyligi ularning so‘zlari hamda turg‘un iboralaridir. Zamon va makon ta‘sirida tilning lug‘at boyligi doimiy ravishda rivojlanib boradi. Hayot, turmush tarzi, taraqqiyot va kashfiyotlar yangi-yangi so‘zlar, tushunchalarni dunyoga keltiradi, ba‘zi so‘zlar esa eskirib iste‘moldan chiqib ketadi.

Tildagi bunday o‘zgarishlar tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lgan leksikografiyada aks etadi. Leksikografiyaning vazifasi juda keng bo‘lib, u lug‘at tuzish talab va ehtiyojlariga javob berishni ham o‘z ichiga oladi. Shuni aytib o‘tish kerakki, kishilarning yodda tutib qolish qobiliyati naqadar kuchli bo‘lmasin,bir tildagi barcha so‘zlarni, ularning xilma-xil ma‘nolarini esda saqlab qolish nihoyatda qiyin va mumkin ham emas. Shuning uchun ham kishilarning ana shunday ehtiyojini qondirish maqsadida turli xildagi lug‘atlar tuzilgan va hozir ham tuzilmoqda. Hozirgi kunda ikki tillik tarjima laug‘ati, ko‘p tillik tarjima lug‘ati, izohli lug‘at, ikki tillik differensial lug‘at, terminologik lug‘at, tarixiy lug‘at, etimologik lug‘at, frazeologik lug‘at, idiomatik so‘zlar lug‘ati, orfografik lug‘at va ensiklopedik lug‘atlar kishilarning madaniy ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmoqda.

Har xil turdagi lug‘atlar tuzish umummadaniy ahamiyatga egadir. Lug‘at alfavit tartibida tuzilib, qulay qo‘llanma sifatida xalq ommasiga bilim beradi, madaniy funksiyani bajaradi. Lug‘atlar ma‘naviy madaniyat sohasida muhim o‘rin egallaydi, ularda jamiyatning ma‘lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug‘atlar har birimizga ilmiy jarayonda to‘g‘ri va aniq ishlashga, real va obyektiv fikrlash va tasavvur qilishga yordam beradi. Leksikografiya deb leksikologiyaning lug‘atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi qismiga aytiladi. Modomiki so‘z leksikografiya va unga tegishli bo‘lgan lug‘atshunoslik haqida borar ekan biz maqolamizda ko‘proq leksikografiyaga tegishli bo‘lgan tezaurs tushunchasi va uning ahamitati haqida gaplashamiz.

Tezaurusning nazariy konsepsiyasini qurish g‘oysining paydo bo‘lishi tilshunoslikda tasodifiy emas uning tug‘ilishi ilmiy fikrlashning butun rivojlanish jaroyoni bilan bog‘liq. Zamonaviy ilimda – lingvistik, tabiiy-ilmiy, falsafiy, uslubiy fanlar aro tadqiqotlarda tezaurus tushunchasidan foydalanish mumkun. Tezaurus haqidagi tushunchalar yigirmanchi asr va yigirma birinchi asr boshlarida rivojlandi hamda tezaurusning lingvistik nazariyasini yaratish g‘oyasining paydo bo‘lishiga olib keldi. Tilshunoslikda “tezaurus” so‘zi birinchi navbatda leksikografiyadagi lug‘atlar va uning maxsus turi bilan bog‘liq tushncha sifatida yaratilgan. U “ideografik lug‘at “ tushunchasi orqali aniqlanganligi sababli biz “tezaurus” va ideografik lug‘at” so‘zlarini bir-biriga yaqin sinonim tushunchalar sifatida ishlatamiz. Tarixda tezaurus lug‘atlarning yaratilishida idiogfrafik lug‘atlar asos bo‘lgan.

Dastavval idiografik lug‘atlarning nazariy g‘oyalari nems olimi Yagon Trirning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. U semantik maydon tushunchasini tilshunoslikka olib kirdi va uning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqdi. So‘zlarni idiografik nuqtayi nazardan ma’lum mavzular asosida turli guruhlarga jamlab o‘rganish o‘ziga xos samara berishi, bunday usulning muhim ahamiyatga ega ekanliginitaniqli pedagoglar YA. A. Komenskiy, K. D. Ushinskiy va boshqalar ham ta’kidlab o‘tganlar. Leksikani ediografik nuqtayi nazardan o‘rganishning asosiy maqsadi-- bu so‘zning turli ma’nolarini bus-butun yaxlitligicha o‘rganish va ularni o‘z o‘rnida qo‘llashni o‘rgatishdir. Masalan o‘quvchi uchun *ota, ona, o‘g‘il,qiz, aka, uka, opa, singil* yoki *shamol, yomg‘ir, bulut, quyosh, oy, yulduz* so‘zlarini alohida o‘rganib mag‘zini chaqishdan ko‘ra, ushbu so‘zlarni ma’lum bir guruhga jamlab, qiyoslab o‘rganish ancha qulay va oson kechadi . Shuning uchun ma’lum bir bog‘liqlik yoki o‘xshashlikka asoslangan tematik guruh yoki tematik maydonlar nuqtayi nazaridan til leksikasini o‘rganish samarali natijalar berishi mumkin.

Xo‘sh, “semantik maydon” deganda nimani tushunmoq lozim? Trirning ta’rif berishicha, leksik-semantik maydon bu ma’nolari jihatdan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan, birining ma’nosi ikkinchisidan kelib chiqadigan bir-biriga tobe bo‘lgan so‘zlar guruhidir. Boshqacha aytganda bu tushuncha ma’no umumiyligini va predmetning o‘xshashligini aks ettiruvchi birlashgan so‘zlar yig‘indisidir. So‘zlarni bunday holda o‘rganish idiografik tahlilning asosini tashkil etadi.

Idiografik lug‘atning quyidagi asosiy ko‘rinishlari bor.

1. Idiografik tezaurus. Tezaurus tipidagi idiografik lug‘atlarda so‘zlar qat’iy mantiqiy falsafiy tasnif asosida joylashtiriladi.
2. Anologik lug‘at.
3. O‘quv tematik lug‘at[1].

Barcha uni tshkil etuvchi birliklari orasida kuchli semantik munosabat yaqqol korinuvchi lug‘atlarni “tzaurs” deb ataymiz – deb yozgan edi YU.N. Karaulov. Izohli lug‘atda esa asosiy kalit alifbo sanaladi. YU.N.Karaulov alifbo lug‘ati va tezaurus haqida shunday misol keltiradi. Ushakov lug‘atida ***dissoniruyuhiy*** so‘zi ***dissonirovat*** va ***dissotsiatsiya*** so‘zlari orasida keladi. Bu so‘z muzika sohasiga oid bo‘lib, bu sohaga tegishli barcha so‘zlar haqida bilimga ega bo‘lish uchun butun lug‘atni o‘qib chiqish lozim bo‘ladi.

X. Kasaresning tezaursida esa bu so‘z “Muzika” maqolasi ichida quyidagi so‘slar qatorida keladi***: …melodichniy, gomofonicheskey, konsoniruyuhiy, sozvuchniy, akkordiniyn, garmonicheskiy, diatonicheskiy, poluxromaticheskiy…***

Tezaurus lug‘atlarni tuzish zarurati uning mana shunday xususiyatidan kelib chiqadi. Haqiqatdan ham bunday lug‘at“ sokrovishnitsa” ( xazina) deb ataladi[2].

Bog‘li matn tuzayotgan yozuvchi yoki har bir kishi nima demoqchiligini yaxshi bila turib, o‘rinli ibora yoki so‘zni topolmasa, kerakli so‘z tez topiladigan, to‘g‘ri sestimalashtirilgan, guruhlarga bo‘lingan bir kitobdan yordam oladi. Bunday kitob aynan tezaursdir.

Tilshunos olim X. Kesares bir akademikni misol keltiradi. Suzib ketayotgan kema ichida tug‘ulgan kishi qanday atalishini bilmoqchi bo‘lgan akademik odatdagi izohli lug‘atdan bu so‘zni topish uchun nafaqat 200000 kalit so‘zga ko‘z tashlab chiqishi, balki u so‘zlarning izohini ham o‘qib chiqishga majbur. Bu ishga esa odam jismonan qodir emas.

Agar bizning qo‘limizda boshqa tipdagi, ya’ni mavzu yoki ma’no asosidagi so‘zlar guruhidan tuzilgan lug‘at bo‘lsa, masalan ***kema*** so‘zi guruhiga nazar tashlaymiz. Bu yerda kema turlari va boshqalar berilgan. Haqiqatdan ham ***tug‘ilmoq*** so‘zi bilan ***kema*** so‘zining aloqasi kam. Demak bu so‘zni tug‘ilmoq so‘zi guruhidan izlab ko‘ramiz. Qisqacha aytganda butun lug‘atni emas, undagi bir ikki betni varaqlasak kerakli so‘zni topib olamiz. [Осокина, 2015]

Demak, har bir tezaurusda sestema va semantika markazda turadi. Kalit zo‘zlar esa albatta alifbo tartibida bo‘ladi.

Yevropada tezaurus lug‘atlarga qiziqish uyg‘otgan, “Ingliz so‘zlari va iboralari tezaurusi” bo‘lib uning muallifi L.M.Roje edi. U o‘z lug‘ati so‘zboshisida shunday yozadi “ Biz aytmoqchi bo‘lgan fikrimizni qanchalik aniq tasovvur qilmaylik, ba’zan biz shunday vaziyatlarga tushib qolamizki, bizga so‘z yetishmay qoladi. O‘z fikrimizni aniq ifodalash uchun bitta So‘z o‘rniga bir nechta ijobiy va salbiy, kuchli va kuchsiz, ba’zan esa keraksiz so‘zlarni ishlatib yuboramiz. Tezaurus lug‘atning eng muhim xususiyati shundaki, bir fikrning barcha qirralarini ochib beruvchi so‘z va iboralarning boy to‘dasini tortiq qiladi”. [Осокина, 2015]

Yana bir rus tadqiqotchi olimi A.S. Narinyani “ Nima uchun Rossiyada birorta ham tezaurus yo‘q, uni qanday tuzish kerak, tezaurus nimaga va kimga kerak ?” degan savollarga o‘z munosabatini bildiradi: “ Chorak asr oldin AQSHdagi safarimda meni Rojening tezaurusini sotib olishga majbur qilishdi “Sotib ol keyin tushunasan va bizdan minnatdor bo‘lasan” deyishdi. Darhaqiqat hozirgacha ham lug‘at menga yordam beradi. U menga inglizcha matnni tarjima qilishga yordam berdi. Ba’zan notanish yoki uncha tanish bo‘lmagan so‘zning ottenkasini bilish lozim bo‘lsa. Shu lug‘atga murojaat qilaman. Ruscha matnni tahlil qilyapman bir so‘zning sinonimi

[1] www.arxiv.uzIdiografiklug’atlar va ularning ahamiyati
[2] Idiagrafik lug’atlar va ularning ahamiyari www.arxiv.uz

kerak bo‘lib qoldi. Aksiga olib bu so‘z xotiramdan yashirinib qoldi, yana shu lug‘atga murojaat etaman.

Rojening tezaurusi ingliz madaniyatining muhim bir bo‘lagi. U matn tuzuvchi yoki tahrirlovchi har bir kishining – o‘quvchi, talaba, journalist, yozuvchi va keng ommaning yaqin yordamchisidir.

Afsuski, Rojening lug‘atini almashtiruvchi birorta ham Ruscha lug‘at yo‘q. Bu bizning madaniyatimizning, o‘rta va oliy ta’limimizning kemtik joyi”

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkunki, til va madaniyat egizak opa-singillar. Bizning tilimizda ham shunday lug‘atlarning yaratilishi nafaqat tilimizning, balki madaniyatimizning ham yana bir pog‘onaga yuksaltiradi.

Akademik Azim Hojiyevning tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atida tezaurusga shunday izoh berilgan TEZAURUS( yun. Thesaurus – xazina) – tilga oid leksik tarkibni to‘la hajimda aks ettiruvchi lug‘at. O‘zbekiston Milliy Ensiklopidiyasida: tezaurus terminiga quyidagicha ta’rif beriladi “TEZAURUS (yun. Thesaurus – xazina , boylik) 1. Muayyan tildagi barcha so‘zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo‘llanilish holatlarini to‘la-to‘kis aks ettiradigan lug‘at 2. Biron bir ilm-fan sohasiga oid lug‘aviy birlik (so‘z)lar mavzu tartibida joylashtirilgan va ana shu birliklar o‘rtasidagi semantik (tur-jins, sinonimik va boshqa) munosabatlar aks ettirilgan lug‘at. Bunda so‘zlar alfabet tartibida emas, balki bir mavzu, bir tushunchaga aloqador so‘zlarning barchasi bir joyda beriladi; kerakli so‘z tushunchaga qarab qidiriladi”[1].

Demak, tezaurus – termenlar izohini talqin qiladi, muayyan ilm-fanga oidtushunchalarning tizimlashtirilgan majmuasi, qaysi termin qaysi sohaga oid ligini asoslaydi.

Tezaurus – tayanch so‘z va terminlar haqida mukammal ma’lumot beradi.

Tezaurus – leksikaning to‘liq ma’lumotini beruvchi soha lug‘ati. Tezaurus biror tilning mukammal lug‘ati bo‘lib, terminalogiyaning asosini tashkil qiladi. Muayyan tushunchaning introlingvistik va ekstrlingvistik aloqalari tizimidir.

Tezaurus muayyan ilmiy sohaga oid yakka va brikmalar yordamida terminologik sestema modelini yaratadi. Natijada leksikografiyada tezaurusli ilmiy tasnif paydo bo‘ladi.

Tezaurus o‘ziga xos juda murakkab lug‘at sanaladi. Shunday ekan bir ikki kishigina uni amalga oshira olmaydi. Tezaurus tuzish uchun o‘nlab, balki undan ham ko‘proq mutaxasislarning ishtiroki talab qilinadi. Buning uchun tilshunoslar, mantiq ilmi mutaxasislari, hamda lug‘atshunos olimlardan iborat ijodiy guruh tashkil etilishi lozim. Shundagina zamon talablariga javob bera oladigan o‘zbek tilining mukammal tezaurusi yaratiladi.

Demak, hozirgi o‘zbek adabiy tilining asosiy muammolaridan biri bu o‘zbek tilidagi tezaurusli lug‘atlarni yaratish ekan. Bizningcha bunday lug‘atlardan biri bu, o‘zbek tilidagi fe’l-atvor leksemalarining tezaurusli lug‘atini yaratishdir. Bunday lug‘atni tuzishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Fe’l-atvor leksemalarini o‘rganib chiqish;
Fe’l-atvor leksemalarining mavzuiy guruhlarini aniqlashtirish;
Fe’l-atvor leksemalarining ma’noviy xususiyatlarini aniqlash;
Fe’l-atvor leksemalarining giponimiyasini yoritish;
Fe’l-atvor leksemalarining sinonimiyasini o‘rganish;
Fe’l- atvor leksemalarining tezaurusini tuzish.

Chunki bunday leksemalarni atroflicha o‘rganish tilimiz, xususan, leksikamiz sir-asrorlarining yangi-yangi qirralarini ochish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B.154.

2. Yusupov S.N. Tezaurus i zakonodatelstvo (K sozdaniyu obshepravovogo tezaurusa) // Gosudarstvo i pravo. – 1978. – №5. – S.115.

[1] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B.154.

3.Осокина Светлана Анатольевна “ОСНОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ ТЕЗАУРУСА” Барнаул – 2015
4. Н.В. Лукашевич “Тезаурусы в задачах информационного поиска” Москва -2010
5. www. ARXIV.uz

## ABULG‘OZI BAHODIRXONNING “SHAJARAYI TURK” ASARIDA UCHRAYDIGAN AYRIM ETNONIMLAR IZOHI
## EXPLANATION OF SOME ETHNOMYS IN ABULGAZI BAHODIRKHAN'S WORK "SHAJARAYI TURK"

***K.Abduvaliyeva***
***ToshDO‘TAU***
***1-kurs magistranti***

**Annotatsiya:** Maqolada etnonimlar, ya’ni xalq nomlarining nomlanish sabablari va ahamiyati xususida so‘z boradi. Bildirilgan fikrlar Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari asosida dalillanadi. Keltirilgan ba’zi etnonimlar haqidagi ma’lumotlar Suyun Qorayevning “Toponimika” kitobidagi fikrlar bilan izohlangan.

**Kalit so‘zlar:** etnonim, etnonimika, etimologiya, toponomika, toponim, qabila, urug‘, xalq, qarluq, uyg‘ur, barlos, qo‘ng‘irot, mo‘g‘ul, mang‘it, nayman, qatag‘an, qipchoq.

**Abstract:** The article discusses the reasons and significance of ethnonyms, ie the names of peoples. The views expressed are based on the work of Abulgazi Bahodirkhan “Shajarayi Turk”. Some of the ethnonyms cited are explained in Suyun Karayev's book Toponymy.

***Key words:*** *ethnonym, ethnonymics, etymology, toponymy, toponym, tribe, clan, people, Qarluq, Uyghur, Barlos, Ishngirot, Mongol, Mangit, Nayman, Qatagan, Kipchak.*

Abulg‘ozi Bahodirxon (1603-1664) yirik adib, tarixchi olim va tilshunoslikka ham o‘z hissasini qo‘shgan inson sifatida ham ardoqlidir. Adibning “Shajarayi turk” asarida o‘zbeklar bilan bir qatorda, o‘sha davrda yashagan qo‘shni xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odatlari haqida ma’lumot beradi. Asarning asosiy qismi 1663-1664-yilda yozilgan. Asarda Xorazmning XVI-XVII asrning birinchi yarmidagi tarixi bayon etilgan.

Asarda bir necha turkiy qabilalar, o‘zbek urug‘lari haqida ma’lumot va qabila va urug‘ nomlari ma’nolari keltirib o‘tilgan. Ushbu asarda turk-mo‘gul qabilalari haqida ma’lumotlar, o‘zbeklar, sartlar, turkman urug‘lari (sariq, yovmut, qizil oyoq, ersari), o‘zbek urug‘laridan qarluq, uyg‘ur, barlos, qo‘ng‘irot, mo‘g‘ul, mang‘it, nayman, qatag‘an, qipchoq, saroy, kenagas, qurama, qang‘li va boshqa urug‘lar uchraydi.

O‘zbek xalqi turli urug‘lardan tashkil topgan bo‘lib, ma’lum tarixiy davrda, ma’lum hududda, mahalliy etnoslar asosida, turli davrlarda kelib qo‘shilgan etnik komponentlarning aralashib borishi natijasida yanada shakllanib, rivojlanib borgan. Har bir o‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etimologiyasi mavjud.

**Avshar eli –** qadimiy urug‘lardan biri bo‘lib, arab geograflari Buxoro yaqinida Avshar degan qishloqni tilga oladilar. Abulg‘oziy Bahodirxon avshar so‘zini “*ishini ildam ishlamoqchi”* deb izohlaydi.

**Arlot**, arlat, allot – o‘zbek urug‘laridan biri. “Shajarayi turk” asarida Arlot ma’nosi haqida quyidagi misralar bor: “Aning ma’nosi otaning sevar o‘g‘li temak bo‘lur. Arlat bir kishining oti turur. Ani otasi ko‘p sevar erdi. Aning uchun Arlat tedilar. Barcha Arlat eli aning nayeli tururlar” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992, – Б.40.]. Manbalarga ko‘ra, Chingizxon tomonidan Chig‘atoy ulusini boshqarish uchun ajratilgan 4 ming kishilik qo‘shin boshliqlaridan biri ham Arlot urug‘idan (qolgani jaloyir, barlos, qavchin) bo‘lgan. Arlotlar Amudaryodan janubda, Shimoliy Afg‘oniston hududiga o‘rnashganlar. Keyingi asrlarda hozirgi O‘zbekistonning janubiy viloyatlari, shuningdek Xorazmga ko‘chib o‘tganlar. Bu nom hozirgi vaqtda etnonim va ba’zan toponim sifatida Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ko‘proq uchraydi. Buxoro viloyatidagi Olot shahrining nomi ham “arlot” so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan shaklidir.

**Avshar**– qadimiy urug‘lardan biri. Arab geograflari Buxoro yaqinida Avshar degan qishloqni tilga oladilar. Abulg‘ozi Bahodirxon o‘z asarida avshar so‘zini “ishini ildam ishlamoqchi” deb izohlaydi.

**Barlos** – O‘zbekiston hududida, asosan Qashqadaryo vohasida ko‘chmanchi o‘zbeklardan chig‘atoy ulusiga qo‘riqlash uchun yuborilgan 4 ta qabilalardan biri. Barlos so‘zi Abulg‘ozixonning fikricha “qo‘mondon”, Alisher Navoiy asarlariga yozilgan “Badoye-ul lug‘at”ga ko‘ra “bahodir” degan ma’noni bildiradi [Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006].

**Boyovut** – respublikamiz hududida qadimdan yashab kelgan urug‘lardan biri. Rashididdinning “Jome ut-tavorix”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlarida Chingizxon qo‘shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida ham boyovut urug‘i tilga olingan. Boyovut so‘zi “boy”, to‘g‘irog‘i “boylar” “mulkdor” demakdir.

**Irg‘anoqli** (erganakli) – irg‘oqli urug‘i ham qayd qilingan. Ehtimol, bu ikkalasi bir urug‘ning turlicha talaffuz qilinishidir. Irg‘anaq “katak”, “shox-shabbadan to‘qilgan chavra”. Demak, bu urug‘ning tamg‘asi katak shaklida bo‘lgan.

**Kerayt (Kerayit)** – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Turli manbalarda kerayit so‘zi “qora qo‘y”, “qora odam” yoki “qarg‘a” deb izohlangan, etnonim oxiridagi – “t” harfi ko‘plik affiksidir. “Shajarayi turk”da: “kirayt ma’nosi qoraburan temak bo‘lur. Bir kishining yeti o‘g‘li bore di yettisi ham qora. Onlarg‘a xalq kiroytlar derlar erdi. Qadimiy el bo‘lur. Boshlari va mollari ko‘p erdi”, deya izohlangan [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.36].

**Kilgit eli** – “tilida, nutqida kamchiligi bor kishi” ma’nosini anglatadi. Bu haqda Abulg‘oziy Bahodirxon shunday yozadi: “Kishining tilida kamligi bo‘lsa, turk xalqi bo‘ltak der. Mo‘g‘ul kilgi der. Bu kishining tilining kamligi bor erdi. Aning uchun Kilgit tedilar. Barcha Kilgit eli u kishining nasli turur” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.40].

**Mo‘gul** – asl ma’nosi mo‘ngul turur erdi. Avomning tili kelmaslikdan bora-bora mo‘g‘ul tedilar. Mungning ma’nosini barcha turk bilur, qayg‘u ma’nosini turur. Ulning ma’nosi soda dil ya’ni qayg‘uli soda temakdir [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.43]

**Naymanlar** – mo‘g‘ul urug‘i deb hisoblanar edi; olimlar naim so‘zi mo‘g‘ulcha “sakkiz” ma’nosini anglatadi deydilar. “Bu qadim el turur, boshlari va mollari ko‘p bo‘lur erdi. Yurtlari mo‘g‘ul yurtinda bo‘lur. Qoraqurim tegan yerda va ekinlari bo‘lmas” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. 187 – Б. 36]. Naymanlar yirik qabila uyushmasi bo‘lgan. Ko‘plab turkiy xalqlarning tarkibiga kirgan. XIX asrning 70-yillarida o‘zbek-naymanlar Zarafshon vodiysida, Farg‘ona vodiysida va Xorazmda yashagan.

Toponimist olim S.Qorayev etnograf N.A.Aristovning nayman so‘zi Sibirdagi Nayma daryosi nomidan olingan degan fikrni bildirgani haqida ma’lumot beradi. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra naymanlar asli turkiy qabila bo‘lib, sakkizo‘g‘uzlarni mo‘g‘ullar o‘z tiliga moslab nayman deb ataganlar [Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006].

**Nekuz, nekus, nukus** – o‘zbeklar tarkibida ham uchraydigan turkiy etnonim. “Shajarayi turk” asarida nukuslar mo‘g‘ullar tarkibiga kirganligi aytilgan.

**Qarluq eli** – turkiyda *“qorlik, qorliq joy”* (tarixiy voqea asosida kelib chiqqan) degan ma’noni anglatadi. “Qorluq eli Mo‘g‘uliston tog‘larining ichinda yurt qilib o‘lturdilar. Qorluqning podshohi Arslonxon tegen erdi. Mo‘g‘ulistonda berk tog‘larning ichinda yurt qilib o‘ltururlar. Ekin ekarlar, mollari ham bo‘lur erdi” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.32]. Qarluqlar – o‘zbek xalqining etnik tarixida alohida o‘rin egallaydi. Aytishlaricha O‘g‘uzxon Turonzamin tomon kelayotganda qish mavsumida qattiq sovuq bo‘lib qor yog‘gan,va qorda uning yarim lashkari qorda qolib ketgan, o‘sha qolib ketilganlari Qorluqlar deb atalgan. Abulgozi Bahodirxon asarida shunday deydi: “Turk elida elning nomini ko‘targan, unga shon-shuhrat keltirgan 5ta urug‘ (qang‘li, qipchoq, xalaj, uyg‘ur, qorluq)dan biri bo‘lgan. Qarluqlar jangovar xalq bo‘lgan. Qarluqlar chigil, tuxsi, yag‘mo, yabg‘u, tangut, arg‘u, barlos kaltatoylar bilan birlashib turk-o‘zbek qavmini tashkil etadi.

**Qiyot** Abulg‘ozi Bahodirxon fikricha, mo‘g‘ulcha “tog‘dan oqqan sel” ma’nosidagi qiyon so‘zining ko‘pligidir. Bu fikrni V.V. Radlov ham isbotlaydi. Bundan chiqadiki, qiyonni (qiyonli) urug‘ining etimologiyasi ham o‘sha mo‘g‘ulcha qiyon so‘zi bilan ma’nodoshdir.

**Qo‘nqirat eli** – (hozirda Qo‘ng‘irot) “Shajarayi turk” asarida yozilishicha, qayon naslidan bo‘lgan Cho‘rliq mergan degan kishining Qo‘nqirat degan o‘g‘li bo‘lgan va barcha Qo‘nqirat eli uning naslidan tarqalgan.

**Qo‘niqqimar eli** – “O‘rmavit uruqindin bir kishi bor erdi. Aning uch o‘g‘li bor erdi. Ulug‘iga xalq Qo‘niqqimar ot qo‘ydi. Qo‘niqning ma’nosi ulug‘ temak bo‘lur. Bu vaqtda ham ulug‘ qarg‘ani qo‘niq qarg‘a derlar. Qimarning ma’nosi burun, ul kishining burni bisyor ulug‘ erdi. Aning uchun Qo‘niqqimar laqab qoldi. Barcha qo‘niqqimar uruqib kishining nasli turur” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. 187 – Б. 38].

**Qalmoq** – qalmoqlar ko‘chmanchi o‘zbeklardan oldin ham Movaraunnahrda yashagan va turkiylashgan mo‘g‘ul qabilalarining avlodlari bo‘lsa kerak. Muhammad Solihning “Shayboniynoma”sida aytilishicha, qalmoqlar Shayboniyxonga qarshi Buxoro hokimi Boqitarxon tomonida turib jang qilganlar. [Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006].

Qalmoq so‘zi turkiy “qolmoq” fe’lidan olingan, bu so‘z islom dinini qabul qilmasdan majusiylar holida qolgan o‘yrotlarni anglatgan, deyilgan. V.P. Darbakova qalmoq so‘zi mo‘g‘ulcha “duragay”, “aralash”, “qurama” degan ma’nodagi xalmig so‘zidan kelib chiqqanligini aniqladi. Haqiqatan ham aslida o‘yrotlardan ajralib chiqqan qalmoq urug‘i juda ko‘p urug‘-qabilalar aralashmasidan iborat bo‘lgan.

**Qipchoq eli** – qadim turk elida *“ichi qo‘sh yog‘och”*ni qipchoq deb atashgan. Keyinchalik bu xalq nomiga ko‘chgan. Qipchoq – o‘zbek xalqining etnik tarixida katta ahamiyatga ega. Ushbu urug‘ Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” ma’lumotlar berilgan: Qipchoq – Tan (Don), Itil (volga) va Yoyiq (Ural) bo‘ylarinda o‘ltirur erdi.

Qipchoq atamasi “qabuq”dan olingan bo‘lib, ma’lum daraxtning nomi atalib bu daraxt o‘sishdan to‘xtagan qovjirab qolgan ichi kovak bo‘lgan. “Shajarayi turk” asarida O‘g‘uzixon bir safar dushman zarbasidan katta zarar ko‘rib, chekinayotganda sahroda 2 daryo oralig‘ida to‘xtaydi. Shu payt eri urushda halok bo‘lgan xotinning to‘lg‘og‘i tutib daraxt kovagida o‘g‘il tug‘adi. Bundan xabar topgan O‘g‘uzxon bolani o‘ziga o‘g‘il qilib oladi va ismini Qipchoq qo‘yadi. Bola voyaga yetgach unga qo‘shin berib Itil va Yoyiq daryolari tomon yo‘llaydi. Aytishlaricha Qipchoq avlodi Ural-Volga bo‘ylarida 300 yil qolib ketgan.

**Qang‘li** – o‘zbek xalqining shakllanishida tamal toshini qo‘ygan. Ushbu etnonimning kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlar M. Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarix” va Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlarida keltirib o‘tgan. Abulg‘oziy shunday bitadi “O‘g‘uzixon lashkarining qo‘lina o‘n choqli o‘lik mol tushdikim, yuklamakka kuluk ozlik qildi. Bir yaxshi chibor kishi bor edi. Ul fikr qilib arabani yasadi. Mollarni yuklab yuklab qaytdilar. Arabaga qaniq ot qo‘ydilar, ani yasagan kishini esa qaniqli deb atagan”.

**Qiniqli** – “Shajarayi turk”da “Turkman elinda o‘ltirur erdi”, deya izohlangan.

**Turqaq eli** – So‘ngaki ma’lum ermas, qaysi turkdin erkani. Ma’nosi saqchi temak turur [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992.]. Podshohlari o‘zlarini saqlamoq uchun bir necha kishilarni eshiklari oldida navbatchilikka qo‘yishgan. Podshohni qo‘riqlaganlarni turqaqlar deb, keyinchalik xalq nomiga ko‘chgan.

**Uyg‘ur** – ma’nosi yopishqur temak bo‘lur. Ya’ni sut uyidi, uyigandan keyin ajralmas, ya’ni yopishdi. Qut tog‘idan o‘n soy oqib tushgan. Qadim uyg‘ur eli o‘sha soy orasinda o‘tirur erdi [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992].

**O‘rmanqit eli** – “bu elning yurtlari qalin yag‘ochning ichinda turur. Aning uchun O‘rmanqit ot qo‘ydilar” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон. 1992, 187 – Б. 38].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, turkiy xalq uzoq shakllanish va taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Bu taraqqiyot davomida turk ulusi turli xalqlar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatib, nafaqat o‘zining, balki o‘sha xalqlarning ham rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Biz yuqorida etnonimlar haqida, etnonimlarni o‘rganadigan etnonimika fani to‘g‘risida, O‘zbekistondagi ba’zi bir urug‘-qabilalar geografiyasi va ayrim etnonimlar etimologiyasi, ma’nosi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tdik. Har qanday etimologiya, xususan, aksariyat qismi qadimiy so‘zlar bo‘lgan etnonimlar etimologiyasi murakkabdir. Tobora unutilib borayotgan urug‘-aymoq nomlarini to‘plash, yig‘ish, shu etnonimlar bilan atalgan joy nomlarini, etnonimlar bilan toponimlar

munosabatini aniqlash, ya’ni etnonimlardan nom olgan toponimlar bilan birgalikda urganji, qo‘qoni (qarapchi) kabi joy nomlaridan kelib chiqqan etnonimlarni alohida qayd qilish etnonimika oldida turgan vazifalardandir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – 187 b.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – 333 b.
3. Бегматов Э. Мустақиллик ва топонимия. Ўзбек тили ва адабиёти // 2009, 5-сон. 9-12-б.
4. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – 192 b.
5. Internet ma’lumotlari.


## “МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН”НИНГ ТУРКИЙ СЎЗЛАР СЕМАНТИКАСИНИ ЁРИТИШДАГИ ЎРНИ
## THE ROLE OF "MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAIN" IN THE DEVELOPMENT OF TURKISH WORD SEMANTICS


**С.Холманова,**
***ЎзМУ магистранти***



**Аннотация:** мақолада “Муҳокамат ул-луғатайн”нинг илмий-назарий қиймати, амалий аҳамияти, ўзбек тилшунослиги тараққиётидаги ўрни ёритилган. “Муҳокамат ул-луғатайн”даги айрим туркий сўзлар семантикаси таҳлил қилинган. Ҳозирги ўзбек адабий тилига муносабати кўрсатилган. Асар матнининг туркий тиллар тараққиётидаги ўрни, семантик ҳодисаларни изоҳлашдаги аҳамияти кўрсатилган.



**Калит сўзлар:** *туркий қатлам, туркий лексика, туркий сўз, лингвокультурология, язык и культура, лакуна, лексема, эквивалент*.



**Annotation:** the article reveals the scientific and theoretical significance, the practical value of "Muhokamat ul-lugatayn", its role in the development of Uzbek linguistics. The semantics of some Turkish words in "Muhokamat ul-lugatayn" is analyzed. The relation to the modern Uzbek literary language is shown. The role of the text in the development of the Turkic languages is shown, its importance in the interpretation of semantic phenomena.



**Key words:** cultural linguistics, language and cultural attitudes, lacuna, lexeme, equivalent.


Алишер Навоий ижод намуналарини, айниқса, “Муҳокамат ул-луғатайн” асарини ўрганиш ёшлар дунёқарашини маърифий, маънавий жиҳатдан такомиллаштиришда аҳамиятлидир. Бу илмий манбада умуминсоний қадриятлар билан бир қаторда бугунги кун учун аҳамиятли бўлган қарашлар акс этган [1,2].

Алишер Навоий “Муҳокамат ул-луғатайн” асари икки хил тил оиласига мансуб тилларнинг қиёсига бағишланган. Шунинг учун ҳам ўзбек тилшунослигида Маҳмуд Кошғарий қиёсий тилшунослик асосчиси ҳисобланса, Алишер Навоий чоғиштирма тилшунослик асосчиси саналади. Алишер Навоий туркий тилларнинг, жумладан, ўзбек тилининг кенг имкониятларга эга эканлигини амалий жиҳатдан исботлади. Асарларининг тўқсон фоизини туркий тилда битди. Бу тилнинг маъно нозикларидан фикрни таъсирчан ва образли тарзда акс эттиришда фойдаланди. Туркий тилларнинг кенг имкониятини илмий жиҳатдан асослаш учун “Муҳокамат ул-луғатайн”дек қомусий-назарий характерга эга бўлган асар битди.

“Муҳокамат ул-луғатайн” Алишер Навоийнинг тилшуносликка доир қарашларини, тил ва нутқ, тил ва тафаккур, тил ва маданият муносабати, нутқ одоби, сўзлаш маданияти, нотиқлик санъати борасидаги мулоҳазаларини ўз ичига олади. Буюк мутафаккирнинг тил ва нутққа доир аксарият фикрлари табиат ҳодисалари, борлиқ воқелигига қиёсан, уйғун равишда тасвирланган.

“Муҳокамат ул-луғатайн” илмий асар бўлса-да, Алишер Навоий ижодида қўлланган ўз ва ўзлашма сўзларни таҳлил қилишда муҳим аҳамиятга эга. Негаки бу асарда ўша давр нутқ услубининг сўзлашув, илмий, бадиий кўринишларига доир хусусиятни ёритишда манба вазифасини ўтайди.

“Муҳокамат ул-луғатайн”да туркий сўзларнинг салмоғи Навоийнинг бошқа асарларига нисбатан кўп. Ҳазрат Навоий ўша даврда, маълум маънода, эътиборсиз қолган туркий тилнинг ўзига хослигини, бошқа тиллардан қолишмаслигини, айрим ўринларда афзал жиҳатлари борлигини асослашга қаратилган. Ўзлашма сўзларнинг туркий муқобили келтирилиб, назарий фикрлар исботланган.

Туркий тил ва форс-тожик тилини солиштирар экан, Алишер Навоий туркий тилдаги айрим тушунчаларнинг форс-тожик тилида ифодаланмаслиги, маданий бўшлиқ ҳосил қилиши (фанда бу ҳодиса *лакуна* термини билан юритилади) ҳақида сўз юритади. Ўзбек тилидаги синонимик қаторларнинг лакунар бирлик ҳисобланиши, ўзга тилларда номланмайдиган тушунчаларни ифодалаши ҳақида биринчилардан бўлиб маълумот беради. Масалан, форс-тожикча خوردن (хўрдан) “ичмоқ”, “емоқ” сўзига муқобил сифатида келтирилган *сипқармоқ* (симирмоқ), *томшимоқ* (“лаззат топа-топа, оз-оз ичиш”) сўзлари туркий қатламга мансубдир.

*Сипқармоқ* ҳозирги ўзбек тилида ишлатилади. *Томшимоқ* фонетик ўзгаришга учраган кўринишда (*тамшанмоқ*) қўлланади.

گریه کردن “йиғламоқ” маъносидаги сўзга *йиғламсинмоқ* (“йиғламсинуру кўзига келмас ёш”), *инграмоқ, синграмоқ, сиқтамоқ* (йиғлашнинг кучли даражаси), *ўкурмак* (“ҳаддан ортиқ ҳаяжон, тўлғониш била йиғлаш”), *инчкирмак* (“инчка ун билан йиғламоқ”), *ҳой-ҳой йиғламоқ* (ўзни отиб йиғлаш) бирликлари мувофиқ келишини айтади.

Мазкур синонимик қаторнинг барчаси туркий қатламга мансуб бўлиб, “йиғлаш”нинг турли даражасини ифодалайди. Йиғлашнинг кучли даражасини ифодаловчи *инграмоқ, синграмоқ, сиқтамоқ* сўзлари ҳозирги ўзбек тилида семантик ўзгаришга учрамаган ҳолда қўлланади. *Инчкирмак, ҳой-ҳой йиғламоқ* ҳозирги ўзбек тилида ишлатилмайди.

Алишер Навоий “йиғламоқ”нинг яна бир даражасини ифодаловчи *бўғизни қириб йиғлаш* бирикмасини ҳам қўллайди:

*Чарх зулмидаки, бўғзумни қириб йиғлармен,*

*Игирур чарх (урар) инчкириб йиғлармен* [1,114].

*Бўғизни қириб йиғлаш* бирикмаси учта сўзнинг бирикишидан ҳосил бўлиб, уларнинг ҳар учаласи ҳам туркий қатламга мансубдир. Бирикмани ҳосил қилувчи сўзларнинг иккитаси ясама (*бўғ+из; йиғи+ла*), биттаси туб сўз (*қириб*) ҳисобланади.

Бўғизни қириб йиғлаш бирикмасидаги *бўғизни қириб* туркий тиллар табиатига хос барқарорлашувни ўзида ифода этади. Мазкур сўзларни алоҳида ажратиб бўлмайди, бу бирликлар яхлит ҳолда умумий луғавий маънони англатади. Қириб сўзи алоҳида қўлланса, *бўғизни қирмоқ* таркибидаги маъно реаллашмайди.

Алишер Навоий тана аъзоларининг форс-тожик тилида номланмайдиган қисмларини келтирар экан, туркий сўзларни мисол қилиб келтирилади. *Ва хўбларнинг кўз ва қошлари орасинки, **қабоғ** дерлар, форсийда бу узвнинг оти йўқтур*.

Қабоғнинг шеърий мисраларда учрашига доир мисоллар келтиради:

Маснавийда бир жамоат гўзаллар тарифида бундай дейилибди, (байт:)

*Менгизлари – гул-гул, мижалари – хор,*

*Қабоғлари – кенг-кенг, оғизлари – тор.*

[Гўзалнинг таърифида айтади: Юзлари гул-гул, киприклари тикан, кўз қабоқлари кенг-кенг, оғизлари бежирим [4,57].

*Қабоғ* “ёпмоқ”, “қопламоқ” маъносидаги ***қоп*** асосидан ясалган:*қоп+ақ<қапақ<қабақ.* Вазн, оҳанг талабига кўра *қабоғ* шаклини олган.

*Алишер Навоий хол*нинг катта турини туркийлар *менг* деб атаганликларини, форс-тожиклар бу тушунчани номламаганини ёзади: *Ва ҳусн таърифида улуғроқ холғаким,*

*турклар* ***менг*** *от қўюптурлар, алар от қўймайдурлар*. *Менг* туркий сўз бўлиб, Алишер Навоийдан олдин Хоразмийнинг “Муҳаббатнома” асарида учрайди:

*Онингким ол энгинда менг яратди,*

*Бўйи бирла сочини тенг яратди.*

*Менг* ҳозирги ўзбек тилида қўлланмайди, истеъмолдан чиққан.

Алишер Навоий *оға* (ака), *ини* (ука), *эгачи* (опа), *сингил, опаға* (отанинг оға-иниси), *тағойи* (онанинг оға-иниси) каби бир қатор қариндошлик атамаларининг форс-тожик тилида мавжуд эмаслигини ёзган [1,115]. Қариндошлик атамалари, асосан, туркий қатламга мансуб бўлиб, ўзлашма сўзларга оид қариндошлик атамалари ўзбек тилида кам учрайди. Алишер Навоий бир вақтда ҳам “оға”, ҳам “ини” тушунчасини ифодалашга хизмат қиладиган форс-тожикча *бародар* сўзини келтиради. *Бародар* ҳозирги қипчоқ шеваларида кексалар нутқида “биродар” кўринишида “тенгдош” маъносида қўлланиб келади.

“Муҳокамат ул-луғатайн”да қариндошлик терминлари мисолида форс-тожик тилига ўзлашган туркий сўзлар ҳақида ҳам маълумот бериладики, бу маълумотлар туркий тиллар, хусусан, ўзбек тилининг тараққиёт хусусиятлари, сўз ўзлашиши, сўз ўзлаштириш масаласи ҳақида муҳим илмий хулосалар беради.

Сарт тилида шу тилда муқобили бўлмаган туркий тилдаги қариндошлик атамалари қўлланишини қайд этар экан, *кўкалтош, атка, энага* сўзларининг сарт тилига, яъни форс-тожик тилига ўзлашгани ҳақида маълумот беради: *Ва* ***кўкалтош****ни туркча тил била дерлар. Ва* ***атка*** *ва* ***энага****ни ҳам бу тил била айтурлар* [1,115]. *Кўкалтош, атка* сўзлари истеъмолдан чиққан. Бу сўзлар англатган тушунчани ифодалайдиган бошқа сўз ҳам мавжуд эмас. Кейинги йилларда ўзбек тилига “тютор” интернационал бирлиги кириб келди. “Тютор” вазифаси айнан “атка” нинг маъноси, сўз англатган фаолият турига мос келади. Афсуски, *атка* сўзининг истеъмолдан чиққанига кўп асрлар ўтгани боис бу сўзни қўллаш мувофиқ эмасдек туюлади.

Навоий ўрдакнинг етмиш турини ифодаловчи сўз мавжудлигини, бу сўзларнинг муқобили форс-тожик тилида йўқлигини, уларнинг барчаси учун биргина *мурғаби* сўзи ишлатилишини айтади. Ўрдак турларини билдирувчи

*жўрка, эрка, суқтур, олмабош, чокирқанот, темурқанот, алдалдаға, олапука, боғчол* каби сўзлар туркий қатламга мансубдир.

“Муҳокамат ул-луғатайн” тилшуносликнинг назарий масалалари ёритилган манба сифатида ҳам аҳамиятлидир. Асарда Алишер Навоий етук тилшунос сифатида майдонга чиқади. Ўзбек тилшунос олими А.Нурмоновнинг этироф этишича, “ота-боболаримиз қолдирган ёзма ёдгорликларни синчиклаб ўргансак, бу асарларда тилшуносликнинг бир қанча масалалари Европа олимларидан анча олдин баён қилинганига гувоҳ бўламиз” [3,11]. Олим томонидан Форбий, Беруний, Ибн Сино, Маҳмуд Кошғарий, Маҳмуд Замахшарий, Алишер Навоий, Бобур каби аждодларимизнинг лингвистик қарашлари талқин этилган [3,15].

“Муҳокамат ул-луғатайн” туркология тарихида икки жиҳатдан қийматга эга:

“Муҳокамат ул-луғатайн” туркий тилларнинг кенг имкониятлари назарий жиҳатдан асослаб берилган илмий асардир.

“Муҳокамат ул-луғатайн” XII – XVI асрларда фаол қўлланган туркий сўзлар акс этган.

“Муҳокамат ул-луғатайн”даги туркий сўзларни ўрганиш, ҳозирги ўзбек адабий тили ва шеваларига қиёслаш амалий аҳамиятга эга.

Биринчидан, XII – XVI асрларда фаол қўлланган туркий сўзлар, уларнинг қўлланиш даражаси, маънолари ҳақида тасаввур ҳосил бўлади.

Иккинчидан, истеъмолдан чиққан, ҳозирги ўзбек адабий тилида қўлланмайдиган, архаизмга айланган лексик бирликлар, уларнинг маънолари борасида билим ҳосил қилинади.

Учинчидан, ҳозирги ўзбек тилидаги лакуналар, туркий қатламга мансуб лакунар бирликлар тизими аниқланади.

Мумтоз илмий манбалар тадқиқи туркий тиллар, хусусан ўзбек тили тарихий тараққиёти, лексик-семантик ўзгаришлар, олам лисоний манзарасидаги қарашларни аниқлашда амалий аҳамиятга эга.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. -Тошкент, 2011; www. ziyonet.uz

2.Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami.10 jildlik.10-jild. “Muhokamat ul-lug‘atayn” T.: G‘afur G‘ulom, 2013

3.Нурмонов А. Танланган асарлар. I жилд. –Т.:Академнашр, 2012.

4.Содиқов Қ. “Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн”. Т.: Академнашр. 2017.

5. Xolmanova Z. Alisher Navai’s views regarding to lingvokulturology. International journal “Anglisticum”. Literature, linguistics& Interdisciplinary studies, 2019.

6.Xolmanova Z. Alisher Navoiy – lakuna hodisasining ilk tadqiqotchisi. “Alisher Navoiy – XX asr” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. –Toshkent, 2020 –yil, 8-fevral.

7.Xolmanova Z. Alisher Navoiy-lingvokulturologik tushunchalarning ilk tadqiqotchisi sifatida. “Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma’naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o‘rni”. Xalqaro konferensiya (Toshkent,2019-yil 4-6 fevral) materiallari. Материалы конференции “Место творческого наследия Алишера Навои в развитии духовности и просвещения человечества”.-Toshkent, 2019.

# AJDODLAR TAFAKKURI VA TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

## ТИЛШУНОСЛИКДА КОГНИТИВ ЙЎНАЛИШЛАР
## COGNITIVE DIRECTIONS IN LINGUISTICS

**М.Абдураҳманова**
***ЎзМУ доценти,***
***филология фанлари номзоди***

**Аннотация:** мақолада тилшуносликдаги когнитив йўналишлар баён этилган. Менталингвистика, психолингвистика ва нейролингвистика, лингвосемиотика ва прагмалингвисти, когнитив тилшунослик контолингвистика, онтолингвистика каби соҳалар ҳақида кисқача маълумотлар берилган.

**Abstract:** the article describes cognitive trends in linguistics. Brief information is given on such fields as mental linguistics, psycholinguistics and neurolinguistics, linguosemiotics and pragmalinguistics, cognitive linguistics contolinguistics, ontolinguistics.

***Калит сўзлар:*** *Назарий тилшунослик, линвистика, менталингвистика, психолингвистика ва нейролингвистика, лингвосемиотика ва прагмалингвисти, когнитив тилшунослик контолингвистика, онтолингвистика.*

***Keywords:*** *Theoretical Linguistics, Linguistics, Mentalinguistics, Psycholinguistics and Neurolinguistics, Linguosemiotics and Pragmalinguistics, Cognitive Linguistics Contolinguistics, Ontolinguistics.*

Назарий тилшуносликнинг асосчиси Вильгельм фон Гумбольдт тилнинг моҳиятини очишда антиномия (anti –қарши, nomos-қонун; қонундаги қарама-қаршилик) методини қўллайди. Бу жараёнда тил тизимига нисбатан бир қанча антиномияларни келтиради.

Шулардан бири, тил ва тафаккурнинг ўзаро диалектик муносабати ҳақидаги фикрларидир: а) тил ва тафаккур ўзаро ажралмас, бир бутундир; б) тил ва тафаккур ўзаро “ажралувчи”, икки қарама-қаршиликка эгадир. Тил тафаккурни, фикрни ифодалаш учун хизмат қилади. Тафаккур тил орқали юзага чиқади. Тилсиз тафаккур, тафаккурсиз тил йўқ. Айни вақтда тил моддий, тафаккур эса психологик. Тил ташқи, тафаккур эса ички, тил аниқ, тафаккур эса мавҳум, тил реал, тафаккур эса ирреал. Демак, тил ва тафаккур ўзаро бир-бирини инкор этувчи ва бир-бирисиз мавжуд бўла олмайдиган тушунчалардир. Тилшуносликда тил ва тафаккур муносабатларини махсус ўрганувчи соҳа **менталингвистика** деб аталади. Менталингвистика – лингвистика атамасига юн. mens, mentis- *ақл, идрок, тафаккур* сўзлари бирикиши билан ҳосил бўлган. Менталингвистика масаласи нафақат умумий тилшунослик, балки мантиқ, психология, фалсафа ва бошқа фанлар учун ҳам ўта мураккаб ва долзарб вазифалардан ҳисобланади. Хорижий тилшуносликда менталингвистиканинг менталистик ва механистик йўналишлари белгиланган. Менталистик йўналиш тил ва тафаккурнинг ажралмаслигини тарғиб қилади. Тафаккур тил билан узвий боғланган. Инсон тафаккури эса тил билан такомиллашади. Тилда тафаккурнинг натижаси мустаҳкамланади. Механистик йўналиш эса тил ва тафаккурнинг бир-биридан мустақиллигини тарғиб этади. Бу йўналиш инсон руҳияти билан боғлиқ бўлиб, бихевиористик йўналиш деб ҳам юритилади. Бихевиоризм инглизча «vixeoyror» сўзидан олинган бўлиб, хулқ-атвор деган маънони билдиради, яъни инсон тафаккури унинг тилида ва хулқ-атворида намоён бўлади. Бу йўналиш назариялари психология ҳамда педагогика фанларининг ўрганиш объектига айланди. Демак, тил ҳам, тафаккур ҳам ўз моҳиятига кўра фалсафий, психик (руҳий) ва ижтимоий ҳодисадир. Буларни ҳисобга олган ҳолда ҳозирда менталингвистиканинг янги йўналишлари вужудга келди: 1.**мантиқий** 2.**психологик** 3.**семиотик (белгили)** 4.**контенсив (тушунча, онг).** Тил тафаккур қуролидир. Тафаккур асосини **мантиқий** тушунчалар белгилайди. Тил асосини эса лисоний бирликлар белгилайди. Мантиқий тўғри тузилган гаплар орқали фикримизни баён этамиз. Тафаккурнинг яна бир хусусияти шундаки, у воқеликни умумлаштирилган ҳолда акс эттиради, яъни қонуний боғланишларни сўз ва тажриба воситасида акс эттиради. Нарса ва ҳодисалар ривожланиш қонуниятларини аниқлаш билан инсон табиат ва кишилик жамияти тараққиётини бошқариш имкониятига эга бўлади. Дарҳақиқат, инсон тафаккури тил билан чамбарчас боғлиқдир. Тафаккур, барча **психик** жараёнлардек, мия фаолиятининг натижасидир. Инсон фикрлаётганида мияда мураккаб жараёнлар содир бўлади, мия пўстлоғида марказлар ўртасида боғланишлар юзага келади. Бундай ҳодисаларни тилшуносликда **психолингвистика ва нейролингвистика** соҳаси ўрганади. Шунинг учун бўлса керак, баъзи илмий адабиётларда психолингвистика ва менталингвистика атамалари синоним тарзда ҳам қўлланилади. Тил ва тафаккурнинг бирлиги нутқда ўз аксини топади. Нутқ оғзаки ва ёзма шаклда мавжуд бўлиб, унда фикримиз моддий шаклга, яъни ҳиссий идрок этиладиган шаклга киради ва шу тариқа у энди бир шахсга эмас, балки жамиятга тегишли бўлиб қолади. Маълумки, тил кишиларнинг ижтимоий мехнат фаолияти негизида вужудга келган ва ривожланган. Шунинг учун ҳам у чуқур ижтимоий мазмунга эга бўлиб, маданиятимиз ва тарихимизнинг муҳим бир қисмини ташкил этади. Тил ёрдамида билимлар ҳосил қилинади, тўпланади ва авлоддан авлодга етказиб берилади. Шу тариқа у таълим ва тарбия ишларини амалга оширишга, маданиятимизни тараққий эттиришга ҳам ёрдам беради. Тил тафаккур билан узвий боғланган, фикримизнинг бевосита мавжуд бўлишини таъминлайдиган ва кишилар ўртасида алоқа ўрнатишга хизмат қиладиган ахборот **белгилари** тизимидан иборат. Тафаккур жараёни тушунча, ҳукм, хулоса чиқариш шаклида ҳам давом этади. Тафаккур оламни мавҳумлаштириб ва умумлаштириб акс эттирадиган идеал ҳодисадир. Мавҳум нарсаларни, умумийликни фақат тил ёрдамида қайд этиш мумкин. Тил белгилар тизимидир. **Белги** билиш жараёнида бошқа бир предметнинг вакили вазифасини бажарадиган у ҳақида маълум бир хабар бериш, уни сақлаш, қайта ишлаш ва узатишга имконият яратувчи моддий предметдир. Бироқ ҳар қандай белги ҳам тил белгиси бўла олмайди. Тилга алоқаси бўлмаган белгилар қаторига нусха-белгилар, индекс-белгилар ёки кўрсатувчи белгилар (масалан, *бадан ҳароратининг кўтарилиши – касаллик белгиси,*

*тутун – оловнинг белгиси* ва шу кабилар) киради. Тил белгиси символ-рамзлар шаклида мавжуд бўлиб, ўзи ифода қиладиган предметлар билан тузилишига кўра ҳеч қандай ўхшашликка эга эмас. Мантиқ ўз эътиборини ана шундай тил белгиларини ўрганишга ҳам қаратади. Тил белгилари ўз маъносига ва мазмунига эга. Тил белгисининг мазмунини у ифода қилаётган, кўрсатаётган объект ташкил этади. Белгиларнинг билишдаги вазифасини ўрганишга Аристотель, Сократ, Лейбниц каби мутафаккирлар катта эътибор берганлар. Белгилар ҳақидаги таълимотга америкалик файласуф Чарльз Пирс (1839-1914) асос солган. Сўнгра шогирди Ч. Моррис давом эттирган. Бу фан тил белгисини уч хил йўналиш бўйича таҳлил этади. Биринчисини **семантика** ташкил қилиб, у белги билан у ифода қилаётган объект ўртасидаги муносабатни ўрганади. Иккинчиси **прагматика** бўлиб, у кишиларнинг белгиларга муносабатини ҳамда белгилар ёрдамида кишилар ўртасида вужудга келадиган муносабатларни ўрганади. Учинчиси **синтаксис** белгилар ўртасидаги муносабатларни (тилни қуриш қоидаларини) ўрганади. Таъкидлаш жоизки, ушбу ғоялар асосида тилшуносликда **лингвосемиотика ва прагмалингвистика** соҳалари вужудга келди. Тилни тафаккур (онг, тушунча) билан боғлаб, унинг ҳосил бўлишидаги психологик, биологик ва нейрофизиологик жиҳатларнинг ижтимоий, маданий ва лисоний ҳодисалар билан узвий алоқасини илмий тадқиқ этувчи соҳа **когнитив тилшунослик** деб аталади. Когнитив сўзи инглизча “cognize– билмоқ, англамоқ, тушунмоқ” демакдир. Когнитив тилшунослик “чегарадош фан” бўлиб, (олимлар XX асрни “чегарадош фанлар” асри деб аташди) когнитология (билимлар ҳақидаги фан), когнитив психология (билиш психологияси), психолингвистика, лингвистика каби соҳалар тўқнашувида вужудга келди. Когнитив тилшуносликка XX асрнинг 70- йилларида В.фон Гумбольдт, О.Есперсен, Л.Ельмслев, Бодуэн де Куртэне, И.Мешчанинов ва бошқаларнинг тил ва тафаккурнинг ўзаро алоқадорлиги ҳақидаги ғоялари асос бўлди. Илк бор когнитив тадқиқотлар 1960 йил Гарвард университетида психологлар Дж.Миллер ва Дж. Брунер томонидан ўтказилди. 1975 йилда Дж. Лакофф ва С.Томпсоннинг мақоласида “когнитив грамматика” (когнитивная грамматика) термини пайдо бўлдида 80-йилларда Европанинг анъанавий тилшунослигида когнитив тилшунослик қарор топди. Рус тилшунослигига эса когнитив лингвистика В.И.Герасимовнинг илмий мақоласи билан кириб келди. Когнитив тилшуносликнинг шаклланишида М.Минский, Ч.Филлмор, У.Чейф, Е.Кубрякова, В.Демьянков, А.Кибрикларнинг тадқиқотлари муҳим ўрин эгаллайди. Когнитив йўналишларидан яна бири **онтолингвистика** (***онтогенез***- ривожланиш демакдир. Термин немис биологи Э.Геккель томонидан 1866 йилда киритилган) ҳисобланади. Онтолингвистика болалар нутқини ва тил тизимининг бола томонидан ўзлаштирилиш жараёнини ўрганади. Когнитив йўналишларнинг вазифаси тил ёрдамида билим олиш ва сақлаш, тилни амалда қўллаш ҳамда узатиш, умуман, тил тизими ва таркибини инсон миясидаги инъикоси сифатида тафаккур билан боғлашдир. Когнитив тилшуносликнинг таянч тушунчаларидан бири – бу концептдир. Бу атама XX асрнинг 90 йилларига келиб қўлланила бошлади. Концепт сўзи аслида лотинча conceptus бўлиб, “тушунча” маъносини ифодалайди. Ҳозирда “концепт” терминидан “тушунча”сўзининг синоними сифатида фойдаланилмоқда. Концепт термини математик мантиқ, маданиятшунослик, психология каби фанларда ҳам фаол қўлланилмоқда. Е.С.Кубрякова таъкидлаганидек, “концепт” термини тафаккур, англаш, маълумотларни сақлаш ва қайта ишлаш каби муаммолар билан шуғулланувчи когнитив психология ҳамда когнитив тилшунослик, лингвокультурология фанлари учун “соябон” вазифасини ўтайди.

Концептлар халқнинг онгида жамоа мероси сифатида, унинг маънавий мулки, маданияти сифатида намоён бўлади. Айнан жамоанинг тафаккури концептнинг боқийлигини таъминловчи муҳим воситалардан бири ҳисобланади. Концепт лингвистик категория сифатида тушунча категориясини тил тизимида намоён этувчисидир. И.И.Мешчанинов тушунча категориясига (понятийные категории) ойдинлик киритади. Унинг фикрича, тилда ифодаланаётган ҳар қандай нарсани тушунча категорияси деб бўлмайди. Тушунча категорияси тилнинг турли сатҳларида, турли воситалар орқали ифодаланиш имкониятига эга. Концепт тил воситалари, лексик-семантик парадигмалар орқали намоён бўлади, яъни

концептнинг умумий мазмунини бир марказга бирлашган семантик майдон ҳосил қилувчи лексик бирликлар ташкил этади. Бу майдонга кирувчи лексик бирликлар маъносига кўра бир-бири билан узвий алоқада бўлади. Концепт тушунчаси ўзида мантиқшунослик, психология, тилшунослик ва билиш назарияси фанларининг ўзаро боғлиқлиги, ҳамкорлигини акс эттиради. Концепт тафаккур бирлиги ҳисобланиб, унинг асосида тушунча, маъно ва образ ётади Хуллас, менталингвистиканинг мантиқий, психик (руҳий), семиотик (белгили), контенсив (тушунчавий) йўналишлари антропоцентрик тилшуносликнинг вужудга келишига сабаб бўлди. Шунга кўра. Когнитив тилшунослик ҳозирда антропоцентрик парадигма сифатида психолингвистика, нейролингвистика, онтолингвистика, лингвокультурология, этнолингвистика, паралингвистика, прагмалингвистика, социолингвистика каби турли соҳалар билан бир қаторда туради.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Маслова А.Ю. Введение в прагмалингвистику. М. 2014.
2. Герасимов В.И. Новое в зарубежной лингвистике. Когнитивные аспекты языка. Вып. XXIII, 1988

## ЛИСОНИЙ ҲУРМАТ ТАМОЙИЛЛАРИ МУЛОҚОТ МАҲСУЛДОРЛИГИ АСОСИ СИФАТИДА
## VERBAL POLITENESS STRATEGYAS ABASIS FOR PRODUCTIVE COMMUNICATION

**А. Шамахмудова,**
***tadqiqotchi***

**Abstract:** This article deals with politeness theory which is of great importance in interpersonal communication. Politeness is characterized from the pragmalinguistics point of view, examples are given to demonstrate the presence and absence of politeness in Spanish discourse. The necessity of correlating the politeness strategy with grammatical categories and context has been substantiated.

***Key words:*** *Pragmalinguistics, politeness theory, speech acts, verbal strategy, verbal and non-verbal communication, communicative functions, positive and negative image.*

Лисоний мулоқотнинг маҳсулдорлигини таъминлаш тамойил қоидаларини татбиқ қилиб беҳисоб нодир асарлару, мақолу-маталлар яратилган. Бу борада шарқ мутафаккирларидан Юсуф хос Хожибнинг “Қутадғу билиг”, Кайковуснинг “Қобуснома”, Аҳмад Яссавий ва Алишер Навоийнинг ноёб асарлари алоҳида ўрин эгаллайди. Уларнинг барчаси ҳозиргача ўзининг қадр-қийматини сақлаб, замонавий тадқиқотчи олимларнинг илмий изланишларида дастурул амал бўлиб келмоқда.

Социопрагматиканинг мустақил фан сифатида вужудга келишига ҳурмат тамойилига нисбатан кенг миқёсда қизиқиш ва ўрганиш сабаб бўлди. Унинг шаклланишига П. Браун, С. Левинсон, Ж. Лич, Г. Каспер каби прагмалингвист олимлар ўз улкан ҳиссаларини қўшганлар. Браун ва Левинсоннинг бу борадаги ҳурмат тамойилига бағишланган илмий тадқиқот ишида “Социолингвистика прагмалингвистикага татбиқ этилиши керак” деган фикрни илгари сурганлар [Brown, Levinson, 1987: 281]. Прагмалингвистика тилнинг тизимли равишда матн билан алоқасини ўрганиш билан шуғулланса, социопрагматика ҳар хил ижтимоий мавқеъга эга бўлган шахсларнинг у ёки бу вазиятда нима учун айнан ушбу нутқий тузилмалардан фойдаланганлигини таҳлил қилади.

Ҳурмат тамойили зиддиятли вазиятларни бартараф этишга хизмат қиладиган нутқий фаолият стратегияси деб тан олинган. Ушбу стратегиянинг фаоллашувидан асосий мақсад шахс қадриятини, ҳурматини жойига қўйиш ҳисобланади. Энг довруқли олимлардан бири – файласуф, профессор Жон Дьюининг таъкидлашига кўра, инсон табиатига хос бўлган барча интилишлар замирида “ўзининг қадрли бўлишини исташ” ётади. Уильям Жеймс эса бу борада шундай дейди: “Инсон табиатининг чуқур хусусиятларидан бири – кишининг ўзига яраша қадрини муносиб баҳоланиши хоҳишидир”. Ҳурмат ва қадрланишга интилиш

Диккенсни ўлмас асарлар ёзиш сари илҳомлантирди. Ана шу интилиш Кристофер Ренни тош ҳақида поэма битишга ундаган бўлса, Рокфеллерга миллионларни жамғариш имконини бериб, у бу бойликни умрининг охиригача сарфлай олмади[Карнеги, 2015:30]. Ҳар бир инсон ижтимоий шахсдир, унинг жамоадаги ўрнига нисбатан шахсияти, ижтимоий образи белгиланади.Мулоқот жараёнида сўзловчининг ижтимоий образини (imagen) эътиборга олиш керак бўлади. Бу қоидага амал қилинмаганда "шахс образига таҳдид" вужудга келади ва мулоқотнинг самарадорлигига путур етказади. Шунинг учун, ушбу образни сақлашга ва қадрлашга(salvar la imagen) интилишимиз лозим [Yule, 1996: 61]. Дарс пайтида гурунглашиб ўтирган талабага ўқитувчи, "Ҳой, овозингни ўчир, дарс ўтгани қўясанми, йўқми? деб айтса, унинг шахсиятига теккан бўлади. Ушбу вазиятда моҳир педагог "Валиев, илтимос, ёки мен гапирай ёки сиз гапиринг" деган нутқий тузилмада интенцияни яширин (имплицит) ифодалаш орқалиадресатнинг образини сақлаб қолган бўлади.

П. Браун ва С. Левинсонлар, мулоқот интенциясини ифодаланиши усулларининг фарқига нисбатан "салбий ва ижобий ҳурмат" турларига ажратиш фикрини олға сурдилар. Сўзловчи мурожаат қилаётган шахс билан симметрик ёки асимметрик муносабатда бўлишига қараб, салбий ёки ижобий ҳурмат шароити вужудга келади. Юқоридаги номлари зикр этилган муаллифлар салбий ҳурматни муносабатларнинг асоси,унинг юраги дебатаганлар(el corazon del cortesia-"ҳурмат муносабатининг юраги") [Brown, Levinson, 1987: 129]. Бу адресатга лисоний мурожаат жараёнида унга нисбатан эътиборли бўлишга интилиш, унинг мустақиллигини тан олиш, сўзловчи томонидан улар ўртасида мавжуд бўлган чегарани бузиш ниятини йўқлигини билдириш ва агар ушбу чегара бузилиши зарурияти вужудга келганда ҳам унга бўлган таъсирни камайтиришга асосланган.

Агар Ж.Лич нутқий актларни табиатига кўра ижобий ва салбий ҳурмат турларига ажратган бўлса, ушбу назария муаллифлари образга таҳдид нутқий актитушунчасини киритганлар. Адресатнинг салбий образига таҳдид этувчи нутқий актлар таркибига улар биринчи навбатда буйруқ, маслаҳат, таҳдид ва огоҳлантиришни киритишни лозим топдилар. Бу қаторга шунингдек, сўзловчи тингловчини фаолиятга ундовчи ёки қайсидир жиҳатда унинг туйғулари ва қизиқишига таъсир этувчи илтимос, ундаш, таклиф этишни ҳам киритганлар.

Салбий ҳурмат стратегиясини умумлаштириб, уларнинг асосийларини тилга олсак[Brown, Levinson, 1987: 129–208; 2001: 51]

Мақсадингизни билвосита ифодаланг: *Por favor, puede Ud. alcanzar la sal?*

Ўз хоҳишингизни савол орқали намоён этинг: *¿No quieres ayudarme?*

Тингловчига танлаш имконини яъни, ундан кутилаётган фаолиятни амалга оширмаслик имконини беринг:*Seria bien tomar el café juntos, pero estoy seguro que estas ocupada.*

Тингловчининг ишни бажариши тўғрисидаги презумпциянгизни камайтиринг, бошқа сўз билан айтганда, адресатнинг фаолият юритиш хоҳиши ёки имконияти борлигига шубҳаланинг: *No se si quieres enviar esta carta por avion o por cartero.*

Интенцияни ифодалашда узр сўранг: *Disculpame para molestarte, puedes decirme la hora?*

Фамилия ва титульдан фойдаланинг:*Sr. Sanches, estas cartas son muy importantes.*

Ифодалаган нутқий тузилмангизни қисқа баён этинг.

Шундай қилиб, ҳурмат тамойиллари лисоний муносабатларда юзага келиши мумкин бўлган зиддият ва тушунмовчиликни имкони борича камайтириш йўли билан суҳбатнинг намунали кечишини таъминлашга мўлжалланган тизимдир деган фикрни олға сурамиз. Чунки ҳақиқатдан ҳам, биз мулоқот жараёнида талаффуз этилган нутқий тузилмаларнинг иилкутив кучини ошириш мақсадидатингловчини қадрлаш орқали истакларимизни рўёбга чиқаришга ҳаракат қиламиз.

**Фойдаланган адабиётлар:**

1. Brown, Levinson 1978 – *Brown P., Levinson S.* Universals in language usage: politeness phenomena // E. Goody (ed.). Questions and Politeness: Strategies in Social Interaction. N. Y.: Cambridge University Press, 1978. P. 56–289.

2. Brown, Levinson 1987 – *Brown P., Levinson S. D.* Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
3. Leech 2005 – *Leech G.* Politeness: Is there an East-West Divide? // Journal of Foreign Languages. General Serial № 160. 2005. № 6.
4. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford Univ. Press, 1996. -61 p.
5. Карнеги Д. Муваффақият калити. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2015, -720 б.
6. Сафаров Ш.Ш. Прагмалингвистика. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. –Б. 134-137.

## “ЮСУФ ВА ЗУЛАЙҲО” ДОСТОНИНИНГ ОГАҲИЙ ТАРЖИМАСИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР
## SOME COMMENTS ON THE WARNING TRANSLATION OF THE FRIEND "YUSUF AND ZULAIKHO"

**Д.Жумаева,**
***филология фанлари бўйича фалсафа (PhD)***

**Abstract:** the article is devoted to the analysis of the translation of the Agahi epic "Yusuf and Zulayho" by Abdurahman Jami. As a result of his scientific observations, the author is trying to prove that this work raised the Uzbek literary translation to a new level of perfection. The translation of this work by Ogaha concludes that it has a free approach to the original text, the originality of the plot and composition, the high artistic basis of artistic interpretation and a classic place in a series of poems due to its artistic excellence.

***Калит сўзлар:*** *достон, бадиий таржима, аслият, сюжет, композиция, ижодий ният, бадиий талқин.*

***Keywords:*** *epic, literary translation, originality, plot, composition, creative intention, artistic interpretation.*

Абдураҳмон Жомийнинг “Юсуф ва Зулайҳо” достони ушбу туркумга оид асарлар ичида теран мазмуни ва мукаммал бадийяти билан алоҳида ажралиб туради. Бу мавзуда битилган аксар асарлар мазкур достонга ижодий эргашув натижасида яратилгани бунинг исботидир. Профессор Нажмиддин Комиловнинг: “Бу ажойиб достонни Жомий ижодининг чўққиси десак, янглишмаймиз. Жомийдан кейин бу асарга ўнлаб жавоблар ёзилганини (Жумладан, ўзбек шоирлари томонидан ҳам) айтиш кифоя” [3, 106], – деган хулосаси ҳам ушбу фикрни тасдиқлайди. Шу боис асар XIX асрда улуғ шоир ва мутафаккир Муҳаммад Ризо Огаҳий томонидан ўзбек тилига маҳорат билан таржима қилинган.

Асар Хива хони Муҳаммад Раҳимхон Феруз буюртмасига кўра амалга оширилган. Таржима якунланган сана Огаҳий томонидан қуйидагича талқин этилган:

Бу нодир нусхаи фархунда анжом,
Муборак соат ичра топди анжом.
Йили ҳижратдин эрди бекаму беш,
Минг икки юз ҳам саксон беш.

Бундан "Юсуф ва Зулайҳо"нинг мазкур таржимаси ҳижрий 1285 (милодий 1869) йили ниҳоясига етказилган.

Ўзбек ва умуман, Шарқ мумтоз адабиётида бадиий таржиманинг хусусиятлари, бу ҳақдаги илмий қарашлар ҳозиргидан фарқ қилиши маълум. Чунки замонавий таржималарда аслиятдаги сюжет ва композиция, поэтик образ ва поэтик деталлар, бадиий талқин ва ҳатто ижодий услуб, одатда, айнан сақланади. Таржимон томонидан асар сюжетига аслиятда бўлмаган бирор образ ёки детал қўшилмайди. Мумтоз бадиий таржимада эса аслият матнига анча эркин ёндашилган. Таржимон аслият матнига нафақат образ ёки детал, ҳатто бутун бошли бобларни ҳам қўшиши, сюжетдаги айрим талқинларни қисқартириши, ижодий

ниятидан келиб чиқиб ўзгартириши мумкин бўлган. Абдураҳмон Жомийнинг “Юсуф ва Зулайҳо” достони таржимаси айни шу хусусияти билан алоҳида ажралиб туради. Профессор Нурбой Жабборов фикрича: “Таҳлиллар асарнинг айнан сўзма-сўз таржима эмас, балки эркин ёндашув асосида яратилганини кўрсатади. Асардаги лирик кечинмалар, Муҳаммад Раҳимхони сонийга бағишлаб алоҳида боб ажратилиши каби хусусиятлар шундай хулоса чиқаришга асос беради” [2.173].

“Юсуф ва Зулайҳо” асари Қуръони каримдаги Юсуф алайҳиссалом қиссаси асосида ижод этилгани маълум. Табиийки, Абдураҳмон Жомий ижодий ниятидан келиб чиқиб, ушбу қисса мазмунини ўзига хос бадиий талқин эган. Жомий талқини таржимада Огаҳий томонидан ижодй қайа ишланган. Зеро, “Қуръоний мавзуларнинг жаҳон ва, алалхусус, ўзбек адабиётига сингиб ўтиши фақат диний нуқтаи назардангина иборат бўлиб қолмай, балки Шарқ адабиётининг биз учун мавҳум қирраларини ойдинлаштириб, турли адабий мавзуларнинг сарчашмаларини очган ва ҳозирги замон ўзбек адабиётининг ислом адабиёти билан шажаравий, мозийдан узилмас алоқаларини тиклашга ҳам мадад берган” [5. 60].

Асар сюжетидаги воқеалар силсиласини асосан қуйидагилар ташкил этади:

1. Яъқуб ўғиллари ичида Юсуф алайҳиссаломнинг отасига энг суюкли фарзанд экани ва бундан ака-укалар ўртасида адоват пайдо бўлиши.
2. Юсуф алайҳиссаломнинг келажагидан башорат қилувчи туш воқеаси. “Ошиқ” туркум достонлари аксарият ҳолларда туш кўриш воқеаси билан бошланади. Бунга Шарқ адабиётидан кўплаб мисоллар келтириш мумкин [4. 65].
3. Асар бош қаҳрамонининг биродарлари томонидан чоҳга ташланиши ва Мисрга қул қилиб сотилиши.
4. Зулайҳонинг Юсуф алайҳиссаломни тушида кўриши ва қалбида ишқ пайдо бўлиши.
5. Бош қаҳрамонлар учрашуви ва улар қисматидаги синовларнинг бадиий талқини.
6. Юсуф алайҳиссаломнинг Мисрда шон-шуҳрат топиши ва тахтга ўтириши.
7. Муҳаббат қиссасининг хотимаси.

Жомий еттилигининг учинчи достони бўлмиш “Юсуф ва Зулайҳо” 1483 йилда ёзилган бўлиб, у сайёр сюжетнинг ўзига хос намунаси сифатида эътироф қилинади. Бу асарнинг Огаҳий таржимаси ўзининг жозибали тили, жомийона тасвир услуби, бадиий баркамоллиги билан юсуфномаларнинг поэтик такомилига хизмат қилган. Сюжет чизиқлари мураккаблашмаган, композицияси пухта, ифода тиниқ ва равон. Воқеалар ривожи бир текис кетади. Балки Жомий бу асарини ўз еттилиги таркибида бергани учун ҳам унчалик мураккаблаштирмагандир. Ҳажм жиҳатдан ҳам (58 бобдан иборат), воқеалар ривожи нуқтаи назаридан ҳам шоирнинг “Юсуф ва Зулайҳо” достони шу мавзуга мурожаат қилган бошқа ижодкорлар асарларидан фарқ қилади.

“Юсуф ва Зулайҳо”нинг Муҳаммад Ризо Огаҳий таржимасидаги матнида, анъанага кўра, достоннинг асосий воқеалари талқинидан олдин қуйидаги бобларга ўрин ажратилган:

1. Аллоҳга ҳамд.
2. Ул хожа наъти шаънидадурким, хатамлиғ хотами онинг ангуштида ва хотимлиғ муҳри онинг пуштида ҳувайдодир, алайҳи мина-с-солати афзалиҳи ва минат-таҳиййати акмалиҳи.
3. Ул ҳазрат меърожи васфидаким, рафиъу-д-даражот зу-л-арш офтобидин соядур. Ул ҳазрат қадри уружлариға аълои аршидин то таҳти фарш поя.
4. Тазаррудорлиқ либосин киймакнинг таҳрири ва шафоат таврини иқтибосиға кўшиш қилмоқ таҳрири.
5. Ул султон мадҳидаким, “ас-султону таназзалу-л-аман” мужибинча онинг мадҳи зиндакорлик хушлиғининг замонидур. Модиҳнинг ва орзулари қувватининг амони.

Асарда юқоридаги беш бобдан сўнг Юсуф алайҳиссаломга бағишланган боб келади, асосий воқеалар шундан кейин бошланади. Аксар юсуфномаларда, жумладан, Дурбек, Мирзо Олим Девона ва Холис қаламига мансуб достонлар ҳамда Нурмуҳаммад Андалибнинг ушбу мавзудаги қиссасида сюжет Яъқуб алайҳиссалом ва унинг фарзандларини таништиришдан

бошланган. Бироқ Огаҳий таржимаси бундан мустасно. Чунки у воқеалар ривожини Юсуфнинг гўзаллиги таърифидан бошлайди. Унда айтилишича, Одам алайҳиссаломга фалакдан парда очилиб, бутун авлодлари турмуш тарзи билан танишув имкони берилган. У авлодлари бўлмиш анбиёлар ҳаётини доимий кузатиб боради. Вақтлар ўтиб, бирма-бир пайғамбарлар алмашаверади. Юсуф алайҳиссалом дунёга келганда, Одам ота унинг гўзал жамолини кўриб, Аллоҳ таолодан бу ҳусну жамол Юсуфда жам бўлиши сабабини сўрайди:

Ҳамул жоҳу жалол Одам чу кўрди,
Савол айларга тил мундоқ эвурди –
Ки: Ё Раб, бу қаю гулшан гулидур?
Ва ё қайси киши жоми мулидур?
Анго қайдин етушмишдур бу давлат,
Жамолу жоҳу иззу зебу зийнат?

Ҳазрат Одамнинг ноласидан сўнг Аллоҳ таолодан нидо келади: У –сенинг фарзандинг, Яъқуб боғининг ниҳолидир, дейди. Шунда Одам алайҳиссалом ўз ҳуснини уч қисмга бўлади. Учдан икки қисмини Юсуфга, қолган бир қисмини эса бошқаларга беради. Кейин Юсуфни дуо қилади. Ушбу эпизод бошқа ҳеч бир достонда учрамайди. Бундай ёндашув мазкур асарни шу турдаги достонлардан ажратиб туриши билан аҳамиятлидир.

Хулоса қилиб айтганда, “Юсуф ва Зулайҳо”нинг Муҳаммад Ризо Огаҳий томонидан амалга оширилган таржимаси аслиятдаги матнга эркин ёндашилгани, сюжет ва композициясининг ўзига хослиги, бадиий талқиннинг юксак санъаткорлик асосига қурилгани, бадиий жиҳатдан мукаммаллиги каби хусусиятларига кўра юсуфномалар туркумида мумтоз ўринни эгаллайди. Ушбу асар ўзбек бадиий таржимачилигини янги такомил босқичига кўтаргани жиҳатидан қимматлидир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Абдураҳмон Жомий. Юсуф ва Зулайҳо. /Муҳаббат махзани. (Таржимон: Муҳаммад Ризо Огаҳий. Нашрга тайёрловчи: Н.Жабборов). – Тошкент: Тасвир, 2018. –Б. 307- 612.

2. Жабборов Н. Жомийнинг “Юсуф ва Зулайҳо” асари туркий таржимасига оид мулоҳазалар. /Абдураҳмон Жомий. –Тошкент: Қўлёзмалар институти, 1997. – Б.172-175.

3. Комилов Н. Хоразм таржима мактаби. Филология фанлари доктори илмий даражаси учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 1988.

4. Рўзимбоев С. Хоразм достонлари. – Тошкент: Фан, 1985.

5. Санаев И. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг бошларида Зарафшон водийси адабий муҳити. – Тошкент: Tafakkur, 2009.

## НУТҚНИ ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ РАЗМЕТКА ҚИЛИШ ТИЗИМИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ
## MODELING A DIRECT SPEECH RECORDING SYSTEM
## (А.Навоий асарлари мисолида)

**Г. Тоирова**
***БухДУ доценти,***
***филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)***
**Ф.Ахмедова,**
***ТошКТИ АЛ она тили ва адабиёти ўқитувчиси***

**Аннотация:** мақолада матннинг автоматик таҳлил инструментларини ишлаб чиқишда ва матнни табиий тилида разметка (белгилаш) соҳасига оид янгиликларда мисли кўрилмаган даражада сифатли ўзгаришлар ёритилган. Матнни автоматик қайта ишлашнинг замонавий воситалари орқали аҳамиятли маълумотларни ва бадиий асарлар персонажлари тизимини семантик белги шаклида структуралаш, разметкалардан олинган маълумотларни таҳлил қилишнинг аниқ усулини (методини) танлаш ҳақида маълумотлар берилган.

**Abstract:** the article describes unprecedented qualitative changes in the development of tools for automatic analysis of the text and innovations in the field of marking (marking) the text in its natural language. Information is provided on the structure of important information and the system of characters of works of art in the form of semantic symbols, the choice of a specific method (method) of analysis of data from the markings by means of modern means of automatic processing of text.

***Калит сўзлар:*** *Лингвистик таҳлил, разметка (белгилаш), морфологик, синтактика, матн, автоматик қайта ишлаш, Компьютер лингвистикаси.*

***Keywords:*** *Linguistic analysis, marking, morphology, syntax, text, automatic processing, Computer linguistics.*

Охирги ўн йилликларда матннинг автоматик таҳлил инструментларини ишлаб чиқишда ва матнни табиий тилида разметка (белгилаш) соҳасига оид янгиликларда мисли кўрилмаган даражада сифатли ўзгаришлар юз берди[1,2,8,9]. Бу ҳодисани соҳа мутахасисслари сифатий сакраш деб баҳолашди. Бу сакраш замонавий компьютер лингвистикаси соҳасида эришилган ютуқлар, усулларни фаол ўзлаштириш ва компьютер фани ҳамда статистикаси, машина ўқийдиган матн маълумотлари ҳажмининг экспоненциал ўсиши, шунингдек электрон лингвистик ресурсларнинг ривожланиши сабабли юз берди. Лингвистик таҳлилнинг замонавий инструментлари матннинг нафақат грамматик (морфологик, синтактик) хусусиятларини, балки матннинг баъзи семантик ва прагматик хусусиятларини ҳам автоматик тарзда разметка (белгилаш)га имкон берди. Табиий тилни машина тўлақонли тушуниши, аввалгидек футурология соҳаси зиммасига қолаяпти, аммо комьютер лингвистикаси технологияси матн материалларини тадқиқ қилишнинг янги имкониятларини очиб берди.

Компьютер лингвистикасининг замонавий усуллари қўлланилган разметка (белгилаш)ларнинг автоматлаштирилган инструментарийсини ишлаб чиқишдан ва уни миқдорий тадқиқотлар учун қўллашнинг намойишидан иборат[7,8,9]. Мазкур ёндашув, матн тилини автоматик воситалар билан ва бадиий асарни филологик тадқиқот вазифалари билан тадқиқ қилиш имкониятлари орасида юзага келадиган юқорида қайд этилган қийинчиликларни баратараф қилишга имкон яратади. Персонажлар тизимини миқдорий таҳлили учун мўлжалланаган бадиий матнинг машина ўқийдиган семантик разметка (белгилаш)лари, А.Навоийнинг асарлари мисолидасемантик разметка ( белгилаш)ларни амалга ошириш мумкин. Шундай қилиб, бадиий асарнинг мазмуний элементларини тадқиқ қилиш учун замонавий компьютер лингвистикаси инструментларидан ва маълумотларни статистик усулда таҳлил қилишнинг имкониятлари қўрсатиб берилган. Шу йўсинда, йирик шаклдаги насрий ёки шеърий асарнинг персонажлар тизимининг матндаги репрезентацияси тадқиқот объекти бўлиб ҳизмат қилади. Персонажларнинг параметрик тавсифлари тадқиқотнинг предмети бўлиб хизмат қилган.

Асар персонажи – бу, бир томондан, соддалаштирилган (схематик, стереотипик тарзда), ва ёки ўзининг бадиий тимсолида жуда ҳам мураккаб тузилишга эга бўлган бадиий образ, шахснинг кўлда яратилган моделидир. Шу билан бир қаторда энг мураккаб бадиий образ ҳам матнда аниқ кетма-кетликда тилга олинганда вужудга келади – Е.В. Недошивина нинг бу каби функционал таърифини таққослаймиз: “Адабий персонаж – бу, моҳиятан, бир матн чегарасида бирта шахснинг пайдо бўлишининг кетма-кетликдаги сериясидир” [6]. Персонажнинг матнга киришлари турли хил бўлиши мумкин: исмларнинг вариантлари (Фарҳод, Ширин, Мажнун, Лайли, Султон Ҳусайн Бойқаро, Бадиуззамон), титуллар ва гоноротивлар (жаноби олийлари), анафорик эсланишлар (у), бошқа персонажларнинг нутқидаги мурожаатлар (муҳтарам зот, сиз), ролли ва вазиятли тавсифлар (ёш йигит, келаётган киши, яраланган) ва бошқалар. Аммо ўта муҳим бўлган бу каби киришлар ва шакллантириладиган лингвистик белгилар аниқ чегараларга эга (атоқли отлар, кишилик олмошлари) ва шунинг учун ҳам улар компьютер лингвистикаси воситаларида мавжуд бўлган разметкаларга мос тушади. Шундай қилиб, персонаж бадиий асарнинг шундай

элементи бўлиб киради, у ўзида бадиий мураккаблик ва ўта теранлик билан матнда автоматлаштирилган разметка имконини ўзида мужассамлаштиради.

Навоий асарида битта персонаж бир неча пресонаж билан мулоқотга киришиши ёки бир персонаж ўз ўрнини кўплаб қаҳрамонларга бўшатиб бериши мумкин. “Персонаж бир нечта саҳифадан сўнг яна қайта пайдо бўлиш ва ўсиб бораётган бирликка яна бирта бўғин қўшиш учун йўқолади, ўзини ўрнини бошқаларга бўшатиб беради. Такрорланувчи, у ёки бу даражада барқарор белгилар персонажнинг хусусиятини ташкил этади ” [6]. Матнда лингвистик нуқтаи назардан ҳар бир янги кириш, уни ўраб турган контекстнинг ўзига хослигига ва мувофиқ лексемаларнинг грамматик (сўз ўзгартирувчи) хусусиятларига ишора қилувчи бир қатор белгилари билан тавсифланиши мумкин. Бу персонажларнинг миқдорий тадқиқотлари учун кенг имкониятлар очиб беради. Навоий асардаги персонажлари нутқ матннини семантик разметка (белгилаш)га қуйидаги усулини ишлаб чиқиш ва унинг апробациясини таклиф этамиз: бадиий асар персонажлари тизимини моделлаштириш; матнида персонажлар қўлланилишини автоматик разметка (белгилаш); мавжуд бирта аниқ персонажнинг ягона кореферент занжирига мукаммал персонаж идентификатори ёрдамида боғланган.

Матнни автоматик қайта ишлашнинг замонавий воситалари орқали аҳамиятли маълумотларни ва бадиий асарлар персонажлари тизимини семантик белги шаклида структуралаш учун қўлланилиши мумкин.Тайёрланган разметкалар персонажлар тизими таҳлилини миқдорий методлар билан амалга оширишга имкон беради (такрорланишлар таҳлили, кўп омилли сатистик таҳлил, корреляцион таҳлил, тармоқли таҳлил). Разметкалардан олинган маълумотларни таҳлил қилишнинг аниқ усулини (методини) танлаш, персонажларнинг айнан қайси тизими олинган моделда қўлланилашга боғлиқ бўлади.

Разметкалар, матнларни TEI халқаро кодлаш формати асосида бажарилади[5,7]. Разметкалар персонажларнинг идентификация қилинган эслашларини ўз ичига олади, шу жумладан анафорик ишоралар, адресат ва адресантга персонажнинг кўчирма гапидаги репликаларининг бир маъноли ишораларини ҳам қамром олиш керак бўлади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. Абдурахмонова Н.З. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (содда гаплар мисолида): Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)…дис. афтореф. – Тошкент, 2018.
2. Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари(расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун)**:** Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)…дис.–Фарғона, 2019.–Б.22.
3. Ванюшкин А. С., Гращенко Л. А. Оценка алгоритмов извлечения ключевых слов: инструментарий и ресурсы // Новые информационные технологии в автоматизированных системах. – 2017. – № 20. – С. 95–102.
4. Захаров В.П. Корпусная лингвистика: Учебно-метод. пособие. – СПб., 2005. – 48 с.
5. Касьянов В. Н., Касьянова Е.В. Введение в программирование. – http://pco.iis.nsk.su/ICP
6. Недошивина Е.В. Программы для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург. − 2006. 26 с.
7. Тоирова Г. Миллий корпус яратишнинг технологик жараёни хусусида. //Ўзбекистонда хорижий тиллар. Электрон илмий-методик журнал. – Тошкент. 2020, № 2 (31), –Б.57– 64.https://journal.fledu.uz/uz/ 2-31-2020
8. Ҳамроева Ш.Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)…дис. афтореф. –Қарши, 2018 .–52 б.
9. Эшмўминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)…дис. афтореф. – Қарши, 2019.

# TURKOLOGIYADA MATNNI SINTAKTIK TAHLIL QILISHGA DOIR TADQIQOTLAR
# RESEARCH ON SYNTACTIC ANALYSIS OF TEXT IN TURKOLOGY

**S.Bozorova,**
***ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada matn sintaktik tahliliga oid ilmiy izlanishlar haqida ma’lumot beriladi, tarjima qiluvchi tizimning lingvistik ta’minoti, turkiy tillar sintaktik tahlili masalalariga e’tibor qaratiladi.

***Kalit so‘zlar:*** *turkiy tillar, sintaktik tahlil, tarjima qiluvchi tizimning lingvistik ta’minoti, erkin kontekstli grammatikaga asoslangan tahlil qoidalari, qoliplari.*

**Abstract:** This article provides information on scientific research on the syntactic analysis of the text, focuses on the linguistic support of the translation system, the syntactic analysis of Turkic languages.

***Keywords:*** *Turkic languages, syntactic analysis, linguistic support of the translation system, rules of analysis based on free context grammar, patterns.*

Bugungi kunda dunyoda 200 millionga yaqin aholi turkiy tilda so‘zlashadi. Qadimiy yozma yodgorliklar va bugungi zamonaviy ma’lumotlar bazasining kengayib borayotgani bilan bir qatorda yangi-yangi atamalarning ham kirib kelayotgani muloqot jarayonida ayrim noqulayliklarni tug‘dirmoqda. Shu bois turkiy tillar doirasida mashina tarjimasi, avtomatik savol-javob tizimi, tabiiy tilni qayta ishlashga oid izlanishlar rivojlanib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, kiritilgan matnning morfologik va sintaktik tomonlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirmoqda.

Matn sintaktik tahliliga oid dastlabki ilmiy izlanishlar mashina tarjimasiga doir ilmiy ishlar tarkibida o‘rganildi. *“Mashina tarjimasida ko‘plab izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, turkologiyadagi tadqiqotlarning aksariyati asrimizning keyingi o‘n yilligiga borib taqaladi”.*[1] Qozoq tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan qozoq tiliga tarjima qiluvchi tizimning lingvistik ta’minoti turkiy tillar sintaktik analizi uchun tashlangan ilk qadamlardan biri bo‘ldi. Tizim aloqa grammatikasi va statistik yondashuv asosida ishlaydi. U.A.To‘qayev va boshqalar uning ishlash prinsipini yoritar ekan, tizim algoritmi uchun aloqa grammatikasi (link grammar) juda ham muhim ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan.[2] Polisemantik so‘zlarni aniqlashda esa statistik yondashuvga asoslanilgan. Mashina tarjimasi uchun ishlab chiqilgan model va algoritmlar tizimga tatbiq etilgan. Qozoq tilidagi gaplar tarkibidagi so‘zlarning 13 xil aloqa usuli ham ushbu tadqiqotda o‘z aksini topgan. Bu izlanishning e’tiborli tomonlaridan yana biri shuki, turkiy tillarning sintaktik va morfologik o‘xshashligini inobatga oladigan bo‘lsak, yuqoridagi bog‘lanish usullarini boshqa turkiy tillarga ham tatbiq etish mumkin.

Erkin kontekstli grammatikaga asoslangan tahlil qoidalari, qoliplari Hind-Yevropa tillari uchun ishlab chiqilganligi sababli ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zbek tiliga joriy qilib bo‘lmaydi. Shu bois sohadagi turkiy tillar oilasiga mansub tillarga oid tajribalarni o‘rganish o‘rinli bo‘ladi. 1993-yilda Z.Gungo‘rdu va J.Demir tomonidan turk tilining sintaktik strukturasi o‘rganildi. Ular turk tilidagi matnlarni leksik-funksional grammatika(*LFG*)ga asoslanib sintaktik tahlil qildi.[3] Bu tadqiqotda ayrim VP (*fe’lli birikmalar*) hisobga olinmagan. T.Gungo‘r va S.Kuru esa turk tilidagi suffikslarni ajratib olib matn tahlil qilish usulidan foydalanadi.[4] Bu tadqiqotning o‘ziga xos tomoni shundaki, unda ko‘plab fe’lli birikmalarning turlari aniqlangan va turk tilidagi matnlarning ayrim standart qoliplar asosida tahlil qilinishiga doir qarashlar muhokama qilingan. Biroq unda gaplardagi rekursivlik va so‘zlarning transformatsiyasiga kamroq ahamiyat berilgan. R.Chakiji turk tilini erkin kontekstli grammatikaning bir turi bo‘lgan kombinatorik kategorial grammatika asosida sintaktik

[1] Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti. – Toshkent: Muharrir, 2018. B.18.

[2] Tukeyev U. A., Melby A. K., Zhumanov Zh. M. Models and algorithms of translation of the Kazakh language sentences into English language with use of link grammar and the statistical approach/ Proceedings of IV Congress of the Turkic World Math. Society.– Baku, 2011.

[3] Güngördü Z., and Oflazer K. Parsing Turkish using the lexical functional grammar formalism. Machine translation. 1995.

[4] Güngör T., and Kuru S. Representation of Turkish morphology in ATN/ In Proceedings of Second Symposium on Artificial Intelligence and Artificial Neural Networks. 1993.– P.92-104

tahlil qilish yo‘llarini ishlab chiqdi.[1] Ushbu tadqiqotda nazorat qilinuvchi mashina o‘rganishi metodi (supervised machine learning)dan foydalanilgan. I. Do‘nmez va E. Adali ham “Contex Free Grammer For Turkish” (“Turk tilining erkin kontekstli grammatikasi”) deb nomlangan maqolada turk tilining erkin kontekstli grammatikasini ishlab chiqishga doir qarashlarini ifoda etgan.[2]

Turkiy dunyodagi yana bir ilmiy izlanish Gulshen Eryigit, Kemal Oflazer nomlari bilan bog‘liq. Ularning tadqiqotlarida turk tilining statistik sintaktik analizatorini yaratish usullari va uning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Ushbu dastur o‘rganishga asoslangan va u statistik modellardan foydalanadi. Bundan tashqari dastur Turk tilidagi tobe aloqa modellar bazasi (Turkish dependency treebank) bilan bog‘liqlikda ishlaydi. Natijada so‘zlar orasidagi bog‘lanish munosabatlari aniqroq ko‘rinadi.[3]

Joakim Nivre, Kemal Oflazer va Gulshen Eryig‘itning fikriga ko‘ra, dastur xotirasida morfologik va leksik ma’lumotlarning mavjudligi avtomatik sintaktik tahlilning aniqligini oshiradi. [4] Bu turdagi analizatorlar ko‘proq so‘zlar o‘rtasidagi aloqa grammatikasiga emas, balki leksik statistikaga asoslanib ishlaydi.

O‘zlem Istek, Ilyas Chichekli ishlab chiqqan sintaktik analizator esa “leksik analizator”dan farq qiladi. Ishlash jarayonining birinchi bosqichida morfologik analizator kiritilgan morfologik qoidalar asosida berilgan so‘zlarni tekshirib chiqadi va ularni asos hamda qo‘shimchalarga ajratadi. Keyingi bosqichda esa, so‘zlarning morfologik tavsiflari o‘zaro bog‘lanadi.[5] Bu ilmiy tadqiqot ham boshqa turkiy tillarga tatbiq qilingan.

Qozoq tilidagi matnlarni sintaktik tahlil qilishga bag‘ishlangan yana bir tadqiqot F.M.Tyers, J.Vashington va I.Salimzyanov nomlari bilan bog‘liq. Ularning tadqiqoti qozoq tilining sintaktik tahlil qilingan korpusi(Treebank)iga asoslangan tobe sintaktik analizatorning rivojlanishiga bag‘ishlangan.[6] Ushbu ilmiy ishning eng qiyin tomoni erkin ochiq resursli qozoq tili sintaktik tahlil qilingan korpusini yaratish edi.

1996-yil 20-21-mayda Samarqand shahrida sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan “Injenerlik tilshunosligi va til o‘qitish jarayonini kompyuterlashtirish” mavzusidagi 2-xalqaro ilmiy anjuman o‘tkazildi. Bu anjumanni akademik R. G. Piotrovskiy “Injenerlik tilshunosligi va mustaqil davlatlarda informatsion industriyaning tiklanishi” mavzusidagi ma’ruzasi bilan boshlab berdi. Shuningdek, bu anjumanda “Turkiy tillar mashina fondining dolzarb masalalari”, “Injenerlik tilshunosligi va lug‘atshunoslik”, “Nutq sistemasi va uning unsurlarini kompyuter yordamida andozalash” singari o‘ttizdan ortiq qiziqarli ma’ruzalar tinglandi hamda muhokama qilindi. Bu anjuman materiallari alohida to‘plam shaklida nashr etildi. Keyingi yillarda mamlakatimizda kompyuter lingvistikasi muammolariga oid tadqiqotlar yaratildi. Bu o‘rinda S.Muxamedov va R.G.Piotrovskiy,[7] A.K.Po‘latov,[8] S.Muhamedova,[9] S.Rizayev[10] kabi

[1] Cakici R. Automatic induction of a CCG grammar for Turkish / In Proceedings of the ACL student research workshop Association for Computational Linguistics. 2005.– P. 73-78.

[2] Dönmez İ., and Adalı E. Contex Free Grammer For Turkish. Süleyman Demirel Üniversitesi Fen Bilimleri Enstitüsü Dergisi.– 2018.– № 22(2). –P.552-561.

[3] Gulsen Eryigit, Kemal Oflazer. Statistical Dependency Parsing of Turkish / Proceedings of EACL/11th Conf. of the European Chapter of the Association for Comp. Linguistics.– Trento, 2006. – P.89-96.

[4] Gulsen Eryi˘git, Joakim Nivre, Kemal Oflazer. Dependency Parsing of Turkish// Computational Linguistics. 2006.– №3 – P.357–389.

[5] Ozlem Istek, Ilyas Cicekli. A Link Grammar for an Agglutinative Language / Proceedings of Recent Advances in Natural Language Processing (RANLP 2007)– Borovets, 2007.– P.285-290.

[6] Tyers F. M. and Washington J. Towards a free/open-source universal-dependency treebank for Kazakh / Proceedings of the 3rd Conference on Turkic Languages (TurkLang 2015)– 2015.– P.276-289.; Washington J. N., Salimzyanov I. and Tyers F. M. Finite-state morphological transducers for three Kypchak languages / Proceedings of the 9th Conference on Language Resources and Evaluation, (LREC2014)– 2014. –P.3378-3385.

[7] Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. – Ташкент: Фан, 1986.

[8] Пулатов А.К., Жураева Н. Разработка формальной модели грамматики узбекского языка // Узбекский математический журнал, 2002. № 1. – С. 47-54; Пулатов А.К. Тексты лекций по математической и компьютерной лингвистике (электронный вариант). – Ташкент: УзМУ, 2003.

[9] Muhamedova S. O‘zbek kompyuter lingvistikasi: rivojlanish tarixi, buguni va kelajagi // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2004. № 2. – B. 77-81; Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (metodik qo‘llanma). – Toshkent: ToshDPU nashri, 2007.

[10] Rizayev S. Kibernetika va tilshunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 1976.; Rizayev S. O‘zbek tilshunosligida lingvostatistika muammolari. – Toshkent: Fan, 2006.

olimlarning ishlarini alohida ta’kidlash lozim. Yuqorida qayd etilgan mualliflarinig tadqiqotlarida modellashtirishga alohida urg‘u beriladi va kompyuter lingvistikasi fanida tilni tekshirishning eng asosiy metodi ekanligi atroflicha yoritib beriladi. Bu hodisa turkiy tillarning aynan sintaktik tahliliga oid bo‘lmasa ham, shu jarayongacha bo‘lgan bosqichlar rivoji uchun muhim qadamlar bo‘ldi. Professor B.Mengliyevning til korpuslarining xususiyatlari, o‘zbek tili korpusini yaratishning ahamiyati va lingvistik ta’minoti, sinonim so‘zlar bazasini tashkil qilish, teglash, mualliflik korpuslari kabi masalalariga oid tadqiqotlari korpus lingvistikasi rivoji uchun muhim qadamlardan bo‘lib xizmat qildi.[1] Tilshunos olima Nilufar Abduraxmonovaning “Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti” nomli monografiyasida ingliz va o‘zbek tillarining sintaktik xususiyatlari haqida atroflicha ma’lumot berilgan va ularning sintaktik modellari ishlab chiqilgan.[2] Muallifning “Dependency parsing based on Uzbek corpus” maqolasi sintaktik tahlil qilishning tobelik asosidagi yondashuviga oid bo‘lib, unda o‘zbek tili korpusiga asoslangan CoNLLU formatida ifodalangan sintaktik tahlil bosqichlari tadqiq qilingan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Arslan E. , Orhan U. Graph-based lemmatization of Turkish words by using morphological similarity// Innovations in Intelligent Systems and Applications (INISTA), International Symposium on IEEE. – 2016. –P.1-5.
2. Dönmez İ., Adalı E. Contex Free Grammer For Turkish// Süleyman Demirel Üniversitesi Fen Bilimleri Enstitüsü Dergisi. – Almaty, 2018.– №22(2). – P.552-561
3. Dönmez I., Adali E. Extracting phrasecontent pairs for Turkish sentences// In Application of Information and Communication Technologies (AICT),The 9th International Conference on IEEE. – Rostov, 2015. –P.128-132.
4. Erguvanli E. , Taylan E. E. The function of word order in Turkish grammar. – Los Angeles: University of California Press, 1984.
5. Eryiğit G., Nivre J., Oflazer K. Dependency parsing of Turkish// Computational Linguistics. 2008. –№34(3) – P. 357-389.


## KOMPYUTER YORDAMIDA MATNNI SINTAKTIK TAHLIL QILISHNING TARIXIY BOSQICHLARI
## HISTORICAL STAGES OF COMPUTER SYNTAX ANALYSIS OF TEXT


**I.Bozorova**
***NavoiyDPI o‘qituvchisi,***
**I.Shodiyeva**
***talaba***



**Annotatsiya.** mazkur maqolada kompyuter yordamida matnni sintaktik tahlil qilishning tarixiy bosqichlari, mashina savol-javob tizimi, tilning matematik jihatdan o‘rganilishi, kompyuter lingvistikasining ikki asosiy paradigma asosida rivojlangani, lingvistik muammolarni hal qiluvchi nazariy ta’minot masalasi, sintaktik tahlil qilishga mo‘ljallangan dastur(parser)lar haqida so‘z yuritiladi.



**Kalit so‘zlar**: tilni matematik jihatdan o‘rganish, sun’iy intellekt, mashina tarjimasi, mashina savol-javob tizimi, matnni sintaktik tahlil qilish.



**Abstract.** this article discusses the historical stages of syntactic analysis of text using a computer, machine question and answer system, mathematical study of language, the development of computer linguistics on the basis of two main paradigms, theoretical problems of linguistic problems, software for syntactic analysis ( parsers).



**Key words:** mathematical study of language, artificial intelligence, machine translation, machine question-answer system, syntactic analysis of the text.


[1] Хамроева, Ш., Менглиев Б. Принципы создания интерфейса авторских корпусов узбекского языка (на примере авторского корпуса Абдуллы Каххара) / VII Международная конференция по компьютерной обработки тюркских языков “Turklang-2019” – Симферополь, 2019. ; Ш.Хамроева Б.Менглиев. Тил корпусларини синтактик разметкалашнинг лингвистик асослари/ “Осиё мамлакатлари тамаддуни ва ипак йўли”, 2019.

[2] Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti.–Toshkent: Muharrir, 2018.

XX asrning 50-70-yillarida mashina tarjimasi va mashina savol-javob tizimi(QA)ning rivojlanishi natijasida kompyuter xotirasiga kiritilgan matnni til qonuniyatlariga asoslanib qayta ishlashga bo‘lgan ehtiyoj ortib ketdi. Mashina tarjimasi rivoji uchun xotiraga yuklangan matn tarkibidagi so‘zlarning tarkibiy qismi, shakl va mazmun munosabati hamda tarjima qilinayotgan tildagi so‘z bilan qanchalik mutanosib ekanligi masalasi muhim hisoblangan. Mashina savol-javob tizimi (QA) esa savol tarkibidagi so‘zlarga javob bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘zlar masalasi va ular o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini o‘rganishi zarur bo‘lgan. Mashina imkoniyatlarining chegaralanganligi, dasturlash tilining yuqori darajada ishlanmaganligi, lingvistik muammolarni hal qiluvchi nazariy ta’minotning yo‘qligi sabab mashina tarjimasining rivojlanishi susaydi. Dastlabki mashina tarjimasi muayyan sintaktik butunlik va qoidalarsiz matnni so‘zma-so‘z tarjima qilar edi. 1956-yilda bu muammoni lingvistik ta’minotsiz hal etib bo‘lmasligini anglagan Y.Bar-Xillel, mashina tarjimasini inkor etmagan holda, “inson-tarjimon”dan foydalanish zarurligini ta’kidladi. Mashina tarjimasi va savol-javob tizimi ustida ish olib borayotgan ko‘plab kibernetik, tilshunos, matematik, psixolog va faylasuflar tomonidan ular uchun asos bo‘la oladigan qoliplashtirilgan formal til haqidagi qarashlar ilgari surildi. A.Melchuk va Y.Apresyan kabi olimlar asarlarida yuqoridagi fikrlar o‘z aksini topdi. N.Z.Kotelova esa tilni hech qanday sun’iy tizimga solib bo‘lmasligi, uning leksik-semantik xususiyatlarini formal til ochib bera olmasligini ta’kidladi.

Keyingi davrlarda kompyuter lingvistikasi ikki asosiy paradigma asosida rivojlandi: simvolik, ehtimollik nazariyasi. Birinchi yo‘nalish bo‘yicha formal til nazariyasiga asoslangan N. Chomskiy hamda sintaktik analiz (*parsing, syntactic analysis, syntax analysis*) algoritmi yordamida amalga oshirilgan tadqiqotlarni aytib o‘tish mumkin. Tilning matematik jihatdan o‘rganila boshlashi natijasida barcha tillar uchun umumiy universal qoliplar mavjudligi haqidagi masala kun tartibiga kela boshladi. 1950-yillarda mashhur olim Noam Chomsky tomonidan formal til haqidagi nazariya ilgari surildi. Formal grammatika abstrakt simvollar orqali bayon etiladigan grammatika hisoblanib, unda til qoidalari, so‘z yasalishi, birikma va gap qurilishi turli xil lingvistik modellar, struktur sxemalar yordamida tavsiflanadi. Unga ko‘ra formal grammatika uchta birlik asosida ish ko‘radi:

1. So‘z turkumlari (tub va yasama so‘zlar) – *word-classes*.
2. Gap bo‘laklari – *phrases*.
3. Gap konstruksiyalari sxemalari, modellari – *sentences.*

Ko‘plab tillarning grammatik strukturasi qayta o‘rganildi. Bundan tashqari shu paradigma vositasida pastdan yuqoriga (*bottom-up*) va yuqoridan pastga (*top-down*) metodlari ham shakllandi. Matnni sintaktik nuqtayi nazardan to‘liqroq tahlil qilish Zelig Xarris tomonidan Pensilvaniya universitetida 1958-59-yillar mobaynida “Transformatsiya va diskurs analiz” dasturi doirasida amalga oshirilgan.

1960-yillarning o‘rtalarida sun’iy intellektga oid nazariy va amaliy izlanishlar natijasida endi mashinaga tabiiy tilni tushunish va u bilan muloqotga kirishish vazifasi yuklatildi. Bu esa, o‘z navbatida, ikkinchi yo‘nalishning shakllanishiga asos bo‘ldi. Tilshunoslik va kognitiv nazariyaga juda oz miqdorda bog‘liq bo‘lgan dasturlardan biri Josef Veizenbaumning “Eliza” dasturi edi. U kiritilgan matndagi so‘zlarning ketma-ketlik chastotasi va ishlatilish doirasiga qarab javob qaytarishga asoslangan. Bundan tashqari Mak Karti, Marvin Minskiy, Klaud Shennon va sun’iy ong masalasini o‘rgangan boshqa olimlar tomonidan kiritilgan axborotni qayta ishlash hamda undan o‘rganish uchun ehtimollik nazariyasi va statistik algoritmga asoslangan metodlar ishlab chiqildi.

Psixolingvistika fanining rivojlanishi natijasida insonning tilni o‘rganish qobiliyati haqidagi bilimlar yanada takomillashdi. Bola dunyoga kelganidan so‘ng o‘z ona tili bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni sun’iy ong sohasiga ham tatbiq etila boshlandi. XXI asr boshlarida amalga oshirilgan ayrim ilmiz izlanishlar kompyuterga ham so‘zlay olish qobiliyatini berish mumkin ekanligini isbotladi. Poeppel, Omaki, Sekerina, Fernandez va Klahsen kabi olimlar bolaning va kattalarning tilni tahlil qilish jarayoni o‘rtasidagi farqli jihatlarni aniqladi. Bola ongidagi sintaktik qoidalar ota-ona nutqini eshitish va ularga taqlid qilish orqali shakllantirilishi isbotlandi.

Keyinchalik ingliz tili formal tilshunoslikning bir turi bo‘lmish erkin kontekstli grammatika asosida tahlil qilindi. Erkin kontekstli grammatika – matndan xoli bo‘lgan grammatika, chunki undagi qoidalar universal hisoblanib, ma’lum matnga tayanib tahlil etishga asoslanmaydi, balki u avvaldan empirik tarzda belgilab olinadi. Hozirda ushbu grammatika sun’iy dasturlash tillariga (Pascal, C++, Delphi, HTML) faol tatbiq etilgan, shuningdek, tabiiy tillarni formallashtirish jarayonida ham grammatikani bayon qilishning eng optimal usuli hisoblanadi. E.Charniak va J.Lambek tomonidan ingliz tilini bu turdagi grammatika asosida tahlil qilishning bir necha qoidalari ishlab chiqildi.[1] Daniel Jurafsky va James H.Mart ham “An Introduction to Natural Language Processing” kitobi orqali bu sohaning rivojiga o‘z hissalarini qo‘shdi. Ularning fikriga ko‘ra, *sintaktik tahlil* deganda, berilgan gapning sintaktik daraxt modelini aniqlash tushuniladi. Matnni formal grammatika asosida tahlil qilishda gaplar eng kichik rekursiv birliklardan tashkil topgan tuzilma sifatida qaraladi. Ko‘p hollarda bunday kichik birliklar vazifasini so‘zlar bajaradi va ular orasidagi bog‘liqlik sintaktik daraxt *(sytax tree)* modeli orqali ifodalanadi.[2] Sintaktik tahlil (*parsing*) jarayonini amalga oshirish uchun eng kichik ma’noli birliklarning bog‘lanish usullari, ketma-ketligi, kombinatsiyasi, valentligini ko‘rsatuvchi grammatik qoidalar to‘plami zarur. Bu keyingi tahlillarning aniq bo‘lishiga yordam beradi. Erkin kontekstli grammatika asosida tahlil qilishning dastlabki yillarida grammatik qoidalar mutaxassislar tomonidan qo‘lda kiritib chiqilgan va bu jarayon uchun alohida algoritmlar ishlab chiqilgan. Bugungi kunda esa mutaxassislar tomonidan sintaktik tahlil qilingan til korpusi(*Treebank*) yaratilishining o‘zi kifoya. Tahlil qilishga mo‘ljallangan dasturlar avtomatik ravishda gap strukturasiga oid grammatik qoidalarni shu korpusdagi matnlarni tahlil qilish orqali yaratib oladi. Markus va Santorinining fikriga ko‘ra, matn tahlilini statistik yondashuv asosida amalga oshirish uchun katta hajmdagi korpus kerak bo‘ladi. Grammatik qoidalarni sintaktik tahlil qilingan korpusdagi ehtimollik bilan birga ishlatish avtomatik tahlil qiluvchi algoritmlarga ularni istalgan matnning sintaktik daraxt modeli uchun qo‘llay olish imkonini beradi.[3] Sintaktik tahlil qilishga mo‘ljallangan dastur(parser)lar kiritilgan matnni avvaldan berilgan algoritmlar asosida tahlil qilish, undagi sintaktik qoliplarni o‘rganish, shu asosda keyingi berilgan topshiriqlarni mustaqil bajara olish prinsipi asosida ishlab chiqildi. Ko‘plab xorijiy til mutaxassislari ana shunday dasturlar yaratish uchun turli yondashuvlarni tajribadan o‘tkazgan. Bugungi kundagi bir necha tillardagi gaplarni sintaktik tahlil qilish uchun mo‘ljallangan parserlar ana shu tizim asosida ishlamoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti. –Toshkent: Muharrir, 2018.
2. Abduraxmonova N. Dependency parsing based on Uzbek corpus/ International Conference Language Technologies for All (LT4All) – Paris, 2019.
3. Arslan E. , Orhan U. Graph-based lemmatization of Turkish words by using morphological similarity// Innovations in Intelligent Systems and Applications (INISTA), International Symposium on IEEE. – 2016. –P.1-5.
4. Анисимов А. В. Компьютерная лингвистика для всех: Мифы. Алгоритмы. Язык. – Киев: Наук, думка, 1991.
5. Баранов А. Н. Введение в прикладную лингвистику. –Москва: Эдиториал УРСС, 2001.
6. Белоногов Г. Г. Об использовании принципа аналогии при автоматической обработке текстовой информации // Проблемы кибернетики. 1974. – №28. –С. 33.
7. Белоногов Г.Г. Компьютерная лингвистика и перспективные информационные технологии.– М.: Русский мир, 2004.
8. Dönmez İ., Adalı E. Contex Free Grammer For Turkish// Süleyman Demirel Üniversitesi Fen Bilimleri Enstitüsü Dergisi. – Almaty, 2018.– №22(2). – P.552-561


[1] Charniak E. Tree- bank grammars/ In Proceedings of the Thirteenth National Conference on Artificial Intelligence.– Menlo Park: AAAI Press/MIT Press, 1996. – P.1031-1036; Lambek J . From Rules of Grammar to Laws of Nature. – Novinka, 2014.

[2] Martin J. H., and Jurafsky D. Speech and language processing: An introduction to natural language processing, computational linguistics, and speech recognition.– Upper Saddle River: Pearson, 2009.

[3] Marcus M., Santorini B., and Marcinkiewicz M. A. Building a large annotated corpus of English: The Penn Treebank– Pennsylvania, 1993.

9. Dönmez I., Adali E. Extracting phrasecontent pairs for Turkish sentences// In Application of Information and Communication Technologies (AICT),The 9th International Conference on IEEE. – Rostov, 2015. –P.128-132.
10. Durrant P. Formulacity in an agglutinating language: The case of Turkish // Corpus Linguistics and Linguistic Theory, 2013. –№ 9(1)– P.1-38.
11. Erguvanli E. , Taylan E. E. The function of word order in Turkish grammar. – Los Angeles: University of California Press, 1984.
12. Eryiğit G., Nivre J., Oflazer K. Dependency parsing of Turkish// Computational Linguistics. 2008. –№34(3) – P. 357-389.
13. Göksel A. , Kerslake C. Turkish: A comprehensive grammar. – Abington: Routledge, 2004.
14. Grishman R. Computational linguistics. Cambridge University Press, 1994.
15. Güngör T., Kuru S. Representation of Turkish morphology in ATN// In Proceedings of Second Symposium on Artificial Intelligence and Artificial Neural Networks. 1993. –P. 92-104.
16. Güngördü Z. , Oflazer K. Parsing Turkish using the lexical functional grammar formalism// Machine Translation. 1995. – №10(4)– P.293-319.

## ТАРЖИМА МАТНЛАРДАГИ ПАРЕМИЯЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ
## FEATURES OF PAREMIAS IN TRANSLATION TEXTS

**Д. Муҳаммадиева**
**ТошДЎТАУ докторанти**

**Abstract:** there has not been a unique and complete investigation about the translations of «Baburname» made so far. However, we can meet some data in a number of investigations. Identifying the scientific value of the work by determination of the quality of translations into other languages, studying them by comparing to each other is important by the point of view of studying literary-cultural relations of Uzbek people with other nations of the world. Since, «Baburname» is considered to be a great contribution put in the human culture as the world scientists of oriental studies regard.

***Key words:*** *«Baburname», translation, languages, comparing, oriental studies.*

«Бобурнома»нинг таржималари ҳақида яхлит, мукаммал тадқиқот олиб борилмаган. Аммо бир неча тадқиқот ишларида айрим маълумотлар учрайди. Ўзга тилларга қилинган таржималарнинг савиясини аниқлаш, уларни ўзаро қиёслаб ўрганиш орқали асарнинг илмий қимматини белгилаш ўзбек халқининг жаҳондаги бошқа халқлар билан адабий-маданий алоқаларини ўрганиш нуқтайи назаридан ҳам муҳимдир. Зеро, «Бобурнома» дунё шарқшуносларини якдиллик билан қайд этганларидек, инсоният маданиятига қўшилган катта улуш ҳисобланади.

Маълумки, «Бобурнома» дунёнинг 18та тилига таржима қилинган ва 2та тилга (мажор-венгер ва туркман тиллари) таржима қилиш жараёнлари давом этмоқда. «Бобурнома» энг аввал форс тилига таржима қилинган ва унинг ташаббускори Бобурнинг ўзи бўлиб, у ҳаёт вақтидаёқ ўз асарини форс тилига таржима қилишларини сўраган эди. Унинг орзуси амалга ошиб, Асар Шайх Зайнуддин/Шайх Зайн томонидан форс тилига ўгирилди. Бу «Бобурнома»нинг ***илк таржимаси*** эди.

«Бобурнома» инглиз тилига 1926 Жон Лейден ва Вильям Эрскинлар[Иброҳимов,2011:21.], 1921 йили А.Бевериж, 1996 йилда профессор У.Тэкстонлар томонидан таржима қилинган. Н.Отажоновнинг фикрича, инглиз таржимонлари асарнинг ўзига хослиги, бадиий хусусиятларини сақлаб қолишга интилганлар. Олим таржималарнинг тили ҳақида ҳам ўз фикрини билдиради: Лейден-Эрскин таржимасида услуб атайлаб инглиз ўқувчисига тушунарли қилиб танлангандай, аксинча, Беверижнинг таржимаси қуруқроқ, илмий тилда битилган»[ Отажонов, 2010:19.].

«Бобурнома»нинг инглизча таржималари ичида Текстон таржимасида фраземалар, мақол ва маталлар таржимаси нисбатан мукаммалроқ акс этган. З.Тешабоеванинг фикрига кўра, «Таржимонлар Лейден-Эрскин ва Сусанна Беверижлар томонидан амалга оширилган

таржималарда бир неча мақол, маталлар таржима қилинмай қолиб кетганлиги аниқланган ва Текстон ушбу қолдириб кетилган мақол ва маталлар таржимасини қайта яратган. Мақол ва маталларнинг таржима қилинмай қолдирилиши таржимонларнинг мазкур барқарор бирикмаларни ўгиришда қийналганлигини кўрсатади. [Тешабоева, 2018:42.].

«Бобурнома» немис тилига 4 марта таржима қилинганлиги юқоридаги жадвалда келтирилган. Ушбу таржималарнинг ҳар тўрталасида ҳам камчиликлар етарли. Инглизчадан ўгирилган таржимада [Кайзер,1828] миллий колорит яхши ёритилмаган, оригиналдан ўгирилган Клапрот таржимасида таржимоннинг тилни мукаммал билмаслиги натижасида кўплаб фразема ва реалиялар бузиб талқин қилинган ёки тушириб қолдирилган, энг сўнгги Далов таржимасида эса қисқартирилган таржимадан ўгирилганлиги учун кўпгина воқеликлар, улар билан бирга паремиялар ҳам акс этмаган[Раҳимов. 2019:15.].

Асарда табиат тасвири, портрет, характер тасвири, лисоний ва услубий воситаларнинг келиши, мақол, афоризм, идиомаларнинг мавжудлиги таржимада бир неча қийинчиликларни юзага келтирган. Масалан: *тенгри раҳматиға бормоқ (б.221) – von der Welt aufgerufen werden (S.329), оламдин нақл қилмоқ (б.196) – die Erde verlassen (S.285), жон чиқмоқ (б.183.) – den Geist aufgeben (S.264), вафот қилмоқ (б.162.) – die Schuld des Lebens entrichten* (S.210) фраземалари сўз бирикмаси билан, *оламдин кечмоқ (б.81.) – ausatmen (S.105) – шунқор бўлмоқ (б.64.), umkommen (S.78)* фраземалари эса содда сўз билан ифодаланган.

Сўзларнинг айнан муқобил вариантларини топиш, қадимий туркий тилнинг лексик-фразеологик хусусиятларини таржимада акс эттира олиш таржимон олдига қўйилган энг муҳим мақсад ва вазифалардан биридир. Таржима тўғридан тўғри асл нусхадан эмас, балки инглизча вариантидан таржима қилинганлиги боис исмлар, реалиялар, атамалар, лақабларнинг муқобил вариантларини топиш таржимонга бир мунча қийинчиликлар туғдиргани асар мисолларида маълум бўлди.

XIX аср охирларида «Бобурнома»дан айрим қисмлар И. Пантусов, С. Поляков, В. Вяткин таржимасида рус китобхонларига қисман тақдим этилган бўлса-да, яхлит русча таржимаси амалга оширилмаган эди. 1958 йилда М. Салье асарнинг тўлиқ таржимасини амалга оширди. Русча таржимада паремиялар, хусусан, мақолларнинг айримлари тўғридан тўғри таржима қилиш орқали ифодаланган. Масалан, *Инонмағил дўстунгға, сомон тиқар пўстунгға* мақоли*(б.76.) Не доверяй другу: он набьет твою шкуру соломой* (б.97.) тарзида ифодаланган.

*Тенг бўлмагунча тўш бўлмас (б.115.)* мақоли эса шу мақолга мос келадиган *Не будь сходства, не было бы и встречи*, яъни *агар ўхшашликлар бўлмаса, учрашув бўлмайди* (б.141.) рус мақоли орқали мазмуни ифодаланган.

«Бобурнома»нинг озарбайжон тилида иккита таржимаси мавжуд бўлиб, Рамиз Аскер томонидан қилинган таржима Бокуда икки марта нашр этилган. Ушбу таржимада (2011) «Бобурнома»нинг туркча (Р.Р.Арат), русча (М.Салье) ва ўзбекча (Порсо Шамсиев) нашрларидан фойдаланилган. Таржиманинг кириш қисмида муаллиф Бобур мирзонинг шахсияти, ҳаёти ва ижоди ҳақида батафсил тўхталади.

Таржимада ҳар бир шахс, ҳар бир жой ёки муҳим тарихий воқеалар алоҳида сарлавҳалар билан ажратиб берилган. Асар шу қадар кичик таснифларга бўлинганки, баъзи сарлавҳа остидаги воқеалар бир бетгаям бормайди [Ramiz Askar, 2011]. Масалан, «Султон Маҳмуд мирзонинг Самарқанд тахтига чиқмоғи» (40-б) ёки «Бойсунқур мирзонинг Самарқанд тахтига чиқмоғи» (47-б) бўлимлари ярим бетдан, «Бойсунқур мирзонинг Хисравшоҳ тарафиндан ўлдирилмоғи» (85-б) бўлими 7 қатордан иборат. Сарлавҳаларнинг умумий миқдори 153 та.

Таржима ўзбекча ва туркча матнга асосланганлиги учун воқеалар изчил ёритилган, тушиб қолган ёки берилмай ўтиб кетилган ҳолатлар йўқ. Аммо асарнинг сўнгги 936-йил воқеалари 935-йил воқеаларига қўшиб юборилиб, шу билан якунланган. Таржиманинг умумий ҳажми 424 бетни ташкил қилади.

Таржимада мақол ва маталлар матн ичида асл манбадагидек ёзилган, ҳаволада ҳозирги озарбайжончада қанақа маъно англатиши берилган. Масалан: «Deh koca və dərəxtan koca»

məsəlini, deyəsən, Axsi üçün söyləmişlər[Ramiz Askar, 2011:23.]. («Деҳ кужо ва дарахтон кужо» масалини Ахси учун айтилганга ўхшайди. – матн тагидаги изоҳда эса *Kənd harada, ağaclar harada* (қишлоқ қаерда, дарахтлар қаерда*)* деб изоҳ берилган. Мисоллар:

Зикри номеро ҳакимон умри соний гуфтанд ( *(б.142.) – Həkimlər adın yad edilməsini ikinci ömür saymışlar.(*б.199); тенг бўлмагунча тўш бўлмас (б.115.) – *dəng olmayan tuş olmaz (б.155)*; Ким ўлар ҳолатга етса, ул билур жон қадрини (б.218.) – *Kim ölər hələkətə yetsə, ol bilir can qədrini (б.321);* Агар сад солмони ва-р яке рўз, Бибояд рафт аз ин кохи дилафрўз *(б.99.) – İstər yüz il, istər bir gün qal, Bu könül aydınladan köşkü tərk edəcəksən* (133); Не бормоққа ере муқаррар, Не турмоққа юрте муайян *(б.160.) – Nə getmək üçün qərar verilmiş bir yer, nə də durmaq üçün müəyyən bir yurd vardı(229).*

«Бобурнома»ниг озарбайжонча таржимаси изоҳларга бой, уларнинг асосий қисми сатр остида берилган, диққатга сазовор жойи шундаки, изоҳларда туркча, русча ва ўзбекча нашрлар ўртасидаги фарқлар очиб берилган. Асар сўнггида тушунарсиз сўз ва ибораларга таъриф берилган.

«Бобурнома» қозоқ тилига Байузақ Қожабекулы томонидан 1990 йилда «Бабырнама» номи билан таржима қилинади [Байузақ Кожабекұлы, 1993]. Бу таржима ўзбекча танқидий матн ва русча таржима асосида қисқартирилган ҳолда босилган. Кейинги 1993 йилда тўлиқ таржима шаклида нашр этилган, аммо исм кўрсаткичлари ва географик номлар харитаси тушириб қолдирилган. Таржиманинг кириш қисмида муаллиф Бобур ва унинг ҳаёти, «Бобурнома»нинг бадийяти ва таркибий қисмлари ҳақида батафсил маълумот беради.

Қозоқча таржимада воқеалар жуда кичик-кичик мавзуларга бўлиниб берилган. «Бобурнома»даги афоризмлар, ғазаллардан парчаларни Оразақын Асқар қозоқчага таржима қилган. Нашрни кузатиш мобайнида паремияларнинг ўгирилишидаги ўзига хосликни аниқладик. Муаллиф мақолларни сўзма-сўз ўгирмайди, ҳозирги қозоқчада мавжуд бўлган эквивалентини қўллаш йўлидан боради. Масалан, *Ғофил аз инжо ронда ва аз онжо монда (Ғофил бу ердан қувилган, у ердан ажралган)* матали (б.64.) шундай ўгирилган: *Тоқал ешкі құдайдан муйіз сураймын деп, құлағынан айрылыпты* (б. 77.). Ёки, *«Инонмағил дўстунгға, сомон тиқар пўстунгға»* мақоли *(б.76.) «Жау жоқ деме, жар астында»* (б.99.) деб таржима қилинган.

Эътибор берсак, иккинчи мақолнинг муқобили айнан Бобур айтмоқчи бўлган фикрни ифодаламаган. Чунки Бобур дўстининг хоинлигини таъкидламоқчи, қозоқчада эса атрофнинг хатарларга тўла эканлигига урғу қаратилган. Ҳолбуки, таржимон аслиятда берилган мақолларнинг таржима тилида мавжуд муқобилларини излаши, уларни саралаши ҳамда муқобили мавжуд бўлмаганларини эса қисқа ва лўнда изоҳлар орқали ифодалаши лозим [Ширинова, 2017:16.].

Мисоллар:

Қопудағини қопмаса, қариғунча қайғурур (б.74) – *Өз аяғымен келіп, қолымызға түскелі тұрған жау еш шығынсыз, жылыстап кетті.(95*), Корҳоро бавақт бояд жуст, Кори бевақт суст бошад суст (б.74) – *Дер кезінде бітken іс пайдалысы, Күні өткен соң болмайды жай-мәнісі (95),* Узраш батар аз гуноҳ (б.78) – *Оның ақталғаны қылмыстан да жаман (102),* Лаззати май маст донад, ҳушёрон чи ҳаз *(б.108.) –Мас біледі шараптың тәтті дәмін, Татпағанды демейді ол шат қыламын емес жаман егер.*

Кўринадики, таржимон мақолларни таржима қилиш жараёнида ўз тилида мавжуд бўлган эквивалентини қўллаш методидан фойдаланган, бироқ танланган бу метод ўзини у қадар оқламаган. Бунинг оқибатида, «Бобурнома»нинг асл ифода услуби бузилган, тасвирийлик акс этмаган. Бу ҳолатни гап тузилишларининг ўзгартирилганлигида ҳам кўриш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, «Бобурнома» илм аҳлининг доимий диққат марказида бўлиб келган. Бунга сабаб сифатида бир неча омилни келтириш мумкин.

*Биринчидан,* «Бобурнома» ўша давр сарой муҳити, адабий жараён ҳақида маълумот берувчи энг ишончли манба ҳисобланади, бу ҳақда кўпгина хорижий олимлар ўз асарларида ёзиб қолдирганлар.

*Иккинчидан,* «Бобурнома» тилининг соддалиги, услубининг равонлиги, тасвирнинг жонли берилиши барчани мафтун қилиб келган.

Таҳлилларимиз натижалари шуни кўрсатадики, таржималарда паремияларнинг акс эттирилишида бирмунча ноаниқликлар ва камчиликлар кўзга ташланади. Бу ҳолатга асар тилини яхши тушунмаслик, пресуппозиция ва қочиримларни тўғри англамасликлари сабаб бўлган дейиш мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. Бабир Захир ад-дин Мухаммед. «Бабырнама». Қазақша сөйлеткен Байузақ Кожабекұлы. – Алматы, 1993.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. «Бобурнома» Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент, 2002.
3. Иброҳимов А. «Бобурнома»даги ҳиндча сўзлар тадқиқи. Филол.фан.ном. дисс. – Тошкент, 2011.
4. Иброҳимов А.П. «Бобурнома» – буюк асар. − Тошкент, 2000.
5. Отажонов Н, Ҳошимова Д. «Бобурнома» шарқ элчиси. −Тошкент, 2010.
6. Раҳимов Х. «Бобурнома»нинг олмонча таржималарига бир назар // Бобур ва дунё. – Тошкент, 2019, №1.
7. Тешабоева З. «Бобурнома»даги фразеологик бирликларнинг инглизча таржималари қиёсий таҳлили. − Тошкент, 2018.
8. Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. Çevıren Ramiz Askar. 2-naşr. – Bakı, 2011.
9. Ширинова Р. Х. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши. Фил. фан. бўйича док. (DSc) дисс. автореферати. –Тошкент, 2017.


## BOLALAR BILINGVIZMINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI
## PRINCIPLES OF FORMATION OF BILINGUALISM IN CHILDREN


**M.Shamsiyeva,**
***O‘zMU magistranti***



**Annotation:** the article describes the attitude to children’s bilingualism and multilingualism, the principles of its formation and the role of the family in this.



***Keywords:*** *bilingvology, personal principle, local principle, temporal principle, thematic principle, national language.*


Bilingvizm va ko‘p tillilikka bo‘lgan munosabat turlicha bo‘lib, o‘tmishda ham, hozirda ham jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy-siyosiy, madaniy, shuningdek, davlatning til siyosati jarayonlari sifatida belgilanadi. Dunyoda XX asr o‘rtalaridan boshlab bolalar bilingvizmiga bo‘lgan munosabat, uning shakllanishiga nisbatan qiziqish kuzatila boshlandi, so‘nggi yillarda esa aholining turli qatlamlarida bu fenomenga nisbatan ijobiy munosabat doimiy ravishda oshib bormoqda. Bugungi kunda xorij davlatlarida bilingvizm va ko‘p tillilikning shakllanishiga tillar va madaniyatlarni saqlab qolish imkoniyati sifatida qaralmoqda. Umumiy faoliyat, qiziqish, xususan, bilingvizmning shakllanish g‘oyalari, bolalarning ko‘p tilliligi va uning kattalarda saqlanishi bilan birlashadigan umumiy jamoa sifatida oilaga asosiy e’tibor qaratiladi.

Fishman (Fishman 1991) tomonidan oila tillarni saqlab qolishning asosiy o‘rni sifatida o‘rganilgan; hozirda esa oila o‘sib kelayotgan avlodlar o‘rtasida ona tili unutilishini bartaraf etish mumkin bo‘lgan asosiy jamoa hisoblanadi. Oilalarning o‘z madaniyati va til merosini saqlab qolishga bo‘lgan muvaffaqiyatli kurashi namunalari immigrantlar, aralash oilalarning o‘z ona tilida muloqot qilishni davom ettirishi, oilada, MTM va maktablarda o‘z ona tilida ta’lim-tarbiya berishga ruhlantirishi mumkin.




“Bir shaxs – bir til” prinsipi oilada ikki tilni saqlab qolishda eng samarali hisoblanadi, biroq muloqotning barcha vaziyatlarida bunga rioya qilish murakkab ekanligi koʻrsatiladi. Xorijda bolalar bilingvizmi va koʻp tilligiga munosabat hozirgi vaqtda ta’lim-tarbiyada, shuningdek, bu fenomenlar tadqiqida ham bir tillilik va koʻp tillilik yondashuvlarini qoʻllashda teng huquqlilik yuzaga kelganini koʻrsatadi. Bu yoʻnalishdagi oshib borayotgan ishlar miqdorini buning tasdigʻi deb hisoblash mumkin.

Erta bolalar bilingvizmini bir tilli bola rivojlanishi kabi haqiqatan normal hodisa deb hisoblash uchun bilingval bolalarning ota-onalari va bolalar bilingvizmini shakllantirish haqida oʻylanayotgan ota-onalarning munosabatini bilish muhimdir. Shu sababli bolalar bilingvizmi haqidagi faqat nazariyalar va olimlarning tadqiqotlari emas, balki bilingval shaxs shakllanishi va ijtimoiylashuvi jarayonlarida ishtirok etuvchilar – ota-onalar va bolalarining fikrlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda oʻz bilingval rivojlanishi haqidagi introspektiv qarashlar ifodalangan tadqiqotlar yetarli emas, biroq ular ham asta-sekin paydo boʻladi. 1959-yilda chop etilgan shunday ishlardan biri Vilgelm Teodor Elvertning oʻz oilasida qanday qilib ikki tilni (onasidan ingliz tili va otasidan nemis tili) va deyarli bir vaqtda uchinchi til (italyan tilini boshqalardan, chunki oila Italiyada yashagan)ni oʻzlashtirganini tavsiflaydi (Elwert 1959). Hozirda bunday ishlar lingvoetnografiya (Language ethnography) tarkibida rivojlanadigan lingvistik avtoetnografiya (Linguistic auto-ethnography)ga kiritiladi. Olimlar oʻz lingvistik tarixlarini, jumladan, tilni oʻzlashtirish, ularning ota-onalari, boshqa oila a’zolari tilini oʻzlashtirishi, shu tariqa, oilaning lingvistik va lingvomadaniy tarixini bayon qiladilar. Bunday ishlarning aksariyati oʻzining ikki tillilik va koʻp tillilik tajribasini anglash bilan bogʻliqdir. Ibragim Chinarbash “Lost between languages” maqolasida turk, kurd, arab va ingliz tillarini oilada, soʻngra maktab va talabalik davrlarida oʻzlashtirganligi borasidagi multilingval tarixini yoritadi (Çinarbaş 2014).Ulgʻaygan bolalar koʻpincha oʻzining ikki tilligi va koʻp tilligini ijobiy baholaydilar, mamnuniyat bilan oʻz tajribalari borasidagi mulohazalari bilan boʻlishadi.

Bugungi kunda “bir ota-ona – bir til” tamoyili yosh bilingvologiyasida shaxsiy tamoyil deb ham yuritiladi va u nisbatan bioetnik va monoetnik oilalarda ham bilingval nutqiy muhitda bir vaqtning oʻzida bola ikki tilni oʻzlashtirishining maqbul varianti sanaladi. Ushbu tamoyilni qoʻllash quyidagi shartlarga rioya qilishni nazarda tutadi:

- har bir ota-ona bola bilan faqat bir tilda muloqot qiladi, bu uning ona tili yoki chet tili boʻlishi mumkin, ya’ni kattalar bola bilan muloqot qilayotgan tilining sohibi boʻlmasligi mumkin;

- agar ota-onaning oʻzi bilingv boʻlsa, ular bolaning oldida bir-biri bilan qaysi tilda muloqot qilishni oldindan kelishib oladilar; ota-onalar bola bilan gaplashadigan tilda bir-biri bilan muloqot qilishida shaxsiy tamoyilni nisbatan izchil amalga oshirish mumkin boʻladi, buning uchun ota-onaning ikkalasi ham bu tilni egallagan boʻlishi lozim;

- agar jamiyat tili ota-onalarning bola bilan muloqot qiladigan tilidan farq qilsa, bolaning uchinchi tilda muloqot qilishi uchun sharoit yaratiladi: a) mahalliy tamoyil qoʻllanadi (uydan tashqarida jamiyat tiliga oʻtadi); b) uyda kimdir bola bilan muntazam jamiyat tilida muloqot qiladi (tanishlari, doʻstlari); v) bola faqat jamiyatda qoʻllanadigan tilda faoliyat koʻrsatadigan maktabgacha ta’lim muassasasiga qatnaydi. “Bir ota-ona – bir til” tamoyilini amalga oshirishning muvaffaqiyati uni

qo‘llashdagi izchillik va qat’iylikka bog‘liqdir. Biroq natijalar faqat sub’ektiv emas, balki ob’ektiv mezonlarga, ayniqsa, jamiyat tili xususiyatlariga ham bog‘liq bo‘ladi.

Mahaliy tamoyil barcha ehtimoliy kommunikativ vaziyatlarni ikki qismga ajratishni talab qiladi: bir holatda bir tilda muloqot qiladi, barcha boshqa holatlarda – boshqa tilda. Ko‘pincha bir til “uy” tiliga aylanadi, boshqasi uydan tashqarida qo‘llanadi.

Muntazam boshqa tilli mamlakatda yashovchi monoetnik oilalarda mahalliy tilni izchil qo‘llash kattalarning ham, bolalarning ham muloqotida ona tilini saqlab qolish imkonini beradi. Immigrant oilalarning bolalari ko‘pincha jamiyat tilida faoliyat yuritadigan maktablarda o‘qiydi, chunki boshqa davlatlarda kerakli tillar kombinatsiyasidagi bilingval maktabni topish mushkul. Bunday sharoitda bolalar o‘z ona tilini tezda unutib qo‘yishlari mumkin. Muammo shundaki, ona tilini rad etish bolaning o‘z rivojlanishida bir necha yil orqaga qaytishiga olib keladi, ona tilining tirgagi bilan esa u yangi jamiyat tilini muayyan lingvistik tajribaga ega bo‘lgan holda o‘zlashtiradi. Shuning uchun zamonaviy bilingvologlar ona tilining rolini kuchaytirishni tavsiya qilishadi.

Temporal tamoyil bola bilingvizmini shakllantirishda unchalik samarador hisoblanmaydi, chunki u ikki (yoki undan ortiq) til faolligini muayyan vaqt oraliqlarida: kun davomida, bir kundan keyin, bir necha kundan so‘ng bo‘lishini nazarda tutadi. Bu tamoyilni qo‘llashga bo‘lgan urinishlar va tadqiqotlar xorijda o‘tkazilgan bo‘lib, barcha ishlarda shunday xulosaga kelinganki, bu tamoyilda qo‘shimcha tirgaksiz yaxshi natijalarga erishib bo‘lmaydi. Yaxshi bo‘lgan holatda ham passiv retseptiv bilingvizmni shakllantirishi mumkin.

Mavzuli (predmetli-tematik) tamoyil bola bilan turli mavzularda turli tillarda gaplashishni nazarda tutadi. Ikki tilda gapira oladigan va boshqa tamoyillar asosida tillarni o‘zlashtirgan bola bilan muloqotda bu tamoyilni juda majbur bo‘lganda va qisqa vaqt mobaynida qo‘llash mumkin.

Har qanday holatda bilingvizmni shakllantirish milliy tilni unutish darajasida bo‘lmasligi, aksincha u rivojlantirilishi lozim, zero yuqorida ta’kidlanganidek, bolaning o‘z ona tilini unutishi uning rivojlanishida bir necha yillar orqaga ketishiga sabab bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Fishman, J. A. Reversing Language Shift: Theory and Practice of Assistance to Threatened Languages / J. A. Fishman. – Clevedon: Multilingual Matters, 1991. – 448p.

2.Çinarbaş I. Lost between Languages // URL:https://www.academia.edu/5776655/Language_Auto_Ethnography.

3.Коровушкин,В. П., Чиршева, Г. Н. Способ формирования детского билингвизма / В.П. Коровушкин, Г.Н. Чиршева// Современные технологии обучения иностранным языкам / Сборник статей. – Пенза, 2003. – С.160-162.

## QADRIYAT VA BAHONING FALSAFIY, LOGIK, LINGVISTIK TALQINI. PHILOSOPHICAL, LOGICAL, LINGUISTICAL INTERPRETATION OF VALUE AND EVALUATION

**G.Komilova,**
***ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi***

**Annotatsiya:** This article deals with the linguistic interpretation of the assessment category, which originally belonged to the sciences of philosophy and logic.

**Key words**: axiology, worth, value, evaluation, subjective evaluation, language, axiological approach, axiological lexicon.

Qadriyat, baho va baholash masalalari dastlab, mantiq, falsafa fanida o‘rganilgan. Mantiq doirasida baholash, odatda, qadriyatlar haqidagi hukm sifatida tushunilgan bo‘lsa, aksiologiyaning predmeti sifatida “qadriyatlar tabiati to‘g‘risidagi” falsafiy ta’limotdir. Qadriyatlar mohiyati haqidagi g‘oyalar tarixiy jihatdan o‘zgaruvchan va mualliflarning umumiy falsafiy qarashlari bilan uzviy bog‘liqdir [Вольф, 2002: 6].

Shuni ta’kidlash kerakki, baho, baholash kabi terminlar lingvistik adabiyotlarda hali to‘liq qamrab olinmagan.

Zamonaviy tilshunoslik doirasida baho kategoriyasiga nisbatan turli xil yondashuvlar mavjud:

1. Lingvo-falsafiy aspekt. Ushbu aspektda Arastu, keyinchalik Arutyunova, A.A.Ivin bahoni logik va falsafiy kategoriya sifatida o‘rganishdi.

2. Semantik aspekt. Y.M.Volf hamda N.A.Lukyanovalar bahoga semantik nuqtai nazardan yondashishgan. Volf tomonidan baho obyekti, baho subyekti ajratib olindi. Baho obyekti o‘zida ma’lum hodisa yoki jarayonning xususiyatlarini aks ettirib, baho uchun asos vazifasini bajarsa, subyekt obyektga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalaydi[Вольф, 2002:24-33].

3. Pragmatik aspektda yondashuv. Pragmatik yo‘nalishdagi tadqiqotlarda bahoga modallikning bir turi sifatida munosabatda bo‘lindi. Mur, Xear, Teliya kabilarning ilmiy ishlari shular jumlasidan.

4. Funksional-semantik aspekt. Temirga zina baholovchi birliklar asosida freymlardan iborat ongning kognitiv modeli yotadi deb yozadi. Freym- bu inson xotirasidagi narsalar va hodisalarning aqliy tasviridir. Baholovchi fereym, o‘z navbatida ramziy xarakterga ega [Темиргазина,1999:18].

5.Funksional-stilistik aspekt. Teliya, Arnold, Sternin, Sh.Ballikabi olimlarning izlanishlari mazkur aspektda olib borildi.

6. Milliy-madaniy aspekt. T.V.Pisanova, Apresyan tadqiqotlarini misol qilishimiz mumkin.

So‘z nafaqat tilning nominative birligi, balki bir qator his-tuyg‘ular, ifodalar, baholash, niyatlar, istaklardir. Va yana aytish mumkinki,baho semalari lingvistik aspektlarning barchasida mavjud. U so‘zdan kichikroq elementlar bilan chegaralanishi yoki so‘zlar guruhini ham, butun bir gapni ham xarakterlashi mumkin. Masalan, erkalovchi, kichraytiruvchi yoki hurmat ma’nosini ifodalovchi shakl yasovchi affikslarda( *mushuk-mushukcha, qiz-qizcha, qo‘zi- qo‘zichoq, -boy, -jon, -xon, -beksingari*), sifatva ravish so‘z turkumida (*kattashahar, aqlliqiz, oshkoraharakat*), paremiologik va frazeologik qatlamda (*yog‘ tushsa yalagudek toza, Maqsadli bo‘lgan yo‘ ltopar*).

Agar bahoni, odatda, kognitiv harakat sifatida, ya’ni obyektning ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini belgilash va uning subyekt uchun ahamiyatini ko‘rsatish deb ta’riflasak, baholash til birligining xususiyati hisoblanadi. “Baholash – so‘z yoki iboraning potentsiali, ularning vazifasi obyektning ijobiy va salbiy xususiyatlari izohlash [Марьянчик, 2005:7].

Baho subyektning his tuyg‘ulari, fikri, ehtiyojlari va istaklaridan kelib chiqadi. Bu holat undagi ziddiyatni keltirib chiqadi. Ya’ni xohish va istakdan paydo bo‘lgan baho ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan bahodan farq qiladi.

Yanada aniqroq qilib aytganda: “Baho qadriyatni ko‘rsatuvchi yo‘llardan biri. U subyektdan tashqarida mavjud emas. Chunki baho *qadriyatli predmet (ashyo)* paydo bo‘lishiga yordam beradi. Shu bilan birga baho o‘sha qadriyatli ashyo haqida ma’lumot beradi, ya’ni ijtimoiy borliqning o‘ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Bahoning zaruriyligi, birinchi navbatda, bir buyumning boshqalari oldida afzalligi haqidagi savollarni yechishga majbur qiluvchi ijtimoiy hayot zaruriyatlari oldida ko‘rinadi. Aynan bahoda obyektning qadriyatli predmetligi o‘zining muhim ifodasini topadi va zaruriy ehtiyoj predmetiga aylanadi. Holat obyektiv, lekin refleksiya (in’ikos) subyektivdir [Мещерякова,2004:26].

Inson obyektni baholar ekan uni o‘zidan o‘tkazishi kerak, baho tabiati inson tabiatini ko‘rsatadi. Insonkeraklibo‘lgannarsa (jismoniyvaruhiy)larni baholaydi. Baho insonga uni qamrab olgan dunyodagi maqsad sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, “inson biror maqsadda foydalanishni ko‘zlayotgan narsaga baho beradi. Bahoning asosiy tamoyili – dunyo inson uchun mavjud, inson dunyo uchun emas” [Arutyunova, 1998:181]. Lisonda baho hodisasi orqali predmetlar tanlanadi, analiz qilinadi. Ko‘zga ko‘rinmasa-da, so‘zlar o‘z konnotativ ma’nolarida lisoniy baho sintezini jamlaydi.

Baholash jarayonida antropotsentrik paradigma (inson omili) birinchi o‘ringa chiqadi va bu jarayon shaxsga, uningqiziqishlari va ehtiyojlari doirasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Baho inson tug‘ilib o‘sgan ijtimoiy madaniy muhitga bog‘liq bo‘lib, shu sababdan ham tegishli qonun va etnik normalar talablariga mos bo‘lishi zaruriyat hisoblanadi.

Shunday qilib, obyektni kontseptual kategoriya sifatida baholash tarixiy va ijtimoiy o‘zgaruvchan miqdordir. Umumiy ma’noda baholash assimilyatsiya, ya’ni, idrok qilish - amalga oshirish integratsiyasidir. Baho ideallikka yo‘naltirilgan bo‘lsa, baholash esa ideal bilan taqqoslash natijasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Арутюнова Н.Д. Типы языковыхзначений: Оценка. Событие. Факт. М.: Наука, 1988.

2.Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. Изд. 2. –М.: Едиториал УРСС, 2002.

3. Марьянчик В.А.Аксиологическая функция неологизмов медиаполитического дискурса (на материале газетных публикаций начала XXI века): автореф. дис. … докт. филол. наук: 10.02.01 /– Архангельск, 2005.

4.Мещерякова Ю.В. Концепт красота в английской и русской лингвокулътурах: дисс... канд.фил.наук. Волгоград: 2004.

5.Темиргазина З. К. Оценочные высказывания в современном русском языке:дис. … канд. филол. наук: 10.02.20. М., 1999.

## ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MILLIY-MADANIY BIRLIKLARNING TARJIMASIDAGI MURAKKABLIKLAR
## THE PROBLEMS OF NATIONAL CULTURAL WORDS IN THE TRANSLATION OF ALISHER NAVOI'S WORKS

**M.Oqmamatova,**
***ToshDO'TAU stajyor-tadqiqotchi***

**Abstract:** The article is about the using national cultural words in the works of Alisher Navoi and the problems of translation.

***Key words:*** *lexeme, phrase, lexical-semantic, national cultural words.*

Har qanday tilning boyligi, jozibasi va go'zalligi undagi so'zlarning ma'nosi, soni bilan belgilanadi. Ta'bir joiz bo'lsa, qo'lingizdagi guldasta bir xil gullardan yoki har xil gullardan yig'ilgan, tuzalgan bo'lsa, sizga qay biri yoqadi? Buni hamma didiga qarab tanlaydi. Kimlargadir rango-ranglik yoqsa, kimgadir bir xillik ma'qul keladi. Xuddi shunday so'zga bo'lgan munosabatda ham har kimning o'z qarashlari va yondashuvi mavjud.

Milliy-madaniy so'zlarimiz bizning qadriyatlarimizni, madaniyatimizni, urf-odat-u an'analarimizni o'zida mujassamlashtiradi. Ular faqat shu xalq vakillarining dunyoqarashlaridan kelib chiqib muomalaga kiradi va tezda yuraklarga yo'l oladi.

Hazrat Alisher Navoiydek buyuk mutafakkir asarlarida bunday so'zlarga bo'lgan munosabatning alohida ehtirom bilan qo'llanishi ham bejizga emas, albatta. Navoiydek so'zga talabchan ijodkor milliy so'zlarni o'ta murakkab davrda ham oqlab, ulug'lab, boshqa tillardan ustunligini o'z asarlarida isbotlagan shaxsdir.

Navoiydek so'zga ehtiyotkorlik bilan yondashgan ijodkorlar ko'p emas. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarini ingliz tiliga yoki boshqa Yevropa tillariga tarjima qilganda juda ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi.

Quyida ana shunday milliy urf-odatlarimiz, qarashlarimiz aks etgan Navoiy asarlaridan ayrim namunalarni keltiramiz va badiiy tarjimada ularning ma'nolarini ochib berish uchun maxsus sharhlar berish kerakligi va bu sharhlar orqali ma'no qanchalik yoritilishi jihatlariga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Ko'zim uchadur, magarki yorim keladur, Es har dam ozar, magar nigorim keladur. Yo bodiyayi firoq sayrida qilib, Yuz marhala qat' shaxsuvorim keladur. Ruboiyning birinchi misrasida "agar yorim kelar bo'lsa, ko'zim uchadi" deyiladi, Xo'sh "ko'z uchmoq" iborasini tushunish uchun bizning urf-odatlarimiz bo'yicha "ko'zi uchmoq" iborasi qanday ma'no anglatishini tushunmoq kerak. "Ko'zi uchib turibdimi?!" kimning kimga. Ko'rish ishtiyoqidamidi?! (kesatiq bilan). [Rahmatullayev, 1978: 143]. Yuqoridagi ta'rifda "ko'zi uchmoq" iborasining kesatiq ma'nosi berilgan. Lekin ruboiyda bu ibora "kimnidir intizor kutmoq" degan ma'noda qo'llanilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, iboralar gapda turli xil ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Bu iborani ingliz tilida "in seventh heaven" iborasi bilan ma'nosi tenglashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni "xursandligidan yettinchi osmonda" degan ma'noni anglatadi. Ammo she'rda bu jumlani qo'llaganda hijo va qofiyani inobatga olish kerak. Ikkinchi misrada "esdan ozmoq" iborasi "xursandlikdan es-hushini yo'qotmoq" ya'ni ijobiy ma'noda qo'llanilgan. Bu iborani o'z

ma’noda ham qo‘llash mumkin. Masalan, “aqldan ozmoq”, “aql hushini yo‘qotmoq”. Shu sababli, ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida “full of the joys of spring” iborasi “esdan ozmoq” iborasining ma’nosiga mos ekvivalent birlik bo‘la oladi va bu iborani tarjimada ham qo‘llash mumkin.

Quyida Alisher Navoiyning yana bir ruboiysi tahlilini ko‘rib chiqamiz:

Ham jismingga za’f bo‘lsa jonim sadqa,
Ham joningga jismi notavonim sadqa.
Sarvingg‘a shikast o‘lsa ravonim sadqa,
Yo‘q-yo‘qki, sanga jonu jahonim sadqa.

Bu ruboiyda sevikli yor uchun oshiq bor narsasini qurbon qilishga tayyor. Ammo bunday ruboiylar tarjimasida ham ehtiyotkorlik talab qilinadi. Chunki “jonim sadqa” iborasi milliy-madaniy birliklarimiz sirasiga kirib, unda “qurbon qilmoq” leksemasiga qaraganda kuchliroq ma’no yuklangan. Shu bois, bu ibora talqinining tarjimasi ingliz tilida aynan shu ma’noni bera oladigan “to be a victim” birligidan foydalanish mumkin. “Sadqa” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “sadaqa” degan ma’noni bildiradi, ya’ni ingliz tilida “charity” leksemasi “xayriya” ma’nosini anglatadi. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Toshkent: 2007.] Ammo “sadqa” yoki “sadaqa” leksemalarining aynan ma’nosiga teng kela olmaydi. Shu bois, bu she’r tahlilida ham yuqoridagi birlikda o‘ta ehtiyotkorlik talab etiladi. Ruboiyda oshiq o‘z ma’shuqasi uchun bor budini, “jismi notavonini”, bo‘yiga jonini va asar oxirida butun jon-u jahonini nisor qilishga tayyor. Ammo tarjimon oshiqning bu holatini ruboiyda qay darajada ifodalay oladi va shu tilning bor jozibasini saqlay oladi bu uning mahoratiga bog‘liq. Odatda she’riy asar tarjimasi murakkab jarayon. Unda har ikki tilning lirik janrlariga oid bilimlar tarjimonda yetarli bo‘lishi kerak. So‘zlarning, matnning ma’nosi saqlab qolingan taqdirda ham, janrning o‘ziga xosligi va talablari buzilmasligi shart. Ana shu lirik asar mumtoz merosimizga mansub bo‘lsa, bu talab ikki barobar oshadi. Chunki mumtoz adabiyotga xos she’riy vazn talablari, arxaizm va istorizmlarni, she’riy san’atlarni va ularga doir bilimlarni puxta egallamay turib bu kabi asarlar tarjimasiga qo‘l urish juda qiyin. Milliy-madaniy so‘zlar xalq mulki, uning o‘tmishi, his-tuyg‘ulari va dunyoqarashining in’ikosidir. Ularni tarjima qilishda Qoshg‘ariy bobomiz aytganlaridek “So‘zni yovvoyi tog‘ kiyiklari kabi qo‘lga o‘rgatmoq lozim”. Demak, badiiy asar tarjimasida tarjimon frazeologik birliklarda, milliy-madaniy leksemalarda, turli xil emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlarda til birliklarining ma’nolarini to‘la anglamay turib uni boshqa tillarga o‘girishi qiyin. Zero, tarjimon yaxshi bir asarni bordan yo‘q yoki yo‘qdan bor qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami, uchinchi tom, “Fan” nashriyoti, Toshkent: 1988.
2. Mengliyev B, Xoliyorov O‘, O‘zbek tilidan universal qo‘llanma, “Fan” nashriyoti, Toshkent: 2008.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat milliy nashriyoti, Toshkent: 2007.
4. Rahmatullayev Shavkat, O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati, “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent: 1978.
5. Sariyev Sharafjon, Adabiyot, “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent: 2014.

## AREAL LINGVISTIKA – TILSHUNOSLIKNING ALOHIDA YO‘NALISHI SIFATIDA
## AREAL LINGUISTICS AS A SEPARATE FIELD OF LINGUISTICS

**D.Nasriyeva,**
***O‘zMU magistranti***

**Abstract:** this article describes in detail the role of area linguistics in world linguistics, its connection with linguistic geography and its definition in various literatures.

***Key words:*** *area-geographical classification, area linguistics, language area, dialect area, "family tree", "wave theory".*

Dunyodagi tillarning taraqqiyot tarixi shuni koʻrsatadiki, qabila, elat, irq, hudud chegarasi bilan til chegarasi oʻzaro toʻgʻri kelmaydi, shuning uchun ham areal – geografik tasnif tillarning tarqalish hududini aniqlab, u yoki bu til xususiyatlarini umumlashtirib beradi. Tilshunoslikda areal – geografik tasnif muammolari bilan lingvistik geografiya va areal lingvistika shugʻullanadi.Tilshunoslikda areal lingvistikani atroflicha tadqiq qilish uning alohida tarmoq sifatida ajralib chiqishi va boshqa fanlar orasida tutgan muhim oʻrnini aniqlashga imkon berishi, shubhasizdir. Odatda, mavjud ilmiy adabiyotlarda, umuman, jahon tilshunosligida ham areal lingvistika va lingvistik geografiya ba'zan bir termin sifatida talqin qilingan. Ammo olimlar tomonidan ba'zi bir dalillarni baholashda koʻplab tushunmovchiliklar va nomuvofiqliklar ham mavjud.Bu haqda keyingi oʻrinlarda toʻxtalamiz.

Areal lingvistika zamonaviy qiyosiy tilshunoslikning asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida oʻzbek arealogiyasida ham nazariy, ham amaliy jihatdan faol rivojlanish bosqichida turganligi hech kimga sir emas. Oʻzbek areal lingvistikasining nazariy asoslariga A.B.Joʻrayev oʻzining " Oʻzbek tili massivini areal oʻrganishning nazariy asoslari" (Джураев Азиз Болтаевич. Теоритические основы ареального исследования узбекоязычного массива. 1991) nomli kitobi orqali poydevor qoʻygan boʻlsa-da, uzoq yillar davomida tilshunos olimning yondashuv va qarashlari tilshunoslarimiz e'tiboridan chetda qoldi. Natijada oʻzbek arealogiyasi jahon arealogiyasi oldida ancha oqsab qoldi. Ammo keyingi yillarda tilshunosning arealogiyaga oid izlanishlari bir qator tadqiqotlarning yuzaga kelishida dasturulamal vazifasini oʻtamoqda. Bu sohada I.Darveshov va N.Raxmonov kabi tilshunoslarimiz tadqiqotlarini aytib oʻtish oʻrinlidir. Haqiqatan, areal lingvistikaning oʻrganish metodlaridan boʻlgan lingvistik geografiya boʻyicha A.Shermatov "Lingvistik geografiya nima?" kitobida areal lingvistika termini, tadqiq obyekti va tushunchaviy apparatiga toʻxtalib oʻtgan. Biz ham dastlab "areal lingvistika" atamasi ta'rifiga e'tibor qaratsak. Tilshunoslikda areal lingvistika alohida tarmoq sifatida faoliyat yuritayotgani bois, ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar tobora kengroq qamrovga ega boʻlmoqda, ammo haligacha "areal lingvistika" va "lingvistik geografiya" terminlari tilshunoslarimiz ishlarida sinonimik holda ishlatiladi. Zamonaviy lugʻatlarda atamalarning chalkashligi mavjud. Keling, ulardan ba'zilarini koʻrib chiqaylik:

I. "Areal lingvistika" (hududiy tilshunoslik) – 1) lingvistik geografiya; 2) tor ma'noda areal lingvistika atamasi Hind – Yevropa tadqiqotlariga borib taqaladi. Uning poydevori I.Shmidtning "Hind – Yevropa tillarining qarindoshlik aloqalari" (1872) toʻgʻrisidagi monografiyasida aoslab berilgan. I.Shmidt oʻz nazariyasini A.Shleyxerning "shajara daraxti" nazariyasiga qarshi qoʻyadi. [http://slovari.yandex.ru]. Shuningdek, lugʻatda ushbu atamaning turli xil talqinlari qayd etilgan. Umuman olganda, areal lingvistika va lingvistik geografiya oʻrtasidagi terminologik farq qat'iy emas. O.S.Axmanovaning ""Lingvistik terminlar lugʻati"da ushbu tushunchalarning birinchisi hududiy tilshunoslik, ikkinchisi - dialektografiya,ya'ni tillarning hududi bilan shugʻullanadigan soha, deya ta'rif berilgan. [http://slovari.yandex.ru]

III."Areal lingvistika" tushunchasini aniq belgilashga harakat qilgan A.V. Desnitskaya "Areal tilshunoslikning predmeti va usullari toʻgʻrisida" maqolasida "lingvistik geografiya" va "areal lingvistika" atamalarini quyidagicha ajratib beradi: "Koʻpincha "areal lingvistika" atamasi "lingvistik geografiya" atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi, tilshunoslik hodisalarining hududiy taqsimlanishini ham keng, ham tor ma'noda oʻrganishni nazarda tutsak, umuman olganda, har ikkala termin birday tushuniladi.[Десницкая А.В., 1977:22-28]

IV. "Lingvistik entsiklopedik lugʻat"da aniqroq ta'rif berilgan:

"Areal lingvistika" (lotincha - hudud, maydon) - tilshunoslikning lingvistik geografiya usullaridan foydalanib, til hodisalarini hududiy miqyosda va tillararo (dialektlararo) oʻzaro ta'sirini oʻrganadigan qismi [Советская энциклопедия, 1970: 65 ]

V. M. A. Borodina har ikki tushunchani ajratishni taklif qilib, lingvistik geografiyaga lingvistik atlaslarni tuzish amaliyoti sifatida, areal lingvistikaga esa hududiy nazariy ma'lumotlarni toʻplash sifatida qarashni ma'qul koʻrdi. D. I. Edelman: "Areal lingvistika - qadimiy yashash

joylarida til hodisalarining tarqalishini zamonaviy asosida oʻrganish demakdir", - deya ta'rif beradi. [Бородина М.А.,1974: 43-48]

Yuzaga kelgan talqinlar "lingvistik geografiya" ga , asosan, dialektologiya faktlariga tayanib, xaritalashtirish texnikasidan foydalanish vazifasini qoʻydi.

Turkiy tillar, xususan, oʻzbek tili areal tadqiqi bilan shugʻullangan tilshunos olim A.B.Joʻrayev tadqiqot ishida "areal lingvistika" termini ta'rifiga M.A.Borodina fikriga tayanadi. M.A.Borodinaning fikricha areal lingvistika –bu dialektologiya, lingvistik geografiya va areologiyaning izchil rivojlanishi. [Бородина М.А, 1980:7-9] Tarkib jihatdan M.A.Borodinaning yuqoridagi va ushbu ta'riflari ma'lum darajada oldingi tushunchalarning xususiyatlarini qamrab olganda, ulardan ustun sanaladi.

Tadqiqotchi olim A.B.Joʻrayev ham ushbu talqinlarni ma'qullab, shunday deydi:"Dialektologiya, lingvistik geografiya va areologiyaning elementlarini birlashtiradi. Ularning har biri tilning tarqalishini til belgilarining cheksiz va koʻp sonli xususiyatlarini oʻz obyektiga koʻra aniq va chegaralab koʻrsatadi. Ushbu fanlarning atamalari va tushunchalari bir – biri bilan oʻzaro ta'sirlanib ma'lum bir galaktikani tashkil qiladi" [Джураев А.Б,1991:9]

Umuman olganda, lingvistik geografiya xaritadan til xususiyatlari oʻrganiladigan zonalarni aniqlab, chegaralab, areal lingvistika toʻplagan ma'lumotlar asosida xaritalashtrish ishlari bilan shugʻullansa, areal lingvistika til hodisalarining tarqalish hududini geografik metodlar asosida oʻrganadi, ya'ni tilning u yoki bu xususiyatlari haqida bevosita yoki bilvosita material toʻplaydi, ularning irradiatsiya markazini aniqlaydi. Yuqoridagi ta'riflardan xulosa qilib, biz ham ushbu maqolamizda bevosita "areal lingvistika" terminini qoʻllaymiz.

"Areal lingvistika" atamasini fanga birinchi bo`lib 1943 – yil italiyalik lingvistlar M.J.Bartoli va J.Vidossilar kiritgan, ammo asosiy tamoyil sifatida 1925 – yil britaniyalik lingvist D.Barton tomonidan ishlab chiqilgan. [Лингвистический энциклопедический словарь,1990:35]. Areal lingvistika lingvistik hodisalarning muayyan kenglikda tarqalishini va tillararo (dialektlararo) munosabatni lingvistik geografiya metodlari asosida oʻrganadi. Bu yoʻnalishning asosiy vazifasi til xususiyatlarining hududiy boʻlinishini tavsiflash va izogolossalarni talqin qilishdan iboratdir. Natijadadialektlar, tillarva areal jamoalar (tilittifoqlari) oʻrtasida oʻzaro ta'sir maydonlari (areallari) aniqlanadi. [Nurmonov A, Yoʻldoshev B, 2014: 68].

Til areali bu bir necha (yoki koʻp) tillar va shevalar keng tarqalgan, ularning oʻxshashligi kuzatiladigan hudud sanaladi va til aloqalari aniq geografik yaqinligi bilan izohlanadi. Til areali tilda bir nechta belgilar mavjud boʻlsa-da ular umumiy ajdoddan tillarga meros boʻlib oʻtmagan, lekin aynan aloqalar natijasida paydo boʻlganligini koʻrsatadi

Tillararo aloqa ma'lum bir hududda yashovchi aholi bir vaqtning oʻzida ikki yoki undan koʻp tillarda soʻzlashadi (bu tillardan biri ularning ona tilidir, ikkinchisi yoki boshqa tillar ona tilida emas). Oʻzaro fikr almashish natijasida aloqador tillarning biri yoki ikkalasi ham oʻzgarishi mumkin - soʻzlar va morfemalar biridan ikkinchisiga oʻtadi, fonetik va grammatik tuzilmalar bir-biriga "moslashadi":

- buboshqatillardan "qarz"olishga;
- oʻzaroaloqadortillarningaralashibketishiga;
- "umumiy" yordamchitillarninghosilboʻlishiga;
- tilassimilyatsiyasigaolibkeladi

Kuzatishlarimizgakoʻra, lingvistikgeografiyava areal lingvistikaning paydo boʻlishi A.Piktening (1859) lingvistik uzviylik tushunchasi, xususan, til hodisalarining paydo boʻlish markazidan chetga tarqalishi haqidagi "toʻlqinlar nazariyasi" bilan bogʻliq. Uning bu goʻyalari keyinchalik shved va nemis olimlari, jumladan, G.Shuxard (1868) va I.Shmidtlar (1872) tomonidan ilgari surilgan. Xoʻsh, I.Shmidtva G.Shuxard gʻoyalari qanday edi? Ular nima sababdan A.Shleyxerning "shajara daraxti"ga oʻz gʻoyalarini qarshi qoʻyishdi?

XIX asrning oʻrtalarida Yevropa tilshunosligida naturalism oqimi paydo boʻldi. Ushbu oqimning mashhur vakili nemis olimi A.Shleyxer Hind-Yevropa tillarining bitta bobo tildan kelib chiqqanligi gʻoyasini ilgari surgan. U Hind-Yevropa tillarining taraqqiyotini "shajara daraxti" orqali tushuntiradi. Olimning fikricha, qachonlardir Hind-Yevropa bobotili mavjud boʻlgan va uning

tarqalib ketishidan hozirgi Hind-Yevropa tillari kelib chiqqan. [РасуловР,2010:93] Biroq A.Shleyxerning vafotidan (1863) koʻp oʻtmay, aniqrogʻi, 1872-yilda taniqli nemis tilshunosi I.Shmidt A.Shleyxerning “shajara daraxti”ga A.Piktening ”toʻlqinlar nazariyasi”ni qarama-qarshi qoʻyadi. Olim til rivojlanishini alohida tillar sifatida ifodalovchi “shajara daraxti”ga doimiy hududiy oʻzaro bogʻliqlik zanjiri sxemasini qarshi qoʻyib: “Agar Hind-Yevropa tillarining qarindoshlik munosabatlarini, ularning tafovutlari paydo boʻlganligini bitta rasmda tasavvur qilmoqchi boʻlsak, unda biz “shajara daraxti” gʻoyasidan butunlay voz kechishimiz kerak. Buning oʻrniga men markaziy doiralardan tarqaladigan, asta-sekin oʻrta nuqtadan uzoqlashayotgan va xuddi soʻnib borayotgan toʻlqinning rasmini taklif qilaman”, – deb yozadi. [История развития ареальной лингвистики. Лекции. Орг.]Aytish mumkinki, I.Shmidt va uning hamkasbi X.Shuxard gʻoyalari tilshunoslikdagi maydon nazariyasini

Til jamiyat bilan rivojlanib borar ekan, har qanday millat oʻz tilining boy tarixini, qadimgi koʻrinishini yoʻqotishni xohlamaydi, bunday boy,ma’naviy merosni avlodlarga qoldirmoqni istaydi.Muayyan yoki turli til xususiyatlarining hududiy taqsimlanishi oʻz ona tilida soʻzlashuvchilarning taqdirini, xalqning tarixini, oʻtmishdagi aholining madaniy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini aks ettiradi.Millat tilini saqlab qolishning yagona yoʻli ham areal lingvistikaga oid tadqiqotlar sanaladi. Areal lingvistikaning paydo boʻlish zaruratiga ham sabab boʻlgan omil bu milliy tilning uzoq oʻtmishdagi va hozirgi holatini saqlab qolish edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ареальная лингвистика//Большая советская энциклопедия. Т. 2. –3-е издание, М.: Советская энциклопедия, 1970. (С. 65 )
2. Бородина М.А. О типологии ареальных исследований. // Проблемы картографирования в языкознании и этнографии.- Л.: Наука, 1974. (С. 43-48)
3. Бородина М.А.Развитиеарельных исследований и основные типы ареалов.//Взаимодействия лингвистических ареалов:Теория,методика и источники исследования.- Л.,1980. – 7-9 - betlar
4. Десницкая А.В. К вопросу о предмете и методах ареальной лингвистики // Проблемы картографирования в языкознании и этнографии.- Л.: Наука, 1977. (22-28)
5. Джураев А.Б.Теоритические основы ареального исследования узбекоязычногомассива.Автореферат монографии на соискание ученой степени доктора филологических наукюМ.,- 1991.9-bet
6. История развития ареальной лингвистики. Лекции. Орг.
7. Лингвистический энциклопедический словарь. М: 1990
8. Nurmonov A, Yoʻldoshev B. Tilshunoslikvatabiiyfanlar. Toshkent -2014.68 - b
9. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Т.,2010.93 - bet


## LIRIK MATNNING TIL XUSUSIYATLARI (SAMANDAR VOHIDOV IJODI MISOLIDA)
## LINGUISTIC FEATURES OF THE LYRICAL TEXT (ON THE EXAMPLE OF SAMANDAR VAHIDOV'S POEMS)


**G.Zoyirova**
**BuxDU mustaqil izlanuvchisi**



**Abstract:** The article analyzes the poems of Samandar Vahidov, a talented poet and translator from Bukhara. The poet's ability to grasp the subtleties of the meaning of the word, to use repetitions appropriately, to create new concepts for the expression of special feelings that arise in the process of creation.



***Key words:*** *poetic image, life of words, artificial words, alliteration.*


She’riyat - inson va insoniyat tuygʻularini tarannum etuvchi sirli olam. Bu olamning “sayohatchilarni” oʻziga jalb etib turgan eng qimmatli, eng noyob, eng qadimiy durdonasi esa

so‘zdir. So‘zlar aro kezar ekansiz, qo‘l tekkiza olmasangiz-da, ularning rangini, hidini, mazasini tuyasiz, dard-u quvonchidan, butun jozibasidan voqif bo‘lasiz. So‘zlar… Ulardan o‘zingizda ham bor-u, biroq she’riyat olamida ular yoqutdek tovlanadi, zilol suvdek mavjlanadi, ko‘ngildagi kibr tog‘larini qulatib, ezgulik gullarini undiradi, ruhsiz tanlarga jon bag‘ishlaydi. So‘zlar lirik matnda bo‘y ko‘rsatar ekan, ana shunday ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Shoir Samandar Vohidov she’rlarida ham so‘zlar ana shunday jilolanadi. Bir qarashda oddiy bo‘lib ko‘ringan narsalar ruhiy, ijtimoiy-falsafiy mazmun ifodalaydi. So‘zlar va ular anglatgan ma’nodan, bajaradigan vazifasidan o‘z ruhiy evrilishlari sari go‘zal ko‘chimlar yarata oladi. Oddiy, kichik bo‘lib ko‘ringan detallar ham poetik obrazlar darajasiga ko‘tarilganligini ko‘rish mumkin. Shoir she’rlarida varrak obrazi ana shunday ramziy ma’no tashigan. U bu obrazga juda ko‘p murojaat qilgan. “Varrak uchirayotgan bolaga” [Vohidov, 2003: 77] nomli she’rida varrak omad ramzi bo‘lib kelgan. Varragini uchira olgan kishiga “Sen bugun g‘olibsan poygada” deya ta’kidlar ekan, osmondagi varrak orzularning ushalishi, omadning kulganligi ramzi ekanligi anglashiladi. Shoir hatto uni tutib turgan ipga ham poetik vazifa yuklaydi:

Ip emas qo‘lingda – irodang,
Ip emas – orzuing qudrati.

Yana bir she’rida bolakayning qo‘lidan qochgan varrak uchun kuyunayotanini, “Duch kelganga yalinib” uni tutib berishlarini tilanayotgan bola haqida gapira turib, insoniyat qo‘ldan boy bergan eng qimmatli narsa – tobora qochib borayotgan Orol dengizini esga oladi. Kichik maishiy muammo global muammo bilan bog‘lanib, mazmunda darajalanish hosil qila olgan.

Noshudlikda bizlar sendan noshudroq,
Bir dengizni boy berdik-ku angrayib.

Boshqa bir she’rida esa “Tumshug‘ida no‘xta – ipdan og‘rinar varrak, Erkin parvoz ilinjida shox tashlar har yon” deya erkinlik sari intilayotgan inson qiyofasini chizadi. . Muallif qayta-qayta varrak obraziga murojaat etsa-da, har safar undan yangi ma’nolar keltirib chiqaradi.

Shoir Samandar Vohidovning so‘zga bo‘lgan munosabati o‘ta jiddiy. U tilimizdagi so‘zlarning ijtimoiy ahamiyati, mazmundagi salmog‘ini – vaznini o‘lchashga urinadi. U “Mashhurlik”[Vohidov, 2014: 84] she’rida ayni so‘zning kecha va bugungi kundagi qadrini, darajasini ochib berishga harakat qiladi.

“Buncha g‘ariblashding, ey “MASHHUR” so‘zi,
Qo‘l yetmas HUR eding”,
Riyosiz orzu.

Bir paytlar mashhur bo‘lish uchun uzoq yillar mehnat talab etilishini, bugun esa, “Sahnaga chiqqanning o‘ndan to‘qqizi, Seni yopishtirar o‘ziga o‘zi” deya so‘zning mohiyatdan uzoqlasha borganligini o‘kinch bilan bitadi. Samandar Vohidning bu she’ri Maqsud Shayxzodaning “Salom degan so‘zning salmog‘in oqlang” satrlarini yodga soladi. Demak, shoir ta’kidlashicha, muloqotdagi har bir so‘z jamiyatda o‘zini oqlashi kerak, o‘z mazmun-mohiyatiga munosib harakat yo‘lini bosib o‘tishi kerak. Ammo tilda yana shunday so‘z va jumlalar borki, ularning vaqti – umri borligini Samandar Vohidov bir she’rida dard bilan tilga oladi.

“Onam omonmilar?
Otam bardammi?
Salomdan keyin-u alikdan avval,
Shu so‘zlar so‘rovga edi sarlavha ,
Uni tilimizdan yuldi shum ajal…” [Vohidov, 2003: 200]

She’rda “yulmoq” so‘zi o‘rnida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan “olmoq” so‘zi qo‘llanilganda ajalning kutilmaganda kelishi anglashilmagan bo‘lar edi. “Yulmoq” so‘zi “olmoq” so‘ziga qaraganda kuchli ma’no bildira olgan. “Yulmoq” so‘zi yomon, mash’um tasodif sodir bo‘lganligini bildirib turibdi.

Samandar Vohidov o‘z fikrlarini she’riy tizmga solish chog‘ida ba’zan yangi so‘zlar ham hosil qilganligini kuzatish mumkin. Bunday yasama so‘zlar odatiy yangi so‘zlardan farq qiladi. O‘qilgandayoq muallif tuyg‘ulari ifodasi uchun yaratilganligini bilish mumkin. “Ruhsizlarga **ruhbardor** edi”, “**So‘zbozlarning** mohirlaridan”, “O‘zbekiston nomli yurtni “**Ravnaqiston**” bildi

dunyo”, “**Sho‘rtoq** – **sho‘ristondan** farqi yo‘q” , “Ko‘piradi, **gulzorlanib** sohili” kabi misralarda shoir ko‘nglidan yaralgan so‘zlarni o‘qishimiz mumkin. Bu so‘zlarni she’rning umumiy mazmuniga mos tushganligi esa hech bir istisnosiz qabul qilishimizga sabab bo‘ladi.

Samandar Vohidov she’riyatida so‘zlar tuyg‘ular izmida bo‘lsa-da, shoir so‘zlarni qiynamaydi. Go‘yo ularga yangi libos kiydiradi. Shoirning “Istiqllol manzumasi”[Vohidov, 2014: 50] she’rida shunday satrlar bor:

“O‘tmishnoma”,
“Bugunnoma”ga
Payvast bo‘lsin “Istiqbolnoma”.
Xalqim aytgan shod shukronaga
Hamohang bu – “ISTIQLOLNOMA”.

Har bir ijodkor o‘z asarlarida o‘zi yashagan hudud tilini ham namoyon etadi. Yozilayotgan badiiy ijod namunasi uchun eng go‘zal, eng ravon va tushunarli bo‘lgan so‘zlar tanlanishi juda muhim. Biroq o‘zbek tili shevalarga boy til sanaladi. Shu nuqtai nazardan adabiy tilda ifoda etilayotgan har qanday badiiy asar bu sifatdan xoli bo‘la olmaydi. Ayni masala lirik asarlarda ham ko‘zga tashlanadi. Buxoro hududi so‘zlashuvchilarining tilida fors-tojik tiliga mansub so‘zlar ko‘plab

Gulxanning girdida qo‘r olar gurung,
Gulxan gurrosidan titrar tevarak.
“Tabiat shaydosi” sanab o‘zlarin,
Bir to‘da shirakayf qilar “gapbarak”.

Samandar Vohidning “Daraxt ostidagilar” [Vohdov, 2014: 11] nomli ushbu she’ridagi “gulxan”, “gird”, “gurung”, “shirakayf” so‘zlari o‘zbek adabiy tiliga qabul qilingan bo‘lsa-da, asl forscha so‘zlardir. Buxoro hududida esa, ayniqsa, uning markazida so‘zlashuvda fors-tojik tili yetakchilik qiladi. “Gapbarak” so‘zi esa aynan shu hudud shevasiga mansub bo‘lib, behuda gaplashish, muhim bo‘lmagan narsalar haqida shunchaki suhbatlashish ma’nosini beradi. Shoir shirakayf kishilardan tayinli gap chiqmasli mantig‘idan kelib chiqqan holda aynan shu so‘zni qo‘llagan. Banddagi “g” tovushining alohida jaranggi va uning boshqa so‘zlar bilan uyg‘unlashuvi she’rning o‘ziga xos ohangini paydo qilgan. “Bir to‘da” jumlasining qo‘llanilishi esa jam bo‘lib turgan kishilarga nisbatan salbiy ma’no ifodalamoqda.

Samandar Vohidov lirikasida zo‘rma-zo‘rakilik kuzatilmaydi. U fikrlari va hislarini so‘zlarga moslashga urinib o‘tirmaydi, aksincha, so‘zlar tuyg‘ular uchun xizmat qiladi. Shoir tuyg‘ulari ifodasi uchun o‘zni bir qadar erkin tutadi. Quyida “Qaldirg‘ochim, qora qoshim…” [Vohidov, 2014: 20] she’ridan olingan satrlar fikrimizning isboti bo‘la oladi.

Har qayg‘uning qaptalida quvonch qayd,
Omon borib, omon yashab, omon qayt…

So‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan “qaptalida” so‘zi “qayg‘u”, “quvonch”, “qayd” va “qayt” so‘zlaridagi “q” tovushi bilan fonetik hamohanglik hosil qila olganligi, shu bilan birga qayg‘u va quvonch tushunchalarining yonma-yon qo‘llanilayotganligi bu so‘zning ham tushunarli bo‘lishini ta’minlagan. “Omon” so‘zining takrori esa niyatning ezgulik darajasini bir qadar yuqoriga olib chiqa olgan.

Lirik matnlarda so‘zlar o‘z mazmun doirasini lirik qahramonning ruhiy holatiga hamohang ravishda kengaytira oladi. Qip-qizil ochilib turgan gul ham kayfiyatga mos – yaxshi yoki yomon ruhiy holatni ifodalay olishini she’riy matnlarda yaqqol kuzatish mumkin. Lirik matnda insonning ruhiy olami, hissiyotlaridagi o‘zgachaliklar ifodalanar ekan, bu o‘zgachaliklar so‘zlarda ham aks etadi. Ya’ni yangi hissiyotlar, yangi so‘zlarning yasalishiga ham sabab bo‘ladi. She’riyat tuyg‘ular tarjimonidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:


1. Vohidov S. Aylanadir bu dunyo. Saylanma. I jild. - Buxoro, 2003.
2. Vohidov S. Orzuning osmoni keng.Saylanma. III jild. - Buxoro, 2006.
3. Vohidov S. Dunyo kami bitmagay. Saylanma. IV jild. - Buxoro, 2014.
4. Vohidov S. Halovatni halollikdan izladim.- Buxoro, 2005.

5. Vohidov S. Sunbula. So‘zboshi. Dilmurod Jabbor. - Buxoro, 2002.

## O‘ZBEK TILIDA BARCHA USLUBLARDA AXBOROT MAVJUDMI?

**J. Ulug‘murodov**
***O‘zbekiston Milliy universiteti***

O‘zbek tilining ichki tuzilishinigina o‘rganish bizga bu til haqida to‘la axborotni bera olmaydi,chunki til birliklaridan qachon,qayerda,qanday vaziyatda foydalana bilish ham katta ahamiyatga ega.Biz kim bilandir muloqotga kirishayotganimizda nutqning barcha ko‘rinishlaridan foydalana olmaymiz.Shu sababdan suhbatdoshimizning ijtimoiy holati,yoshi va jinsiga qarab muomalaga kirishamiz.

Barchamizga ma'lumki nutqimizni boshqa bir insonga yetkazishda biz turli gapirish yo‘llaridan foydalanamiz.Bu turli gapirish yo‘llari esa nutq uslublari(stillari)deyilishidan xabaringiz bor.Mana shu nutq uslublarini o‘rganuvchi maxsus fan Stilistika (Uslubiyat)deyiladi.Uslubiyat esa o‘z navbatida nutq uslublarining har biriga xos bo‘lgan xususiyatlarni tadqiq etadi.Nutq uslublaritilning vazifasi-funksiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.Shuning uchun ham ular funksiyaviystillardeb yuritiladi.

Funksiyaviy stillar nutq ko‘rinishlarining asosiy kommunikativ-ekspressivlik (aloqa-aralashuv,ta'sir etish) vazifalariga muvofiq qismlarga bo‘linishidir.Shunga ko‘ra adabiy tilning quyidagi funksionalstillari ajratiladi: 1)so‘zlashuv stili; 2)rasmiystil; 3)ilmiy stil; 4)publitsistikstil; 5)badiiy stil. Bu stillarning har biri ma’lum o‘rinlarda ishlatilishi bilan far qiladi.

Inson shaxs sifatida har qanday shaxs bilanmuloqotga kirishguncha axborot almashinadi.Bu o‘rinda esa savol tug‘lishitabiiy.Qanday qilib so‘zlashuv stilida axborot almashinish mumkin? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin bo‘ladi:Siz ko‘chada ketayotib do‘stingizni uchratib qoldingiz va u bilan salomlashib,hol-ahvol so‘raysiz.Do‘stingiz ham siz bilan xuddi shunday muomalada bo‘ladi,bir-biringizga yaxshi,rahmat,Allohga shukr kabi javoblar berasiz.Ko‘ribturganingizdek,oddiy so‘zlashuv jarayonida ham bir-biringizning ahvolingiz haqida axborot almashyapsiz.Shuningdek,ilmiy stilda yoki rasmiy stilda qanday qilib axborot tushunchasiga duch kelish mumkin ekanligi haqida ham to‘xtab o‘tish joiz bo‘ladi.

Bilamizki,ilmiy stil bu ilm-fan doirasida terminlar (atamalar) bilan ish ko‘radi.Ya'nima’lum birteoremalar,gipotezalar,qonunlar,ayniyatlarva formulalarga asoslanadi.Bularga axborotning nima aloqasi bor degan savolga javob topishga harakat qilamiz.Olaylik,umumiy o‘rta ta'lim maktablarida,kasb-hunar kollejlarida,akademik litseylarda va oliy ta'lim muassasalarida (OTM) dars o‘quv jarayonida o‘quvchi va talabalarning bilim darajasini oshirish va sinash maqsadida ta'riflar, qoidalar va misollar beriladi.Tabiiyki,baholash mezonlariga muvofiq bu qoida va ta'riflar o‘quvchi-talabalardan so‘raladi va misollar asosida tushunganliklarini tushuntirib berilishlari lozim bo‘ladi.Ushbu jarayonda o‘quvchi o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda javob berishga harakat qiladi.Bu esa ko‘rib turganingizdek,o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi axborot almashinuv jarayoni hisoblanadi.

Rasmiy stil bevositaqonun,farmon,farmoyish,buyruq,deklaratsiyalar, ish qog‘ozlari va hujjatlar bilanish ko‘radi deydiganbo‘lsak,bu uslubning ham o‘z me'yor-mezonlaribor. Xususan, buyuraman, ijroetilsin, tavsiyaetildi, ogohlantirilsin, topshirilsin kabi so‘z va birikmalardan foydalanish mumkin. Tasavvurqiling,siz biror tashkilotga ishga kirish uchun suhbatga chaqirildingiz yoki hujjat taxlayapsiz. Bunda ham siz,engavvalo,o‘zingiz haqingizda ma'lumot,ya’ni axborotberasiz, keyin ma'lumotingiz,mutaxassisligingiz,qayerdao‘qiganligingiz,qachon o‘qishni tamomlaganligingiz va hokazolar.Bularning barchasi rasmiy ravishda suhbat asosida bo‘lsa og‘zakihujjatlar asosida bo‘lsa yozma tarzda axborot berasiz.Bu ham o‘zbek tilining axborot uzatish turlaridan biri sifatida aytsak bo‘ladi.Lekin fan nuqtayi nazaridan oladigan bo‘lsak,axborot uzatish stili sifatida faqatgina publitsistik stilni ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek tilining funksional stillaridan yana biri bu badiiy stil sanaladi.Har qanday badiiy asarni oladigan bo‘lsak,undama’lum bir obrazlar talqinida biror-bir voqea-hodisa aks

etadi.Buvoqeaning berilishi ham aslida axborot bo‘la oladi.U asar xoh tarixiy mavzuda, xoh zamonaviy mavzuda bo‘lsin voqeani bayon etib,axborot berish orqalikishilar onggiga ta'sir etishga qaratilgan bo‘ladi.Masalan,Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidaYo‘lchi obrazi orqali jamiyatning o‘sha davrdagi ko‘nglida kiri yo‘q,vatanparvar,mard,jasur va oliyjanobinsonlari haqida xabar berilganligini ko‘rish,o‘qishmumkin.Yoki bir boshqa kichik hikoyani olasizmi,yoki qissani olasizmi barchasida ma’lum bir davr kishilari hayot tarzi,ichki kechinmalari-yu xayolot olami haqida axborotga ega bo‘lamiz.

Shunday ekan biz hech qaysi bir stilni axborot uzatishdan yiroq deyolmaymiz. Modomiki,yuqorida barcha stillarda axborot qay tarzda kelishi mumkinligini ko‘rib o‘tdik.

Gap bevosita axborot haqida ketayotgan ekan,endi aynanommaviy axborot vositalari stili bo‘lgan publitsistik stil haqida gaplashamiz.Avvalo, publitsistik stilni ikki guruhga ajratib olish maqsadga muvofiq: 1)og‘zaki nutqqa asoslangan radio-televideniye uslubi; 2)yozma nutqqa asoslangan gazeta-jurnal uslubi.Bu ikki guruh ham axborot uzatishga asoslanadi,lekin ta'sir qilish va bajaradigan funksiyasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Og‘zaki nutqqa asoslangan radio-televideniye uslubi (stili) insonga yozma nutqqa nisbatan chuqurroq ta’sir etishi bilan ajralib turadi.Radioda uzatilgan axborot inson eshitish a'zosi (burun) orqali radio jurnalist nutqi yordamida (agar radio boshlovchining notiqlik mahoratiga ham bog‘liq)qabul qilinadi.Bunda axborot bir tomondan,ya’nifaqat eshitish orqali mulohaza qilib ko‘rilsa, televideniye (televizor) orqali axborot uzatilganda esa biz bevosita ikkita signal sistemasi ham ko‘rish,ham eshitish orqali axborotni analiz-sintez qilishimiz mumkin.Bundauzatilgan axborot insonga radioda uzatilgan axborotga nisbatan yaxshiroq tasavvur va idrok qilishga imkon bera oladi.

Yozma nutqda axborot gazeta-jurnallar orqali matn ko‘rinishida beriladi.Siz ma’lum bir axborotni gazeta yoki jurnalda bermoqchi bo‘lsangiz,birinchi navbatda gazetaning qaysi ijtimoiy qatlam vakillari uchun mo‘ljallanganligi hamda uzatayotgan axborotingizning mavzusiga e'tibor berishingiz zarur bo‘ladi.Siz bermoqchi bo‘lgan axborot ilmiy mavzu yuzasidan bo‘ladigan bo‘lsa,siz uni ko‘ngilochar,ommabop gazetalar orqali bermaganingiz ma’qul bo‘ladi.Chunki oddiy xalq ommasi uchun siz bermoqchi bo‘lgan axborot unchalik qiziqarli bo‘lmaydi va bee'tibor qolib ketish ehtimoli yuqori bo‘ladi.Shunday qilib gazeta-jurnallardagi axborotlar insonga matnni bevosita o‘qib,obdon tahlil qilish imkonini berish bilan birga uning esda qolish ehtimoli ham keng o‘quvchi ommasiga radio-televideniyeda beriladigan axborotga nisbatan ko‘proqmuddatni tashkil etadi.Aynan gazeta yoki jurnalda berilgan maqola bo‘ladimi,esse yoki felyeton bo‘ladimi,ilmiy yangilik yoki sport sohasidagi xabarlar bo‘ladimi barchasini qayta-qayta o‘qib, kuzatib,tushunib,eslabqolish mumkin bo‘ladi.

Yozma publitsistik axborotlarning eng asosiy xususiyati bu notiqlikka asoslanganligidadir.Sababiushbu stil bevosita ommaga qaratilgan.Publitsistik uslubda yozma va og‘zaki publitsistika bir-biridan farq qiladi deyilsa-da, ular publitsistikaning umumiy talablariga va adabiy til me'yorlariga (normalariga) bo‘ysunadi.Publitsist,yoinki jurnalist katta hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza,dalil,asoslarbilan tushuntirishi,isbotlashi bilan birga,o‘quvchi yoki tinglovchini bunga ishontira olishi,uning iroda va his-tuyg‘ulariga ta’sir eta olishi lozim.Shuning uchun publitsistik stil o‘zida yozma nutq stillariga xos xususiyatlarni ham (masalan,maxsus ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy va boshqa sohaga oid terminologiyaning ishlatilishi),badiiy adabiyot stiliga xos xususiyatlarni ham (masalan,obrazli ifodalarni ishlatish,emtsional bo‘yoqqa ega bo‘lishi) birlashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,har qanday stilda ham ma’lum axborot mavjud bo‘ladi va u har bir stilning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib aks ettiriladi.Tilimizdagi axborotni kishilik jamiyatining amalda eng ko‘p qo‘llaniladigan asosiy muloqot manbai ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, H.Rustamov “O‘zbek tili stilistikasi” Toshkent “O‘qituvchi” 1983.

2.H.Ne'matov “Uslubiyat” Toshkent “O‘qituvchi” 2002.

3.A.G‘ulomov, M.Asqarova“Hozirgi o‘zbek adabiy tili (“Sintaksis”)” Toshkent “O‘qituvchi” 1987.
4.Z.T.Toxirov “Adabiy tahrir” o‘quv-qo‘llanma Toshkent. “Tafakkur-Bo‘stoni” 2012.
5.Internet saytlari: ziyonet.uz.

## O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA *INSON* KONSEPTI
## THE CONCEPT OF HUMAN IN THE WORKS OF UTKIR HASHIMOV

**Z.Dadaxodjayeva**
***O‘zMU magistranti***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada konsept terminining mohiyati bo‘yicha tilshunoslikdagi mavjud qarashlar tahlil etilib, inson konseptining O‘tkir Hoshimov ijodidagi “Ikki eshik orasi” romanida ifodalanishining o‘ziga xos jihatalari tavsif qilinadi.

**Abstract:** This article analyzes the existing views in linguistics on the essence of the term concept and describes the peculiarities of the expression of the human concept in the novel "Between Two Doors" by Utkir Hoshimov.

***Kalit so‘zlar:****konsept, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, mental birlik, kommunikativ jarayon, kategoriya, madaniy qatlam, ruhiy, etnomadaniy.*

***Keywords:*** *concept, linguoculturology, cognitive linguistics, mental unity, communicative process, category, cultural layer, spiritual, ethnocultural.*

Hozirgi vaqtda biz til tadqiqotlarida “konsept”atamasini tavsiflash uchun bir nechta yondashuvlar haqida fikr bildirishimiz mumkin.

Keyingi yillarda konsept faqatgina tilshunoslik elementi bo‘libgina qolmasdan, balki, mantiq, falsafa va hatto adabiyotshunoslikda ham asosiy termin sifatida qo‘llanilib kelmoqda hamda mazkur terminning milliy-madaniy xususiyatlari inobatga olingan holda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va psixolingvistikadagi ta’riflari o‘zaro farqlanmoqda.Aytib o‘tish joizki,tilshunoslik sohasida "konsept" atamasini talqin qilishda yagona yondashuv mavjud emasligi, konseptning ko‘p qatlamli tuzilishga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Konsept kognitiv lingvistikadamarkaziy tushunchalardan biri hisoblansa, lingvokulturologiyada u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalovchi eng faol qo‘llanuvchi lingvomadaniy birlik sanaladi. Kognitiv adabiyotlarda konseptga falsafiy, psixologik, leksik kategoriya sifatida qaraladi.

Kognitiv lingvistika, xususan, kognitiv semantika nuqtai nazaridan olimlar konseptga turlicha ta’rif berishadi. N.Tixonovaning fikricha: “Konsept grammatik kategoriya bo‘lib, u o‘zining formal ko‘rsatkichlariga va shu kategoriya ichidagi differentsial belgilariga egadir”[1]. M.V.Nikitinning ta’kidlashicha esa: “Konsept sxolastik strukturaga ega bo‘lgan diskret ko‘pfaktorli mental birlikdir”[2].

Ye.S.Kubryakova konseptga ong va ruhiy imkoniyatlarimiz hamda inson bilimi, tajribasini aks ettiruvchi tafakkur birligi sifatida baho bergan[3].Z.D.Popova, I.A.Sterninlarning talqinicha, konsept keng qamrovli mental birlik, u tuzilma ko’rinishidagi bilimning alohida bo’lagi, kvantidir[4].

Rus tilshunosligida *konsept* tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S.A.Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan, XX asr o‘rtalariga kelib esa “konsept” tilshunoslikd aatama sifatida qo‘llanila boshlagan. S.A.Askoldov kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan konseptga quyidagicha tavsif beradi: “Konsept tafakkur hodisasi, u fikrlash jarayonida ayni bir turdagi ko‘plab predmetlar, hatti-harakatlar, tafakkur funksiyalarini ifodalaydi”[1]. Lingvokulturologik jihatdan esa, olim konseptni shunday talqin etadi: “Konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko‘ra, konseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi.Lisoniy makonda mavjud bo‘lgan bunday tizim dunyo milliy manzarasining o‘ziga xosligini belgilaydi”[1].

Kognitiv tilshunoslik sohasi vakillaridan biri Sh.Safarovning fikricha, “Konseptning tarkibida ongning timsol, tushuncha, hissiyotga oid tuzilmalari birlashadi, bu tuzilmalar inson dunyoqarashini aks ettiradigan voqelik tasviri – tasavvurining asosini tashkil qiladi[2]. Moddiy dunyo idroki , ayni paytda, idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tug‘ilishini, keyinchalik, ushbu tushunchaning mental namuna - **konsept** sifatida shakllanib, moddiy ko‘rinish olishini taqazo etadi. Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch bo‘lib xizmat qiladi”[3].

Lingvokulturologiyada konseptning o‘rganilishi borasida esa Yu. S. Stepanov o‘zining tadqiqotlarida *konsept* so‘zining etimologiyasiga murojaat qiladi. *Konsept* lotin tilidagi conceptus – “tushuncha” so‘zining kalkasidir.Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba’zan unga ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi[4].

N.D.Arutyunova kontseptning milliy-madaniy jihatini inobatga olgan holda,uni inson va borliq o’rtasidagi bog’lab turuvchi madaniy qatlam deb tushunadi[5].

D.Xudoyberganova ham kontseptning milliy-madaniy xususiyatini e’tirof etadi. U kontseptga uch nuqtai nazardan ta’rif bergan: 1. Kognitiv tilshunoslikda: inson ongining mental va ruhiy imkoniyatlari, uning bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimi birligi. 2. Lingvokulьturologiyada: mentallik xususiyatiga hamda lisoniy ifodaga ega bo’lgan, etnomadaniy o’ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligi. 3. Psixolingvistikada: insonning bilish va muloqot faoliyatida yuzaga keladigan, uning ruhiyati qonuniyatlariga bo’ysunuvchi harakatchan pertseptiv-kognitiv-affektiv tuzilma[1].

N.Hoshimova D.Xudoyberganovaning fikrini ma’qullagan holda o’zining dissertatsion ishida: «Har qanday konsept o’z konseptosferasiga ega bo’ladi, bu esa o’z navbatida alohida shaxs yoki xalqning umumiy kontseptosferasining tashkiliy elementlarini hosil qiladi»[2],-deb hisoblaydi.

U.S.Yigitaliyev fikricha, “Konsept qotib qolgan mental birlik emas, inson konseptni tafakkurida mujassam bo’lgan bilimlari bilan qiyoslab boradi va ularni muayyan kategoriyalarga birlashtiradi. Zero, olamni kategoriyalashtirish orqali inson lisoniy kategoriyalarni yaratadi. Bu uning shaxsiy kontseptual bilimining boyishi bilan baholanadi. Shunday ekan konsept doimo rivojlanishda bo’ladi.

Ma’lum bo’ladiki, kontsept nafaqat ruhiy-mental hodisa, balki etnomadaniy xususiyatlarni namoyon etuvchi birlik hamdir”[3].

“Konseptlarni tahlil qilish jarayonida har qanday tilda madaniy o‘ziga xos konseptlarning ko‘pligi aniqlangan. Lingvokulturologiyada madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi. Madaniyatning asosiy konseptlari jamoaviy til ongida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatning asosiy konseptlari deganda mavhum otlar, xususan, vijdon, taqdir, qismat, iroda, gunoh, qonun, erkinlik, ziyolilar, vatan va h.k. tushuniladi. Madaniyat konseptlarini A. Ya. Gurevich ikki guruhga*: “fazoviy”, falsafiy kategoriyalar*, ya’ni madaniyatning universal kategoriyalari (vaqt, makon, sabab, o‘zgarish, harakat) hamda *ijtimoiy kategoriyalar*, ya’ni madaniyat kategoriyalari (erkinlik, huquq, haqiqat, mehnat, boylik, mulk)ga ajratadi”[4]. V. A. Maslova bunga yana bir guruhni – milliy madaniyat kategoriyasini ham ilova qiladi[5].

Tilda mavjud bo‘lgan konseptlar majmuasi olamning lisoniy tasvirini belgilab beradi. Borliq haqidagi tasavvur aniq konseptlarga asoslanadi. Ayrim tilshunoslarning fikricha, borliqni inson til orqali tasavvur qiladi va konsept borliqning obyekti hisoblanib, inson ongida olam haqidagi tasavvurni aks ettiruvchi haqiqatdir.

“Tushuncha”, “so‘zning leksik ma’nosi” va “konsept” so‘zlari ma’no jihatdan bir-biriga juda yaqin. Biroq, bu so‘zlar turli ma’nolarni anglatadi. V.Z.Demyankovning ta’kidlashicha, tushuncha tafakkurning mantiqiy shakllaridan biri hisoblanib, insonlar uning yordamida voqelikni anglaydilar[2].

Konsept termini so‘z ma’nosining mohiyatidan kengroqdir, chunki konseptlar millat tarixining rivojlanishi mobaynida ham o‘z strukturasi va shu strukturani tashkil qiluvchi belgilarni

yo‘qotmaydi. Konsept strukturasi qo‘shimcha konsept belgilari paydo bo‘lgani sari kengayaveradi[3.] Demak, konsept mental birlik sifatida so‘zning leksik ma’nosiga nisbatan boyroqdir.

So‘zning leksik ma’nosi va konsept tafakkur va kognitiv xususiyat bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, ongda borliqning aks etishi natijasidir. Biroq konsept kognitiv ong mahsuli bo‘lsa, so‘zning leksik ma’nosi lisoniy ong mahsulidir.

Inson tushunchasi, hech shubhasiz, har qanday madaniyatning asosiy va bosh yadrosi, har bir badiiy matnning markazidir.

O‘tkir Hoshimov asarlari chin insoniylik tarannumiga bag‘ishlangan ijod namunalaridir. Uning roman, qissa va hikoyalarida so‘z san'atining azaliy muammosi-inson taqdiri va qalbining badiiy tahlili yoritib berilgan. Adib ijod olamiga inson ma’naviyati, ruhiyati, hissiyoti, taqdiri, qalb kechinmalari tadqiqotchisi sifatida qadam bosadi.

Muallif “Ikki eshik orasi” deganda inson umrini, ya’ni tug‘ilgandan to vafot etgungacha bosib o‘tgan yo‘lni nazarda tutadi. Albatta, bu yo‘l yetarlicha chigal, murakkab va ziddiyatli bo‘lib, uni muvaffaqiyatli bosib o‘tish uchun insonga katta matonat, jasorat va iroda zarur bo‘ladi. Asardagi ko‘pchilik qahramonlar, xususan, Oqsoqol, Qora amma, Robiya, Shomurod, Kimsan kabi jasoratli kishilar yozuvchining g‘oyaviy maqsadini yoritib berishga xizmat qilishgan.

“Ikki eshik orasi”da insonning **tashqi ko‘rinishini tavsif qilish, muallif xarakteristikasi, badiiy psixologizm, personaj nutqi** kabi badiiy unsurlar orqali inson konseptining voqelanganligini ko‘rish mumkin.

Asardagi insonlarning tashqi ko‘rinishini tavsif qilish-muallif xarakteristikasida obraz-insonnning fe'l-atvoriga xos asosiy xususiyatlar bayon qilingan:

*Ammam xuddi koptokka o‘xshaydi. Kichkina, dum-dumaloq. Tag‘in yozdayam qora nimcha kiyib yuradi.*

*Abzi - cho‘loq. Yigirma yil oldin bo‘lgan urushda bir oyog‘idan ayrilgan. Yog‘och oyoq taqib yuradi.*

*Zuhra kelin - Zokir akaning xotini. Xolposh xola ikkala kelinini birdek ko‘radi. To‘yga borsa bir yoniga Fotima kelinini, bir yoniga Zuhra kelinini olib cho‘g‘day yasantirib oboradi. Birga oborishga oboradi-yu, ko‘proq Zuhra kelinini maqtaydi.*

*Abzi o‘zi yaxshi kishi-ku, ko‘p ichadi. Kuzda odamlardan uzum olib, musallas soladi. Ammo eldan ajramaydi. Qishloqda to‘y bo‘ladimi - ma’rakami, Abzi hammadan oldin yetib keladi, samovar qo‘yadi.*

Personajning so`z bilan chizilgan tashqi qiyofasi — portret ham inson obrazini yaratishda muhim vosita vazifasini bajargan. Portret, avvalo, personajning o`quvchi ko`z oldida konkret inson sifatida gavdalanishiga ko`maklashgan:

*Oyim keksayib qolganini, sochlari oqarib ketganini, qovoqlari salqib, yuzi yillab to‘shakka yopishib yotgan odamdek sarg‘imtil-zahil tusga kirganini endi payqadim.*

*O‘z onamni elas-elas xotirlayman. Pastak shiftli uyda, deraza tagida nuqul osmonga qarab yotar edi. Rangi sarg‘ayib, ikki chakagi ich-ichidan kirib ketgan. Ko‘zlari qop-qora, chiroyli. Uzun-uzun kipriklari qilt etmaydi.*

*Cholning soqol-mo‘ylovi, ko‘zi ustiga qayrilib tushgan qoshi, hatto quloqlarining ichidan chiqib turgan tuklar ham ko‘kimtir oppoq edi.*

*Tavba! Bunaqa chiroyli qizni umrim bino bo‘lib ko‘rmaganman! Qalamda tortilgandek qoshlari, yonib turgan qop-qora xumor ko‘zlar, sutday oppoq yuz, ingichka iyagidagi mitti xoli, angishvonadek og‘zi - hammasi ataylab chizib qo‘yilgan suratga o‘xshaydi.*

Asarda personaj-inson ruhiyati, uning xatti-harakatlari, gap-so`zlari psixologik jihatdan asoslab berilgan. Insonning o`y-kechinmalari, his-tuyg`ularining "ichki monolog" tarzida yoki muallif tilidan bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli bo‘lib xizmat qilgan:

*Nimaga endi bunaqa deyapti?! Nimaga meni «qizim» deb chaqiradigan Shomurod tog‘amga ravo ko‘ryapti? To‘g‘ri, urush bitganiga besh yildan oshdi. Ammo besh yil nima bo‘pti? Kerak boisa o‘n yil, yigirma yil kutaman! Umrim boricha kutaman! Mabodo Kimsan akam yo‘q bo‘lganida ham («o‘lgan» deyishga tilim bormaydi) men borman-ku. Bundan chiqdi, Kimsan akam*

*ham bor-da! Nahotki oyim umidini uzgan bo‘lsa! Nahotki o‘z o‘g‘liga atagan qizni o‘zgaga ravo ko‘rsa?!*

Asarda inson ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-so`zlari, yuz-ko`z ifodalari(mimikasi), undagi fiziologik o`zgarishlarni ko`rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvir sifatida namoyon bo‘lgan:

*- Nochorman! - dedi o‘krab. - Sho‘rim qursin! Qaddini rostlab, qiyiqchani bag‘riga bosgancha yana muk tushdi. - Kechiring meni! - dedi qiyiqchani yuziga bosib- Rozi boMing! Sumía aralash ko‘z yoshidan qiyiqcha bir zumda qop- qora bo‘lib ketdi. U qiyiqchani labiga bosgancha bo‘g‘iq ovozda ayanchli chinqirdi. - Boshimni qayoqqa olib ketay! - Ikki qo‘lini qiyiqcha aralash baland ko‘tarib sochini changalla- di. - Urush qilmay, uying kuygurlar! Bolang o‘lgur- lar! - U ilon chaqqan odamdek butun gavdasi bilan betoqat to‘lg‘onar, sochi to‘zg‘ib, ko‘zlari olayib ketgan edi.*

Asarda personaj-inson nutqini individuallashtirish natijasida uning shaxsiyati, dunyoqarashi, muayyan hayotiy holatdagi ruhiyatini ochib berish orqali inson konseptining voqelanishi ham o‘ziga xos tarzda ifodalangan:

*Bolaginam dono-da! Dadasi bilan mendan tashqari Oqsoqolga, Xolposh xolasiga, Potma-Zo‘ra kelinoyilariga nomma-nom duoyi salom aytibdi. Shokir akam, Zokir akamdan xabar bormi, deb so‘rabdi. Hujumga o‘tishgani, nemisga sichqonning ini ming tanga bo‘lib qolganini, o‘zi xizmat qilayotgan joyga Jukov degan katta komandir kelganini yozibdi. Shundoq katta odam Kimsanimning qo‘lini qisib «malades» deganmish...*

Anglashiladiki, “Ikki eshik orasi”da “inson” konseptining voqelanishida asarda aks etgan inson bilan bog‘liq tavsilotlar muhim o‘rin tutadi. Ular orqali til egalari ongida inson qiyofasini tiklanadi.“Inson” konsepti lingvokulturologik birlik sifatida o‘zbek millatining tarixi va madaniyatidan xabar beruvchi o‘ziga xos vosita bo‘lib xizmat qilgan, unda o‘zi ifodalayotgan tushuncha millat va elat a’zolarining o‘ziga xos xususiyatlaridan va lisoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib tasvirlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Tixonova N.N. Konsept v sisteme sovremennix lingvisticheskix predstavleniy // Semantika yazikovix yedinits: Dokl. Mejdunarod.nauch.konf.T.1. –M., 1998. –S.69.
2. Nikitin M.V. Razvyornutie tezisi o konseptax // Voprosi kognitivnoy lingvistiki. – Tambov, 2004. –S.53.
3. Кубрякова Е.С. Язык и знание (на пути знаний о языке:части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира).– М.: Языки славяниской культуры, 2004.– С.14
4. Попова З.Д., Стернин И.А Понятие “концепт” в лингвистических исследованиях. – Воронеж. 2000.– С.4.
5. Аскольдов, С. А. Концепт и слово [Текст] / С. А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словес-ности к структуре текста. Антология. – М. : Academia, 1997. – С. 267–280.
6. Сафаров Ш.Семантика.– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б.275.
7. SafarovSh. Kognitivtilshunoslik. - Jizzax: Sangzor, 2006. -B.25
8. Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры [Текст] / Ю. С. Степанов. – М. : Академический проект, 2004.
9. Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка: Ментальные действия. – М.:Наука, 1993.– С.3.
10. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкннт: “Turon zamin ziyo”, 2015. – Б.25.
11. Ҳошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўй. фалс. докт. ... (PhD) дисс. – Фарғона, 2018. – Б. 93.
12. U.S.Yigitaliyev “O‘zbek tilida odam va jins konseptlari bilan bog‘liq assotsiativ-verbal birliklar” dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent-2020
13. Usmanova Sh “Lingvokulturologiya” fanidan ma’ruzalar kursi Toshkent “Universitet” 2014

14. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.51.
15. Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С.603.
16. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и научном языке // Вопросы филологии. – Москва, 2001. – № 1(7). – Б. 45.
17. Комаров Е.В. Метафорическое взаимодействие концептуальных полей “человек” и “природа” в современном английском языке: Дис. ...канд.фил.наук. – Спб.:1998. – С.14.
18. O‘tkir Hoshimov. «Ikki eshik orasi». «SHARQ»2018-yil.

## SOTSIOLINGVISTIK TAHLIL MASALALARI HAMDA UNING PRAGMALINGVISTIKA BILAN MUNOSABATI
## PROBLEMS OF SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS AND ITS RELATIONSHIP WITH PRAGMALINGUISTICS

**L.Usmonova,**
***O‘zMU magistranti***

**Annotatsiya:** Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasini o‘rganar ekan, ijtimoiy muhitni, ya’ni oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni ham nazaridan chetda qoldirmaydi. Ushbu maqolada sotsiolingvistik tahlil masalalari yorilitgan. Shuningdek, sotsiolingvistikaning pragmalingvistika bilan bog‘liqligi jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** *til va jamiyat, sotsial vazifa, nutqiy akt, nutqiy munosabat, freym.*

**Abstract:** The science of sociolinguistics, when studying the relationship of language to society, society to language, does not exclude the social environment, that is, the family, society, time and history, and nature. This article covers issues of sociolinguistic analysis. It also provides information on the specifics of the process by which sociolinguistics is related to pragmalinguistics.

**Key words:** *language and society, social function, speech act, speech attitude, frame.*

Jamiyatga til qanchalik zarur bo‘lsa, til uchun jamiyatning bo‘lishi shunchalik ahamiyatlidir. Tilning mavqeyi, rivojlanishi uning muomalada bo‘lishi, aloqa vositasi sifatida xizmat qilishiga bog‘liq. Bu borada sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatlarini tadqiq etuvchi soha sifatida muhim ahamiyatga ega.

Sotsiolingvistika atamasi hozirgi zamon tilshunosligida quyidagi ikki ma’noda qo‘llanadi: a) til va jamiyat o‘rtasidagi munosabat, tilning rivojlanishida jamiyatning ahamiyati muammolarini o‘rganish; b) millat yoki xalqning ijtimoiy tabaqalanishi bilan bog‘liq holda tilda vujudga keladigan farqlar muammosini o‘rganish.

Tilshunoslik tarixida bu masalalar ma’lum darajada tadqiq etilgan. Ammo XX asrning 60 – 70- yillariga kelib tilshunoslikda ana shu muammolarni o‘rganishga e’tibor yanada kuchaydi. Sotsiolingvistikaga oid bunday muammolarni o‘rganishda tilshunoslik faqat jamiyatshunoslik faniga emas, balki falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya singari yana bir qator fanlar yutuqlarini ham inobatga olish lozimligi ma'lum bo‘lib qoldi.

Ma’lumki, kishilar jamiyatda yashash jarayonida undan ma’lum bir andazalarni oladilar, o‘sha ijtimoiy muhitga mos tarzda harakatlanib, hayotda ba’zi sotsial vazifani bajaradilar. Har qanday shaxs o‘zining bajarib turgan ijtimoiy imkoniyatlariga muvofiq ravishda me’yoriy so‘zlash majburiyatiga ega bo‘ladilar, bu nutq esa so‘zlovchi bajarayotgan ijtimoiy vazifa xususida ma’lumot beradi. Buni nutqning sotsial xoslanishi deb yuritish ham mumkin. Ma’lum ijtimoiy vazifa bajaruvchi har qanday shaxs nutqi kasb nuqtayi nazaridan maxsus til belgilariga ega bo‘ladi. Bu ana shu nutq subyektining psixologik, mantiqiy hamda falsafiy munosabati bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy vazifa tushunchasi nutq subyektining egallab turgan vazifasi yoki bajarib turgan kasbi ma’nosini anglatadi:

- ... *Ertadan boshlab yurtga o‘ttuz ikki tangadan soliq sochasiz.*

*... Azizbekning bu zolimona buyrug‘iga qarshi qattiq so‘zlar aytishka o‘ylasa ham achchig‘ini qanday kishiga aytilishini o‘ylab o‘zini yig‘di.*

*- ... Menga qolsa bu kunlarda o‘ttuz ikki tanga emas, o‘ttuz ikki qora pul solish ham og‘irdir... hojining ters so‘ziga chidolmagan Azizbek vahshiylarcha hayqirdi:*

*- Nima deysan?!*

*... Shu daqiqada ishning oldini olmasa, endi gap faqat Azizbekning jallod chaqirishig‘a kelib qoldi:*

*- Taqsir, siz yig‘, der ekansiz ertaga emas, bu kundanoq yig‘a boshlayman. Yurt qani bermasin-chi! Faqat menga sizning buyrug‘ingiz kifoyadir.* (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”).

Nutq subyektining ijtimoiy vazifasi faqat uning kasbi bilangina chegaralanib qolmaydi. Nutq subyekti o‘zining asosiy sotsial vazifasidan tashqari ota, er, xaridor bemor, qo‘shni kabi qator qo‘shimcha va doimiy vazifani ham bajaradi:

*- Biz hozir andishaning bandasi, men emas onang birovni ishontirib qo‘ygan: bizning oiladan lafzsizlik chiqishi menga ma’qul ko‘rinmaydi.* (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”).

Bu ijtimoiy vazifani bajarish nuqtayi nazaridan nutq subyekti o‘z nutqi orqali bayon qilishi lozim bo‘lgan axborot ko‘rinishlarini nutq vaziyatiga hamda uslubiy jihatlariga ko‘ra “boshqara olish imkoniyati”ga ega bo‘lishi kerak. Ana shu “boshqara olish imkoniyati” nutqning psixolingvistik yo‘nalishini tashkil etadi.

Yuqoridagi ijtimoiy vazifalar o‘ziga xos kodlanuvchi til elementlariga ega bo‘lib, so‘zlovchi nutq vaziyatiga ko‘ra shu elementlarni almashtirib turadi. Suhbatdoshlar nutq mazmunidan ijtimoiy vazifa bajarayotgan har bir shaxs axloqiga xos me'yoriy element chegarasini ajratish imkoniyatiga ega bo‘ladi, ular oddiy talaffuzning o‘zidayoq sotsial vazifaga xos ma’noni his eta oladilar.

Sotsial vazifa belgilari sifatida dastlab nutqiy me’yor tushunchasi ajratib olinadi. So‘zlovchining doimiy ijtimoiy vazifasi rasmiy munosabat belgilariga ega bo‘ladi. Bunga ko‘ra so‘zlovchi o‘zi bajarib turgan kasb nuqtayi nazaridan boshliq, kasbdoshlari hamda xodimlariga nisbatan rasmiy munosabatni ifoda etuvchi til va nutq elementlaridan foydalaniladi. Bu bosqichda uning huquq va majburiyatlari faqat rasmiy ohangni talab etadi. Hamma sotsial vazifada bo‘lganidek, bunda ham so‘zlash ohangi, harakatlanish tempi, ayniqsa, imo-ishora tili o‘ta darajada shakllangan bo‘ladi. So‘zlashuvchilar o‘rtasidagi bunday munosabat sotsial aspektga ko‘ra mutanosib munosabat deb hisoblanadi, biroq bu nutqiy munosabatning mazmuniy aspekti nomutanosib munosabat ekanligini isbot etadi. So‘zlashuvchilar orasidagi huquq va majburiyatga ko‘ra har qanday shaxs rasmiy ohangdan foydalangani holda nutqda hokimlik va itoatkorlik elementlari buyruq hamda bo‘ysunish kabi nutqiy aktlarni yuzaga chiqaradi. Har qanday rivojlangan tilda sotsial vazifalarni bajarishga xizmat qiluvchi til elementlari mavjud bo‘ladi. So‘zlashuvchilar ana shu til elementlaridan foydalanib, o‘zlari bajarib turgan sotsial imkoniyatlarini nutq orqali bayon etadilar.

L.P.Krisin nutqiy aloqa-aralashuv va so‘zlovchilarning sotsial vazifalari haqida so‘z yuritib, aloqa-aralashuv vaziyatida ishtirok etuvchilar nutqini ikki guruhga ajratadi:

1. Mutanosib nutq. 2. Nomutanosib nutq[1].

Mutanosib nutqiy muloqotda hatto jins, yosh nuqtayi nazaridan ham bir xillik talab qilinadi:

Salti endi gap ochdi.

*- Erta saharlab chopganim bekorga emas.*

*- Men ham sezganman... Yuragim bir qur seskanib ham oldi.*

*- Nimaga, o‘rtoqjon?*

*- O‘zingiz bilgan sovchilar balosida... Qish ichi keti uzilmadi.* (Cho‘lpon)

Ushbu misolda kommunikantlar nutqida ularni teng ekanligi “o‘rtoqjon!” so‘zining lug‘aviy ma’nosidan, ayol kishi ekanligini gap sovchilar haqida borayotganligidan bilib olamiz. Demak, bunda nutqiy muloqot ishtirokchilari sotsial mavqelari jihatiga ko‘ra tobe emas. Ularning o‘zaro tengligi, ayol kishi ekanligi, simmetrik muloqotda erkin fikrlash imkoniyatini yaratadi. Simmetrik

[1] Крысин Л.П. Речевое обшение и социальные ролы говоряших. В кн.: Социально-лингвистические исследования. М., 1976. с.49.

nutq tushunchasi ostida 2 xil holatni kuzatamiz. Birinchi holatda simmetrik nutqiy munosabatga kirishuvchi shaxslar simmetriya termini nazariyasiga koʻra, tenglik asosidagi “samimiylik” munosabatida boʻladilar. Bu holatga koʻra, ularning nutqida “teng huquqlilik”, “samimiylik” oʻz ifodasini topadi.

Simmetrik nutqiy munosabatning ikkinchi koʻrinishida kommunikantlarning oʻzaro yoshi, jinsi, sotsial mavqeyiga koʻra tenglik munosabati boʻlsa-da, biroq nutqiy muloqotda simmetrik munosabatning salbiy koʻrinishi koʻzga tashlanadi.

Asimmetrik nutqiy munosabat tushunchasida esa oʻzaro nutqiy muloqot jarayonida nutq ishtirokchilaridan birining sotsial jihatdan “tobeligi” va “ustunligi” sezilib turadi.

Umumtilshunoslik ilmida ta’kidlanishicha, tilni sotsial hodisa sifatida tushunish hamda aloqa-aralashuv va fikrlash-anglash quroli sifatida tadqiq etishning ikki yoʻnalishi mavjuddir. Bu tadqiqotning birinchi yoʻnalishiga tilni jamiyatning mahsuli sifatida oʻrganish, shuningdek, tilga, uning strukturasiga, uning shakllanish qonuniyatlariga turlicha umumiy sotsial faktorlarning ta’sirini oʻrganish kiradi. Ikkinchi yoʻnalish esa, til jamiyat instrumenti, fikrlash-anglashning quroli va aloqa-aralashuv (kommunikatsiya) quroli sifatida tadqiq etishdir. Bu yoʻnalish oʻz navbatida ikkiga boʻlinadi:

1. Tilni fikrlash-anglashning quroli sifatida oʻrganish.

2. Tilni aloqa-aralashuv, kommunikatsiya quroli sifatida oʻrganish.

Aloqa-aralashuv jarayonida tildan foydalanishning ikki asosiy maqsadi mavjud boʻladi: a) nimadir xususidagi axborot bayoni; b) odamlarning ruhiyati va axloqiga ta’sir etish.

Shunday qilib, tilning ayrim kishilarning axloqi va ruhiyatiga ta’sir etish vositasi sifatida qoʻllanishi pragmalingvistikaning predmeti hisoblanadi. L.A.Kiseleva lingvistik pragmatika sotsiolingvistikaning qismlaridan biri deb hisoblaydi[1].

Nurmonov pragmalingvistikaning tadqiqot obyekti sifatida quyidagilarni koʻrsatadi: Nutq vaziyati bilan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham sintaktik qurilma ifodalagan propozitsiyaning soʻzlashuvchilarga tushunarli boʻlishi uchun nutq vaziyati yoki kontekst zarur boʻlgan joyda pragmatikaga ehtiyoj ortadi. Bu quyidagi hollarda roʻy beradi:

1) jumla tarkibida sen, hatto, faqat, hozir singari deskriptiv boʻlmagan soʻzlar ishtirok etganda.

Amaliy sintaksis muammolarini hal qilishda Ch.Fillmorning «tushunish mazmuni» gʻoyasi katta yordam beradi. Ch.Fillmor mazmuniy nazariyani «tushunish mazmuni» va «haqiqat mazmuni» nazariyalariga ajratgan holda, «tushunish mazmuni» nazariyasi ostida lisoniy matnlar bilan jarayon oʻrtasida mavjud boʻlgan munosabat haqidagi umumiy tasavvurni tushunadi.

«Tushunish mazmuni»ning vazifasi lisoniy matn bilan uning matnlar qurshovida toʻliq tushunilishi oʻrtasidagi aloqa mohiyatini ochishdan, jumlaning u orqali ifodalanayotgan vaziyat bilan aloqasini koʻrsatishdan iborat.

Soʻzlashuvchilarning lisoniy bilimi deganda, lisoniy birliklar bilan vaziyat elementlari oʻrtasidagi munosabatning inson ongida aks etishi tushuniladi. Bunday munosabatning aks etishini izohlashda, Ch.Fillmor kiritgan *freym* atamasidan foydalanish mumkin.

Ma’lumki, har qanday tildagi soʻzlar ma’lum belgilariga koʻra u yoki bu tematik guruhlarni, mazmuniy maydonlarni hosil qiladi. Masalan, *opa, aka, ota, ona, uka, singil* va boshqalar. Bu soʻzlarning har qaysisi oʻziga xos individual ma’noga ega boʻlishi bilan birga, hammasi uchun umumiy boʻlgan, har birida takrorlanadigan umumiy ma’no ham mavjud. Bunday bir guruhga birlashgan soʻzlarni bir butun sifatida oʻrganish qulaylik tugʻdiradi. Chunki har bir guruh oʻzaro bogʻlangan olam haqidagi bilimlarimizning lisoniy gavdalanishlari hisoblanadi. Shu sababli har qaysi guruhning u yoki bu birligining ma’nosini toʻligʻicha tushunish uchun bu birlik mansub boʻlgan guruh ifodalayotgan olam, vaziyat hamda uning uzvlari oʻrtasidagi oʻzaro aloqa haqidagi bilimlarimiz muhim ahamiyatga ega. Ma’lum guruhga mansub boʻlgan soʻzlar ortidagi oʻzaro bogʻliq boʻlgan olam uzvlari haqidagi bilimimiz freym sanaladi.

[1] Киселова Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. Л., 1978, с.100-101.

Masalan, besh bahoning qimmati uning qaysi baholash tizimiga mansubligiga bog‘liq. Agar besh balli tizimda besh baho bilan baholangan shaxsning quvonchi cheksiz bo‘lsa, o‘n balli tizimda besh bilan baholanganligini bilgan shaxsga bu baho hech qanday quvonch keltirmaydi. Shuning uchun «sen besh baho bilan baholanding» degan jumlaning ma’nosiga to‘la tushunish uchun faqat shu jumlada ishtirok etgan leksik uzvlar orqali ifodalangan axborotgina yetarli emas. Bu axborot shu baho tizimi haqidagi bilimimiz bilan to‘ldiriladi;

2) jumla kishilar o‘rtasidagi aloqa jarayonida vujudga keladi. Shuning uchun ham ularning har birida shaxsning izi o‘z ifodasini topadi. Chunki «Til borliqning uyi» (M.Haydegger), unda insoniyatning ma’naviy-ruhiy olami aks etadi[1].

Jumla mazmunini so‘zlovchi bilan uzviy bog‘lab turgan so‘zlar ham pragmatikaning tadqiqot obyektidir. Bevosita modusni ifodalovchi kirishlar, baho bildiruvchi so‘z va vositalar sintaksisi pragmatika tomoni orqali o‘rganiladi;

3) insonning sub’ektiv ruhiyatini aks ettiruvchi diskurs ham pragmatikaning o‘rganish doirasiga kiradi. E.Benvenistning fikriga ko‘ra, so‘zlovchi va tinglovchini taqozo qiluvchi va so‘zlovchining tinglovchiga qandaydir yo‘l bilan ta’sir qilish maqsadini aks ettiruvchi har qanday jumla diskurs (nutq), hisoblanadi.[2] Jumlaning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, obyektiv mazmun bilan u ifodalagan shakl o‘rtasidagi munosabat, shakl va mazmun o‘rtasidagi tengsizlik holatining nutqdagi ta’siri kabi masalalar ham pragmatikaga kiradi;

4) «men» va «boshqalar» o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatuvchi nutqiy odat (etiket), hurmat ifodalash usullari ham pragmatikaning o‘rganish sohasi sanaladi;

5) pragmatikaning o‘rganish sohalaridan eng muhimi presuppozitsiyadir. Masalan, *«Ahmad keldi»* jumlasidan qandaydir shaxsning kelganligi, qayerdan qayerga va nima maqsadda kelganligi haqidagi axborot qorong‘i bo‘ladi. So‘zlovchi va tinglovchining oldindan shunday ma’lumotga, umumiy bilish fondiga ega bo‘lishi bevosita ifodalanadigan axborotning so‘zlovchilar uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi[3].

Pragmalingvistika va sotsiolingvistika sohalari haqidagi bu fikrlarning barchasi to‘g‘ri, biroq bularning barchasi ham ma’lum darajada izoh talab qilishini M. Hakimov ta’kidlab o‘tadi. Jumladan, jamiyatdagi ijtimoiy voqeliklarning tildagi ifodasi hamda ularning umummillat tiliga ta’siri kabi masalalar sotsiolingvistika atamasida mujassamlashganligini aytib o‘tadi. Misol tariqasida tildagi ba’zi so‘z yoki iboralarning millat hayotidagi sotsial o‘zgarishlar ta’sirida iste'molga kirishi yoki iste'moldan chiqishi, shuningdek, millatning urf-odatlari bilan aloqador holatlarning tilning ba’zi qatlamlari bilan bog‘lanish va ta’siri kabi yo‘nalishlar bevosita ijtimoiy tilshunoslik predmetini tashkil etishini, tilning sotsiolingvistik aspektda tadqiq etilishi qaysi jihatlari bilan tilshunoslikning lingvistik pragmatika sohasiga yaqinlashishi yoki tadqiqot predmeti qaysi nuqtada ikkala soha uchun bir obyektga aylanishi nisbiy ekanligini uqtirib o‘tadi. Olimning fikricha, tadqiqot predmeti bir bo‘lsa-da, bu ikki soha mana shu vaziyatda o‘zining tadqiq etish usuli bilan ma’lum darajada farqlanadi. Pragmalingvistika sohasi uchun so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabat, sotsiolingvistika uchun til va nutqning shakllanishidagi sotsial faktorlarning ta’siri asos qilib olinadi[4].

Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasini o‘rganar ekan, ijtimoiy muhitni ham nazaridan chetda qoldirmaydi. Kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasini ham tahlil qiladi. “Muhit tushunchasi o‘z ichiga oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni qamrab oladi. Insonni qurshab turuvchi barcha narsa: turmush va uning jihozlari, tabiat, jamiyat va davlat, shaxs, tarix, ya’ni turli davr va xalqlarning madaniyatlari muhit tushunchasiga kiradi”[5]. Demak, inson yashab turgan tabiat va jamiyat muhitni tashkil qiladi. Inson o‘sha muhitda yashar ekan, bu uning fe’l-atvoriga, shuningdek, muloqot madaniyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. “Insondagi o‘zgarishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan,

[1] Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания //Новое в зарубежной лингвистике. ХХИИИ. – М., 1988. – С. 63.
[2] Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений. Оценка, Событие. Факт. – М., 1988. – С. 3.
[3] Нурмонов А. Танланган асарлар. –Тошкент, 2012. 3 жилдлик. 3–жилд.Б.196.
[4] Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент, 2015. Б.
[5] Носиров А. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини (“Юлдузли тунлар” романи мисолида):филол.фанлари номзоди. ... дисс. – Тошкент, 1999. 11–бет.

muloqot xulqida namoyon bo‘ladi. Demak, ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa muloqot xulqiga ta’sir ko‘rsatadi”[1]. Til jamiyat taraqqiyoti natijasida rivojlanar ekan, ijtimoiy muhitning til va uning namoyon bo‘lish shakli – nutqqa ta’siri juda katta. Inson mansub bo‘lgan muhitning tabiati uning nutqida ham yorqin namoyon bo‘ladi. Kishilarning yashash tarzi, ish faoliyati, o‘qish tartibi, sharoiti, atrof-muhitning o‘zgarishi uning nutqida ham namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy muhitning tilga ta’siri masalasi sotsiolingvistik tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Tadqiqotchi S.Mo‘minovning mazkur masala bilan bog‘liq tadqiqot ishida ham ijtimoiy muhitning muloqot xulqiga ta’siri, ya’ni qishloqliklar va shaharliklar nutqining o‘ziga xos farqli jihatlari, asosan, muhit bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlangan. Sotsiolog va psixologlar ham kommunikantlar nutqining o‘ziga xos tarzda shakllanishida ijtimoiy muhitning alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydilar.

Shunday qilib, jahon tilshunosligida til tizimini shaxs bilan bog‘liq tarzda o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika sohalari bilan bir qatorda pragmatik tilshunoslik va sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlarda ham namoyon bo‘lmoqda.

Sotsiolingvistika va pragmalingvistika o‘zaro aloqadorlikdagi sohalar bo‘lib, har ikki sohaning umumiy jihatlari nutqiy vaziyat, muloqot xulqi, nutqiy odob kabi masalalarda tutashadi va bir-birini to‘ldiradi. Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasini o‘rganar ekan, ijtimoiy muhitni, ya’ni oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni ham nazaridan chetda qoldirmaydi. Shu jumladan, kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasini ham tahlil qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент, 2015.
2. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2000.
3. Носиров А. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини (“Юлдузли тунлар” романи мисолида) филол.фанлари номзоди. ... дисс. – Тошкент, 1999.
4. Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений. Оценка, Собитие. Факт. – М., 1988.
5. Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания //Новое в зарубежной лингвистике. ХХИИИ. – М., 1988.
6. Киселова Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. Л., 1978.
7. Крысин Л.П. Речевое обшение и социальные ролы говоряших. В кн.: Социально-лингвистические исследования. М., 1976.


## UY-RO‘ZG‘OR REALIYA BUYUMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEOLOGIZMLARNING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI
## ETHNOLINGUISTIC FEATURES OF PHRASEOLOGY FORMED ON THE BASIS OF HOUSEHOLD REALIES


**A.Yusupova**
***O‘ZMU magistranti***



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada uy-ro‘zg‘or tarziga aloqador frazeologizmlarning mohiyati, mahalliy va tarixiy kolorit hisoblangan realiyalar ishtirokidagi frazemalarning xalqimiz orasida tutgan o‘rni va idrok etilish darajasi tahlil qilingan. Milliy-madaniy buyumlar bilan bir qatorda madaniy munosabatlar, qadriyatlar aks etgan tushunchalar, iboralarning ham realiya birlik sifatida qaralishi o‘rinli ekanligi ta’kidlangan.

**Abstract:** This article analyzes the essence of phraseology related to lifestyle, the role of phrases involving realities that are local and historical colors, and the level of understanding among our people. In addition to national and cultural attire, it is appropriate to consider cultural relations, concepts and expressions that reflect values as a unit of realia.



**Kalit so‘zlar:** *milliy-madaniy qadriyat, lingvomadaniyat, muqobilsiz leksika, barqaror birikma, frazemalar.*


[1] Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: филол. фанлари д-ри....дисс. – Тошкент, 2000. 136-бет.

**Key words:** *national-cultural value, linguoculture, irreplaceable vocabulary, stable combination, phrases.*

O‘zbek xalqi deganda bevosita ko‘z oldimizda mehnatkash, har qanday mashaqqatga chidamli xalq gavdalanadi. Shu bois bo‘lsa kerakki, Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib o‘troqlashgan, boshqa xalqlarning turmush tarziga o‘xshamaydigan hayot tarziga ega bo‘lgan xalqdir.

Chunonchi, inson ongli hayotidan boshlab mehnat bilan shug‘ullana boshlaydi. Mehnat jarayonida esa xilma-xil ishlar bajarib kelingan. Mehnat jarayonida bajarilgan u yoki bu xatti-harakatlar kishilarda muayyan lisoniy assotsiyalarni uyg‘otadi.[1] Shu tufayli biror bir fikrni obrazli ifodalashga ehtiyoj tug‘iladi. Ayni shu holat kishilarning kasb-koriga, uy-ro‘zg‘or tarziga aloqador frazeologizmlarning ham shakllanishiga sabab bo‘lgan, deb o‘ylaymiz. Bunday frazeologizmlarning shakllanishida quyidagi leksik-semantik guruhlarga oid voqelik bilan ifodalangan obrazli tushunchalalar asos qilib olingan. Frazeologizmlar milliy tilning inson ongida muhrlangan hamda turli xil tipdagi tarkibiy qismlar orqali yuzaga keltirilgan voqelik parchalarini ham o‘z ichiga oladi.

O‘zbek tilida yuzaga kelgan frazeologizmlarning bir qismi ma’lum kasb-kor egalarining faoliyati bilan bog‘liqligini to‘plagan materiallarimizni tasdiqlaydi. Kasb-kor egalari muayyan ishlarni o‘ziga xos xatti-harakat bilan bajaradi. Ana shunday jarayon til egalarida xilma-xil assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. O‘zbek xalqining o‘ziga xos bo‘lgan etnolingvistik xususiyatlarini aks etiradi. Shunday xususiyatlarni ifodalovchi frazeologizmlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

***a) Uy-ro‘zg‘or buyumlari asosida shakllangan frazeologizmlar***

Bu frazeologizmlar kundalik turmushda qo‘llanadigan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarining mantiqiy asosidan kelib chiqib umumlashadi va umumtil miqyosida voqe bo‘ladi. Misol uchun *po‘stagini qoqmoq, yumshoq supurgi bo‘lmoq, chig‘iriqdan o‘tmoq, ko‘rpa-yostiq qilib yotmoq, chirog‘ini yoqmoq,o‘zini taroziga solmoq, kosasining tagi oqarmoq, yostig‘ini quritmoq, pichoq o‘z sopini kesmaydi, pichoqqa ilinadigan, kurakka turmaydigan, yumaloq-yostiq qilib, baland oxurdan yem yemoq, suprasi quruq, ola xurjun yelkasiga tushmoq, ichiga chiroq yoqsa ham yorimaydi aravani quruq olib qochmoq, ipidan ignasigacha bilmoq, ko‘rpaga qarab oyoq uzatmoq, bir yostiqqa bosh qo‘ymoq, oyog‘iga bolta urmoq, arava sinsa, yalqovga o‘tin, aravani teng tortmoq[2]* kabilar. Bu frazeologizmlarning ayrimlarining ishlatilish holatlarini misollar bilan ko‘rib chiqamiz. Hali ham soddasiz, Qo‘chqorov, shuncha chig‘iriqdan o‘tib ham pishmabsiz (Shuhrat). Keyin boshini ikkita qilib qo‘ysam, dadasi bilan mening chirog‘imni yoqib o‘tirsa deyman, xolos, deydi bechora(H.Nazir). Keltirilgan “chirog‘ini yoqib o‘tirmoq” “vafot etgan kishining nomini abadiy qilmoq, uy yumushlarini davom ettirmoq, uyga ro‘zg‘orda qo‘llanadigan voqelikni obrazli gavdalantirish sabab bo‘ladi. Arava xalqimizning og‘irini yengil qiladigan vosita sifatida qaralib kelinadi. Shu sababli arava so‘zi bilan bog‘liq iboralarga duch kelamiz. *Aravani teng tortmoq* iborasi teng baravar ishlash yoki hammasini birday ko‘rmoq ma’nolarini ifodalaydi. Frazemaning ma’nolarida ham o‘zbek xalqiga xos qarash, ya’ni adolatlilik o‘z ifodasini topgan.

***b) Dehqonchilikka bog‘liqligi jihatdan yuzaga kelgan frazeologizmlar***

O‘zbek xalqi azaldan dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Shuni aytish joizki, dehqonchilik deyilganda “qishloq xo‘jaligining yerga ekin ekib yetishtiradigan soha” tushuniladi. Demak, dehqonchilik faoliyati va yetishtiradigan mahsulotlari ham har xil bo‘lish holatlari bor. Bunday holat, albatta, xalqlarning tushunchasi va ishlatilishi mumkin bo‘lgan frazemalarida turli komponentlarni yuzaga chiqaradi. Misol uchun *xirmon ko‘tarmoq, arpasini xom o‘rmoq, o‘tganning o‘rog‘ini, ketganning ketmonini olmoq, qovun tushurib qo‘ymoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq ko‘p qovun pishig‘i o‘tmoq, danagidan mag‘zi, qo‘ynini puch yong‘oq bilan to‘ldirmoq[3]* kabi ko‘p frazeologizmlarni keltirishimiz mumkin. Bu frazeologizmlarining barchasida o‘ziga xoslik aks etib turibdi. Ularning ayrimlarini tahlilga tortadigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi azaldan ertangi kunini o‘ylab, ish tutgan shu bois barcha mahsulotlarini bir joyga to‘plab zaxira sifatida saqlaganlar shu asnosida xirmon qilmoq iborasi yuzaga kelgan.

***c) kasb-korlikka bog‘liqligi jihatdan yuzaga kelgan frazeologizmlar***

O‘zbek xalqi dehqonchilik, chorvachilik bilan birgalikda muayyan shart-sharoitlar taqozasi ila kosibchilik, tikuvchilik, to‘quvchilik, duradgorlik bilan shug‘ullanib kelganlar shu sababli kam miqdorda bo‘lsa-da, bu kasblarga bog‘liqligi jihatidan yuzaga kelgan frazeologizmlar mavjud.

Mazkur doirada shakllangan frazeologizmlarning asosini ma’lum kasb-kordan olingan voqelik va shu voqelikning obrazli ifodasi tashkil etadi. Masalan, *kalavaning uchini topmoq, kalavaning uchini yo‘qotmoq kabi frazemalari to‘quvchilik bilan bog‘liq voqelikni obrazli ifodalash asnosida yuzaga kelgan. Bo‘yiga qarab to‘n bichmoq, kashtasi kelishgan, bo‘zchining mokisiday[3]* kabi realiya ishtirokidagi iboralar tikuvchilik bilan aloqador voqelikni obrazli gavdalantirgan bo‘lsa, *tesha tegmagan, g‘isht qolipdan ko‘chgan* iboralar duradgorlik jarayonlar bilan bog‘liq frazeologizmlarni yuzaga keltirgan.

Bundan ko‘rinadiki, frazeologizmlar qaysi doirada yuzaga kelmasin keltirilgan barcha misollarning markazida turuvchi komponentlar mentallikni ifodalovchi etalon sifatida qaraladi. Chunki xalq mavjud ekan, uning o‘ziga xos urf-odati, dunyoqarashi, turmush tarzi, voqelik jarayonlari bir-birlariga aynan o‘xshamaydilar. Shu sababli frazeologizmlarni xalqlarning etnolingvistik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi birlik sifatida qarashimiz hamda o‘rganishimiz hech qanday xatoliklarga olib kelmaydi. Xulosa qilib shuni aytish joizki, frazeologizmlar insoniyat tili ila vujudga kelgan til birligidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: Filol.fanlari doktori...diss. – Toshkent, 1999.
2. Sattor M. O‘zbekning gapi qiziq. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2011
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1978

## O‘XSHATISHLAR – MILLIY-MADANIY BELGILAR IFODASI SIFATIDA
## PARABLES ARE EXPRESSIONS OF NATIONAL AND CULTURAL SYMBOLS

**Sh.Xamdamova**
***ToshDOTAU magistranti***

**Annotation**: Maqolada o‘xshatishlarning mazmun mohiyati, o‘xshatishlar misolida tashqi dunyoni bilish va o‘xshatishlarda xalqlar madaniyatini ko‘rish haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** o‘xshatish, o‘xshatish etaloni, individual, turg‘un, *lingvokulturologik xususiyatlar.*

**Abstract**: In the article it is said about the substance of assimilations, knowing the world, demonstrating of nation’s culture in assimilations.

**Key words:** assimilation, assimilation etalon, individual, permanent, linguo-cultural features.

O‘xshatishlar tashqi dunyoni bilishning eng qadimiy usullaridan hisoblanadi. O‘xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini tamsil etadi.

O‘xshatish – ikki narsa-hodisa yoki voqelik o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishdan iborat badiiy tasvir vositasi, ko‘chimning sodda turidir. O‘xshatish (tashbeh) mumtoz badiiy san’at ko‘rinishi sifatida uslubiyatni ta'minlovchi vositalardan biri hisoblanadi. [ *Xolmuradova,2020:*93].

O‘xshatishlar nutqda katta badiiy-uslubiy imkoniyatlarga ega bo‘lganligi uchun nutqning ifodaliligini ta’minlaydigan alohida vosita vazifasini bajaradi. O‘xshatishlar to‘rt unsurdan tarkib topadi, ya’ni:

1) o‘xshatiladigan narsa (yoki subyekt);
2) o‘xshatish etaloni;
3)o‘xshatishasosi;
4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi.

Masalan, *Yigit musichadek beozor ekan* o‘xshatishida *yigit* o‘xshatiladigan narsa, *musicha* o‘xshatish etaloni, *beozor* o‘xshatish asosi, *-dek* qo‘shimchasi esa o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichidir.

O‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi:

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o‘xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o‘xshatishlar yaratadi, bu o‘xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o‘quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, xususiyat, pred- metlarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantiradi. Masalan, *Miryoqub ikki kishining pichirlashib gaplashganini eshitdi, yuragi objuvoz likopiday ura boshladi (Cho‘lpon)* gapidagi o‘xshatish – yozuvchining o‘z ijodi mahsuli. Mana bu o‘xshatishlar ham erkin badiiy o‘xshatishlardir: *Maydalab o‘rilgan sochlardek egatlarga taralgan suvlar – nay ko‘ksidan oqayotgan ohanglar kabi sirli-sirli jildiraydilar (Ismoil To‘lak).* Turg‘un o‘xshatishlarda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqtlar o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tilidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi tayyor frazeologik birliklar kabi nutqqa olib kiriladi. Masalan, *Uning bu xislati ham hammaga otning qashqasiday ma’lum (Cho‘lpon)*; *Bolalari qo‘rqqanlaridan baqadek qotib qolishdi (M.Nizanov)* gaplaridagi o‘xshatishlar turg‘un o‘xshatishlardir. Turg‘un o‘xshatishlar ham nutqning ifodaliligini ta’minlashda alohida o‘rin tutadi. N. Mahmudov va D. Xudoyberganovaning «O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati»dan olingan o‘q so‘zi ishtirokidagi turg‘un o‘xshatishlarning ma’no- larini ko‘rib chiqsak, birgina o‘q so‘zi misolida ko‘pgina ma’nolar mujassamligiga guvoh bo‘lamiz. O‘qday (kabi, singari)

**1**. *To‘g‘ri, adil.* Asosan, egri bo‘lmagan ko‘cha, yo‘l va boshqa narsalar haqida: Hammasini yer yuzidan sidirib tashlab, o‘rniga bog‘-rog‘ga ko‘milgan, ko‘chalari **o‘qday** *to‘g‘ri,* oppoq, ko‘rkam qishloq barpo qildi. *(O.Yoqubov, «Diyonat»)*

**2.** *To‘g‘ri.* Rost, adolatli so‘z, shuningdek, g‘irromlikni bilmaydigan odam haqida: **O‘qdek** *to‘g‘ri* bo‘lmoqlik, kibr-u havoga yo‘l ochmasligi lozim... – negadir o‘ylanib qoldi sohibqiron. *(M. Ali, «Ulug‘ saltanat»)*

**3.** *Botmoq, tegmoq, teshib o‘tmoq, sanchilmoq, qadalmoq.* Odamga qattiq ruhiy azob bermoq. Asosan, gap-so‘z, o‘y-xayol haqida: Uning so‘zlari garchi **o‘q kabi** *botayotgan* bo‘lsa-da, Elchin uchun yangilik emasdi. *(T. Malik, «Shaytanat»)*

U ketdi, ketdi-yu endi shum o‘ylar *San chilaveradi* qalbga **misli o‘q**. *(A.O‘ktam, «U ketdi...»)*

**4.** *Uchmoq.* Juda ham tez harakatlanmoq; zarb, shiddat bilan chiqib ketmoq. Vatan, aylanarman bir keskir toshga, Qoshingga **o‘q kabi** *uchib* borarman.

*(R. Parfi, «Ona Turkiston»)* Bizdan uzr so‘rab, «pat-pat»iga o‘tirdi-yu **o‘qday** *uchirib ketdi. (M. M. Do‘st, «Lolazor»)*

**5.** *Otilmoq.* Keskin, shiddat bilan biror tomonga tashlanmoq; odam, jonivor va boshqa harakatlanuvchi narsalar haqida: Qamchi yeb o‘rganmagan uchqur bedov oldinga **o‘qday** *otilib,* egasini balo-qazodan olib chiqib ketdi. *(P. Qodirov «Yulduzli tunlar»)*

**6.** *Otilib chiqmoq.* Asosan, qattiq hayajon, hissiy taranglik bilan aytilgan gap-so‘z, xitob va shu kabilar haqida: Ko‘kragidan shu so‘zlar **o‘qday** *otilib chiqdi*: «Otamning qamalishi emas, sizning qilmishingiz meni o‘rtoqlarim oldida yerga kirgizib yubordi». *(A. Qahhor, «Zilzila»)*

**7.** *Kirmoq, sanchilmoq, qadalmoq, urilmoq.* Qattiq, dag‘al, quloqqa ozor bera- digan darajada eshitiladigan ovoz, gap-so‘z haqida:

Uxlab qoldingizmi, nima balo! – rejissyorning tajang qichqirig‘i Zuhraning quloqlariga **o‘qday** *kirdi. (O‘. Hoshimov, «Nur borki, soya bor»)*

**8.** *Qadamoq, tikmoq.* Qattiq tikilib qaramoq. Asosan, ko‘z haqida: Ertalab haykalning ochilishidan qaytayotib, mashina oynasidan o‘ziga **o‘qdek** *qadalib turgan* bir juft ko‘zni ko‘rib qoldi. *(E. A’zam, «Shoirning to‘yi»)[ Маҳмудов, Худойбердановa,2013:281-283]*.

“O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” uchun yig‘ilgan materiallar shundan dalolat beradiki, xalqning muayyan predmet, belgi, harakatholatga munosabati, assotsiativ fikrlash tarzi o‘xshatishlarda ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, buni o‘zbek tilidagi inson haqidagi turg‘un o‘xshatishlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Tilshunos olima D. Xudoyberganova o‘zining “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli maqolasida o‘zbek tilidagi inson haqidagi turg‘un o‘xshatishlarni quyidagi ma’noviy guruhlarga tasnif qiladi:

*1. Inson a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.*

*2. Insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshaishlar.*

*3. Insonning jismoniy xususiyati bilan bog‘liq o‘xshatishlar.*

*4. Insonning ovozi bilan bog‘liq o‘xshatishlar.*

*5. Inson nutqi bilan bog‘liq o‘xshatishlar.*

*6. Insonning harakteri bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.*

*7. Insonning holati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ xshatishlar.*

*8. Insonning hatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.*

*[ Xudayberganova,2013:94].*

O‘zbek tilidagi inson bilan bog‘liq o‘xshatishlar shuni ko‘rsatadiki, ularda insonning holati va harakatini ifodalovchi o‘xshatishlar miqdori boshqa ma’noviy guruhdagi o‘xshatishlarga nisbatan ko‘p. Keyingi o‘rinda esa inson a’zolarini ifodalovchi o‘xshatishlar turadi. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalari ko‘proq insonning harakatholatini obrazli tarzda ifodalaydi. O‘xshatish uchun etalon sifatida tanlangan so‘zlar ham o‘zbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi til birligidir. Insonning xarakteri xatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlarda o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalarining etalon sifatida turli hayvon va jonivor turlarini bildiruvchi so‘zlardan ko‘proq foydalanganligi ma’lum bo‘ladi. Masalan, itday sadoqatli, molday befahm, musichaday beozor, eshakday qaysar (xarakter bilan bog‘liq); itday ishlamoq, echkiday sakramoq, toshbaqaday sudralmoq, ilonday sudralmoq, bulbulday sayramoq (harakat bilan bog‘liq o‘xshatishlar). O‘zbek tilida o‘simlik va meva nomlarining o‘xshatish etaloni sifatida qo‘llanishi ham ko‘p uchraydi. Bunday o‘xshatish etalonlariga sambit, shamshod, sarv, terak, lavlagi, sholg‘om,gilos, olma, yong‘oq, kabi so‘zlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘xshatishlar turli xalqlar madaniyatini yaqqol namoyon qilib beruvchi vositalardan biri hisoblanadi.Unda ma’lum davrda yashagan ajdodlar kechinmalari, tasavvurlari,milliy va madaniy an’analari muhrlangan bo‘ladi. O‘xshatishlar bizning madaniyatimizni kelajak avlodga yetkazuvchi vositalardan biridir.

**ADABIYOTLAR:**

*1. “Qutadg‘u bilig” leksikasi [Matn] : monografiya / M.F.Xolmuradova. - Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 156 b.*

*2. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan.. 2013.*

*3. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати / Н. Маҳмудов, Д. Худойберганова. - Тошкент: «Маънавият», 2013.-320 б.*

## NEYROLINGVISTIK DASTURLASH: TARIXI VA BUGUNGI AHAMIYATI
## NEUROLINGUISTIC PROGRAMMING : FORMING HISTORY AND THE IMPOTANCE FOR TODAY’S LIFE

**O.Sharipova**
***TDO‘TAU magistranti***

**Abstract:** In the article, it is investigated that the forming history of NLP as a new subject and its importance in today’s life

***Keywods:*** *NLP, neuro, language, programming, brain, brain’s behavior*.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ijtimoiy hayotning turli tarmoqlarida inson psixologiyasiga ta’sir qilishning yangi – neyrolingvistik dasturlash turi keng qo‘llanmoqda. Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: kundan kunga tobora talab ortib borayotgan bu yo‘nalish qachon shakllangan, uning asl mohiyati, amaliy ahamiyati nimada?

Neyrolingvistik dasturlash (NLD) terminini ona tilimizga so`zma-so`z tarjima qiladigan bo‘lsak, nerv, til va dasturlash so‘zlari kelib chiqadi, ya’ni u insonni til va so‘zlar yordamida dasturlash degan ma’noni anglatadi va ushbu uch tarkibiy qism uning uch muhim elementini tashkil etadi: neyro(nerv tizimining miya va tana o‘rtasidagi aloqadorligi), lingvistika(til vositasida o`zaro ta’sir ko`rsatish) va dasturlashtirish(fikr va harakatlarning ketma-ketlikda takrorlanib turishini tizimga solish).

Oksford lug‘atida ushbu atamaga quyidagicha ta’rif beriladi: “A model of interpersonal communication chiefly concerned with the relationship between successful patterns of behaviour and the subjective experiences (*esp*. patterns of thought) underlying them” va “A system of alternative therapy based on this which seeks to educate people in self-awareness and effective communication, and to change their patterns of mental and emotional behaviour”. Bundan kelib chiqadiki, NLD asosida ikki narsa yotadi-inson xulq-atvorini muvaffaqiyatga erishuvga modellashtirish va o‘zini anglash.

Neyrolingvistik dasturlash bo‘yicha dastlabki tizimli ilmiy tadqiqotlar 1970-yilda Kaliforniyadagi Santa Kruz universitetida boshlangan. Universitet talabasi Richard Bandler va uning ustozi professor Jon Grinderlar uning asoschilari sifatida ko‘rsatiladi. Bu davrga qadar ham Ibn Sino, Beruniy singari buyuk bobokalonlarimiz o‘z asarlarida inson nutq faoliyatidagi nuqsonlar, buzilishlar bosh miyadagi neyronlarning – nerv hujayralarining zararlanishi oqibati ekanligini qayd etgan va uni davolash bo‘yicha ham ayrim ko‘rsatmalar berib o‘tgan bo‘lsalarda, bu soha alohida yo‘nalish sifatida izchil o‘rganilmagan. O`tgan asrning so`nggi yillarida miya faoliyatini o‘rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. XX asrning 2-yarmiga kelib inson miya faoliyati va uning nutqqa ta’siri masalasi chuqur tadqiq qilina boshlandi. Asr oxiriga kelib esa u bilan bog‘liq ishlar shu darajada rivojlandiki, bu davr amerikalik neyropsixologlar tomonidan “miya o`n yilligi” deb nomlangan (XXasrning 90-yillari).

Richard Bandler va Jon Grinderlarni har tomonlama teng salohiyatga ega bo‘lgan insonlarning nima uchun turli xil natijalarga erishishi qiziqtiradi va buning ilmiy asosli sababini topishga kirishishadi. Ular ishni o‘z davrining mashhur psixoterapevtlari Satir, Geshtald va gipnoz ustasi Milton Eriksonlarning nazariyalarini o‘rganishdan boshlashdi. Ularning asosiy maqsadi tez va yuqori natijalarga erishishning nazariy asosli texnikalarini ishlab chiqish bo‘lgan. Bu izlanishlarning amaliy natijasi o‘laroq o‘z sistem yondashuviga ega bo‘lgan biz hozirda neyrolingvistik dasturlash sifatida o‘rganuvchi yangi fan tarmog‘i vujudga keldi (uning nomi (Neuro-Linguistic Programming) ham aynan Richard Bandler tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan). Shu davrga qadar jamiyat a’zolari tomonidan odatiy jarayon sifatida e’tiborsiz qoldirilgan holatlarga tanqidiy qarash va uning ustida olib borilgan kichik tajriba-amaliyot innovatsion sohalardan biriga aylangan yangi yo‘nalishning shakllanishiga sabab bo‘ldi.

NLD gumanitar ta’lim texnologiyasi hisoblanib, uning asosiy vazifasi inson ma’naviy madaniyatini rivojlantirish, kafolatlangan natijalarga erishtiruvchi samarali muloqot texnikasini shakllantirishdan iboratdir. Tilshunoslik, psixologiya, nevrologiya fanlari kesishuvida vujudga kelgan bu yangi tarmoq neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixolingvistika, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g‘oyalaridan barakali oziqlanib, shaxs intellektual taraqqiyot darajasini oshirish, individual imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish, mavjud salohiyatidan to‘laqonli foydalanish imkoniyatini beradigan va uning ijtimoiylashuvi yo‘lidagi sun’iy to‘siqlarni bartaraf etadigan yangidan yangi o‘ziga xos metodlarni ishlab chiqmoqda.

Ma’lumki, bizni o‘rab turgan obyektiv olam haqidagi qarashlarimiz birlamchi sezgi organlarimiz orqali qabul qilinib, bu axborotlarning barchasi miyada umumlashadi. Nutq jarayoni esa miyaning ushbu yig‘ilgan ma’lumotlar asosida har bir stimulga bildirilgan reaksiya natijasida paydo bo‘ladi. Neyrolingvistik dasturlash til va boshqa kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda miya faoliyatiga ta’sir qilish va yangi, nuqsonlardan xoli yashash tarzini yaratish usulidir.

Dasturlashning bu usulidan foydalanish orqali insonlar ham o‘zlarining, ham atrofdagilarning xatti-harakatlarini boshqara oladi, u odamlarga o‘zlari xohlagan o‘zgarishlarga tez fursatda erishishlariga yordam beradi.

NLDning bugungi kundagi ahamiyati qay darajada muhim ekanligini quyidagi singari salbiy holatlarni bartaraf etishda qo‘lga kiritayotgan ijobiy yutuqlari misolida ko‘rishimiz mumkin:

-kundalik turmushda sodir bo‘luvchi murakkab vaziyatlar;

-individual kamchiliklar;

-qo‘rquv, hadiksirash yoki shu kabi noxush hislar;

-past o`zlashtiruvchi o`quvchi-yoshlar, o`zlariga ma’lum cheklashlar qo`yib olgan katta yoshdagi kishilarda kechuvchi depressiya holatlari;

-chekish, ichkilikbozlik, uyqusizlik kabi ko‘ngilsiz qusurlar va h.k. dan xalos bo‘lish.

Bu fan tarmog‘ining eng muhim jihati yoshi-yu ijtimoiy holatidan qat’iy nazar barcha insonlarning kundalik faoliyatida shaxsiy va kasbiy samaradorligini oshirishda beqiyos ta’sir kuchiga egaligidir. Uning rivojida lingvistik va psixologik nazariyalar bir xilda muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. John C.L.Ingram. Neurolinguistics. Cambridge textbook in linguistics.
2. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari (o`quv-uslubiy qo`llanma). -Urganch, 2019.
3. Stemmer B., Harry A.Whitaker. Handbook of the Neuroscience of Language. – Amsterdam, 2008.
4. www.cambridge.org
5. www.hayhouse.co.uk

## PSIXOLINGVISTIKA VA PSIXOLINGVISTIK TAHLIL
## PSYCHOLINGUISTICS AND PSYCHOLINGUISTIC ANALYSIS

**M.Muxammadiyeva**
***O‘zMU magistranti***

**Annotatsiya:** Maqolada psixolingvistika va uning tahlili bayon etiladi. O‘tkir Hoshimov asarlari misolida psixolingvistik tahlillar keltirilgan. Psixolingvistik tahlil haqidagi qarashlar haqida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar:*** *obyekt, predmet, nutqiy faoliyat, subyekt, retsipient.*

**Annotation:** The article describes psycholinguistics and its analysis. Psycholinguistic analysis is given in the example of Utkir Hoshimov's works. It is about views on psycholinguistic analysis.

***Keywords:*** *object, subject, speech activity, subject, recipient.*

Psixolingvistika – zamonaviy fan sohalaridan biri bo‘lib, nutqning hosil bo‘lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jaroyonlarini, ularning til tizimi bilan o‘zaro bog‘lanishi holatida o‘rganuvchi fandir. Psixolingvistika psixologiya va lingvistikaning sintezi sifatida XX asrning 50-yillarida maydonga keldi.

Psixolingvistikaning asosiy tadqiqot obyekti nutqiy faoliyat subyekti bo‘lgan shaxs, til egasidir. Rus tilshunosi A.A.Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasini “tilning amal qilinishi psixik fenomen sifatida tavsiflashva tushuntirish “ bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan.

Psixolingvistikaning predmeti – turli obyektlarning mavhum tizimi yoki ayrim obyektlarning mavhum tizimi hisoblanadi. Shu o‘rinda yevropalik psixolingvistlarning fan sohasiga oid mulohazalarini keltirib o‘tish lozim. Jumladan, P.Fress psixolingvistikani “til orqali taqdim etiladigan bizning ekspressiv va kommunikativ ehtiyojlarimiz va vositalarimiz o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi fan”- deb izohlagan. Rus psixolingvistikasi nazariyasi asoschisi A.A. Leontev shunday yozadi: “Psixolingvistika- til tizimi va lisoniy qobiliyat orasidagi munosabatlarni o‘rganuvchifan”. Charlz Osgudning fikricha, “Psixolingvistika so‘zlovchi niyatining muayyan

madaniyat kodida (tilida) qabul qilingan signalga aylanishi va bu signallar tinglovchining interpretatsiyasida qaytadan namoyon bo‘lishi jaroyonlarini o‘rganadi.

Rus tilshunosi va psixologi V.P.Belyanin o‘z tadqiqotlarida matnning psixolingvistik xususiyatlarini yoritgan. Psixolingvistik tahlilda lisoniy ong masalasi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. “lisoniy ong tashqi faoliyatni til belgilari vositasida rejalashtirish va boshqarishdan iborat bo‘lgan ichki jarayondir”. U xususan kommunikatsiyaning eng oliy birligi bo‘lgan matn yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Matnning psixolingvistik tahlilida muhim bo‘lgan obyektlardan biri til egasi- matn tuzuvchi va retsipient faoliyatidir. Bilamizki, matn inson tomonidan inson uchun yaratiladi. Bu matn yaratilishi va uning idrokidan iborat faoliyat zanjirining antroposentrik xususiyatiga egligidan dalolat beradi. Psixolingvistik tahlilda muallif va retsipient munosabatlarida amak qiluvchi lisoniy va nolisoniy omollar borki, ularni o‘zaro uyg‘unlikda tadqiq etish kutilgan natijalarniolishga imkon yaratadi.

Matnning psixolingvistik belgilarga-yaxlitlilik, informativlik, bog‘lanishlik, kompressivlik kiradi.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”qissasida “Kun botishi bilan onam hovliga ko‘loblatib suv separ, kun bo‘yi oftob qizargan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo‘shilib ajib bir taravot taratar,atrof jimjit bo‘lib qolar edi” yuqoridagi belgilarni ko‘rishimiz mumkin.

Yoki O‘tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasida “Muqaddam ambulatoriyaga kirib kelganida anchagina odam to‘planib qolgan edi. U bir bolasini ovutayotgan, biri tinimsiz yo‘talyotyotgan bemorlar orasidan o‘tib, yo‘lak oxiridagi eshikni ochdi” yaxlitlilik, informativlik, bog‘lanishlilik belgilarini ko‘rishimiz mumkin. Matnni psixolingvistik tahlil etish haqidagi ayrim tadqiqotlarda uning kreollashtirilganlik, mantiqiy uzilish hamda interpretativlik xususiyatlari ham e’tiborga olinishi lozimligi haqida ta’kidlagan. Kreollashtirilganlik – o‘quvchiga ta’sir o‘tkazish maqsadida verbal hamda noverbal shakllarning uyg‘unlashtirilishini bildiradi. Mantiqiy uzilish – bizga ma’lumki matnda ketma – ket kelgan jumlalar mazmunan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Ana shu bog‘liqlilik kutilmaganda uzilib qolish mumkin. Shu hollarda mantiqiy uzulish ro‘y beradi.

V.P. Belyanin fikriga ko‘ra, har bir o‘quvchi muayyan matn haqida o‘z interpretatsiyasiga ega bo‘lishi mumkin. Matn o‘qish natijasida yuzaga keluvchi interpretatsiya xarakteri faqat matnning emas, o‘quvchining ham psixologik xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Залевскяа А.А. Введение в психолингвистику. Учебник для студенто высших учебных заведений. –М.,1999. –С.25

2. Durdona Xudoyberganova. Mattnning antroposentrik tadqiqi. Fan nashriyoti. -2013

3. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. Yangi asr avlodi. Toshkent – 2015

4. O‘tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. Sharq nashriyoti. Toshkent-2015

## SHAXSIY YOZISHMALARDA NOADABIY FONETIK UNSURLARNING VOQEALANISHI
## OCCURRATION OF UNUSUAL PHONETIC ELEMENTS IN PERSONAL CORRESPONDENCE

**E.O‘ralov**
***ToshDO‘TAU magistranti***

**Annotatsiya:** yshbu maqolada shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik unsurlarning voqealanishi bilan bog‘liq muammolar, sabablar va yechimlar haqida fikr yuritilgan.

**Abstract:** this article discusses the problems, causes, and solutions associated with the occurrence of abnormal phonetic elements in personal correspondence.

***Kalit so‘zlar:*** *shaxsiy, yozishmalar, xato, fonetika, muammo, tezaurus, me'yor, nutq, og‘zaki, yozma.*

***Key words:*** *personal, correspondence, error, phonetics, problem, thesaurus, norm, speech, oral, written.*

Xat yozish - bu barcha davrdagidek zamonaviy texnologiyalar asrida o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelayotgan aloqa usuli. Har bir tilga xos xususiyatlardan biri shu tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog‘liq vazifalariga ko‘ra ajratilishi. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda birbirlaridan ma'lum darajada farq qilish hodisasidir. O‘zbek tili “O‘zbek adabiy tili” sifatida: 1) so‘zlashuv ; 2) rasmiy; 3) ilmiy ; 4) publisistik; 5) badiiy uslublarni o‘z ichiga olgani holda biz maqolamizda “Shaxsiy yozishmalarda adabiy til me'yorlariga mos bo‘lmagan fonetik hodisalarning yuzaga kelish sabablari va bu bilan bog‘liq jihatlar”ni tadqiq etishdir.

Internetning paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning yangi modellari paydo bo‘ldi, asosan onlayn muloqotga asoslangan virtual jamoalarning shakllanishi.

L.V. Dubina Internetning ko‘rinishini yozma ko‘rinish bilan taqqoslaydi, bu esa nutqning yozma shakli paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu og‘zaki nutqdan farq qilar edi, faqat quloq bilan emas, balki ko‘z bilan idrok etilishi, shuningdek, idrok etish jarayonini vaqt oralig‘idan xalos bo‘lishiga imkon berganligi va shu sababli odamga imkoniyat yaratganligi bilan ajralib turardi .

Internetdan keng foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan inqilobiy bo‘lmagan o‘zgarishlarni e'tirof etgan holda "og‘zaki va yozma nutqning chegaralarining buzilishi"ni kuzatishimiz mumkin.

Hozirda shaxsiy yozishmalar asosan ijtimoiy tarmoqlarda olib borilishi tabiiy hodisa bo‘lib, bu jarayonda til adabiy til me'yorlariga bo‘ysunishi, aks holda qandaydir jazo chorasi ko‘rish qonun bilan belgilangmagan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekanligi belgilangan bo‘lsa, «O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonunga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi huquqiy hujjatning 3-moddasiga ko‘ra, “Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi” deb belgilangan. Mazkur qonun hujjatlari bilan birga O‘zbeksiton Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Qonunining 42-moddasiga ko‘ra, “Fuqarolarning tarbiya va ta'lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tillarini mensimaslik.... bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. [42-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019 y., 03/19/586/4106-son]

Qonunchiligimiz o‘zaro shaxsiy yozishmalarda insonning sha’ni, uning daxlsizligi va qonun bilan belgilangan boshqa huquqlarini himoya qilishni o‘z zimmasiga olgani holda tildan foydalanishning faqat umumiy holda faqat rasmiy hollardagina buzilishini ta'qiqlaydi.

Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalasi - Internetdagi rus tilining ishlash muammosi. Ushbu muammoga bo‘lgan qiziqishni ushbu mavzu bo‘yicha G.N.Trofimova, V.G. kabi olimlarning bir qator tadqiqotlari tasdiqlaydi. Kostomarov, V.M. Shaklayn, Yu.N.Karaulov va boshqalar. Tadqiqotchilar bir necha bor ta'kidladilarki, Internet o‘zaro aloqaning yangi usullari va til mavjudligining shakllarini olib kelgan maxsus kommunikativ muhit va tilni amalga oshirishning yangi sohasi. [М. Маркович. 8–9 февраля 2017 г.]

Internetdagi shaxsiy yozishmalarda til bilan bog‘liq yuzaga kelgan xatolar ko‘pgina rivojlangan davlatlardagi soha mutaxassilarini ham tashvishga solganki, til bilan bog‘liq savodsizlikning oshib ketishi xavfi. Biroq o‘zaro shaxsiy yozishmalarda orfografik, grammatik va uslubiy jihatdan qonun bilan bog‘liq qat'iy cheklovlarning mavjud emasligi natijasida adabiy til me'yoriga mos bo‘lmagan fonetik hodisalar ham voqealanishi tabiiy. Buday norasmiy xatlar asosan:

To‘y kuni, tug‘ilgan kuni, bola tug‘ilishi, universitetni tugatishi va h.k.;

To‘yga, uyga kelishga yoki boshqa bayramga taklif;

Taklif, rahmat yoki yaxshi maslahat uchun tashakkur;

Taklifnomani rad etish;

Kechirim yoki ta'ziya;

T.S. Ivanova Internet tilini nutqning yangi turi - og‘zaki-yozma nutq deb ham atash mumkin, deb hisoblaydi, chunki u "yozma va og‘zaki nutqning xususiyatlarini birlashtiradi, shuningdek, kompyuter aloqasi vositasida o‘z xususiyatlariga ega" . Internetdagi aloqa mavjudligining asosiy

shakli yozma shakl, ammo bu erda yozma nutqning barcha qonunlari buzilgan. Internetdagi nutq tuzilish nuqtayi nazaridan,shubhasiz, ogʻzaki nutqni nazarda tutadi, chunki bu birinchi navbatda dialoglar, suhbatlar va izohlar. Rasmiy oʻrinda yozma nutq har doim puxta oʻylangan, tartibga solingan, tekshirilgan va tuzatilgan, aniq, shu bilan birga Internet aloqasi asosan norasmiy boʻlib, koʻplab orfografik va leksik xatolar koʻp uchraydi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishmalarda soʻzlarning xato bilan yozilishida ikki jihat oʻrinli: 1. Imlo savodxonligining past ekanligi hamda hududga xos boʻlgan talaffuz. Masalan, soʻzlarda “X” va “H” harflarning farqlanmasligi, ushbu harflar ishtirok etgan soʻzlarning puxta bilmaslik bilan izohlansa, “U” va “Oʻ” “boʻladi→buladi”, “K” va “Q” “qanday→ kanday” hamda “I” va “E” harflarining oʻrnini almashishi ham imlo qoidasini bilmaslik ham shevaga xos fonetik hodisa sifatida baholanishi mumkin. Internet tarmoqlaridagi oʻzaro yozishmalarda noadabiy fonetik unsurlarni voqealanishiga shevaning ta'siri yaqqol koʻringan oʻrinlarga “A” va “O” “aka → oka”, “Y” va “J” “yoʻq”→ “joʻq” fonemalarining oʻrnining almashish holatini ham keltirish mumkin. Komp'yuter va mobil telefonlarda “Oʻ, Q, Gʻ, H” harflarining yoʻqligi bilan ham voqealanishini inobatga olish zarur. Biroq “kelyapman → kelopman → kevomman” kabi nodabiy fonet hodisalarni bunday deb boʻlmaydi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida bu masalani yechish uchun Tezaurus (yun. thesauros — xazina, boylik) —1) muayyan tildagi barcha soʻzlarni qamrab oladigan, ularning matnda qoʻllanish holatlarini toʻla-toʻkis aks ettiradigan lugʻatdan foydalanish tavsiya qilingan. Doimiy olib borilgan muayyan faoliyat uning odatga aylanishiga olib kelinishini inobatga olinsa ijtimoiy tarmoqlarda noadabiy fonetik hodisalarning voqealanishi bilan bogʻliq holat adabiy tilda ish yuritishda yangi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda sun'iy intellekt sifatida mobil aloqa vositalari uchun tezaurus ilovalarini ishlab chiqish yoki bundan koʻra mukammalroq loyihalarni amaliyotga joriy qilish oʻrinli deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mengliyev B. Hozirgi oʻzbek tili. T-20182. *Дубина Л. В.* Тенденции развития русского языка в условиях интернет-коммуникации// Вестник Томского государственного педагогического университета, выпуск 2- Т., 2013.

3. *Иванова Т.С.* Речевое поведение интернет-общения// Вестник Адыгейского государственного университета, выпуск 3, А. 2011. 3. *Кронгауз М.* Самоучитель олбанского. Издательство АСТ- Москва, 2013. 4. *Кронгауз М.* Русский язык на грани нервного срыва.

4. Знак- Москва, 2007. 5. *Лейчик В. М.* Люди и слова: как рождаются и живут слова в русском языке / отв. ред. Г. В. Степанов. 2-е изд-е, испр. и доп. М.: Либроком,2009. 6. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона, т.9а- Спб.1893 7. Платоник: Живой журнал. URL: http://platonicus.livejournal.com 8. Неформальная интернет-энциклопедия Луркморье, URL: http://lurkmore.to/Язык_падонков#

5. М.Маркович (Российский университет дружбы народов) Безграмотность И Антиграмотность В Русскоязычном Интернете.РУССКИЙ ЯЗЫК В ИНТЕРНЕТЕ: ЛИЧНОСТЬ, ОБЩЕСТВО, КОММУНИКАЦИЯ, КУЛЬТУРА. Сборник статей I Международной научно-практической конференции Москва, РУДН, 8–9 февраля 2017 г.

6. Lex.uz

## “BOBURNOMA”DAGI SIFAT LEKSEMALARINING TEZAURUSINI YARATISH
## CREATING THESAURUS OF ADJECTIVE LEXEMES IN “BOBURNAMA”

**P.Nabiyeva,**
***ToshDOʻTAU magistranti***

**Annotatsiya:** “Boburnoma”- Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari.Ushbu asarda 28000 ta soʻz qoʻllanilgani olimlar tomonidan aniqlanib, u koʻplab tadqiqotchilar eʼtiborini tortib keladi.Bu asar ustida koʻplab tadqiqotchilar ish olib borgan boʻlsa-da uning hali oʻrganilmagan masalalari ham yoʻq emas.

Maqola “Boburnoma” asari leksikasining lug‘at boyligi,undagi leksemalarning sinonimik qatori ,ushbu asarning tilshunoslikda tutgan o`rni, shuningdek hozirgi zamon talabi bo`lgan tezaurus termini, tezaurusning ahamiyati, undan foydalanish usullari haqida. “Boburnoma”da sinonimlar tezaurusini,xususansifat leksemalarining tezauresini yaratish muhim ahamiyatga ega vazifadir. Asarning tezauresini yaratishda til tarixi va kompyuter lingvistikasi sohasida ko‘plab yangi yutuqlarga erishishimiz shubhasizdir.

**Abstract:** “Baburnama” is a masterpiece of Zahiruddin Muhammad Babur. This book has received widespread acclaim from modern scholars. Scientists have determined that around 28,000 words were used in this work, which attracted the attention of many researchers. Even though many researchers have been working on this book, there are still some unsolved questions.

The article is about the vocabulary of the lexicon of “Baburnama”, the synonymous series of lexemes in it, the role of this work in linguistics, as well as the modern term thesaurus, the importance of thesaurus, methods of its use.

From this we can see that it is necessary to create not only adjective lexemes, but also other types of lexemes of “Baburnama”. By creating the thesaurus of this work, we can enhance new achievements in the field of language history and computer linguistics.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma” asari, sifat leksemalar, sinonimik qator, tezaurus, lingvistikada tezaurusning ahamiyati.

“Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma’rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti….” O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

“Boburnoma” XV-XVI asr eski o`zbek adabiy tili leksik xususiyatlari mujassamlangan qomus. “Boburnoma” o`sha davrning lug`at tarkibi, fonetik,leksik grammatik xususiyatlarini o`rganishda ,turkiy til taraqqiyoti,turkiy leksemalar semantikasi, o`zbek tili tarixiy lelsikologiyasi, Boburning so`z qo`llash mahoratini yoritishda muhim ahamiyatga ega. [Xolmanova Z,2009]

“Boburnoma”da muallifning tilga munosabatitilshunoslikka oid qarashlario`z ifodasini topgan.Bunda birinchi navbatda “Boburnoma”ning o`zbek tili tarixini o`rganish,lug`aviy sath qonuniyatlarini ohish,o`zbek adabiy tili leksikasining taraqqiyotini tahlil qilishda manba sifatidagi ahamiyatini qayd etish lozim. [Bobur ensiklopediyasi. 2014,172-173-b]

Ushbu asarda so`zlarning sinonim, antonym, omonimlar paradigmasi aks etgan bo`lib, sinonim so`zlarda darajalanish xususiyatlarini ko`rishimiz mumkin. Masalan,….G`allasi mo`l, mevasi ko`p,qovun va uzumi yaxshi bo`lardi…,Andijonning noshvotisidan yaxshiroq noshvoti bo`lmas…,..qirg`ovul behad semiz edi…,…bahori juda yaxshi bo`lardi..,…bu hujra ham ko`p yaxshi joyda qad ko`targan…,..ovlanadigan qushlari behad yaxshi bo`ladi(29-bet) Bularda Bobur yaxshi sifatining darajalaridan foydalangan.

“Boburnoma” asari o‘zida mujassam etgan ma’nodosh so‘zlar bilan ham katta e’tiborga loyiqdir.Asarda kishini lol qoldiruvchi sinonimik boylik eng avvalo o‘zbek tilining xususan, eski o‘zbek tilining ma’nodagi ifodalar ko‘pligi bilan kitobxonni hayratga solidi.

**Tezaurus** (yun. thesauros -xazina, boylik) - muayyan tildagi barcha so‘zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo‘llanish holatlarini to‘la-to‘kis aks ettiradigan lug‘at. Jonli tilning lug‘at tarkibi doimo o‘zgarib turishi sababli tezaurus faqat o‘lik tillar materiallari asosida yoki oldindan belgilab olingan yozma yedgorliklar uchun tuzilishi mumkin. Muayyan yozuv yodgorliklaridan leksikani yoppasiga terib olishga asoslangan lug‘atlar (mas., yunon, lotin tillariga tuzilgan lug‘atlar) shunday lug‘atlardan hisoblanadi.

Turkiyshunoslikda A. K. Borovkov, E. I. Fozilov, A. Najiblarninglar turkiy yozma yedgorliklari asosida tuzilgan lug‘atlari ham glossariy, ham tezaurus belgilariga ega. So‘z tanlash prinsipiga ko‘ra yozuvchilar yoki ular ijodiga mansub ayrim asar tili bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar ham tezaurus hisoblanadi; Biron-bir ilm-fan sohasiga oid lug‘aviy birlik (so‘z) lar mavzu tartibida joylashtirilgan va ana shu birliklar o‘rtasidagi semantik (turjins, sinonimik va b.) munosabatlar aks ettirilgan ideografik lug‘at. Bunda so‘zlar alifbo tartibida emas, balki bir mavzu, bir tushunchaga aloqador so‘zlarning barchasi bir joyda beriladi: kerakli so‘zlar tushunchaga qarab qidiriladi. [1В.О.Толчеев, 2004 г.]

Tezaurus so‘zlar takrorlanishidan, potensial bir-xillikni haddan tashqari ishlatishdan qochishga yordam beradi.Ular keng tarqalgan yoki yoqolib borayotgan so‘zlarning ‘rnini aniqlash uchun ishlatiladi.Muqobil lug‘at yordamida til boyib boradi.

Tezaurusdan qanday foydalanish kerak?

Agar siz haddan tashqari ko‘p ishlatgan so‘zni boshqasiga almashtirishni hohlasangiz, shunchaki so‘zni tezaurusda qidiring va muqobil variantini toping.Ushbu muqobil variant sinonimlar hisoblanadi. Ba’zan sinonimlar asl so‘z bilan bir xil ma’noga ega bo‘lmaydi. [James Leslie, Dictionary of the Synonymous Words and Technical Terms in the English Language (1806)[14]]

Nazariy jihatdan tezaurus leksika tizimining ehtimoliy modellaridan biridir. Amadda undan yozuvchi individual lug‘atini boyitish vositasi sifatida foydalaniladi.

“Boburnoma” asari uchun ko`plab lug`atlar tuzilgan bo`lib, Bobur ijodiga katta qiziqish bilan qaragan adabiyotshunos, tilshunos olim Mirzaaxmad Olimovning “Boburnoma”da qo‘llanilgan sinonimlar lug‘ati o‘zbek tilshunosligidagi yozma yodgorliklar tili bo‘yicha yaratilgan birinchi sinonimik lug‘at hisoblanadi. Tilshunoslikda muayyan tilning o‘z so‘z yasash vositalari va so‘z yasash usullari yordamida o‘zlashgan qatlamdan yasalgan so‘zlar shartli ravishda bo‘lsa ham o‘z leksikasiga kiritiladi. Asarda 743 ta sinonimik paradigma bo`lib unda 2476 ta so`z qatnashgan.Bobur ma`lum bir ma`noni ifodalashda so`zlardan unumli va mohirona foydalangan. Sinonimlardan shunday qo`llaganki, har bir so`zning mazmuni aniq,go`zal va chuqur idrok etilgan holda yozilgan.

Asardagi sinonimik paradigmalar soni 2 so`zdan 12 so`zgachani tashkil etadi.Bulardan 3-5 so`zdan tarkib topgan sinonimik paradigmalar ko`p miqdorni tashkil qiladi.Unda sifat leksemalari sinonimiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushoq-kichik, yorug‘-charog`on-ravshan, qiyin-dushvor-shoqq-muntazar-mushkul, chuchuk-shirin-laziz-lazizlik-mazalik-xush maza-xush ta`m. [Xolmanova Z.Toshkent,2009]

Masalan,…Bir nav anori bo`ldai: yirik dona deydilar, chuhukligidan, biroz o`rik shirinligicha ta`mi bor… Bunda chuchuk so`zi asl turkey so`z, chunki –uq,-uk,-ik sifat yasovchi qo`shimcha hisoblanadi, Shirin so`zi esa fors-tojik tilidan o`zlashgan o`zlashma so`z hisoblanadi. Laziz so`zi esa lazzat so`zidan kelib chiqqan bo`lib, u arabcha so`z hisoblanadi. Asardagi ko`plab sinonimlar mana shu uch tilning o`zaro munosabati va ta`siri asosida yuzaga kelgan. Quyida sifatlar sinonimiyasini ko`ramiz:

| | | |
|---|---|---|
| Turkiy | forsiy | Arabiy |
| Qiyin | dushvor | Mushkul |
| Oriq | | Xarob |
| Yashurun | | Maxfiy,sirriy |
| Keng | | Vasi` |
| Sovuq | Sard | |
| Yoruq | Charog`on,ravshan | |
| Issiq | Garm | |
| Yomon,yaramas, | Bad,ganda | |
| | baland | Murtafe` |
| | ravshan | Ayon |
| | Past,rezapoy | Adno |
| Baland | | Murtafe’1 |

Eski –ko`hna-qadim sifatlarida biz darajalanishni ham kuzatishimiz mumkin. Narsa-buyum,belgi,harakat-holatni turlicha darajalab atovchi leksemalar –graduonimlar deb yuritiladi.[Ne`matov H.,Rasulov Toshkent:,1995.105-110-bet]

Yuqorida keltirilgan dushvor-qiyin-shoqq-mutaazzir-mushkil sinonimik qatorni Bobur shunday yozgan :

1.Tengri taolo o`z fazl va karami bila mundoq dushvor ishni bizga oson qildi va andoq qalin cherikni yarim kunda yer bila yakson qildi.

2.Qiying`akim tutar,mazkur bo`lg`ondek birin-birinsharhi bila aytar.

3.Bisyor shoqq va dushvor keldi.

4.Takob bila yurumay tog` bila yurur xiyol qilsalar, ubur mutaazzirdur.

5.Hol anga mushkuldur.

Oriq-xarob

Lamg`ong`a ham otlari orig`ligidin qalin cherik yondi. Munda kelganlarning ham otlari andoq xarobturkim, bir kun qatrar majoli qonmaydur..

Mashhur ashhar-nomdor-el tonigudek-bilguluk

1. Mozu qo‘rg‘oni ul oraa rustliq bila *mashhur* qo‘rg‘ondur;…ul jumladin bir *ashhar* olmos edikim, Sulton Alouddin kelturgan ekandur.
2. Samarqand va Buxoroda *nomdor* jangaralar aksar marg‘inoniydur.
3. Mundoq sipohiy va*el tonigudek* yigitlaridin xili bor edi.
4. Qo‘rg‘on ichidagi sipohiylaridin *bilguluk* kishilardin biri Malik Dod Kironiy edi.

Baland-murtafe’

1. Agarchi u tog‘larcha baland emastur, ko‘zga haqir ko‘rinur, vale g‘arib berk tog‘lardur.
2. Bu ark g‘arib mertafe’ va yaxshi havoliq yer voqi’ bo‘libtur.

Badnamo-badhay’at-badandom

1. Muning badnamolig‘i bor (bu yerda sifatdan mavhum oti yasalgan)
2. Tanasi badnamo va badandomdur.
3. Bir ko‘zi ko‘r edi, g‘arib badhayat edi.

Yomon-yaramas-ganda-bad

1. Menga arzadoshti kelib edi,inshosi ham yomon emas.
2. Bu asnoda 1-2 ish yaramasroq bo`ldi.
3. Boshsiz o`zbak tushidan rez qilib bu gandani va tortiq peshkash va kishi-qorasini tirt-pirt qilibturlar.
4. Chu bad kardi,mabosh emin zi ofot.

Ulug`-biyik-oliy-a`zam-azim-uzmo-buzurg/buzurgvor-kabir/akobir-irik-kulliy-jasim

1.Sulton Ali Mirzo ulug` yigit bo`lube di.

2.Muncha oliy toq olamda kam nishon berurlar.

3.Haydar Ko`kaltosh mo`g`ul cherikining rukni a`zami edi.

4…..agarchi mrndin azim gunohlar sodir bo`ldi ,vale umidim borki,inoyat qilib gunohimni bag`ushlab…..

5.Fil zimul- jussa,ziyrak jonivordur.

6.Voqe`ai uzmokim junm`a kuni rabitulavval oyining o`n oltisida tarix to`qquz yuz o`ttuz uchta ro`y berdi.

6.Andin so`ng o`ttuz qirq barg shoxining uchida bir yerdin o`q irikrak panja uradur.

7.Samarqand eliga bu kulliy shikast edi.

Shirin-chuchuk-laziz/lazizlik-choshniliq-mazalik-xushmaza-xushta`m.

1.Bisyor zo`r va shirinharakot kishi edi.

2.Bangola qaylalari bisyor chuchuk bo`lure mish.

2.Tong boshida el chuchuk uyquda edi.

3.Oncha laziz teva eti hargiz yeyilgan emas edi.

4.Udin mazalik cholib,mazalk nimadur aytur edi.

5.Yana Muhammad Solih edi, choshniliq g`azallari bor. [Zahiriddin Muhammad Bobur.Toshkent.”O`qituvchi”,2008]

6.Sharbati bisyor xushta`m va xushmaza bo`ladur

Bunday sinonimik qatorlarni asarda juda ko`p uchratamiz. Bundan tashqari fe`l-atvorni bildiruvchi sifatlar sinonimiyasi, antonimiyasi va omomnimlar asar tilini yanada go`zallashtirgan .

Yumshoq-muloyim-narm

1.Gohi uzur kelturub, gohi yumshoq so`z aytur edi.

2.Bu navbat avvalgidin muloyimroq hikoyat qildilar.

3.Narm javob aytib,balki ul sari bo`lg`ondek qilib elchiga ruxsat berdi.

Yaxshi-o`bdon-xo`b-durust-nag`z.

1.Bu elning ***yaxshi*** mahsuli ro`yandur.

2. ***O`bdon-o`bdon*** beklarni va yaxshi-yaxshi yigitlarni tushurub kelturdilar

3…..hech kim oncha ko`p va ***xo`b*** aytqon emas…

4.Sabohi bu orolni ***durust*** suv bosti

5.Nag`zaki mo *nag`z* kuni bo`ston

Nag`ztarin mevai Hinduston [Olimov.M ”Fan”.2004.]

Shunday qilib, “Boburnoma”da 348 ta sinonimik qator mavjud bo`lib bu kabi misollarni ko`plab ko`rtirishimiz mumkin. Bobur o`zining shoh asarida so`zlardan unumli foydalangan, Avlodlarga mazmunli va ibratomuz asarlar qoldirib tilshunoslik sohasiga katta hissa qo`shgan.

## ЎЗБЕК ВА ТУРК ПАРАЛЛЕЛ МАТНЛАР КОРПУСИНИ ЯРАТИШ АСОСЛАРИ
## FUNDAMENTALS OF CREATION OF UZBEK AND TURKISH PARALLEL TEXTS BODY

**М.Акрамджанова**
***ЎзМУ магистранти***

***Аннотация:*** *м*ақолада компьютер лингвистикаси, корпус, унинг турлари, параллел матнлар корпуси, унинг тил тараққиёти, илмий тадқиқотлардаги ўрни масалалари ёритилган. Ўзбек – турк параллел матнларининг туркология тадқиқотларидаги аҳамияти кўрсатиб берилган. Параллел матнлар корпусининг тил тараққиётидаги ўрни таъкидланган.

**Калит сўзлар:** *компьютер лингвистикаси, матнлар корпуси, параллел матнлар корпуси, туркологияга оид тадқиқотлар*.

**Abstract:** the article deals with the issues of computer linguistics, the corpus, its types, the corpus of parallel texts, its language development, its role in scientific research. The importance of Uzbek-Turkish parallel texts in Turkological research is shown. The role of the body of parallel texts in language development is emphasized.

**Keywords:** computer linguistics, text corpus, parallel text corpus, Turkology research.

XX асрнинг 40-йилларида компьютер лингвистикаси янги йўналиш сифатида юзага келди.

Компьютер лингвистикасининг автоматик таржима, автоматик таҳрир, тил ўқитиш жараёнини автоматлаштириш, табиий тилни қайта ишлаш, корпус лингвистикаси каби бир қатор йўналишлари мавжуд бўлиб, корпус лингвистикаси бугунги кунда алоҳида соҳа сифатида ривожланмоқда.

*Корпус* (korpus) лотинча сўз бўлиб, «тана» деган маънони билдиради. “Корпус сўз, сўз бирикмаси, грамматик шаклларни, сўз маъносини муайян қидирув тизими орқали топишни англатувчи электрон кўринишдаги матнлар жамланмасидир”[1] Дунёнинг ривожланган метатилларида корпуслар яратилган. Корпуснинг тадқиқотлар корпуси, муаллифлар корпуси, параллел матнлар корпуси каби турлари мавжуд.

Параллел матнлар корпуси икки тилли (ўзбек-инглиз, рус-инглиз) ва кўп тилли (рус-инглиз-француз) бўлиши мумкин.

Корпус лингвистикасида ўзбек-турк параллел матнлар корпуси муҳим аҳамият касб этади. Ўзбек-турк параллел матнлар корпуси ўзбек ҳамда турк тилларидаги бадиий асар, қўлланма, оммавий ахборот воситалари, турли хил ҳужжатларнинг икки ёки ундан кўп тиллардаги электрон кўринишларидир. Бундай корпуслар туркологияга оид тадқиотлар учун аҳамиятлидир.

Ўзбек – турк параллел матнлар корпуси изоҳли луғат, қўлланма, ўқув адабиётлари матни бўйича тузилган корпуслар ҳисобланиб, тиллар ўртасидаги умумий ва фарқли жиҳатларни кўрсатишга қаратилади.

[1] http://ruscorpora.ru

Ўзбек ва турк параллел матнлар корпусидан ўзбек тили тарихи, туркий тиллар қиёсий-тарихий грамматикаси, семантика фанларини ўқитишда маълумотлар базаси сифатида фойдаланиш мумкин. Ўзбек ва турк тилидаги бадиий асарлар мазмунини ўзлаштириш, сўзлар мазмунини ёритиш, концептуал таҳлил қилиш, матн лингвистикаси асосларини, ҳар икки тилга хос фонетик, грамматик, лексик хусусиятларини ўрганишда параллел матнлар корпусининг аҳамияти катта.

Ўзбек-турк параллел матнлар корпуси умумтуркий ёзма манбаларнинг қиёсий планда ўрганилишга замин яратади. Уларнинг ҳозирги ўқувчиларга тушунарли бўлишини таъминлайди. Бунда, албатта, табдил ва изоҳлардан фойдаланиш керак бўлади. Масалан, “Қутадғу билиг” матнини ўзбек-турк параллел матнлар корпусига шунчаки киритиш етарли эмас.

*Uqušqa biligkä bu tïlmač tïl, yaruttačï erni yorïq tilni bil* – Уқувга, билимга тилмоч – бу тил, кишини рўшноликка чиқарган равон тил деб билгин [1, 158; 13а7]. Тил орқали киши юксалади, қадр топади. Байтда *tïlmač* метафорани юзага келтирган.

*Aγïzdïn ara ot ara suw čïqar, birisi yapuγli birisi yïqar* – Оғиздан гоҳо ўт, гоҳо сув чиқади, бири тузади, бири бузади (ҚБН, 2646; 100b14). Байтда муаллиф беқиёс истиора намунасини келтирган. Оғиздан чиқадиган сўз ўт (олов) ва сувнинг хусусиятлари билан ифодаланган. Достон матнида таъкидланганидек, ёмон сўз олов каби барча экинларни пайҳон қилади, яъни ёмон сўз инсонларнинг дилини вайрон қилади. Яхши сўз зилол сув кабидир. Сув бор ерда анвойи неъматлар унади. Яхши сўз ҳам кишилар қалбига яхшилик уруғини сочади. *Ўт* ва *сув* тушунчаларидаги семантик зидлик метафорага асос бўлган [2].

Кўринадики, корпус табиатидан келиб чиққан ҳолда, ўзбек-турк параллел матнлар корпуси ҳозирги замон ўзбек, турк тилларидаги матнлар билан бирга, ўрни билан, тарихий матнларни ҳам ўз ичига олади. Бундай корпуслар ҳар икки тил тараққиёти учун хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.”Қутадғу билиг”. Қ.Қаюмов нашри. -Т.,1972.

2.”Қутадғу билиг” лексикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори... дисс. автореф.-Т.,2019.-17 б.

# TIL NAZARIYASIGA OID MASALALARNING TA'LIM BOSQICHLARIDA O'RGANILISHI

## O'QUVCHILARDA INSHONING TASHKILIY-TEXNIK JIHATLARIGA DOIR BILIM, KO'NIKMAVA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH TO DEVELOP STUDENTS' KNOWLEDGE, SKILLS AND COMPETENCIES IN THE ORGANIZATIONAL AND TECHNICAL ASPECTS OF ESSAY

**T.Yusupova**
***ToshDO'TAU dotsenti,***
***pedagogika fanlari nomzodi***

**Abstract:** in this article the formation of knowledge, skills and abilities of students in the organizational and technical aspects of the essay are described, identifies and classifies, classifies, interprets text errors in the creative writing of high school students, writing essays (text creation) the knowledge, skills, and content that must be learned in the process are defined.

**Key words**: essay, organizational and technical aspects of an essay, indention, speech, text, knowledge, skills, epigraph.

Matniy xatolar va ularning kelib chiqish sabablarini anglashga, matniy xato-larning oldini olish va ularni bartaraf qilishga yordam beradigan nazariy asoslar – har bir holat nuqtayi nazaridan tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompeten-siyalarni ajratish hamda ular ustidagi ishlarni rejalashtirish uchun keng imkoniyat-lar yaratadi. Matniy va matniy bo'lmagan xatolar ustida ishlashda, o'quvchilar uchunmo'ljallanadigan matn tuzilishi bilan bog'liqbilimlarni tavsiflashdaularga farqli yondashish tamoyilidan kelib chiqiladi: ayrim xatolar ko'pchilikka xos bo'lsa, ba'zilari bir-ikki o'quvchining yozma ishidagina uchrashishini ko'zda tutish, dastur va darsliklarda mavjud yoki mavjud emasliklarini hisobga olish, shu asosda yoshlarga beriladigan ba'zi nazariy ma'lumotlarnibelgilash, ayrimlarini dars va darsdan tashqari holatlarda, ya'ni boshqa qilinadigan ishlar bilan bog'liq jarayonlarda ham amaliy o'rgatish chorasini ko'rish lozim. Shunday tashkil qilish vaqtni to'g'ri taqsimlash va ortiqcha takrorlarga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

Matniy xatolar va ularning kelib chiqish sabablarini anglashga, matniy xato-larning oldini olish va ularni bartaraf qilishga yordam beradigan nazariy asoslarni o'rganish maqsadida ko'plab manbalarga murojaat qilindi. Manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, A.Aliyev, S.Dolimov, S.Ismatov, Q. Ahmedov, B.Turdiyev, O.Mada-yev, K.Qosimova, R.Abdulahatova, N.Shukrullayeva, R.Inog'omova, N.Sattorova-larning nomzodlik dissertatsiyalari va usuliy qo'llanmalarida o'quvchilarni insho yozishga o'rgatishning ayrim jihatlari yoritilganligining guvohi bo'ldik.

Insho haqidagi fikrlar izchil berilgan qo'llanma sifatida O.Madayev, A.So-birov, Z.Xolmonova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyevalarning "Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant" nomli o'quv qo'llanmasini keltirish mumkin. Unda yozma ish turlari, insho haqida nazariy ma'lumot, insho mavzusini shakllantirish va tanlash, insho rejasini tuzish va tezis sifatida shakl-lantirish, inshoga epigraf tanlash, unga material to'plash, insho yozishga tavsiyalar, insho yozish jarayonini tashkil etish kabi masalalar yoritib berilgan [4].Ammo matniy xatolar mohiyati, ularning tasnifi, kelib chiqish sabablari haqidagi ma'lumotlar deyarli yo'q.N.Sattorova "O'quvchilarda insho yozish malakalari takomil-lashtirish" nomli nomzodlik dissertatsiyasida 5-sinf o'quvchilarini insho yozishga o'rgatish masalasini tahlil qilish va tavsiyalar berish maqsad qilib qo'yilgan [6].

Aynan biz tahlilga tortmoqchi va tavsiyalarimizni ishlab chiqmoqchi bo'lgan adabiyot sifatida mavzu R.Yo'ldoshev va M.Rixsiyevalarning "Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi" metodik qo'llanmasida nisbatan chuqurroq o'rganilganligi ayon bo'ldi. Ushbu qo'llanmada umumta'lim maktab-larining yuqori sinf o'quvchilari yozgan ijodiy yozma ishlardagi matniy xatolar aniqlanib, tasniflangan, izohlangan, insho yozish (matn yaratish) jarayonida bilish shart bo'lgan bilimlar mundarijasi belgilab erilgan, ushbu yo'nalishda amalga oshi-rilgan ishlar

metodikasi yoritib berilgan[1].Mazkur metodik qo‘llanma o‘qituv-chilar uchun nafaqat insho, balki boshqa ijodiy ishlar (ijodiy matn, bayon, esse)ni tashkil qilish, o‘tkazish hamda ularni baholashda asoiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Matnning mazmuni vatuzilishini o‘rgatishda doimiy va uzluksiz zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar mavjud. Ularni quyida-gicha guruhlash mumkin. Ularni katta 4 ta guruhga ajratish maqsadga muvofiq: a) inshoning tashqi tashkiliy-texnik jihatlari; b) yozma ishning (inshoning)mazmu-niy-mantiqiy bayon qilinish jihatlari; d) matndagi xatboshilarning vazifaviy-ma’noviy turlari bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma, malakava kompetensiyalar; e) matn yaratish bilan bog‘liq konikma, malaka va kompetensiyalar.

***Inshoning (yozma ishning) tashkiliy-texnik jihatlari haqida*** gap ketganda, dastavval, ***xatboshi*** masalasiga to‘xtash lozim.Xatboshi haqida o‘quvchilar tasavvurga egami? –degan savol tug‘ilishi tabiiy. Unga javoban “Boshlang‘ich ta’lim bo‘yichayangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti”da keltirilgan quyidagi talablarni keltirib o‘tamiz: “***gap va matn, matnning tuzilishi: mavzu, voqea tafsiloti, asosiy fikr bayoni, xulosa chiqarish, sarlavha, xatboshi, dialog, monolog gaplar, bayon, kichik insho, og‘zaki yozma ijodiyat***”[2; 6-b.]. Ko‘rinib turibdiki, xatboshi haqidagi ma’lumotlarni o‘quvchilar 5-sinfga qadar ma’lum darajada o‘rganishgan. Demak, standart va dastur talabidan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘quvchilarga matnga doir bilimlar boshlang‘ich sinflardanoq o‘rgatilgan, bilim va ko‘nikmalar shakllantirilgan. Umumiy o‘rta ta’limning “Uzviylashtirilgan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi”ning “Ona tili” qismida xatboshi haqida quyidagilarni ko‘rish mumkin: 7-sinfning “Malakalar” ruknida “xatboshilarni to‘g‘ri ajratish” deb qayd etilgan [3; 11-b.]. Dasturlar tahliliga ko‘ra xatboshilar haqidagi zaruriy bilmlar ularda asosiy o‘rin egallamagan. Demak, bunday holatda o‘qituvchi xatboshi haqida o‘quvchilarda ular uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilishda ular qo‘l qo‘yadigan matniy xatolarni nazarda tutishi lozim. Buning uchun bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar ustida amaliy ish olib borilishi shart.Dastavval, o‘quvchilarga ***bilim*** sifatida quyidagilar tushuntirilishi o‘ta muhim: a) har qanday insho (yozma ish) xatboshi orqali boshlanishini, b) xatboshilarni bir-biridan ajratishni, ularda ichki o‘ziga xos kichik mavzu ifodalanishini, d) dialogli gaplarning oldidan tire qo‘yib xatboshini boshlashni, e) she’rning birinchi misrasi (qatori) strning qayeridan boshlangan bo‘lsa, keying misralar ham shu joydan yozilishini, f) agar xatboshi doirasida tasnif keltirilayotgan bo‘lsaularning har biri xatboshidan yozilsishi, g) xatboshi tarkibida she’riy misralar keltirilsa va u muallif gapi bilan yakunlansa, ushbu gapning xatboshidan yozilmasligini zaruriy bilim sifatida o‘quvchiga tushuncha berish zarur. Bu zaruriy bilimlar natijasi o‘laroq, o‘quvchida quyidagi ***ko‘nikmalar*** hosil qilinadi: a) rejaning punktlariga qarab, har bir kichik mavzularning ichki chegarasini aniqlay olish; b) shu asosda navbatdagi kichik mavzuga daxldor birinchi gapni xatboshidan yozish. O‘quvchida bilim sifatida qabul qilingan 6 ta tushuncha asosida bu 2 ta ko‘nikma hosil qilinadi. Bu ko‘nikmalar natijasi o‘quvchida inshoning (yozma ishning) birinchi gapini xatboshidan boshlash, rejada ko‘rsatilgan punktlar asosida har bir kichik mavzularning ichki chegarasini his etgan va mazmunini tasavvur qilgan holda har bir punktdagi daxldor bayonlarini xatboshidan yozish malakasi shakllantiriladi.

O‘quvchilarga xatboshi yuzasidan beriladigan bilimlar haqida ma’lumot berilganda, bir gapning o‘zi tugal fikr anglata olmasligi haqidagi tushunchani ham singdirish lozim. Bu haqda G.Urumbayeva ham “… monolog – bu fikrlarning so‘z shakliga o‘ralgan uyushgan tizimi” sanalishini, monologik nutqda ba’zan tugal fikr bir gap doirasiga sig‘masligini, binobarin uni ifodalash uchun o‘zaro bog‘langan gaplar guruhi talab etilishini ta’kidlab o‘tadi [7].Monologik nutqda ba’zan tugal fikr bir gap doirasiga sig‘masligi va uni ifodalash uchun o‘zaro bog‘langan gaplar guruhi talab etilishi haqida nazariy bilimlarning berilishi, asosan, 5-6-sinflar uchun xos. Biz bu nazariy-amaliy bilimlarning o‘quv yili va ta’lim bosqichlari bo‘yicha uzviylik va izchillik bilan taqsimlanishini va o‘quvchilar e’tiboriga oz-ozdan taq-dim etilishini tavsiya etamiz. Yuqori sinflarda esa xatboshi (abzas) doirasida tasnif-larni, dialogli gaplarni va she’riy materiallarni matnga kiritish tartibi alohida bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiya sifatida egallanishi lozim. Bu materiallarni amaliy ko‘rsatish maqsadida mos matnlardan foydalanishni tavsiya etamiz.

Boshlang‘ich sinflarda xatboshi, kichik mavzu haqida o‘quvchilrga zaruriy bilimlar beriladi, ular bu haqda nazariy va amaliy tushuncha hosil qilgan. Shuning uchun ham yuqori sinflarda bu nazariy va amaliy tushunchalar xotirada qayta tiklanishi lozim. Buning uchun darslikdagi 2-3 xatboshidan iborat matnlardan biri tanlanib, *xatboshi, kichik mavzu*kabi tushunchalarni oydinlashtirishga qaratilgan savollar asosida tahlil uyushtirilishi maqsadga muvofiq.

Bizningcha, bunga oydinlik kiritish uchun dastavval ikkita holatga e’tiborni qaratish lozim: a) tasniflar; b) dialogli gaplar. Bu haqda R.Yo‘ldoshev va M.Rix-siyevalarning “Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi” metodik qo‘llanmasida ham aynan shunday tasnif berilganining guvohi bo‘lamiz [1]. Bizga ham aynan shu tasnif ma’qul, chunki shu holatlar asosida o‘quvchilarda inshoning (yozma ishning) tashkiliy-texnik jihatlari yuzasidan ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish imkoni mavjud. Albatta yuqori sinflarda sinflar kesimida har bir sinf o‘quvchilari yoshi va o‘zlashtirish darajalari hisobga olingan holda 2-3, 3-5, 4-7 xatboshidan iborat matnlar asosida kichik mavzu va xatboshi tushunchalari savol-javoblar va amaliy ishlar yordamida xotirada tiklab olinadi. Bunda matnlarning nasriy va she’riy janrda, mavzuning rang-barang ekanligi ham kata ahamiyatga ega. Matn tarkibidagi xatboshilar soni aniqlanadi va raqamlanadi. Raqamlar esa ayni shu xatboshi qanday mazmunda ekanligini belgilaydigan mavzular bilan nomlanadi.Masalan, davrga moslab *bahor, yoz, kuz, qish*mavsumlari haqidagi matnlar ustida ish olib boorish mumkin.Unda, biz bilamizki, shu faslga xos belgilar alohida xatboshilarda mufassal aks etadi. Shu xarakterli jihatlariga asoslangan holda raqam va mavzular bilan tasniflanadi. Demak, o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligida olib borilgan bu amaliy mashg‘ulot yoki dars o‘quvchida yozma ishning tashkiy-texnik jihatlarini to‘liq egallashi va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishini ta’minlashga yaqindan yordam beradi.

Inshoning (yozma ishning) tashkiliy-texnik jihatlari haqida fikr yurtishda diqqatni yana bir masalaga – ***insho (yozma ish) rejasini tuzish***masalasigaqaratish kerak.To‘g‘ri, insho (yozma ish) rejasini tuzishda kichik mavzularni mo‘ljallay olish muhim o‘rin tutadi. Uhsbu jarayonda quyidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar ustida ish olib borilishi shart. Dastavval, insho rejasining vazifasini bilishi, insho mavzusi, ya’ni sarlavhasi bosh mavzu ekanligi va kichik mavzularning katta mavzu mazmuni chegarasidan chetga chiqmasligi kerakligi haqida ***tushuncha (bilim)*** berilishi kerak. O‘quvchilarda ayni shu mavzular asosida inshoda nimalar haqida so‘z yuritmoqchi ekanligi haqida tasavvur qilish va reja punktlaridagi fikrlarning mantiqiy izchilligiga amal qilgan holda fikrlash va so‘z yuritish ko‘nikmalari hosil qilinadi.

O‘quvchiga reja tuzdirishda bitta mavzudangina foydalanishdan ko‘ra, kamida 3-4 ta mavzu berilishi maqsadga muvofiq. Chunki o‘quvchi reja tuzishda ko‘proq ma’lumotga va tasavvurga ega mavzuni tanlshi inshi (yozma ish) rejasini tuzishda ham erkin, ham faol shug‘ullana oladi. Shuningdek, bir-birlarinikidan foydalanmaslikka ham harakat qiladi. Bu esa mustaqil fikrlash va individual ishlash ko‘nikmasining shakllanishi muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda insho (yozma ish) rejasining vazifasini bilish, insho mavzusi – sarlavhasi bosh mavzu ekanligi, rejaning punktlari (qismlari) bosh mavzuni yoritish ko‘lami va izchilligiga xizmat qilishi kabi ***bilimlar***, insho (yozma ish) da nimalar haqida so‘z yuritmoqchi ekanligini (har bir punktidagi mavzularda) tasavvur qilish va shular asosida bosh mavzudan chetga chiqmagan holda reja qismlarini ta’riflay-tavsiflay olish kabi ***ko‘nikmalar***, insho rejasini va uning qismlarini mustaqil tuza olishi va to‘g‘ri tariflash-tavsiflash kabi ***malakalar*** hosil qilinishi kerak.

Inshoning (yozma ishning) tashkiliy-texnik jihatlaridan yana biri – ***insho uchun epigraf tanlash*** masalasidir. O‘quvchilarga bu borada epigraf uchun insho mavzusiga va g‘oyasiga mos ravishda hikmatli so‘z, maqol yoki badiiy asardan parcha tanlash kerakligi va uni asosiy matndan avval o‘ng burchakda yozish, tegishli tinish belgisini qo‘yish, badiiy parcha muallifini qavs ichida ko‘rsatishzarurligi kabi ***bilimlar*** uqtiriladi, tegishli manbalardan epigraf uchun insho mavzusiga mos hikmatli so‘z, maqol va badiiy parcha tanlash ishini amaliy ish sifatida bajartirish orqali ularda ***ko‘nikmalar*** hosil qilinadi, ulardan insho mavzusi va g‘oyasiga mosining tanlanishi va sahifaga joylashtirilishi jarayoni esa ***malakalar*** shakllanayotganidan darak beradi. Shuningdek, sitata (havola), she’riy misralar, rivoyat yoki hadis kiritish masalasi ham epigraf tanlashdagi kabi amalga oshiriladi.Bu o‘qituvchidan o‘quvchilarga ularni matn ichiga joylashtirishga doir qo‘shimcha

ma’lumotlar berish talab etiladi. Buning uchun o‘qituvchi bu masalani adabiyot darslarida o‘rganiladigan nazariy materiallarni, ya’ni asar haqidagi ma’lumot, yozuvchi yoki shoirning hayoti va ijodiy faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kuzatish, o‘rganish, tahlil qilish, izohlatish va tushuncha hosil qilish choralarini ko‘rishi lozim.

Demak, ***inshoning (yozma ishning) tashkiliy-texnik jihatlari haqida*** gap ketganda, dastavval, ***xatboshi***, keyin ***insho (yozma ish) rejasini tuzish***, va nihoyat ***insho uchun epigraf tanlash*** masalalari haqida o‘quvchilarga nazariy va amaliy beriladi, konikmalar hosil qilinadi, malakalar shakllantiriladi, mustaqil ravishda ham bu ishlarni bemalol amalga oshirish qobiliyati paydo qilinadi. O‘quvchilarning inshoning (yozma ishning) tashkiliy-texnik jihatlari haqidagi tasavvurlari va unga amal qilishi inshoning ham texnik, ham mazmun tomonidan to‘g‘ri yoritilishiga yaqindan yordam beradi.

Inshoning tashqi tashkiliy-texnik jihatlarini yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchiga uning qolgan jihatlarinining o‘zlashtirilishiga, ya’ni *inshoning(yozma ishning) mazmuniy-mantiqiy bayon qilinish jihatlari, matndagi xatboshilarning vazifaviy-ma’noviy turlari* va *matn yaratish* bilan bog‘liq konikma, malaka va kompetensiyalarning shakllanishiga imkon yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yo‘ldoshev R.A., Rixsiyeva M.M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – T.: Fan va texnolgiyalar, 2018. 156 b.
2. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti. Tuzuvchilar: Abdullayeva Q., Safarova R. va boshqalar. / “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 5-son, - B-6.
• eski usullarni optimallashtirish uchun ularni yangi usullarini ishlab chiqish yoki o‘zgartirish.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, malakalarni shakllantirishning birinchi bosqichi “hayotiy ko‘nikmalarni” o‘rgatish (shaxsiy muammolar, stress bilan kurashish; vaqtingizni boshqarish; ko‘rsatmalarni o‘qish, qoidalarga rioya qilish; biznes hujjatlarini rasmiylashtirish) va “qo‘shimcha” mavzular bo‘yicha ko‘nikmalar (matn va raqamli ma’lumotlarni qayta ishlash va tizimlashtirish; matnlar yozish va gapirish; ishbilarmonlik aloqalarini amalga oshirish; tashabbuskor bo‘ling, nostandart yechim taklif qiling, o‘z nuqtai nazaringizni namoyon qiling.

Oliy ta’limini modernizatsiya qilish konsepsiyasiga muvofiq, kasb-hunar ta’limi asosiy maqsadlari quyidagilardir: tegishli darajadagi va profildagi malakali, mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, mas’uliyatli, o‘z kasbini yaxshi biladigan va turdosh sohalarga yo‘naltirilgan xodimni tayyorlash, doimiy ravishda kasbiy o‘sishga, ijtimoiy va kasbiy harakatchanlikka tayyor, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha jahon darajasidagi standartlarda samarali ishlashga qodir faoliyat mavjud.

Vakolatli ta’limga kirish o‘quv jarayonining barcha subyektlari va, birinchi navbatda, o‘qituvchilar tomonidan bir qator ketma-ket harakatlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, birgalikda qaror qabul qilishda ishtirok etish, tajribadan foyda olish, tabiat va jamiyat hodisalariga tanqidiy munosabatda bo‘lish qobiliyatini rivojlantirish uchun zamonaviy o‘qituvchi qanday usul va texnologiyalarga ega bo‘lishi kerak, ya’ni asosiy vakolatlarni amalga oshirasizmi? O‘zining kasbiy rivojlanishi va rivojlanishini taminlash uchun o‘qituvchining o‘zi qanday kasbiy va pedagogik vakolatlarga ega bo‘lishi kerak? Qanday sharoitlarda vakolatlar kasbiy vakolat darajasiga ko‘tariladi?

Kasbiy kompetensiyani aniqlash va uning kompetensiya tushunchasi bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash muammosi so‘nggi paytlarda ilmiy pedagogik muhitda va amaldagi o‘qituvchilar o‘rtasida muxokama mavzusiga aylandi. Keling, ushbu masalani tushunishga harakat qilaylik.

Eng umumiy ma’noda “vakolat” - bu tegishli faoliyat sohalarida va muayyan turdagi muammolarni hal qilishda talablarga, belgilangan mezonlarga va standartlarga rioya qilish, zarur faol bilimlarga ega bo‘lish, natijalarga ishonchli erishish va boshqarish qobiliyatini anglatadigan vaziyatdir.

Shaxsning kognitiv jarayonlari psixologiyasi va psixofiziologiyasining individual xususiyatlarini rivojlantirishga psixologik-pedagogik tayyorgarlikni o‘z ichiga olgan umumiy pedagogik kasbiy kompetensiya; pedagogika asoslarini bilishdir.

Mavzu ixtisosligi bo‘yicha predmet kompetensiyasi: o‘qitiladigan fan sohasidagi bilimlar, uni o‘qitish usullari.

Boshqaruv vakolati, ya’ni pedagogik tahlilni o‘tkazish, maqsadlarni belgilash, tadbirlarni realashtirish va tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Refleksiv kompetensiya, yani o‘z pedagogik faoliyati jarayoni va natijasini ko‘rish qobiliyati.

IR texnologiyalari sohasida ishlash qobiliyati bilan bog‘likq bo‘lgan axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi.

O‘qituvchini eksperimentator sifatida tavsiflaydigan innovatsiya sohasidagi kompetensiya.

Ijodiy vakolat, yani o‘qituvchining faoliyatni ijodiy, izlanish darajasiga ko‘tarish qobiliyati.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchining kasbiy mahorati va uning kasbiy kompetensiyasi darajasini baholashning eng dolzarb muammolarini hal qilishda u yoki bu darajada qo‘llaniladigan turli xil diagnostika texnikasi mavjud. Bir tomondan, o‘qituvchini “bilim-ko‘nikma-mahorat” formulasiga kiritish mumkin emas va o‘qituvchi qalbining barcha olijanobligini, takrorlanadigan ta’lim jarayonida uning ishining noyob daqiqalarini o‘lchaydigan asbobdir. O‘qituvchining ishida va hech narsadan kelib chiqmaydigan tushuncha bilan hech narsa o‘lchanmaydi, balki o‘qituvchining avvalgi barcha tajribalari, o‘zi bilan cheksiz dialoglari bilan tayyorlanadi. Boshqa tomondan, o‘qituvchining ishida "yutuqlar xujjati" to‘plangan bo‘lib, u “quvonchli, qiziqarli va o‘qituvchi hayotida sodir bo‘ladigan narsalarga loyiq bo‘lgan hamma narsani” aks ettiradi.

Diagnostika - bu bilishning o‘ziga xos turi, chunki "tashxis" yunon tilidan tarjimada "tanib olish, ta’rif" degan manoni anglatadi. So‘nggi paytlarda tahlil, ichki qarash, shaxsni o‘rganish tushunchalari tobora ko‘proq bitta atama -diagnostika bilan almashtirilmoqda.

Ungacha pedagogik diagnostika o‘rganish qobiliyati, o‘qitish va ta’limning bazi ko‘rsatkichlarini belgilash bilan cheklangan, yani diagnostika har qanday shaxsiy xususiyatlarni baxolashning boshlang‘ich muammosiga aylantirildi va shaxsiyat ta’lim sifatida taqdim etildi.

Ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish sharoitida rahbar va o‘qituvchi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zgarib bormoqda. Ular o‘zaro ta’sir o‘tkazadilar va birgalikda maktab hayotini yangilashda ishtirok etadilar. Shu bilan birga, ularning hamkorligi pedagogik diagnostikani yanada mazmunli va samaraliroq qiladi, psixodiagnostikadan olingan usullar bilan to‘yingan bo‘lib, sotsiometrik va sotsiologik usullardan keng foydalanilgan holda va olingan materiallarni matematik qayta ishlasa bo‘ladi.O‘qituvchining ishi o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash darajasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadigan obektiv usullardan farqli o‘laroq, sub’ektiv usullardan foydalanganda diagnostika o‘qituvchi o‘qiladigan, tasavvur qiladigan va malumot beradigan narsalar asosida amalga oshiriladi. Vaqt keldi, har qanday o‘qituvchini baholashda uning o‘zining kasbiy qadr-qimmatini hisobga olish kerak.

O‘qituvchining muvaffaqiyatini tashxislashning asosiy vazifasi unga tashqaridan ekspert baho berish emas, balki o‘qituvchining o‘zini kasbiy muammolarini tushunishga va hal qilishga undashdir. Bundan tashqari, biz unutmasligimiz kerak: muvaffaqiyatli o‘qituvchi doimo introspektivaga va o‘zini tashxislashga e’tibor beradi. O‘z-o‘zini bilish, o‘zini- o‘zi takomillashtirish va amalga oshirish jarayoni faqat o‘qituvchining o‘zi xohishiga bog‘liq.

O‘zining kasbiy salohiyatini o‘rganish, roo‘yobga chiqarish va oshirishga intilgan o‘qituvchi endi darsga “xizmat” qila olmaydi yoki darsdagi vazifasini bajara olmaydi. U har bir darsda “yashaydi”, talabalar uchun va o‘zi uchun kerakli psixologik qulaylik va muvaffaqiyat holatini yaratadi, shu bilan birga katta mamnuniyatni qabul qiladi. Bunday holda, o‘qitish endi axborotni translyatsiya qilish xususiyatiga ega emas, balki o‘quvchilarning bilim faoliyatini rag‘batlantirish va faollashtirish xususiyatiga ega bo‘ladi.

O‘qituvchining ishi - bu eng murakkab ruhiy haqiqat, bu uch o‘lchovli makon bo‘lib, uchta o‘zaro bog‘liq bo‘shliqdan iborat:

- o‘qituvchining shaxsiyati,
- o‘qitish faoliyati,
- pedagogik aloqa.

Ushbu uchta bo‘shliqni talaba shaxsini rivojlantirishning global vazifasi birlashtiradi. Shu bilan birga, ular ustma-ust tushmaydilar, takrorlamaydilar, balki murakkab dialektik munosabatlarga kirishadilar va ularning har biri o‘qituvchi faoliyati jarayonida rivojlanish natijasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1.**D.V.Dudko: Kognitivnaya kompetentnost lichnosti buduщego pedagoga i dinamika eyo formirovaniya,2008.

**2.**Konopkin O.A:Psixicheskaya samoregulyasiya proizvolnoy aktivnosti cheloveka(strukturno-funksionalnыy aspekt)[Elektronnыy resurs].-Rejim dostupa: http://www.eduhmao. ru/ info /1/3952/25078/

**3.**Sorokovыx G.V. Professionalnaya podgotovka spetsialista inoyazыchnogo obrazovaniya: teoriya i praktika .M.2011

**4**.I.G.Lipatnikova, T.YU.Parshina: Formirovanie kognitivnoy kompetentnosti v protsesse obucheniya studentov pedagogicheskix vuzov elementarnoy matematike,2012 .Elektronnыy nauchnыy jurnal"Sovremennыe problemы nauki i obrazovaniya".

**5.**Osipova L.A. Informatsionno-obrazovatelnыe proektы kak sredstvo formirovaniya u studentov kognitivnoy kompetentnosti: avtoref. dis. ...kand.ped.nauk:13.00.01.-Bryansk,2008.-25s.

## SEMANTIKA – LINGVISTIK SOHA SIFATIDA
## SEMANTICS AS A LINGUISTIC FIELD

***K. Rixsiyeva,***
***ToshDO'TAU o'qituvchisi***

**Abstract:** This article is devoted to a brief analysis of the emergence and development of the field of semantics in linguistics, as well as research and views of linguists in this area.

***Key words****: language, language unit, semantics, word meaning, semantic change, linguistic semantics, semantic development, semasiology.*

Semantika fonografiya, sintaksis va morfologiya boshqalar singari grammatikaning bir qismi hisoblanadi. Semantika lingvistik soha sifatida o`z tadqiq obyekti va mavzulariga ega. Semantikaning murakkabligi shundaki, bu soha bilan shug`ullanuvchi olimlar nafaqat tilshunoslik, balki falsafa va psixologiya kabi fan masalalari bilan ham tanish bo`lishlari lozim. Ilmiy adabiyotlarda semantikaning bir qancha ta'riflari mavjud bo`lib, quyida ulardan ba'zilarini keltiramiz.

**Semantika** (yun. semantikos — bildiruvchi, ifodalovchi) — 1) til yoki uning bironbir birligi (so'z, so'zning grammatik shakli, frazeologizm, so'z birikmasi, ran) orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma'no, axborot; 2) turli til birliklarining ma'noviy tomonini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi; semasiologiya. Ayrim lugaviy unsurlar tushunchalarni bildiradi, bu tushunchalarni esa faqat to'liq gaplar va ularning qo'shilmalari ifodalashi mumkin. Binobarin, Sning o'rganish ob'yekti ham, asosan, to'liq, mustaqil ma'noli so'zlar va gaplarning ma'nolar tizimidir. S. fan sifatida 19-asrning 2-yarmidan rivojlana boshlagan va hozirgacha bir-biridan sifat jihatidan farqlanuvchi bir necha bosqichni o'tgan. Semantika axborot texnologiyalarda ham qo'llaniladi.

Semantika lingvistik soha sifatida nisbatan keyingi davrlarda shakllangan bo'lsa-da, aslida u eng qadimgi davrlardayoq mavjud edi, lekin u davrlarda semantika masalalariga falsafiy tafakkur doirasida qaralgan. Muayyan vaziyatlarda so'z ma'nolarining o'zgarishi, tafakkurning tilda aks etishi, tafakkur va til taraqqiyoti muammolari XVII-XVIII asrlarda falsafiy hodisalar sifatida tadqiq qilindi. XIX asrga kelibgina tilshunoslikning etimologiya sohasida bir so`zdan boshqa bir so'zning yasalishi, so'z ma'nosidagi o'zgarishlarni aniqlash va tahlil qilish talabidan kelib chiqib, semantika masalasiga e'tibor qaratila boshladi. XIX asrning ikkinchi yarmida tilning nafaqat tovush, balki psixologik tomoniga ham qiziqishning ortishi semantikaning so'z ma'nolaridagi o'zgarishlarni tadqiq qiluvchi soha sifatidagi nufuzini belgilab berdi.

"Semantika" terminini fransuz tilshunosi Breal fanga kiritgandan so'ng semantikaning keyingi taraqqiyoti XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda semantik o'zgarishlar qonuniyatlari asoslari tilshunoslikdagi turli xil psixologik yo'nalishlari vakillaridan Vundt, Rozvadovskiy, Martinak, Yaberg va shu kabi olimlarning faoliyati alohida ahamiyatga ega. 1910-1920-yillarga kelib esa semantika sohasiga e'tibor yanada kuchaydi.

Rus tilshunosi T.V.Jerebilo "Лингвосемантическая парадигма в соотношении с лингвостилистикой" maqolasida 1897-yil fransuz tilshunosi Mishel Breal Parijda Semantika terminini fanga olib kirganida lingvistik semantika XX asr tilshunosligida asosiy yo'nalishlaridan biri bo`lishini balki bilmagan ham edi, degan fikrni yozadi. Vaholangki, lingvistik birliklar ma'nosini tadqiq etish bundan bir necha yuz yillar oldin ham Qadimgi Xitoyda er.avv. V-III asrlarda, Qadimgi Gretsiyada va undan keyin o`rta asr yevropa an'analarida, so'ngra esa uyg'onish davri grammatikachilari va faylasuflari tomonidan tadqiq qilib kelingan. [Жеребило, 2006: 1-5]

O‘zbek tilshunos olimi M. Mirtojiyev “Ўзбек тили семасиологияси” kitobida shunday qayd etadi: “... сўз маъносини ва унинг тараққиётини ўрганишга бағишланган айрим ишлар ярала бошлади. Сўз маъноси ҳақидаги мақолалар ҳам юзага келди. Шуниси қизиққи, бу масалага бағишланган қатор мақолалар эълон қилинган бўлса ҳам, унинг ҳал қилинмаган томонлари ҳали бор.” [Миртожиев, 2013: 15-20]

XIX asr oxiri XX asr boshlarida semantika tilshunoslikning psixologik yo‘nalishlari doirasida tadqiq etila boshladi. Bu davrda Vundt, Rozvadovskiy, Martinak, Yaberg va boshqalar semantik taraqqiyot qonuniyatlarini psixik jarayonlar bilan bog‘liq tarzda yoritish g‘oyasini ilgari surdilar. 1910-1920-yillarda semantikaga e’tibor yanada kuchaydi. [Жеребило, 2006: 1-5]

Lekin yana shuni ham aytish kerakki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida tilshunoslikda so`z ma’nosining faqat bir tomoni, ya’ni uning etimologik ma’nosini yoritishga ko‘proq ahamiyat berilgan. Etimologik tahlil shu so‘zni boshqa o‘xshash so‘zlar yoki qarindosh tillardagi shu kabi so‘zlar bilan qiyoslab olib borilgan. Etimologik ma’no, boshqacha aytganda, etimon masalasiga bunday qarash XIX asr tilshunosligida Gumboldt nomi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Semantika fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida rivojlana boshlagan bo‘lsa ham, asr boshlaridayoq X.Shteyntal, A.Potebnya va V.Vundt kabi olimlar bu borada lingvistik-gnoseologik konsepsiyani yaratishni boshlagan edi. Shundan kelib chiqib, semantika taraqqiyotini uch asosiy davrga bo‘lish mumkin.

Birinchisi psixologik va evolyutsion bosqich bo`lib, bu davrga xalq madaniyati hamda psixologiyasidagi til semantikasiga keng evolyutsion yondashuv asosiy xususiyatdir. Ushbu davrda Potebnya, Vundt hamda A.N.Veselovskiyning so‘z va uning ma’nosi, ma`no taraqqiyoti haqidagi qarashlari ularning asarlarida ham aks etdi. Masalan, Potebnya tafakkur taraqqiyotini til qonuniyatlari, xususan semantika bilan bog`laydi. Bu davr nazariyotchilarining qarashlarida psixologik yondashuv ustunlik qilib, mantiq keyingi darajalarga tushib qolgani ularning asosiy kamchiligi, deb qaraladi.

Ikkinchi bosqich qiyosiy-tarixiy bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda semantika tilshunoslikning alohida sohasi sifatida “semasiologiya” (M.M.Pokrovskiy va boshqa rus, nemis ishlarida aks etgan) yoki “semantika” (dastlab 1883-yil M. Breal, undan so‘ng boshqa fransuz tilshunoslari ishlarida aks etgan). Bu davr semantika sohasi tarixiy qonuniyatlarga keng yondashuv bilan xarakterlanib, tarixiy-qiyosiy tadqiqotlar shakllanib bordi. 1950-yil oxirlarigacha “semasiologiya” termini ham keng qo‘llanishga kiradi. Lekin semantikaning kelib chiqishi masalasi, yuqorida aytganimizdek, qadimgi lingvistik an’analar doirasida o‘z yechimini topgan edi. Demak, semantika muammolari qadimgi davrlarda ham muhim o‘rin tutgan. Qadimgi Xitoyda ierogliflar sharhi mujassamlashgan lug‘atlar tuzilgan. Masalan, eramizdan avvalgi III asrga oid “Er Ya” lug`atining bosh maqsadi Xan sulolasi davrida yozilgan matnlarga izoh berish edi. Miloddan avvalgi 121-yilda Sharqiy Xan sulolasi olimi Suy Shen tomonidan tuzilgan “Shuo Wen jiezi” lug‘atida esa ilk bor so‘zlar ma‘nosiga qarab ajratilgan. Yevropada antik va o‘rta asr filologlari yozma yodgorliklardagi ma’nosi tushunarsiz so‘zlar uchun glossariylar tuzishgan.

Lingvistik semantikaning haqiqiy ma`nodagi taraqqiyori 1960-yillardan boshlangan, hozirgi kunda semantika tilshunoslik fanida markaziy o‘rinlardan birini egallagan.

Qiyosiy-tarixiy yondashuvning keyingi taraqqiyoti etimologiyaga chuqur ahamiyat berish bilan xarakterlanadi. O.N.Trubachyov 1966-yilda qadimgi hind-yevropa tillaridagi to`qimachilik va kulolchilik terminlarining semantik taraqqiyotini tadqiq qildi. Bundan tashqari, uning muharrirligida «Этимологический словарь славянских языков. Праславянский лексический фонд», Э. Бенвенист «Словарь индоевропейских социальных терминов», В. И. Абаева «Историко-этимологический словарь осетинского языка» kitoblari nashr etildi.

Lingvistik semantika taraqqiyotining uchinchi bosqichi taxminan XX asrning 20-yillaridan boshlanadi. Bu bosqich semantikaning mantiq va falsafa bilan yaqinlashishi, sintaksisdagi o`rnini belgilash bilan xarakterlangani uchun uni sintaktik-semantik yoki mantiqiy-semantik bosqich deb ham atash mumkin. Bu bosqichda quyidagi asosiy nazariy holatlarni belgilash mumkin: 1) obyektiv borliqni “narsa”ning emas, hodisalarning mohiyati belgilashi haqidagi qarashlarga tayanib, semantik uya asosini so‘z emas, balki fikrning tildagi ifodasi bo‘lgan gap tashkil etadi, degan qarash

ilgari surilgan; 2) “semantik oddiylik”ni tiklash, ya’ni birlamchi, qolgan ma‘nolarning kelib chiqishiga asos bo‘lgan ma’noni aniqlash.

XX asrning 50-yillarida yuzaga kelgan semantik tadqiqotlar V.A.Zveginsev nomi bilan bog‘liq. Rus tilshunosligida dastlab u “Semasiologiya” nomli monografiyasini yaratdi. Bu monografiya rus tili semasiologiyasi emas, umuman semasiologiyaga oid edi. Monografiyada olim o‘z davrigacha ma’lum bo`lgan ilmiy asarlarni ilmiy talqin qildi va semasiologiyaning asosiy masalalariga aniqlik kiritdi. Unda leksik ma’no, ma’no taraqqiyoti, ma’no miqdoriga ko‘ra so‘z tiplari, ma’nolarning paradigmatik munosabatlari doirasida yangi fikrlar bilan boyitildi. Biroq leksik ma’no tiplari va ma`noning semantik tarkibi, ma’nolarning sintagmatik munosabati haqidagi masalalar o‘z-o‘zidan ochiq qolaverdi. Chunki shu davrgacha bu masalalar ko`rib chiqilganicha yo‘q edi. [Миртожиев, 2013: 20-25]

XX asrning ikkinchi yarmida D.N.Shmelevning rus tilshunosligidagi semantik tadqiqotlarninig rivojlanishiga hissa qo`shdi. 1964-yil uning “Rus tili semasiologiyasi bo‘yicha ocherklar” nomli monografiyasi nashr etildi. Undan so‘ng L.A.Novikov ham bu sohada bir qancha tadqiqotlarni amalga oshirdi. Uning “Rus tili semantikasi” kitobi 1982-yil Moskvada nashr etildi. Unda semantika sohasi va vazifasi, leksik-semantik tizim va leksik ma’no, leksik ma’no tarkibi va uning tahlili kategoriyalari kabi masalalar yuzasidan fikr yuritilgan. [Mirtojiyev, 2013: 23-24]

Hozirgi zamon rus tilshunosligida semantikaga oid tadqiqotlar ikki asosiy yo‘nalishdan iborat: kuchli (tashqi) va kuchsiz (ichki). Kuchli semantika yo‘nalishi vakillari P. Монтегю, Д. Льюиз, Б. Парти, Э. Кинен, Х. Камп, И. Хейн va b. bo`lib, ular formal semantika bilan shug`ullanganlar. Kuchsiz yo‘nalish vakillari esa semantika nazariyasi va leksik ma’noning komponent tahlili bilan shug‘ullanadi (Дж. Катц, Дж.А. Фодор, Э. Бендикс, Ю. Найда, M. Бирвиш va b.). bundan tashqari, semantikaga tor va keng ma’noda yondashuv ham mavjud. [Jerebilo, 2006: 1-5]

Semantika sohasiga oid tadqiqotlari bilan o‘zbek tilshunosligida bu soha taraqqiyotiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan tilshunos olim Sh. Safarov “Семантика” kitobida: “Qarangki, shuncha yil o‘tishiga qaramasdan (semantics termini ingliz tilida XVII asrdayoq mavjud bo‘lgan), lingvistik semantika sohasida unchalik katta o‘zgarishlar yuz bermaganday bo‘lib turibdi. Bunday “turg‘unlik”ning bir nechta sabablari bor. Birinchidan, olimlar semantikani, M. Brealga ergashib, so‘z va iboralar ma`nosining paydo bo‘lishi va o‘zgarish taqdiri bilan shug‘ullanadigan fan sifatida qarab keldilar. Ikkinchidan esa, semantika hozirgacha leksik ma`no haqidagi fan bo‘lib qolmoqda va uning e’tiborini so‘zlar ko‘p ma’noliligi, antonimlik, sinonimlik munosabatlari, omonimiya qatorlari, valentlik imkoniyatlari kabi hodisalar tortmoqda”. [Сафаров, 2013:14-15] Ushbu fikrlardan ayonki, hali semantikaning lingvistik soha sifatidagi predmeti va tadqiq obyektlarini aniqlash va bu sohada jiddiy tadqiqotlar olib borilishi zarur.

Rus tilshunosi Kobozeva semantika haqida fikr yuritar ekan, uning boshqa fan sohalari kabi, o‘z o‘rganish predmetiga egaligini ta’kidlaydi. Biroq bu predmetnini aniqlash oson emas. Garchi tilshunoslarning aksariyati semantika lingvistik ifodalarning ma’nosini o‘rganadi, deb hisoblasa-da, ma‘no nimalarni anglatishi kerakligi haqidagi savolga umumiy qabul qilingan javob yo‘q. Predmetni aniqlashtirishdagi har-xilliklar tufayli semantika va boshqa lingvistik fanlar, xususan semantika va pragmatika o‘rtasidagi chegaralarni o‘rnatishda ham har xillik yuzaga keladi. Shuning uchun semantikaning predmeti haqidagi savol eng ehtiyotkorlik bilan ko‘rib chiqilishi kerak. Semantika til birliklarining mazmunini va ushbu birliklardan qurilgan nutqiy hosilalarni o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi. [Кобозева, 2000: 8-10]

Biz ushbu maqolada semantikaning lingvistik soha sifatida vujudga kelishi, taraqqiyoti hamda bu sohada dunyo va o‘zbek olimlarining izlanishlarini qisqacha yoritishga harakat qildik. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, semantika yuzasidan hozirgacha juda ko‘p tadqiqot ishlari va ilmiy asarlar yaratilgan bo‘lishiga qaramay, hali bu sohada qilinajak ishlar yetarli.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Абаева В. И. «Историко-этимологический словарь осетинского языка», т. 1—3, 1958—79.

2. Жеребило Т.В. “Лингвосемантическая парадигма в соотношении с лингвостилистикой”. 2006
3. Звегинцев В.А. Семасиология. - М.: Изд. МУ. 1957.
4. Кобозева И.М. Лингвистическая семантика. –М: Эдиториал УСС. 2000.
5. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси.-Т.: Мумтоз сўз. 2013.
6. Новиков Л. А. Семантика русского языка. - М.: ВШ. 19
7. Сафаров Ш. Семантика. Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2013.
8. Шмелев Д.Н. Очерки по семасиологии русского языка. - М.: Просвещение. 1964.
9. Jon I. S. Semantika , 2-nashr, Blackwell, 2003
10. Charles W. Kreidler. Inglizcha semantikani tanishtirish. Routledge, 1998
11. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA MINIATYURA
## MINIATURE IN NATIVE LANGUAGE AND LITERATURE CLASSES

**D. Sayfutdinova**
***Andijon Davlat universiteti***
***O`qituvchi***


**Abstract:** Miniature works provide an exhibition in the classroom, raise oral speech, educate students in the spirit of beauty, provide detailed information about the way of life, dress, customs and flora and fauna of our ancestors of that time.

***Key words:*** *miniatyura, Alisher Navoiy, “Xamsa”, doston**,** “Saddi Iskandariy”, “Farhod va Shirin”, “Sab'ai sayyor”*

Vatanimizning yorqin kelajagi bo‘lgan ardoqli farzandlarimizni baodob, xushfe'l, olijanob, komil inson darajasidagi shaxs qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ona tili va adabiyot darslarini boshqa fanlar bilan, jumladan, tasviriy san'at bilan bog‘lab borish o‘quvchilarda nafosat tuyg‘usini shakllantirishda, ularni go‘zallik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab boy tarixiy, madaniy merosimiz keng ko‘lamda o‘rganila boshlandi. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini o‘rganish jarayonida dostonlarga ishlangan miniatyura asarlari bilan tanishish maqsadga muvofiqdir. Ishni avval miniatyura san'ati haqida, Sharqning buyuk rassomi Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari Qosim Ali, Mirak Naqqosh, Do‘st Muhammad, Mahmud Muzahhiblar haqida ma'lumot berishdan boshlagan ma'qul. Shuningdek, miniatyura “o‘qish” haqida tushuncha berib o‘tilsa, dars ancha qiziqarli o‘tadi. Zero, miniatyura hajman kichik asar va unda bir necha ko‘rinish aks etgan bo‘ladi. Bu ko‘rinishlar tepadan pastga qarab joylashtiriladi. Ularning har biri chuqur ma'no kasb etib, asarda maxsus vazifalarni bajaradi. Miniatyurada qadimgi arab yozuvidagi turkiy xat namunalari, hayvonot va o‘simliklar dunyosi tasviri, tabiat manzarasi ko‘rinishlari o‘z aksini topadi. Asarning markaziy qismida chuqur g‘oyaviy mazmunga ega bo‘lgan voqyea tasvirlanadi.

Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan miniatyuralar XV-XVI asrning birinchi yarmida yaratilgan bo‘lib, Temuriylar davri rasm san'atining yuksak namunalaridandir. Ularda o‘zbek xalqining estetik ideali va badiiy dahosi mujassamlangan. Jahon madaniyatining nodir yodgorliklaridan hisoblangan bu rasmlarning asosiy obrazlarini Navoiy dostonlarining o‘lmas qahramonlari tashkil qiladi. Ular o‘zlarining porloq ijtimoiy ideallari, olijanob odamiylik xususiyatlari, pok qalbi, samimiy sevgisi bilan kishini maftun etadi. Masalan, “Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar” nomli albomga kirgan “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Toju taxtni gadolikka almashtirgan shoh Iskandar huzurida“ nomli miniatyurani olaylik. Rasmda eski o‘zbek yozuvi namunalari bilan birgalikda tabiat manzarasi juda go‘zal tasvirlangan. Markazda shoh Iskandar, atrofida esa mulozimlar va gado siymolari mahorat bilan aks ettirilgan. Shoh bilan atrofidagilar gadoga va uning qo‘llaridagi suyaklarga qarab hayron boqib turishibdi.



*Низомий «Хамса» достонига ишланган миниатюра*

Suratdan Iskandarning mag‘rib yerini egallagach, u yerga adolatli shoh tayinlamoqchi ekani ma'lum bo‘ladi. Uning so‘roviga binoan odamlar podshohzodalardan birini shohlikka tavsiya etadilar. Bu odam eldan chiqib ketib qabristonda yashardi.Uni Iskandar huzuriga keltiradilar. Yalang‘oyoq, to‘shi ochiq bu odam qo‘lida ikki suyakni ushlaganicha keladi. Iskandar bu holatni sababini so‘raganda, gado shunday javob beradi: “Qabrlarni aylanib yurganda shu ikki suyakni ko‘rdim, ulardan qay shohniki-yu qay biri gadoniki farq qila olmadim”. Gado – himmatlikni, himmati baland odamlar esa faqirlikni shohlikdan yuqori qo‘yadilar. Bu rasm o‘quvchilarda oliyhimmatlik fazilatlarini tarbiyalaydi. Shu dostonga ishlangan “Iskandarning dafn marosimi” nomli rasm ham alohida e'tiborga loyiq. Rasmda ko‘m-ko‘k osmon va unda pag‘a-pag‘a suzib yurgan bulutlar, baland viqorli bulutlar, boshlariga qora ro‘mol o‘rab faryod chekayotgan ayollar va ikki qo‘li tobutdan chiqarib qo‘yilgan marhum Iskandarni dafn etish uchun olib ketayotgan kishilar tasvirlangan. Iskandar hamma iqlimlarni qo‘lga kiritgan shoh edi. Dunyodagi hamma yer va suv uning hukmiga o‘tib, osmonning ko‘k gumbazi ustida xutba o‘qib, adolat tamg‘alarini yulduzlarga o‘ydi. O‘limi oldidan u shunday vasiyat qildi: “Qo‘limni tobutdan tashqariga chiqarib qo‘yinglar, toki jahonni egallagan bu qo‘l dunyodan quruq ketayotganini odamlar ko‘rsin, ularga ibrat bo‘lsin”. Bu so‘zlar orqali mol-dunyoga havas qilmaslik kerakligini o‘quvchilarga uqtiramiz. Ayni zamonda, o‘quvchilarning o‘zlaridan miniatyurada aks etgan ko‘rinishlar haqida taassurotlari so‘ralsa va ular javob bersalar, dars ancha jonli o‘tadi. “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishda “Yosuman Shirinning o‘limi haqida Farhodga xabar bermoqda” nomli miniatyura asari diqqatga sazovordir. Miniatyurada arab imlosidagi turkiy yozuvlar, tog‘-tosh va u yerdagi hayvonot olami, Farhod va jodugar kampir siymosi tasvirlangan. Miniatyuradagi kampirning kiyimi va qo‘lidagi hassa hamda uning tepasida turgan yovvoyi hayvon qora rangda tasvirlangan. Kampirning niyati yovuz va qalbi qora ekanligi qora rang orqali ochib berilgan.

“Sab’ai sayyor” dostoniga ishlangan “Bahrom bilan Dilorom ovda” miniatyurasi ham e'tiborga molikdir. “Beshinchi iqlimdan kelgan musofirning hikoyasi”, ya’ni “Mehr va Suhayl” ni o‘rganishdan avval, albatta, Bahrom va Dilorom o‘rtasidagi munosabat, yetti qasrning qurilishi sabablari haqida ma’lumot beriladi. Rasmda ov manzarasi, chang ko‘tarib otda o‘tirgan va Bahromning ishini kuzatib turgan Dilorom, kiyikka kamon tortayotgan shoh Bahrom va yarador kiyik hamda ov qilayotgan Bahromning yigitlari tasvirlangan. Rassom ranglarni nozik did bilan

tanlay olgan. Miniatyuradagi qora rang og‘ir kunlar, ayriliq kelayotganiga ishoradek tuyuladi. Zero, Bahromning oti ham, ariqda oqayotgan suv ham qora rangda tasvirlangan.



*П. Шабаратов, “Сабъаи сайёр” достонига ишланган миниатюра.*

Dilorom yosh va go‘zal, musiqani sevuvchi, nozikta’b malika ekanligini rassom qizil rang va qo‘lidagi cholg‘u orqali ifodalagan. Yuqoridan dumalab tushayotgan toshlar esa ovning shiddatli bo‘layotganidan dalolat beradi. So‘ng quyidagilar hikoya qilinadi: Bir kuni Bahrom ov qilar edi. Yonida esa Dilorom. Shu payt bir kiyik ko‘rindi. Bahrom Diloromdan kiyikni qanday otsam ekan, deb so‘radi. Dilorom ikki oyog‘ini band etib, so‘ng boshini kesgin, deb javob qildi. Bahrom Dilorom aytgandek qilib kiyikni bo‘g‘izladi. Dilorom esa uni maqtash o‘rniga, mashq qilganning natijasi shunday bo‘ladi, men ham chang chalsam hammaning hushi og‘ib qoladi, deb Bahromning mahoratiga tan bermaydi. G‘azablangan shoh buyrug‘i bilan Diloromni biyobonga tashlab keladilar. Ertasiga Bahrom o‘z ishidan juda pushaymon bo‘lgan holda hushidan ketib yiqiladi. Uning dardini yengillatish uchun yetti qasr quriladi, u shu yerda yetti musofirning hikoyasini tinglaydi.

Ona tili darslarida ma’lum bir mavzu o‘tib bo‘lingach, grammatik tushunchalar haqidagi ma’lumotlarni o‘quvchilar ongiga singdirishda inshodan foydalanish mumkin. Miniatura asosida ham insho yozdirish mumkin. Bunda tabiat tasviri, narsalar tasviri, fasllar tasviridan hamda obrazlarga tavsiflardan foydalanish mumkin. O‘quvchilarga miniatura asosida insho yozdirish ularning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda katta o‘rin tutadi. Bundan tashqari o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Olingan grammatik bilimlar mustahkamlanadi.

Demak, miniatyura asarlari darsda ko‘rgazmalikni ta'minlaydi, og‘zaki nutqni o‘stiradi, o‘quvchilarni go‘zallik ruhida tarbiyalaydi, o‘tmish ajdodlarimizning yashash tarzi, kiyinishi, urf-odati hamda o‘sha davr hayvonot va o‘simlik dunyosi haqida mufassal ma'lumot beradi. Bir so‘z bilan aytganda, ona tili va adabiyot darslarida miniatyura asarlaridan foydalanish ijobiy natijalar beradi. Shoyad, bugungi kun sharofati bilan milliy madaniyatimizni qayta tiklab, ularga yangicha ma'no, mazmun berib, tarbiya ishiga sharqona ruh bera olsak ajab emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avliyakulov N.X., Namozova N.J. Muammoli o‘qitish texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008. – 80 b.

2. Aminova S. Ona tili darslarida noan'anaviy usullar // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 1995. – № 1. – B.
3. Muslimov N. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.
4. Safo Matjon. “O‘zbek adabiyoti”. T. : 2005. - 200 bet.
5. P.P.Shabaratov “Miniatyura”. T. : Tafakkur, 2011. - 128 bet.

## ALISHER NAVOIY IJODIDA KOMIL INSON TARBIYASINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
## THE PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PERFECT HUMAN UPBRINGING IN ALISHER NAVOI’S WORKS

***N. Oymatova,***
***Chirchiq DPI erkin izlanuvchisi***

**Abstract:** The article is about learning with simplifying in education with interactive psychology methods with the analyse of ideas which propote perfection in Navoi’s poems.

***Key words:*** *genre, poem, interactive.*

Har bir xalqning adabiyoti uning ma’naviyatini ko‘rsatuvchi milliy qadriyatlarini namoyon etuvchi manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

“Mukammal ma’naviyat milliy o‘zlikni anglashdan boshlanadi. Milliy o‘zlikni anglashning mohiyati esa shaxsning o‘zi mansub bo‘lgan millatning tarixi, jahon tafakkur xazinasiga qo‘shgan hissasini tugal tasavvur etishi va ulardan iftixor qila olishi, o‘zi tug‘ilib o‘sgan millatdoshlarining yagona yurti bo‘lgan hududga va shu yurtdagi barcha madaniyat va qadriyatlarga daxldorlikdan huzur, faxr tuya olishi milliy manfaat va ehtiyojlarni idrok etishi hamda ular uchun xizmat qilishni o‘zining burchi deb bilishidan iborat”, - deydi filologiya fanlari doktori, tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov.

Darhaqiqat, adabiyot fani vazifasining eng muhim jihati – uning komil inson g‘oyalari bilan sug‘orilganligidadir.

Maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib, oliy ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz ta’lim jarayonida bu izchillik bardavomlik kasb etadi.

Eng kichik janrlardan boshlab yirik janrdagi asarlargacha – barchasida adabiyot ta’limi insonning komillik sari yuksalishi uchun asosdir. Bu izchillikda Navoiy asarlarining o‘rnini alohida ta’kidlash joiz.

Alisher Navoiyning fardlaridan to dostonlarigacha komil inson va uning ma’naviy olami targ‘ibotiga guvoh bo‘lamiz.

Quyida hazrat Navoiy qit’alarini umumta’lim maktablarining 10-sinfida o‘qitilishidagi ayrim jihatlarga e'tiboringizni qaratamiz va baholi qudrat mazkur mavzuning o‘qitilishiga doir ayrim interfaol usullarni taklif qilamiz.

Qit’a janri umumta’lim maktablarida DTS asosida 8-sinflarda ham ruboiy va fardlar bilan birgalikda o‘qitiladi. 10-sinf uchun bu yangi o‘rganiladigan janr emas, ammo 10-sinf darsligida shu yoshdagi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan mavzudagi qit’alar tanlangan. Darslikda qit’a va g‘azal janrlaridagi o‘xshash va farqli jihatlar tushuntiriladi. Bu jarayonni yanada mustahkamlash uchun quyidagi metodni tavsiya qilsak, ma’lumotlar o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

| | **Qit’a** | **G‘azal** |
|---|---|---|
| 1. | erkin qofiya | qat’iy qofiya |
| 2. | 2 baytdan iborat | 7-9 baytdan iborat |
| 3. | aniq chegaralanmagan | chegaralangan |
| 4. | falsafiy, ijtimoiy-siyosiy axloqiy ma’naviy mavzu | ko‘proq ishqiy, tasavvufiy mavzularda |
| 5. | aruzning istalgan vaznida | aruzning aniq bir vaznida |


Yuqoridagi metod orqali ma’lumotlarni eslab qolish yanada oson bo‘ladi.

Endi e’tiborimizni qit’alar matniga qaratamiz:

Tengri xonin aqida qilib,
Xalqdin ro‘ziy istagan gumroh.
O‘yladurkim tengiz qirg‘og‘inda
Ro‘za ochmoqqa kimsa qozg‘ay choh.

Qit’aning mazmuni, albatta, darslikda batafsil tushuntirib beriladi.

“Guldasta” metodi orqali esa, “aqida qilmoq” so‘zining ma’nolarini topish orqali qit’a haqidagi tasavvurimizni kengaytiramiz.




Bo‘sh qolgan gullarni shu so‘zlarning ma’nodoshlarini topib, matnga mosligini aniqlaymiz va izohlaymiz. Qaysi guruhda (agar dars guruhlar doirasida tashkil etilsa) gullar soni ko‘p bo‘lsa va qit’a ma’noga hamohang bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

Ikkinchi topshiriq sifatida (qit’a matni darslikda yaxshi sharhlangan) mavzuga doir xalq maqollari, iboralarini topish beriladi.

Masalan: - Oldingda oqqan suvning qadri yo‘q.

- Ahmoq bosh oyoq charchatar.

Bu maqollarni o‘quvchilarning o‘zlari davom ettiradilar va izohlaydilar. Ikkinchi qit’a quyidagicha:

Debon bergan kishi erdur, va lekin
Demay berganga erlik bil musallam.
Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun,
Debon bermasni xotundin dag‘i kam.

| **Saxo** | **Buxl** |
|---|---|
| Saxovat | Baxillik |
| Saxiylik | Xasislik |
| qo‘li ochiqlik | ochko‘zlik |
| bag‘rikenglik | qurumsoqlik |

Bu qarama-qarshi so‘zlarni o‘quvchilar qanchalik davom ettirishiga qarab xulosalanadi va baholanadi. Yana ikkinchi topshiriq sifatida qit’a mazmunini ochib beruvchi maqollar izohlanadi.

Masalan:

- Qo‘li ochiqning yo‘li ochiq
- Baxil topsa bosib yer, saxiy topsa hamma yer.

- Baxilniki doim “yo‘q”,
- Saxiy yo‘q bo‘lsa ham to‘q.
- Baxilning tuzi tatimas
- Saxiy topsa o‘rtada, Baxil topsa, xaltada.

“O‘zbek xalq maqollari”dan qit’a ma’nosini ochib beradigan maqollarni topib, fikrlarimizni umumlashtiramiz.

Alisher Navoiyning barcha asarlaridagi singari shoirning qit’alarida ham insoniylik, komillik kabi g‘oyalar ulug‘lanadi. Qit’alardagi insonlarga xos bo‘lgan ruhiy holat shu darajada mohirona tasvirlanadiki, insonlarda hayot davomida nafsni yengish bilan bog‘liq qarama-qarshiliklar, sabrning sinovlari, saxiylik va baxillik xislatlari o‘rtasidagi kurashlar, hayotning past-balandlarida o‘z aqidalariga suyanib o‘ta olish yo‘llari obrazli tarzda ifodalanadi. Birinchi qit’adagi ro‘zadorning ummon oldidan suv izlashi nechog‘lik bema’nilik bo‘lsa, Olloh nasib qilganini anglay olmasligi, shu darajada befahmligini ko‘rsatadi.

Navoiy yaratgan obrazlar- har doim ruhiy ziddiyatlar bilan kurashuvchilar. Ularning qay biri komillikday mashaqqatli yo‘lni tanlasa, qay biri johillikday oson yo‘lni tanlaydi.

Ta’limda mana shu ikki jihatni zid qo‘yish orqali o‘quvchilarda tanlovni o‘zlariga qo‘yib berish vazifasini yuklash ahamiyatlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bobojonov Sh, Islomov I. O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati. T – 2007. “Yangi asr avlodi” nashriyoti

2. Ibrohim Haqqul. E'tiqod va ijod. T – 2007. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti.

3. Mahmudov N. O‘zimiz va so‘zimiz. T -1997. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 16-bet.

4. O‘zbek xalq maqollari. T – 1989. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 172-76-betlar.

5. To‘xliev B, Karimov B, Usmonova K. Adabiyot. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinf va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik – majmua. I qism. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T – 2017, 93-94-betlar.

## O‘ZBEK TILIDA *-NING* QARATQICH KELISHIGI O‘ZLASHISHI TAJRIBASIDAN
## THE ACQUISITION OF *-NING* GENITIVE CASE IN UZBEK AS A FIRST LANGUAGE

***O. Saidaxmedova***
***ToshDO‘TAU***
***tayanch doktoranti***

**Abstract:** The acquisition of genitive case in Uzbek as a first language is an interesting issue of applied linguistics. In this article, the acquisition process of genitive case is defined and analyzed the experiment’s results.

***Key words:*** *genitive case, language acquisition, first language, acquisition process, young children.*

Tabiiy tartib gipotezasi – grammatik shakllarning tizimli tartibda o‘zlashtirilishi bo‘lib, ona tilini o‘zlashtirishda muayyan qo‘shimcha boshqa qo‘shimchalarga qaraganda avvalroq o‘zlashtiriladi. Ona tilida grammatik shakllarning o‘zlashish tartibini aniqlash bo‘yicha dastlabki tadqiqot R.Brounga tegishi. U ingliz tili ona tilisi bo‘lgan 3 ta bolani kuzatdi hamda har uchala bolada ham grammatik shakllarning o‘zlashtirilish tartibining bir xil ekanligini kuzatish va turli metodlar yordamida aniqladi. Unga ko‘ra, ingliz tilidagi hozirgi zamon qo‘shimchasi *–ing* ko‘pli qo‘shimchasi *–s* va fe’ning umumzamon qo‘shimchasi *–s* ga qaraganda avvalroq o‘zlashtiriladi [2].

O‘zbek tilida qaratqich kelishigi bitta ma’noni – qaralmish anglatgan predmet yoki belgi qaratuvchi anglatgan predmetga (yoki predmet deb tasavvur qilinuvchi belgiga) qaratilganini – bildiradi. *-ning* qaratqich kelishigi ismni ismga aniqlovchi sifatida bog‘laydi [3].

O‘zbek tilida qarashlilik, tegishlilik ma’nosini *-niki* shakli, egalik qo‘shimchalari, qaratqichli birikma orqali ifodalash mumkin.

Qaratqich kelishigi affiksi egalik qo‘shimchasisiz ishlatilmaydi, bu kelishikning formasini murakkab analitik deb qarash kerak [4]. Qaratqich kelishigi ishtirok etgan birikmani tuzish boladan quyidagi vazifalarni bajarishni talab qiladi: semantik jihatdan to‘g‘ri valentlikdagi so‘zlarni tanlash, ularni shaxs va sonda muvofiqlashtirish hamda birikma tarkibidagi hokim va tobelanuvchini to‘g‘ri turlay olishi kerak. Shakldagi bunday murakkablik bolalardan uzoq vaqt davomida egalikning boshqa ifoda shakllaridan foydalanishiga olib keladi. Bundan tashqari, birikma chastotasining pastligi, egalikning yolg‘iz o‘zi ham nutqda mavjud bo‘la olishi qaratqich kelishigining kech o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi. Tajriba davomida bolalar nutqida bu birikmaning uchrash holati juda kam ekani aniqlandi. Kuzatuv-tajribaga ko‘ra, kattalar bolaga tegishli buyumlarni so‘rashda yoki tushuntirishda ham asosan egalik shakllaridan foydalanishadi. Masalan;

- O‘yinchog‘ing qani?
- Ana;
- Sumkangni ol;
- Ovqatingni ye va h.k.

Bolalar dastlab, asosan, I shaxs kishilik olmoshi va ot ko‘rinishidagi birikmani shaxs yoki narsa-buyumning o‘ziga tegishli ekanini ta’kidlash uchun tarkibida *-niki* shakli bo‘lgan birikma tuza boshladilar: *kani maniki papagim (paypog‘im); maniki avkatim ber, maniki kaymagim yep ko‘yma (yeb qo‘yma), maniki apam yatti (yaxshi)* kabi. *-niki* shaklining qaratqich shaklidan avvalroq o‘zlashishi bolalarda egalikni ifodalashda birikma holatida ham shu shaklning mavjudligini izohlaydi. Bu yanglishlar bolaning egalikni ifodalashning *-ning* shakli ham bor ekani bola persepsiyasida mavjud emasligini ko‘rsatadi va bolalar bu holat toki *-niki* shaklidan keyin ot so‘z turkumi kelmasligini farqlaguncha davom etadi.

Qaratqichli birikmalar, asosan, turli vaziyatlarda qaysidir shaxs yoki narsani aynan o‘ziga tegishli ekanini ta’kidlash maqsadi ifodasi o‘laroq bolalar nutqida namoyon bo‘ldi: *mani titim (mashinam), meni joyim, qoch, meni okatim (ovqatim), mani tonim (telefonim), meni ayam*.

III shaxs egalik ma’nosini ifodalash biror narsa-predmetga egalik qiluvchi shaxsni yoki narsa-predmetni ham ko‘rsatishni talab qiladi. Shu sababli dastlabki birikmalar nutqda turlanishsiz holatda ekanini kuzatish mumkin. Masalan, *miyav akat bo‘ldi (mushukning ovqati tayyor bo‘ldi), kiymi karbaba (qorboboning kiyimi), kus balasi ketti (qushning bolasi ketti), amami kolani itma (ammamning kolasini ichma)* misollarida birikma tarkibidagi har ikki qo‘shimchani yoki bir qo‘shimchani tushirish yoki qaratqich va qaralmish o‘rnining almashib qolish holatlari mavjud. Ifodadagi murakkablik yuqoridagi xatolarni keltirib chiqaradi. III shaxsda qaratqichli birikma tuzish semantik jihatdan ham qiyinchilik tug‘diradi, chunki bu shaxsda qaratqichni aniqlash hamda so‘zning albatta ifodalanishi zarurati mavjud.

Kuzatuv-tajribaga ko‘ra, qaratqichli birikmalarning qo‘llanilish holati kam. Shunga qaramay, ularning ot-kesim va fe’l kesim bilan birga qo‘llash holatlari ham uchradi: *mani adam yashi (yaxshi), mani kulim (qo‘lim) yag‘, Atalli tapskasini abeli (Asalning tapochkasini olib beray), mani kulagimmi tadalati (qulog‘imni tozaladi).*

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Azimova I.A. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. https://shokiryuldash.blogpost.com/2020/04/ona-tili-talimida-lisoniy-malakani.html
2. Brown, R. (1973) A first language: The early stages. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2018. -B.140.
4. Сайфуллаева Р. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009. -Б.219.
5. Слобин Д., Грин Дж. Психолингвистика. – М: Прогресс, 1976. 350 с.

# O‘ZBEK BOLALARI NUTQIDA LEKSIK ASSOTSIATSIYALARNING IFODALANISHI
# EMERGENCE AND EXPRESSION OF LEXICAL ASSOCIATIONS IN THE SPEECH OF UZBEK CHILDREN

***D. Mirnosirova***

**Abstract:** This article discusses the factors, types of lexical associations observed in the speech of Uzbek children, and the role and importance of vocabulary in the development of lexical associations. The article also provides examples of the results of associative experiments among children.

***Key words****: lexical association, types of associations, vocabulary, associative experience, factors that shape lexical association*

Muloqot jarayonida inson o‘z fikrini to‘liq va erkin ifodalashi uchun dastavval so‘z boyligiga ega bo‘lishi, uni bosqichma-bosqich boyitib borishi zarur. Kattalarda bu holat ko‘p kitob mutolaa qilish, atrof-muhit haqida chuqur bilimga ega bo‘lish orqali yuzaga kelsa, kichik yoshdagi bolalarda tabiat va undagi mavjudotlarga qiziqish, ularni muntazam kuzatish asosida namoyon bo‘ladi. Albatta, bu jarayon tez fursatda emas, balki tadrijiy ravishda amalga oshadi. Ilmiy manbalarda bola dunyoqarashining kengayishi, uning kattalar bilan muloqoti so‘z boyligining bosqichma-bosqich ravishda ortib borishiga sabab bo‘lishi ta’kidlanadi. [Эльконин, 1958: 115] E’tibor berilsa, bola ulg‘aygani sari uning lug‘at zaxirasidan turli so‘zlar o‘rin egallay boshlaydi, 7-8 yoshli bolalar leksikoni 4-5 yoshli bolalarning lug‘at zaxirasiga nisbatan ancha boy bo‘ladi. Ushbu mavzuda tadqiqot olib borgan Sh. Bueller 1 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan 30 nafar bolaning lug‘at zaxirasini qiyosiy o‘rganish orqali, har bir yosh davri uchun minimal va maksimal so‘z boyligini ko‘rsatib beradi va bu borada mavjud individual farqlanishlarni qayd etadi: 1-yosh - minimal so‘z boyligi – 3 ta so‘z, maksimal so‘z boyligi – 58 ta so‘z, 1 yoshu 6 oy - 44 ta va 383 ta so‘z, 2- yosh - 45 ta va 1227 ta so‘z, 2 yoshu 6 oy – 171ta va 1509 ta so‘z. [Эльконин, 1958: 115]

Demak, bolalar so‘z boyligi yildan yilga ortib boradi. Biroq bu boradagi statistik ma’lumotlar nisbiy xarakterga ega bo‘ladi. Tengdosh bolalar so‘z boyligining sifat va miqdor jihatdan muayyan darajada farqlanishida ijtimoiy-psixofiziologik omillarning ta’siri va ahamiyati kattadir. Ontogenez davrida bola tomonidan nafaqat so‘zlar o‘zlashtiriladi, balki shu so‘zlar vositasida bola ongi va tafakkurida bog‘lanishlar, ya’ni assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, “inson o‘z xotirasida so‘zlarning ma’nolari bilan birga ularning obyektiv olamda o‘z sezgi a’zolari orqali his etgan xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni ham saqlaydi. Shu sababli muayyan so‘z uni eshituvchi odam xotirasida muayyan assosiasiyalarni paydo qiladi”. [Xudoyberganova, 2015: 101]

Bola ham ongi ostidagi so‘zning tabiatdagi narsa va hodisalar bilan bog‘liqligini, ular bilan muayyan belgi orqali semantik guruh hosil qilinishini his etadi. Bu jarayonda bolalarda tabiiy ravishda verbal assotsiatsiyalar shakllana boshlaydi. N.V.Serebryakova 5-8 yoshli bolalarga xos og‘zaki assotsiatsiyalarning tabiatini tahlil qilish asosida nutqi me’yorida rivojlangan bolalar tomonidan semantik maydon hosil qilinishining quyidagi bosqichlarini aniqlaydi:

Birinchi bosqich shakllanmagan semantik maydon bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda bola atrofdagi vaziyatni idrok etishga tayanadi va uni qurshab turgan narsalarning nomlari reaksiya so‘zlari sifatida ustunlik qiladi. Mazkur davrda leksik izchillik shakllanmagan bo‘ladi.

Ikkinchi bosqichda ma’no jihatdan bir-biridan sezilarli darajada farqlanadigan, ammo ma’lum bir obrazlar munosabati orqali hosil bo‘ladigan so‘zlar o‘zlashtiriladi. Bu holatda bola ongidagi tematik assotsiatsiyalar ustunlik qiladi. Masalan, uy-tom, baland-daraxt va boshqalar. Bu bosqichda bog‘lanishlarning obrazli motivatsion tabiati namoyon bo‘ladi. Semantik maydon tarkibiy jihatdan tartibga solinmagan holatda aks etadi.

Uchinchi bosqichda tushunchalar va tasniflash jarayonlari amalga oshiriladi. Assotsiativ tajribada majoziy bog‘lanishlar o‘rniga paradigmatik assotsiatsiyalar (daraxt-qayin, baland-past) ustunligida namoyon bo‘ladigan, faqat bir differensial semantik xususiyat bilan farq qiladigan,

semantik jihatdan yaqin so‘zlar orasidagi bog‘lanishlar almashtiriladi. Semantik maydon tuzilishining farqlanishi mavjud bo‘lib, ularning eng xarakterli munosabatlari guruhlar va qarama-qarshiliklardir. N.V.Serebraykova shu tariqa bolalardagi og‘zaki assotsiatsiyalarni tematik assotsiatsiya, fonetik assotsiatsiya, paradigmatik assotsiatsiya, sintagmatik assotsiatsiya kabi turlarga ajratadi. [Serebraykova, 1968: 31-38]

Mazkur maqolada biz bolalarga xos leksik assotsiatsiyalar haqida so‘z yuritamiz. Chunki, hozirgi kunga qadar ontolingvistika doirasida bu turdagi assotsiatsiyalar yetarli darajada o‘rganilmagan. Tadqiqotimiz mavzusi shu jihatdan dolzarbdir.

“Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi” nomli monografik tadqiqotda leksik assotsiatsiyalarni yuzaga keltiruvchi omillar quyidagicha belgilangan:

1. Leksemalarning semantik jihatdan o‘zaro bog‘liqligi.
2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga ko‘ra aloqasi.
3. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko‘ra aloqasi.
4. Leksemalar pragmatik belgisining mushtarakligi.
5. Leksemalarning yasalishidagi umumiylik.
6. Leksemalarning talaffuzda hamohangligi.
7. Leksemalarning dialektal belgisiga ko‘ra bog‘liqligi.
8. Leksemalar milliy-madaniy belgisining mushtarakligi.
9. Leksemalarning ijtimoiylik belgisiga ko‘ra yaqinligi.
10. Leksemalarning gender belgisiga ko‘ra aloqasi. [Lutfullayeva, 31-32]

Kuzatuvlarimizga ko‘ra, bolalarga xos leksik assotsiatsiyalar ko‘pincha leksemalarning semantik jihatdan bog‘liqligi hamda leksemalar pragmatik belgisining mushtarakligi asosida yuzaga keladi. Bu holat badiiy asar matnida bola tilidan ifodalangan leksik birliklarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. *Jumladan, Elak tap-tap etadi. Tagidan supraga un yog‘iladi. Xuddi* ***qordek***. [Hoshimov, 2017] misolida “un” va “qor” so‘zlarining assotsiativ munosabatga kirishishiga nolisoniy (pragmatic) omil sabab bo‘lgan. Chunki bu kabi holatlarda leksik birlik orqali ifodalangan narsa-predmet adresant ko‘z o‘ngida rangi bilan birga gavdalanadi. Natijada tashqi belgisiga ko‘ra o‘xshashlikka asoslangan verbal assotsiatsiyalar yuzaga keladi.

Maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi o‘ttiz nafar bola nutqi ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajriba jarayonida retsipiyentlar tomonidan stimul so‘zlarga berilgan javob reaksiyalari mazkur yosh davrida bir so‘z yodga solinganda unga bog‘liq, ya’ni shu so‘z bilan bir uyaga mansub bo‘lgan leksik vositalarning lisoniy xotirada tiklanishini aniqlash imkonini berdi. Bunda tajriba ishtirokchilariga kundalik hayotda faol qo‘llaniladigan 10 ta so‘z og‘zaki ravishda taqdim etildi. Sinaluvchilarga har bir so‘zni eshitganda ko‘z o‘ngida nimalar gavdalanganini birma-bir aytish vazifasi topshirildi. Masalan: Robiya Sharofiddinova (4 yosh) “qush” so‘zini eshitishi bilan uning tana a’zolari nomini (***qanot, tumshuq, ko‘z*** kabilar) ayta boshladi. Ushbu nutqiy vaziyatda bola tomonidan ifodalangan somatizmlarning (tana a’zolari nomi) har biri “qush” so‘zi bilan partonimik munosabatga (butun-bo‘lak munosabati) kirishib, leksik assotsiatsiyani hosil qilgan. Bu holat semantic aloqadorlik asosida, ya’ni lisoniy omil ta’sirida yuz bergan. Mazkur retsipiyent “sariq” so‘zini eshitganda ***quyosh, uning nurlari*** deb javob berish orqali muayyan belgiga ko‘ra aloqadorlikka asoslangan verbal assotsiatsiayni yuzaga keltirdi.

Maktab yoshidagi bolalar o‘rtasida o‘tkazilgan tajriba jarayonida lug‘at zaxirasining boyishi va takomillashuvi natijasida bola leksikonida mavjud stimul so‘zga javob reaksiyasi sifatida namoyon bo‘luvchi assotsiativ tafakkur mahsuli ham miqdor jihatdan ortib borishi aniqlandi. Soliha Sharofiddinova (8 yosh) nutqi ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Soliha “sariq” so‘ziga javob sifatida ***quyosh, jo‘ja, sariq qalam, sariq ko‘ylak*** kabilarni, “tabiat” so‘ziga javob sifatida ***daraxt, osmon, yer, suv, quyosh*** kabi so‘zlarni qayd etdi.

Ko‘rinadiki, bola ulg‘aygan sari uning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari yanada kengayadi, u o‘zini o‘rab turgan muhitga o‘zgacha qiziqish bilan qaray boshlaydi. Bu jarayonda bola dastlab borliqdagi narsa-hodisalarning nomini bilishga intiladi. Natijada uning so‘z o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoji ortib boradi. So‘z boyligining ortib borishi esa o‘z navbatida nutqning rivojlanishi, bolalar kommunikativ faoliyatida kuzatiladigan lisoniy to‘siqlarning bartaraf etilishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bolalar so‘z boyligining ortishi ularning lisoniy ongida leksik assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi, semantik jihatdan aloqador bo‘lgan lug‘aviy birliklar ko‘lamining kengayishiga zamin yaratadi. Bu borada olib boriladigan ilmiy va amaliy izlanish natijalari leksikologiya, ontolingvistika, psixolingvistika va assotsiativ tilshunoslikda ilgari surilgan nazariyalarni yangicha yondashuvlar bilan yanada boyitishda o‘ziga xos o‘rin tutadi, shu bilan bir qatorda, assotsiatsiyalar lug‘atini yaratish orqali leksikografiyaning taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Bolalar assotsiativ lug‘atini tuzish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Эльконин Д.Б. Развитие речи в дошкольном возрасте. – М.: Изд-во Акад. пед. наук РСФСР, 1958.

2. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015.

3.Серебрякова Н.В., Парамонова Л.Г. Особенности организации семантических полей у детей с общим недоразвитием речи // Межвузовский сборник. – Л. 1986.

4. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: 2017.

5.Ҳошимов Ў. “Икки эшик ораси”. – Тошкент: 2017.

## NUTQ TA’SIRINI OSHIRUVCHI BIRLIKLAR
## UNITS THAT INCREASE THE EFFECT OF SPEECH

***D. Sodiqova***
***184-maktabning ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi***

**Abstract:** the article analyzes the use of units of speech in the Uzbek language - proverbs, phrases and descriptive expressions in oral and written speech. The scientific ideas cited are supported by examples from fiction and live speech. The article also examines the scientific work of Uzbek linguists on this topic and uses them scientifically.

***Keywords:*** *phrase, proverb, figurative expression, phraseology, language units, speech units.*

Eng avvalo, til o‘zining ijtimoiy mohiyatida ko‘zga tashlanadi. Til vositasida, aniqrog‘i, milliy tilning ravnaq darajasi boyligi rang-barangligi, imkoniyatlari orqali millatning tafakkur darajasi, millat fikrining miqyoslari aniqlanadi, uning ijtimoiy faollik belgilari ma’naviy salohiyatida namoyon bo‘ladi. Shu bois til millatning ruhini ifoda etadi, til millatning tiriklik belgisidir. “Tilimizning milliyligini, bejirimligini ta’minlovchi vositalardan biri iboralar bo‘lib voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda iboralarning o‘rni ahamiyati beqiyosdir. Iboralar umuman olganda hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat holatlarni baholash turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir”. [“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali *1999,6, 59]*

Shuning uchun ham iboralar, tilshunos A. Mamatov ta’kidlaganidek “u yoki bu xalqning, yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tizimi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san’ati, fani urf-odati, dini kabilar bilan bog‘lanadi”. Yuqorida ta’kidlaganidek iboralar xalqning barqarorligi o‘ziga xos, turmush tarziga egalik belgisi hisoblanadi. Xuddi shuningdek tasviriy vositalar ham xalq yaratgan ifodalardir. Ular (iboralar va tasviriy ifodalar)ni o‘quvchilar ongiga yetkazish, singdirish, o‘z nutqlarida qo‘llay olish darajasini shakllantirish ona tili o‘qituvchilarining zimmasidagi buyuk vazifa sanaladi.

Frazeologiya tilshunoslikning frazeologik birliklarini o‘rganuvchi sohasidir. Frazeologiya termini tilshunoslikda ikki ma’noda qo‘llaniladi:

1. Tildagi frazeologik birliklarning jami ma’nosida.

2. Shunday birliklarni o‘rganuvchi soha (fan) ma’nosida.

Ikki yoki undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma’no ifodalaydigan til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi: qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, og‘zi qulog‘ida, yuragiga, ko‘ngliga qil sig‘maydi, do‘ppisi yarimta ikki gapning birida, sirkasi suv ko‘tarmaydi

kabilar. Demak, leksikologiya tilning luga‘t sostavini (leksikasini) frazeologiya esa frazeologik birliklar sostavini o‘rganadi. Lug‘at sostavida til birligi so‘z bo‘lsa, frazeologiya sostavida frazeologizm til birligidir.

Tilning lug‘at boyligi leksikasi va frazeologiyadan iboratdir. So‘z ham, frazeologizm ham lug‘aviy birliklar hisoblanadi. Frazeologizmlar birdan ortiq so‘zdan tashkil topishi bilan so‘z birikmasi yoki gap tipida bo‘lsa-da, lekin ular nutq birligi bo‘lgan bu birliklardan tamoman farqlanadi, va lug‘aviy birlik sifatida ko‘p jihatdan so‘zlarga yaqin turadi, so‘zlarga xos bo‘lgan juda ko‘p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir. Frazeologizmlar so‘z birikmasi yoki gaplar kabi nutq jarayonida hosil bo‘lmaydi, balki ular xuddi so‘zlar kabi tilda tayyor holda mavjud bo‘ladi. Demak, frazeologizmlar til hodisasi hisoblanadi: aravani, quruq olib qochmoq, kovushini to‘g‘rilab qo‘ymoq, sichqonning ini ming tanga, tomdan tarasha tushganday, nog‘orasiga o‘ynamoq, kapalagi uchib ketdi kabilar tilda tayyor holdagi lug‘aviy birliklardir.

Frazeologizmlar ham xuddi so‘zlar kabi shakl va ma’no butunligiga ega. So‘zning shakliy tomonini tovushlar hosil etsa frazeologizmlar shakliy tomonini so‘zlar hosil etadi: yoqlamoq-yon bosmoq, rahmdil-ko‘ngli bo‘sh kabi.

Tilda ham shakl va ma’no bor. Tilda shakl deb odatda tilning materiyasi – tovush ko‘zda tutiladi. Buni tilning ifoda plani deb yuritiladi. Ular (tovushlar) birikib tilning asosiy birliklaridan bo‘lgan so‘zni hosil qiladi. So‘z anglatgan ma’no til birligining mazmun plani deb yuritiladi. Bunday ma’no tilda (til bosqichida) berkitilgan bo‘ladi; nutq shuni qalqitib beradi.

Ma’lum obraz asosida yuzaga kelgan ustama ko‘chma ma’noga frazeologik ma’no deyiladi. Masalan: til tekkizmoq iborasi “sha’niga nomunosib, nohaq gap aytmoq” ma’nosini anglatadi. Bu ma’no to‘g‘ridan to‘g‘ri ibora tarkibidagi leksemalarning ma’nosidan kelib chiqmaydi. Masalan: batareyaga til tekkizsam, hech toki yo‘q ekan gapida erkin birikma ishlatilgan bunday ishlatishda til va tekkizmoq so‘zlari ma’no mustaqilligini saqlab bog‘lanadi, ma’noda yaxlitlanish yuz bermaydi.

Kechagi majlisda menga ham til tekkizibdi gapi tarkibida yuqoridagi erkin birikma emas balki, til tekkizmoq iborasidan foydanilgan. Aytilganlardan ma’lumki, fazeologik iboralardan anglashilgan ma’no nutq sharoitiga mos holda qo‘llanilsa, nutqning ta’sir kuchini oshiradi, shu bilan birga uning ifodaliligini oshiradi. Ona tili darslarida buning ahamiyati katta.

Bittadan ortiq ma’noni anglata olish til birliklariga xos xususiyat bo‘lib, u iboralarning ham talay qismida uchraydi. Polisemantik iboralarning ko‘pi ikki ma’noli uch ma’noli iboralar anchagina; to‘rt, besh ma’noli iboralar ham uchraydi. Masalan: bosh(i)ga qilich kelsa ham (har qanday sharoitda ham) iborasi bitta ma’noni, aqli yetadi (1. idrok qilmoq uqimoq, bilmoq, 2. ishonch hosil qilmoq) iborasi ikkita ma’noni, bo‘yniga qo‘ymoq iborasi uch ma’noni 1.(“ayb”ni). To‘nkamoq, ag‘darmoq. 2. (“ayb”ni). To‘nkamoq, ag‘darmoq. Isbotlab, e’tifof qildirmoq. 3. (biror ishni bajarishga rozi qilmoq) anglatadi. Misollardan ko‘rinib turibdiki iboralardagi ko‘p ma’nolilik nutqning o‘ta nozik ifodasi imkoniyatini yaratadi.

Sinonimlik til birliklari orasidagi semantik mikro sistemalardan biri bo‘lib, iboralar orasida ham anchagina. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma’noni anglatishi shart. Bu siz sinonim iya haqida gapirib bo‘lmaydi. Ayni bir ma’nolilikni teng ma’nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim , shu sinonim iya uyasi uchun umumiy ma’no o‘zanidan tashqari, o‘ziga xos ma’no qirrasiga ega bo‘ladi. Sinonim lar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo‘ladi. Shulardan biri ma’no qirrasidagi farq bo‘lishi mumkin. Masalan: yer bilan yakson bo‘lmoq-yer bilan yakson qilmoq iborasi kulini ko‘kka sovirmoq kuli ko‘kka sovirildi iborasiga sinonim : ayni bir ma’noni anglatadi.(“butunlay yemirmoq, yo‘q qilmoq”) Bu sinonimlar boshqa belgi-xususiyatlardan qat’iy nazar ma’no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma’no bir qadar kuchli Frazeologik sinonim larni belgilashda ular asosida boshqa- boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan: bir og‘iz, bir shingil, bir chimdim sinonim iboralari asosida har xil obrazlar yotadi; bir bosh uzumning qismi; chimdim olinadigan miqdor.

Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo‘lib, iboralarda ham so‘zlardagi darajada uchraydi. Anotomiyani belgilash, bir tomondan chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan polisemiyada bir iboraning ma’nolarini o‘zaro farqlashga yordamlashadi uchinchidan, sinonim larni belgilashda ham foyda keltiradi. Barcha leksik

komponentlari boshqa-boshqa so‘zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson: savol bermoq va javob qaytarmoq; yerga urmoq va ko‘kka ko‘tarmoq kabi. Birinchi antonimlar tarkibidagi har bir so‘z komponentlar ikkinchi antonimlar tarkibidagi har bir so‘z-komponentlari o‘zaro antonim. Quyidagi antonym iboralar tarkibida qatnashgan leksik komponentlar- ayni bir so‘zning o‘zi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonim so‘zlar: yurag(i) keng va yurag(i) tor. Boshqa bir misol: ko‘ngil(i) joyiga tushdi va yurag(i)ga g‘ulg‘ula tushdi. Bu antonim iboralar tarkibidagi leksik, komponentlarning uchinchisi ayni bir so‘z, birinchisi o‘zaro sinonim, ikkinchisi esa o‘zaro ma’no munosabatini hosil qilmaydi. Ko‘rinadiki, antonim iboralar tarkibidagi antonim so‘z-komponentlari qatnashavermaydi. Antonimiya iboradan yaxlitligicha anglashiladigan lug‘g‘aviy ma’no asosida belgilanadi. Antonimik iboralardagi ana shunday ma’no nozikliklarini anglash o‘quvchi tafakkuri rivojida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘qituvchi bunday holatlarga diqqatini qaratmog‘i lozim.

Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi omoniya-frazeologik birliklarda ham mavjud. Frazeologik omoniya odatda ikki ibora orasida voqe bo‘ladi: qo‘l ko‘tarmoq I va qo‘l ko‘tarmoq II kabi. Bu yerda omoniya ibora bilan ibora orasida voqe bo‘ladi, keltirilgan iboralar barcha muqobil shakllarda teng keladi: qo‘l ko‘tardim qo‘l ko‘taradi kabi. Shunga ko‘ra bu ikki iborani omonimlar deyish mumkin. Omonik munosabatdagi iboralarning leksik tarkibi ikki xil bo‘ladi:

1. Har ikki ibora tarkibidagi bir komponent esa ayni bir so‘zning o‘zi bo‘lad. Masalan: o‘ng kelmoq I va o‘ng kelmoq II iboralari tarkibidagi fe’l komponentlari ayni bir so‘z bilan, ism komponentlar esa omonim so‘zlar bilan ifodalangan: birinchi ibora tarkibidagi ters sifatining antonimi, ikkinchi ibora tarkibida esa tush otining antonimi qatnashgan.

2. Har ikki ibora tarkibidagi barcha komponentlar ayni shu so‘zlarning o‘zi bo‘ladi. Bunda ikki holat bor:

**a.** Iboralar tarkibidagi so‘zlar har xil leksik ma’nosi bilan qatnashadi. Masalan: dam bermoq I va dam bermoq II iboralari tarkibida fe’l komponentlari ayni bir leksik ma’nosi bilan, ot komponentlar esa boshqa- boshqa leksik ma’nosi bilan qatnashgan. (dam 1 –“havo”, “yel”; dam 2-“istirohat”)

**b.** Iboralar tarkibidagi so‘zlar ayni bir leksik ma’nosi bilan qatnashadi. Bunday omonimiyani izohlashda so‘z komponentlarga suyanib bo‘lmaydi, iboralar asosida yotgan voqelikka, shu voqelikdan olingan obrazga suyaniladi. Masalan: ichag (i) uzildi I va ichag (i) uzildi II iboralari tarkibidagi so‘z komponentlar ayni bir leksik ma’nosi bilan qatnashgan, ammo bu iboralar asosida boshqa-boshqa obraz yotadi: birinchi iborada qattiq va uzluksiz kulganda ichaklar silkina-silkina uzilib ketgudek bo‘lishidan, ikkinchi iborada esa uzoq muddat ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib, ingichkalashib, uzilish darajasiga yetishidan obraz olingan.

Frazemalar ikki turga bo‘lib o‘rganiladi:

1. frazeologik butunlik;

2. frazeologik chatishma;

I. Ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning ma’nolari asosida izohlanib, umumlashgan ko‘chma ma’no ifodalaydigan frazemalarga frazeologik butunliklar deyiladi. Masalan: 1.Bilib qo‘ying. Ish og‘ir. Belni mahkam bog‘lamasangiz, qiyin bo‘ladi (O.Yoqubov ). 2.Ayol kishiga qo‘l ko‘tarish erkakning ishi emas. (R.Fayziy). 3.Bu maydon yog‘ tushsa yalagudek ozoda…(A.Muxtor).

II. Ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning leksik ma’nolari bilan bog‘lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazemalarga frazeologik chatishmalar deyiladi. Masalan;

1.Qishki sessiyani yaxshi yakunladik, ammo bu hali-xamir uchidan patir (P.Qodirov).

2.Odamlar qo‘ltig‘dan tarvuzlari tushib, qishloqqa qaytishdi. (M.Ismoiliy).

3.Butun gavdasi qizlik latofati bilan yashnagan chog‘da boyvachcha uni ko‘z tagiga olib qo‘ygan edi. (Oybek). Frazeologizmlarning eng asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1.Frazemaning tarkibida ikki yoki undan ortiq leksema qatnashgan bo‘ladi.

2.Frazema yahlit bir lug‘aviy ma’noni ifodalaydi.

3.Frazemaning tarkibidagi so‘zlar o‘z leksik ma’nolarini yo‘qotgan bo‘ladi.

4.Frazema turg‘un birikma sifatida erkin birikma bilan faqat omonimik holatda bo‘ladi.

5.Frazemani faqat yahlitligicha almashtirish mumkin.

6.Frazema gapning tarkibida yahlitligicha bir sintaktik vazifada keladi. 7.Frazemani boshqa tilga so‘zma so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi, yahlitligicha tarjima qilinadi.

Yuqorida ta’kidlangandek, iboralar til hodisasi sanaladi. Bu haqidagi dastlabki ma’lumotni o‘quvchilar 5-sinfda olganlar va ularning o‘ziga xos tomonlarini yaxshi biladilar. Ma’lumki, iboralar nutqni bezovchi ta’sirchanligini oshiruvchi, nutqning rang-barangligini ta’minlovchi vosita sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Yo‘ldoshov M. “Cho o‘lponning xalq iboralaridan foydalanish mahorati”, “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali *1999-yil 6-son 59-bet.*

## PRAGMATIK TO‘SIQNING NUTQDAGI KO‘RINISHLARI
## THE MANIFESTATIONS OF THE PRAGMATIC BARRIER IN SPEECH

**B.Polvonova,**

***Farg‘ona davlat universiteti magistranti***

**Annotatsiya:** ushbu maqolada pragmatik to‘siq turlari va ularning nutqdagi ko‘rinishlari tahlil qilinadi. Bunda propozitsiya va presuppozitsiyaning nutqiy to‘siqqa aloqadorligi, pragmatik to‘siq so‘zlovchi nutqiy-ahloqiy ko‘rinishi va ma’naviy olamini o‘zida mujassamlashtiruvchi ekanligi misollar bilan tadqiq qilinadi.

**Abstract:** this article analyzes the types of pragmatic barriers and their appearance in speech .It is studied by examples that the composition and presupposition relate to the speech barrier , the pragmatic barrier embodies the colloquial-moral view and the spiritual world of speech.

**Key words**: pragmatic to‘siq, nutqiy akt, semiotika, propozitsiya, presuppozitsiya

Antroposentrik tilshunoslikda inson va u yashayotgan olam, so‘zlovchi-shaxsning nutqidagi lisoniy belgilargina emas, balki butun borliqdan ajratilmagan holda barcha tomondan tahlil qilinadi. Lingvistik progmatika nutqiy yo‘nalish bilan bog‘liq qator masalalarni o‘rgangani uchun matnning anglanishidagi o‘ziga xos qonun-qoidalarini aralashuv vaziyati bilan bog‘liq holda nutqning uslubiy , ya’ni rasmiy va norasmiy shakllari xususidagi masalalarni qamrab oladi. Sintaktik qurilmalarning nome’yoriy qo‘llanishi va fikr ifodalashning me’yorsiz uslubi hodisalari lingvopragmatikaning yo‘nalishi masalalari hisoblanadi.

Odatda, nutqiy aktuchta komponentdan tashkil topadi: adresant-matn–adresat [Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar, 1990: 493]. Lingvistik progmatika ana shu uch komponentni o‘zaro ikki tomonlama ifodalash va anglash munosabatini, bir tomonlama ayon bo‘lish munosabati kabilarni tadqiq etadi. Ma’lumki, so‘zlovchi-adresant (yoki kommunikant) matnni verbal vositalar bilan bayon qilishdan tashqari unda o‘zining xususiy maqsadini ham nazarda tutadi. Kommunikant mazmuniy tuzilish qatorlarini tinglovchiga aniq va to‘laqonli yetkazishida xalaqit beruvchi omillar pragmatic to‘siqlardir. Lngvistik adabiyotda bu “pomex” (shum) [Gelgard R.R., 2012: 156] atamasi bilan qo‘llanadi. Bunday to‘siqlar matndagi propozitsiya mazmunining anglanishi uchun to‘siq vazifasini bajaradi, bunda tinglovchi diqqatini asosiy axborotga emas, balki ana shu axborotning anglanishi uchun to‘siq bo‘lgan boshqa mazmunga qaratiladi. Ba’zi olimlar“ Pragmatik to‘siq xususida so‘zlovchi munosabati 0 darajani tashkil etadi. Pragmatik to‘siq mazmuni so‘zlovchining ichki maqsadiga aloqador bo‘lmaydi” [Gelgard R.R., 2012: 156] deb hisoblashadi. Lekin bunga qo‘shilib bo‘lmaydi. Agar pragmatic to‘siq adresantga tegishli jihati bo‘lmasa (maqsad tomonlama), atayin qo‘yilgan pragmatic to‘siqlar mavjud bo‘lmas edi. Biz pragmatic to‘siqni shartli ravishda ikki turga bo‘lib olishimiz kerak.

1. Sintaktik, semantik va pragmatik jihatdan lisoniy birliklarni to‘g‘ri farqlay olmaslik va noto‘g‘ri qo‘llash.
2. Barcha lisoniy birliklarni chuqur bilgan holda ataylab, ma’lum xarakterni yaratish uchun , pragmatik to‘siqni qo‘llash .

Birinchi turdagi pragmatik to‘siqlar so‘zlovchining matn yaratayotganda ma’lum bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmaganini anglatadi. Ya’ni u lisoniy birliklarni ishlatganda ( o‘zi yaratgan

yoxud tarjima qilgan bo‘lsin) ba’zi xatolarga yo‘l qo‘yadi va tinglovchiga tushunarsiz, ehtimol, yoqimsiz bir vaziyat vujudga keladi. Nizomiddin Mahmudov takrorlarni qo‘llashda quyidagi ikkita misol orqaliikkixilvaziyatniko‘rsatadi [N.Mahmudov, 2018: 196]:

1.“O‘tkir **kapalakni** ushlamoqchi bo‘ldi. Biroq kaftlari orasiga qisib ushladim deganda, **kapalak** ko‘z ochib yumguncha boshqa gul ustida paydo bo‘lardi. O`tkir **kapalak**ning orqasidan quvlab charchadi, ko‘p ovora bo‘ldi. Axiyri, **kapalakni**

ko‘zdan yo‘qotib qo‘ydi” ***(A. Sodiqov, «Tog‘da» hikoyasi)***”

2. “Bir mahal tungi osmondagi bulutlar supurilib, **ozod-ozod** to‘lin oy samoda nur sochdi. Bir malak **bor edi**, kelin bo‘ldi, bir jayron **bor edi**, qafasga tushdi, bir qiz **bor edi,** turmush ostonasiga shu tariqa qadam qo‘ydi” ***(Isajon Sulton)***

Birinchi misolda *kapalak* so‘zining takrori g‘alizlik, ya’ni pragmatik to‘siqning birinchi turini hosil qilsa, ikkinchi misolda berilgan mashhur yozuvchining nutqidagi takrorlar alohida kayfiyat, intonatsiya uchun xizmat qilyapti. Adabiyotshunoslikda takror san’atiga oid bir qancha she’riy san’atlar (radd ul matla’, tasbe, tasdir, tarse, takrir, mukarrar, tardi aks, intizom kabi) va hattoki janrlar (tuyuq) borligini inobatga olsak, ba’zi adibla rpragmatik to‘siqni san’at darajasiga olib chiqqanini ko‘rishimiz mumkin. Abdulla Qodiriyning so‘zlash va yozish odobiga doir “So‘z so‘zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak” degan hikmatlarida ongsiz ravishda qo‘yilgan pragmatic to‘siqni nazarda tutgan [B.To‘xliyev va boshqalar,2017:220].

Adresant verbal ifodani berish bilan har doim ma’lum kommunikativ niyat –illokutivakt va nutqiy ta’sir etish- perlokutiv aktini sodir etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Biroq bu aktlar so‘zlovchi tomonidan hamisha ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmaydi. So‘zlovchining verbal ifoda bayon qilish uslubi asosidagi pragmatic to‘siq kommunikantniyatini yuzaga chiqishi uchun to‘siq bo‘ladi. Bunda tinglovchi diqqati matn tarkibidagi asosiy mazmunga emas, balki nutq sub’yekti ifoda etayotgan nutqiy aktlarning talaffuz qilish uslubi ta’sirida yuzaga chiquvchi ma’lumotlarga jalb bo‘ladi. [B.To‘xliyev va boshqalar, 2017:220]. Tildagi ma’lum lisoniy birliklarni farqlay olmaslik (masalan, sinonimlar nozik ma’no farqi, paronimlik, uslubga xoslik, sintaktik qurilmalar) , yoki bir tildagi so‘zning boshqa tilga tarjimasini aniq chiqara olmaslik , nojo‘ya takrorlar, mantiqiy g‘alizlik kabilar **qo‘pol pragmatic to‘siq** bo‘lsa, ko‘pincha obrazning ichki ma’naviyatini ochish uchun qo‘yilgan nofaol qatlam so‘zlari (vulgar, varvar so‘zlar, shevalar) , ongli takrorlar va shunga o‘xshash boshqa hodisalar **nozik pragmatic to‘siq** deyilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. “U yoki bu hodisani pragmatic to`siq sifatida tasnif qilishda quyidagi faktorlar muhim o`rin tutadi:

1. Rejalashtirilgan pragmatic effektning belgilari.
2. So`zlovchi va tinglovchi o`rtasidagi ijtimoiy munosabatlar.
3. Tezaurus (intellektim koniyati) fondi va xarakteri.
4. Lingvistik materialning xususiyati” [Kiseleva L.A., 2008:135]

Adresant nutqidagi so‘z va iboralarning ma’nosi boshqa tilde qanday ma’no bildirishini anglamasdan qo‘llash ham tinglovchiga illokutiv hamda perlokutivaktni tushunishda to‘siq bo‘lishi mumkin. Masalan, rus tilidagi “dub”(daraxt) so‘zi ko‘chma ma’noda vulgar so‘zga aylanadi, ya’ni “bilimsiz, johil, madaniyatsiz” ma’nosida, lekin o‘zbek tilida dub daraxti ma’nosidagina ishlatilib ko‘chma ma’nosi yo‘q. Ushbu ham tarjimon subyekti so‘zdan o‘z o‘rnida foydalanmasa, pragmatik to‘siqning birinchi shakli namoyon bo‘ladi. Bunga Sh.Boshbekovning “Temir xotin” tragikomediyasidagi quyidagi diologni misol qilib keltirsa ham bo‘ladi:

**Olimjon:** — Shuning uchun men paxta teradigan mashina emas, paxta teradigan bio robot ustida ishlayapman. Tashqi ko‘rinishi odamdan farq qilmaydi. Ko‘radi, eshitadi, gapiradi! Xatti-harakati, imo-ishoralari, gap-so‘zi odamga maksimum darajada yaqinlashtirilgan.

**Qo‘chqor:** — Nima-simum?

**Olimjon:** — Maksimum. Masalan, boshqaruv blokiga yumor hissi bilan bog‘liq mikrosxema o‘rnatilsa...

**Qo‘chqor:** — Nima-sxema?

**Olimjon:** — Mikrosxema. ”

Ko‘rinib turibdiki dramaning ikki ishtirokchisi o‘rtasidagi nutqda birining ikkinchisini anglashida , ya’ni so‘zlovchi – Olomjon va tinglovchi – Qo‘chqor aka deb olsak, qator pragmatik to‘siqlar namoyon bo‘lyapti. Birinchidan, olimning oddiy dala mehnatkashidan bilimlarining chuqurligi tufayli ilmiy atamalarni ko‘p ishlatishi natijasida paydo bo‘layotgan to‘siqlar, ikkinchisi, saviya va did borasidagi qarashlar.

Pragmatik to`siq so`zlovchining nutqiy axloqi ko`rinishlaridan biri sifatida uning ichki ma’naviy olami xususidagi ma’lumotdir. Shuning uchun ham nutq so`zlovchining ma’naviy qiyofasini o`zida mujassamlashtiradi. Pragmatik to‘siq misolida nutqdagi ba’zi g‘alizliklar, jumladan parazit so‘zlar, konselyar so‘zlar, dialektikaga oid so‘zlarni ham olish mumkin. Chunki ularning nutqda qo‘llanishi tinglovchi-kommunikatda nutqning tushunilishi bo‘yicha qiyinchilik tug‘diradi.

Pragmatik to‘siqlarni o‘rganish va tahlil qilish yordamida biz nutqning sofligi, ifodaliligi va jo‘yaliligiga erishishimiz mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar. – M., 1990, s.493.
2. Gelgard R.R. Pomexi v ponimani irechevixso obshyeniy. Russkiy yazik v shkole.
3. N.Mahmudov va boshqalar Ona tili 11-sinf :.«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti,Toshkent—2018
4. B.To‘xliyev va boshqalar Adabiyot: darslik-majmua:. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi » Davlat ilmiy nashriyoti,Toshkent—2017
5. Kiseleva L.A. Voprosi teori i rech evo govozd deystviya. – L., 2008. – S.135


## REKLAMA MATNLARI PRESUPPOZITSIYASI
## PRESUPTION OF ADVERTISING TEXTS


***N.Allaberganova***
***TDO‘TAU magistranti***



**Annotatsiya:** o‘zbek tilida reklama matnlarining tushunarliligi, ta’sirchanligi va jozibadorligining ochib berilishi, matnning adresat ongida bevosita va bilvosita sintezlanishi muhim hisoblanadi. Maqola reklama matnlari va ularda uchraydigan presuppozitsiya hodisasi haqida, shuningdek, unda matn va uning turlari, reklama matni va uning tasnifi, presuppozitsiya hodisasi va matnning tushunilish jarayonidagi implikatsiyalar hamda reklama matnlaridagi presuppozitsiya hodisasiga namunalar haqida so‘z boradi.



***Kalit so‘zlar:*** *matn, xabar mazmunli matnlar (Le texte informative - informativ matn), reklama , presuppozitsiya, implikatsiya.*



**Abstract:** revealing the comprehensibility, effectiveness and attractiveness of advertising texts in the Uzbek language, and the direct and indirect synthesis of a text in the minds of the addressee are both of great importance. The article deals with advertising texts and the phenomenon of presupposition in them, as well as the text and its types, advertising text and its classification, the phenomenon of presupposition and implications in the process of understanding the text, and examples of the phenomenon of presupposition in advertising texts.



***Key words****: text, informative texts (Le texte informative - informative text), advertising, presupposition, implication.*


Matn tuzuvchi muayyan voqea-hodisa yoki narsa, shaxs haqida hikoya qilish, ularni tasvirlash yoki ular haqida muhokama yuritish kabi maqsadlarni ko‘zda tutadi. O‘zaro va tarkiban bog‘langan gaplar ketma-ketligidan iborat yozma yoki og‘zaki shakldagi yaxlit birlik matn sanaladi. Ma’lumki, «Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida matn so‘zining arabchadan o‘zlashganligi, eskirgan kitobiy so‘z ekanligi va aynan tekst so‘zi anglatgan ma’noga tengligiga ishora qilinadi. Izohli lug‘atning 156-betida tekst so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: 1. Yozilgan, ko‘chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti. 2. Muzika asariga,

masalan, biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo‘lgan she’r, so‘z. 3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi. Bu ta’rifda matnning asosiy xususiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Faqat axborot-kommunikatsiya vositalarining taraqqiy etishi natijasida matn (tekst) so‘zi anglatadigan ma’no yana-da ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Kompyuterda terilgan matn formati Word, RTF matn, oddiy matn, formatlangan matn, gipermatn kabilar ham iste’molda faollashdi. *Ifoda maqsadiga va mazmuniga ko‘ra* badiiy matnni quyidagi turlarga bo`lib chiqish mumkin: 1. Hikoya mazmunli matn. 2. Tasviriy matn. 3.Izoh mazmunli matn. 4. Didaktik matn. 5. Xabar mazmunli matn. 6. Buyruq mazmunli matn. 7. Hissiy ifoda mazmunli matn.

***1. Hikoya mazmunli matnlar (Le texte narratif – narrativ matn).*** Bunday matnda muallif yoki asar qahramoni o`zi boshidan o`tkazgan eshitgan, ko‘rgan yoki guvoh bo`lgan biror voqeani hikoya qilib beradi. Xotiralar, esdaliklar, ertak va rivoyatlarni narrativ matn turiga kiritish mumkin. Hikoya tarzi, asosan, o`tgan zamon shaklida, birinchi shaxs birlik yoki ko`plikda ifodalanadi.

***2. Tasviriy matnlar (Le texte descriptif – deskriptiv matn).*** Bunday matn tinglovchiga noma'lum bo`lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabotot olamiga mansub mavjudot yoki qandaydir narsa-buyum hamda voqea-hodisani batafsil tasvirlab berish maqsadida tuzilgan bo`ladi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko`rinishi yetakchilik qiladi. Partonimik tasvir bunday matnning eng xarakterli xususiyati hisoblanadi, ya'ni tasvirlanayotgan obyektning dastlab, birlamchi xususiyati tilga olinadi. Keyin unga aloqador xususiyatlar va qismlardan so`z yuritiladi.

***3. Izoh mazmunli matnlar (Le texte argumtntatif-argumentli matn).*** Bunday matnda aytilayotgan fikrning ishonarliligini ta'kidlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash, o`zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil vajlarni keltirish argumentli matn turining o`ziga xos jihatlaridan hisoblanadi.

***4. Didaktik matnlar (Le texte explicatif- eksplikativ matn).*** Kimgadir pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o`rgatish istagi asosida tuzilgan matn eksplikativ yoki didaktik matn deyiladi.Maqsadga erishish uchun maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, masallardan namuna sifatida foydalaniladi.

***5. Xabar mazmunli matnlar (Le texte informative - informativ matn).*** Biror voqea-hodisa haqida xabar berish maqsadida tuzilgan yoki havola qilingan matnga informativ matn hisoblanadi. Badiiy matnda informativlik o`ziga xos tarzda bo`ladi. Oddiy xabardan farqlanib, estetik maqsad yuklangan bo`ladi.

***6. Buyruq mazmunli matnlar (Le texte injonctif-injonktiv matn).*** Buyruq hamda maslahat ohangi yetakchilik qiladigan, buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli taqiqlashlarni ifoda etadigan matn tipiga buyruq mazmunli matn deyiladi.

***7. Hissiy ifoda mazmunli matnlar (Le texte expressif - ekspressiv matn).*** Insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini, o`ziga xos pafos Bilan ifodalash maqsadida tuzilgan matnlar hissiy ifoda mazmunli matn deyiladi.

Biz yuqorida matn haqida qisqacha tushunchaga to‘xtalib o‘tarkanmiz ishimizni reklama matnlarini izohlash bilan davom qildiramiz.

Reklama — bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, mahsulot, shu jumladan, tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va texnologiyalar to‘g‘risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot.

Reklama matnlari xabar mazmunli matnlar sirasiga kiradi. Reklama turlari, ularning umumiy tavsifi va qo‘llanilish usullariga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

– ko‘rgazma reklamalari;
– matbuotdagi reklama;
– bosma reklamalar;
– plakat-grafika reklamalari;
– kino reklamalari;
– radio-reklamalari;
– yoritish reklamalari.

Reklama matnlari antroposentrizmga asoslanadi, chunki har qanday matn inson ehtiyojlariga xizmat qiladi. Reklama modeli AIDA (inglizcha AIDA-Attention-diqqat, Interest-qiziqish, Desire-istak, Action-harakat) atamasi 1896-yilda amerikalik reklama beruvchi Elmer Lyuis tomonidan taklif etilgan. Ushbu model reklamaning psixologik ta'sirini bosqichma-bosqich aks ettiradi: e'tiborni jalb qilish-qiziqish uyg'otish mahsulot yoki xizmat haqida aniq dalillar berish-qaror qabul qilish-xarid qilish.

Bugungi kunda reklama matnlarini va ularning ifodalanish usullarini o'rganish dolzarb va istiqbolli masalaga aylandi. Reklama matni til birliklarining lingvistik xususiyatlarini o'rganish milliy tilimizning o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilish bilan birga boshqa milliy madaniyat va mentalitet egasi bo'lgan reklama beruvchilarning niyatidan kelib chiqib, o'zbek istemolchisini biror harakatni amalga oshirishga undash nutqiy akti ijobiy yoki salbiy yakun toppish omillarini ham ochish imkonini beradi. Bu esa ushbu mavzuni tadqiq etish zaruratini belgilaydi.

Ta'kidlab o'tish joizki, mamlakatimizda reklama faoliyatini tartibga soluvchi "O'zbekiston Respublikasining reklama to'g'risida"gi qonuni 1998-yilda qabul qilinganligi hamda unga hozirga qadar 14 marta o'zgartirish va qo'shimcha kiritilgani ham bu masalaning dolzarbligidan dalolat beradi. Reklama hodisasini tadqiq qilishda turli fan mutaxassislari tomonian keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. G'arb va rus tilshunosligida D. Ogilvi, D. E.Rozental, N. N. Koxtev, K. Garri, X. Kaftanjiyev, K. Bove, U. Arens, I. Ya. Rashkov va boshqa ko'plab olimlarning tadqiqotlarida reklama matnining nazariy va amaliy masalalari, lingvistik jihatlari ma'lum darajada o'rganilgan.

Reklamalar o'zi ifodalagan umumiy ma'nodan tashqari yana boshqa ma'no, voqea-hodisalarga ishora qiladigan yashirin ma'nolarga ham ega bo'lishi mumkin. Bunday yashirin ma'nolarning ifodalanishi tilshunoslikda presuppozitsiya atamasi bilan yuritiladi.

Presuppozitsiya hodisasi hozirgi zamon lingvistikasi bilan mantiqiy semantika o'rtasidagi ko'prik hisoblanadi. Bu hodisa gapning to'g'ri anglanishi uchun eng zarur komponentdir. Chunki presuppozitsiya gapning vaziyat, kontekst, so'zlovchi va tinglovchilarning oldidan ma'lum bo'lgan umumiy bilimlari kabi elementlarni o'z ichiga oluvchi hodisadir. Shuning uchun har qanday gap presuppozitsiyasi taxlil etilmasa, to'g'ri baholanmaydi.

I.Ballertning fikricha, presuppozitsiya implikatsiyaning xususiy munosabatidan kelib chiqadigan va tekst ichidagi gaplarning bog'lanishini hosil qiluvchi zarur hodisa hisoblanadi. Chunki har qanday gapda birdan ortiq implikatsiya mavjud bo'lishi mumkin. Bu implikatsiyalar xususiy va nutqiy hisoblanadi. Xuddi shu implikatsiyalar asosida tekst ichidagi gaplar o'zaro bog'lanib, ma'lum mazmunga ega bo'ladi. Masalan, "Shampoo for radiant, soft & silky hair" tipidagi reklama matnini turli implikatsiyalarda tushunish mumkin. Jumlani bir o'qigandanoq "Yorqin, mayin va ipak sochlar uchun(ya'ni qattiq sochlar uchun emas) mo'ljallangan shampun" ma'nosi anglashilsa, yana bir tomondan " Shampun sochlarni yorqin,mayin va ipakdek qilishga mo'ljallangan" tarzidagi implikatsiya anglashiladi. Yoki dori reklamalaridan birida " Bobotik-qorin og'rimasligi uchun" degan jumlaga duch kelamiz. Ushbu matnning implikatsiyalari turlicha bo'ladi: "Bobotik qorinning qaysidir bir qismida hosil bo'ladigan og'riqning oldini oladi" yoki metonimiya asosida hosil bo'lgan sema, ya'ni qoringa aloqador bo'lgan ichki a'zo,oshqozon uchun mo'ljallanganlik" ma'nolari tushuniladi.

Ko'rinadiki, bir gap orqali bir qancha presuppozitsiyalar anglanishi mumkin. "Matn" semantikasi tadqiqi bilan shug'ullanuvchi yo'nalishlarning taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda gapning shakliy tuzilishida bevosita ifodalanmaydigan, ammo uning semantik qurilishida haligacha u yoki bu tarzda ishtirok etadigan semantik elementlar tilshunoslar diqqatini haligacha o'ziga jalb qilib kelmoqda. Shu o'rinda reklama matnlaridagi presuppozitsiya hodisasi nafaqat jumlalarning tushunarliligini ochib berish, balki komponiyalarning o'z mahsulotlari taqdimotlarida sog'lom raqobat qilish, o'zlarini kamtarona namoyish qilish vositasi vazifasini ham o'tab berishini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


- O'zbek tilining izohli lug'ati. –M.: Russkiy yazik, 1981, 452-b.
- 4-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 30-avgustdagi 404-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2002-y., 9-son, 164-modda

- https://hozir.org/reklama-haqida-umumiy-malumot-reklama-turlari-reklamaning-qoll.html
- Лазеров В.В. Некоторые аспекты теории пресуппозиции . В кн.: Проблемысемантического синтаксисаю Пятигорск, 1975 г. Стр.-3.
- Реферативный сборник. Проблемы теории текста. М.,1978. стр.-104.


## ERKIN VOHIDOV ASARLARINING LINGVO PRAGMATIK TADQIQI
## LINGUO-PRAGMATIC RESEARCH OF ERKIN VOHIDOV'S WORKS


***N.Sattarova***
***O‘zMU magistranti***



**Annotatsiya**: Ushbu ilmiy maqolada Erkin Vohidov she’riyatining lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi,shoirning yashirin ifoda imkoniyatlarini foydalanish mahorati ochib beriladi.



***Kalit so‘zlar:*** *lingvopragmartika, kommunikativ akt, yashirin ifoda, tagma’no, ishora, kinoya.*



**Abstract:** this scientific article analyzes the linguopragmatic features of Erkin Vahidov's poetry and reveals the poet's ability to use the possibilities of hidden expression.



***Keywords:*** *lingvopragmartika, communicative act, hidden expression, tag, sign, allegory.*


ErkinVohidov “so‘z bilan so‘zlashgan”, “til bilan tillashgan” atoqli o‘zbek shoiridir. Sal kam bir asrki, shoir ijodi o‘zbe kmillatining tafakkurini boyitishga, ruhiyati va qadriyatini saqlashga, so‘z nafosatini anglashga xizmat qilib kelmoqda. Shoir siyratiga jo bo‘lgan oqillik va donolik, ziyraklik va nuktadonlik, chuqur bilim va mantiqiy ko‘lam hali talaygina izlanishlarga ehtiyoj borligini ko‘rsatmoqda. Aynidamda ijodkorning serma’no va betakrori jodi alohida yondashuvni talab qilmoqda.

Erkin Vohidov ijodiyotiga xos pragmatic xususiyatlarning tadqiq qilinishi ilk bor amalga oshirilmoqda. Chunki lingvopragmatika yo‘nalishi o‘zbektilshunosligida to‘liq tadqiq qilinmagan sohalardan bo‘lib, bu yo‘nalishda hali ilmiy izohini topmagan muammolalar talaygina. Tilshunosolim Sh. Safarov qayd etganidek, “pragma lingvistika hamon “navqironlik” davrida. Navqironlik esa istiqbolli rejalarga to‘liqlikdir, hozircha hal etilishi lozim bo‘lgan muammolardan tap tortmaslikdir”.

Shu nuqtayi nazardan mazkur maqola Erkin Vohidov asarlarining pragmatic xususiyatlariga bag‘ishlangan dastlabki kichik tadqiqot sifatida ilmiy ahamiyatga ega. Ayni paytda ushbu tadqiqot natijasida erishilgan ilmiy xulosalardan oliy va o‘rta ta’limda, Erkin Vohidov asarlarini o‘rganishda foydalanish mumkin.

ErkinVohidovning yashirin ifoda imkoniyatlariidan foydalanish mahoratini “Donish qishloq latifalari ” hajviy she’rlar turkumi misolida tahlil qilishga urinib ko‘ramiz. Ushbu turkum hajviy she’r va latifalardan iborat bo‘lib, uni o‘qigan har bir kitobxonning yuziga beixtiyor kulgu yuguradi. Biroq shoirning o‘zi bu haqida shunday deydi: “ Donish qishloq latifalarini o‘qib hamma kuladi. Vaholanki, men ularni yig‘lab yozganman…..”.Ijodkorning bu fikrlaridan shu narsa anglashiladiki, demak, shoirning asl maqsadini tushunishga ehtiyoj mavjud. Shu nuqtayi nazardan biz quyida Erkin Vohidovning hajviy she’rlarida shoirning kommunikativ maqsadini ifodalashga xizmat qilgan tag ma’no shakllarini tahlil qilishga harakat qilamiz. “Tandir kiygan Matmusa” she’ridagi quyidagi parchaga e’tiborimizni qaratamiz:

Ayo do‘stlar, adashgan,
Bir mo‘mindan kulmaylik.
Matmusadek o‘zimiz
Tandirkiygan bo‘lmaylik.

She’rning kuchli va mantiqiy o‘rni aynan mana shu parchada keltirilgan. “Tandirkiygan” ifodasi orqali kinoya, kesatiq ottenkalariga ega bo‘lgan tag ma’no ifodalangan. Ya’ni shoir o‘zimiz yaratgan qoliplarni tandirdaykiyib olib, yo‘lni ko‘rolmay, osmonga qarab ketayotgan hollarimiz xususida istehzo bilan so‘zlaydi. Yoki “o‘ztandiri” ga kirib olib, boshqaruvni eshak miyaga topshirgan, natijada yo‘lini yo‘qotgan jamiyatni, insoniyatni o‘zligini anglashga chaqiradi.

“Matmusa rassom” she’ridagi shoirning nuqtayi nazarini, kommunikativ niyatini anglashga urinib ko‘ramiz. Shoir she’rda rassomchilikdagi tuturiqsiz “izim” lar ustidan piching qiladi:

Bu g‘arbdagi zo‘r usul
Antirasm der birov
Primitireizmda
Yangi oqim der birov.
Jilva qilib o‘zgacha
Bo‘y taratib turibdi
Matmusa chizgan surat
Dunyo kezib yuribdi.

Ushbu she’rda ifodaning yashirin ma’nosi - tag ma’no “ antirasm”, “ yangi oqim ”, “bo‘ytaratib turibdi” vositalari zamiridagi maqsadda namoyon bo‘ladi. Erkin Vohidov rassomchilik misolida jamiyatning deyarli barcha sohalaridagi kamchiliklarni tanqid qiladi. Ya’ni asl ijod namunalari, haqiqiy iste’dod durdonalari bir chetda qolib, yuzaki va yengil-yelpi “asar”larning qadri oshayotgani, qadri yuksalayotgani xususida kesatiq, istehzo bilan mohirona uslubda ifoda qiladi. Asl madaniy qadriyatlarni qadrlashga, e’zozlashga chaqiradi.

Yoki to‘qqiz oyda bajariladigan yumushni uchoyda bajarish talabini qo‘ygan, bajarilmagan ishni bajarildi deya bong urayotgan jamiyatning kulgili holati “Matmusaning uylanishi ” she’rida o‘ziga xos talqin qilinganini ko‘ramiz:

Alvon-alvonshiorlar
Paydo bo‘lar har joyda.
“Yangilikka- katta yo‘l ! “
“ To‘qqiz oyni - uch oyda!”
Alqissa shu ba’zida
Shunday bo‘lib qoladi –
Birov qilib mehnatni
Birov obro‘ oladi.

Shoir o‘zining asl maqsadini, kommunikativ niyatini kinoyali kulgu ortiga yashirgan. Bir qarashda yumoristik kulgu chaqiruvchi she’rdek ko‘rinsa-da, lekin aslida ijodkorning iztirobi, dardi yashiringan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Erkin Vohidov ijodiyotini lingvopragmatik jihatdan tadqiq qilish orqali shoirning asl niyatini, dardi-yu iztirobini anglashimiz uchun yo‘l ochiladi. Shuningdek, shoir tafakkurini yanada teranroq mushohada qilish, kechinmalarini his qilish imkoniga ega bo‘lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Erkin Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati“ mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Guliston – 2020.
2. Hakimov M. o‘zbek pragmalingvistika asoslari. Akadem nashr. Toshkent-2013.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. Toshkent – 2008.
4. Vohidov E. Qiziquvchan Matmusa. Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent – 2018.
5. Vohidov E. Tanlangan asarlar. “Sharq”. Toshkent – 2018.

## ULUG‘BEK HAMDAMNING ASARLARIDA INSON RUHIY HOLATI IFODALANISHINING LISONIY MANZARASI
## LANGUAGE VIEW OF THE EXPRESSION OF THE HUMAN SPIRIT IN THE WORKS OF ULUGBEK HAMDAM

**N.Toshpo`latova**

***O`zMU magistranti***

**Annotatsiya:** ushbu maqola Ulug`bek Hamdam asarlarida ruhiy holat ifodalanishining lisoniy tahlili qisqacha berilgan.Maqolada til va tafakkurning o`zaro munosabati, bu aloqadorlikning badiiy asar nutqida ifodaetilishi, unda til birliklarining aktuallashuviga sabab tug`diruvchi omillar to`g`risida so`z yuritiladi.

**Abstract:** this article gives a brief linguistic analysis of the expression of mood in the works of Ulugbek Hamdam. The article discusses the relationship between language and thought,the expression of this connection in the speech of the work of art, in which the factors that lead to the actualization of language units

**Аннотация:** в статье дается краткий лингвистический анализ выражения настроения в творчестве Улугбека Хамдама.В статье рассматривается взаимосвязь языка и мысли, выражение этой связи в речи художественного произведения, в котором указаны факторы, приводящие к актуализации языковых единиц.

***Kalit so`zlar****: til va ruhiyat, antroposentrik tilshunoslik, psixolingvistika, hissiy ifoda, assotsiativ so`z,*

***Key words:*** *language and psyche, anthropocentric linguistics, psycholinguistics,emotional expression, associative speech.*

***Ключевые слова:*** *язык и психика, антропоцентрическая лингвистика, психолингвистика, эмоциональное выражение, ассоциативная речь.*

Badiiy matnni lingvopoetik jihatdan tadqiq etgan M. Yo`ldoshev o`z ilmiy ishida Prof. N. Mahmudovning quyidagi fikrlarini keltiradi: “Tilni faqat va faqat kishilar o`rtasidagi aloqa vositasi sifati talqin etish insonning tabiiytilini, bu murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo`nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo`lgan sun`iy tilga (masalan, Esperanto kabi) tenglashtirishdan,yo`l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli “tilga” baravarlashtirishdan boshqa narsaemas. Xolbuki, odamlar til vositasida tuyg`u va kechinmalari, hayrat va hayronliklari, qalbdagihuzurlari kabi xilma-xil sezgilarni ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativmaqsadlarni ko`zda tutmaydi”. [Yo`ldoshev M.M.: Filol. fan. d-ri…dis…-Toshklent: O`zRFA TAI, 2009. 104b]

Zamonaviy o`zbek tili eksprissiv bo`yoqdor so`zlarga boy bo`lib, fikrni berishda jimjimadorlikka erishish mumkin. Eksprissiv va jimjimador so`zlarning borligi esa uni ifodalovchi shaxs ruhiyatining o`z-o`zidan ochilishiga yordam beradi. O`z asarlarida shaxs ruhiy holatini juda katta mahorat bilan tasvirlagan ijodkorlardan biri Ulug`bek Hamdamdir. Ulug`bek Hamdam asarlarida zamonamiz kishilarining ma’naviy-axloqiy qarashlari, inson va uning taqdiriga bo`lgan munosabatlar, shaxsning ichki ruhiyatining tasvirlanishi psixolingvistik nuqtai nazardan ham ahamiyatlidir.

D.Xudoyberganovaning “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli monografiyasinining 3-bobi “O`zbek tilidagi matnlarining psixolingvistik xususiyatlari”ga bag`ishlangan bo`lib, matnning psixolingvistik tahlili ma’lum bir me’yorda ifodalangan. Monografiyada matnda hissiy ifodalarning ifodalanishi, perifrastik birliklarning qo`llanishi va assotsiativ so`zlar haqidagi fikrlar diqqatga sazovar. Monografiyada hissiy ifodaning ikki usul vositasida yuzaga keltirilishi haqida ma’lumot beriladi (D.Xudoyberganovaning “Matnning antroposentrik tadqiqi”monografiya.V.P.Belyanin fikrlari asosida.) Bular:

1) asar personajlarining kechinmalari uning nutqidan anglashiladi;

2) personaj kechinmalari asar muallifining nutqi vositasida anglashiladi. (Misol,

D. Xudoyberganova. Matnning antroposentrik tadqiqi. T.: Fan, 2013. 63b.

Ulug`bek Hamdam asarlaridan.)

1) asar personajlarining kechinmalari uning nutqidan anglashiladi: *-Siz mendan o`ch oldingiz, Manzura,…-axir, siz qilgan ish hazil emas,men bilan maslahatlashsangiz bo`lardi. Meni odam o`rnida ko`rmay… Bilmadim, qay tarzda qo`l qo`ydirgansizlar.Nahotki shunga botindingiz?Nahotki, shundan keyin ham mening qarshimda o`tirishga, ko`zimga tik qarashga*

*jur'at qilyapsiz? Qayoqqa ketdi menga bo`lgan mehringiz, ishonchingiz, sadoqatingiz? Axir…("Muvozanat"romani 242-bet)*

2) personaj kechinmalari asar muallifining nutqi vositasida anglashiladi. [Беляинн.В.П. 1985]

*a)* personajning ruhiy holati muallif tomonida bevosita bayon qilinadi: *Yusuf qiynalib bo`lsa ham birinchi qadamni qo`ygandi va ko`nglida o`zidan mamnunlik, qoniqish hislarini sezardi. Albatta, bu unga Mirazim oldida o`zini gunohkor deb his etmasligi uchun yetarli emasdi, lekin Yusuf o`z aybini yuvish yo`lida nimadir qila oldiku. Yuva olmagan taqdirda ham chek qo`ya bildiku!..*

*Demak, u atrofdagi talato`plar bois boy bergan o`z muvozanatiniqaytadan qo`lga kiritishga umid bog`lashi mumkin. Yusuf negadir o`zinikatta bir kuchga qo`shilayotgandek, o`zini ko`pchilik bilan birga his qildi. Holbuki, so`qqabosh edi, yolg`iz yashardi…*[2]

b) personajning jismoniy hatti-harakatini ifodalash orqali ruhiy holatni bayon qilish: *Qor yoqqandan- yog`ar, deraza oldida turgan bola -- Yusufning quvonchi ichiga sig`may* ***tipirchilar****, onasidan qachon tong otishini tinimsiz so`rar va Halima ayaning javobidan qanoatlanmay, taburetka ustiga chiqib olib, quyosh chiqadigan – Ulug`tog` tomonga javdiragani-javdiraganedi. ("Muvozanat" 4-bet) Bu matndagi* ***tipirchilar****,* ***javdiragani-javdiragan*** *fe`llari emotsiyalarning tovushdagi ifodalanishasosidamuallif personaj ruhiy holatini bermoqda* [U.Hamdam. T.:2007, 4,242-bet]

c) tabiat tasvirini berish orqali personaj ruhiy holati bayonini berish: *Bahor.Kunlar iliq, esayotgan shabadalar iliq.Shunday bir illiqlikki, o`sib-unmoqqa, kulib-yayramoqqa undaydi. Ayniqsa,aprelda, daraxtlar rango rang: yashil, oq, pushti, binafshatus …libos kiyganda. U guldan-bu gulga asalarilar g`ong`illashibuchib yurganda, atrofni muattar bo`y, xushmanzara bosib ketganda. Butun olamda ulug`vor ko`tarilish, hayot deb atalmish ma'noni o`zida jamlab, yangi kuch, yangi g`ayrat, yangi umid va yangi hayajonlar bilan oldinga talpinish yuz berganda… Zahroning qalbida ham ana shunday ko`tarinki tuyg`ular junbishi tinmaydi…* Inson ichki ruhiyatini aks ettirishda ruhiy holat ifodalovchi fe`llar o`ziga xos o`rin tutadi.Ruhiy holatni aks ettiruvchife`llarning quyidagi turlarini farqlaydi.

1) nutqiy muloqot jarayonida so`zlovchining ruhiy holatiniberuvchi fe`llar;

2) emotsiyalarning tovushdagi ifodalanishi asosidagi fe`llar. Bu kabife`llarni badiiy asarlarda , jumladan Ulug`bek Hamdamasarlarida ham uchratish mumkin. Masalan, *Yusufning hafsalasi pir bo`lganidek bir zum* ***kalovlanib*** *turdi-da, so`ng yana qor kechishda davom etdi. ("Muvozanat" 5-bet) A'zam aka bilinar-bilinar****qizarib****,o`tirgan o`rnidan bir qimirlabolgancha yana nimadir demoqchi bo`luvdi, Muhammadjon aka "Keyin" degandek qo`l ishorasi qildi.* Bu matnlardagi ***kalovlanib, qizarib*** fe`llari so`zlovchi emotsiyasining tovushdagi ifodalanishi.Bu fe`llar vositasida personaj ruhiy holati haqida ma`lumot berilyapti.

O`zbek tilidagi tovushga hamda holatga taqlid so`zlar asosida yuzaga kelganayrim fe`llar ham inson ruhiy holatini ifoda etish uchun xizmat qiladi.

*Muhammadjon aka uyda doimo bo`yniga dumaloqlab tashlab yuradigan durrasi uchi bilan ko`zlarini tezgina artib olib, yana maromdagi ohangga ko`chdi, -- men o`lgandan keyin … -- endi davradagilarning yuragi* ***shuvillab*** *ketdi, chog`i, hamma sarosima ichida bir-birlariga qarab chiqdi, -- men o`lgandan keyin mana shu hovli-joyim farzandlarimga qoladi!.. ("Muvozanat"14-bet)*Bunda ***shuv-shuv***tovushga taqlid so`zdan***shuvillamoq*** fe`li hosilbo`lib, matnda insonda kutilmagan kayfiyatnig paydo bo`lishi, vasvasaga tushib qolishi holati aks etmoqda.Yoki :

*O`chir! -- u qo`lini musht qilib shunday* ***dag`daga*** *qildiki, o`rnidan turib, og`zidan ko`pigi sachrab akillay boshlagan A'zam akaning tizzasiga* ***qaltiroq*** *kirib, qanday bukilganini va joyiga chirib tushgan olmadek* ***"po`killab"*** *tushganini bilmay ham qoldi.—Muhammadjon aka vajohatli nigohiniyana bir muddat unio`chib* ***shalvirab*** *qolgan qaynog`asi A'zam akaga tikib turdi-da , so`ng hovuri birpas chiqqach o`g`liga qarab, -- davom et, bolam, - deya o`rniga cho`karkan, chap ko`ksini ushlab qo`ydi… ("Muvozanat" 17-bet*)

Ushbu matnlarda ham holatga taqlid so`zdan yasalgan fe`l orqali insonning ichki ruhiy holatiochib berilgan.

Yuqoridagi matnlarda keltirilgan fe`llarda aks etgan harakatning tovushlar vaholat bilan bog`langan holda yuz berishi va taqlid so`zlarning ishtiroki inson ichki olamini yorqinroq yuzaga chiqarishga yordambergan.

Badiiy matnni o`qish jarayonida o`quvchichining ruhiyatida muayyan psixologik holatni yuzaga keltirishda assotsiativ so`zlarning ham o`ziga xos o`rni bor. Psixologik jihatdan o`zaro aloqador bo`lgan so`zlar assotsiativ so`zlar deyiladi.Assotsiativ so`zlarning matnda mahorat bilan qo`llanilishi o`quvchining ushbu asar ruhiyatini to`la anglab olishini ta'minlaydi.

Ulug`bek Hamdam asarlarida ham personajlar ruhiy holatini ochib berishda assotsiativ so`zlarda unumli foydalanilgan:

*A.ning **o'pkasi to'ldi**, ich-ichidan alamli **xo'rsiniq** otilib chiqdiyu zum o'tmay unsiz **yig'iga**, yig'i esa zo'r **ichikishga** aylandi... («Unutilgan nay navosi» tush-hikoyasi.)**o'pkasi to'ldi, xo'rsiniq, yig'iga, ichikishga*** assotsiativ so`zlari personaj ruhiy holatini ochib berilgan. O`quvchi asarni o`qish jaroyonida ushbu assotsiativ so`zlar ta'sirida personaj ruhiy holati bilan bir xil kayfiyatni his qiladi.

***Ummon** vazmin chayqaladi. Cheksiz masofalar o'z qa'riga sir yashirgan yanglig' uzangan: ular bir vaqtning o'zida ham o'z bag'riga chorlaydi, ham o'zidan itaradi. Hozir esa **suv** yuzasini qalin **oqish tuman** qoplagani bois **qayiqdan** turib qaralganda burun ostinigina ko'z ilg'aydi: ikki quloch narida nima bor, koshki bilib bo'lsa... **Qayiqichibaliqlar**ga liq to'lgan esa-da, baliqchilar **to'rlarini** yana **suvga** tashlagan ko'yi tek qotishgan. («Safar» hikoya. Ulug'bek Hamdam)*

Yuqoridagi matndan ko`rinadinadiki, uning tarkibida qo`llangan *ummon, suv, oqish tuman, qayiq, baliq, to`r* so`zlari dengiz tasvirini ifodalash bilan birgalikda o`quvchining hayolida ham go`zal tabiat tasvirini paydo qiladi. O`quvchi hikoyani o`qish barobarida o`zinini ummon bag`rida ham tasavvur qiladi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, Ulug`bek Hamdam asarlarida inson ruhiy holatini chizishda hissiy ifodalarning ifodalanishi ko`pgina holatlarda muallif nutqi vositasida berilgan. Ruhiy holat fe`llari, perifrastik va assotsiativ so`zlarning qo`llanishi kammmunikativ aktning to`la yuzaga chiqishiga yordam bergan. Ulug`bek Hamdamning xoh kichik hikoyasini, xoh she'riy matnini yoki romanlarini olmaylik, ularda obrazlarning ruhiy holati lingvistik vositalar yordamida mahorat bilan ochib berilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo`ldoshev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri…dis…-Toshklent: O`zRFA TAI, 2009. 164b.

2.Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Toshkent, 2013.

3. Белянин.В.П. Психолингвистические аспектыхудожественного текста. Моногрфия. М.:1985

4. Белинский В. Г. Собрание сочинений в 3-ч томах, т. 3, -М., 1989.-С. 802-803.

5. Azimova .I.A. O`zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertsepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. –T.:O`zMU, 2008

6. U.Hamdam. Muvozanat. "Sharq", T.:2007

7. Hamdam U. Hikoyalar.

## O'ZBEK SHE'RIY MATNLARIDA "VATAN" KONSEPTI. HOMELAND ABSTRACT IN UZBEK POETIC TEXTS

**M.Xolmo'minova**

***O'zMU magistranti***

**Abstract:** ushbu maqolakonsepttushunchasi, "Vatan" konseptining mohiyati hamda uning o'zbek she'riy matnlaridagi o'rni haqida qisqacha bayon qiladi.

**Abstract:** this article gives an account of the term "concept", the essence of notion "motherland" and its place in uzbek poetry briefly.

**Аннотатсия**. в статье кратко описывается понятие концепта, суть концепта «Ватан»(Родина) и его место в узбекских поэтических текстах.

***Kalit so‘zlar:*** *lingvokulturologiya, konsept, tilvamadaniyat, she’riyat, komponent-semantikmetod.*

***Key words:*** *linguistic culturology, concept, language and culture, poetry, component-semantic method*

***Ключевые слова:*** *Лингвокультурология, концепт, язык и культура, поэзия, компонентно-семантический метод.*

Bugungi kunga kelib ilm-fan doirasida ham yangidan-yangi yo‘nalish hamda sohalar paydo bo‘lmoqda. O‘tgan asrning 90-yillarida alohida fan sifatida shakllangan “lingvokulturologiya” ham shular jumlasidandir. O‘z nomidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ushbu soha til va madaniyat kesishgan nuqtada paydo bo‘lgan. O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarida ham fan dasturlariga kiritilgan ushbu fan talabalarga turli xil madaniy tushunchalarni lingvistik nuqta’I nazardan o‘rganish imkonini beradi.

Nafaqat boshqa millat vakillarining, balki o‘z madaniyatimizning ham biz bilmagan juda ko‘plab qirralari mavjudki, buni o‘rganmasdan oldin tasavvur qilish qiyin. Hattoki biz yetarlicha ma’lumotga egamiz deb hisoblovchi madaniy aspektlarning ham bizga noma’lum qirralarini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Konsept” tushunchasini mana shu qatorga kiritish mumkin. Bugunga qadar turli millat vakillari, shular qatori o‘zbek olimlari ham konsept tushunchasi ustida qator ilmiy izlanishlar olib borishgan.

*Konsept* lotin tilidagi conceptus – “tushuncha” so‘zining kalkasidir. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba’zan unga ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi.

Barcha ilmiy atamalar qatori, konsept ham nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilgan va o‘rganib kelinmoqda. Yuqoridagi ta’rif lingvistik jihatdan, ya’ni so‘zning lug‘aviy ma’nosiga asoslanib berilgan, bo‘lsa, boshqa izlanishlarda uning amaliy tomoniga e’tibor qaratilib, ma’lum bir so‘zlar bilan yoritib beriladi, malasan, non, tuz, va hakazo. Nazariyalar bir-birini inkoretmagan holda, bir-biridan farq qiladi. Hatto ba’zi hollarda “konsept” va “tushuncha” atamalari aynan bitta ma’noni anglatishi aytiladi. Biroq professor O‘tkir Yusupov fikri bilan aytganda : “ Konsept bilan tushunchani aysbergga o‘xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo‘lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir ”. Ko‘rib turganingizdek konsept biz o‘ylaganimizdan ko‘ra ancha keng mazmun-mohiyatga ega. Ushbu fikrlarni umumlashtirib quyidagi fikrlarni aytishmumkin: “1. Konsept – bu ongda “nimanidir” bir lahzada chaqnashi. 2. Konsept – bu har bir elementi abstractsiyaning yuqori darajasiga intiluvchi irearxik tashkil qilingan struktura. 3. Konsept – bu yagona butunlik bo‘lib, u elementlari o‘zaro bog‘langan va o‘zaro harakatda bo‘lgan maydon tushunchasi bilan bog‘lanadi. 4. Konsept – bu so‘zlarning predmet yoki tushuncha sohasiga taalluqli ekanligiga qarab guruhlanishi. 6. Konsept –bu operativ mazmuniy xotira, mental leksikon, konseptual Sistema va ong tili birligidir.” Yuqoridagi har bir fikr o‘z kuchiga ega ekanligini ma’lum bir misollar bilan tushuntirishga harakat qilsak. Fikrlar isboti uchun ayni bir misol sifatida “Vatan” tushunchasiga murojaat qilamiz. Umuman “Vatan” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima ekanligini aniqlab olamiz:

Vatan – (a.Tugilib o‘sgan joy, yurt) – 1. Kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i; yurt, diyor;2. Kishining tug‘ilib o‘sgan va o‘zi uning fuqarosi hisoblangan mamlakat; 3. Turar joy, boshpana, maskan, uy; 4. o‘simlik va shu kabilarning asli kelib chiqqan yerini bildiradi.

Ko‘rsatib o‘tilganlarning barchasi so‘zning lug‘aviy ma’nolari hisoblanadi. Biroq yuqorida aytib o‘tilganidek konsept tushunchas iboshqa ma’nolarni ham kasb etishi mumkin. Shuni ham eslatib o‘tish joizki, yagona so‘z turli millat yoki turli madaniyat vakillari o‘rtasida turlicha ahamiyat kasb etadi

Har ikki tilning izohli lug‘atida“ Vatan” so‘zi deyarli bir xil mazmunga ega. Lekin ushbu madaniyatga mansub vakillar nazdidat urli xil konseptlar shakllangan. Umumiy mazmun-

mohiyatiga koʻra, ular “vatan” deganda turlicha tushunchalarga, dunyoqarashga ega hisoblanadi. Albatta, bubilan biz, oʻzga millat vakillari uchun vatan ikkinchi darajali tushuncha, muqaddas hisoblanmaydi va yoxud ular uchun vatan tuygʻusi begona degan qarashni berishdan yiroqmiz. Lekin oʻzbek millati uchun ushbu soʻzning qadr-qimmat iboshqalarnikidan koʻra ancha kuchliroq ekanligini ta’kidlamoqchimiz. Buning isboti sifatida esa, badiiy adabiyotga murojaat etish maqsadga muvofiq. Badiiy adabiyot, ayniqsa, she’riyat olamida har birs oʻz, harbir tushuncha, mavzumiz doirasid aaytganda, har bir konsept oʻziga xos yoʻsinda ochib beriladi:

….shuni oʻylab vujudini, Quchar armon titrogʻi.

Qanday buyuk kuchdir axir, Ona Vatan tuprogʻi.

Ushbu she’riy parcha Xurshid Davronning vatan haqidagi rivoyatidan keltirilgan eng soʻnggit oʻrtlikdir. Juda qisqa, judajoʻn, tushuntirishlar, harxil izohu tavsiflarga hojat yoʻq. Vatanning naqadar muqaddas ekanligini ta’riflash uchun uning hatto tuprogʻi ham buyuk kuchga eg aekanligini aytish orqali shoir oʻz nazdida, qolaversa, butun xalq uchun ona vatanning aynan nima ekanligini ifodalashga muvaffaq boʻlgan. Mana shu jihatdan badiiy adabiyot oddiy soʻzning mazmun-mohiyatini ochib berishda katta ahamiyat kasb eta oladi.

Bundan tashqari, component-semantik metod deb ataluvchi tahlil usuli boʻlib, unda tushunchaning – konseptning mohiyati ushbu soʻz oʻrnida yoki ushbu soʻz bilan birga qoʻllanuvchi lingvistik birliklar orqali anglatiladi. Bunday holat umumiy mazmunning kitobxonning tasavvurida kengroq gavdalanish imkonini beradi. Ushbu tahlil uchun boshqa bir she’riy asar parchasiga murojaat etsak:

Men nechun sevaman, Oʻzbekistonni?!Tuprogʻin koʻzimga aylab toʻtiyo.

Nechun vatan deya, yer-u osmonni, Muqaddas atayman, atayman tanho?!

Qisqagina tahlil natjiasida koʻrishimiz mumkinki, soʻz qudratini boshqa uslublarga nisbatan kengroq tavsiflab bera oladigan badiiy uslub, uning bir qismi hisoblangan she’riyatda, har bi rkonsep toʻziga xos usullarda namoyon boʻla oladi. Konsept tushunchasining madaniyligi ham aynan badiiy matn bilan bogʻliq boʻlib, badiiy adabiyot xalq, millat madaniyatini aniqroq ochib bera oladi. Ushbu atama yuzasidan bugungacha aniq xulosa va dalillar keltirib oʻtlmagan boʻlsa-da, aytish mumkinki, konsept milliy madaniyat bilan bogʻliq boʻlib, uning ma’lum bir tushuncha insonlar ongida qanday shaklga egaligining oʻziga xos koʻrinishi ekanligini rad eta olmaymiz. Yana shuni qoʻshimcha qilish oʻrinliki, ayn itushuncha, xususan, “Vatan” konsepti oʻzbek millati nazarida qanday boʻyoqqa egaligi badiiya dabiyotda, aynan she’riyatda aniq, tushunarli vata’sirchan ifodalar orqali beriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Abdulla Oripov. Mittiyulduz. “Ma’naviyat”. Toshkent – 2002
2. Longman dictionary of contemporary English. New edition.
3. Muhamedova S., Saparniyozova M. Matnlingvistikasi. Toshkent – 2011.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. “Oʻzbekiston Milliy Ensiklopedoyasi” davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent 2006-2008
5. UsmanovaSh.”Lingvokulturologiya” ma’ruzalarkursi. “Universitet”. Toshkent- 2014
6. Xurshid Davron. Bahordanbirkunoldin. “Sharq” nashriyoti. Toshkent – 1997.


## ДАВРИЙ НАШРЛАР ТИЛ ТАРАҚҚИЁТИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ОМИЛ
## PERIODIC PUBLICATIONS ARE A FACTOR FOR LANGUAGE DEVELOPMENT


**Н. Ҳамраев**



**Аннотация :** мақолада турли даврий нашрлардаги тил тараққиётига оид фикр-мулоҳазалар таҳлил қилинган. Ўзбек даврий матбуотда тил масалаларига бағишланган мақолаларнинг тўрт босқичи, ёзувнинг тилга таъсири, лотин ва кирилл алифболари, уларнинг афзаллиги ва фарқли жиҳатлари тадқиқ этилган.



***Калит сўзлар:*** *тил, ёзув, матбуот, оммавий нашр, даврий нашрлар, тил тараққиёти, тининг аҳамияти, имкониятлари, алифбо, ҳарфлар*

**Abstract:** the article analyzes the views on language development in various periodicals. The Uzbek periodicals examine the four stages of articles on language issues, the influence of writing on language, the Latin and Cyrillic alphabets, their advantages and differences.

***Keywords:*** *language, writing, press, mass publication, periodicals, language development, importance of tin, possibilities, alphabet, letters*.

Инсоният ҳаётида матбуот доим муҳим ўрин тутиб келган. Ривожланиш босқичидан ўтаётган ҳар қандай жамиятда ҳар қандай ижтимоий-сиёсий ҳаракат матбуотсиз, газета ва журналларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Даврий нашрлар ўзининг ҳар битта соҳага таъсир ўтказа олиш хусусияти билан аҳамиятли: «Маълумки, матбуот ижтимоий ҳаётни акс эттириш кўринишларидан бири, реал воқеликни билиш, тадқиқ этиш ҳамда унга таъсир кўрсатишнинг муҳим воситасидир». *[1.М.Худойқулов 2005 14-бет]* Таъсир қилиш мобайнида у ўша соҳанинг камчилик-ютуқларини, келажак ва ўтмишини рўй-рост айта олмои керак. Она тили ҳар бир давлатнинг энг муҳим бойлиги, урури, фахри ҳисобланади. Унга қандай ,муносабатда бўлинса бу ўша халққа қилинган муносабат бўлади. бекорга халқ орасида «Тилга ихтиёрсиз элга- эътиборсиз» дейилмаган. Шу боисдан ҳам азалдан олимларимиз ва тил учун қаюрадиган ҳар қандай инон фикрларини мақола шаклига келтирган ва рўзномалар орқали халққа етказган. Даврий матбуот орқали эълон қилинажак мақолаларни уч босқичга бўлиш мумкин:

1. жадид даври матбуотида тил масаласининг ёритилиши.
2. мустақилликкача бўлган давр матбуотида тил масаласининг ёритилиши.
3. мустақилликнинг дастлабки йиллари матбуотида тил масаласининг ёритилиши.
4. ҳозирги давр матбуотида тил масаласининг ёритилиши.

Чунончи, «Маориф ва ўқитувчи» журналида чиққан бир мақолада бу ҳақда шундай дейилади: «Нима учун арабдан лотинга ўтиш керак?» Шу сўроққа қисқа қилиб шундай жавоб берамиз:

Араб алифбоси турк тилидаги товушларнинг шаклини тамомила бера олмайдир.

Араб алифбоси техника томонидан лотиндан қуйида турадир. Арабда нуқталар, аломатлар, бош, ўрта ва сўнгги ҳарфлар бордир. Лотин эса булардан узоқдир.

Араб алифбоси ўқитиш, ўрганиш ишида лотиндан ортда турони, техника томонининг бузуқлиги устига стенография, телеграфия ишида ҳам тўсқинлик қиладир» *[2.Инъомов Р. 1926, 3-сон. 5- б]*.

Бундан шу кўриниб турибдики, тилшуносликдаги қарама-қаршиликлар, маълум қарорни қабул қилиш ёки қилинмасликка доир қарашларни-да ёритиб борган рўзномалар, албатта, тил хусусидаги муҳим давлат қарорларини ҳам чоп этаверган. 1922- йилнинг 29—31- ноябрида Самарқандда тил мутахассислари ва ўзбекшунослар кенгаши ўтказилади. Унда ёзувга оид қуйидаги қарор қабул қилинади: «Бугун ишлатилмоқда бўлган имломизнинг етишмасликларига қарамасдан айтиш мумкинки, кўп имлолардан мукаммалдир ... шунинг учун-да бошқадан бир лотин ҳарф ва имлоси масаласини кўтариш ортиқчадир» *[3.«Маориф ва ўқитувчи» журнали, 1925, 9-10-сон, 121-б.]*.

«Бутун турк оламининг кўпчилиги томонидан араб ҳарфлари асрлардан бери ишлатилиб келиб, туркларнинг аксариятининг тарих ва адабиёт билан боғланганлигини эътиборга олиб, биз, турклар учун араб ҳарфларини олишни мувофиқ топамиз» *[4.«Маориф ва ўқитувчи» журнали, 1925, 11-12- сон, 141 —143- б]*.1938- йилнинг 9- декабрида лотин графикаси асосидаги ўзбек алифбоси ва имлосининг юқоридаги ишчи гуруҳ томонидан тайёрланган янги лойиҳаси муҳокама учун матбуотда эълон қилинади. *[5.«Ўқитувчилат газетаси», 1938-йил, 9-декабрь]*.

Журналлар ҳақида сўз кетганда «Ойна», «Чаён», «Ҳуррият» кабилар матбуотнинг дастлабки ривожланиш йилларида Туркистон халқлари маънавий тарихида, шунингдек, туркий тил тараққиётида оят катта ўрин эгаллаган нашрларни эслаш ўринли. 1917- йил октябр ўзгаришидан сўнг Ўзбекистонда «Инқилоб», «Ер юзи», «Муштум» ва бошқа кўплаб журналлар нашр этила бошланди. «Ойна» журнали, «1913 йил, 1-сонида яна бир тараққийпарвар адиб Мунавварқори Абдурашидхонов Икки эмас, тўрт тил лозим» мақоласи

орқали ўз она тили қаторида бошқа тилларни ҳам ўрганиш кераклиги, шунингдек, тил билган кишилар шу тилдаги асарларни таржима қилиб тил кўламдорлигини ошириш лозимлигини уқтирмоқчи бўлади: «Форсий билган киши Фирдавсий, Бедил, Саъдий, Маснавийдан қандай лаззат олса, туркий билганлар Фузулий, Навоий, Боқий, Сомий, Абдулҳақ Ҳомид, Акрамбек, Санойи, Нобий, Ножийлардан, яна Толстой, Жул Верн ва уларнинф замонавий асарини туркий таржимасидан лаззат шундай оладур». *[6. А. Ҳожиев 2006.51-56 бет]*

Тил грамматикасининг яратилиши мураккаб жараён. Бу жараёнда эса кўплаб мулоҳазалар ўз тастиини топади ёки йўқликка маҳкум бўлади. Ундан аввал эса матбуотда эълон қилиниб бошқа мутахассислар ҳамда оддий ўқувчилар томонидан ўқилиб, муҳокама қилиниши мумкин. Шунингдек, грамматиканинг кўплаб муаммоларини ёритишни ўз олдига мақсад қилиб олган мақолалар газета ва журналларнинг деярли ҳар бир сонидн ўрин эгаллайдиган бўлди ва ҳатто тил масалаларига баишланган алоҳида «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали ҳам нашр этила бошланди. Ушбу журнал ўзбек тили тараққиётида муҳим ўринга эга нашр ҳисобланади. Журналда эса М.Асқарова мақолалари салмоқли ўрин эгаллайди. Олима журналнинг деярли ҳар бир сонида ўз мулоҳазалари билан ўртоқлашиб бораверган. Масалан, «*Бўл* сўзининг айрим хусусиятлари ҳақида». *[7.М.А.Асқарова. 1962й],* «Боғловчи-юкламалар ҳақида», *[8.М.А.Асқарова. 1962й4 сон]*, Усмонов С. «Антонимлар» *[9. С. Усмонов 1958, 2-сон,38- б],* «Фразеологик бирликларда маъно ва қурилиш номутаносиблиги» *[10. С. Усмонова 1998, 1- сон, 77—78- б.]* Искандарова Ш. «Ономасиология муаммолари ва ўзбек тили лексикасини майдон сифатида ўрганиш» *[11. Ш. Искандарова 1998, 3-сон, 28—31-б.],* Назаров К. «Алифбо ҳам миллий бўлсин» *[12.К.Назаров 1990, 9-ноябрь сони]* каби мақолалар жуда аҳамиятли. 50-90- йилларда тилга доир мақолалар тил тараққиёти учун жуда катта аҳамият касб этади, аммо, мақоллаларнинг эълон қилиниш даври мустамлакачилик даврига тўри келгани боис грамматикамиз руслашиб кетишига олиб келди. Мамлакат мустақилликка эришганидан сўнггина ушбу хатони торилашга бир мунча уринилди.

Ҳозирги давр тилшунослигининг матбуотда ёритилиши юқорида санаб ўтилган даврларникидан кўп фарқ қилмайди. Гўё аввалги муаммолр ҳали ҳал қилинмагандек, ёки айнан шундай. Масалан, биз ҳозиргача лотин ёзувига тўлиқ ўтмадик. Даврий нашрларнинг тили ҳам бунга ҳали тўлиқ тайёрмас, қайсидир газета ёки журнал лотин ёзувида иш юритса, яна қайсинисидир кириллда юритаверади. Бугунги кун нашрларидан тил тараққиёти учун муносиб ҳисса қўшаётган газета ва журналлардан «Тил ва адабиёт таълими» журнали, «Шарқ юлдузи», «Маърифат», «Ҳуррият» кабиларни санаш мумкин. Чунки уларнинг ҳеч бири тил масаласига бефарқ бўлмай, унга доир мақолаларни чоп этиб боради. Мисол учун «Халқ» сўзи газетасининг 2019-йил 22- октябрь сонида «Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли» мавзули Президент Шавкат Миромоновичнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига баишланган тантанали маросимидаги нутқи чоп этилди. Газетанинг худди шу сонида «Тил миллатнинг руҳи, жонидир» номли мақола ва «Номлар тил меъёрларига мос бўлсин» номли мақола Д.Лутфуллаева ҳамда М.Спарниязовалар ҳаммуаллифлигида берилди. Тан олиб айтиш керакки, ҳозирги давр матбуотида, шунингдек, интернет нашрларида кўпроқ тилимизни ёт сўзлардан ҳимоя қилиш, она тили фанининг самарадорлигини ошириш борасидаги мақолалар кўплаб учрайди. Филология фанлари доктори, профессор Б.Менглиевнинг «Она тилимиз»ни тилшунослик исканжасидан қутқарайлик номли мақоласини ҳақиқий портлаш деб аташ мумкин. Чунки, аслида ҳам сўнгги пайтларда биз тилимизни керагидан ортиқ ялтироқ қоозга ўрашга ҳаракат қилмайлик ундаги доларни яширишнинг имкони бўлмаяпти. Муаллиф бу борада шундай дейди: Ҳаммамиз мактабда физика, кимё, математика предметларини ўқиганмиз. Улардан қойиллатиб беш баҳо олганмиз. Бундай мақолаларнинг нашрларда бериб борилиши тилимизнинг тараққиёти учун хисса қўшмасдан қолмайди, албатта. Ачинарли жиҳати шундаки, газета ва журналларни фақат 21- октаабр «Тил байрами» арафасидаги чиқаришади кўп ҳолларда. Аслини олганда бу мавзуни кечиктиришнинг сира кераги йўқ. чунки тил

муттасил, билинар-билинмас ўзгаришга учрайди. Янги ўзгаришга учраган тилда эса муаммолар бўлиши табиий ҳол.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, ўзбек тилининг она тили ва давлат тили сифатидаги ўрни, нуфузи, мавқеига доир муҳим масалалар газета, журналлар саҳифаларида ўз ифодасини топади. Шундай экан, матбуот тил тараққиёти учун курашнинг энг олдинги сафларида бўлмоғи даркор.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. Инъомов Р. Лотин алифбоси учун кураш//«Маориф ва Оқитувчи» журнали, 1926, 3-сон. 5- б.
2. Ҳожиев А. Назарий тилшуносликка оид бир масала /«Филология масалалари». Илмий-методик журнал. Тошкент: 2006. 51-56-6.
3. М.А.Асқарова. Бўл сўзининг айрим хусусиятлари ҳақида (Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, Тошкент, 1962
4. М.А.Асқарова. Боғловчи-юкламалар ҳақида . Ўзбек тили ва адабиёти масалалари журнали 4, 1962
5. М.А.Асқарова Қўшма гапнинг кўчирма гапли тури ҳақида “Ўзбек тили ва адабиёти масалалари журнали 4, 1962
6. М.А.Асқарова боловчисиз боланган қўшма гаплар “Совет мактаби«$1» журнали, 11, 1959
7. Усмонов С. Антонимлар // «Ўзбск тили ва адабиёти масалалари» журн., 1958, 2-сон,
8. Ҳожиев А. Кесими -р экан формасидаги пайт эргаш гапли қўшма гаплар ҳақида.— «Узбек тили ва адабиёти», 1967, 1-сон.
9. Ҳайитметов К. Фразеологик бирликларда сўзлар тартиби масаласига дойр.— «Узбек тили ва адабиёти», 1966, 2-сон.
10. Ҳайитметов К. Гапда сўзларнинг тартибини ўрганиш.— «Совет мактаби», 1966, 9-сон.
11. Ҳайитметов К. Инверсия ҳақида.— «Совет мактаби», 1968, 5-сон.
12. Худойқулов М. Журналистикага кириш. Тошкент, 2000.


## PRAGMALINGVISTIKA VA NUTQIY AKT TUSHUNCHASI
## PRAGMALINGUISTICS AND THE CONCEPT OF SPEECH ACT


**M.Raxmatova,**
***O‘zMU magistranti***



**Annotatsiya:** maqolada psixolingvistikaning paydo bo‘lishi, shakllanishi hamda nutqiy akt tushunchasi haqida so‘z boradi.



***Kalit so‘zlar:*** *Pragmalingvistika, pragma, tabiiy tillar, kommunikativ niyat, nutqiy akt, semantika, sintaktik, semiotika*.



**Abstract:** the article deals with the origin, formation and concept of psycholinguistics.



***Keywords:*** *Pragmalinguistics, pragma, natural languages, communicative intention, speech act, semantics, syntax, semiotics*.


Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashomoqdamiz. Xuddi shu davrda barcha sohalar qatorida ilm-fan sohasida ham katta yutuqlarga erishilmoqda. Fanning yangitarmoqlari, yangi yo‘nalishlari vujudga kelmoqda. Xuddi shunday tarmoqlardan biri – pragmalingvistikadir.

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 60 – 70 yillarida shakllandi. 1970 – yilda Dordrext shahrida “tabiiy tillar pragmatikasi” (Pragmatics of natural lenguags) mavzusida xalqaro konfrensiya bo‘lib o‘tdi. Ushbu anjumanda o‘qilgan ma’ruzalar

to‘plamining muharriri, Tell – Aviv universitetining professori Me. Bar – Hillining “So‘zboshi” da qayd qilishicha, anjuman ishtirokchilari yakdillik bilan “Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning Pragmatik xususiyatlari ushbu muloqatning sintaktik va semantic xususiyatlari kabi lingvistik nazariya doirasida o‘rganilishi lozim”, degan xulosag akelishdi.

Pragmatikaning “qayta tug‘ulish” davri deb e’tirof etilgan, xuddi shu paytdan boshlab xorijiy tilshunoslikda haqiqiy pragmatic ko‘tarilish yuzaga keldi. Bu mavzuga oid qator anjumanlar, yig‘inlar o‘tkazildi, chop qilinayotgan to‘plamlar, ilmiy tadqiqotlarning chegarasi yo‘q, Gurnal of progmatics tom ma’noda xalqaro nashrga aylandi.

Insonning obyektiv olamdagi barcha ijtimoiy xatti – harakatlari uning nutqiy faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun inson nutqini o‘rganish uning ma’naviy olami bilan tanishish imkonini beradi. Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bi rnazariy va amaliy tarmog‘idir. U insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatningta’siribilanaloqadormasalalarnio‘rganadi. “Pragmatikaning **manbasi** Ch.Pers, U.Jems, D.D’yun, Ch. Morris kabi taniqli faylasuf olimlar nomi bilan bog‘liqdir. Chunki ularning ishlarida (XIX asrning oxiri XX asrning boshlari) belgilar sistemasi va lingvistik belgi funksionalligi xususidagi g‘oyala ro‘rtaga tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaktika, semantika va pragmatika o‘rtasidagi o‘zaro farqlar ko‘rsatiladi” .

Pragmatika - grekcha “progmo” so‘zidanolinganbo‘lib, “ish”, “harakat” ma’nolarini beradi. Pragmatika lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo‘llanishini o‘rganadi. Shuning uchun tilshunoslikning bu yo‘nalishi semiotika tarmoqlaridan biri sanaladi. Pragmatika termini XX asrning 30 – yillarida Ch.I.Morres tamonidan ilmiy muomalaga olib kiritilgan. U semyotikani semantika, sintaktika, pragmatika, kabi tarkibiy qismlarga ajratadi. Tilshunoslik dapragmatikaning yangi tadqiqot obyekti sifatida yuzaga kelishi va ajratilishi, yuqorida ta’kidlanganidek, Ch.S. Pirs g‘oyalari, shuningdek, J.R.Osten, J.R.Serlva Z.Venlarning 60 – 70 yillardagi mantiqiy falsify qarashlari asosida yuzaga kelgan nutqiy akt. Polo Greaysning ma’noning pragmarik tahlili va L.Linskiy, J.R.Serl, P.F.Strosonlarning referensiya nazariyalari ta’siri bilan uzviy bog‘liqdir. J.R.Osten, J.R.Serlva Z.Venlarning nutqiy aktnazariyasi ta’limoti ta’sirida lingvistik pragmatic shakllanishi uchun ma’lum asoslar yaratildi. Chunki nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga ko‘ra so‘zlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi. Kommunikativ niyat esa nutqiy aktlarning ko‘rinishlari sifatida nutqda namoyon bo‘ladi. Nutqiy aktlar yig‘indisi nutqning mazmunini tashkil qiladi. So‘zlovchining munosabati esa nutqiy aktlar vositasida shakllanishidan tortib to uning murakkab mazmuniy tuzilishiga qadar bo‘lgan lingvistik xususiyatlari nutqiy akt muammolari sifatida talqin etiladi. Nutqiy akt nazariyasiga xoshar bi rtadqiqiy talqinda nutq subyektining olamni bilish va his qilishdagi tasavvur ko‘rsatkichlarining nutqdagi darajalari hisobga olinadi. Nutqiy akt nazariyasiga xos mana shunday o‘zak tadqiqiy talqin lingvistik pragmatika tarmog‘ining shakllanishi uchun asosiy mezon vazifasini bajaradi. Lingvistik pragmatic anazariyasi xususidagi ma’lumotla rtilshunoslik fanining yangi tarmog‘I sifatida o‘tgan asrning 60 – 70- yillarida boshlangan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishning paydo bo‘lishiga turtki bergan g‘oyalar tarixi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga borib taqaladi. Bu davrda taniqli g‘arb faylasuflarining nazariy qarashlarida semantikaning mohiyati aniqlanadi, semantikaning tarkibiy qismlariga xos differensial belgilari ko‘rsatib o‘tiladi.

Tilshunos olim V.V.Petrovning til haqidagi quyidagi tezisi lingvopragmatikaning boshlang‘ich tadqiqiy chegarasini aniqlash uchun lingvistik asos bo‘ladi. “Inson qaysidir tilga xos sematik bilimlarsiz so‘zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o‘sha tilga xos sematik bilimlar egasi bo‘lishning o‘zi ushbu tilde so‘zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, masalan, musiqalip‘esa mazmunidan ogohlikuning ijrosi uchun yetarli bo‘lmaydi, bunming uchun, eng asosiysi ijro mahorati, layoqati (уменииграть)”ga ega bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, pragmalingvistika tilshunoslikning eng qiziqarli va istiqbolli sohalaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.I.A.Karimov. Yuksakma’naviyatyengilmas kuch.Toshkent.”Ma’naviyat”.2008

2.Me.Bar – Hilli . 1971 –yil V – VI

3. Sh.Safarov. Pragmalingvistka. Monografiya. Toshkent – 2008
4.Петров В.В. Философия, семантика, прагматика Новое в зарубежной лингвистике – 1985 С.471
5.Б.Ю.Норман Лингвистике прагматика. Минск. 2009
6. M. Hakimov. O‘zbekpragmalingvistikasiasoslari. Toshkent. “Akademnashr”.2013

## “O‘TGAN KUNLAR” ASARIDA UCHRAYDIGAN O‘ZBEK TILIDAGI MAISHIY REALIYALAR TAHLILI
## ANALYSIS OF UZBEK LANGUAGE HOUSEHOLD REALITIES IN "PAST DAYS"

**Z.Kasimova,**
***O‘zMU doktoranti***

**Abstract.** this article analyzes the units of household realities, used in the novel of the “Past Days”. Also their Russian translations are compared.

***Key words:*** *realities, equivalents, religious realities, realities representing tradition, realities representing household items, realities representing clothing, realities representing food.*

Realiya madaniyatlar o‘rtasida asosiy farqlarni ko‘rsatadi, shuning uchun ham unga beriladigan ta’riflar turlichadir. Realiyalarda til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi: jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotida yangi realiyalarning paydo bo‘lishi tilda shunga mos so‘zlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Realiyalarni ajratib turuvchi xususiyati ularning predmet-narsa ma’nosiga ega bo‘lganligidandir. Realiyalar biror bir jamoa yoki korxona miqyosi bilan ham chegaralangan bo‘lishi mumkin. Realiya bu moddiy mavjud bo‘lgan yoki hozir ham mavjud predmet-narsadir. Lug‘aviy izohlarga ko‘ra, realiya – “moddiy madaniyat narsalari”dir. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda esa predmetlarni ifoda etuvchi so‘z va iboralar realiyalar deyiladi.

Tilshunoslar “realiyalar” haqida faqatgina XX asrning 50-yillarga kelib milliy o‘ziga xoslikning aniq, sezilarli elementi, kolorit ko‘rsatkichlari sifatida so‘z yurita boshladilar. O‘sha davr lingvistik lug‘atlarda realiyalarning aniq tavsifi yo‘qligining sababi bo‘lsa kerak, deya xulosa chiqarish mumkin.

O.S.Axmanovaning “Словарь лингвистических терминов” kitobida “realiyalar”ga quyidagicha tavsif beriladi:

Realiyalar (lot. realia)

1. Klassik grammatikada mazkur tilda ularni namoyon etish nuqtai nazaridan kelib chiqib, tashqi lingvistika fani o‘rganuvchi mazkur mamlakatning davlat tuzumi, ana shu xalqning tarixi, madaniyati va aynan shu tilda so‘zlashuvchilarning til va aloqalari hamda boshqa turli xil omillar.

2. Mavjud madaniyat predmetlari [Ахманова, 1969: 381].

D.E.Rozental, M.A.Telenkovalarning “Словарь справочник лингвистических терминов: пособие для учителя” nomli kitobida “realiyalar” so‘ziga quyidagicha tavsif keltiriladi:

Realiyalar (o‘rta asrlar lot. realis – moddiy) – so‘zning nominativ ma’nosi uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi, mavjud madaniyat predmetlari [Розенталь, Теленкова, 1985: 362].

Shuningdek, turli tadqiqotchilar boshqa til leksikasidagi ushbu guruhni turlicha tavsiflaydilar. Ko‘pincha adabiyotlarda “ekvivalentsiz leksika” va “ekzotik leksika” yoki “ekzotizmlar” kabi iboralar va ular bilan bir qatorda shu yoki shunga yaqin ma’noga ega bo‘lgan “varvarizmlar”, “lokalizm”, “qusurlar” yoki “lakunalar” (suqutlar – matnda tushib qolgan joylar) uchrab turadi. Ushbu tushunchalarni muayyan milliy, tarixiy, mahalliy, maishiy, ma’naviy o‘zgachalik, tarjima tilida mos so‘zlar (ekvivalenti)ning yo‘qligi birlashtirib turadi.

Realiyalar haqida so‘z yuritgan ko‘pgina mualliflar taxminiy, to‘liq bo‘lmagan, ularning u yoki bu jihatini ko‘rsatib beruvchi ta’rifini keltiradilar.

Masalan, L.N.Sobolevning fikriga ko‘ra, turmushda ekvivalentlarga ega bo‘lmagan maishiy va o‘ziga xos milliy so‘zlar va iboralar, shuningdek, boshqa tillarda mavjud bo‘lmagan milliy

turmush tarzidagi so‘zlar “realiya termini” sifatida keltirilgan, chunki ushbu predmet va hodisalar boshqa mamlakatlarda mavjud emas” [Соболев, 1952: 281].

V.Rossels esa realiyalarda “asar tarjima qilinayotgan tilga ega xalqning turmush tarzida qo‘llanilmaydigan tushunchalar, predmetlar, hodisalarni anglatuvchi xorijiy so‘zlar”ni ko‘radi.

A.V.Fedorov ularni hech bir nom bilan atamay, “ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzi realiyalarini anglatuvchi”, ya’ni “faqatgina mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo‘q bo‘lgan” so‘zlar haqida yozadi [Федоров, 1968: 160].

Yuqorida bayon etilganlardan realiyalar so‘zlashuvning alohida toifasi ekanligi aniq namoyon bo‘lib turibdi.

Realiyalar – bu bir xalq hayotiga (turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy rivojlanishiga) xos va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan obyektlarni anglatuvchi, milliy va tarixiy koloritni yetkazib beruvchi va odatda boshqa tillarda aniq to‘g‘ri keladigan so‘zlar(ekvivalentlar)ga ega bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalaridir.

Badiiy asarlarda realiyalarni ajratish va ularni tarjima qilish yo‘llari masalasi hanuzgacha tarjima nazariyasida eng dolzarb muammolarning biri sifatida qolmoqda. Olamning ilmiy manzarasi haqidagi tadqiqotchilarning fikrlarini qisqacha analitik obzor qilar ekan, O.A.Kornilov ilgari ma’lum ta’riflar asosida o‘z ta’rifini bayon qiladi: “Insoniyat jamiyatining mazkur bosqichidagi barcha alohida fanlari tomonidan ishlab chiqilgan olam haqidagi ilmiy bilimlarning aynan barcha to‘plamini olamning ilmiy manzarasi deb ataymiz” [Корнилов, 2003: 9].

Muayyan xalq turmush tushunchalarini anglatadigan ko‘pchilik xos so‘zlarning ma’nolari va o‘taydigan vazifalari mamlakatlarning o‘zaro madaniy, ma’rifiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillariga, shu jumladan, tarjima tili sohiblariga ham tanish bo‘lib qoladiki, tarjimonlar bunday so‘zlarga o‘z tillarida muqobil lisoniy vositalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yo‘li bilan talqin etaveradilar.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi – asliyatda qo‘llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo‘lmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qo‘yish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir.

Shunday qilib, transliteratsiya xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan xos so‘zlarni tarjimada talqin etishning eng samarali usullaridan bo‘lib, uning yordamida asliyatning milliy xususiyati siqiq holda talqin etiladi.

O‘zbek millati va o‘zbek xalqiga xos, o‘zbek madaniy hayotini ifodalovchi realiyalarning tarjimada rus tilida berilishi haqida so‘z yuritar ekanmiz, shuni ta’kidlash joizki, tarjimonlar ularni ifodalashda tarjimaning transliteratsiya usullaridan keng foydalanadilar. Quyida Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” romanining o‘zbek tilidan rus tiliga qilingan tarjimasini tadqiq qilish asosida aniqlangan bir qator misollarni keltirib o‘tamiz:

Hasanali dasturxon yozib qumg‘on kirgizdi. Odatiy takalluflar bilan dasturxon va choyga qaraldi. Homid nonni shinniga bulg‘ar ekan so‘radi:

- Yoshingiz nechada, bek? [Абдулла Қодирий, 2004: 9]

Хасанали расстелил дастархан и внес кумган. Последовала традиционная церемония ухаживания за гостями. Хамид, обмакивая кусок лепешки в патоку, спросил:

- Сколько вам лет, бек? [Абдулла Кадыри, 2009: 10]

Tarjimaga e’tibor berar ekanmiz, o‘zbek urf-odatiga xos bo‘lgan “dasturxon”, “qumg‘on” so‘zlari hamda “bek” murojaat so‘zi transliteratsiya orqali ifoda qilingan, “non” so‘zi “лепешка” tarzida tarjima qilingan. Ruscha izohli lug‘atda “лепешка” so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:

*ЛЕПЁШКА, -и, ж. 1. Плоское круглое изделие из печеного теста* [Ожегов, 1999: 735].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *non* so‘zi “xamirdan tayyorlanib, tandir, o‘choq, tova va sh.k.da pishiriladigan yegulik” deb izohlangan [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2007: 57].

